

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

FUQAROLIK  
VA  
OILA HUQUQI

*DARSLIK*

TOSHKENT–2022

## UO'K 343125.2 (075.8)(575.1)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan*

### **Mualliflar jamoasi:**

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yu.f.d., prof. O.Oqyulov — I, XI, XII boblar;  
yu.f.d., prof. E.Egamberdiyev, yu.f.d., prof. M.X.Baratov — XIII, XIV, XV boblar;  
yu.f.d., prof. M.X.Baratov — IV bob;  
yu.f.d., prof. O.A.Kamalov, yu.f.d., dos. M.SH. Choriyev — VII bob;  
yu.f.d., prof. A.A.Muxammadiyev — VI bob;  
yu.f.d., dots. N.A.Kuldashev — II, X boblar;  
yu.f.f.d., dots. O.J.Xolmuminov — V, VIII boblar;  
yu.f.f.d., dots. X.M.Qilichev, yu.f.d., prof. O.A.Kamalov — III, IX boblar*

### **Taqrizchilar:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbekistonda demokratik jamiyat  
qurish nazariyasи va amaliyoti kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori **R.J. Ro'ziyev**;  
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi kafedrasi mudiri,  
yuridik fanlar doktori, professor **N.F. Imomov**

**F-40      Fuqarolik va oila huquqi:** Darslik / O.Oqyulov, E.Egamberdiyev,  
M.X.Baratov, N.A.Kuldashev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi  
IIV Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va  
huquq instituti, 2022. – 400 b.

Ushbu darslikda fuqarolik huquqi va uning IIO faoliyatidagi ahamiyati, fuqarolik huquqining  
subyektlari va obyektlari, IIO fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida, bitimlar va vakillik,  
IIO faoliyatida bitim va vakillikning qo'llanilishi, fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati,  
mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish usullari, IIOning mulk huquqi, majburiyat huquqi, IIO  
majburiyat munosabatlarining subyekti sifatida, shartnomma to'g'risida umumiy qoidalar, oldi-sotdi,  
ayirboshlash, hadya shartnomalari, IIO faoliyatida shartnomaviy munosabatlar, mulk ijarasi, qarz va  
kredit shartnomalari, sug'urta va uning IIO faoliyatida tutgan o'rni, zarar yetkazishdan kelib  
chiqadigan majburiyatlar va unda IIOning ishtiroki, intellektual mulk, vorislik huquqi, oila huquqi  
va uning IIO faoliyatida tutgan o'rni, ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish  
va unda IIOning vazifalari, fuqarolik holati dalolatnomalari va ularni qayd etish kabi masalalar  
atroflicha yoritilgan.

IIV Akademiyasining kursant (tinglovchi)lari va professor-o'qituvchilariga, huquqni  
muhofaza qilish idoralarining amaliyotchi xodimlariga hamda fuqarolik huquqi masalalari bilan  
qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K 343125.2 (075.8)(575.1)

© O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022

© O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, 2022

---

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan vaqtidan boshlab, to hozirgi kunga qadar barcha sohalarga xos asirlarga tatigulik muvaffaqiyatlarga erishdi. Jumladan: a) iqtisodiy sohada ma’muriy buyruqbozlik tizimi tugatilib, bozor munosabatlari shakllantirildi; b) siyosiy sohada demokratik xarakterga ega bo‘lgan milliy davlatchilik barpo etildi; v) ma’naviy sohada esa, milliy qadriyatlar tiklandi. Bularning barchasi davlatimiz tomonidan amalga oshirib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijasidir.

Hozirgi davrda mamlakatimiz yangi O‘zbekiston bosqichiga qadam qo‘ydi. Uchinchi renesans davriga tamal toshi qo‘yilmoqda. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularga asoslangan holda barcha sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlar har bir mustaqil huquq sohasiga tegishli bo‘lgan huquq normalarini takomillashtirib borishda muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, fuqarolik huquqini ham.

Mamlakatimiz aholisi turmush farovonligini ta’minlash uchun, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun bozor mexanizmidan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha tizimli tadbirlar amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu jarayonda fuqarolik-huquqiy vositalardan shu jumladan, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish, shartnomalar erkinligi va intizomini ta’minlash, tadbirkorlar huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik muomalasida kriptovaluta, smart kontraktlar, texnologiyalar transferi kabi yangi kategoriyalar kirib kelmoqda va mustahkam o‘rnashib olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sod farmoyishida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishing yangi bosqichi iqtisodiyotni yanada liberallashtirish,

iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk kafolatlarini himoya qilishni kuchaytirish, tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Real bozor iqtisodiyoti va ilg‘or xalqaro standartlar talablariga javob beradigan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan zamonaviy fuqarolik qonunchiligini shakllantirmsandan turib, ushbu vazifalarga erishib bo‘lmaydi.

Fuqarolik va oila qonunchiligining shaklan va mazmunan rivojlanishi mazkur huquq sohalari darsliklarini ham tegishli ravishda yangilab borishni taqozo qiladi.

Huquqshunoslik sohasi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalar har bir huquq sohasini, shu jumladan, fuqarolik va oila huquqi tizimi, predmeti, obyektlari, subyektlari va ushbu huquqiy munosabatlar mazmuni kabi asosiy jihatlarni puxta o‘rganishlari lozim.

Fuqarolik va oila huquqi O‘zbekiston Respublikasining huquqiy fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fundamental, maxsus huquq sohasi bo‘lib, o‘zining normalari bilan shaxslar o‘rtasida kelib chiqadigan mulkiy va shaxsiy nomulkiy hamda shaxsiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib boradi.

Shu ma’noda darslikda fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid masalalar qatori oila huquqini o‘rganish bo‘yicha oila huquqi va uning IIO faoliyatida tutgan o‘rni, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish va unda IIOning vazifalari, fuqarolik holati dalolatnomalari va ularni qayd etish mavzulari ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda Jamoat xavfsizligi universiteti professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan “Fuqarolik va oila huquqi” darsligi kursant (tinglovchi)lar uchun fuqarolik huquqi va uning IIO faoliyatida ahamiyati, fuqarolik huquqining subyektlari va obyektlari, IIO fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida, bitimlar va vakillik, IIO faoliyatida bitim va

vakillikning qo‘llanilishi, fuqarolik huquqida muddatlar va da’vo muddati, mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish usullari, IIOning mulk huquqi, majburiyat huquqi, IIO majburiyat munosabatlarining subyekti sifatida, shartnama to‘g‘risida umumiy qoidalar, oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya shartnomalari, IIO faoliyatida shartnomaviy munosabatlar, mulk ijarasi, qarz va kredit shartnomalari, sug‘urta va uning IIO faoliyatida tutgan o‘rni, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar va unda IIOning ishtiroki, intellektual mulk, vorislik huquqi, oila huquqi va IIO faoliyatida tutgan o‘rni, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish va unda IIOning vazifalari, fuqarolik holati dalolatnomalari va ularni qayd etish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalarni chuqur o‘rganish uchun asosiy huquqiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqarolik va oila huquqi asoslarini puxta egallash zamonaviy huquqshunos kasbiy ko‘nikmasini to‘laqonli shakllanishiga xizmat qiladi.

*O. Oqyulov,*

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist,  
yuridik fanlar doktori, professor*

*I QISM*

*FUQAROLIK*

*HUQUQI*

---

## ***UMUMIY QISM***

### ***BIRINCHI BOB***

#### **FUQAROLIK HUQUQI VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA AHAMIYATI**

##### **1-§. Fuqarolik huquqining predmeti va metodi**

Fuqarolik huquqi yurisprudensiyaning o‘zagini tashkil etuvchi huquq tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, u chuqur tarixiy ildizlarga ega. Fuqarolik huquqi Qadimgi Rimda sivil huquqi deb atalgan. Musulmon huquqi bo‘yicha esa bu muomilat huquqi hisoblanadi. Huquqning asosiy vazifasi jamiyatdagи ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va turli subyektlarni huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Fuqarolik huquqining o‘ziga xos xususiyatlari u tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasida yaqqol ko‘rinadi. FK 2-moddasi 1-qismiga ko‘ra, “Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnomalari majburiyatlarini va o‘zga majburiyatlarini, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomosabatlarni tartibga soladi”.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar mulkiy munosabatlarga, shaxsiy nomulkiy munosabatlarga va korporativ munosabatlarga bo‘linadi. Bu munosabatlar orasida mulkiy munosabatlar salmoqli o‘rin egallaydi. Mulkiy munosabatlar deganda iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan, turli moddiy va nomoddiy ne’matlarni yaratish, ularni o‘zlashtirish, egallah, foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kiradigan nomulkiy xarakterga ega bo‘lgan shaxsiy munosabatlar ikki guruhga bo‘linadi: mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy munosabatlarga va mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘limgan sof shaxsiy munosabatlarga. Birinchi guruh tarkibiga vujudga kelish asosi bo‘yicha mulkiy huquqdan kelib chiquvchi shaxsiy huquqlar yoxud

shaxsiy huquqdan kelib chiquvchi mulkiy huquqlar farqlanadi. Bunday huquqlar ko‘proq intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq ravishda talqin etiladi. Sof nomulkiy shaxsiy huquqlar shaxsni o‘zi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va undan begonalashtirmaydigan huquqlardir. Misol tariqasida bunday huquqlarga fuqaroni o‘z ismiga bo‘lgan huquqi, o‘z tasviriga bo‘lgan huquqini ko‘rsatish mumkin.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan korporativ munosabatlar muayyan subyektlar doirasini yuridik shaxslar ta’sis etish, uni boshqarish bilan bog‘liq, bunda ishtirokchilar, a’zolar, muassislar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarga aytildi. Korporativ munosabatlar yuridik shaxs tuzilmalari o‘rtasida ham vujudga kelishi mumkin.

Bundan tashqari mulkiy, shaxsiy, korporativ munosabatlardan farqli ravishda tashkiliy-huquqiy munosabatlar ham fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi degan mulohazalar ham mavjud. Masalan, yuridik shaxsni ta’sis majlisini chaqirish, majlislarda ishtirok etish, ishtirokchilar bir-birlariga axborotlar berish, majlislarda qarorlar qabul qilish bo‘yicha kvorumlar nisbatini belgilash o‘z mohiyatiga ko‘ra tashkiliy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi mulkiy mustaqilligi va bu munosabatlarga o‘z ixtiyori bilan kirishishi fuqarolik huquqiy munosabatlar mohiyatini belgilovchi muhim belgilar bo‘lib hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari o‘z huquqiy maqomi bo‘yicha fuqaro, davlat organi, xususiy yoki ommaviy yuridik shaxs bo‘lishidan qat’iy nazar teng huquqli bo‘lib hisoblanadi va biri ikkinchisiga qandaydir hokimiyat yoki siyosiy vakolatlar orqali ta’sir ko‘rsatish huquqiga ega emas.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilari mulkiy mustaqil hisoblanadi. U mulkdor, ashyoviy huquq yoki boshqa asoslarga ko‘ra muayyan mol-mulkka nisbatan vakolatlarga ega bo‘ladi va ushbu holatga ko‘ra fuqarolik muomilasida ishtirok etadi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar erk muxtoriyatiga asoslanadi ya’ni, bu munosabatlarga kirish, uni mazmunini belgilash, munosabatlar mazmunini o‘zgartirish yoki uni bekor qilish, asosan taraflarni erk-irodasiga bog‘liq. Taraflarning erk-irodasining erkin shakllanishi, ichki yanglishishlardan va tashqi tazyiqlardan holi bo‘lishi asosiy shartlardan bo‘lib hisoblanadi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solish usuli ham fuqarolik huquqining mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda taraflarga ko‘proq erkinlik, mustaqillik, tashabbuskorlik berish, huquqiy tartibga solish

doirasini minimallashtirish asosiy yondashuvlar hisoblanadi. Davlat fuqarolik huquqi orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solganda barcha munosabatlar doirasini qamrab olishga harakat qilmaydi. Bu huquqiy munosabatlarning doirasining bir qismi axloq va boshqa sotsial, ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi, bir qismi korporativ normalar bilan tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar massivida muayyan munosabatlar guruhi subyektlar tomonidan o‘zini-o‘zi tartibga solish asosida tartibga solinadi. Davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar va qonun osti hujjatlari korporativ munosabatlar va o‘zini-o‘zi tartibga solish sohasidagi munosabatlar sohasiga daxl qilmasligi lozim.

## **2-§. Fuqarolik huquqi tizimi va manbaları**

*Fuqarolik huquqining manbaları deganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan yoki unga ta’sir qiladigan normativ hujjatlar va boshqa ijtimoiy normalar tushuniladi.*

Huquq manbaini tashkil etgan manbalar tizimini tashkil etuvchi normativ hujjatlar qonunlar va qonun osti hujjatlariga bo‘linadi. Huquqiy manbalar davlat tomonidan o‘rnatilgan muayyan yuridik shaklda foydalangan, hamma uchun rioya qilish majbur bo‘lgan, rioya qilinmagan taqdirda muayyan sanksiyalar belgilab qo‘ylgan xulq-atvor qoidalaridir. Huquqiy manbalar ichida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega bo‘lib mamlakatimizda hech qanday qonun unga zid bo‘lmasisligi lozim. Asosiy qonunimizda fuqarolik munosabatlarini tartibga solishda umumiyligi ta’sir kuchiga ega bo‘lgan normalar ham, shuningdek bevosita fuqarolik huquqiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan normalar ham mavjud. Konstitutsiyaning umum huquqiy normalar tizimida uning 13-moddasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qiymati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi. Ushbu normalar fuqarolik qonun hujjatlari uchun ham rahbariy ko‘rsatma hisoblanadi.

Asosiy qonunimizning jamoat birlashmalariga bag‘ishlangan XIII-bobi notijorat tashkilotlari bo‘lgan yuridik shaxslar maqomini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning 18-moddasi barcha fuqarolar uchun teng huquqlilik tamoyilini amal qilish doirasini belgilaydi. 20-moddada esa fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va

jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shartligi belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning VII bobida yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, 27-moddasida xususiy hayot daxlsizligi 28-moddasida bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chish O‘zbekiston Respublikasiga erkin kelish va undan chiqish belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolik qonunlari shaxsiy huquqlarni amalga oshirilishi yoki uni himoya qilinishini belgilashda ushbu normalar dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo‘lish huquqi belgilab qo‘yilgan. Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi unda o‘z ifodasi va mujassamini topgan. Asosiy qonunimizning 42-moddasida intellektual mulk huquqining asosi bo‘lgan ijod erkinligi bo‘yicha novellalar mavjud.

Konstitutsiyaning XII bobi jamiyatning iqtisodiy negizlariga bag‘ishlangan. Ushbu bob normalari fuqarolik munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Professor I.B.Zokirov ushbu bob mazmun mohiyatini talqin etishda quyidagilarga alohida ahamiyat beradi. Eng avvalo, Konstitutsiyada bir marta va ana shu moddada “bozor munosabatlari” o‘z aksini topgan. Undan kelib chiqib, moddadagi quyidagi holatlarni alohida ko‘rsatish mumkin:

- O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi;
- iste’molchilar huquqlarining ustuvorligi;
- iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish va mehnat qilish erkinligi (e’tibor bering, mehnat qilish burch emas, balki huquq, erkinlik);
- barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi;
- xususiy mulkning boshqa mulk shakllari kabi daxlsizligi va davlat muhofazasida ekanligi;
- mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi kabi qoidalar. Bu holatlar keyinchalik mos ravishda O‘zbekiston Respublikasining joriy qonun va qonunosti hujjatlarida o‘z aksini topdi. Konstitutsiyaning 54-moddasida esa mulk huquqining mazmuni bevosita o‘z ifodasini topgan. Bunga asosan mulkdor o‘ziga tegishli mol-mulkni o‘z xohishiga ko‘ra egallash, foydalanish, tasarruf qilishga haqli. Ayni paytda mulkdor huquqining chegaralari ham Konstitutsiyada belgilab berilgan. Ya’ni, mol-mulordan

foydalananish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim.

Konstitutsiyadan keyin yuridik manbalar tizimida Fuqarolik kodeksi alohida salmoqli va yetakchi o'rin egallaydi. Amaldagi Fuqarolik kodeksi 1997-yil 1-martdan boshlab amal qilmoqda. U ikki qismdan iborat. Mamlakatimizda amal qiluvchi hech qaysi kodeks yoki qonunlar o'zining salmog'i, hajmi, tartibga solinadigan munosabatlar doirasi bo'yicha Fuqarolik kodeksi kabi mavqega ega emas. Bugungi kunda Fuqarolik kodeksini takomillashtirish ustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 5-aprelda "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5464-son far moyishiga asosan Fuqarolik kodeksini loyihasi ustida ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonun hujjatlarini asosiy ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish, ularning eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg'unligini ta'minlash, shuningdek, ushbu sohada ilg'or xalqaro standartlarni implementatsiya qilish;

- xususiy mulkning daxlsizligi kafolatlarini ta'minlaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning, ayniqsa tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni belgilash;

- ommaviy va fuqarolik huquq normalarini aniq chegaralash, iqtisodiyotni boshqarishda ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillariga asoslangan, o'z ahamiyatini yo'qotgan va eskirib qolgan qoidalarni chiqarib tashlash;

- davlat-xususiy sherikligi, klasterlik ishlab chiqarishi, elektron tijorat, kriptovaluta aylanmasi, yer uchastkalarini xususiylashtirish, ulushli qurilish va boshqa zamonaviy fuqarolik-huquqiy institutlar va iqtisodiy munosabatlar shakllarini huquqiy tartibga solishni ta'minlash.

Mamlakatimizda huquqiy islohotlarni amalga oshirishda bevosita ishlaydigan aqli qonunlar yaratish muhim ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Hozircha fuqarolik qonun hujjatlari tizimida asosan ikki-uch pog'onali tizim amal qilmoqda. Lekin afsuski ba'zi holatlarda to'rt pog'onali tizim ham uchrab turadi. Ba'zi fuqarolik munosabatlar Fuqarolik kodeksi umumiy va maxsus qonunlar, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Masalan, garov munosabatlari FKdan tashqari, "Garov to'g'risida"gi, "Garov reyestri to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi qonun va boshqa

qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Uy-joylar bilan bog‘liq munosabatlar nafaqat Fuqarolik kodeksi, balki Uy-joy kodeksi, “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksidan keyin o‘z yuridik kuchi bo‘yicha qonunlar turadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuzlab qonunlarni ko‘rsatish mumkin. Bular orasida xususiy mulk huquqini himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risidagi qonun, qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun, sug‘urta faoliyatni to‘g‘risidagi qonun va sh.k.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni har bir tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha maxsus qonunlar mavjud (masalan, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlari himoya qilish to‘g‘risida”, “Xususiy korxona to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunlar kabi).

Intellektual mulkning alohida obyektlariga bag‘ishlangan maxsus qonunlar turkumi ham mavjud (masalan, mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun, ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi qonun, seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi qonun, firma nomlari to‘g‘risidagi qonun va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin). Fuqarolik qonun hujjatlari tarkibining katta qismini tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son farmonida Tadbirkorlik kodeksi loyihasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan.

Bugungi kunda Tadbirkorlik kodeksi loyihasi ustida mutaxassislar ish olib bormoqdalar. Bunda, eng avvalo, Fuqarolik kodeksi va Tadbirkorlik kodeksi o‘rtasida nisbatni to‘g‘ri belgilab olish muhim hisoblanadi. Ular bir-birni takrorlamasligi, bir-biriga zid kelmasligi lozim. Tadbirkorlik kodeksida tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, faoliyatini amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etish, qayta tuzish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari ustidan davlat nazoratini yo‘lga qo‘yish va shu kabi masalalar o‘z mujassamini topmog‘i lozim.

Fuqarolik-huquqiy manbalar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari alohida o‘rin egallaydi. Normativ hujjatlar iyerarxiyasida Prezident tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar qonunosti hujjati bo‘lib hisoblanadi. Biroq

ular qonunosti hujjati sifatida qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan u O‘zbekiston Respublikasi davlati rahbari tomonidan qabul qilinadi. Prezident o‘z maqomi bo‘yicha turli hokimiyat bo‘g‘inlarini faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va inson huquqlarini ta’minlanishini kafili sifatida, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyot strategiyasi va istiqbollarini belgilash vakolatlariga ega. Shu ma’noda olganda prezident tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlarda mamlakat taraqqiyotining muhim masalalari bo‘yicha doktrinal va konseptual g‘oyalar mujassamlangan o‘ziga xos siyosiy hujjat hisoblanadi.

Prezident normativ hujjatlarda mujassamlangan konseptual g‘oyalar keyinchalik qonunlar mazmuniga singdirilishi bejiz emas. Mamlakatda amalga oshiriladigan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarning tashabbuskori uning falsafasini belgilovchisi Prezident hisoblanadi va u o‘z vakolatlarini katta qismini farmonlar, qarorlar, farmoyishlar qabul qilish orqali amalga oshiradi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-5464-son farmoyishi bunga yaqqol misoldir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyunda qabul qilgan “Yer munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylan-tirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son farmoni yerga nisbatan mulkchilik, ashyoviy huquqlar tizimi va majburiyat huquqiy tizimi, fuqarolik huquqiy konstruksiyalarni tizimlashtirdi va kelgusida bu sohada fuqarolik qonunlarini rivojlantirish uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va ushbu qarorlar asosida tasdiqlanadigan nizomlar ham fuqarolik huquqining manbasi bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining “Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-iyundagi 350-son qarori bilan II Vning 36 milliard so‘mlik ustav fondlariga ega bo‘lgan 46 ta tijoriy korxonasi tugatilishi belgilandi. Bu korxonalar istiqbolsiz, faoliyat ko‘rsatmayotgan, zarar ko‘rib ishlayotgan yoki past rentabelli korxonalar ro‘yxatida turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va ular asosida tasdiqlangan nizomlarda fuqarolik qonunlari normalarini amalga oshirish tartibi belgilanadi, alohida masalalar bo‘yicha aniqliklar kiritiladi. Masalan, FK oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha, chakana savdo bo‘yicha normalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil

13-fevraldag'i 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Chakana savdo qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasida Umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqish va sotish qoidalari tasdiqlangan. Chakana savdo qoidalarida asosiy tushunchalar va atamalar, sotuvchilarga, savdo obyektlariga va tovarlarga qo'yiladigan asosiy talablar, oziq-ovqat tovarlari chakana savdosi, alkogol ichimliklar chakana savdosi, zargarlik buyumlari chakana savdosi, yangi avtomototransport vositalari chakana savdosi, vositachilik savdosi, kiyim-boshlar, poyabzal savdosi, texnik jihatdan murakkab maishiy tovarlar chakana savdosi, hayvon va o'simliklarni sotish xususiyatlari va shu kabilar belgilab qo'yilgan.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar ham o'z vakolatlari doirasida fuqarolik huquqiy xarakterga ega bo'lган normativ hujjatlar qabul qilishi mumkin. Ushbu normativ hujjatlar asosan qonunlar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi. Viloyat, tuman va shahar hokimliklari ham o'ziga berilgan vakolatlari doirasida tegishli hududdagi barcha subyektlar mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lган fuqarolik huquqiy xarakterga ega bo'lган normativ hujjatlar qabul qilishga haqlidirlar.

Fuqarolik huquqi subyektlarining muayyan qismi o'zini-o'zi tartibga solish va o'zini-o'zi boshqarish asosida faoliyat yuritadi. Binobarin ular o'zi vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qila oladilar va ular ichki korporativ normalar tarzida amalda bo'ladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatni jamiyat yig'ilishi o'tkazish tartibi to'g'risida, divedendlar taqsimlash to'g'risida va shu kabi masalalar bo'yicha tegishli normativ hujjatlar chiqarishga haqli. Ushbu hujjatlar faqat aksiyadorlik jamiyatni doirasida amal qiladi. Shu sababli ham lokal korporativ hujjatlar hisoblanadi.

Fuqarolik huquqining huquqiy manbalaridan tashqari nohuquqiy manbalari turlari ham mavjud. Bunga ish muomilasi odatlari, mahalliy odat va an'analar kiradi. Tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonunchilikda nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligidagi tegishli normalar bo'lмаган taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi. Tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo'lган qonunchilik normalariga yoki shartnomaga zid bo'lган ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ochiq demokratik davlat. Shu sababli ham tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar turli xorijiy davlatlardagi boshqa subyektlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda

hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yganlar. Ushbu hamkorlik aloqalari fuqarolik shartnomalari orqali yuridik rasmiy lashtiriladi. Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini belgilaganda nafaqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlar, balki xorijiy davlatlar qonunlarini ham qo‘llashga haqlidirlar. Biroq bunday imkoniyatni mutlaq tushunmaslik lozim. Muayyan sohalarda xorijiy davlatlar qonunlarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi (masalan, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko‘chmas mulk rejimini faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi). Biroq shuni e’tirof etish lozimki, O‘zbekiston hududidagi maxsus iqtisodiy zonalarda chet el investorlari o‘zлari uchun maqbul bo‘lgan qonunlarni tanlash va qo‘llash imkoniyatiga egadirlar masalan, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasini hududida anglo-sakson normalarini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Binobarin, bugungi kunda ishonch bilan aytish mumkinki, chet davlatlarning fuqarolik qonun hujjatlari ham manba sifatida qaralishi mumkin.

Boshqa huquq sohalariga nisbatan olganda fuqarolik munosabatlar doirasi va ko‘lami nihoyatda keng va rang-barangdir. Shu sababli ham kundalik voqe’likda fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan holatlar uchrashi mumkin. Mana shunday vaziyatda bunday bo‘shliqlarni huquqiy tartibga solishni amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksining 5-moddasida fuqarolik qonun hujjatlarini o‘xshashlik (analogiya) bo‘yicha qo‘llash asoslari belgilab qo‘yilgan. FK 2-moddasi birinchi, to‘rtinchi, beshinchi qismlarida fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solish doirasi belgilab qo‘yilgan. Ushbu munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o‘xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo‘llaniladi (qonun o‘xshashligi).

Ko‘rsatib o‘tilgan hollarda qonun o‘xshashligidan foydalanish mumkin bo‘lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga (huquq o‘xshashligiga) hamda halollik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.

Fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarning o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolik qonun hujjatlarini sudlar o‘z amaliyotida doimiy va keng qo‘llaydilar. Qo‘llash jarayonida ular muayyan normalarga sharh beradilar, talqin qiladilar, biroq sudning ushbu qarori faqat o‘scha muayyan ish doirasidagina majburiy.

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risidagi” qonunida Oliy Sud Plenumi sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berishi

belgilab qo‘yilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining fuqarolik huquqining ko‘plab masalalari bo‘yicha fuqarolik qonun hujjatlari normalarini talqin etib bergan tushuntirishlari bo‘yicha qarorlari mavjud. Ushbu qarorlar sudlar uchun muayyan ishlarni ko‘rish jarayonida o‘ziga xos uslubiy metodologik ahamiyatga ega. Biroq ular fuqarolik huquqining manbasi sifatida talqin etilmaydi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida fuqarolik huquqiy munosabatlar alohida turkumni tashkil etadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar deb ushbu munosabat ishtirokchilari o‘rtasida bo‘ladigan va asosan fuqarolik huquqiy normalar shuningdek, boshqa ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytildi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar uchta tarkibiy qismidan iborat bo‘ladi: subyektlari, mazmuni va obyektlari.

Fuqarolik huquqiy munosabat subyektlari bo‘lib ushbu munosabatda ishtirok etuvchi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shaxslar fuqarolik huquq layoqatiga, ya’ni fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘lish imkoniyatini beruvchi layoqatga molik bo‘lishlari lozim. Fuqarolik munosabatning mazmunini shu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va burchlari tashkil etadi.

Subyektiv huquq deganda huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi muayyan subyektga tegishli huquq tushuniladi. Odatda subyektiv huquq obyektiv huquqdan (davlat tomonidan o‘rnataladigan va belgilab qo‘yiladigan huquqlar) normalardan kelib chiqadi. Masalan, mulk huquqi konstitutsiyada belgilangan obyektiv huquq, fuqaro E.ni o‘z uy-joyiga bo‘lgan mulk huquqi subyektiv huquq. Subyektiv huquq har doim konkret subyektga tegishli bo‘ladi va uning erki irodasiga ko‘ra amalga oshiriladi. U xohlasa bu huquqni amalga oshirish yoki umuman amalga oshirmasligi yoxud ushbu huquqlardan voz kechishi mumkin. Huquqiy munosabat mazmunini subyektiv huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi. Majburiyatning mohiyati shunda ifodalanadiki, bunda huquqiy tartibotning talabi bo‘yicha zimmasiga majburiyat yuklangan shaxs muayyan harakatlarni qilishi yoxud muayyan harakatlarni sodir etishdan o‘zini tiyib turishi lozim. Ishtirokchidan muayyan harakatni sodir etishni talab qiladigan majburiyatlar ijobiy (pozitiv) majburiyatlar, muayyan harakatsizliklar holatida bo‘lish talab etiladigan majburiyatlar salbiy (negativ) majburiyatlar sanaladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekti deb fuqarolik munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarni subyektiv huquqlari va

majburiyatlari qaratilgan ne'matlarga aytildi. Bular ashyolar, mol-mulklar, pullar va qimmatli qog'ozlar, ishlar va xizmatlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar bo'lishi mumkin.

### **3-§. Fuqarolik huquqining ichki ishlar organlari faoliyatida tutgan o'rni**

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar odatdagi doimiy kundalik, takrorlanib turuvchi normal munosabatlar hisoblanadi. har bir shaxs bir kunda juda ko'plab fuqarolik munosabatlarga kirishadi. Masalan, elektrdan, gazdan foydalanish, do'konlardan turli tovarlar xarid qilish, kontrakt asosida ta'lim olish, transportda yo'lovchi sifatida muayyan manzilga borish va hokazo. Kundalik odatdagи normal munosabatlarda huquqni himoya qilishga, javobgarlik choralarini belgilashga zarurat bo'lmaydi, biroq fuqarolik normalar buzilgan har qanday holatda tegishli javobgarlik choralarini ishtirokchilarining o'zi tomonidan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va sud tomonidan qo'llanishi mumkin.

IIO xodimlari o'z faoliyatlarida fuqarolik huquqi normalarini keng qo'llaydilar. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga ko'ra, "IIOning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat". Bunda ko'rinish turibdiki, IIOning muhim vazifalari bo'lib kishilarni mulkiy va shaxsiy huquqlarini har tomonlama muhofaza qilish hisoblanadi. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida "mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olishga haqli. Mazkur huquqni amalga oshirishda davlat organlari mulkdorga ko'maklashishi shart"ligi belgilab qo'yilgan.

Binobarin, profilaktika inspektori yaqqol ko'rinish turgan faktlar bo'yicha o'z vakolatlari doirasida mulkdorga uning mol-mulkini qaytarilish choralarini ko'rishda yordam berishi lozim. Albatta, IIO xodimlari o'z faoliyatlarida ko'proq ommaviy huquqiy normalarni qo'llaydilar. Biroq, IIO faoliyati doirasi nihoyatda keng va xilma-xildir.

IIO faoliyatni o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash;
- tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o‘tkazish;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo‘yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo‘li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- ehtiyyot choralarini, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, ma’muriy jazolarni qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylash-tirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish qoidalariга rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish;
- sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalarining va ular prekursorlarining muomalada bo‘lishi sohasida nazorat qilish;
- ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish;
- davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;
- litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;
- harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.

IIO faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflikdan iborat.

IIO xodimlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi va boshqa fuqarolik qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shart.

Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko‘ra yuz bergenidan qat’i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

IIONing xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘idagi o‘zining qonunga xilof xatti-harakatlarini (harakatsizligini) oqlash uchun xizmat manfaatlarini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni, yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning qonunga xilof talablari, buyruqlari va farmoyishlarini yoki qonunga muvofiq bo‘lmagan boshqa biror-bir holatni ro‘kach qilishi mumkin emas. IIONing xodimlariga kimnidir g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga bevosita yoki bilvosita qiziqtirish, ko‘ndirish, undash taqiqlanadi.

IIO o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi.

IIO fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar himoya qilinishini ta’minlaydi.

IIONing fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklovchi faoliyati, agar qonuniy maqsadga erishilgan bo‘lsa yoki ushbu maqsadga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklash orqali erishib bo‘lmashigi yoki erishilmashigi kerakligi aniqlansa, darhol to‘xtatiladi.

Qiynoqlarga solish, zo‘ravonlik qilish, boshqa shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsitadigan tarzda muomalada bo‘lish ichki ishlar organi xodimiga taqiqlanadi. Ichki ishlar organining xodimi fuqaroga qasddan og‘riq, jismoniy yoki ma’naviy azob yetkaziladigan xatti-harakatlarga chek qo‘yishi shart.

Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, IIO fuqaroning sha’ni, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Fuqarolik huquqi normalarini mazmunini chuqur anglab yetish va uni amalda qo‘llay olish yurist kasb-kor ko‘nikmasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Fuqarolik huquqini bilmagan mutaxassis to‘la qonli yurist bo‘la olmaydi. Shu sababli ham Qadimgi Rimda “Sivil fanini bilgan haqiqiy yuristdir” degan matal bo‘lgan.

Fuqarolik huquqi hayotiy zaruratga asoslangan huquq tarmog‘idir. Uni mohiyatini anglab yetish kundalik turmushda nihoyatda asqatadi.

Lekin asosiysi fuqarolik huquqiy normalar IIO faoliyatini amalga oshirishda muayyan o‘zini tartibga solish yukiga ega. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, fuqarolik muomilasida subyektlar huquqiy maqomini anglab yetishdir. Fuqarolar o‘z huquqiy maqomi bo‘yicha voyaga yetganlar, voyaga yetmaganlarga, to‘liq muomila layoqatli, muomila layoqati cheklangan va muomilaga layoqatsiz shaxslarga farqlanadi. IIO ular bilan bo‘lgan munosabatlarda ushbu xususiyatlarni hisobga olmog‘i lozim. Masalan, mahallada yashovchi muayyan fuqaro spirtli ichimliklarga ruju qo‘yib bor-buduni ichkilikka sarf qilib, oilasini moddiy jihatdan og‘ir ahvolga solib qo‘ygan bo‘lsa bunday holatda IIO xodimlari tegishli vakolatli organlar xodimlari bilan birgalikda sudga ushbu shaxsni muomila layoqatini cheklash va unga nisbatan xomiy tayinlash bo‘yicha da’vo kiritishlari mumkin.

IIO tizimida ko‘plab muassasalar faoliyat yuritadi. Ular orasida davlat tomonidan ta’minlanib turgan yuridik shaxslar, o‘zining asosiy daromadlarini mustaqil ishlab topadigan yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin. Ularni mulkiy holati, ularga biriktirilgan mol-mulkka nisbatan vakolatlari, ularning huquqiy maqomi bo‘yicha farqlanadi.

Ichki ishlari organlari o‘ziga xos mulkiy manfaatlarga ega tuzilma. Ular o‘z faoliyatlarini normal amalga oshirish uchun binolar, avtomashinalar, kompyuterlar va turli jihozlarga ega bo‘lishlari lozim. IIO mol-mulki, moddiy texnika bazasini shakllantirish davlat budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Ushbu pul mablag‘lari hisobidan turli tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan tovarlar davlat xaridlari tizimi orqali, shartnomalar tuzish yo‘li bilan, tovar ishlab chiqaruvchilardan sotib olinadi va ichki ishlari organlariga yetkazib beriladi. Bunda IIONing tegishli mutasaddi xodimlari fuqarolik huquqining majburiyatlar to‘g‘risida, shartnomalar to‘g‘risida, majburiyatlarni buz-ganlik uchun javobgarlik normalarini, davlat xaridlari tizimini amal qilish tartibini puxta bilishlari talab etiladi. Juda ko‘p hollarda IIO tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari fuqarolik munosabatlarni vujudga kelishi, o‘zgarishi, bekor bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, muayyan turar joyda doimiy qayd etilganlik Uy-joy kodeksining 32-moddasiga ko‘ra, turar-joydan foydalanuvchi maqomini olishga asos bo‘ladi. Ayni paytda uning zimmasiga ushbu turar-joydan foydalanish bo‘yicha kom-munal to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlar yuklanishiga olib kelishi mumkin.

Fuqarolik huquqi zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham tartibga soladi. Bunda zarar yetkazishni oldini olish bo‘yicha normalar ham mavjud. IIO xodimlari o‘z faoliyatlarida fuqarolarga, yuridik shaxslarga yoxud atrof-muhitga, ekologiyaga har qanday zarar yetishini oldini olishlari lozim. Zarar xavfi vujudga kelganda uni o‘z vakolatlari doirasida barcha qonuniy vositalar bilan bartaraf etish, oldini olish, zarar yetkazish xavfini vujudga keltirayotgan subyektlarga nisbatan oldini oluvchi choralar ko‘rishi lozim. Shuningdek, o‘z faoliyatida IIO xodimlari o‘zlari tomonidan fuqarolarga boshqa subyektlarga zarar yetkazishdan saqlanishlari shart. Fuqarolik qonun hujjatlari zarar yetkazganlik javobgarlik asoslari, qoplanadigan zarar miqdori, zararni qoplash usullari va shu kabilarni atroflicha tartibga soladi. Jinoyat natijasida zarar yetkaziladimi, ma’muriy huquqbuzarlik natijasida zarar yetkaziladimi yoki mehnat munosabatlarida zarar yetkaziladimi qat’iy nazar zarar, zyon, talafotlar tushunchalari fuqarolik qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasi to‘rtinchi qismida IIO xodimi tomonidan o‘z faoliyatida boshqalarga nisbatan qiynoqlarni qo‘llash, zo‘rlik ishlatish, boshqacha shafqatsiz yoki kishini qadr qimmatini yerga uradigan muomilada bo‘lishi taqiqlanishi belgilangan. Ayni paytda ichki ishlar organi xodimi fuqaroga qasddan og‘riq vujudga keltiradigan jismoniy yoki axloqiy azob-uqubatlar keltiradigan harakatlarni oldini olish vazifasi yuklatilgan. Yuqoridagi huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilgan hollarda jabrlanuvchi nafaqat moddiy zararni, balki o‘ziga yetkazilgan ma’naviy zararni ham qoplanishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik kodeksining 991-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Bunga ko‘ra, qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo‘lish haqida tilxat olishni qonunga xilof qo‘llanish, qamoq tariqasidagi ma’muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning mansabdor shaxslari aybidan qat’i nazar, qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan to‘la hajmda to‘lanadi. Sudning qarori bilan zararni qoplash, zarar yetkazishda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar ya’ni ichki ishlar organlari, operativ xodimlari, surishtiruvchilari, tergovchilari zimmasiga ham yuklanishi mumkin.

Binobarin bu holatda FK IIO xodimlari tomonidan muayyan holatlarda zarar yetkazganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

Fuqarolik huquqi ayni paytda milliy huquq tizimidagi muayyan turdosh yondosh huquq sohalari bilan uzviy bog'liq. Masalan, mehnat huquqi, oila huquqi, tadbirkorlik biznes huquqi shular jumlasidandir. Shuni ta'kidlash o'rinniki fuqarolik huquqining predmeti bilan oila huquqining predmeti, mehnat huquqining predmeti farqlanadi. Masalan, oila huquqida qon-qarindoshlikka, er-xotinlikka asoslangan shaxsiy munosabatlar va u bilan bog'liq bo'lgan mulkiy munosabatlar tartibga solinadi. Mehnat huquqi bilan esa ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasi asosidagi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqi nihoyatda keng normativ bazaga, turli tuman yuridik konstruksiyalarga ega va uni huquqiy tartibga solish usul, vositalari nihoyatda keng va rang-barang. Shu sababli ham oilaviy huquqiy munosabatlarda, mehnat huquqiy munosabatlarda tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar mavjud bo'lmasa va mehnat munosabatlari, oilaviy munosabatlar mohiyatiga zid kelmasa fuqarolik qonun hujjatlari subsidar tartibga solish kuchiga ega.

Fuqarolik munosabatlarini tartibga solishda fuqarolik qonun hujjatlarining asosiy negizlari g'oyat muhim ahamiyatga ega. Yuridik adabiyotlarda ayni paytda fuqarolik huquqining tamoyillari to'g'risida ham so'z boradi. Shu munosabat bilan qonun hujjatlari negizi va tamoyil o'rtasida jiddiy tafovut yo'qligini ta'kidlash lozim. I.Zokirov fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari (prinsiplari) bu barcha fuqarolik qonunlari mazmuniga singdirilgan asosiy boshlang'ich qoidalardir deb ko'rsatadi.

Akademik H.Raxmonqulov fuqarolik huquqining tamoyillari tushunchasini talqin qilar ekan huquqning alohida sohasi sifatida xususiy huquq tarkibida bo'lgan fuqarolik huquqi tamoyillari uning predmetini tashkil qiluvchi ko'p qirrali mulkiy, mulk bilan bog'liq va mulk bilan bog'liq bo'lмаган shaxsiy va tashkiliy huquqiy munosabatlarni xususiyatlari mazmunida mujassamlanishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari ochib berilgan. Ushbu asosiy negizlar ham to'laqonli ravishda tamoyil funksiyasini bajaradi. Biroq ilmiy va o'quv adabiyotlarida fuqarolik huquqining tamoyillari tizimini belgilashda FK 1-moddasi doirasidan tashqari chiqiladi. Shu sababli ham fuqarolik huquqi tamoyillarini FK 1-moddasida mustahkamlab qo'yilgan asosiy negizlar va FK boshqa normalarida, boshqa qonunlarda fuqarolik

huquqi tamoyili sifatida baholanadigan asosiy qoidalarni nazarda tutishimiz lozim.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini tengligini e'tirof etish tamoyili Konstitutsiyaning 18-moddasida ham o'z e'tirofini topgan. Biroq 18-moddasini tom ma'noda sharhlaganda shuni unutmaslik lozimki unda fuqarolarning teng huquqliligi to'g'risida so'z boradi. FK 1-moddasida esa fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchiligin tengligini belgilaydi. Fuqarolik munosabatlarda fuqarolardan tashqari turli tuman yuridik shaxslar, davlat va davlat organlari ham ishtirok etadilar. Bunda ularning barchasi teng huquqga, mavqe'ga ega deb e'tirof etiladi. Bunday tenglik turli-tuman vaziyatlarda o'z ifodasini topishi mumkin. Masalan, davlat fuqaro oldida qarzdor bo'lishi, fuqaro esa kreditor bo'lishi yoxud davlat o'ziga yetkazdirilgan zararni fuqarodan to'lanishini talab qilishi va hokazo holatlar. Ichki ishlar organlar xodimlari vaziyat yoki xizmat taqozosi bilan muayyan fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat nomidan ishtirok etganda yoxud fuqarolik munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi nizoli munosabatlarni yuridik hujjatlarda qayd etganda mana shu holatni unutmasligi lozim.

Fuqarolik qonun hujjatlarining navbatdagi asosiy negizlaridan biri bo'lib mulk daxlsizligi hisoblanadi. Ushbu tamoyil Konstitutsiyaning 53-moddasida o'z ifodasini topgan. Mulk daxlsizligi mazmuni, mohiyati FK 166-moddasida to'laqonli ravishda ochib berilgan. Shuningdek, uning ayrim jihatlari "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun normalarida ham o'z ifodasini topgan. Mulk daxlsizligi tamoyili normal huquqiy munosabatlarda va mulkdor tomonidan mol-mulkdan g'ayriqonuniy foydalanish, bu orqali boshqalarga zarar yetkazish kabi holatlarda mujassamlanadigan nonormal holatlarda ham birdek amal qiladi. Normal holatda yer uchastkasini davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan ushbu yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini buzish asoslari, tartibi, kompensatsiya to'lovleri kabi masalalar vujudga keladi. Jinoiy faoliyat natijasida orttirilgan mol-mulk yoxud mol-mulkdan jinoyat quroli sifatida foydalanish holatlarida ham mol-mulkka nisbatan mulkdor huquqlarini musodara asosida bekor bo'lishi sodir bo'lishi mumkin. har qanday holatta ham shuni unutmaslik lozimki, mulkdor o'z mol-mulkidan faqat qonunda (qonun hujjatida emas) nazarda tutilgan asoslarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

Fuqarolik qonun hujjatlari shartnoma erkinligiga asoslanadi. FK 354-moddasida shartnoma tuzish erkinligi, mohiyati to'la qonli tarzda ochib berilgan. Fuqarolik munosabatlarida taraflar o'z qonuniy manfaatlarini bir-

birlari bilan shartnoma tuzish orqali qanoatlantiradilar. Shartnoma to‘liq konsensusga asoslanadi. Ya’ni shartnoma ishtirokchilari bo‘lgan taraflar uning hamma shartlariga rozi bo‘ladilar. Umumiy qoida bo‘yicha majburan shartnoma tuzishga qo‘l qo‘yilmaydi, qonunda bevosita nazarda tutilgan holatlardan tashqari. Shartnomalar erkinligi tamoyili g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat shartnoma tuzishga majburlashdan himoya qiladi balki, qonunlarda nazarda tutilmagan shartnomalarni tuzish, qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma shartlarini o‘zaro kelishuv asosida belgilash imkonini beradi. Shu sababli ham ushbu tamoyil himoya funksiyasidan tashqari cheksiz imkoniyatlar taqdim etish funksiyasini ham bajaradi.

Fuqarolik qonun hujjatlari xususiy ishlarga biron-bir kishini o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘ymasligini ham belgilaydi. Fuqarolik munosabatlar ko‘p holatlarda uning ishtirokchilarini xususiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu xususiy ishlarga uchinchi shaxslarni aralashishlariga, tazyiq o‘tkazishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. IIO xodimlari ham o‘z faoliyatlarida ushbu tamoyilga qat’iy rioya qilishlari lozim. Ular xususiy ishlarga faqat qonun doirasida o‘zlariga berilgan vakolat asosida aralashishga, zaif tomonning huquqini himoya qilishga haqlidirlar. Shu sababli ham, ushbu tamoyilda xususiy ishlarga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. O‘zboshimchalik bilan aralashish, vakolat doirasidan tashqari chiqib aralashish yoki vakolatlarni suiiste’mol qilish, aldash, qo‘rqtish, zo‘rlik ishlatish holatlarida namoyon bo‘ladi. Xususiy ishlarga o‘zboshimchalik bilan aralashgan shaxs buning natijasida yetkazilgan zararni to‘liq qoplashi lozim.

Fuqarolik huquqlarini to‘sinqiniksiz amalga oshirilishi o‘z mohiyatiga ko‘ra, fuqarolik huquqlarini erkin amalga oshirishga qaratilgan imkoniyat hisoblanadi. Fuqarolik huquqlari amalga oshirilayotganda hech kim bunday huquqlarni amalga oshirilishiga to‘sinqinlik qila olmaydi. Masalan har bir fuqaro ijod erkinligiga ega, u ilmiy yoki badiiy asarlarga yaratishga haqli. Yoxud har bir subyekt mulkdor bo‘lishga haqli va uni mol-mulk olishga, undan foydalanishga bo‘lgan xatti-harakatlarini hech kim taqiqlay olmaydi. Albatta kundalik turmushda fuqarolik munosabatlarida bir subyekt ikkinchi subyektga bilib bilmagan holda fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Bunday hollarda IIO xodimlari ushbu to‘sinqinliklarni u qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lmisin bartaraf etishga ko‘maklashishi shart. Shuni unutmaslik lozimki, kishilar o‘zaro munosabatlarda bir-birlari bilan huquq majburiyatlar bilan o‘zaro bog‘liq va ushbu bog‘liqlilik ba’zi hollarda fuqarolik huquqlarini amalga

oshirishga muayyan darajada ta'sir qiladi. Masalan, farzandlari oldida aliment bo'yicha yoxud kreditorlar oldida qarzlari bo'yicha majburiyatları bo'lgan fuqaro ushbu majburiyatlarni bajarmaguncha FK 18-moddasida ko'rsatilgan yashash joyini tanlash orqali xorijiy mamlakatga ko'chib ketish imkoniyatiga ega emas. Fuqarolik qonun hujjatlari asosiy negizlaridan yana biri buzilgan huquqlarni tiklanishidan iborat. Yuqorida ta'kidlanganidek, fuqarolik munosabatlar odatdagi, doimiy, kundalik takrorlanadigan munosabatlar hisoblanadi. Agarda bunday huquqiy munosabat ishtirokchilarini huquqlariga tajovuz qilingan bo'lsa ya'ni molmulkidan mahrum bo'lgan bo'lsa, mulkiy huquqdan mahrum bo'lgan bo'lsa birinchi galda uning buzilgan huquqlari tiklanishi orqali himoya qilinadi. Ya'ni huquqiy munosabat avvalgi normal holatiga qaytariladi. Buzilgan huquqlarning tiklanishi huquq sohibiga avvalgidek o'z huquqlarini amalga oshirishda davom etishini anglatadi. Agar buzilgan huquqlarni tiklanishini iloji bo'lmasa, u holda moddiy va ma'naviy zararni qoplash, tovon undirish, kompensatsiya olish choralar qo'llanadi. Lekin iloji bo'lgan har qanday holatda buzilgan huquqlarni tiklanishi subyektni avvalgi holatiga qaytarilishi ustuvor hisoblanadi.

Fuqarolik huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishni buzilgan huquqlar tiklanishini ta'minlovchi yuridik mexanizm mavjud. Bu mexanizmda sud orqali himoyalanish asosiy o'rin egallaydi. Sud orqali himoya o'zini muayyan tartib taomillariga, moddiy va protsessual asoslarga tayanadi. Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish umumiyl universal xarakterga ega va deyarli barcha holatlarda u qonun tomonidan ta'minlanadi.

Yuqorida fuqarolik huquqi subyektlari huquqiy maqomining eng muhim belgisi erki muxtoriyati ekanligi ko'rsatilgan edi. Erk muxtoriyati ham fuqarolik qonun hujjatlarining asosiy negizlaridan bo'lib hisoblanadi. FK 1-moddasida uning mazmuni belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'limgan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.

Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'lar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo'ladi. Bu ham fuqarolik qonun hujjatlarining asosiy negizlaridan bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ham unutmaslik lozimki, bugungi kunda ko'plab xalqaro hujjatlar va milliy hujjatlarda ham ishchi kuchlari, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'-

larni erkin harakatda bo‘lishi sifatida talqin etilmoqda. O‘zbekiston hududi yaxlit huquqiy maydon bo‘lib u muayyan hududiy birliklardan tashkil topgan. Ishchi kuchlari, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larni erkin harakatda bo‘lishi butun O‘zbekiston hududi bo‘yicha amal qiladi. Masalan, Andijon viloyatidan ro‘yxatdan o‘tgan xususiy korxona Surxondaryo viloyatidagi tenderda erkin ravishda ishtirok etishga haqli. Yoxud qash-qadaryolik fermer o‘zi yetishtirgan mahsulotni Navoiy viloyatiga olib borib sotishga haqli. Ishchi kuchlari, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larni O‘zbekiston hududida erkin harakatda bo‘lishi tamoyilini mutlaq ma’noda tushunmaslik lozim. Uning amal qilish doirasi FK 1-moddasi to‘rtinchı qismida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, xavfsizlikni ta’minlash, insonlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, tabiatni va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun zarur bo‘lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklash qonunchilikka muvofiq joriy etilishi mumkin.

Fuqarolik huquqining halollik, oqilonalik vaadolat kabi tamoyillari ham mavjud. Fuqarolik kodeksining ba’zi normalarida fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarini ushbu tamoyillarga rioya qilish shartligi belgilab qo‘yilgan.

Professor I.Zokirov fuqarolik huquqi tamoyillari tizimiga barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza qilinishi, mulkiy munosabatlarning mafkuraviy munosabatlardan ajratilganligi, qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo‘lsa ruxsat berilishi, fuqarolik munosabatlar ishtirokchilarini ijtimoiyadolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshirilishi.xo‘jalik hisobi kabilarni ham ko‘rsatadi.

Fuqarolik huquqining tamoyillaridan biri fuqarolik huquqlarini maqsadli amalga oshirilishi hisoblanadi. Ushbu tamoyil FK 9-moddasi 5-qismida o‘z ifodasini topgan. Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste’mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bundan tashqari fuqarolik huquqida mikrotamoyillar tizimi ham mavjud. Fuqarolik huquqi tizimiga kiruvchi kichik sohalar va yirik institutlar (majburiyat huquqi, mulk huquqi, intellektual mulk huquqi va shu kabilar) ham o‘z tamoyillariga egadirlar. Biroq ushbu tamoyillar cheklangan lokal doirada amal qiladi.

---

---

## *IKKINCHI BOB*

### **FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI VA OBYEKTLARI. ICHKI ISHLAR ORGANLARI FUQAROLIK HUQUQINING ALOHIDA SUBYEKTI SIFATIDA**

#### **1-§. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar va uning subyektlari**

Huquqiy munosabatlar ichida fuqarolik-huquqiy munosabatlar o‘ziga xos jihatlarga egadir. Jamiatda ijtimoiy munosabatlar xilma-xildir. Bu ijtimoiy munosabatlar qaysi huquq normasi bilan tartibga solinsa, shunga ko‘ra nomlanadi.

Masalan, fuqarolik, oila, mehnat, ma’muriy va boshqa huquq sohalarni tartibga solgan munosabatlarni shu huquq sohasiga oid huquqiy munosabatlar deyish mumkin. Shunga ko‘ra, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ijtimoiy munosabat sifatida eng avvalo, turli subyektlar (jismoniy shaxs, yuridik shaxs, davlat) o‘rtasida vujudga keladi. Bu munosabatlar unda ishtirok etuvchi shaxslarning erk-irodasi, xohishi asosida vujudga kelganligi sababli odatdagi (normal) munosabatlar hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida qatnashuvchi kishilarning erklari garchi ularning xatti-harakatlarida ifodalansa ham biroq uning mohiyati va doirasi fuqarolik qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topadi.

Fuqarolik huquqining turli subyektlari o‘rtasida ro‘y beradigan munosabatlar huquq ta’siri ostidagi normal munosabatlar hisoblanadi va bular ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Ammo muayyan hollarda huquqiy munosabat mazmunida yotuvchi majburiyatlar ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaganda yoki bir subyekt tomonidan boshqa subyektga zarar yetkazish hollarida davlat tomonidan belgilangan majburiy huquqiy choralar qo‘llanilishi mumkin.

***Fuqarolik huquqiy munosabatlar boshqa ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan quyidagi xususiyatlari ko‘ra farq qiladi:***

**1. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar muayyan mulkiy mustaqillikka ega bo‘lishi shart;**

**2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchilar teng huquqli shaxslar hisoblanadi;**

*3. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchilar subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda odatda da 'vo qo 'zg 'atish orqali sudlar tomonidan himoya qilinadi.*

Boshqa huquqiy munosabatlar singari fuqarolik-huquqiy munosabatlar ham uchta unsur (element)dan iborat. Bular:

- fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti;
- fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti;
- fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmuni.

**Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti** deganda, shu munosabatlarda ishtirok etuvchi (qatnashuvchi) shaxslar tushuniladi. **Fuqarolik-huquqiy munosabatlarining subyektlari** bo'lib, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat hisoblanadi.

**Fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shaxslar fuqarolik huquq layoqatiga va fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lishlari shart.** Fuqarolik huquqiy layoqati deganda, shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lishi, fuqarolik muomala layoqati esa o'sha huquqlarni o'z xatti-harakatlari orqali amalga oshirish layoqati tushuniladi.

Jismoniy shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning birinchi va asosiy ishtirokchi (subyekt)laridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 16-moddasiga muvofiq, fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tushuniladi. Ya'ni, fuqarolik huquqida "jismoniy shaxs" va "fuqaro" iborasi bir xil ma'noni anglatadi. Binobarin, qonunda belgilanuvchi ayrim istisnolardan tashqari, Fuqarolik kodeksining qoidalari barcha fuqarolar uchun teng va to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) qo'llaniladi. Teng deganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi tushuniladi. Mazkur qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasi mazmuniga to'liq mos keladi. Unga ko'ra, barcha odamlar erkinlik, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Imtiyozlar odatda faqat qonun yo'l qo'ygan hollarda ijtimoiyadolat tamoyillariga asoslanib beriladi.

### **Fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati**

Har qanday fuqarolik huquqi subyekti fuqarolik huquqiy muomalada faol qatnashishi uchun huquq layoqati va muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Fuqarolik huquqining asosiy subyektlaridan biri bo'lib hisoblangan fuqarolar ham xuddi shunday belgilarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqati huquq layoqati hisoblanadi va teng ravishda e’tirof etiladi. Fuqarolarni huquq layoqati mazmuni Fuqarolik kodeksida belgilab qo‘yilgan. Ayni paytda fuqarolarni huquq layoqati mazmunining asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Binobarin, fuqarolik huquqiy munosabatda ham fuqarolar huquq layoqatida teng deb e’tirof qilinadilar, ya’ni barcha fuqarolarga bir xildagi fuqarolik huquq va majburiyatlari belgilanadi.

FK 18-moddasi mazmuniga ko‘ra, fuqarolar: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari; mashg‘ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo‘lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo‘yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjati haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi. Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to‘la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o‘zo‘zidan haqiqiy emasdир, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo‘l qo‘yiladigan hollar bundan mustasno (Fuqarolik kodeksining 23-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi JK 43-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etganlik uchun shaxslar ayrim fuqarolik huquqlaridan chunonchi, xizmat bo‘yicha cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash choralar qo‘llanilishi mumkin. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosidan tashqari boshqa fuqarolik huquqlarini cheklash choralar vaqtinchalik xarakterga ega. Huquq layoqati inson tug‘ilgandan boshlab to u vafot etguncha amal qiladi. Inson o‘zini holatidan qat’i nazar chaqaloq bo‘ladimi, aqli zaif bo‘ladimi, ruhiy xasta bo‘ladimi to‘laqonli huquq layoqatiga ega hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, huquq layoqati chaqaloq tirik tug'ilishi bilan boshlanadi. Biroq, qonun ba'zi hollarda hali tug'ilmagan ya'ni ona qornida homila sifatida mavjud bo'lganda ham uning kelgusidagi manfaatlarini e'tiborga oladi, qo'riqlaydi. Masalan, agar meros qoldiruvchi fuqaro vafot etgan hollarda uning nafaqat hayot paytida tug'ilgan farzandlari balki, meros ochilgandan so'ng tug'ilgan farzandlari ham merosxo'r sifatida e'tirof etiladilar (FK 1118-m.).

Uy-joy kodeksida belgilanishicha, fuqarolarga turar joylar berilganda turar joy hajmini belgilashda oilada homilador ayollarning mavjudligi ham hisobga olinadi. Huquq layoqati fuqaroning ya'ni, huquq subyektining o'limi bilan tugaydi.

Bugun fan texnika taraqqiyoti rivojlangan davrda ba'zi og'ir kasalliklarda sun'iy ravishda inson hayotini saqlab qolish imkoniyatini paydo qiladi. Ba'zan bunday holat uzoq vaqt cho'zilishi ham mumkin (ba'zida yillab davom etadi va buni ba'zi adabiyotlarda o'simlik hayoti deb ham atashadi). Kishini o'simlik hayoti (sun'iy jonlantirish holati)da bo'lishi uni o'lim fakti ro'y bermaganligi sababli huquq layoqatini bekor bo'lishiga olib kelmaydi. Biologik o'lim hollaridan tashqari qonunda fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish tartibi ham mavjud.

FK 22-moddasiga ko'ra, fuqarolarning muomala layoqati fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir. Muomala layoqatini yuridik harakatlarni amalga oshirish layoqati deb ham e'tirof etish mumkin. Ba'zida, huquq layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar o'z xatti-harakatlarini anglab, oqibatlarini tushunib o'z erki irodalari asosida harakatni amalga oshiradilar.

Odatda, yangi tug'ilgan chaqaloq garchi to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham o'z mustaqil harakatlari bilan o'zi uchun huquq va majburiyat vujudga keltirish qobiliyatiga ega emas. Bolalar yillar o'tgan sayin aqliy bilimlar va hayotiy tajriba orqali ongi to'liqlashib boradi. 18 yoshga to'lganda unda to'liq muomala layoqati vujudga keladi. Ayni paytda qonunda belgilangan tartibda va asoslarda nikohdan o'tgan voyaga yetmaganlar ham shu paytdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladilar. FK 23-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomala layoqatiga ega bo'ladilar. Fuqarolarning muomala layoqati faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda cheklanishi mumkin. Fuqaroning o'zi tomonidan yoki boshqalar tomonidan uning muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Voyaga yetmaganlarning fuqarolik muomalasida ishtiroki masalasi tabaqlashtirilgan holda tartibga solinadi. Ya’ni 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqatining hajmi va mazmunida o‘ziga xosliklar mavjud. 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to‘la ravishda muomalaga layoqatli emaslar. Biroq, qonun ularga fuqarolik muomalasida qatnashish bo‘yicha muayyan imkoniyatlar beradi. **Bunga ko‘ra, 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar:**

- 1) *mayda maishiy bitimlar;*
- 2) *tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;*
- 3) *qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar.*

**O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligesiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:**

- 1) *o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;*
- 2) *fan, adabiyot yoki san’at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;*
- 3) *qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;*
- 4) *mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.*

Kishining ruhiy kasalligi, aqli zaifligi uni sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish uchun asos bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni unutmaslik lozimki, har qanday ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik fuqaroni ongli ravishda harakatlar qilish va fuqarolik muomalasida faol qatnashish imkoniyatidan mahrum etmaydi. FK 30-moddasida ko‘rsatilishicha, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjalarda belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaro vasiylik belgilanadi. Tabiiyki, muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni vasiy amalga oshiradi. Agar fuqaro ruhiy kasallikdan davolansa, tegishli tartibda sud tomonidan to‘liq muomalaga layoqatli deb topilishi ya’ni, muomala layoqati tiklanishi mumkin.

FK 31-moddasiga ko‘ra, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek, ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladi.

### **Fuqaroni bedarak yo‘qolgan va vafot etgan deb e’lon qilish**

Fuqaroni o‘z yashash joyida uzoq muddat bo‘lmasligi, agarda uni qayerdaligi noma'lum bo‘lsa, u bilan huquqiy munosabatlarda bo‘lgan tashkilotlar va fuqarolar uchun o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, fuqaro qarzdor bo‘lsa, uning kreditorlari qarzni qaytarilishini talab qila olmaydilar. Fuqaroning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar ta’midotidan mahrum bo‘ladilar, biroq ular formal jihatdan boquvchisi bo‘lgani sababli nafaqa so‘rab murojaat qilishga hali haqli emaslar. Fuqaroni uzoq muddat yo‘qligi uni yashash joyidagi mol-mulkini qarovsiz qolishiga, shikastlanishiga olib keladi.

Fuqaro uzoq muddat bo‘lmasligi sababli ro‘y bergen yuridik (huquqiy) noaniqlikni bartaraf etish, uning mol-mulki uchun salbiy oqibatlarni oldini olish uchun fuqarolik huquqida bunday fuqaro uchun alohida yuridik holat, ya’ni, uni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e’lon qilish tartibi belgilangan.

**Bedarak yo‘qolganlik** – qayerdaligini aniqlashni imkonni bo‘lmagan fuqaroni uning yashash joyida uzoq muddat bo‘lmaganlik faktini sud tartibida guvohlantirish hisoblanadi.

FK 33-modda 1-qismiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin. Shunday qilib, bunday tartibda, sudga da’vo bilan emas, balki ariza bilan murojaat qilinadi. Qonunda manfaatdor shaxslar doirasasi aniq qilib belgilab qo‘yilmagan. Agar qonunning umumiyligi mohiyatidan kelib chiqsak, u holda manfaatdor shaxs doirasiga bedarak yo‘qolgan shaxsning eri (yoki xotini), qaramog‘idagi shaxslar kiradi. Bundan boshqa sabablarga ko‘ra ham har qanday shaxslar agarda shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lsa “manfaatdor shaxs” sifatida qaralishi mumkin.

Bundan tashqari, prokuror, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, qonunga ko‘ra, o‘zgalarni huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishga haqli bo‘lgan organlar va fuqarolar ham bunday ariza bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish uchun uning yashash joyida eng kamida bir yil davomida uning qayerdaligi to‘g‘risida hech qanday ma’lumot bo‘lmasligi lozim. Fuqaro to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar sanasini belgilab olish muhimdir. Ushbu sana u yuborgan oxirgi xat-xabar, guvoh ko‘rsatuvlari asosida belgilanadi. Yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan kunni aniqlash imkon bo‘lmasa, bedarak yo‘qolgan deb hisoblash muddati yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida olingan oxirgi ma’lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo‘lmagan taqdirda esa – keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish uning haqiqatda qayerdaligini aniqlash mumkin bo‘lmagandagina amalga oshiriladi. Agar fuqaro biror mamlakatda yashab yuribdi degan ma’lumotlar mavjud bo‘lsa yoxud jinoyat sodir etib, qochib yurgan bo‘lsa, uni bedarak yo‘qolgan deb topishga asos bo‘lmaydi.

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi (FK 35-m.).

Fuqarolik kodeksining 36-moddasiga muvofiq, faqat sud fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish uning oxirgi yashab turgan joyida amalga oshiriladi.

Sud amaliyoti fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi ish ko‘rilayotgan vaqtida sud o‘lim paytini emas, balki vafot etgan deb gumon qilishga asos bo‘luvchi holatning borligini aniqlashi kerak.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qarori qonuniy kuchga kirgan kun vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning o‘lgan kuni deb hisoblanadi.

Fuqaroning vafot etgan deb e’lon qilinishi to‘g‘risidagi asosiy qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda qayd etilishicha, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa,

manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida ikki yil o'tganidan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin.

Fuqaro vafot etgan deb e'lon qilinganida uning mulkiga nisbatan meros ochiladi hamda shaxsiy majburiyatlari tamom bo'ladi.

Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi (FK 37-m.).

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi qaror bekor qilinganidan so'ng u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o'tib qolgan mol-mulkini o'ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli. Biroq Fuqarolik kodeksi 229-moddasining 2, 4-qismlari talablariga ko'ra, bunday shaxsning mol-mulki sud qarorini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan va puli, taqdim etuvchiga deb yozilgan qimmatli qog'ozlari insofli egallovchida bo'lsa, u talab qilib olinmaydi. Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo'lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to'lamagan bo'lsalar, bunday hollarda to'lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o'tadi.

Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroga qarashli mulkni haq to'lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib olganliklari isbotlansa (insofsiz egallovchi), ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli hamda qaytarib berishning imkonи bo'lmasa, uning qiymati to'lanadi.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi qaror bekor qilinganidan so'ng unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi (FK 37-m.).

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo'lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to'lamagan bo'lsalar, to'lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o'tadi.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot

etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi (FK 37-m.).

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mazkur huquqiy institutlar IIO faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Chunki, bedarak yo'qolgan fuqaroni qidirish harakatlari asosan IIO tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 306-moddasiga asosan, ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida suda bedarak yo'qolgan shaxs to'g'risida kimlar ma'lumot bera olishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek bedarak yo'qolganning ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyi va ish joyidagi ichki ishlar organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan bedarak yo'qolgan shaxs to'g'risida bor ma'lumotlarni so'rab oladi.

### **Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari.**

Fuqarolik huquq subyektlari ichida yuridik shaxslar o'z belgilari, vujudga kelish va bekor bo'lish usullari, fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtiroki, subyektiv huquqlarni amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi layoqati nafaqat fuqarolarga, balki yuridik shaxslarga ham beriladi.

Mamlakatimizda yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yaxlit tizimi yaratilgan. Ularning har birida turli xo'jalik yuritish shakliga ega bo'lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o'ziga xos ta'riflar, tushunchalar berilgan. FK esa ularning barchasini umumlashtirib yuridik shaxsga quyidagicha ta'rif beradi: O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi (FK 39-m.).

Shuningdek, yuridik shaxs fuqarolik huquqining subyekti sifatida tan olinishi uchun muayyan huquqiy belgilarga ega bo'lishi kerak. Yuridik shaxs belgisi uning ichki o'ziga xos xususiyatidir. FKda yuridik shaxsga berilgan ta'rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo'la oladi.

*Tashkiliy birlik* – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ta'sis

hujjatlarida nazarda tutilgan boshqaruv organlari va bo‘linmalari orqali muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishligini bildiradi. Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishi (strukturasi) ta’sis hujjatida ko‘rsatiladi. Yuridik shaxslarning ayrim filiallari (xo‘jalik bo‘limlari, uchastkalari, agentliklari) ma’lum tizimga ega bo‘lgan, muayyan tarzda tashkil etilgan bo‘lsa ham, ular butun bir tashkilot (korxona, muassasa) ishining bir qisminigina bajaruvchi tashkilotlari bo‘lgani tufayli yuridik shaxs bo‘la olmaydi.

*Mulkiy mustaqillik* – yuridik shaxsga ma’lum bir mol-mulkni mulk (xo‘jalik yuritish, operativ boshqaruv) huquqi asosida tegishliliginibildiradi. Ya’ni, FK 39-moddasidagi yuridik shaxs ta’rifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, “o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan”dagina, tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning balans yoki smetasida hisobda turadi va FK 39-moddasi talablariga muvofiq, har qanday tashkilotda balans yoki smeta mustaqil bo‘lishi lozim. Davlat tashkilotlari davlatga qarashli mulkka nisbatan to‘la xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqigagina egadirlar. Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o‘zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mulkni egallaydi. Alohida mulkka ega bo‘lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo‘jalik munosabatlarida bo‘la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyekti bo‘lib hisoblanmaydi.

*Mustaqil mulkiy javobgarlik* – yuridik shaxs o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli bo‘lgan (davlat tashkiloti esa, o‘ziga biriktirib qo‘yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarning majburiyatları yuzasidan davlat javobgar bo‘lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatları yuzasidan javobgar bo‘lmaydilar. Davlat budgetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag‘ berish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning yuqori organi o‘ziga qarashli yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlarning qarzlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. Ammo yuridik shaxsning yuqori organi o‘ziga bo‘ysunadigan tashkilotning qarzlari uchun qonunda yoki ta’sis hujjatida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo‘lishi mumkin. Quyi tashkilotlar ham o‘zlarining yuqori tashkilotlari majburiyatları yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. Yuridik shaxslar o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo‘lmaganida

davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar (qo‘sishimcha) javobgar bo‘ladi. Yuridik shaxsning bankrotligi uning mulkdori yoki ta’sischining g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmaganda, uning mulkdori (yoki ta’sischisi) zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilishi – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo‘lmagan huquqlarga ega bo‘la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi, demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo‘jalik sudida yoki hakamlik sudida mustaqil ravishda da’vogar va javobgar bo‘la oladi.

Yuridik shaxslar quyidagi usullarda vujudga kelishi mumkin:

1. *Buyruq (farmoyish) orqali*. Muassisning buyrug‘i asosida tashkil etiladigan yuridik shaxslar mazkur usulda vujudga keladi. Bu usulda, odatda, davlat korxonalari tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki boshqa vakolatli davlat organlarining qarorga muvofiq tashkil etiladigan korxonalarning vujudga kelishiga mazkur imperativ xarakterdagi farmoyish (qaror, buyruq) korxonani tashkil etish uchun asos bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi, PQ-1990-son qaroriga asosan, Toshkent davlat yuridik universiteti buyruq asosida tashkil etilgan.

2. *Murojaat qilish usuli*. Bunda muassislar tomonidan tuzilishi kutilayotgan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyati qonun tomonidan oldindan belgilab qo‘ylmagan bo‘ladi. Ya’ni, yuridik shaxsni tashkil etish istagida bo‘lgan shaxs – muassis qonunda taqiqlanmagan istalgan faoliyat turiga ixtisoslashgan hamda xohlagan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxsni tashkil etishi mumkin. Binobarin, bunday hollarda davlat organi xuddi shunday yuridik shaxsning tashkil etilish va etilmasligining maqsadga muvofiqligini tekshirmaydi, faqat uning ta’sis hujjatlari qonunga muvofiqligi tekshiriladi. Ayni kunlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi PQ-357-sonli qaroriga asosan tashkil etilayotgan korxonalar (banklar va ommaviy axborot vositalari bundan mustasno) aynan murojaat usuli orqali vujudga kelmoqda.

3. *Ruxsat olish usuli*. Bunday usulda tashkil topadigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyatlari qonunlarda oldindan belgilab qo‘yladi va binobarin, ularning tashkil bo‘lish-bo‘lmasligi maqsadga muvofiqligi tekshirilmaydi, balki ta’sis hujjatlarining qonunga muvofiqligi tekshiriladi, xolos. Hozir yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofiq

emas, degan vaj bilan ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu bevosita FK 44-moddasida o‘z ifodasini topgan. Lekin amalda ba’zi korxonalar aynan shu usulda tashkil etilmoxda. Mamlakatimizda tijorat banklari ruxsat olish usulida tashkil etilmoxda (“Banklar va bank faoliyatini to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasi).

Yuridik shaxslar faoliyatining bekor bo‘lishi uni qayta tashkil etish va tugatish asosida amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi har doim subyektning tugatilishini anglatishi bilan birga ba’zi holatlarda yangi subyektning vujudga kelishi uchun asos sifatida ahamiyatli bo‘ladi. Yuridik shaxslar bekor bo‘lishining bиринчи usulida aynan shu holat ro‘y beradi. Qayta tashkil etish orqali yuridik shaxslar bekor qilinganda vujudga kelgan subyekt oldingi yuridik shaxsning vorisi sifatida e’tirof etilsa-da, u mutlaqo yangi huquq subyekti sanaladi. Qayta tashkil etish qo‘sib yuborish, qo‘sib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, tashkiliy huquqiy shaklini o‘zgartirish shakllarida amalga oshirilishi mumkin (FK 49-m.).

Fuqarolik huquqi nazariyasida yuridik shaxslar bir necha asoslarga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Jumladan, mulk shakliga ko‘ra xususiy (xususiy mulkka asoslangan) va ommaviy (davlat mulkiga asoslangan), faoliyat maqsadiga qarab tijoratchi va notijorat, ta’sischilarining ishtirokiga ko‘ra ta’sischilar faqat yuridik shaxslar bo‘lgan (uyushma va assotsiatsiyalar), muassis faqat davlat bo‘lgan (unitar korxonalar) hamda har qanday subyekt muassis bo‘lishi mumkin bo‘lgan korxonalar kabi turlari mavjud. Ayrim hollarda yuridik shaxslar ommaviy, xususiy va ommaviy yuridik shaxsga o‘xhash korxonalar tarzida turkumlanadi.

FKda yuridik shaxslar faoliyatining maqsadiga qarab (tijoratchi tashkilot va tijoratchi bo‘lмаган tashkilot) tasniflanadi (FK 40-m.).

Qonun hujjaligiga muvofiq tijoratchi yuridik shaxslar ham tijoratchi bo‘lмаган yuridik shaxslar ham tadbirkorlik (foyda olishga qaratilgan faoliyat) faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin, lekin bunda, tijoratchi yuridik shaxslardan farq qilib tijoratchi bo‘lмаган yuridik shaxslar o‘z tadbirkorlik faoliyatlaridan olgan foydani faqat a’zolarining ehtiyojini qondirish yoki o‘zga mushtarak maqsadni amalga oshirish uchun ishlatalilar. Olingan foydani boshqa maqsadlarda ishlatalishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu munosabat bilan tijoratchi bo‘lмаган yuridik shaxslarga nisbatan FK “foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan” degan ibora emas, balki, “foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo‘ymagan” iborasi belgilangan. Bu esa, tijoratchi bo‘lмаган tashkiloti tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi muayyan foyda ko‘rishi mumkinligini belgilaydi. Faqatgina tijoratchi bo‘lмаган

yuridik shaxslarning asosiy maqsadi (yordamchi yoki boshqa maqsadlar bundan mustasno) foyda olish bo‘lmaydi, xolos.

Tijoratchi bo‘lgan yuridik shaxslar jumlasiga xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda unitar korxonalar kiradi.

Tijoratchi bo‘limgan yuridik shaxslar jumlasiga matlubot kooperativlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va mulkdorlar tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasalar kiradi. Tijoratchi bo‘limgan tashkilotlar o‘z ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug‘ullana oladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomi umumiylashtirish O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunida o‘z aksini topgan.

FK 77-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxslar o‘zlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak manfaatlarini ifoda etish hamda himoya etish maqsadida uyushmalar (ittifoq) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin. Uyushma yuridik shaxs hisoblanib, uning a’zolari o‘z mustaqilligini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Uyushma o‘z a’zolarining majburiyatlari bo‘yicha uyushmaning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo‘ladi.

*Davlat* jamiyat hayotining barcha sohalarida eng muhim ahamiyatga ega “subyekt” hisoblanadi. Davlatning ushbu maqomi iqtisodiy munosabatlarda yaqqol ajralib turadi. Zero, iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida davlat ishtiroki bevosita xalq manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda esa, davlat ana shu manfaatlarning himoyachisi sifatida ularni to‘g‘ri va maqbul amalga oshirilishini ta’minlab beradi. Iqtisodiy sohada davlatning xalq manfaatlarini ifoda etishi bilan bog‘liq munosabatlar asosan fuqarolik huquqi bilan tartibga solinishini nazarda tutib, hozirgi sharoitda davlatning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlash, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash, xalq manfaatlarini ifoda etishning iqtisodiy va huquqiy asosi hisoblangan davlat mulkini himoya qilish va uni amalga oshirishning samarali usul va vositalarini vujudga keltirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FK 2-moddasiga ko‘ra, davlat ham fuqarolar va yuridik shaxslar kabi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchisidir.

Darhaqiqat, bozor munosabatlari sharoitida davlatning iqtisodiy munosabatlardagi o‘rni va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi maqomi

tubdan o‘zgardi. Endilikda davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi huquqiy munosabatlarda teng asoslarda ishtirok eta boshladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda hokimiyat sohibi sifatidagi davlat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlardan biri bu davlatning o‘zi bevosita ishtirok etadigan munosabat doirasini o‘zi belgilashidir. Demak, davlat o‘zining qaysi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishini o‘zi belgilay oladi. Zarur paytda esa, davlat o‘z qarorlari bilan o‘z ishtirokini ta’minlaydi. Masalan, davlat, xalq va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab g‘alla ekinlari faqat davlatga sotilishini belgilab qo‘yishi mumkin.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki uning suverenitet sohibi ekanligidan kelib chiqadi.

Davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmasdir. Shunga binoan davlat fuqarolik-huquqiy munosabatda yakka va yagona subyekt (fuqarolar va yuridik shaxslar kabi ko‘p va turli xil emas) deb qaraladi. Zero, davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida boshqa subyektlar bilan o‘zaro huquqiy aloqalarga kirishar ekan, bunda u o‘ziga tegishli bo‘lgan imtiyozlar: hokimiyat vakolati, hukmronlik va boshqarish faoliyati, ustunlik maqomidan voz kechishiga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlanganidek, bu fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmas subyekt hisoblanadi. Binobarin, bitta alohida olingan hududda ikkita suverenitet sohibi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

*Davlat* – oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo‘lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti o‘ziga xos sifatidagi xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi.

Fuqarolik huquqining boshqa subyektlari barcha subyektlar amal qiluvchi qonun qabul qilish vakolatiga ega emas. Qonun qabul qilish faqatgina davlat va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi va ijro etilishi ta’minlanadi.

2. Davlat organlari fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi bo‘ladigan hujjatlar chiqarishi mumkin (FK 8-modda 2-band).

Umumiy qoidaga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir subyekt o‘zining nomidan harakat qilishi lozim. Bu qoida fuqarolarga (fuqarolik muomala layoqati) ham, yuridik shaxslarga (yuridik shaxslarning huquqiy belgilaridan biri – bu fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘z nomidan ishtirok etishi) ham taalluqlidir. Davlat ham

fuqarolik muomalasida o‘z nomidan qatnashadi. “Davlat” tushunchasi mavhum hisoblanganligi uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan uning organlari ishtirok etishi zarur. Chunki keyinchalik yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda bu holat muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 5-bobi “Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchisi sifatida” deb nomланади. FK 79-moddasida davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilari bilan teng asoslarda ishtirok etishi, bu munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar qatnashishi hamda davlat o‘zining fuqarolik-huquqiy majburiyatları bo‘yicha o‘z mulki bo‘lgan mablag‘lari bilan javob berishi belgilab qo‘yilgan. FK 80-moddasida esa, davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatları bo‘yicha javob bermasligi (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari), davlat o‘zi tuzgan yuridik shaxsning majburiyatları bo‘yicha ham javobgar bo‘lmasisligi nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu moddaning qoidalari davlat tuzgan shartnomasi asosida yuridik shaxsning majburiyatları bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergen) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatları bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergen) hollarga taalluqli emasligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Huquq subyektlarining harakatlari nimaga qaratilgan bo‘lsa, huquq va majburiyatlar nima ustida belgilansa, shu narsalar huquqiy munosabatlarning *obyekti* hisoblanadi. Shunga ko‘ra, fuqarolik huquqining subyektlari foydalanadigan va tasarruf eta oladigan, erkin suratda olish, sotish huquqi hamda odob-axloq me’yorlari bilan cheklanmagan yoki taqiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va nomoddiy qiymatliklar, qadriyatlar va boyliklar fuqarolik huquqining obyekti bo‘la oladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatning *mazmunini* ushbu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatları tashkil etadi. Ayni paytda fuqarolik munosabatning mazmunini bunday munosabat ishtirokchilarini o‘z subyektiv huquq va majburiyatlariga muvofiq amalga oshiriladigan o‘zaro harakatlari, xulq-atvori faoliyati tashkil etadi degan nuqtai-nazar mavjud. Bunda subyektiv huquq va burchlar huquqiy munosabatning yuridik shakli deb ko‘rsatiladi<sup>1</sup>.

Subyektiv huquq har doim muayyan, konkret subyektga tegishli bo‘ladi. Biroq subyektiv huquqlar obyektiv huquq asosida ya’ni davlat

---

<sup>1</sup> Гражданское право: Учебник. Часть 1. – М., 1996. – С.78-77.

tomonidan belgilab qo‘yilgan huquq normalari asosida vujudga keladi va ularga muvofiq amalga oshiriladi.

Subyektiv huquq iborasining mohiyati shundan iboratki, bu huquq har doim muayyan subyektga tegishli bo‘ladi va uni amalga oshirish ushbu huquq subyektining erki irodasi va xohishiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki amalda subyektiv huquq sohibi o‘zining bu huquqlarini amalga oshirishi yoki amalga oshirmsligi yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda ushbu huquqdan voz kechishi ham mumkin.

Subyektiv huquq sohibi o‘zi bilan huquqiy munosabatga kirishgan boshqa tarafdan o‘z huquqini buzilmasligini, unga riosa qilinishini qat’i talab qilishga haqli. Masalan, badiiy asar muallifi ushbu asarga nisbatan o‘zining shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzilmasligini har kimdan talab qila oladi. Shuningdek, subyektiv huquqlar o‘z xarakteriga ko‘ra mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolarga va boshqa subyektlarga tegishli subyektiv huquqlar davlat tomonidan kafolatlangan huquqlardir. Davlat bu huquqlarni amalga oshirishni ta’minalash uchun nafaqat yuridik, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ham yaratib beradi.

Huquqiy munosabatlar mazmunini subyektiv huquqlar bilan birgalikda fuqarolik majburiyatlar ham tashkil etadi. Majburiyatning mohiyati shundaki, unda huquq normasini talab bo‘yicha yoxud shaxsni o‘z ixtiyori asosida zimmasiga olgan burchi bo‘yicha u muayyan xatti harakatlarni qilishga yoki muayyan xatti harakatlarni qilishdan o‘zini tiyib turishga majbur bo‘ladi. Odatta, har qanday majburiyat burchli qarzdor shaxsning erkini muayyan darajada cheklaydi. Uni huquq egasini manfaatlari bilan bog‘laydi va ushbu manfaatlarga riosa qilinishiga majburlaydi. Masalan, qurilish tashkiloti tuzilgan shartnomaga muvofiq buyurtmachiga turar joy qurib berishga yoki turar joyni ta’mirlashga majbur. Buyurtmachi esa buning uchun muayyan summadagi haqni to‘lashi lozim. Subyektdan muayyan xatti harakatni amalga oshirishni talab etadigan majburiyatlar ijobiy pozitiv majburiyatlar hisoblanadi. Muayyan xatti harakatlarni sodir etishdan o‘zini tiyib turish, saqlanishni talab etadigan majburiyatlar esa salbiy – negativ majburiyatlar deb ataladi. Ba’zi mualliflar esa buni aktiv va passiv majburiyatlar deb ham atashadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar bir-biridan ayro holda mavjud bo‘lishi mumkin emas. Boshqacha aytganda subyektiv huquq va majburiyatlar yagona huquqiy munosabatning tarkibiy elementlari bo‘lib ular o‘zaro bir-birlari bilan o‘zaro uzviy bog‘langandirlar. Muayyan subyektlar subyektiv huquqning

mavjud bo‘lishi boshqa subyektda ushbu huquqqa yarasha majburiyat bo‘lishini anglatadi va aksincha har qanday majburiyat uni qarshisida uni bajarishni talab qilishga haqli bo‘lgan huquq egasi bo‘lishini anglatadi. Masalan ijarachi o‘zi ijaraga olgan uydan foydalanish huquqiga ega va bunda ushbu huquqni amalga oshirishga nisbatan barcha to‘sqinliklarni kim tomonidan sodir etilmasin, hatto turar joy egasi tomonidan sodir etilsa ham bartaraf etilishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmunan bir necha turga bo‘linadi:

1) *Mulkiy xarakterdagи va mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar*. Mulkiy xarakterdagи munosabatlar deganda, muayyan moddiy-iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, masalan, mol-mulk bo‘yicha belgilanadigan, oldi-sotdi, ijaraga qo‘yish va boshqacha shaklda bir subyektdan boshqasiga o‘tkazish, umuman mulkiy muomala bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar anglashiladi.

Mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar shaxs (fuqarolar va yuridik shaxslar)ning o‘zi bilan bevosita uzviy bog‘liq bo‘lgan, o‘z sohibidan, egasidan begonalashtirilishi va birovga o‘tkazilishi mumkin bo‘lmagan shaxsiy huquqlar, chunonchi, shaxsning o‘z asariga nisbatan mualliflik nomiga bo‘lgan huquq , sha’ni, qadr-qimmati va boshqa shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlardan iborat.

2) *Mutlaq (absolut) va nisbiy huquqiy munosabatlar*. Mutlaq huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o‘z huquqlarining buzilmasligini, ularga rioya qilinishini har kimdan va hammadan talab qila oladilar. Mutlaq huquqlar<sup>1</sup> nomuayyan doiradagi shaxslar tomonidan buzilishi mumkin bo‘lgani sababli har kimdan qo‘riqlanadi. Bunday huquqlarga mulk huquqi, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquqlar va shu kabilar kiradi.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda esa faqat bir subyekt (yoki subyektlar)gina huquq yoki majburiyat oladi. Nisbiy huquqlar zimmasida majburiyat yuklangan ma’lum shaxs (yoki shaxslar)ga nisbatangina kuchda bo‘ladi. Shartnomalarga asoslangan barcha fuqarolik huquqlari nisbiy huquqlar hisoblanadi. Nisbiy huquqlarga asoslangan talablarga rioya qilishi, majburiyatlarning bajarilishi, qarzga olingan pulning to‘lanishi bo‘yicha o‘z zimmasiga shartnoma asosida majburiyat olgan subyektlardangina talab qilish mumkin bo‘ladi.

3) *Mulkiy huquqiy munosabatlar*. Mulkiy huquqiy munosabatlar moddiy xarakterga ega hamda ashyolarni, mol mulklarni egallash, ulardan

---

<sup>1</sup> Мутлоқ (абсолют) ҳуқуқ ва ФК 1034-моддасида назарда тутилган мутлоқ ҳуқуқлар (исключительные права)ни чалкаштираслик лозим.

foydalananish va ularni tasarruf etishga shuningdek, ular bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni amalga oshirishga qaratiladi. Mulkiy huquqiy munosabatlarda ushbu huquq sohibi bo‘lgan subyektlar boshqalarni qo‘llab-quvvatlashi va ruxsat berishlariga yoki boshqacha ijobjiy harakatlariga muhtoj bo‘lmay o‘z huquqlarini o‘zlari bevosita amalga oshirish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatlariga egadirlar. Demak, bunday huquqiy munosabatlardan mutlaq (absolut) huquqiy munosabatlardir.

Ulardan farqli ravishda majburiyat munosabatlari nisbiy xarakterga ega bo‘lib zohiran olganda majburiyat munosabatlarining aksariyat ko‘p-chiligi mulkiy xarakterga ega (ba’zi hollarda majburiyat munosabatlari shaxsiy xarakterga ega bo‘lishi istisno etilmaydi). Odatda, majburiyat munosabatlari fuqarolik huquqi subyektlari tomonidan o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladi. Masalan, fuqaro tomonidan oldi-sotdi shartnomasi asosida kiyim-kechak xarid qilish, mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan kapital qurilish shartnomasi asosida o‘z ofisini qurish to‘g‘risida qurilish tashkiloti bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi.

Majburiyat munosabatlarining ba’zilari shartnomada bilan bog‘liq bo‘lmasdan balki, zarar yetkazish (delikt) yoxud mol-mulkni asossiz olish yoki tejash bilan bog‘liq munosabatlardan (kondikt) bo‘lib hisoblanishi mumkin.

4) *Korporativ munosabatlardan*. Bozor munosabatlari tizimida fuqarolik huquqiy munosabatlarni o‘ziga xos turi korporativ huquqiy munosabatlardan paydo bo‘ldi. Korporativ huquqiy munosabatlardan o‘z xarakteriga ko‘ra tashkiliy, mulkiy va majburiyat huquqiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. *Korporativ munosabatlardan deganda* – tijorat yuridik shaxslari, ishtirokchilarini, muassisalarini, mulkdorlarini tijorat yuridik shaxsni tashkil etish, ta’sis hujjatlarini ishlab chiqish, mol-mulkini shakllantirish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, faoliyatini yo‘lga qo‘yish, amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etish bo‘yicha o‘zaro bir-birlari bilan, tijorat yuridik shaxsi bilan, tijorat yuridik shaxsi tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligini amalga oshirish bo‘yicha tarkib topadigan munosabatlardan majmui hisoblanadi.

Korporativ-huquqiy munosabatlardan odatda ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tijorat yuridik shaxsi tashkil etilganda vujudga keladi. Tijorat yuridik shaxsi ishtirokchilarini turli yig‘ilishlar o‘tkazish, bir birlari bilan individual va guruh uchrashuvlarini tashkil etish bo‘yicha sa’y-harakatlari, tashkiliy-huquqiy munosabatlardan bo‘lib hisoblanadi. Tijorat yuridik shaxsi ishtirokchilarini ustav fondini shakllantirish, mol-mulk qo‘sish bo‘yicha munosabatlari mulkiy munosabatlardan hisoblanadi. Tijorat yuridik shaxslari

foydasidan ulush, daromad olish munosabatlari majburiyat huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari ba'zi mualliflar “imtiyozli fuqarolik huquqiy munosabatlar” mavjudligi to‘g‘risida fikr bildiradilar. Bunda fuqarolik huquqiy munosabatning muayyan ishtirokchisi boshqa subyektlarga nisbatan muayyan manfaat ko‘rish bo‘yicha imtiyozga, afzallikka egaligi qonun yoki shartnomada belgilab qo‘yiladi. Masalan, garov bilan ta’minlangan asosiy majburiyat ijro etilmagan taqdirda garovga oluvchi tomonidan garov predmetiga nisbatan o‘z talablarini imtiyozli qanoatlantirish huquqi yoxud umumiylashli mulkdagi ulush sotilganda sherik mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqiga ega (FK 224-m.).

## **2-§. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar va uning obyektlari**

Fuqarolik huquqining **obyekti** huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan moddiy va nomoddiy ne’matlardir. Ular jumlasiga ashayolar, mol-mulklar mulkiy huquqlar, pullar, qimmatli qog‘ozlar ishlar va xizmatlar intellektual faoliyat turli shaxsiy huquqlar hisoblanadi. Xavfsizlikni ta’minlash, insonlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, tabiatni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish yuzasidan ba’zan fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada bo‘lishi cheklanishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi obyektlari doirasi kengaydi. Masalan, obyekt sifatida xususiy mulk, qimmatli qog‘ozlar keng muomalaga kirib keldi, intellektual mulkning yangidan-yangi obyektlari (integral mikrosxemalar topologiyalari, nou-xaular) vujudga keldi, ishlar va xizmatlar doirasi kengaydi, tijorat siri mustahkamlandi.

Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashayolar, mol-mulklar, mulkiy huquqlar, pullar va qimmatli qog‘ozlar, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, shaxsiy-nomulkiy huquqlar kiradi (FK 81-m.).

Fuqarolik huquqi obyektlarini ikki turga, ya’ni moddiy (ashyoviy) va nomoddiy (noashyoviy) ne’matlarga bo‘lish mumkin.

Ashyo o‘zining iqtisodiy tayinlanishiga, jisman va boshqa xususiyatlarga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

Masalan, o‘z xususiyatlari bo‘yicha tevarak-atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan ashayolar, ya’ni xavfli xossalarga ega ashayolar (portlovchi moddalar, qattiq ta’sir qiluvchi zahar kabilari). Bunday ashayolarni erkin olish va sotishga yo‘l qo‘yilmaydi. Muomalada bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Ba’zi ashyolar iqtisodiyot uchun ahamiyati, davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoxud boshqa asoslar bo‘yicha faqat alohida ruxsat bo‘yicha olinishi, sotilishi mumkin (qurol va o‘q-dorilar, portlovchi va radioaktiv moddalar, qattiq ta’sir qiladigan zaharlar, muhr, shtamp kabilar).

Valuta qimmatliklari: chet el valutasi (banknotlar, qog‘oz pullar, tanga-chaqalar); chet el valutasi hisobida yozilgan to‘lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar); bankning chet el valutasiga sotib olinadigan va shunday valutaga almashtirish huquqiga ega bo‘lgan so‘m hisobidagi to‘lov hujjatlari (cheklar va boshqalar); har qanday shakl va holatdagi qimmatbaho metallar: oltin, kumush, platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy); xom va ishlangan shakldagi qimmatbaho tabiiy toshlar (olmos, gavhar, la’l, zumrad, saprif, marvarid va boshqalar) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va doiralardagina oldi-sotdi predmeti bo‘lishi mumkin. Mazkur qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlar hamda shunday buyumlarning siniq parchalari bundan mustasnodir.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ular erkin sur’atda mulkdorning o‘zidan begonalashtirilishi mumkin.

**Ko‘char va ko‘chmas ashyolar.** Ko‘char ashyo bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida xususiyatini o‘zgarishsiz saqlaydigan va o‘z maqsadiga ko‘ra ishlatish mumkin bo‘lgan ashyodir.

Ko‘chmas ashyolar odatda doimiy ravishda bir joyning o‘zida mavjud bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga, xususiy belgilarga egadir. Shu sababli ham u jismiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga emas, balki xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga kiritiladi. Bunday ashyoning o‘ziga xos xususiyati yer bilan uzviy bog‘liqligidir (tabiiy ravishda yer bilan uzviy bog‘liq ashyolar, masalan, buloqlar, konlar, daryolar va boshq.; inson mehnati bilan vujudga kelgan yer bilan uzviy bog‘liq ashyolar, masalan, bino va inshootlar, quduqlar, bog‘lar, korxona va boshqa ashyolar).

Ko‘chmas ashyolar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish imkonining yo‘qligi, tayinlanish maqsadiga ko‘ra foydalaniib bo‘lmasligi, shaklan o‘zgarishi, shuningdek ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kabi belgilarga ega.

*Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar.* Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo alohida, faqat o‘ziga xos belgisi va o‘ziga xos, yolg‘iz sifati bo‘lgan ashyodir. Unga o‘zining belgilari bilan boshqa o‘xhash ashyolardan ajralib turadigan narsalar,

masalan, ma'lum ko'chadagi, ma'lum sonli uy-joy, o'zi bir dona bo'lgan ashyo (jahon birinchiligidagi champion bo'lgan ot, ko'hinur olmosi kabi)lar kiradi. Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashylar boshqa ashylardan muayyan usulda belgi qo'yish yoki muhr bosish, raqam qo'yish bilan farqlanadi.

Pul xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashymeni yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashymeni? – degan savol tug'iladi.

Bir tomondan qaraganda, pulda muayyan belgi va raqam qo'yilgani uchun uni xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo deyish mumkin. Ikkinci tomondan qaraganda, pul bir turga xos, ya'ni u bitta vazifani – to'lov ekvivalenti vazifasini bajaradi.

FK 87-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, xususiy alomatlari bilan belgilangan ashylar boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydigan ashylardir. Pulni esa boshqasi bilan almashtirish mumkin (masalan, yirik pulni mayda pulga va aksincha). Demak, pul turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyodir.

Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashylar son, og'irlilik va o'lchov bilan ko'rsatiladigan narsalar hisoblanadi. Masalan, 100 dona shifer, 100 metr chit, 100 tonna paxta va hokazo. Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashylar boshqasi bilan almashtirsa bo'ladigan ashylardir. Shuning uchun ham bunday ashylarga nisbatan **persona non grata** (ya'ni, tur nobud bo'lmaydi) qoidasi qo'llaniladi. Fuqarolik huquqida ashylarning xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashylarga bo'linishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, majburiyatlarni ijro etishda, burchni natura holida bajarilishida bunday bo'linishning o'rni beqiyos.

*Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashylar.* Bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalari o'zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini yo'qotmaydigan ashyo – bo'linadigan ashyo hisoblanadi. Masalan, bir qop un, bir qop kartoshka, bir bidon paxta yog'i kabi.

Bo'linmaydigan ashylar bo'lish natijasida qismlari dastlabki ashyo (butun)ning xossalari yo'qotadigan, uning xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini o'zgartiradigan ashyo bo'linmaydigan ashyo hisoblanadi (FK 88-m.). Bo'linmaydigan ashylarga shkaf, stol, televizor kabilari kiradi.

*Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashylar* (FK 89-m.). Iste'mol qilinadigan ashylar bir marta foydalanish natijasida butunlay yo'qqa chiqadigan yoki jiddiy ravishda o'zgaradigan narsa (masalan, oziq-ovqat, xom ashyo kabi)lardir.

Iste'mol qilinmaydigan ashyolar birmuncha uzoq vaqt davomida o'zining sifatini saqlaydigan narsalardir. Bunday ashyolar, odatda, qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan bo'ladi. Qayta-qayta foydalanish davomida iste'mol qilinmaydigan ashyolarning yemirilishi ham (binolar, uskunalar, transport vositalari) asta-sekin kechadi.

*Asosiy va mansub ashyolar.* Mansub ashyo asosiy ashyoga xizmat qilishga tayinlangan va umumiyo xo'jalik maqsadi jihatidan u bilan bog'liq bo'lgan ashyodir. Masalan, asosiy ashyo qulf bo'lsa, unga mansub ashyo kalitdir.

Mansub ashyo, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, asosiy ashyoning taqdiriga bog'liq bo'ladi. Masalan, asosiy ashyo birovning egaligiga yoki vaqtinchha foydalanishiga o'tsa, mansub ashyo ham u bilan birga o'tadi. Ammo qonun yoki shartnomada boshqacha hollar ham belgilanishi mumkin, ya'ni asosiy ashyo birovga o'tkazilganda, mansub ashyoning qoldirilishi to'g'risida alohida kelishuv ham bo'lishi mumkin.

Mansub ashyodan uning tarkibiy qismini ajratish kerak. Ashyodan uni zararlantirmay va qiymatini jiddiy ravishda tushirmay ajratilishi mumkin bo'lman har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, velosipedning nasosi mansub ashyo bo'lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.

*Murakkab ashyolar.* Agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo, ya'ni murakkab ashyo hisoblanadi. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, uning tarkibiy qismlariga taalluqli bo'ladi.

*Hosil va daromad beradigan ashyolar* tufayli hosil va daromadlardan foydalanish va ularni tasarruf etish to'g'risidagi ishni hal etish masalasi qo'yilishi mumkin. Ashyoning hosil va daromadlari to'g'risida Fuqarolik kodeksining ba'zi moddalarida ko'rsatma beriladi. Jumladan, FK 230-moddasida mulkni birovning qonunsiz egallahidan talab qilib olishda daromad va xarajatlarning to'lanishi aytildi.

Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lsa, ashyo egasiga tegishlidir.

*Jonli va jonsiz ashyolar.* Bunday ashyolar o'zida tiriklik alomatlari mavjudligi nuqtai nazaridan farqlanadi. Fuqarolik muomalasida jonli zotlar – kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo'lgan organizmlar – sut

emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, quruqlikda ham, suvda ham yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari ashyo sifatida namoyon bo‘ladi.

Qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, mol-mulk to‘g‘risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan, FK 169-moddasida nazarda tutilgan mulk huquqi obyektlari tarkibiga hayvonlar ham kiritilgan.

Huquqlarni amalga oshirish chog‘ida hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 111-moddasi “Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish” deb nomlanadi. Unga ko‘ra, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish, ya’ni ularni g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish yoki ularga azob berish, – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxs hozirligida sodir etilgan bo‘lsa yoki hayvonlarning o‘limiga yoxud mayib bo‘lishiga olib kelsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Hayvonlarga nisbatan mulkiy huquqlar bilan bog‘liq barcha qoidalar qo‘llaniladi. Hayvonlar bilan bog‘liq ko‘plab shartnomalar tuziladi. Odatda, eng ko‘p tuziladigan shartnomalar bu oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Xonakilashtirilgan hayvonlardan tashqari barcha hayvonot dunyosi ommaviy mulk sanaladi va u davlat muhofazasida bo‘ladi.

Umumiy qoidaga ko‘ra fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga: *moddiy va nomoddiy* ne’matlarga bo‘lish mumkin.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning moddiy obyekti bo‘lib ko‘ringan mulk tushunchasi to‘g‘risida to‘xtalib, shuni aytish kerakki, ba’zi hollarda ashyo, narsalar mulk deb atalsa ham mol-mulk atamasining ma’nosи birmuncha keng bo‘lishini bilamiz.

Mol-mulk muayyan shaxsga (fuqaro yoki yuridik shaxsga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashylar yoki ashylarning yig‘indisidir. Demak, mol-mulk bu munosabatdir (bu haqda mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar mavzusida yanada batafsil to‘xtaymiz).

FK 83-moddasida mol-mulk turlari ko‘rsatilgan. Unga asosan mol-mulk ko‘chmas va ko‘char mulkka bo‘linadi.

Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga ko‘ra, ko‘chmas mulklarning doirasi kengaytirilib, ular jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar kiritildi.

Ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq huquqlarni olish yoki begonalashtirish FK 84-moddasida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. FK 83-moddasasi uchinchi qismida qonunda boshqa mol-mulk ham ko‘chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkinligi belgilangan. Ta’kidlanganidek, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq asosiy xususiyat shundaki, u yer bilan bog‘liq bo‘lib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida o‘z xususiyatini yo‘qotadi.

Moddiy ko‘rinishdagi ne’matlar (ashyolar) bilan bir qatorda nomoddiy ne’matlar ham fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi. Fuqaroga tug‘ilganidan boshlab yoki qonun bo‘yicha tegishli bo‘lgan shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlari nomoddiy ne’matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan begonalashtirilishi yoki boshqa birovga o‘tkazilishi (berilishi) mumkin emas. Ayni vaqtida qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda marhumga tegishli bo‘lgan shaxsiy-nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar boshqa shaxslar, shu jumladan, huquq egasining merosxo‘rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin.

*Nomoddiy ne’matlar* – qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan hamda egasi (sohibi)ning shaxsidan ajratish mumkin bo‘lmagan ne’matlardir.

*Nomoddiy ne’matlarning quyidagi turlari mavjud:*

- intellektual faoliyat natijalari;
- xizmat va tijorat siri;
- shaxsiy nomulkiy huquqlar.

Nomoddiy ne’matlarning bir qismi, ya’ni intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri iqtisodiy mazmunga ega bo‘lib, tovar shakliga kiradi va mulkiy muomalada mutlaq huquq obyektlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa fuqarolik muomalasida o‘ziga xos tarzda, tovar shakliga kirmagan va iqtisodiy mazmunga ega bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi.

Nomoddiy ne’matlarning fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi xususiyati shundaki, bunda *birinchidan*, buzilgan nomoddiy huquq

mazmunidan, *ikkinchidan*, bunday buzilish oqibatlari xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanadi.

Nomoddiy ne'matga nisbatan huquqlarni himoya qilishda ko'p hollarda sud huquqni qayta tiklash yoki huquqbazarliklarni to'xtatishni ta'minlovchi choralar ko'radi. Nomoddiy ne'matlar orasida shaxsning (yuridik shaxsning ham) sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si alohida o'rinni egallaydi. Ayni vaqtida nomoddiy ne'matlar shaxsiy huquqlar nomi bilan yuritiluvchi o'ziga xos huquqlar majmuini ham o'z ichiga oladi (masalan, nomga, yashash joyini tanlashga, yozishmalar daxlsizligi, ya'ni sir saqlanishiga bo'lgan huquq kabilar).

### **3-§. Ichki ishlar organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida**

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarga asoslanar ekan, bunda barcha subyektlarning teng huquqli va majburiyatlari uchun ham bir xilda javobgar bo'lishini taqozo etadi. Chunki tom ma'noda bozor munosabatlari tizimini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida shartnoma tuzish erkinligi, shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmasligi, shartnoma tuzishda tomonlarning tengligi (FK 354-m.) kabi tamoyillar belgilangan. Bu esa fuqarolik huquqi subyektlarining erkin va dadil fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishuvining huquqiy kafolatidir. IIO fuqarolik huquqining "maxsus huquq layoqati"ga ega alohida subyekti hisoblansa-da, "fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarining teng huquqligi" tamoyili ularga ham daxldordir.

IIONing "maxsus huquq layoqati"ga egaligini fuqarolik muomalasida ularga qandaydir ustunlik yoki alohida imtiyoz berilganlik ma'nosida tushunmaslik kerak. Ularning "maxsus huquq layoqati"ni *birinchidan*, ular barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok eta olmasligi, *ikkinchidan*, ular notijorat yuridik shaxs bo'lib, ularning asosiy maqsadi tadbirkorlik, foyda olish emasligi va *uchinchidan*, ular tadbirkorlik sohasiga oid shartnomalarni tuza olmasligi bilan ifodalash mumkin. Mazkur holatlar ichki ishlar organlarini fuqarolik huquqining boshqa subyektlaridan ajratib turadigan belgilari hisoblanadi.

IIO o'z faoliyatini "Ichki ishlar organlari to'g'risida" 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ-407-son qonun asosida amalga oshiradi. Ushbu qonunning 2-moddasida IIONing asosiy vazifalari mustahkamlangan. IIO mazkur qonunda belgilangan funksiya va vazifalarni amalga oshirish

maqsadi ko‘zlangan shartnoma va bitimlarnigina tuzadi. Zero, IIO asosiy vazifalarini bajarishdagi moddiy zarurat va ehtiyojlari sababli fuqaroviy-huquqiy munosabatlarga kirishadi va bu munosabatlardagi ishtirokining asosiy shakli shartnomalar tuzish shaklida bo‘ladi.

YU.A.Tixomirovning ta’kidlashicha, davlat organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘zlarining ma’muriy vakolatlaridan foydalanmaydilar, ular bunday munosabatlarda o‘z kontragentlari bilan teng asoslarda quyidagi holatlarda ishtirok etadilar:

*birinchidan*, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlariga ma’muriy ta’sir o’tkazilmaydi;

*ikkinchidan*, boshqa kontragentlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarga ular ham amal qiladi;

*uchinchidan*, shartnoma munosabatlarida kontragentlar bilan teng huquqli bo‘ladi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinuvchi munosabatlarning subyekti ekanligi va fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tenglik va teng huquqlilik prinsipi asosida ishtirok etishi belgilangan. Fuqarolik kodeksida ichki ishlar organlarini yuridik shaxs sifatida belgilovchi yoki fuqarolik munosabatlaridagi ishtirokini yorituvchi aniq bir modda mavjud emas. Ammo, IIO kodeksning umumiy qoidalari asosida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashadi.

IIO, birinchidan, davlatning huquqni muhofaza qilishga oid vazifalarini ijro etuvchi hokimiyat organi bo‘lsa, ikkinchidan, fuqarolik muomalasida yuridik shaxs maqomiga ega tashkilot hisoblanadi. Bu, ularning faoliyati huquqning turli sohalari: davlat, ma’muriy, jinoyat-protsessual, shuningdek fuqarolik huquqi bilan ham tartibga solinishini anglatadi.

Ma’lumki, IIO davlat boshqaruvi idorasidir, shuning uchun uning huquq subyektliligining asosiy shakli – vakolatlari hisoblanadi. Fuqarolik huquqida IIOning huquqiy maqomiga “muassasa” deb qaraladi. I.Zokirov yuridik shaxs sifatida muassasalar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatni, chunonchi ma’muriy idora etish yoki ijtimoiy-ma’naviy ishlarni boshqarishni amalga oshirishini, bular jumlasiga shifoxonalar, oliy o‘quv yurtlari, teatrlar, sud-prokuratura va boshqa shunga o‘xshash tashkilotlar kirishini ta’kidlaydi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации / Под ред. О.Н.Садикова. – М., 2001. – С.168.

<sup>2</sup> Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳукуқи: Дарслик. I қисм. – Т., 2006. – Б.131.

IIOning fuqarolik huquqi subyektlilagini tasniflashda, uning aynan muassasa sifatida huquqiy holatini aniqlash shart bo‘ladi. Muassasalar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunida ifoda topgan. Shuningdek, ayrim turdagи muassasalar huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlari alohida qonun va huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. IIOning yuridik shaxs sifatida fuqarolik huquqiy maqomi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilanmagan bo‘lsa-da, IIOning muayyan tizimlariga oid nizomlarda ifoda topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasida ta’kidlanganidek, “boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi”.

Milliy qonunchiligidan muassasalarning davlat va xususiy shakllarga ajratilmagan. Biroq yuridik adabiyotlarda muassasalarni davlat muassasalari va xususiy muassasalar tarzida e’tirof etish an’ana tusiga kirgan. Akademik H.Rahmonqulov “muassasa” tushunchasi u mulkning qaysi shakliga asosan tashkil etilganidan qat’i nazar, bir xil ma’noda, qonunchilikda, agar muassasa xususiy mulkka asoslangan bo‘lsa, u faqat “muassasa”, davlat mulkiga asoslanganda esa, “davlat muassasasi” atamalari bilan ifodalinishini ta’kidlaydi.<sup>1</sup>

IIO tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lgan tashkilot va u o‘zida turli huquq layoqatiga ega tuzilmalarni birlashtiradi. Fuqarolik muomalasida yuridik shaxs sifatida faqat IIV emas, balki uning alohida tuzilmalari ham ishtirop etadi.

IIOni fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiropi va yuridik shaxs belgilariga ko‘ra quyidagi tizimga ajratish mumkin:

1) O‘zbekiston Respublikasi IIV;

2) IIOning yuridik shaxs layoqatiga ega bo‘lgan tuzilmalari. Ularni ham o‘z navbatida ikki guruhga ajratish mumkin:

a) *ma’muriy hududiy tuzilmalar*. Bu guruhga iyerarxik tartibda IIVga to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’muriy bo‘ysunuvchi yuridik shaxs layoqatiga ega bo‘lgan organlari, ya’ni tuzilmalari kiradi. Masalan, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari (bundan keyin viloyat IIB), shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va sh.k. Bular IIOning vertikal yo‘nalishdagi tizimi;

<sup>1</sup> Раҳмонқулов X. Фуқаролик хуқуқининг субъектлари: Ўқув қўлланма. –Т., 2008. – Б.148.

b) *tarmoq tuzilmalar*. Bunga vazirlikka bevosita bo‘ysunuvchi ichki ishlar organlaridagi tuzilmalar kiradi. Masalan, maxsus boshqarmalar (yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan boshqarmalar – JEIBB, YHXBB, Transportdagi IIB va boshq.) va ta’lim muassasalari (IIV Akademiyasi va boshq.). Bular IIOning gorizontal tizimi hisoblanadi.

IIOning vertikal va gorizontal tizimidagi barcha tuzilmalari ma’muriy huquqiy jihatdan davlat organidir, biroq ularning hammasi ham yuridik shaxs layoqatiga ega emas. Deylik, shahar va tuman ichki ishlar bo‘limlari davlat organi, ammo ular yuridik shaxs maqomiga ega emas. Chunki ularda yuridik shaxs belgilari (bankda hisob raqami, mulkiy mustaqillik, mustaqil mulkiy javobgarlik kabilar) mavjud emas.

Ma’muriy huquq jihatdan bu tuzilmalar iyerarxik tartibda yuqori turuvchi organga bo‘ysunuvchi tashkilot hisoblansa-da, ular fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mustaqil subyekt va shartnoma majburiyatlar bo‘yicha mustaqil javobgar bo‘ladilar. I.Zokirov ta’kidlaganidek, “yuridik shaxs hisoblangan davlat muassasalari o‘z nizomlari doirasida o‘zlar yuritayotgan vazifalarni amalga oshirib, turli fuqarolik bitimlari tuzadilar, o‘zlariga biriktirilgan mulkdan operativ boshqarish huquqi asosida foydalanadilar. Davlat organlari o‘z qarzlari uchun javobgar bo‘ladi. Biroq mablag‘i yetmasa, belgilangan tartibda davlat ham uning uchun javobgar bo‘lishi mumkin”.<sup>1</sup> Masalan, IIV tizimidagi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi (bundan keyin matnda JIEBB deb yuritiladi) korxona va tashkilotlar bilan oldi-sotdi, pudrat, ayirboshlash, ijara kabi fuqaroviy-huquqiy shartnomalarni tuzadi, mahkum qilingan shaxslarning mehnat faoliyati orqali tushgan pul mablag‘laridan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanadi va faoliyatini takomillashtirish uchun sarflaydi. Bunda u shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan zarari uchun o‘ziga biriktirilgan va alohida balansga olingan mol-mulkleri bilan fuqarolik-huquqiy javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining “Muassasa mol-mulkini tasarruf etish” deb nomlangan 180-moddasi 2-qismi ko‘ra: “agar ta’sis hujjaligiga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi”.

IIO nafaqat boshqa yuridik shaxslar yoki fuqarolar bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarni, shuningdek tizim ichidagi yuridik shaxs

---

<sup>1</sup> Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳукуқи: Дарслик. I қисм. – Т., 2009. – Б.225.

maqomiga ega bo‘lgan organlar ham o‘zaro fuqarolik huquqiy munosabatlarni o‘rnatishlari mumkin. Masalan, IIOning vertikal tizimidagi viloyat IIB va gorizontal tizimidagi JIIBB o‘rtasida oldi-sotdi, ayirboshlash kabi shartnomalar tuzishi mumkin. Bunda viloyat IIB va JIEBB o‘rtasidagi munosabatlar bevosita ma’muriy bo‘ysunuvga asoslanmasdan, shartnomaviy tusga ega bo‘ladi, ushbu shartnomaviy munosabatlar esa fuqarolik huquqining normalari bilan tartibga solinadi.

IIOning deyarli barcha tizimlari, ya’ni yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tizimlari ham xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin. Lekin IIOning vertikal tizimdagi organlari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalariga ma’muriy huquq, gorizontal tizimidagi organlar o‘rtasidagi xo‘jalik munosabatlariga esa fuqarolik huquqining normalari tatbiq etiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarga xos xususiyat shuki, uning ishtirokchilari ko‘pincha foyda olish yoki boshqa mulkiy manfaat ko‘rish maqsadida munosabatga kirishadilar. Ammo IIOning xo‘jalik faoliyati yoki shartnomaviy munosabatlari ularning funksiya va vazifalarni amalga oshirishdagi moddiy zaruratları tufayli yuzaga keladi, bunda mulkiy manfaat maqsad qilinmaydi.

IIOning bir-biriga ma’muriy jihatdan bevosita bo‘ysunmaydigan gorizontal tizimdagi organlari o‘rtasida tovarlar yetkazib berish, oldi-sotdi, ayirboshlash, turli xizmatlar ko‘rsatish kabi haq evaziga shartnomalar tuzilishi mumkin, bunday kelishuvlar fuqarolik-huquqiy xarakterga egadir.

IIOning umumiy huquq subyektliligi sohalararo (ma’muriy, moliyaviy, fuqaroviylari va h.k.) huquqiy munosabatlardan iborat. Albatta, bulardan markaziy o‘rinni ma’muriy huquq subyektliligi egallaydi. Chunki ma’muriy huquq subyektliligi IIO qatnashayotgan munosabatlarda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Ammo IIOning fuqarolik huquq subyektliligi uning yuridik shaxs ekanligi bilan namoyon bo‘ladi. IIO yuridik shaxs hisoblanib, fuqarolik huquqiy subyektlilikka ega. IIOning fuqarolik huquq subyektligining mazmunini fuqaroviylari-huquqiy layoqat va fuqarolik muomala layoqatining majmui tashkil etadi.

IIO fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida o‘ziga xos jihatlarga ega, ya’ni: *birinchidan*, IIO mulk huquqining subyekti sifatida o‘zlariga ajratilgan pul mablag‘larini asosiy funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf qiladi va uning moliyaviy smetasi shu xususiyati bilan davlat budgetida turuvchi boshqa tashkilotlarning smetalaridan farq qiladi; *ikkinchidan*, IIO xo‘jalik faoliyatining natijalariga ko‘ra iqtisodiy mustaqillikka ega, ya’ni tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va fuqarolar bilan tuzgan shartnomalari yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlarga o‘z mol-mulki

bilan javob beradi, uning mustaqil mulkiy javobgarligi xususiyatlari o‘zining budget vositalariga biriktirilgan moliyaviy-smetali prinsipga asoslanadi.

IIO fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ikki xil holatda: birinchidan, davlat nomidan va ikkinchidan, o‘z nomidan yoki yuridik shaxs sifatida ishtirok etadi.

Birinchi holatda IIO tizimida yagona, umumlashgan organ, ya’ni faqat IV (IIOning yaxlit majmui sifatida) davlat nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirisha oladi. Bu munosabat IIVning davlat nomidan fuqarolik-huquqiy shartnomalarini tuzganida paydo bo‘ladi. Bunga misol qilib, ichki ishlar organlarini moddiy-texnik vositalar bilan ta’minalash maqsadida tuziladigan davlat kontrakti shartnomasini keltirish mumkin. Unga asosan “taraflardan biri – mahsulot yetkazib beruvchi (ijrochi) ikkinchi taraf (davlat buyurtmachisi-O‘zbekiston Respublikasi II)ga yoki uning ko‘rsatmasiga binoan mahsulot yetkazib berish shartnomasi asosida boshqa shaxsga shartlashilgan muddatda tovarlar yetkazib berish, ikkinchi taraf (davlat buyurtmachisi – O‘zbekiston Respublikasi II) esa yetkazib berilgan tovarlarning haqi belgilangan muddatda to‘lanilishini ta’minalash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi”<sup>1</sup>. Ushbu shartnomada davlat nomidan buyurtmachi sifatida II ishtirok etadi, bajarilgan ish yoki shartnoma haqi (davlat buyurtmachisi bo‘lganligi bois) davlat budgetidan to‘lanadi va shartnoma majburiyatları yuzasidan ham davlat javobgar bo‘ladi. II davlat nomidan shartnoma va bitimlarni tuzganda esa, yuridik shaxs hisoblanmaydi. Zero, “davlat “ipso jure” – yuridik shaxs emas”<sup>2</sup>.

II va uning tizimidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tuzilmalarning pul mablag‘larini ikki qismga ajratish mumkin:

*birinchisi*, davlat budgetidan ajratilgan smeta mablag‘lari (bunday mablag‘lardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas);

*ikkinchisi*, xo‘jalik yuritish orqali yoki cheklangan tadbirkorlik faoliyati natijasida to‘plangan mustaqil mablag‘lar.

IIO faoliyati uchun davlat budgetidan ajratilgan pul mablag‘lari yaxlitligicha IIVning hisobiga o‘tkaziladi. IIV esa ushbu mablag‘larni smeta-budget yo‘li orqali sohaviy xizmatlarga ularning ehtiyojlari va

---

<sup>1</sup> Камалов О.А. Ички ишлар органларини моддий-техник воситалар билан таъминлаш бўйича давлат контракти: Юрид. фан. номз. дис... автореф. – Т., 2005. – Б.7.

<sup>2</sup> Баратов М. Бозор муносабатлари шароитида давлатнинг фуқаролик-хуқуқий мақоми. – Т., 2005. – Б.18.

vazifasiga ko‘ra taqsimlaydi. Bunda davlat budgetidan ajratilgan moliyaviy mablag‘lardan boshqa maqsadlarga sarflamaslik va moliyaviy intizomga qat’iy rioya etish prinsipiga asoslaniladi.

IIO xo‘jalik yuritish orqali yoki cheklangan tadbirkorlik faoliyati natijasida to‘plangan mustaqil mablag‘larga ham ega bo‘lishlari mumkin. Shu bois bu mablag‘lar ularning mustaqil mulkiy javobgarligini va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini ta’minlaydi. Zotan, yuridik shaxsning asosiy belgilaridan biri ham uning mulkiy mustaqilligidir. O‘z mol-mulkiga va uni mustaqil boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan tashkilotlarni yuridik shaxs deb bo‘lmaydi.

IIONing mustaqil mablag‘lari xo‘jalik faoliyati orqali va o‘z ustavlarida nazarda tutilgan cheklangan tartibda tadbirkorlik faoliyati natijasida to‘plangan mablag‘lari hisobiga shakllanadi. IIONing nizomlarida ularga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, FK 180-modda 2-qismiga asosan bunday faoliyatdan olingan daromad va ushbu daromadga sotib olingan mol-mulk IIONing mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

Demak, IIO har doim ham ma’muriy idora yoki davlat organi sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi, deb bo‘lmaydi. Ya’ni, IIO fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tom ma’noda yuridik shaxs sifatida ishtirok etadi va bu uning xo‘jalik boshqaruv faoliyati, ashyoviy-mulkiy va shartnomaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bunda ular fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi teng huquq va majburiyatlar asosida ishtirok etadi. IIO (ya’ni, IV) davlat nomidan yoki ma’muriy organ sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda tor doirada qatnashadi, bunday hollarda ularning fuqarolik-huquqiy javobgarligi uchun asosan davlat javobgar bo‘ladi. Biroq, IIONing yuridik shaxs sifatida fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tuzishi oqibatida kelib chiqadigan mulkiy javobgarligi mustaqil javobgarlikdir, bunda davlatning subsidiar javobgarligi majburiyatlarining yetmagan qismi uchun kelib chiqadi.

IIONing fuqarolik muomalasida o‘z nomidan, ya’ni yuridik shaxs sifatidagi ishtirokini ikki turga ajratish mumkin: *birinchidan*, shartnomaviy munosabatlar asosida, ya’ni o‘z xohishiga ko‘ra fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida turli xildagi shartnoma va bitimlarni tuzadi. Ko‘p hollarda bunday shartnoma va bitimlarni fuqarolar bilan emas, balki yuridik shaxslar bilan imzolaydi. Amaliyotda IIONing jismoniy shaxslar, ya’ni fuqarolar bilan shartnoma va bitimlar tuzishi juda ham kam uchraydigan holatdir.

*ikkinchidan*, delikt munosabatlar asosida, ya’ni shartnomadan tashqari vujudga keladigan majburiyat munosabatlarda qarzdor yoki kreditor sifatida ishtirok etadi.

IIO faoliyatida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tavsiflovchi umumiyl xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) IIOning funksional vazifalari va vakolatlarining o‘ziga xosligi ular kirishadigan huquqiy munosabatlarning rang-barangligini belgilab beradi. Bunda ularning faoliyati ma’muriy, fuqaroviy, mehnat, xo‘jalik va boshqa huquqiy normalar bilan tartibga solinadi yoki bu munosabatlar bir vaqtning o‘zida bir necha huquq normalari bilan muvoziy (parallel) tartibga solinadi;

b) IIO fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan va o‘z nomidan (yuridik shaxs sifatida) ishtirok etadi. Davlat nomidan ishtiroki fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tuzish orqalidir. Bunda IIOning yaxlit tuzilmasi (majmui) sifatida faqat IIIV davlat nomidan fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tuzadi;

v) IIO ma’muriy organ hisoblansa-da, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ma’muriy vakolatlaridan foydalanmaydi, kontragentlariga ma’muriy ta’sir o’tkazmaydi va ular bilan teng huquqli ishtirok etadi;

g) IIO tizimidagi barcha idoralar ma’muriy huquq nuqtai nazaridan davlat organlari (davlat tuzilmasi) hisoblanadi, lekin fuqarolik huquqida ularning barchasi ham yuridik shaxs emas;

d) IIOning barcha bo‘g‘inlari xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin, lekin fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yoki shartnomalar tuzishda faqat yuridik shaxs maqomiga ega tuzilmalargina qatnasha oladi;

ye) IIIV IIOning bosh bo‘g‘ini hisoblansa-da, vazirlik umumiyl qoidaga ko‘ra, o‘z tizimidagi yuridik shaxs maqomiga ega organlarining fuqaroviy-huquqiy majburiyatlar bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi (faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina subsidiar javobgar bo‘lishi mumkin), shunga ko‘ra, unga bo‘ysunuvchi idoralar ham vazirlikning huquq va majburiyatlar bo‘yicha javobgar emas. IIO o‘ziga biriktirilgan mol-mulklar, smeta bo‘yicha ajratilgan mablag‘lardan nizomlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun operativ boshqaruv huquqiga asosan foydalanadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, IIOning o‘ziga xos tashkiliy birligi, mulkiy mustaqilligi, mustaqil mulkiy javobgarligi, fuqarolik muomalasida da’vogar va javobgar bo‘la olishi, shuningdek fuqarolik muomalasida o‘z nomidan va davlat nomidan ishtirok etishi uning fuqarolik huquqining maxsus huquq layoqatiga ega alohida subyekti ekanligini to‘la-to‘kis asoslaydi.

---

## *UCHINCHI BOB*

### **BITIMLAR VA VAKILLIK. ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA BITIM VA VAKILLIKNING QO'LLANILISHI**

#### **1-§. Bitim tushunchasi, turlari, shakllari va tasnifi**

*Bitimlar* deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi (FK 101-m.).

Har qanday bitim shaxslarning xohish-irodasi bilan bog'liq bo'lib, muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqarishga qaratiladi. Bitimda fuqaro va tashkilotlarning muayyan moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xohishlari ifodalanadi.

Bitim shaxslarning xohishi bilan bog'liq, ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo'lganligi tufayli bitimda ifodalanadigan xohish izhor qilinishi, ya'ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitim tuzish natijasida muayyan huquqiy oqibat hosil qilish uchun bitim tuzuvchi shaxslar bitimda o'z xohishlarini ifodalashdan tashqari muayyan harakatni bajarishlari lozim. Bu harakat kelishilgan ishni bajarish, muayyan mulkni topshirish yoki pulni to'lashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Yuridik fakt tarkibiga kiradigan bitimlar fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan holatlar sifatida boshqa yuridik faktlardan farq qiladi. Masalan, yuridik fakt hisoblangan hodisa shaxslarning xohishidan tashqarida vujudga kelsa, bitimlar faqat shaxslar xohishi bilan tuziladi.

*Bitimda quyidagi shartlar muhim hisoblanadi:*

- a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadi;
- b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish xohishi bo'lishi va bu xohish muayyan huquqiy oqibat tug'dirishga qaratilgan bo'lishi lozim;
- v) shaxsning xohishi muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o'z ifodasini topishi, ya'ni ma'lum bir shaklda izhor qilinishi kerak.

Fuqarolik huquqi fanida bitimlar o'zlarining belgilari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

*Bitim tuzuvchilarning xohishlari ifoda etilishiga qarab bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama bitimlarga bo'linadi.*

*Bir taraflama bitimda* faqat bir tarafning xohishi ifodalanib, huquq va majburiyatlar faqat bir tarafning irodasi bo‘yicha vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor qilinadi. Bir taraflama bitimlarga misol qilib vasiyat, merosdan voz kechish, ishonch qog‘ozi berish, vakolat olmasdan vakillik qilgan kishining harakatlarini ma’qullashni ko‘rsatsa bo‘ladi. Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi.

*Ikki taraflama bitimlar* deb har ikki tomonning xohishiga muvofiq tuziladigan bitimga aytildi. Bunday bitimlar – shartnomalardir. Oldi-sotdi, mulk ijariasi, pudrat, sug‘urta va boshqa shartnomalarni ikki taraflama bitimga misol qilish mumkin.

*Ko‘p taraflama bitimlar* deb uch va undan ortiq shaxsning xohishi ifodalanadigan bitimlarga aytildi. Ko‘p taraflama bitimga misol qilib, bиргаликдаги faoliyat shartnomasini ko‘rsatsa bo‘ladi. Ko‘p taraflama bitimlar ikki taraflama bitimlar singari o‘zaro kelishuv, ya’ni shartnoma asosida tuziladi.

Demak, har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, biroq har qanday bitim shartnoma hisoblanmaydi. Faqat aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi mumkin.

Bitimlar muqobil ijroning bo‘lish-bo‘lmasligiga qarab haq baravariga va tekin tuziladigan bitimlarga bo‘linadi.

*Haq baravariga tuziladigan bitimlarda* taraflardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to‘lash, ishni bajarish yoki birorta xizmat ko‘rsatish kabi harakatlarni bajarish majburiyatini oladi. Haq baravariga tuziladigan bitimlarda qarshi muqobil ijro nazarda tutiladi. Oldi-sotdi, ayirboshlash, pudrat, sug‘urta shartnomalari haq baravariga tuziladigan bitimlarga kiradi. Chunki ulardan har biri qarshi tomon foydasiga biror harakatni bajaradi. Masalan, sotuvchi pul baravariga ma’lum mulkni topshiradi va hokazo.

*Tekin*, ya’ni haq to‘lanmay *tuziladigan bitimlarda* taraflardan biri ikkinchi taraf foydasiga biron-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo‘q. Bunday bitimlarga misol qilib, hadya, foizsiz qarz, bepul omonat saqlash va mulkdan tekin foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalarni ko‘rsatish mumkin.

Bitimlar qaysi vaqtidan e’tiboran tuzilgan deb hisoblanishini aniqlash maqsadida konsensual va real bitimlarga bo‘linadi.

*Konsensual bitim* deb huquq va majburiatlarni o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni tegishli darajada rasmiylashtirish paytida vujudga keladigan bitimga aytildi. Mulk ijariasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya shartnomalari konsensual bitim hisoblanadi.

*Real bitim* deb o‘zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyat vujudga keltiradigan bitimga aytildi. Real bitimga misol qilib qarz, yuk tashish shartnomalarini ko‘rsatsa bo‘ladi.

Huquq obyektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi yoki bekor bo‘ladi. Agar bitimda huquq va majburiyatning vujudga kelishi yoki bekor bo‘lish vaqtি ko‘rsatilgan bo‘lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha:

- a) ma’lum kun, oy, yil bilan (masalan, 1997-yil 15-sentabr);
- b) ma’lum vaqtning o‘tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o‘tishini ko‘rsatish);
- c) ma’lum bir voqeа yuz berishi (masalan, daryo orqali yuk tashish-muz erish vaqtি) bilan bog‘lab belgilanishi mumkin va hokazo.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday bitim muddatsiz hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 242-moddasida ko‘rsatilganidek, agar majburiyatni bajarish muddati ko‘rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa – ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo‘ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

*Shartli bitim* deb taraflar o‘rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo‘lishi biron-bir shartga bog‘liq qilib qo‘yilishiga aytildi. Shartli bitimlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi. Ular:

- a) shartli kechiktirilgan;
- b) bekor bo‘lish sharti bilan tuziladigan bitimlar.

Fuqarolik kodeksi 104-moddasining birinchi qismida aytilganidek, agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishini yuz berishi yoki bermasligi noma’lum bo‘lgan holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, *bitim kechiktirish sharti bilan* tuzilgan hisoblanadi. Masalan, uy egasi turar joyning ijaraga berilishi to‘g‘risida o‘g‘lining ma’lum vaqt boshqa shaharga o‘qishga ketishi sharti bilan bitim tuzadi. Agar o‘g‘li boshqa shaharga ketmasa, taraflar o‘rtasida hech qanday huquq ham, majburiyat ham vujudga kelmaydi.

Fuqarolik kodeksi 104-moddasining ikkinchi qismida *bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitimga* ta’rif beriladi. Unga ko‘ra, agar taraflar huquq va burchlarning bekor bo‘lishini yuz berishi yoki bermasligi noma’lum holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bunday bitim bekor bo‘lish sharti bilan

tuzilgan bitim hisoblanadi. Masalan, turar joyni ijaraga beruvchi fuqaro muayyan bir vaziyatda, o‘g‘li harbiy xizmatdan qaytgach, uyni bo‘shatib berishi sharti bilan ijara shartnomasini tuzgan bo‘lsa, o‘g‘li qaytishi bilan u bekor bo‘ladi.

Shartli ravishda majburiyat olgan shaxs shartga bog‘liq bo‘lgan huquqni o‘zgartirish yoki bekor qilishga oid harakatlar qilmasligi kerak.

Agar shartning yuz berishiga ushbu shartning yuz berishidan manfaatdor bo‘lgan taraf insofsizlik bilan yordamlashgan bo‘lsa, bu shart sodir bo‘lmagan hisoblanadi (FK 104-m. 4-q.). Masalan, mol-mulkini sug‘urta qildirgan shaxs sug‘urta summasini olish maqsadida mol-mulkiga o‘t qo‘yib yondirsa, sug‘urta kompaniyasi sug‘urta summasini to‘lamaslikka haqli.

Bitim tuzishda xohish-irodani erkin ifodalash usuliga *bitim shakli* deb aytiladi. Bitimlar og‘zaki va yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi (FK 105-m. 1-q.).

FK 106-moddasiga binoan qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo‘yilmagan, jumladan, u tuzilgan vaqtning o‘zidayoq bajariladigan bitim *og‘zaki* tuzilishi mumkin.

Jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish yo‘li bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, *og‘zaki* shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi.

*Yozma shaklda tuzilgan* shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq *og‘zaki* tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizda qadimdan mavjud “sukut – rizolik alomati” qoidasi amal qiladi. Biroq, bunday usulda bitim tuzishga faqat cheklangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Fuqarolik kodeksining 105-moddasiga asosan, sukut saqlash qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo‘lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi.

Shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatlaridan bitim tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan hollarda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi. Bu usulda tuzilgan bitimlarning nomi lotincha “konklyudo” so‘zidan olingan bo‘lib, “tuzaman” degan ma’noni anglatadi. Konklyudent harakatlar shunday harakatlarki, ular og‘zaki shaklda ham, yozma shaklda ham ifoda etilmagan bo‘lsa-da, shaxsning niyati, maqsadi haqida o‘z-o‘zidan guvohlik berib turadi.

*Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:*

- a) oddiy yozma;
- b) notarial idoralarda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo‘linadi.

Bitim shartlarini o‘z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga *oddiy yozma bitim*, deb aytiladi. Yozma bitim uni tuzuvchilar yoki vakillari tomonidan imzolanishi kerak. Agar fuqaro jismoniy kamchiligi, kasalligi yoki boshqa biron sabab tufayli bitimni imzolay olmasa, u holda uning iltimosiga binoan boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bu fuqaroning imzosi bitim tuzuvchi fuqaroning ishlab yoki o‘qib turgan tashkiloti va yashash joyidagi uy boshqarmasi yoki u davolanayotgan muassasa ma’muriyati yoxud notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bunday hollarda bitim tuzgan shaxsning o‘zi qanday sabab bilan bitimni imzolay olmasligi albatta ko‘rsatilishi kerak.

Tashkilotlar tomonidan tuziladigan yozma bitimlarda mazkur tashkilot rahbarining imzosi va muhri bo‘lishi lozim. Ba’zi yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan bitimlarda ikkita imzo: tashkilot rahbari va boshqa mansabdor shaxs, odatda, bosh buxgalter yoki buxgaltering imzosi bo‘ladi.

Xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasi mazmunini belgilaydigan boshqa hujjatlarni o‘zaro ayriboshlash, agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi.

Ba’zi hollarda yozma tuziladigan bitim qo‘srimcha talablarga ham javob berishi lozim (muayyan shakldagi blankada tuzilishi, muhr bilan tasdiqlanishi va hokazo).

Yozma shaklda tuzilgan bitimni bajargan taraf ikkinchi tarafdan ijroni tasdiqlovchi hujjat talab qilishga haqli. Bu qoida og‘zaki tadbirkorlik bitimiga nisbatan ham joriy qilinadi.

Bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy bo‘lmasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko‘rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi (FK 109-m.).

Ya’ni, oddiy yozma shaklga rioya qilmasdan tuzilgan bitim qonun yoki taraflarning kelishuviga bevosita zid bo‘lmay, o‘zicha haqiqiy deb hisoblansa-da, nizo chiqqan taqdirda, bitimning tuzilganligini va uning mazmunini guvohlarning ko‘rsatmalari bilan isbotlab bo‘lmaydi.

*Notarial tasdiqlangan bitim deb* belgilangan shaklda notarial xati bo‘lgan, notarius tomonidan imzolangan va gerbli muhr bosilgan yozma

hujjatga aytildi. Notarial shakldagi bitim uni tuzuvchilar yoki vakillari tomonidan notarius huzurida imzolanadi.

Bitimlarni notarial tartibda tasdiqlash faqat qonunda ko‘rsatilgan yoki taraflardan biri talab qilgan hollardagina majburiydir, jumladan: uyjoylarni olish-sotish, garovga qo‘yish shartnomalari va boshqa ba’zi shartnomalar, shuningdek, mulkni vasiyat qilish to‘g‘risidagi bitim (vasiyatnoma)ning ham notarial tartibda tasdiqlanishi talab qilinadi.

Bitimlarning oddiy yozma va notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishi ba’zi muhim asoslar bo‘yicha belgilangan, chunonchi:

*birinchidan*, bitimning yozma shakli bitim tuzilganligi faktini bir tarafning bayonotiga yoki guvohlarning ko‘rsatmalariga qaraganda asosliroq isbotlaydigan dalil bo‘la oladi;

*ikkinchidan*, bitimning yozma shakli bitimning haqiqiy mazmunini aniqlashga og‘zaki shaklidan ko‘ra yaxshiroq yordam beradi va zarur hollarda uning tegishli davlat organlari tomonidan tekshirilishini yengillashtiradi. Shu nuqtai nazardan, ba’zi hollarda ma’lum darajada bitimning insofsiz ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan suiiste’mollarga qarshi garov bo‘lib xizmat qiladi;

*uchinchidan*, bitimning yozma shakli taraflar uchun majburiy bo‘lishi – yuridik faktlarni hujjatlashtirish va taraflarning faoliyatları ustidan nazorat olib borish imkoniyatini beradi;

*to‘rtinchidan*, bitimlarning yozma shakli rasmiylashtirilishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini muayyan tartibga, o‘z xohishlarini aniq ifoda etishga va bitimda nazarda tutilgan shartlarni puxta bajarishga o‘rgatadi.

Qonun ba’zi hollarda, bitimlarning, yozma yoki notarial shaklda rasmiylashtirilishidan tashqari, tegishli davlat muassasalarida qayd etilishini (ro‘yxatdan o‘tkazilishini) talab qiladi. Masalan, yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq bitimlar (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara, merosni qabul qilib olish va boshqalar) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak (FK 111-m.).

Qonun bo‘yicha talab qilinadigan shaklga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy hisoblanmasligiga sabab bo‘ladi. Jumladan, bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi (FK 112-m. 1-q.). Ushbu hollarda bitim tuzgan taraf har qaysi bitimga ko‘ra olingan hamma narsani qaytarishi shart, buning imkonи bo‘lmaganida, haqiqiy bo‘lmagan bitimning boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning qiymatini pul bilan to‘lashga majbur.

Agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan bitimni to‘la yoki qisman bajargan bo‘lsa, ikkinchi taraf esa – bitimni notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud bitimni bajargan tarafning talabi bo‘yicha uni haqiqiy deb hisoblashga haqlidir. Bu holda bitimni keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmaydi (FK 112-m. 2-q.).

Agar davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim kerakli shaklda tuzilgan bo‘lib, ammo taraflardan biri uni ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli. Bunday holda bitim sud qaroriga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi (FK 112-m. 3-q.).

*Birja bitimlari.* Bitimlar orasida birja bitimlari alohida xususiyatga ega. Birja – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtida, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs. Birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Birjalar o‘z faoliyatini tovar-xom ashyo, fond va valuta birjasи turida amalga oshiradi (O‘zbekiston Respublikasining “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), 2014-yil 12-sentabr, 1-m.).

Birjalarda quyidagi bitimlar tuzilishi mumkin:

- bor (mavjud) tovarlarning oldi-sotdi bitimlari, shu jumladan, tovarlarni darhol berib yuborish yoki yetkazib berish yoxud tovarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar topshirishni ko‘zda tutuvchi oldi-sotdi bitimlari;

- *forward bitimlar*, ya’ni bir tovarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirgan holda xarid qilish va sotishga doir bitimlar;

- *fyuchers bitimlar*, ya’ni standart kontraktlarga doir oldi-sotdi bitimlari;

- *opsion bitimlar*, ya’ni tovarlarni yoki tovarlar yetkazib berish kontraktlarini belgilangan narxlar bo‘yicha kelgusida xarid qilib olish yoki sotish huquqlariga doir oldi-sotdi bitimlar.

Forward, fyuchers hamda opson bitimlarda savdoni amalga oshiruvchi birja o‘zining hisob-kitob (kliring) markazlari orqali bitimlar ijrosini kafolatlashi shart.

Birjalarda tuzilgan bitimlarda tegishli taraflardan tashqari vositachilar ham qatnashadi. Bunda vositachilik vazifasini broker (oldi-sotdi bitimlar tuzilishida o‘z mijozlarining topshirig‘i bo‘yicha va ularning nomidan vositachilik xizmatini amalga oshiruvchi shaxs) yoki diler (bir joyda o‘z nomi va o‘z hisobidan vositachilikni amalga oshiruvchi shaxs) amalga oshiradi. Birja bitimlari birjalarda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va ular notarial tasdiqlashni (qonunda nazarda utilgan hollardan tashqari) talab etmaydi.

Birja bitimlarining mazmuni (tovarning nomi, miqdori, narxi, ijo o‘rni va muddatidan bo‘lak) oshkor etilishi mumkin emas.

Birja bitimlari birja nomidan va uning hisobidan tuzilishi mumkin emas.

Birja bitimlari faqat yozma ravishda tuziladi.

Bitim bilan bog‘liq nizolar oldin birjalarning hakamlik (ixtilof) komissiyasida hal etiladi. Qarordan norozi taraf hakamlik sudiga murojaat etishga haqli.

Bitimlar haqiqiy hisoblanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

*birinchidan*, bitimlarning mazmuni qonunga, qonun asosida chiqarilgan aklarga hamda umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi;

*ikkinchidan*, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo‘lishlari;

*uchinchidan*, bitimlar shunchaki tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat hosil qilish maqsadida tuzilgan bo‘lishi;

*to‘rtinchidan*, notarial guvohlantirilishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan bitimlar haqiqiy hisoblanmasligi xavfi bo‘lganida qonunda belgilangan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablarga rioya qilinmay tuzilgan bitimlar o‘sha paytdan e’tiboran o‘z-o‘zidan haqiqiy hisoblanmaydi. Bunday bitimlar mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar deb atalib, hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

*Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar* jumlasiga qonun talablariga muvofiq bo‘lmagan (FK 116-m.), O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan (JK 175-m.), o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxs tomonidan tuzilgan (FK 117-m.) hamda qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FK 124-m.) haqiqiy hisoblanmaydi.

Haqiqiy hisoblanmagan bitim yuzasidan ijroni, mulk topshirilishini yoki pul to‘lanishini talab qilish mumkin emas.

Bitim butunlay haqiqiy bo‘lmagan kabi ba’zi hollarda uning ayrim qismi ham haqiqiy bo‘lmasligi mumkin. Bitimning muhim qismi, ya’ni uning predmeti, yuridik tabiati yoki maqsadi va boshqa muhim shartlarini ko‘rsatuvchi bandlari haqiqiy bo‘lganda bitim butunlay yuridik kuchga ega bo‘lmaydi. Masalan, fuqaroning o‘ziga uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkasini sotishi to‘g‘risida tuzgan bitimi mutlaqo haqiqiy hisoblanmaydi.

Bitimning muhim bo‘lmagan qismlari, ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan ahamiyatga ega bo‘lmagan bandlari qonunga muvofiq kelmagan taqdirda, uning qonunga xilof bo‘lmagan qolgan qismlari haqiqiy hisoblanadi. Bu

haqda Fuqarolik kodeksining 128-moddasida: “*Bitimning bir qismi haqiqiy sanalmasligi bitimga haqiqiy sanalmagan qism qo’shilmasa ham u tuzilgan bo’lar edi, deb taxmin qilish mumkin bo’lsa, uning boshqa qismlarining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo’lmaydi*”, deb ko’rsatilgan.

*Haqiqiy bo’lmagan bitim*, bu to‘g‘rida da’vo qilinishi yoki qilinmasligidan qat’i nazar, tuzilgan paytdanoq o‘z-o‘zidan mutlaqo haqiqiy emas deb topiladi. Agar bitim sud yoki xo‘jalik sudi muhokamasida bo‘lsa, bunda uning haqiqiy emasligi ta’kidlanadi va shunga binoan qonunda ko’rsatilgan oqibatlarning tatbiq etilishi lozimligi ko’rsatiladi.

Yuqorida ko’rsatilgan bitimlardan tashqari nizoli bitimlar ham mavjud. Bunday bitimlar yuzaga kelmasligi uchun:

*birinchidan*, bitim tuzuvchi shaxs o‘zi tuzayotgan bitimning xarakteri va huquqiy oqibatlarini unda aniq-ravshan bayon etishi;

*ikkinchidan*, bitim tuzuvchi shaxsning xohishi o‘zi tomonidan, boshqa birovvlarning ta’siridan holi holda ifodalanishi;

*uchinchidan*, bitim tuzuvchi shaxsning xohishi yetarli darajada mukammal bo‘lishi kerak.

Yuqorida ko’rsatilgan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan bitim tuzilishi paytida haqiqiy sanalsa ham, keyinchalik ular yuzasidan nizo qo‘zg‘atilishi mumkin. Bunday bitimlar tuzilganidan so‘ng taraflarga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar bo‘yicha da’vo qo‘zg‘atilib, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

*Nizoli bitimlar jumlasiga* o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK 121-m.), yanglishish ta’sirida tuzilgan (FK 122-m.), aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og‘ir holatlar yuz berishi ta’sirida tuzilgan (FK 123-m.), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar (FK 120-m.) hamda yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FK 125-m.) kiradi.

Bunday nizoli bitimlar to‘g‘risida da’voni jabrlangan shaxsning o‘zi, prokuror yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlari, jamoa xo‘jaligi, shirkat va boshqa jamoat tashkilotlari hamda ayrim fuqarolar qo‘zg‘ata oladilar.

Haqiqiy emas deb topilgan bitim tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bitimning mazmunidan uning faqat kelajak vaqt uchun bekor qilinishi mumkinligi anglashilsa, haqiqiy emas deb topilgan bitim kelajak vaqt uchun harakatdan to‘xtaydi (FK 127-m.).

*Haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari.* Qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim,

shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim, FK 116-moddasida ko'rsatilganidek, o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bu moddada ko'rsatilgan "qonun" so'zi keng ma'noda qo'llaniladi. Bu modda nafaqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan chiqarilgan qonunchilik hujjatlarini buzib tuzilgan bitimlarga, balki tegishli qonunlar asosida chiqarilgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni buzib tuzilgan bitimlarga ham tatbiq etiladi.

*O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga zid maqsadlarda tuzilgan bitim haqiqiy sanalmaydi.* G'arazli, yomon niyat bilan atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan bitimga qonunni jiddiy ravishda buzish deb qaraladi. Zero, bunday bitimlarni tuzuvchilar uchun huquq normalarida qat'iy mulkiy javobgarlik belgilanadi hamda bu bitim mutlaqo haqiqiy sanalmaydi.

Masalan, fuqaroga uy-joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkasini butunlay yoki qisman olish-sotish to'g'risidagi yoki muomalada chiqarilgan ashyolar, chunonchi: qoradori nasha va boshqalarni olish-sotish to'g'risidagi yoxud davlat tomonidan jamg'arilgan materiallarni olish-sotish to'g'risidagi bitimlar mutlaqo haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga kiradi.

Bitim atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilganligi sababli haqiqiy sanalmaganida quyidagi huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi:

1) bitim tuzuvchilarning har qaysisida ham g'arazli niyat bo'lsa, har ikki tarafdan bajarilgan bitim yuzasidan olingan hamma narsalar undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi;

2) bitim faqat bir tarafdan bajarilganida, ikkinchi tarafdan uning olgan hamma narsasi va buning evaziga birinchi tarafga to'lashi lozim bo'lgan narsalari undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi;

3) bitimlar tuzishda bir tarafangina g'araz bo'lgan taqdirda, uning bitim bo'yicha olgan hamma narsasi ikkinchi tarafga qaytarib berilishi lozim, ikkinchi taraf olgan yoki bitimning ijrosi evaziga olishi lozim bo'lgan narsalar undirilib, davlat daromadiga o'tkaziladi. JK 175-moddasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qalbaki va ko'zbo'yamachilik maqsadida tuzilgan bitimlar ham kiradi.

*Qalbaki*, ya'ni taraflarning kelishuvi bo'yicha yuridik oqibatlar tug'dirish niyati bo'lмаган holda, nomigagina tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir (FK 124-m.).

*Ko‘zbo‘yamachilik maqsadida tuzilgan bitim* deb boshqa bir bitimni niqoblash maqsadida tuzilgan bitimga aytildi. Agar bitim boshqa bir bitimni yashirish uchun tuzilgan bo‘lsa, u holda taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitimga oid qoidalar qo‘llaniladi. Ko‘zbo‘yamachilik maqsadida tuzilgan bitim ba’zi hollarda haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitim qonun talablariga javob berish-bermasligiga qarab haqiqiy yoki haqiqiy emas deb topiladi.

*Muomalaga layoqatsiz shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar* to‘g‘risida shuni aytish joizki, bitim haqiqiy sanalishi uchun uni tuzuvchi shaxslar muomalaga layoqatli bo‘lishlari kerak. Muomalaga layoqatsiz fuqarolar, masalan, ruhiy kasallar yoki o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalar uchun bitimlarni ularning qonuniy vakillari – ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari – tuzadilar.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, shuningdek, ruhiy kasal yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy sanalmaydi, taraflar olgan hamma narsalarni ikkinchi tarafga qaytarishga, agar olingan narsani natura baravarida qaytarishning iloji bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘lashga majbur.

Bundan tashqari, muomalaga layoqatli taraf ikkinchi tarafning muomalaga layoqatsizligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lsa, voyaga yetmagan shaxsning bitim tufayli qilgan xarajatlarini, mulkining yo‘qolishi yoki zararlanishidan kelgan zararlarni to‘lashga majbur.

*Nizoli bitimlarning turlari va ularning haqiqiy sanalmasligi oqibatlari.* O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smlar qisman muomala layoqatiga ega bo‘lsalar-da, bitimlarni ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslar yoki homiyлari roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va o‘zлari uchun zararli bo‘lmagan maishiy bitimlarni mustaqil ravishda tuzishlari mumkin.

O‘smir tuzgan bitim (agar bu bitim uning ota-onasi yoki farzandlikka olgan shaxs yoxud homiyлari roziligidan tashqari tuzilgan bo‘lsa) ota-onalarining yoki farzandlikka olganlarning yoxud homiyлarining da‘vosiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Demak, bunday bitimlar umuman haqiqiy sanalsa-da, ular to‘g‘risida nizo qo‘zg‘atilishi va bitim tuzuvchilarning qonuniy vakillari tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bu holda mazkur bitimga ko‘ra taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olgan narsalarining hammasini ikkinchi tarafga qaytarishga, olgan narsani natura baravarida qaytarishning iloji bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘latishga majbur.

Spirtli ichimliklarni yoki narkotik vositalarni suiiste'mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining roziligesiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin (FK 120-m.).

Shuningdek o'z harakatlarining ahamiyatini tushunishga yo ularni boshqarishga layoqati bo'lman fuqaro tomonidan tuzilgan bitim deb muomalaga layoqatli bo'lsa-da, bitim tuzish paytida qandaydir (masalan, gipnoz, psixotrop modda) omil ta'sirida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan holatda bo'lган shaxs tomonidan tuzilgan bitimga aytildi. Bunday bitim ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan ikki holdan birinchisida da'voni muomalaga layoqati cheklangan fuqaro nomidan uning homiysi qo'zg'atsa, ikkinchi holda, ya'ni bitim muomalaga layoqatli shaxs tomonidan tuzilganida, uning o'zi qo'zg'atishi mumkin. Agar bunday bitimlar haqiqiy emas deb topilsa, taraflarning har biri bitim yuzasidan olingan barcha narsalarni ikkinchi tarafga qaytarishga, agar olingan narsani natura baravarida qaytarish mumkin bo'lmasa, uning qiymatini to'lashga majbur bo'ladi.

Aldash, zo'rlik, qo'rqtish ta'siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoxud fuqaro uchun og'ir holatlarning yuz berishi oqibatida tuzilgan bitim jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha haqiqiy sanalmasligi mumkin. Aldash ta'siri ostida bitim tuzilishida bitim tuzuvchi ikkinchi tarafni atayin yomon niyat bilan yanglishtiradi. Bu holda aldanuvchi taraf bitimning predmeti yoki uning shartlari to'g'risida xato tasavvur hosil qiladi. Shunday hol yuz bergenida uy-joylarni egalikka berish haqidagi qaror va unga asosan egalik huquqi to'g'risida berilgan order bitimlari fuqarolik qonunchiligidagi belgilangan asoslarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

*Qo'rqtish ta'siri ostida bitim tuzilishida jabrlangan shaxs o'ziga yoki yaqin kishilariga biror mulkiy yoki shaxsiy zarar yetkazilishidan qo'rqib, bitim tuzishga majbur bo'ladi.*

*Zo'rlik* deb bir shaxsning boshqa shu shaxsni bitim tuzishga majbur qilish maqsadida uning o'ziga yoki yaqin kishilariga jismoniy azob yetkazishdan iborat bo'lган g'ayriqonuniy ta'siri tushuniladi.

Bir taraf vakilning ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi tufayli bitim tuzilsa, vakilning yoki u bilan bitim tuzuvchining manfaatlari nazarda tutilib, vakil qilinuvchining zarariga harakat qilinadi. Masalan, muayyan narsani sotib olish uchun vakil qilingan shaxs sotuvchi bilan yomon niyatda o'ziga ma'lum bir mukofot berilishi sharti bilan narsani yuqori bahoda sotib olish to'g'risida kelishsa, yuqoridagi hol yuz beradi.

Og‘ir holatlarning vujudga kelishi tufayli tuzilgan bitimda taraflardan biri qattiq muhtojlik holati ta’sirida harakat qiladi va o‘zi uchun zararli ekanligi oshkora ko‘rinib turgan bitimni tuzadi.

Aldash, zo‘rlik, qo‘rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta’sirida tuzilgan bitim, shuningdek og‘ir holatlar yuz berishi tufayli tuzilgan bitim (asoratli bitim) haqiqiy emas deb topilsa, bu holat ikkinchi tarafning bitim yuzasidan olgan narsasini natura baravarida qaytarishi mumkin bo‘lmasa, uning qiymatini to‘lashi lozim. Bitim yuzasidan jabrlanuvchining ikkinchi tarafdan asossiz olingan mulki davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bundan tashqari, ikkinchi taraf bitimning haqiqiy emas deb topilishi tufayli vujudga kelgan xarajatlarni, yo‘qotilgan mol-mulk va yetkazilgan zararni jabrlanuvchiga to‘lashi shart (FK 123-m.).

FK 125-moddasiga asosan, yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lмаган yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## **2-§. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi**

Vakillik avvalo fuqarolik-huquqiy munosabatdir. Ya’ni, vakillik – vakilni vakolat beruvchi shaxs bilan bog‘laydigan fuqarolik-huquqiy munosabatdir. Bu munosabatda bir tomonidan (vakolat beruvchi) va ikkinchi tomonidan (vakil) ishtirok etadi. Vakillikdan ko‘zlangan maqsad vakolat beruvchi nomidan vakil, qonuniy yuridik harakatni (bitimni) amalga oshiradi. Fuqarolik kodeksining 10-bobi “Vakillik va ishonchnoma” deb nomlanadi. FK 129-moddasida vakillikka huquqiy tushuncha beriladi. Unga ko‘ra, ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi (FK 129-m.).

Demak vakil vakolat beruvchining nomidan ish yuritadi. Bunda vakilning yuridik harakatlari vakolat beruvchida fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Vakil yuridik harakatlarni amalga oshirish vakolatini ishonchnomaga, qonunga, sudning qaroriga yoki davlat organining hujjatiga asosan amalga oshiradi.

Vakil o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida ish yuritadi. Vakil vakolat beruvchining vakolatlari doirasidan tashqari chiqib yoki vakolatni

suiiste'mol qilib amalga oshirgan harakatlari va tuzgan bitimlari vakolat beruvchida hech qanday huquq va majburiyatni vujudga keltirmaydi. FK 132-moddasiga asosan, vakolat bergen shaxs tomonidan bitimning keyinchalik ma'qullanishi bundan mustasno.

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, o'z xarakteriga ko'ra shaxsan tuzilishi mumkin bo'lgan va qonunda ko'rsatilgan bitimlar vakillik orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, nikoh tuzish yoki vasiyat tuzishni vakillik orqali amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

*Vakillikning mohiyati shundaki*, unga asoslanib tuzilgan bitimlar faqat vakolat beruvchi uchungina muayyan huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Vakilning shaxsan o'zi esa bitimlar yuzasidan hech qanday huquq va majburiyatlarni olmaydi.

*Vakillik orqali* huquq layoqatini amalga oshirish, ya'ni huquqlar olish va majburiyatlarni bajarish mumkin bo'lganligi sababli, vakillarning xizmatiga ham fuqarolar, ham yuridik shaxslar birdek muhtoj bo'ladilar. Masalan, fuqaro o'ziga qarashli uy-joyni vakil orqali boshqarishi yoki sotishi, tashkilotlar esa, vakillar orqali bir-birlari bilan turli shartnomalar tuzishlari mumkin.

*Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil* bo'lishlari, ya'ni vakillik qilishlari mumkin. Ayrim hollarda istisno sifatida o'n olti yoshga to'lib, passport olgan fuqaro ham vakil bo'lishi mumkin. Faqat bunda 16 yoshdagagi fuqaro qila olishi mumkin bo'lgan yuridik harakatlarni uchun vakillik qiladi.

Fuqarolarning faqat bir-birlari uchun emas, balki ba'zi hollarda, tashkilotlar uchun ham vakil bo'lishlariga qonun yo'l qo'yadi. Masalan, savdo va ta'minot bo'limlarining agentlari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar tashkilotlarning vakillari sifatida ish bajaradilar.

*Yuridik shaxs faqat* o'z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o'z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo'lgandagina fuqarolarning vakili yoki boshqa yuridik shaxsning vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

*Sudda* voyaga yetmagan shaxslar (bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno), vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar fuqarolarning vakillari sifatida qatnasha olmaydilar. Sudyalar, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyalar) sifatida, shuningdek tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno; manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariiga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar; shu nizo bilan bog'liq mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida

ishtirok etganlar, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o‘zaro rozilik bo‘lgan hollar mustasno; sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslar sudda vakillik qilishi mumkin emas (FPK 70-m.).

Vakolat beruvchi har qanday shaxs (muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz fuqarolar ham), shuningdek, yuridik shaxs ham bo‘lishi mumkin.

*Vakolat va uning turlari.* Vakil o‘zida bo‘lgan vakolatga binoan o‘zini vakil qiluvchiga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Binobarin, *vakolat* deb vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu orqali uning uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquqi tushuniladi. Vakilning vakolatlari *qonunga, sud qaroriga, vakil qilingan davlat organlarining hujjatlari* yoki *ishonchnomaga* asoslangan bo‘lishi mumkin.

Vakil o‘z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirishga majbur. Binobarin, vakil o‘ziga vakolat bergen shaxs nomidan shaxsan o‘ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtida vakili bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo‘lgan hollar bundan mustasno (FK 129-m., 3-q.).

Agar boshqa shaxs nomidan harakat qilish uchun hech qanday vakolat bo‘lmasa yoki vakolatli bo‘lsa ham bu vakolat doirasidan chetga chiqilgan bo‘lsa, u holda tuzilgan bitimlar kimning nomidan harakat amalga oshirilgan bo‘lsa, mazkur shaxs uchun huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi.

Fuqarolik kodeksining 132-moddasida ko‘rsatilganidek, vakil qilinmagan shaxs tomonidan boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergen shaxs ushbu bitimni keyinchalik ma’qullagan taqdirdagina uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergen shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham bunday bitim ma’qullangan hisoblanadi.

Bitim tuzishga vakolat bergen shaxs tomonidan bitimning kelgusida ma’qullanishi uni tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy deb hisoblashga huquq beradi.

Bitimlar tuzishda vakil o‘z xohishi bilan harakat qiladi. U o‘ziga berilgan vakolat hajmiga, amaldagi huquqiy normalarning qoidalariga,

vakolat beruvchining ko'rsatmalariga asoslanib ish yuritadi. Bitim tuzilishida vakilning xohishi ham vakolat doirasida ifodalanganligi bois, vakilning jiddiy ravishda yanglishishi, aldanishi, qo'rqitilishi yoki zo'rlik ta'sirida tuzgan bitimi sud tomonidan haqiqiy emas topilishi mumkin.

Vakil komissioner dan farq qiladi. Agar vakil bitim tuzishda boshqa bir shaxs nomidan harakat qilsa, komissioner boshqa bir shaxs, – komitent topshirig'i bo'yicha va uning hisobiga harakat qilsa ham bitimni o'z nomidan tuzadi.

Vakolat beruvchi vakil tomonidan yuridik harakatlar qilish, o'zi uchun uning muayyan fuqarolik huquqlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish niyatida bo'lganligini o'zi bilan bitim tuzuvchi shaxslarga aniq-ravshan bildirishi lozim. Vakilning bunday niyatdaligi vakil harakat qilayotgan vaziyatning o'zida ham ko'rinib turishi mumkin. Masalan, chakana savdo korxonasi dagi sotuvchi, cassir va boshqalarning harakatlari, ularning muayyan bir tashkilot vakillari ekanliklarini bildiradi.

Vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardan vakilning yuridik harakatlari tufayli, jumladan, u tomonidan tuzilgan bitimga asosan vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxs o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatni ajratish kerak. Agar vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasidagi munosabat (ichki munosabat) shartnomaga, masalan, topshiriq yoki mehnat shartnomasiga asoslangan bo'lsa, yoxud boshqa turdag'i yuridik faktlarga, chunonchi, tug'ishganlik, vasiylik, farzandlikka olish faktlariga asoslanganida vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabat (tashqi munosabat) vakilning uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimi asosida vujudga keladi.

Vakolatning qanday asoslardan vujudga kelishiga qarab, *vakillik ikki turga*: qonun bo'yicha vakillik va shartnoma bo'yicha, ya'ni ixtiyoriy vakillikka bo'linadi.

Vakillik va uning vakolati me'yoriy hujjat bilan belgilangan taqdirda bunday vakillik *qonuniy vakillik* deb ataladi. Qonun bo'yicha vakillik muomalaga layoqatsiz shaxslar, yosh bolalar, ruhiy kasallar va aqli zaiflarning huquq va manfaatlari qo'riqlanishini ta'minlashga qaratiladi. Sud organlarida vakillik qilish to'g'risidagi qoidalar tegishli qonunlar bilan belgilanadi.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar, Fuqarolik kodeksining 131-moddasida belgilanganidek, muomalaga layoqatsiz shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar. Muomalaga layoqatsizlar uchun vakillik qilish va ularning nomidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning doirasini qonun qat'iy belgilaydi. Bular

bolalarning xususiy mulkini fuqarolik qonunchiligi bilan belgilangan tartibda boshqarish va tasarruf etishga hamda muomalaga layoqatsizlarning nomidan bitimlarni ishonchnomasiz amalga oshirishga haqli bo‘lgan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 74-moddasiga muvofiq, bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalariga yuklatiladi. Ota-onalar o‘z bolalarining qonuniy vakillari bo‘lib, har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, jumladan sudlarda maxsus vakolatlarsiz ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilib chiqadilar.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar tomonidan vasiylik ostidagilarning mulki bilan amalga oshiradigan bitimlarining qonuniyligi ustidan nazoratni homiylik va vasiylik idoralari amalga oshiradi, ular bitimlarning qonuniyligiga gumon tug‘ilgan holda sud tartibida ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

Shartnomali, ya’ni *ixtiyoriy vakillik* vakil va uning nomidan vakolat beruvchining xohishi bilan belgilanadi. Bunday vakillikda vakil va uning vakolati vakolat beruvchi tomonidan ko‘rsatiladi.

Shartnoma bo‘yicha vakillikda mehnat shartnomasiga ko‘ra, tashkilot nomidan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi xizmatchi, masalan, tashkilotlarning yurist maslahatchilari, ta’midot vakillari va boshqalar vakil bo‘lib hisoblanadilar. Topshiriq shartnomasiga binoan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi shaxslar ham shartnoma bo‘yicha vakil bo‘la oladilar.

Fuqarolik kodeksining 133-moddasiga milliy fuqarolik huquqi uchun yangi bo‘lgan vakillik turi kiritilgan bo‘lib, bu tijorat vakilligidir. Tijorat vakili doimo tadbirkorlar nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlarni surunkali va mustaqil suratda amalga oshiradigan tadbirkordir. Ushbu vakillikning boshqa vakillikdan farqi shundaki, odatdagi bitimlardan tashqari undan boshqa hech kim tuza olmaydigan bitimlarni ham tuzishlari mumkin. Ya’ni, ayni bir vaqtida ikkala tomonning (sotuvchi va xaridor, qarz beruvchi va qarzdor, pudratchi va buyurtmachi va sh.k.) vakili bo‘lgan tijorat vakili tomonidan bitim tuzilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tijorat vakiliga FK bilan tegishli huquqlar beriladi va majburiyatlar yuklatiladi. Tijorat vakilligi tadbirkorlik faoliyati sohasida amalga oshirilishi tufayli, tijorat vakili va uning vakolat beruvchilari o‘rtasida shartnomalar haq evaziga amalga oshiriladi. Shuningdek, tijorat vakilining

o‘zi amalga oshirayotgan savdo bitimlari to‘g‘risida ma’lumotlarni sir saqlash majburiyati belgilab qo‘yilgan. Hatto topshiriq bajarilganidan keyin ham bu sirni oshkor qilmaslikni qonun nazarda tutadi.

Umuman aytganda vakillik ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilishi mumkin. Faqat qonunda shaxsning shaxsan o‘zi tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan ishlarni va o‘zi tomonidan tuzilishi belgilangan bitimlarni vakillik orqali amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

### **3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida bitim va vakillikning qo‘llanilishi**

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida jadal sur’atlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asosiy vazifasi jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va jamoat tartibini saqlashdan iborat bo‘lgan IIO faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Ma’lumki, IIO huquqni muhofaza qilish faoliyatida tegishli vazifasini bajaradigan ijro etuvchi davlat organi hisoblanadi. Boshqa tomondan esa, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va tegishli idoraviy normativ hujjatlar uning fuqarolik muomalasida ishtirok etishi uchun “yuridik shaxs” maqomini belgilab bergan. Xususan, FK 42-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

Shunday ekan, umumiylar qoidalarga asosan, IIO ham yuridik shaxs sifatida o‘zi yoki vakolat berilgan vakili orqali boshqa yuridik shaxslar yoki fuqarolar bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishishi bilan bir qatorda, vazirlik tizimidagi sohaviy xizmatlar o‘zaro bir-biri bilan ham fuqarolik huquqiy munosabatlarni o‘rnatadi.

Albatta, IIOning shartnomaviy munosabatlardagi ishtiroki IIIV va uning alohida tuzilmalarining yuridik shaxs huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘lishi bilan uzviydir. Boshqacha aytganda, IIO fuqarolik-huquqiy shartnomasi va bitimlarni tuzishda davlat boshqaruvi organi emas, balki yuridik shaxs sifatida qatnashadi.

IIOning fuqarolik muomalasida o‘z nomidan, ya’ni yuridik shaxs sifatidagi ishtirokini ikki turga ajratish mumkin:

birinchidan, shartnomaviy munosabatlar asosida, ya’ni o‘z xohishiga ko‘ra fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida turli xildagi shartnomasi va

bitimlarni tuzadi. Ko‘p hollarda bunday shartnoma va bitimlarni fuqarolar bilan emas, balki yuridik shaxslar bilan imzolaydi. Amaliyotda IIOning jismoniy shaxslar, ya’ni fuqarolar bilan shartnoma va bitimlar tuzishi juda ham kam uchraydigan holatdir.

ikkinchidan, delikt munosabatlar asosida, ya’ni shartnomadan tashqari vujudga keladigan majburiyat munosabatlarida qarzdor yoki kreditor sifatida ishtirok etadi.

Binobarin, IIO fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida o‘ziga xos jihatlarga ega, ya’ni:

birinchidan, IIO mulk huquqining subyekti sifatida o‘zlariga ajratilgan pul mablag‘larini asosiy funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf qiladi va uning moliyaviy smetasi shu xususiyati bilan davlat budgetida turuvchi boshqa tashkilotlarning smetalaridan farq qiladi;

ikkinchidan, IIO xo‘jalik faoliyatining natijalariga ko‘ra iqtisodiy mustaqillikka ega, ya’ni tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va fuqarolar bilan tuzgan bitimlari yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlarga o‘z mol-mulki bilan javob beradi, uning mustaqil mulkiy javobgarligi xususiyatlari o‘zining budget vositalariga biriktirilgan moliyaviy-smetali prinsipga asoslanadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda IIV tizimidagi tuzilmalarning moddiy-texnik vositalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, normativ hujjatlarda mahsulot ishlab chiqarish (yetishtirish) va uni realizatsiya qilish vakolati berilgan ayrim tuzilmalar (xususan, Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi tizimidagi manzil-koloniyalar) tomonidan mahsulot yetkazib berish shartnoma va bitimlari keng qo‘llanib kelinmoqda.

Xususan, JIEBB tomonidan oldi-sotdi, ayirboshlash kabi shartnoma va bitimlar tuzishi natijada xo‘jalik yuritish orqali yoki cheklangan tadbirdorlik faoliyati natijasida to‘plangan mustaqil mablag‘larga ham ega bo‘lishlari mumkin.

IIOning nizomlarida ularga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, FK 180-modda 2-qismiga asosan bunday faoliyatdan olingan daromad va ushbu daromadga sotib olingan mol-mulk IIOning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi. Shu bois bu mablag‘lar ularning mustaqil mulkiy javobgarligini va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini ta’minlaydi.

Demak, IIO fuqarolik-huquqiy munosabatlarda fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi teng huquq va majburiyatlar asosida o‘zi yoki vakili orqali ishtirok etadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faqat

qonunda belgilangan hollarda va tartibda tor doirada o‘zi yoki vakili orqali qatnashadi, bunday hollarda ularning fuqarolik-huquqiy javobgarligi uchun asosan davlat javobgar bo‘ladi. Biroq, IIOning yuridik shaxs sifatida fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tuzishi oqibatida kelib chiqadigan mulkiy javobgarligi mustaqil javobgarlikdir, bunda davlatning subsidiar javobgarligi majburiyatlarining yetmagan qismi uchun kelib chiqadi.

Bu munosabatlar esa fuqarolik huquqining normalari bilan tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, IIOning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda sohaviy xizmatlar o‘rtasida bitim va shartnomalarini tuzish va unga amal qilish madaniyatini yuqori bosqichga ko‘tarish maqsadida tegishli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati mavjud bo‘lib, bu IIO kelgusida jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning oldini olish kabi asosiy vazifalarini samarali bajarishi, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yanada faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

## **FUQAROLIK HUQUQIDA MUDDATLAR VA DA’VO MUDDATI**

### **1-§. Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va uning mazmuni**

Ushbu bobga qadar fuqarolik huquqi nima ekanı, mazkur huquq sohasi tartibga soladigan munosabatlар, tartibga solishning fuqarolik-huquqiy uslubi, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi kabi ichki ishlар organlarida ko‘p qo‘llaniladigan huquq sohalaridan farqi, predmeti, tamoyillari haqida, manbalari va uning IIO faoliyatida tutgan o‘rni, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmuni: fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish usullari; fuqarolik huquqining subyektlari, huquq va muomala layoqati, fuqarolik huquqlari obyektlari va ularning muomalada bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari; bitim va vakillik nima, uning haqiqiy sanalish shartlari, IIO faoliyatida qo‘llanilishi haqida bildingiz.

Va sizda *fuqarolik huquqi* ishtirokchilari teng, munosabatlар ko‘lami (predmeti) keng huquqning alohida sohasi, – degan dastlabki xulosa paydo bo‘ldi. Navbatdagi mavzu muddatlar, da’vo muddati haqida. Empirik qarashlarga ko‘ra, muddatlar ham alohida mavzu, alohida tahlil obyektimi? Ha, shunday! Muddatlar fuqarolik huquqida shunday *yuridik faktki*, u boshqa yuridik faktlardan ahamiyati, oqibatlari nuqtai nazaridan aslo qolishmaydi. *Muddatlarning o‘tishi* – yuridik faktidir. Yuridik fakt o‘z ta’rifiga ko‘ra yangidan fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltiradi, o‘zgartiradi yoki bekor qiladi. Yuridik faktligi muddatlar o‘tishining o‘jarligidir. Undan voz kechib yoki ko‘z yumib bo‘lmasligidir.

Umumiy qoidaga ko‘ra, yuridik fakt fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi yoki o‘zgartiradi yoxud bekor qiladi. Hayotimizda ko‘p uchraydi: hamkoringiz bilan o‘zaro suhbatda (muzokarada) qachonlardir yuz bergen biron-bir holat (voqelik)ni eslatsangiz, “ey, qo‘ysang-chi, kecha nima ovqat yeganimni bilmayman-u, sen mendan qachongi, qaybir narsani so‘rayapsan”, – degan e’tiroznamo dakkini eshitgansiz. Ayni shu chog‘da muddat, aniqrog‘i, da’vo muddati qo‘l keladi. Shartnomaviy munosabatlardaku, muddatni aniq ko‘rsatamiz: ijara muddati – kunlik, bir oylik, bir yillik, qurilish pudratida – qurib bitkazilgunga qadar yoki aniq-tiniq qilib, 6 oylik, 1 yillik (so‘nggi

paytlarda qurilishi boshlangan obyektlarning pasportiga ko‘zingiz tushgan: obyekt nomi, buyurtmachi, pudratchi (ijrochi), boshlanishi, tamomlanishi yozuvlariga). Yoki to‘lov-kontrakt summasini olaylik, mehnat shartnomasini yoki ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash muddatlarini olaylik, garderobda omonat saqlash shartnomasini olaylik. Ularning har birida muddat shartnomaning ajralmas qismi sanaladi. Keyingi boblarda bat afsil gaplashamiz: fuqarolik huquqida majburiyatlar ikki yirik asosdan vujudga keladi: shartnomalardan, ziyon yetkazish natijasidan (FK 234-m.). Yuqoridagi misollarning barchasida munosabatlar shartnomalardan vujudga kelgan. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ziyon yetkazishdan (Rim huquqi tilida aytganda, “delikt” majburiyatlar) ham vujudga keladi. Muddatlarni, aniqrog‘i, uning qachondan boshlab o‘ta boshlashi, qachon to‘xtatilishi yoki qachondan uzilishini bilish, kontragentlar o‘z zimmasidagi majburiyatni bajarsa yoki bajarmasa, qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini bilish har ikki holda ham muhimdir. Muddatlar hattoki, davlat dasturlarida aks etadi yoki ular ijrosining aniq muddatlari ko‘rsatiladi. Masalan, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, “Raqamlı O‘zbekiston – 2030 konsepsiysi”.

Fuqarolik huquqida *muddat* aniq belgilangan vaqtdir. Sodda qilib aytganda, yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan o‘lchanadigan vaqt davrining o‘tishidir (FK 145-m.). Taraflar o‘rtasida yuz beradigan hayotiy munosabatlarda muddatlar muqarrar yuz berishi kerak bo‘lgan voqeani ko‘rsatish bilan ham belgilanadi: ijarasi shartnomasi aniq vogelikni ko‘rsatish bilan. Masalan, qurilish obyektini qo‘riqlash shartnomasining muddati obyekt qurilib bitkazilguniga qadar tuzilishi mumkin. Yoki sohadan kelib chiqadigan bo‘lsak, navbatdagi harbiy unvonga sazovor bo‘lish muddati – yillar bilan bog‘liq ekanini ko‘ramiz. Birgina 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonunda muddatlarga 15 ta o‘rinda havolani uchratamiz<sup>1</sup>. Jumladan, ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan shaxslar uchun dastlabki sinov muddati *uch oydan ortiq bo‘lishi mumkin emasligi*; O‘zbekiston Respublikasi II Vning ta’lim muassasalari tinglovchilari va kursantlari *birinchi bos-qichdagagi o‘quv muddati tugallaganidan keyin muddatli harbiy xizmatni o‘tagan hisoblanishi* va ularga o‘quv muassasasi joylashgan yerdagi mudofaa ishlari bo‘yicha hududiy bo‘lim tomonidan harbiy guvohnoma berilishi; ichki

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2016. – №38. – 438-м.

ishlar organlarida xizmatda bo‘lishning cheklangan yoshi safdorlar va serjantlar tarkibi xodimlari uchun ellik yoshni, ofitsерlar tarkibi uchun – *ellik besh yoshni*, generallar tarkibi uchun – *oltmis yoshni*, ayollarga esa (mavjud unvonidan qat’i nazar) – *ellik yoshni* tashkil etishi; yuksak kasbiy tayyorgarlikka, egallab turgan lavozimida ish tajribasiga ega bo‘lgan va sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra xizmatni o‘tashga yaroqli xodimlarning xizmat muddati O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda ushbu xodimlarning roziligi bilan *besh yilgacha*, boshliqlar tarkibidagi, O‘zbekiston Respublikasi IIV ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilik lavozimlarini egallab turgan va ilmiy darajaga ega bo‘lgan shaxslarning xizmat muddati esa *o‘n yilgacha* bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkinligi – muddatlarning aniq belgilangan vaqt ekaniga ishoradir.

Yuqorida aytilganidek, yuridik fakt fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi yoki o‘zgartiradi yoxud bekor qiladi.

*Vujudga keltirish* – yangidan munosabatlar vujudga keladi. Deylik, mehnat shartnomasida taraflar (ish beruvchi va xodim) o‘zlariga mehnat huquq va majburiyatlarini yangidan oladilar. Mehnat qonunchiligiga ko‘ra, mehnat sharoitlari o‘zgarishi, ish o‘rnining qisqarishi yoxud boshqa hollarda mavjud shartnomaga tegishli *o‘zgartirish* kiritiladi. Tabiiyki, shartnomalarga xos o‘ziga xos jihat uning muddatli ekanidadir. Amal qilish muddatining tugashi, sodda qilib aytganda, amaldagi mehnat shartnomasining *bekor bo‘lishi* (tugashi)ga olib keladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda muddatlar, uning ahamiyati haqida so‘z ketganda, aytish lozimki, masalan, da’vo muddatida “da’vo muddatining o‘ta boshlashi” degan tushuncha qo‘llaniladi. Ya’ni, da’vo muddati shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi. Xo‘s, shaxs agar munosabat yuz bergen paytni bilmasa yoki bilishi mumkin bo‘lmasa, bu o‘rinda, xalq tilida aytganda, “so‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman!” Ya’ni, bunday o‘rinlarda shaxs o‘z hayoti, faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchilik va uning xatarlarini o‘z zimmasiga olishga majbur. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muddatlar shartnoma intizomini mustahkamlaydi, taraflarda o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi, majburiyatlar o‘z vaqtida va soz bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Muddatlarning o‘tishi insofli tarafni rag‘batlantirishga, insofsiz tarafni o‘z zimmasidagi majburiyatni bajarishni ta’minlashga xizmat qiladi.

*Fuqarolik huquqida muddatlarning turlari.* Kafolat muddatlari, talablarga e’tiroz bildirish muddatlari. Muddatni belgilash. Vaqt davri bilan belgilangan muddatning boshlanishi va tamom bo‘lishi. Fuqarolik-

huquqiy burchlarni ijro etish muddatlari. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish muddatlari.

Muddatlar *kim tomonidan belgilanishiga qarab*, quyidagi turlarga bo‘linadi: *qonuniy muddatlar*, ya’ni huquq normalarida belgilangan muddatlardir (bu muddatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarining o‘zaro kelishuvlari bilan umumiyligini qoida bo‘yicha o‘zgartirilishi mumkin emas. Masalan, fuqaroning to‘la yoki qisman muomala layoqatiga ega bo‘lish muddatlari, ishonchnoma muddatlari, umumiyligini da’vo muddati, mehnat qonunchiligidagi – dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emasligi); *shartnomada belgilanadigan muddatlar* (bu muddatlar shartnomada taraflarining o‘zaro kelishuvi bo‘yicha belgilanishi, o‘zgartirilishi, qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Masalan, imoratlar qurilishida, ta’mirlashda, uy-joylar ijaraga berilishida tuziladigan shartnomalarda); biron-bir huquq yoki majburiyatlarni olish, o‘zgartirish yoxud bekor qilish to‘g‘risidagi *sud tomonidan tayinlanadigan muddatlar*.

Muddatlar *huquqiy oqibatlari* bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi: *da’vo muddatlar* buzilgan huquqni da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilinishi uchun qonun bilan belgilangan muddatlar (masalan, qarz olgan fuqaro olgan qarzini qaytarmasa, unga nisbatan uch yil mobaynida da’vo qilinishi mumkin. Agar bu muddat davomida uzsiz da’vo qilinmasa, da’vo narsasiga bo‘lgan huquq yo‘qotilishi mumkin); *e’tiroz bildirish muddatlar* – shartnomalar bo‘yicha olingan majburiyatlar qarzdor tomonidan bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida tashkilotlarning bir-birlariga talablarini bildirish uchun belgilangan muddatlar (masalan, temir yo‘l korxonasi tashish uchun topshirilgan yuk yo‘qotilsa, unga nisbatan olti oylik muddat davomida e’tiroz bildirilishi mumkin. E’tiroz bildirish muddatining o‘tkazib yuborilishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda, talablarining xo‘jalik sudi tomonidan qondirilmasligiga asos bo‘ladi); *kafolat muddatlar* davomida sotib olingan yoki buyurtma qilingan ashyoda yoxud bajarilgan ishda kamchiliklar topilgan taqdirda, oluvchi (buyurtmachi) mazkur nuqsonlarning tekinga yo‘qotilishi yoki ashyoning almashtirilishini yoxud qayta olib, buning uchun to‘langan pulning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi (*kafolat muddatining o‘tkazib yuborilishi oluvchi yoki buyurtmachini yuqorida ko‘rsatilgan huquqlardan mahrum qiladi*. Masalan, 6 oylik kafolat muddati belgilangan soatni olgan fuqaro mazkur muddat davomida unda bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘risida arz qilmasa, keyinchalik uni almashtirish yoki pulini olish huquqini yo‘qotadi); *majburiyatlarni bajarish va huquqni amalga oshirish vaqtini belgilaydigan muddatlarga*

misol qilib qarz shartnomasi bo‘yicha 15 aprelda olingan qarzning qarzdor tomonidan ikki oydan so‘ng, ya’ni 15 iyunda qaytarish majburiyati olinganligini ko‘rsatish mumkin. Mazkur muddat bir tomondan majburiyat vaqtini belgilasa, ikkinchi tomondan kreditor uchun huquqni amalga oshirish vaqt kelganini bildiradi.

Fuqarolik kodeksida muddatlar ushbu qonunning vaqt bo‘yicha amalda bo‘lishida ham ko‘rinadi. Ya’ni, fuqarolik qonunlarining amalda bo‘lish vaqt mazkur qonun hujjatining amalga kirgan paytidan to o‘z kuchini yo‘qotish paytiga qadar bo‘lgan vaqtdir.

Konstitutsiyaviy tartibga ko‘ra, qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi... Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

Fuqarolik kodeksi ham, umumiylar qoida bo‘yicha, faqat kelajak uchungina amalda bo‘lib, orqaga qaytish kuchiga ega emas, ya’ni ular yangi qonunning amalga kiritilish vaqtiga qadar vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

Qonunning orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lishi, ya’ni mazkur qonun amalga kiritilgan kunga qadar vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga ham tatbiq etilishiga shu qonunning o‘zida yoki boshqa qonunlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandiga ko‘ra, mazkur kodeks 187-moddasining qoidalari (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat) mulkka egalik qilish 1997-yilning 1 martiga (ya’ni, FKning amalga kirish sanasi – *M.B.*) qadar boshlangan va kodeks amalga kiritilayotgan vaqtida davom etayotgan hollarga ham tatbiq etiladi.

Ijtimoiy hayotimizda, tadbirkorlar o‘rtasida “shartnoma puldan-da qimmat” iborasi ko‘p uchraydi. Bu hol aynan muddatlar rakursida ham o‘z aksini topgan. Ya’ni, shartnoma tuzilganidan keyin taraflar uchun majburiy bo‘lgan, shartnoma tuzilayotgan paytdagidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan qonun qabul qilingan bo‘lsa, tuzilgan shartnomaning shartlari o‘z kuchini saqlab qoladi (to‘g‘ri, bundan qonunning avval tuzilgan shartnomalardan kelib chiqqan munosabatlarga tatbiq etilishi ko‘rsatilgan hollar mustasno). Demak, keyin qabul qilingan umummajburiy tusdagi qonun ham shartnoma mazmuniga ta’sir etmaydi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Imperativ tusdagi muddatlar uchraydi: fuqaroning muomala layoqati (fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi. Ayni vaqtida qonun to‘la muomala layoqatini bu o‘rinda muqarrar yuz berishi kerak bo‘lgan voqeani ko‘rsatish bilan ham belgilaydi: a) voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro nikohdan o‘tgan vaqtdan e’tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi; b) nikoh tuzish natijasida ega bo‘lingan muomala layoqati o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi. Bu o‘rinda qonun chiqaruvchi nikohlanuvchilarning huquqiy maqomini mustahkamlayotganini va mas’uliyat hissini kuchaytirayotganini sezish mumkin: avval – er-xotinlik, so‘ngra bo‘lajak ota, bo‘lajak onani nazarda tutmoqda. Oila qonunchiligi belgilaganidek, bolada ayb nima?! Imperativ tusdagi muddatlar va ularni amalga oshirish bilan bog‘liq holatga yana bir misol – da’vo muddatlari va ularni hisoblash tartibining taraflar kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin emasligidir.

Gap modomiki, muddatlar haqida ketar ekan, FKdagi yana bir holat – davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab huquqiy oqibat tug‘diradigan muddat ham mavjud. Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqlidir (FK 24-m.). Yuridik shaxslarning ta’sis hujjatlaridagi o‘zgartishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab... uchinchi shaxslar uchun kuchga ega bo‘ladi (43-m.). Umumiy qoidaga ko‘ra, yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi (44-m.). Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarini tugatish taomili ko‘riladi (55-m.). Ko‘chmas mulkka egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak (84-m.). Yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq bitimlar (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara, merosni qabul qilib olish va boshqalar) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak (111-m.). Bunda bitimning davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqarishini ham unutmaslik lozim. Bunday bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi (112-m.). Qonun chiqaruvchi bu o‘rinda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim kerakli

shaklda tuzilgan bo‘lib, ammo taraflardan biri uni ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli ekanini belgilaydi. Bunday holda bitim sud qaroriga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Qonun fuqarolik huquqining markaziy instituti bo‘lgan “mulk huquqi”ning muddatsizligini belgilaydi (FK 164-m.). Ma’lumki, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Binobarin, mulkiy plyuralizm o‘z-o‘zidan mulkning nechog‘li keng asoslardan vujudga kelishi-yu, shuningdek, bekor bo‘lish asoslari pishiq-puxta mexanizmlarga ega bo‘lishini talab etadi.

Belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyga mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi (210-m.). Demak, yer uchastkasining ajratib berilgani yoki u yerda yangi uy-joy qurilayotgani – bu hali mulk huquqi (!) vujudga keldi, degani emas.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim bo‘yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu bitimni ro‘yxatga olish uchun belgilab qo‘yilgan tartibda ro‘yxatga olinishi kerak (320-m.).

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa – shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi (366-m.). Qonun chiqaruvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ayrim shartnomalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatadi. Masalan, avtomototransport vositalarining oldisotdi, ayrboshlash, hadya, transport vositasini ijara berish shartnomalari (386-m., 497-m., 504-m., 565-m.), ko‘chmas mulkni sotish shartnomasi (481-m.), uyni, kvartirani, uyning yoki kvartiraning bir qismini sotish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim (488-m.). Mazkur munosabatlarda uning asosi bo‘lmish shartnomani “davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” bir tomondan uning shakliga doir talab bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, biz so‘z yuritayotgan masala – muddatlar va uning oqibatining ushbu jarayonga bog‘lab qo‘yilganidir. Bu hol FK 494-moddasida yaqqol kuzatiladi: korxonaga mulk huquqi bu huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab sotib oluvchiga o‘tadi.

Predmeti ko‘chmas mol-mulk bo‘lgan renta shartnomasi (513-m.), ko‘chmas mulk ijerasi shartnomasi (539-m.) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Bir yildan kam bo‘lмаган муддатга тузилган бино юки иншотни иjaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim va ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (574-m.). Shu o‘rinda savol tug‘iladi: nega aynan bir yildan kam bo‘lмаган муддатга тузилган? Soliq kodeksi 54-moddasi birinchi xatboshisida mazkur masalaga doir holat o‘z yechimini topgan deyish mumkin: “Moliyaviy ijara mol-mulkni (moliyaviy ijara obyektini) egalik qilish va foydalanishga o‘n ikki oydan ortiq muddatga shartnomasi bo‘yicha topshirishda vujudga keladigan ijara munosabatlaridir”<sup>1</sup>. To‘g‘ri, qonun chiqaruvchi aynan ushbu normada bunda moliyaviy ijara shartnomasi qator talablardan biriga (ya’ni, moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, moliyaviy ijara obyekti ijarachining mulkiga o‘tishi; shartnomaning muddati moliyaviy ijara obyekti xizmat qilish muddatining 80 foizidan oshishi юки moliyaviy ijara obyektining moliyaviy ijara shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining kamida 20 foizini tashkil etishi; shartnomaning muddati tugagach, ijarachi moliyaviy ijara obyektni moliyaviy ijara shartnomasida belgilanadigan qat’iy narx bo‘yicha haqini to‘lab olish huquqiga ega bo‘lishi; moliyaviy ijara shartnomasining amal qilish davrida ijara to‘lovlarning joriy diskontlangan qiymati obyektning uni moliyaviy ijaraga topshirish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan oshishi kabi. Bunda joriy diskontlangan qiymat buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi) javob berishi kerakligini ham nazarda tutadi. Ammo bu moliyaviy ijara bilan bog‘liq munosabatlarga taalluqlidir.

Qonun chiqaruvchi korxonani ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolagan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuzilishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozimligini, ayni vaqtda korxonani ijaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanishini qat’iy belgilaydi (580-m.).

Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi huquqiy konstruksiyasida ham o‘ziga xoslik uchraydi. Qonunga ko‘ra, ko‘chmas mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga berish haqidagi shartnoma uchun nazarda tutilgan shaklda va tartibda tuziladi. Ko‘chmas mulkka egalik huquqining boshqa shaxsga o‘tishi qaysi tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsa, bu mulkni ishonchli boshqarishga topshirish ham shu tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Qonun talabiga binoan shartnoma shakliga юки ko‘chmas mulkni

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/4674902>.

ishonchli boshqarishga topshirishni ro‘yxatga olish talabiga rioya qilmaslik – uning haqiqiy bo‘lmasligini keltirib chiqaradi.

Yana bir fuqarolik-huquqiy munosabat – firma nomiga bo‘lgan huquq yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtidan e’tiboran yuzaga keladi (1098-m.). Bir so‘z bilan aytganda, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, unga bo‘lgan tegishli huquqlar ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

## **2-§. Da’vo muddati: tushunchasi, ahamiyati va turlari. Da’vo muddati bilan bog‘liq asosiy qoidalar**

Da’vo muddati o‘zining ahamiyati, oqibatlari nuqtai nazaridan muhim jihatlariga ega. *Da’vo muddati* shaxs o‘zining buzilgan huquqini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir. Bu o‘rinda shaxs huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslardir. FK 16-moddasiga ko‘ra, jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardir. Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, FKning qoidalari barcha fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladi. Xususan, da’vo muddati va uni qo‘llash borasida ham. FK 40-moddasiga ko‘ra, foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) – yuridik shaxsda ham shunday huquq mavjud.

Sud amaliyoti tahlili natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 17-son qarorining 5-bandida basharti qonun yoki majburiatlarning ayrim turlarini tartibga soluvchi FK normalarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talablar bo‘yicha umumiy da’vo muddati – uch yil.

Ayni vaqtda shuni aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2015-yil 19-iyundagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da’vo muddatiga oid normalarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 282-son qarori 3-bandida berilgan tushuntirishga ko‘ra, sudlar qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan talabnama berish muddati da’vo muddati hisoblanmasligiga e’tibor berishi lozim. Talabnama berish muddati bu nizoni sudgacha hal

qilish tartibi hisoblanadi. Demak, talabnomaga berish muddatini da'vo muddati bilan aralashtirmaslik kerak.

Qoida tariqasida, umumiy da'vo muddati uch yildir. Bu borada huquqni qo'llash amaliyoti yanada qiziqarli. Yuqorida qayd etilgan Plenum qaroriga ko'ra, sudlar inobatga olishlari lozimki, FK 150-moddasida ko'rsatilgan uch yillik da'vo muddati, qonun hujjatlarida ushbu muddatga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan, shuningdek da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablardan tashqari fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan barcha talablarga nisbatan tatbiq etiladi. Ushbu qoidani bosh prinsip deb atash ham o'rinli bo'lardi.

Umumiy da'vo muddati aksariyat bitim orqali kirishilgan munosabatlarda, xususan, bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi sudlov ishlarida ko'p uchraydi. Bitimlarni haqiqiy emasligini isbotlash majburiyati da'vogar zimmasiga yuklatiladi. Muhamma, bitimni haqiqiy emas deb topish va shartnomani bekor qilish tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 269-son qarorida "bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabga, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, umumiy da'vo muddati qo'llaniladi hamda da'vo muddati faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llanilishi" xususida tushuntirish beradi (31-band).

Shuni ham aytish lozimki, Plenum qaroriga ko'ra, davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi nizolar bo'yicha fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan da'vo muddati qo'llanilmaydi, qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Bunda sudlarning e'tibori qaratilsinki, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida maxsus da'vo muddati belgilangan bo'lsa, fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan da'vo muddati emas, balki ushbu muddat qo'llaniladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Пленумининг 2016 йил 17 июндаги "Давлат органлари ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг қонун хужжатларига мувофиқ бўлмаган, ташкилотлар ва фуқароларнинг хукуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларини бузадиган хужжатларини ҳакиқий эмас деб топиш, улар мансабдор шахсларнинг шундай харакатларини (ҳаракатсизлигини) қонунга хилоф деб топиш тўғрисидаги низоларни ҳал этишда қонун хужжатларини қўллашнинг айrim масалалари ҳакида"ти 298-сон қарори (5.2-банд).

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ayrim talablar uchun qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi ham mumkin.

Metodologik jihatdan shuni aytish lozimki, qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'limsa, da'vo muddatlariga doir FK qoidalari maxsus da'vo muddatlariga ham joriy qilinadi.

Masalan, yuk tashish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo'yicha da'vo qo'zg'atish muddati FK 154-moddasiga muvofiq belgilanadigan paytdan boshlab *bir yil* qilib belgilanadi.

Yoki oila qonunchiligiga binoan er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko'chmas mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziliqi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lган kundan boshlab *bir yil davomida* bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

Bir yillik qisqartirilgan maxsus da'vo muddati "Otalik (onalik) to'g'risida e'tiroz bildirish"da ham uchraydi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo'limida tug'ilishni yozish daftaridagi tug'ilishga oid yozuv bolaning unda ko'rsatilgan ota-onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi. Bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs unga bunday yozuv ma'lum bo'lган yoki ma'lum bo'lishi lozim bo'lган vaqtan e'tiboran *bir yil mobaynida* ana shu yozuv to'g'risida sud tartibida e'tiroz bildirishga haqlidir. Agar shu vaqtga kelib, bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa, bir yillik muddat mazkur shaxs o'n sakkiz yoshga to'lган vaqtan boshlab hisoblanadi.

Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab *uch yil davomida*, o'rtadagi nogiron bola *o'n sakkiz yoshga to'lгuncha* yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lган o'rtadagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lган xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega. Ushbu holda "*o'n sakkiz yoshga to'lгuncha*", deb belgilangan muddat uzaytirilgan maxsus da'vo muddatiga dalildir.

Xuddi shuningdek, oila qonunchiligidida "nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqi" belgilangan. Unga ko'ra:

yetarli mablag'ga ega bo'lган sobiq er (xotin)dan:

sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab *uch yil davomida*;

o‘rtadagi nogiron bola o ‘n sakkiz yoshga to ‘lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo‘lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab *bir yil davomida* mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

nikohdan ajralgan paytdan boshlab *besh yil ichida* pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo‘lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Ushbu hollarda yillar bilan belgilangan vaqt davri – maxsus da’vo muddatini anglatadi. Hattoki, bu borada qonun yaratuvchi oilaviy-huquqiy munosabatlar taraflariga ham havola qilgan holatni ko‘rish mumkin. Ya’ni, nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to‘lanadigan aliment miqdori va uni to‘lash tartibi sobiq *er-xotin o‘rtasidagi kelishuv* bilan belgilanishi mumkin (OK 118-m., 2-q.).

Qonunchilikda yuqoridagidan qisqa muddatlar ham nazarda tutilgan munosabatlar mavjud. Masalan, turar joylarni almashtirishni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab almashtirish amalga oshirilgan kundan boshlab *olti oy mobaynida* qo‘yilishi mumkin (UJK 114-m., 2-q.).

Qonunda yanada qisqartirilgan maxsus da’vo muddatlari ham belgilangan. Mehnat kodeksiga ko‘ra, sudga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat etish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

ishga tiklash nizolari bo‘yicha – xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab *bir oy*;

xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to‘lash haqidagi nizolar bo‘yicha – zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma’lum bo‘lgan kundan boshlab bir yil;

boshqa mehnat nizolari bo‘yicha – xodim o‘z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab *uch oy* (270-m.).

Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari ham o‘ziga xosdir. Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati, natijalariga ko‘ra soliq majburiyati aniqlanadigan soliq davri tugaganidan keyin *besh yilni* tashkil etadi. Agar soliq majburiyatining yuzaga kelishi muayyan voqeа yoki harakat bilan bog‘liq bo‘lsa, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati shu voqeа yoki harakat sodir bo‘lgan paytdan e’tiboran *besh yilni* tashkil etadi.

Hukumatning 2008-yil 23-oktabrdagi 232-sон qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l Ustavida yanada

qisqartirilgan maxsus da'vo muddati amaliyotini uchratamiz. Unga ko'ra, sohadagi xos munosabatlardan kelib chiqib, *3 oylik, 12 oylik, 45 kunlik, 24 soatlik, 1 soatlik* muddatlar nazarda tutilgan.

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas. Demak, bu normalar imperativ (qat'iy, o'zgarmas) normalardir.

Mavzu doirasidagi yana bir muhim masala shundaki, u da'vo muddatini qo'llash bilan bog'liqdir.

Konstitutsiyaning 44-moddasi talabiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish... huquqi kafolatlanadi.

Shu ma'noda buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2015-yil 19-iyundagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sون qarorida tushuntirish berilishicha, "shuning uchun da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ishni sudda ko'rish uchun tayyorlash paytida da'vo arizasida bildirilgan talab bo'yicha da'vo muddati o'tganligi aniqlansa, bu holat da'vo arizasini qabul qilishni rad etish yoki uni qaytarish uchun asos bo'lmasligi inobatga olinishi lozim" (7-band).

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llanadi. Yuqoridagi Plenum qaroriga ko'ra, qonunda da'vo muddatini qo'llash haqidagi ariza qanday shaklda berilishi ko'rsatilmaganligi sababli, bunday ariza ham og'zaki bildirilishi, ham yozma shaklda berilishi mumkinligini inobatga olish lozim. Arizaning og'zaki bildirilganligi, albatta, muhokama qilinishi va bu haqida sud majlisi bayonnomasida ko'rsatilishi kerak.

Da'vo muddatini qo'llash haqidagi arizani berishga javobgar haqli. Agar bunday ariza ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan berilgan bo'lsa, u inobatga olinmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2021-yil 20-apreldagi 18-sон qarori bilan yuqoridagi 282-sон Plenum qaroriga kiritilgan tahririyl o'zgartirishda sudlarga "da'vo muddatini qo'llash haqidagi ariza faqatgina birinchi instansiya sudi tomonidan ishni ko'rish yakuni bo'yicha sud hujjati qabul qilingunga qadar berilishi mumkinligi, agar bunday ariza ishni appellatsiya va cassatsiya instansiyasi sudlarida ko'rish jarayonida berilsa, u qanoatlantirilmasligi va bu haqida sud hujjatining asoslantiruvchi qismida ko'rsatilishi, bundan ishning sud majlisi vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmagan javobgar yo'qligida ko'riganligi

sababli birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori (sud hujjati) bekor qilinib, nizo yuzasidan yangi qaror qabul qilingan hollar mustasno”ligi haqida tushuntirish berildi (9-band).

Qo‘llanish to‘g‘risida nizodagi taraf bayon qilgan da’vo muddatining o‘tishi sudning da’voni rad etish haqida qaror chiqarishi uchun asos bo‘ladi.

So‘z da’vo muddatlari haqida ketar ekan, “da’vo muddatining o‘ta boshlashi”dek jihatga to‘xtalmaslik mumkin emas. Bu boradagi bosh qoida shuki, da’vo muddati shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi. Bu qoidadan istisnolar ushbu Kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Bilgan yoki bilish lozim kundan! Huquqi buzilganligini bilgan kun mohiyatan tushunarli. Taraflar o‘rtasida shartnomalar tuzilgan. Deylik, ichki ishlar xodimi bilan tuzilgan xizmatni o‘tash kontrakti. Unda tabiiyki, muddatlar aniq belgilangan. Ikkinchi taraf ushbu bandga rioya qilmadimi, demak, birinchi tarafning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishni boshlaydi. Bunda huquqi buzilgan taraf o‘z huquqi buzilganini bildi! Ayni shu palladan da’vo muddati o‘ta boshlaydi.

Bilish lozim bo‘lgan-chi, u qachondan hisoblanadi? “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunda “jamiyatni boshqarish organlarining qarorlari ustidan shikoyat berish” nazarda tutilgan (41-m.). Unda normalanganidek, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining soha qonunchiligi, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergen jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday ariza jamiyat ishtirokchisi qabul qilingan qaror to‘g‘risida bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran ikki oy ichida berilishi mumkin. Bu holda huquqi buzilgan jamiyat ishtirokchisi xizmat safarida (xorijda) bo‘lishi mumkin, kasalligi tufayli bunday munosabatlardan holi saqlangan bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1993-yil 16-apreldagi “Sudlar tomonidan mulkni ro‘yxatdan chiqarish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunchilikning qo‘llanishi to‘g‘risida”gi 13-son qarorida ham shu kabi tushuntirishga duch kelamiz: “da’vo muddatining o‘tishi manfaatdor shaxsning o‘ziga tegishli mulkning ro‘yxatga olinganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlanadi” (17-band).

Majburiyatlarning xos xususiyati, mohiyati va oqibatidan kelib chiqib,

muayyan ijro muddatiga ega bo‘lgan majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddati – ijro muddati tamom bo‘lganidan keyin o‘ta boshlaydi; ijro etish muddati belgilanmagan yoki talab qilish payti ijro etish muddati bilan belgilangan majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddati – kreditorda majburiyatni bajarish to‘g‘risida talab qo‘yish huquqi paydo bo‘lgan vaqtadan o‘ta boshlaydi, bordi-yu, qarzdorga bunday talabni bajarish uchun imtiyozli muddat berilsa – da’vo muddati imtiyozli muddat tamom bo‘lganidan keyin hisoblana boshlaydi.

Regress majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddati – asosiy majburiyat bajarilgan paytdan o‘ta boshlaydi. Bunda tabiiyki, asosiy majburiyat qo‘sishimcha majburiyatdan avval kelishining o‘zi savolga javobdir.

### **Da’vo muddati o‘tishining to‘xtatilishi, uzilishi.**

Qoida tariqasida, da’vo muddatining o‘tishi uzluksizligi bilan xarakterlidir. Ya’ni, umumiy da’vo muddati uch yil uzluksiz o‘tishi kerak, degani. Ba’zan da’vo muddatining o‘tishi to‘xtatiladi, ba’zan uziladi ham.

Da’vo muddatining o‘tishi to‘xtatilganida, unga sabab bo‘lgan holatlar bartaraf bo‘lgandan so‘ng, da’vo muddatining o‘tishi yana qolgan joydan davom etaveradi. Da’vo muddatining o‘tishi belgilangan tartibda da’vo qo‘zg‘atilishi bilan, shuningdek majbur shaxs qarzni tan olganligini ko‘rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan *uziladi*. Uzilishdan keyin da’vo muddatining o‘tishi yangidan boshlanadi, uzilishgacha o‘tgan vaqt esa – yangi muddatga qo‘silmaydi.

Da’vo muddatining o‘tishi quyidagi hollarda *to‘xtatiladi*:

1) agar da’vo qo‘zg‘atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo‘lmas kuch) to‘sqinlik qilgan bo‘lsa. Xususan, zilzila, yer ko‘chkisi, suv toshqini, sunami, epidemiya, epizootiya kasalliklari kabilar;

2) O‘zbekiston Respublikasi Hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirganligi (moratoriyl) tufayli. Hukumat ba’zan milliy manfaatlardan kelib chiqib, ayrim hollarda majburiyatlarni kechiktirishga doir qarorlar qabul qilishi mumkin;

3) da’vogar yoki javobgar harbiy holatga o‘tkazilgan Qurolli Kuchlar, chegara qo‘sinchalar va ichki qo‘sinchalar tarkibida bo‘lsa. Bu – tabiiy hol, albatta;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo‘lmasa. Fuqarolik huquqi taraflar o‘rtasidagi normal munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi normalardir. Normal doiradan chiqdimi – yo ma’muriy yoki jinoyat huquqi bilan to‘qnashiladi;

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatining amal

qilishi to‘xtatilgan bo‘lsa. Amalda ba’zan shunday holatlar ham bo‘ladi;

6) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risida kelishuv tuzilgan taqdirda. Mediatsiya nizolarni sudgacha hal qilishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, taraflar o‘rtasida bu haqda kelishuvga erishilgan bo‘lsa ham da’vo muddatining o‘tishi to‘xtatiladi.

Muddatning to‘xtatib turilishiga asos bo‘lgan yuqoridagi holatlar barham topgan kundan boshlab da’vo muddatining o‘tishi davom etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2015-yil 19-iyundagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da’vo muddatiga oid normalarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 282-son qarori sudlarga tushuntirish beradiki, FKning yuqorida qayd etilgan 156-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan da’vo muddati o‘tishining to‘xtatilishi uchun asos bo‘luvchi holatlar qat’iydir va uni kengaytirilgan tarzda talqin qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, FK 158-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno (12-band). Ya’ni, jinoyat ishi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan da’vo sud tomonidan ko‘rilmasdan qoldirilgan bo‘lsa, da’vo qo‘zg‘atilgunga qadar o‘ta boshlagan da’vo muddati da’voni ko‘rmasdan qoldirgan hukm qonuniy kuchga kirgunicha to‘xtatib turiladi, da’vo muddati to‘xtatib turilgan vaqt da’vo muddatiga qo‘shilmaydi. Bunda muddatning qolgan qismi olti oydan kam bo‘lsa, u olti oygacha uzaytiriladi.

FKga ko‘ra, da’vo muddatining to‘xtatilishi, uzilishi va tiklanishi haqidagi qoidalar, qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, maxsus da’vo muddatiga nisbatan ham qo‘llanadi.

**Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.** So‘z muddatlar haqida borar ekan, Fuqarolik kodeksining 163-moddasidagi “da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar”ni ham eslatish o‘rinlidir. 1963-yilgi “Grajdaniq kodexsi”<sup>1</sup> dan farqli o‘laroq, amaldagi kodeks bu borada jiddiy miqdor va sifat o‘zgarishlariga uchradi. Kodeks da’vo muddatini amalga oshirish bilan bog‘liq masalada taraflardan biriga (ushbu munosabat tufayli aziyat chekkan) imkon beradiki, unga ko‘ra:

- shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- omonatchilarining o‘z omonatlarini berish to‘g‘risida bankka qo‘yadigan;
- fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash;

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Гражданлик кодекси (1963 йил 23 марта тасдиқланган ва 1964 йил 1 январдан амалга киритилган ҳамда Олий Мажлиснинг 1996 йил 29 август 257-I-сон қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотган). – Т., 1993.

- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to‘lash;
- mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o‘z huquqini har qanday buzishlarni, garchi bu buzishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham (FK 231-м.), bartaraf etish haqidagi talablariga;

– mamlakat mustaqilligi e’lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga nisbatan da’vo muddati joriy qilinmaydi. Qisqasi, ushbu talablarga nisbatan da’vo muddati qo‘llanilmaydi. Bu yerda shuni ham aytish lozimki, qonun chiqaruvchining ushbu ro‘yxati tugal emas. Normaning so‘nggida “qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga” degan havola ham bor. Xususan, oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da’vo muddati joriy qilinmaydi. Oila kodeksi bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir (OK 12-м.). Yoxud xodimning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo‘yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi (MK 270-м.).

Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar mohiyatiga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shaxsning o‘ziga xos huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy tartib-taomil va vositadir. Boshqacha aytganda, *da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar* – bu o‘ziga xos vujudga kelish, o‘zgarish va bekor bo‘lish asoslariga ega bo‘lgan hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilari tomonidan huquqqa xilof xattiharakatlar (harakatsizlik) oqibatida buzilgan shaxsiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy ne’matlarni, shuningdek ayrim mulkiy huquqlarni himoya qilish haqidagi da’volardir<sup>1</sup>.

Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar doirasi aniqlanishi zarur. Bu har qanday talabga nisbatan ham uni qo‘llanmasligi, bu borada qonun chiqaruvchi tomonidan o‘ziga xos yondashuv doimo mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Garchi, FK 163-moddasi bu borada talablar ro‘yxatini ochiq qoldirgan bo‘lsa-da, avvalo, fuqarolik huquqlari himoya qilinishi zaruratidan, fuqarolik-huquqiy munosabatning xususiyatidan kelib chiqqan.

Shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi – *shaxsiy nomulkiy huquqlardir*. Qonun talabiga ko‘ra, shaxsiy nomulkiy huquqlar shaxsdan tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga

---

<sup>1</sup> *Воҳидов Ҳ.М.* Даъво муддати жорий қилинмайдиган талаблар ва уларнинг хуқуқий оқибатлари: Юрид. фан. бўйича фалс. докт. дисс. ...автореф. – Т., 2020. – Б.12.

berilmaydi. Hattoki, vafot etgan kishiga tegishli bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining vorislari tomonidan amalga oshirilishi va himoya etilishi mumkin. Manfaatdor shaxslarning talabiga ko‘ra fuqaroning sha’ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Omonatchilarning o‘z omonatlarini berish to‘g‘risida bankka qo‘yadigan talablarga nisbatan da’vo muddati tatbiq qilinmaydi. Bankka qo‘yilgan omonatlarning sir tutilishi konstitutsiyaviy-huquqiy asosga ega (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 36-m.). Ma’lumki, banklarning professional faoliyati litsenziyalanadi. Butun faoliyati risk (tavakkalchilik)ka tayanadi. Pul mablag‘larini omonatlarga jalb qilish banklar faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, bunday huquqqa qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya berilgan banklar ega bo‘ladilar. Bunday huquqqa ega bo‘lmagan shaxs fuqaroden omonat qabul qilgan taqdirda, omonatchi darhol omonat summasini qaytarib berishni, shuningdek bu summaga FK 327-moddasida nazarda tutilgan foizlarni to‘lashni hamda foiz summalaridan tashqari omonatchiga yetkazilgan hamma zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Omonatlar asosan bank omonati shartnomalari tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma bo‘yicha birinchi tarafdan (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi. Demak, shartnoma o‘z huquqiy belgilariga ko‘ra, ikki taraflama, konsensual va haq evaziga tuziladi.

Qonunchilik bank omonatining omonatni talab qilinishi bilanoq berish (talab qilinguncha saqlanadigan omonat) yoki omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat) turlarini farqlaydi. Umumiyligida qoidaga ko‘ra, shartnoma bo‘yicha, omonatning turidan qat’i nazar, bank omonatchining talabi bilan omonat summasini yoki uning bir qismini berishi shart. Aslida bank omonatchining talabiga muvofiq omonatning qaytarilishi ta’minlanganligi to‘g‘risida axborot berishi shart (FK 765-m.).

Fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga nisbatan da’vo muddati tatbiq qilinmaydi. Xalqaro va milliy huquqqa ko‘ra, yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. Darhaqiqat, shaxsning hayoti, uning tirikligi va sog‘lig‘i betakror hodisadir. Shu ma’noda ushbu tabiiy

huquqni milliy huquq sohalarining barchasi qo‘riqlaydi. JK bu boradagi – jinoiy qilmishlarni, MJtK – ma’muriy qilmishlarni, ayni dam FK – bu kabi da’vo talablariga nisbatan da’vo muddati qo‘llanilmasligi bilan bog‘liq mexanizm bilan muhofaza qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi “Mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan xodimning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashga oid nizolar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 18-son qarorida berilgan sudlarga berilgan tushuntirishga ko‘ra, xodimning mehnat vazifalarini bajarish vaqtida ularga yetkazilgan shikastlar yoki boquvchining vafot etganligi munosabati bilan to‘lanadigan zararni undirish haqidagi talablarga da’vo muddati tatbiq qilinmaydi. Bunda mehnat jarohati tufayli kasb layoqati yo‘qotilgandan yoki boquvchining vafotidan so‘ng uch yildan keyin keltirilgan da’vo talablari, ariza berilgan kunidan oldingi ko‘pi bilan uch yil bo‘yicha qondiriladi (6-band).

Jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga nisbatan da’vo muddati tatbiq qilinmaydi. Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o‘zini mulkiy ziyon ko‘rgan deb hisoblovchi shaxs yoxud uning vakili jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab to sud tergovi boshlangunga qadar fuqaroviylar da’vo qo‘zg‘atishga haqlidir. Bunday huquqqa uning merosxo‘rlari ham egadir. Jinoyat protsessida fuqaroviylar da’vo qo‘zg‘atmagan shaxs, shuningdek da’vosi ko‘rilmasdan qoldirilgan shaxs uni fuqaroviylar sud ishlarini yuritish tartibida qo‘zg‘atishga haqlidir. Fuqaroviylar da’vo bo‘yicha ish yuritishda ziyonni undirish asoslari, shart-sharoiti, hajmi va usuli fuqaroviylar, mehnat va boshqa soha qonunchiligi qoidalariga muvofiq aniqlanadi. Boshqa soha qonunchiligidagi belgilangan da’vo muddati jinoyat protsessidagi fuqaroviylar da’voga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Muldorning yoki boshqa egalik qiluvchining o‘z huquqini har qanday buzishlarni, garchi bu buzishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham (FK 231-m), bartaraf etish haqidagi talablarga nisbatan da’vo muddati tatbiq qilinmaydi. Manbalarda qayd qilinganidek, negator da’volarga nisbatan da’vo muddati tatbiq qilinmasligi ushbu da’volar bevosita mulkdorning o‘zida bo‘lgan mol-mulkka nisbatan mavjud mulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Uning yuridik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

*birinchidan*, mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o‘z huquqini har qanday buzishlarni, shu jumladan, egalik qilish bilan bog‘liq bo‘limgan buzishlarni bartaraf etish haqidagi talablar (negator da’volar) bevosita mulkdorning faqatgina o‘z egaligida bo‘lgan mol-mulkiga nisbatan qo‘yiladi;

*ikkinchidan*, mulkdorning uchinchi shaxslarga nisbatan negator da'vo bo'yicha qo'yadigan talablari faqatgina foydalanish va tasarruf etish huquqlari doirasida bo'ladi;

*uchinchidan*, amaldagi Fuqarolik kodeksida mulk huquqining muddatsiz ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Ushbu norma mazmuni bevosita mulkdorning negator da'vo talablariga da'vo muddati tatbiq qilinmasligi masalasiga ham singdirilgan. Chunki, mulkiy huquqlarning fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullaridan biri ham aynan negator da'vo hisoblanadi;

*to'rtinchidan*, negator da'volarga nisbatan umumiy da'vo muddati tatbiq qilinmasligining yana bir muhim jihat shundaki, mulkdor o'z huquqlariga nisbatan uchinchi shaxslarning huquqqa zid xatti-harakatlari va har qanday buzishlarning oldini olish va himoya qilish to'g'risidagi talabini har qachon qo'yishga haqli. Modomiki, ushbu huquqlarni huquqiy muhofaza qilishga doir ma'lum bir muddat belgilanar ekan, mulkdor o'z huquqlarini amalgaloshirishda ma'lum bir sun'iy to'siqlarga duch kelardi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda mulkiy munosabatlarning rivojiga putur yetkazardi<sup>1</sup>.

Mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmasligining yuridik jihatlari quyidagilarda ko'rindi:

– ushbu talablar mustaqilligimizga qadar mamlakatimiz hududidan olib chiqib ketilgan, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan hamda madaniyatimiz va ma'naviyatimiz asosi hisoblangan ko'char ashyolarni qaytarib berish to'g'risida ekani;

– tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulk hamda boshqa qimmatbaho obyektlar qayta tiklanmas va o'ziga xos xususiyatlari bilan (badiiy yechimi, bezagi, unda ifodalangan san'at turi, materiali, fan sohasidagi yutuqlar, muallifining dunyoqarashi va fikrlari va h.k.) takrorlanmas ekanligi;

– yuqorida qayd qilingan obyektlar nafaqat bir millat, bir xalq madaniyati va ma'naviyatiga xos ekanligi bilan, balki umuminsoniy sivilizatsiyaga mansubligi bilan izohlanadi.

Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda chetdan keltirish, chetga olib chiqish va mulkchilik huquqini topshirishni taqiqlash hamda uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi 1970-yilgi Konvensiyaga ko'ra, har bir davlatning madaniy merosiga mazkur davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan va shu davlat hududida istiqomat qiluvchi chet el

---

<sup>1</sup> Ўша манба.

fugorolari yoki fugoroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘sha joyda vujudga keltirilgan; milliy hududdan topilgan; ushbu boyliklar kelib chiqqan mamlakatning vakolatli ma’murlari roziligi bilan turli ekspeditsiyalarda qo‘lga kiritilgan; ixtiyoriy ravishda ayrboshlashlar natijasida olingan; sovg‘a sifatida olingan va kelib chiqqan mamlakati vakolatli ma’murlarining roziligi bilan qonuniy ravishda qo‘lga kiritilgan madaniy boyliklar kiritiladi. Shuningdek, bu haqda MDH davlatlari tomonidan 1992-yil 14-fevralda Madaniy va tarixiy boyliklarni ular kelib chiqqan mamlakatga qaytarish to‘g‘risida Bitim tuzilgan. Bular haqida so‘z yuritishimiz bejiz emas. Zero, O‘zbekiston o‘zining ko‘hna va boy tarixiga, milliy-madaniy boyliklariga ega bo‘lgan yurt hisoblanadi. Afsuski, ular so‘nggi yuz yillik tariximizda dunyoning turli burchlariga sochilib ketdi.

Mang‘itlar sulolasining so‘nggi amiri Said Olimxonning boyliklari taqdiri<sup>1</sup>, Xiva xonligining moddiy-ma’naviy mol-mulkleri taqdiri<sup>2</sup>, Imom Moturudiy hazratlarining hozircha topilmagan beba ho bo asarlari<sup>3</sup>, Madina (Saudiya Arabistoni)<sup>4</sup>, Bog‘dod (Iroq)<sup>5</sup>, Quddusi Sharif<sup>6</sup>, Misr<sup>7</sup> zaminidagi takiyalar taqdiri, shuningdek Qohira, Istambul, Luvr, Tehron, Moskva, Ermitaj muzey va kutubxonalaridagi nodir asarlarning taqdiri hanuz mavhumligicha qolmoqda. Jahon amaliyotida o‘z milliy boyligini o‘z yurtiga qaytarishga erishayotgan davlatlar tajribasi (misol uchun Niderlandiya bilan Indoneziya o‘rtasidagi shartlashuvga ko‘ra, Indoneziyaga bir paytlar olib ketilgan ko‘plab madaniy boyliklar qaytarildi... Fransiya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlar o‘rtasida ham shunga o‘xshash bitimlar tuzilgan<sup>8</sup>) bizni ham sergaklikka undashi shart.

---

<sup>1</sup> Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т., 1991. – Б.28.

<sup>2</sup> Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Мерос туркумидан. – Т., 1991. – Б.181.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. – Т., 2001. – Б.129.

<sup>4</sup> [http://www.al3ez.net/mag/the\\_education\\_1.htm](http://www.al3ez.net/mag/the_education_1.htm)

<sup>5</sup> <http://www.alhandasa.net/forum/showthread.php?t=119288>

<sup>6</sup> Уватов У. Кудуси Шарифда Накшбандий тақияси // Халқ сўзи. – 1999. – 29 сент.

<sup>7</sup> <http://www.islamport.com/html>; Абдураҳмон ибн Ҳасан ал-Жибиртий. Тарих ажоб ал-осор фи ат-тарожим ва ал-ахбор. З жилд. – Байрут: Дор ал-жил. Нашр йили кўрсатилмаган. – Б.470.

<sup>8</sup> Ҳакимов Р. Маданий бойлик – умумхалқ мулки // Ҳаёт ва қонун. – 2001. – №4. – Б.17.

## MULK HUQUQI. MULK HUQUQINI HIMoya QILISH USULLARI. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MULK HUQUQI

### 1-§. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: tushunchasi, mazmuni, turlari va shakllari

Fuqarolar va shaxslar tomonidan tabiat boyliklari va boshqa ashyolarni o'zlashtirish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar tizimi yuridik ma'noda "mulk" tushunchasi orqali qo'llaniladi va u mulk huquqi sifatida ko'rib o'tiladi.

Mulk huquqi, o'z navbatida, obyektiv va subyektiv mulk huquqlariga bo'linadi.

*Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi* deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va uni mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko'zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig'indisi nazarda tutiladi. Mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi.

*Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi* deb ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, shirkat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulknini egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytildi.

Mulknini o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatini ko'zlab egallash, mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'z mulk huquqini har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi mulk huquqining mazmunini tashkil etadi. Subyektiv mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan bu elementlar, mulk egasiga qonunda belgilangan doiralarda beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shunga ko'ra mulkdor o'z mulkiga bo'lgan huquqlarini ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradi. Mulkdorning o'z xohishi deganda, uning erki, irodasi bilan o'zi va boshqalarning ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab, birovning tazyiqi va zo'r lashlarisiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Bunday holatda mulkdorga nisbatan zo'rlik, tazyiq ko'rsatilgan bo'lsa, qonun mulkdorning xohish-

irodasini erkin amalga oshirishini kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Ayni vaqtda mulkdorning o‘z xohishiga ko‘ra ish tutishi qonunga zid bo‘lmasligi kerak.

*Mulkni egallahash huquqi* deb mulkni o‘z qo‘lida yoki o‘z huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytildi. Mulkni qonunga muvofiq o‘z qo‘lida yoki o‘z xohish-irodasi ta’siri ostida saqlab turgan shaxs mulkni egallahash huquqiga ega. Bunday huquq, avvalo, mulk egasiga tegishli bo‘ladi. Ammo mulkni egallahash huquqi qonun yoki shartnomaga asosan boshqa shaxsda ham bo‘lishi mumkin. Masalan, mulk shartnomasi bo‘yicha uning ijara qo‘yilishida, vaqtincha tekin foydalanish uchun topshirilishida, omonat qo‘yilishida yoki ma’muriy dalolatnomalarga binoan vaqtincha saqlash uchun biron tashkilot yoki fuqaroga o‘tkazilishida egalik huquqi mulk egasi hisoblanmagan shaxsda ham bo‘lishi mumkin.

Qonuniy asoslар bo‘lmay turib, birovlarga qarashli mulkni egallahashga, masalan, birovning o‘g‘irlangan yoki yo‘qotgan mulkini saqlashga mulkni qonunsiz egallahash deb aytildi.

*Mulkdan foydalanish* deb mulkning foydali xususiyatlarini olish va mulkdan iqtisodiy ma’noda foydalanishga aytildi. Mulkdan qonunga muvofiq foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Mulkdan foydalanish huquqi shu mulkni egallahash huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mulkni egallamay, saqlamay turib undan foydalanib bo‘lmaydi. Mulkdan ishlab chiqarishda yoki kundalik hayotda foydalanishda u butunlay iste’mol qilinadi yoki muayyan vaqt davomida eskiradi.

Agar birovning mulkidan qonun yoki shartnomada belgilangan asoslар bo‘lmay turib foydalanilsa, bunday foydalanish qonunsiz foydalanish hisoblanadi (masalan, o‘g‘irlangan yoki yo‘qotilgan mulkdan foydalanish).

*Mulkni tasarruf etish huquqi* deb mulkning yuridik taqdirini belgilashga, ya’ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo‘ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqqa aytildi.

Mulk egasi tasarruf etish huquqiga ko‘ra mulk yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, chunonchi, ashyni sotish, hadya qilish, ijara qo‘yish to‘g‘risidagi shartnomalarni tuza oladi. Agar ashyo butunlay yaroqsiz bo‘lib qolsa, mulk egasi bunday ashyni tashlab yuborishi, o‘zidan biron-bir usul bilan soqit qilishi mumkin. Bu huquq mulkdorning o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishiga imkon beradi.

Bu huquq tugashi bilan mulkka egalik huquqi ham yakunlanadi. Masalan, mulkni omonat qo'yishda ashyni egallash huquqi, ijaraga qo'yishda ashyni egallash va undan foydalanish huquqi ashynoning sotilishi yoki hadya qilinishida esa subyektiv mulk huquqining har uch elementi: egallash, tasarruf etish va mulkka egalik huquqi butunlay boshqa shaxsga (yangi egasiga) o'tadi.

Mulk egalarining o'zlariga tegishli mulk huquqidan g'ayriqonuniy maqsadlarda yoki birovning zarariga foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Mulkdor huquqlarining, vakolatlarining chegarasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Konstitutsianing 54-moddasiga asosan mulkdor o'z vakolatlarini amalga oshirishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Bu konstitutsiyaviy norma Fuqarolik kodeksining 172-moddasida bat afsil talqin qilingan. *Ushbu moddaga asosan mulk huquqini amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat:*

*birinchidan*, mulkdorning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart;

*ikkinchidan*, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalani-shiga yo'l qo'yishga majbur. Masalan, ko'chmas mulk (yer uchastkasi) egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa – boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqli. Odatda, servitut piyodalar va transport yo'li, elektr, aloqa, gaz yoki suv quvurlari o'tkazish uchun zarur bo'lishi mumkin. Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer ega-sining mulk huquqidan aslo mahrum qilmaydi. Servitutdan foydalanuvchi bilan yer uchastkasi egasi o'rtasida servitut haqida bitim tuzilib, u ko'chmas mulkka oid bitimlar kabi ro'yxatdan o'tkaziladi. Servitut belgilangan uchast-kaning egasi agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, servitut kimning foydasini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsdan uchastkadan foydalanganlik uchun mutanosib haq talab qilishga haqlidir (FK 173-m.);

*uchinchidan*, mulkdor o'zining ustunlik mavqeini suiiste'mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o'zga harakatlarni qilishga haqli emas;

*to'rtinchidan*, mulkdor o'z huquqini amalga oshirganida fuqarolarning sog'lig'iga va atrof muhitga zarar yetkazilishining oldini olish choralarini ko'rishga majbur.

“Mulk huquqi” tushunchasi mazmunida nafaqat mulkdorning huquqlari, balki mol-mulkni saqlab turish burchi ham tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 174-moddasiga asosan, o‘ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdor zimmasida bo‘ladi. Agar mulkdor bu majburiyatni bajarmasa, uning mulkiy huquqlari chegaralab qo‘yilishi yoki mol-mulk undan olib qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (36, 53, 54-m.), Fuqarolik kodeksi (164, 165, 172, 228, 231-m.) va boshqa qonunlarda mulk huquqining quyidagi asosiy prinsiplari o‘z ifodasini topgan:

– O‘zbekiston Respublikasida mulk daxlsiz, mulkdorning mulkiy huquqi qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin;

– iqtisodning samarali amal qilishi va xalq farovonligining o‘sishiga yordam beradigan har qanday shakldagi mulkchilikning yaratilishiga ruxsat etiladi;

– mulkchilik barcha shakllarining himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning rivojlanishiga teng sharoit yaratib beriladi;

– mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lмаган har qanday xatti-harakatlarni o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishga haqli;

– mulk huquqi amalga oshirilishida atrof muhitga zarar yetkazilmasligi, fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat huquqlari buzilmasligi hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga putur yetkazilmasligi shart;

– har kim mulkdor bo‘lishga haqli.

*Iqtisodiy ma’nodagi mulk shakli* – moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir. Bunday usullar yakka tartibda, jamoa bo‘lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

*Yuridik ma’nodagi mulk shakli* – moddiy ne’matlarni muayyan subyektlarga tegishli ekanligini (biriktirilganligini) mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqiy tartibini belgilovchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida mulkchilikning *xususiy mulk* va *ommaviy mulk shakllari* mavjud.

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta’minlaydi va uning himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumlashtirish uchun mulk subyektining maqomi va mol-mulk tartibining uzviy birligi asosiy mezon hisoblanadi. O‘z navbatida, xususiy mulk quyidagi shakllarda (turlarda) namoyon bo‘ladi:

- a) yakka shaxsga (individga) tegishli mulk (fuqarolar mulki);
- b) nodavlat yuridik shaxslar mulki.

Ommaviy mulk tarkibiga esa quyidagilar kiradi:

- a) O‘zbekiston Respublikasining mulki;
- b) ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga asosan, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjalariiga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlar, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslardir (FK 208-m.).

Xususiy mulk huquqi subyektlari garchi turli-tuman va keng doirada bo‘lsa ham ularni birlashtiruvchi belgi mulkning vujudga kelishi, undan foydalanish, boshqarish, tasarruf etish, uning natijalaridan bahramand bo‘lishda jismoniy shaxs (xususiy shaxs)ning u yoki bu darajada ommaviy mulkdagi kabi fuqaro (davlatga mansub shaxs) yoki maxsus vakolatli mansabdor shaxs sifatida emas, balki mulkdor shaxs sifatida ishtirok etishidir. Bunday ishtirok etish bevosita (masalan, fuqarolarga tegishli mol-mulk bo‘yicha mulkdor vakolatlarini amalga oshirishda) yoki bilvosita (masalan, yuridik shaxsning ta’sis etuvchisi yoki yuridik shaxs mol-mulkidan bahramand bo‘luvchi subyekti sifatidagi huquqlarini amalga oshirishda) namoyon bo‘ladi. Har ikkala shaklda ham shaxsga ma’lum mulkiy huquqlar tegishli bo‘ladi va u bu huquqlarni o‘ziga xos tarzda amalga oshiradi.

Fuqaro mulki xususiy mulkning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u mulkning boshqa turlariga nisbatan quyidagi afzalliliklarga ega:

1) mulkdor har doim aniq shaxs bo‘ladi;

2) mulkdor mulkka nisbatan eng yaqin va majburiyati ko‘p bo‘ladi, shu sababli, unga ta’sir qilishda muayyan ustunliklarga egadir;

3) bunday mulk tashmachilik, o‘g‘rilik va xo‘jasizlikning qurboni bo‘lish ehtimolidan uzoq bo‘lishi uchun Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga asosan kafolatlanadi, ya’ni xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjalariiga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Boshqacha aytganda, xususiy mulkning bu turini fuqarolarga yakka tartibda tegishli bo‘lgan mol-mulk ma’nosida tushunish mumkin. Bu mulkning asosiy belgilaridan biri bu mulkdorning yakka shaxs, ya’ni fuqaro ekanligi va u mol-mulkka bo‘lgan huquqlarini xususiy tarzda amalga oshirishga haqli ekanlidir.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashylardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin (FK 209-м.).

Demak, qonunga binoan fuqaro yoki yuridik shaxs sotib olishi, foydalanishi va hadya qilishi mumkin bo‘lgan har qanday narsa xususiy mulk obyekti bo‘lishi mumkin. Xususiy mulk huquqiy tartibiga ko‘ra, fuqarolik muomalasida erkin harakat qiladigan va fuqarolik muomalasida harakati cheklangan mulklarga bo‘linadi.

Fuqarolik muomalasida harakati cheklangan mol-mulk obyektlarini erkin ravishda sotish va xarid qilish mumkin emas. Bunday obyektlarning fuqarolik muomalasidagi harakati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Yer xususiy mulk sifatida xususiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi farmoniga asosan, savdo obyektlari joylashgan yer uchastkalarini xususiy mulk sifatida sotilishiga ruxsat beriladi. Bunday sotish tanlov yoki kimoshdi (auksion) savdolari asosida amalga oshiriladi. Turar-joy yoki ma’muriy binolar joylashgan yer uchastkalari xususiy mulk sifatida sotilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son farmoniga muvofiq “2015-yilning 1-iyuliga qadar turli idoralar huzuridagi “bir darcha” xizmatlari tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazilishi, “bir darcha” markazlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar tizimga integratsiya qilinishi, ta’sis hujjatlari va davlat xizmatlaridan foydalanish uchun taqdim etiladigan boshqa hujjatlar, jumladan, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarining namunaviy shakllari ishlab chiqilishi;

“bir darcha” markazlarining faoliyati 2016-yilning 1-yanvaridan kechiktirmasdan boshlanishi ta’minlanishi, shu muddatdan boshlab “bir darcha” markazlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruv organlariga tadbirkorlik subyektlaridan bevosita hujjatlar qabul qilish taqiqilanishi<sup>1</sup>.

Fuqarolarning mulki bo‘la olmaydigan mol-mulk tegishli qonun hujjatlarida ko‘rsatib o‘tilgan. Ularga asosan quyidagilar fuqarolarga tegishli mulk bo‘la olmaydi:

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2015. – №20. – 251-м.

- quroq-yarog‘, shu jumladan, o‘qotar quroq (silliq stvolli ov miltiqlari, sport qurollari, shuningdek mukofotga berilib belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan qurollardan tashqari), armiya o‘q-dorilari va harbiy texnikasi;
- portlovchi moddalar va materiallar, asboblar va qurilmalar;
- giyohvandlik vositalari, psixotrop, zaharli, qattiq ta’sir etuvchi va zaharlovchi moddalar;
- maxsus taqiqlab qo‘yilgan boshqa mol-mulk.

Agar fuqaro ixtiyorida bunday mol-mulk insofli va qonuniy asoslarda paydo bo‘lsa (meros tariqasida o‘tish va h.k.), u buni o‘zidan begonalashtirishi lozim. Agar bunday mol-mulk g‘ayriqonuniy va noinsoflik asosida xarid qilingan yoki unga egalik qilingan bo‘lsa, davlat foydasiga musodara etilishi lozim.

Fuqarolarga qarashli mol-mulk oila mulki shaklida bo‘lishi ham mumkin. Oila – kishilarni bir-birlari bilan qon-qarindoshlik yoki nikoh asosida birgalikda yashab, umumiyo xo‘jalik yurituvchi uyushmasi. Oilaviy mulkning tarkibiga quyidagilar kiradi:

er-xotinning birgalikdagi mulki;

oila a’zolarining har biriga shaxsan tegishli bo‘lgan mulk, shu jumladan nikohgacha bo‘lgan mulk;

oilaviy umumiyo mulk oila a’zolarining umumiyo kelishuvi asosida boshqariladi. Umumiyo qoidaga ko‘ra, oila yuridik shaxs emas. Biroq oila zamirida dehqon xo‘jaligi tashkil etilsa, u yuridik shaxs huquqidan foydalanadi.

Davlatga qarashli bo‘lmagan yuridik shaxslar mulkining iqtisodiy mazmuni tashkiliy jihatdan uyushgan kishilar guruhiba moddiy ne’matlarning tegishli ekanligida ifodalananadi. Ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda yuridik shaxsning mulki shu jamoa a’zosi hisoblangan barcha shaxslarning umumiyo hissali mulki deb ko‘rsatiladi. Bu fikr noto‘g‘ri. Mazkur mulkning subyekti faqat yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mulkida umumiyo mulkdagi kabi ko‘p subyektlilik emas, balki bir subyektlilik belgilangan. *Yuridik shaxslar mulkining quyidagi turlari mavjud:* a) mahalla mulki; b) kooperativ mulki; v) jamoa korxonalarining mulki; g) ijara korxonasing mulki; d) xo‘jalik shirkati va jamiyati mulki; ye) xo‘jalik uyushmalari va birlashmalarining mulki; z) diniy tashkilotlarning mulki.

Davlat mulki mulkning mustaqil shakli hisoblanadi. Davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

✓ davlat organlari faoliyatini tashkil etish;

- ✓ davlat xavfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;
- ✓ ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;
- ✓ kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ✓ tabiiy ofatlar va favqulodda holatlarga qarshi kurash hamda oqibatlarini bartaraf etish;
- ✓ ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi va sh.k.).

*Davlat mulkining manbalari quyidagilardan iborat:*

- a) soliqlar; b) har xil to'lovlar; v) ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromad; g) kreditlar, zayomlar; d) davlat mulkini xususiyashtirishdan tushgan daromadlar; z) boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy mulkning quyidagi turlari mavjud:

– davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk: yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar;

– davlat hokimiysi va boshqaruvi, respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga molik madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budgetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budget yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo'lishi mumkin.

Respublika mulki bo'lgan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tasarruf qiladilar (FK 214-m.).

Respublika mulki bo'lgan mol-mulk davlat yuridik shaxslariga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo'yilishi mumkin.

Respublika mulki respublika budgetiga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

– ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal yoki kommunal mulk), mahalliy budget mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulk munitsipal mulk tarkibiga kiradi.

Munitsipal mol-mulkni qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar.

Mulkiy huquqlar tizimida mulk huquqi bilan bir qatorda ashyoviy huquqlar ham muhim o'rinni egallaydi. Ma'lumki, mulkdor har doim o'z mol-mulkiga nisbatan barcha vakolatlarini shaxsan o'zi amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Ba'zi hollarda, obyektiv sabablarga ko'ra (masalan, davlat mulkini idora qilishda) yoxud mulkdorning voyaga yetmaganligi, mulkni shaxsan o'zi boshqarish huquqidan foydalana olmasligi va boshqa sabablar tufayli mol-mulk boshqa shaxslar ixtiyoriga vaqtinchalik topshirilishi mumkin. Shunday hollarda mulkdor bo'limgan shaxs boshqalarning mol-mulkiga egalik qilishi, foydalanishi va mulkdor ruxsat bergen doirada tasarruf qilishi ashyoviy huquqlar orqali amalga oshiriladi. Binobarin, ashyoviy huquq mulkdorning roziligi bilan uning mol-mulkini boshqa shaxslar tomonidan egallah va foydalanish tartibini belgilovchi huquqiy vositalar sifatida tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FK 165-moddasiga asosan mulk huquqi bilan bir qatorda xususan quyidagilar ashyoviy huquqlar hisoblanadi:

- xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi;
- meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi;
- yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi;
- servitrlar.

FK 216-moddasida aytilganidek, ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo'lgan mol-mulk ularga umumiyl mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi.

Umumiyl mulk huquqi obyektini ma'lum ashyo yoki ashyolarning to'plami tashkil etishi mumkin. Masalan, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda qurgan yoki sotib olgan imorati, ikki yoki undan ortiq jamoa xo'jaligi birgalikda qurgan g'isht zavodi kabi obyektlar bo'lishi mumkin. Umumiyl mulk huquqi obyektlari (ishtirokchilari) ikki yoki undan ortiq shaxs, tashkilot yoki fuqaro bo'lishi mumkin.

Umumiyl mulk huquqi subyektlari bir necha shaxsdan iborat bo'lganligi tufayli sheriklarning har qaysi bunday mulkni o'z holicha tasarruf qilmay, balki o'ziga qarashli obyektlarni birgalikda, o'zaro kelishuv asosida egallaydi, ulardan foydalanadi va tasarruf qiladi.

*Umumiyl mulk huquqi quyidagi asoslarda vujudga keladi:*

*birinchidan*, birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomadan, masalan, bir necha fuqaroning birgalashib uy-joy qurishi yoki bir necha jamoa xo'jalingining birgalashib elektr stansiyasi qurishida;

*ikkinchidan*, bir necha fuqaroning muayyan umumiylar ega bo‘lish uchun mablag‘ qo‘shib birga mehnat qilishlari, masalan, umumiylar oilaviy mulk;

*uchinchidan*, bir necha shaxslarning qonun yoki vasiyat bo‘yicha meros olishlarida vujudga keladi.

Umumiylar oilaviy mulk huquqi, aksariyat hollarda, birgalikdagi faoliyat shartnomasi asosida, umumiylar xo‘jalik maqsadiga erishish uchun, jamoa xo‘jaliklari korxona yoki boshqa tashkilotlar qurish va ekspluatatsiya qilish, suv xo‘jaligi inshootlari, maktablar, turar-joy binolari va shu kabilarni qurish uchun birgalikda harakat qilishlari va buning uchun pul, mulk qo‘shib, umumiylar oilaviy mulk qilishlarida vujudga keladi. Fuqarolar ham o‘zlarining shaxsiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun pul, mulk qo‘shib va birga mehnat qilib, (masalan, uy-joy qurish maqsadida birgalikda shartnoma tuzib) umumiylar oilaviy mulk huquqini oladilar.

Fuqarolik kodeksining 216-moddasida ko‘rsatilganidek, umumiylar oilaviy mulk ikki turga:

*birinchidan*, mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo‘yilgan *ulushli mulk*;

*ikkinchidan*, ulushlari aniqlab qo‘yilmagan *birgalikdagi mulk* umumiylar oilaviy mulk;

Ularning o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha:

– taqsimlanadigan umumiylar oilaviy mulkning har bir ishtirokchisi ashyoda aniq belgilangan hissaga ega bo‘ladi. Masalan, yarmi, uchdan biri va hokazo;

– taqsimlanmaydigan birgalikdagi umumiylar oilaviy mulk esa, ulushlarga ajralmasligi bilan farq qiladi. Bunday umumiylar oilaviy mulk hamma ishtirokchilar o‘rtasida, ularning umumiylar oilaviy roziligi bilan va tenglik asosida egallanadi, foydalilaniladi va tasarruf etiladi.

*Ulushli mulk subyektlari fuqaro ham, tashkilot ham bo‘lishi mumkin.*

Umumiylar oilaviy mulk huquqida subyektlar o‘z ulushlari mustaqil tasarruf qilolmaydilar, chunki, birinchidan, ular har birining ulushi alohida belgilanmagan bo‘ladi; ikkinchidan, oilaviy munosabatda bo‘lgan umumiylar oilaviy mulk egasi oiladan chiqqanda, uni boshqa ikkinchi shaxs bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Ulushli mulk ulushlarga ajralmaydigan umumiylar oilaviy mulkdan vujudga kelishi asoslari va tartibi bilan ham farq qiladi.

*Umumiylar oilushli mulkni egallahash, undan foydalananish va uni tasarruf etishda mulkdagi sheriklarning huquqlari ikki turga: barcha umumiylar oilaviy mulkka va umumiylar oilaviy mulkdagi ulushga bo‘lgan huquqlarga bo‘linadi.*

Binobarin, umumiylar ulushli mulk egalarining har qaysi o‘z ulushini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo‘lsa ham, ya’ni o‘z ulushini agar qonun yoki ustav (nizom)da boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, boshqa shaxsga o‘tkazish huquqiga ega bo‘lsa ham, umumiylar mulkni sheriklarining roziligidan tasarruf qila olmaydi.

Umumiylar ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish davomida mulk egalarining o‘rtasida bo‘ladigan nizolar umumiylar mulk ishtirokchilaridan har qaysining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan hal qilinadi.

Mulk egalari umumiylar ulushidan soliq, yig‘im va boshqa to‘lovlarni to‘lashda, shuningdek, mol-mulkni boshqarish, saqlash va asrash xarajatlarida o‘z ulushiga qarab qatnashishga majbur.

Umumiylar mulkni saqlash yoki umumiylar majburiyatni bajarish yuzasidan xarajatlar qilgan shaxs boshqa sheriklaridan o‘zining qilgan chiqimlarini har birining hissasiga muvofiq qoplashini talab qilish huquqiga ega.

Fuqarolik kodeksining 218-moddasida aytilganidek, ulushli mulk ishtirokchisi o‘z xohishiga qarab o‘z ulushini boshqa shaxsga o‘tkazishga haqli. Bunda ulushni haq baravariga yoki tekinga birovga o‘tkazish nazarda tutiladi. Umumiylar mulkning ishtirokchilari tashkilot bo‘lgan taqdirda, ular o‘z ulushlarini birovga haq baravariga o‘tkazadi, ya’ni uni sotadi. Fuqarolar esa, o‘z ulushlarini haq baravariga ham, tekinga ham birovga o‘tkazishi, ya’ni sotishi, hadya etishi, shuningdek, vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Mulkdorlardan biri o‘z ulushini boshqa shaxsga sotgan vaqtida qolgan mulkdorlar sotilayotgan ulushni u sotilayotgan narxda va boshqa teng shartlarda imtiyozli sotib olish huquqiga egadirlar, kim oshdi savdosi orqali sotish hollari bundan mustasno (FK 224-m.).

Umumiylar mulkdagi ulushni sotuvchi o‘z ulushini o‘zga shaxsga sotish niyati haqida boshqa mulkdorga yozma ravishda ma’lum qilib, ulushning narxini va uni sotishning boshqa shartlarini ko‘rsatishi shart.

Agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishdan voz kechsalar yoki bu huquqni xabar qilingan kundan e’tiboran ko‘chmas mulkka nisbatan bir oy davomida, boshqa mol-mulkka nisbatan esa o‘n kun davomida amalga oshirmsalar, sotuvchi o‘z ulushini har qanday shaxsga sotishga haqli bo‘ladi.

Davlat, kooperativ yoki boshqa yuridik shaxs uy-joyga bo‘lgan umumiylar ulushini sotmoqchi bo‘lgan taqdirda – uy-joyning mazkur ulushini sotib olishda imtiyozli huquq uyning shu qismida

yashovchi shaxslarga beriladi, ular sotib olishni xohlamaganlari yoki bu huquqni amalga oshirmaganlarida esa ulushni sotib olish huquqi umumiy mulkning qolgan ishtirokchilariga o‘tadi.

Ulush sheriklarning imtiyozli sotib olish huquqini buzib sotilgan bo‘lsa, mulk ishtirokchisi bo‘lgan boshqa shaxs uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatları o‘ziga o‘tkazilishi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atib, sudga murojaat qilishi mumkin. Ammo bu huquq va majburiyat mulkni olib-sotishda belgilangan narx va sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash sharti bilan unga o‘tkazilishi mumkin.

Agar xaridor ulushni sotib olish to‘g‘risida rozilik bergen bo‘lsa-da, lekin u notarial idoraga kelishdan bosh tortsa, notarius sotuvchining xohishi bo‘yicha boshqa shaxs bilan shartnomani rasmiylashtirish huquqiga ega.

Umumiy mulk bo‘lgan uydan tegishli ulush soqit qilinganda, masalan, sotilganda, uyga bo‘lgan ulushlar real (natura shaklida) ko‘rsatilmay, balki arifmetik ulushlarda belgilanadi. Ammo shu bilan birga sotuvchi foydalanish uchun qaysi kvartira yoki xonaning o‘tishini ko‘rsatishi mumkin. Agar umumiy ulushli mulk bo‘lgan turar-joyning ayrim xonalaridan foydalanish to‘g‘risida ishtirokchilar o‘rtasida oldindan kelishuv bo‘lsa, bunday kelishuv ham notarius tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda, boshqa mulkdorlar uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlarni o‘zlariga o‘tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar (FK 224-m. 4-q.).

Fuqarolik kodeksining 223-moddasida ko‘rsatilganidek, umumiy ulushli mulk ishtirokchisi o‘z ulushini umumiy mol-mulkdan ajratib berishni talab qilishga haqlidir. Uning bu huquqi umumiy mulkdagi ulushni tasarruf etishga bo‘lgan huquqdan kelib chiqadi.

Ulushni ajratishning asosiy usuli, mulkning xo‘jalikda foydalanish holatiga zarar yetkazmaslik sharti bilan ulushni asl holida ajratishda ishtirokchilar o‘zaro kelisha olmasalar, sud yoki nizoni hal qiluvchi organ umumiy mulkdan qanday ashyolar asl holida ajratilishini, masalan, sheriklik asosida olingan hosilning qanday taqsimlanishini belgilaydi.

Umumiy mulkdan ulushni uning xo‘jalikda foydalanish holatiga zarar yetkazmasdan ajratishning iloji bo‘lmaganda, ulush ajratib oluvchi mulk ishtirokchisining roziligidagi ko‘ra, ulush miqdoriga yarasha pul baravarida haq olishi mumkin. Agar pul baravarida ulush to‘lash imkoniyati bo‘lmasa, umumiy mulk sotilib, uning summasi sheriklar o‘rtasida taqsimlanadi.

Uy-joyga bo‘lgan umumiy ulushli mulk egalari o‘zlariga tegishli ulushga yarasha uy-joyni taqsimlashga haqli bo‘lib, buning natijasida ularning har biriga uy-joyning alohida qismi (kvartira yoki alohida xona) biriktirib qo‘yilishi mumkin.

Agar ulushni ajratish usuli to‘g‘risida sheriklar o‘zaro kelisha olmasalar, mulk har qaysi sherikning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan taqsimlanadi. Amalda shunday hollar ham uchraydiki, umumiy mulkdan ulush ajratish haqidagi qonunning qoidalari xususiyashtirilgan turar-joylarga tatbiq qilinishi mumkin emas va bunday turar-joylarni taqsimlashda Uy-joy kodeksi normalari tatbiq etilishi lozim.

Ammo bunday taqsimlash aholi yashaydigan joyning rejalashtirish loyihasiga zid bo‘lmasligi kerak. Uy-joyni taqsimlash to‘g‘risidagi bitim notarial tartibda tasdiqlanishi va tuman hokimligi idoralarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Ba’zi hollarda, umumiy mulkdan tegishli ulush mulk egalaridan birining qarzini qoplash uchun uning kreditori talabi bo‘yicha ham ajratilishi mumkin. Agar bu to‘g‘rida kelishuv bo‘lmasa, tegishli ulush sud tartibida hal qilinadi.

Oila kodeksida er-xotinning nikoh davomida orttirgan mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bunda u yoki bu mulkning kim tomonidan sotib olinganligi, kimning nomiga rasmiyashtirilganligi, er yo xotindan birortasining qancha maosh olishi yo butunlay olmasligining mutlaqo ahamiyati yo‘q. Umumiy mulkni orttirish masalasiga kelganda, oilada uy yumushlarini qilish, farzandlarni tarbiyalash har qanday maosh to‘lab qilinadigan ijtimoiy ishga tenglashtiriladi. Bu esa mamlakatimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqligi, ayollarning salomatligi, ularning mehnatlari qadrlanishi va onalarga cheksiz hurmat bilan qaralayotganligini bildiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga asosan Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlar (moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni

qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiylar daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkulari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat’i nazar ular ham er va xotinning umumiylar mol-mulk hisoblanadi.

Er va xotin o‘rtasidagi umumiylar mulk huquqining taqdiri nikohning bekor qilinishi bilan o‘zgarishi mumkin. Bu holda dastlab er va xotinning nikoh tuzganiga qadar o‘zlariga tegishli bo‘lgan mulklari, shuningdek, nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari har birining shaxsiy mulki qilib ajratilishi va ular o‘rtasidagi umumiylar mulkka qo‘shilmaligi kerak.

Er-xotinning majburiyatlar ularning qanday asoslardan kelib chiqqaniga qarab umumiylar mulk hisobidan bajarilishi mumkin. Agar majburiyat er va xotinning umumiylar xo‘jalik yoki oila manfaatlarini ko‘zlab qilgan harakatlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, qarz so‘zsiz umumiylar mulk hisobidan undiriladi.

Majburiyat er yoki xotinning shaxsiy qarzlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, majburiyat qarzlar ularning shaxsiy mulkidan yoki ularga tegishli umumiylar mulk ulushidan undiriladi. Agar er-xotinning umumiylar mulki jinoyat hisobiga jamg‘arilgani yoki ko‘paytirilganligi sud hukmi bilan isbot qilinsa, jinoyat tufayli kelgan hamma mulk hisobidan undiriladi.

Er va xotinning yuqorida bayon qilingan umumiylar haqidagi qoidalar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi (FHDYO)da qayd etilgan nikohda turuvchi shaxslarga nisbatan tatbiq qilinadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro‘yxatdan o‘tmaganlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bayon qilingan mulk haqidagi qoidalar tatbiq etilmaydi. Ular o‘rtasidagi umumiylar munosabatga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining umumiylar mulk huquqi to‘g‘risidagi normalari qo‘llaniladi. Chunki, Oila kodeksi oila a’zolari o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

## **2-§. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi asoslari**

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq yuridik faktlar nazarda tutiladi.

Mulk huquqining olinishi asoslari jamiyatning iqtisodiy tizimida o‘z ifodasini topadi. Mulk huquqining olinishi ikkiga: *dastlabki* va *hosila* asoslarga bo‘linadi.

Mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan dastlabki asoslar bo‘yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo‘lmagan mulkka nisbatan yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda vujudga keladi.

Mulk huquqining *dastlabki asosda vujudga kelishi*:

*birinchidan*, tabiat ne’matlarini o‘zlashtirish; *ikkinchidan*, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida yangi ashyolarni vujudga keltirish; *uchinchidan*, egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi; *to‘rtinchidan*, egasi bo‘lmagan mulkka yoki egasi bo‘lsa ham xo‘jasizlik bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan topilgan ashyolar, xazinalar (boshqa usulda yashirilgan narsalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

Natsionalizatsiya (FK 202-m.), rekvizitsiya (FK 203-m.) va musodara (FK 204-m.) qilish orqali ham mol-mulkni oluvchida mulk huquqi dastlabki asosda vujudga keladi. Mulk huquqining vujudga kelishida egalik huquqini hosil qiluvchi muddat o‘ziga xosdir. Mulkdor bo‘lmagan, lekin ko‘chmas mol-mulkka o‘n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzlusiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi, ya’ni to‘liq ma’noda mulkdor huquqlariga ega bo‘ladi (FK 187-m.).

Mulk huquqi vujudga kelishining *dastlabki asoslaridan yana biri* hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashyolarni mulkka aylantirishdir. FKning 189-moddasida ko‘rsatilishicha, qonun hujjatlarida yovvoyi mevalar, yong‘oq, zamburug‘lar, rezavor mevalar hamda o‘simgilik, hayvonot dunyosi va jonsiz tabiatning hamma olishi mumkin bo‘lgan boshqa obyektlarini yig‘ish yo‘li bilan fuqarolar mulkiga aylantirish tartibi va shartlari belgilab qo‘yilishi mumkin.

Egasiz ashyoga nisbatan ham mulk huquqi dastlabki asosda vujudga keladi. Egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko‘char ashyolarni egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo‘lga kiritish mumkin. Bunday ashyo tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi arizasiga muvofiq ko‘chmas mol-mulk davlat ro‘yxatiga oluvchi organda hisobga olinib, uch yil o‘tgach tegishli davlat organi talabi asosida sud tomonidan davlatga o‘tkazilishi mumkin.

FK 192-moddasida *topilmaga* nisbatan mulkiy huquqlarning vujudga kelishi xususiyatlari belgilangan. Unga ko‘ra, yo‘qolgan ashyni topib olgan shaxs bu haqda uni yo‘qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo‘lgan o‘zga ma’lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyni shu shaxsga qaytarishi shart.

Basharti, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo‘lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo‘lmish shaxsga topshirilmog‘i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyni topib olgan shaxsnинг huquqlarini qo‘lga kiritadi va uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs noma’lum bo‘lsa yoki uning manzili ma’lum bo‘lmasa, ashyni topib olgan shaxs topilma to‘g‘risida IIoga, tegishli davlat organlari yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ma’lum qilishi shart.

Qonunga asosan, agar olti oy mobaynida topilmaning egasi aniqlanmasa, ashyni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi (agar u bu huquqdan voz kechsa, topilma davlat mulkiga o‘tadi).

Fuqarolik kodeksining 196-moddasida xazinaga nisbatan *mulk huquqining vujudga kelishi* xususiyatlari belgilab qo‘yilgan. Egasi aniqlanishi mumkin bo‘lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo‘qotgan xazina, ya’ni yerga ko‘milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoki qimmatbaho buyumlar, xazina yashirib qo‘yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va sh.k.) mulkdori bo‘lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, teng ulushlarda o‘tadi.

Xazina u yashirib qo‘yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining rozilgisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi shart.

Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashylardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat ixtiyoriga o‘tadi. Biroq xazina topilgan yer uchastkasi egasi va xazinani topgan shaxs xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olishga haqli.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslar (masalan, arxeologlar, geologlar)ga nisbatan ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmaydi (FK 196-m. 5-q.).

Mulkka nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi hosila usuli muayyan shaxs tomonidan olinayotgan mulk huquqining dastlabki mulk egasining huquqiga bog‘liq bo‘lgan usulidir. Bu usul mulk huquqining

ma'lum ashyoga nisbatan paydo bo'lishi yoki bu ashyoga nisbatan mulk huquqining ilgari ma'lum shaxsga tegishli bo'lishi bilan bog'liq. Shu ma'noda mulk huquqining boshqa shaxsga o'tishi haqida so'z yuritiladi. Zero, hosila usulida vujudga kelgan mulk huquqi bu mulkka bo'lgan huquqning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini bildiradi. Masalan, oldisotdi shartnomasi tuzilishi bilan o'zgalarga tegishli ashyoga nisbatan egalik huquqi bir shaxsda, ya'ni sotib oluvchida paydo bo'ladi.

Mulk huquqining hosila usulida vujudga kelishiga misol qilib oldisotdi, hadya, ayriboshlash, qarz shartnomalari, shuningdek, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish hamda davlat mulkining xususiyashtirilishini ko'rsatsa bo'ladi.

Qonunda uy-joy (kvartira)ga nisbatan mulk huquqi belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytidan boshlab vujudga keladi.

Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazilgan taqdirda agar uning tegishli organlardan ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lsa, ashyoga nisbatan egalik huquqi shartnomaning qayd etilishi paytidan e'tiboran vujudga keladi.

Mulk huquqining bekor bo'lish usullari xilma-xil bo'lib, ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

1) mulkdorning o'z xohish-irodasi bo'yicha mulk huquqining bekor bo'lishi (masalan, mol-mulkni sotish, hadya qilish va sh.k.);

2) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish (yo'q qilish) yoki uning nobud bo'lishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi (FK 198-m.);

3) mulkdorning xohish-irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo'yilishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi. Mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda, mulkdorning majburiyatlari bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi.

Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo'lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo'yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to'lanadi (FK 199-m.).

Ashyolarga nisbatan egalik huquqi ba'zi hollarda, mulk egasining xohishidan qat'i nazar bekor bo'lishi mumkin. Masalan, ashyolar tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, zilzila natijasida tasodifan nobud bo'lishida mulk huquqi mulk egasining xohishiga bog'liq bo'lмаган qarzni qoplash uchun ijro varaqasi bo'yicha haq undirilishida yoki mol-mulkning

musodara qilinishida egalik huquqi mulk egasining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi mumkin.

1991-yil 19-noyabrdan “Davlat tasarrufidan chiqarish” va xususiy lashtirish to‘g‘risida” qonun qabul qilingan. Mazkur qonunning qabul qilinishiga quyidagi obyektiv holatlar sabab bo‘ldi:

- 1) shaxsning mulkdan begonalashuvi oqibatlarini tugatish;
- 2) ilgari davlat mulkining haddan tashqari markazlashuvi oqibatida undan samarali foydalanish, boshqarish va nazorat qilishni ta’minlay olinmaganligi;
- 3) davlat mulkiga nisbatan tashmachilik va xo‘jasizlikka barham berish;
- 4) bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida davlat mulkining haddan ortiq markazlashuviga chek qo‘yish.

*Davlat tasarrufidan chiqarish* – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir

*Xususiy lashtirish* – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir

Davlat organlari xususiy lashtirish subyekti bo‘la olmaydi. Xususiy lashtirish obyektlarini davlat budgeti tomonidan sotib olishga yo‘l qo‘ymaydi.

Amaliyotda xususiy lashtirishni amalga oshirishning u yoki bu me’yori bilan bog‘liq bo‘lgan davlat boshqaruvi organlarining aktlarini haqiqiy emas deb topishga oid nizolar ham kuzatiladi. Masalan, Farg‘ona viloyati bo‘yicha berilgan oltita da‘voning ikkitasi viloyat davlat mulkini boshqarish tashkiloti tomonidan xususiy lashtirish natijasiga ko‘ra berilgan orderlarni, to‘rttasi esa hokimlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘volarni tashkil etadi.

Shuningdek, mustaqil ekspertizalar markazining (MEM) Farg‘ona bo‘limi Marg‘ilon shahar hokimining 1994-yil 10-sentabrdagi 348-sonli qarori bilan Marg‘ilon shahar, Mashrab ko‘chasi, 1-uyni “Farg‘ona ekspertiza” firmasiga biriktirish to‘g‘risidagi qarorini haqiqiy emas deb topish haqidagi da‘vo talabi viloyat xo‘jalik sudining qarori bilan rad etilgan. Nizoli bino 1985-yilda Marg‘ilon shahar ijroiya qo‘mitasining farmoyishi bilan tovar ekspertizalari byurosining bir guruh ekspertlari uchun ajratilgan. Ammo mustaqil ekspertizalar markazining “Farg‘ona ekspertiza” firmasi (tarqatib yuborilgan tovar ekspertizalari byurosining huquqiy vorisi) xizmat yuzasidan, hech qanday aloqada bo‘lmagan MEM Farg‘ona bo‘limining

Marg‘ilon shahridagi xizmat xonasini o‘ziga biriktirishni talab qila boshlagan. Bu talabga bo‘lim yuqori sud tomonidan Marg‘ilon shahar ijroiya qo‘mitasining farmoyishi haqiqiy emas deb topilganligini asos qilib olgan. Ish materiallariga qaraganda ushbu farmoyish faqat “Xona ajratish qo‘mita raisining farmoyishi bilan emas, balki ijroiya qo‘mita tomonidan qaror qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak”, – degan asos bilan haqiqiy emas deb topilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish uchun ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizomning 11-bandiga ko‘ra, bunday ariza berilgan paytdan boshlab va ijobiy qaror qabul qilinganidan so‘ng, bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va boshqarish huquqini boshqa mulkdorga o‘tkazilgan paytga qadar ma’muriy boshqarish organlari korxonaning qayta tuzilishi, tugatilishi, shtat jadvali tuzilishini o‘zgartirishi va xodimlarni ishdan bo‘shatishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydag‘i “Davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi qonuni 26-moddasiga muvofiq, davlat uy-joy fondi kvartiralarini, uylarini (uyning bir qismini) xususiy lashtirishda yuzaga keladigan nizolar sud tomonidan hal qilinadi.

### **3-§. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari: tushunchasi va tizimi**

Mulk huquqini himoya qilishda fuqarolik huquqi normalari muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni<sup>1</sup> ning 8-moddasiga ko‘ra, xususiy mulk huquqini himoya qilish usullari quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2012. – №39. – 46-м.

- xususiy mulk huquqini mulkdorning o‘zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararning o‘rnini qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma’naviy ziyonni qoplash;
- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonun hujjatlari barqarorligini ta’minlash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid bo‘lgan hujjatining sud tomonidan qo‘llanilmasligi;
- mol-mulkning ayrim turlariga bo‘lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o‘zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish qonunga muvofiq boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Fuqarolik huquqi normalari bilan esa mulk huquqini himoya qilishning asosiy usullari quyidagicha:

- mulkni birovning noqonuniy egallashidan talab qilib olish (vindikatsion da’volar);
- mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan huquqbazarliklardan himoya qilish (negator da’volar);
- mulk huquqini buzishga qaratilgan g‘ayriqonuniy bitimlar (shartnomalar)ni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida qarorlar chiqarish bilan qo‘riqlash;
- asossiz olingan mulkni qaytarish yo‘li bilan qo‘riqlash.

Mulk huquqini himoya qilishning yuqorida ko‘rsatilgan usullaridan birinchi va ikkinchisi ashyoviy huquq normalariga asoslangan da’volar bo‘lsa, uchinchi va to‘rtinchi usullar majburiyat huquqi normalariga asoslanib qilinadigan da’volar hisoblanadi.

Ashyoviy huquqqa asoslangan da’volar – ashyoning (mulkning) asl holida qaytarilishiga yoki mulkdan foydalanishda qilinayotgan to‘sinqinliklarni bartaraf etishga qaratiladi.

Majburiyat huquqiga asoslangan da’volar esa bitimda (shartnomada) ishtirok etayotgan mulk egasi (kreditor)ning manfaatini qo‘riqlash, g‘ayriqonuniy ravishda tuzilgan shartnoma asosidan olingan narsani mulk egasiga qaytarish, zarar ko‘rgan shaxs (jabrlangan shaxs)ning zararlarini to‘latishga hamda asossiz olingan narsalarni qaytarish yoki uning qiymatini to‘lashga qaratiladi. Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksining 233-moddasida mulkdorning huquqi qonuniy ravishda to‘xtatilgan

taqdirda ham uning manfaatlarini himoya qilish kafolatlari belgilab qo‘yilgan. Ayni vaqtida qonunda mulkdor huquqini buzuvchi hujjatlar qabul qilinishining huquqiy oqibatlari ham o‘z ifodasini topgan. Binobarin, yuqoridagi asoslarga mulk huquqini himoya qilishning o‘ziga xos turi sifatida qaralishi mumkin. Bunday holatlar – mulkdor huquqining buzilishi davlat idorasi tomonidan normativ yoki huquqni qo‘llovchi hujjat qabul qilinishi orqali ro‘y beradi. Bunda mulk huquqining bekor bo‘lishi qonuniy asoslangan yoxud aksincha g‘ayriqonuniy bo‘lishi mumkin. Lekin har ikkala holatda ham mulkdorning qonuniy manfaatlari kafolatlanadi. Masalan, mulkdorga qarashli uy, boshqa binolar, inshootlar, dov-daraxtlar joylashgan yer uchastkasini olib qo‘yish haqida qaror qabul qilinishi munosabati bilan yoki davlat idorasining mulkdordagi mol-mulkni bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan boshqa qarori sababli, mulkdor huquqini to‘xtatib qo‘yishga qonunda belgilangan hollar va tartibdagina yo‘l qo‘yiladi. Bunda mulk huquqi bekor bo‘lishi munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan barcha zararlar mulkdorga batamom to‘lanadi. Agar mulkdor bunday qarordan norozi bo‘lsa, u holda nizo sud tomonidan hal etilmaguncha mulk huquqini bekor qilishga sabab bo‘luvchi qaror ijrosi to‘xtatiladi.

Davlat boshqaruv idorasi yoki davlat hokimiyati mahalliy idorasi tomonidan qonunga xilof bo‘lgan hujjatning qabul qilinishi natijasida mulkdorning mulkiy huquqlari buzilsa, bunday hujjat mulkdorning da’vosiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi. Mazkur hujjatni qabul qilgan davlat organi o‘z ixtiyoridagi mablag‘ hisobidan mulkdorga yetkazilgan zararlarni to‘lashi lozim.

Mulkdorga qarashli mulk biron-bir shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs)ning qonunsiz egaligida bo‘lsa, mulkdor o‘z mulkini asl holatida qaytarish haqida bu shaxsga nisbatan sudda da’vo qo‘zg‘atishga haqli, ya’ni mulkdor o‘z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli (FK 228-m.). Fuqarolik huquqi nazariyasida bunday da’volar “*vindikatsion da’volar*” deyiladi.

Vindikatsion da’vo mulkni insofsiz egallovchilarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Insofsiz egallovchi deb, mulkka nisbatan o‘zi egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan shaxs nazarda tutiladi. Insofli egallovchi deganda, mulkning o‘ziga g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘tishini bilmagan va bilishi mumkin bo‘lmagan egallovchi tushuniladi.

FK 229-moddasida ko‘rsatilganidek, agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsdan haq to‘lab olingan

bo'lsa, oluvchi buni bilmagan va bilishi mumkin bo'lman (insofli egallovchi) bo'lsa, mol-mulk mulkdor tomonidan yoki egalik qilish uchun mulkdor bergen shaxs tomonidan yo'qotib qo'yilgan yoxud mulkdordan yoki u mol-mulkni bergen shaxsdan o'g'irlangan, yo bo'lmasa ularning ixtiyoridan tashqari boshqacha yo'l bilan ularning egaligidan chiqib ketgan bo'lsa, mulkdor bu mol-mulkni olgan shaxsdan talab qilib olishga haqli.

Mazkur moddadagi umumiyl qoidada ba'zi istisnolar ham nazarda tutilgan, ya'ni agar mol-mulk sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan bo'lsa, mol-mulkni yuqorida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha talab qilib olishga yo'l qo'yilmaydi; agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lman shaxsdan haq to'lamasdan olingan bo'lsa, mulkdor mol-mulkni barcha hollarda ham talab qilib olishga haqli. Pul insofli egallovchidan talab qilib olinishi mumkin emas.

O'zining g'ayriqonuniy ravishda boshqa shaxsga o'tkazilgan mulkclarini talab qilib olishda mulkdor bir vaqtning o'zida:

*birinchidan*, insofsiz egallovchidan, masalan, sotib oluvchidan mulkni egallaganidan boshlab, o'tgan barcha vaqt mobaynida olgan yoki olinishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishi yoki to'lanishini;

*ikkinchidan*, insofli egallovchidan esa u o'zi bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan boshlab yoxud mulkning qaytarilishi to'g'risida mulk egasining da'vosi bo'yicha chaqiruv qog'ozi olgan paytdan boshlab olgan yoki chiqarib olishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishi yoki to'lanishini talab qilishga haqli.

O'z navbatida, insofli egallovchi ham, insofsiz egallovchi ham mol-mulkdan olingan daromad qancha vaqt davomida mulkdorga qaytarilishi kerak bo'lsa, mulkdordan shuncha vaqt davomida mol-mulkka qilingan zarur xarajatlarni qoplashni talab qilishga haqli.

Qonunda mulk uchun sarflangan narsalarni, agar ashyoni uni buzmasdan ajratib olish mumkin bo'lsa, insofli egallovchi o'zida qoldirishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Agar mulkdan ajratib olish mumkin bo'lmasa, insofli egallovchi mulkning ko'payishi uchun sarf qilingan xarajatlarning o'ziga to'lanishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik kodeksida mulk huquqi himoya qilinishining kuchaytirilishini ta'minlovchi qator muhim qoidalar belgilangan. Bunday qoidalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

*birinchidan*, mulk egasi mulkini yo'qotgan yoki o'g'irlatgan hollarda uni topib insofli egallovchidan talab qilib olishdan tashqari yana mulk egasi ixtiyoridan tashqari bo'lgan mulk egaligi (qo'lidan) ketgan taqdirda ham o'z mulkini talab qilish olish;

*ikkinchidan*, mulk birovga ishonib topshirib qo‘yilganda uning ixtiyoridan tashqari qo‘lidan chiqib ketgan bo‘lsa ham, u mulkni insofli egallovchidan talab qilib olish;

*uchinchidan*, agar mulk birovga topshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsdan bepul olingan bo‘lsa, u vaqtda mulk egasi barcha hollarda o‘z mulkini talab qilib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, vindikatsion da’vo birovning qonunsiz egaligida bo‘lgan ashyni qaytarib olish haqida mulk egasining da’vosidir. Vindikatsion da’voni boshqa turdag'i da’volardan ajratib turadigan asosiy belgilari: da’volashuvchi taraflar, da’vo asosi va da’vo predmeti (narsasi), uning maqsadidir.

Ashyoga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan, lekin ashysosi qo‘lida bo‘lmagan shaxs vindikatsion da’vo bo‘yicha da’vogar bo‘ladi. Vindikatsion da’vo qilishga nafaqat ulushlari bo‘lgan ayrim mulk egasi, balki ulushlari bo‘lgan mulkdorlarning har qaysisi ham da’vo qilishga haqli. Bundan tashqari, mulkni qonun va shartnomaga binoan egallab (saqlab) turgan shaxslar ham vindikatsion da’vo bo‘yicha javobgar bo‘ladilar.

Egalik huquqi vindikatsion da’vo qilishga asos bo‘ladi. Mulkdor mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli ashyoga nisbatan subyektiv huquqi asosida bu mulkni egallah (qo‘lida saqlash), undan foydalanish yoki uni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum bo‘lganida, u mazkur huquqlarning o‘ziga qaytarilishini talab qila oladi.

Vindikatsion da’voning *maqsadi* – buzilgan mulkiy huquqni tiklash va ashyni bevosita mulk egasi ixtiyoriga qaytarishdan iborat.

Vindikatsion da’voning *predmeti* (narsasi) – turga xos alomatlar (son, og‘irlilik, o‘lchov) bilan belgilanadigan, shuningdek, individual (xususiy) alomatlari bilan belgilanadigan ashylar bo‘lishi mumkin.

Vindikatsion da’vo bo‘yicha faqat individual ashylar emas, balki boshqa barcha mulklar asl holatda qonunsiz egallovchidan talab qilib olinishi mumkin.

Mulk egasiga qarashli ashyo o‘rniga uning qiymatini to‘lash barcha hollarda ham mulk egasining manfaatlarini ta’minlay olmaydi. Binobarin, mazkur masalani hal qilishda moddiy yoki individual alomatga ega mulklarni egallovchidan majburiy tarzda olib berish huquqining sudsiga o‘tkazilishi majburiyatlarning turmushda real ijro etilishini, shuningdek, mulk huquqining yanada to‘laroq himoya qilinishini ta’minlashga qaratiladi.

Vindikatsion da’vo huquqni buzish faktidan kelib chiqsa ham, biroq zarar yetkazishdan kelib chiqadigan da’vo hisoblanmaydi. Vindikatsion

da'voga ko'ra ashyoning asl holatda qaytarilishi talab qilinsa, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatda ashyo o'miga uning qiymati ham talab qilinishi mumkin.

Agar ishni hal qilishda shartnomaga oid javobgarlik belgilash uchun asoslar bo'lsa, ayni vaqtda da'vo shartnomaga majburiyatlari to'g'risidagi normalarning qoidasi bo'yicha hal qilinadi. Binobarin, vindikatsion da'vo ashyoviy-huquqiy da'vo sifatida ko'riganligi tufayli shartnomaga yuzasidan qilinadigan da'vo bilan aralashtirib yuborilmasligi lozim. Masalan, ijara yoki omonat to'g'risidagi shartnomalar yuzasidan mulk egasi ashyni asl holida qaytarish to'g'risida da'vo qilganda, ashyni qaytarib olish haqidagi talab shu shartnomani tartibga soladigan huquqiy normalar bo'yicha qanoatlantiriladi. Demak, bunday hollarda mulk egasi shartnomaga bo'yicha vindikatsion da'vo qilishga haqli emas.

*Mulkni egallah qonuniy va noqonuniy bo'lishi mumkin.* Mulkni huquq normalari yoki shartnomaga asoslangan holda egallah qonuniy egallah hisoblanadi. Bunda mulk ijozat etilgan (qonun yoki boshqa huquqiy akt bilan yo'l qo'yilgan) usul bilan qo'lga kiritiladi.

Mulkni noqonuniy egallahda ashyni yetarli huquqiy asoslarga ega bo'limgan holda qo'lda saqlab turishga aytildi. Noqonuniy egallovchi deb mulkni o'zboshimchalik bilan egallab oluvchi, o'g'irlovchi yoki topib olingan narsani o'zlashtiruvchi, shuningdek, ashyni egasidan qonun yoki shartnomaga asosida olmaydigan shaxsga aytildi. Mulk qonunda taqiqlangan usul bilan sotib olinganda yoki qo'lga kiritilganida ham uni egallah uchun huquqiy asos bo'lmasa, bunday egallah ham noqonuniy egallah bo'ladi. Masalan, fuqaro A. fuqaro B. dan muayyan ashyni sotib oladi. Ammo keyinchalik fuqaro B. sotilgan ashyoning egasi emasligi tufayli xaridor A. ga mulkka bo'lgan huquqni o'tkaza olmasligi ma'lum bo'ladi. Fuqaro A. huquqiy nuqtai nazardan garchi ashyni fuqaro B. dan sotib olgan bo'lsada, noqonuniy egallovchi hisoblanadi.

Da'vo qo'zg'atilgan vaqtda faqat nizoli mulk noqonuniy egaligida bo'lgan shaxsgina vindikatsion da'vo bo'yicha javobgar hisoblanishi mumkin.

Ba'zi hollarda mulkiy huquqning buzilishi ashyni egallah huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Ashyo mulk egasining ixtiyorida (egaligida) bo'lgan bir vaqtda mazkur ashydadan biron-bir shaxsning harakati to'sqinlik qilishi oqibatida foydalanishning qiyinlashishi yoki umuman foydalanish imkonini bo'lmasligi mumkin. Masalan, fuqaro A. ning qarzi uchun fuqaro B. ning mulki noto'g'ri xatlanganida fuqaro B. mulkning ro'yxatdan chiqarilishini va shu bilan o'z

mulkidan foydalanishga qilingan to'sqinlikning bartaraf etilishini talab qila oladi.

Mulk egalarining mulkni egallahash va undan foydalanish huquqini buzish (garchi bu egalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa ham) yoki yo'qotish haqidagi talablar fuqarolik huquqi nazariyasida "*negator da 'volar*" deb ataladi. Fuqarolik kodeksining 231-moddasida mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzilish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Mazkur da'vening maqsadi mulk egasining ushbu to'sqinlikni yo'q qilish haqidagi talabi hisoblanadi. Chunki u mulk egasiga mulkidan foydalanishda o'z huquqini amalgamoshirishga to'sqinlik qiladi.

Sudda negator da'veni nafaqat mulk egasi, balki ashyni qonuniy asoslar bo'yicha, masalan, qonun yoki shartnomaga asosan egallovchi shaxs ham qo'zg'atishga haqli. Bunday qonuniy egallovchilar o'zlarining talablarini Fuqarolik kodeksining 231-moddasasi asosida emas, balki mulkni egallahshning qonuniyligini belgilovchi huquq normalari (FK 232-m.) asosida ilgari sura oladilar. Masalan, mulkni ijaraga oluvchi, ya'ni mulk egasi bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha ashyodan vaqtincha foydalanuvchi shaxs bu mulkni egallahsh va undan foydalanish huquqi buzilganida har kimga, shu jumladan, mulk egasiga nisbatan ham da'vo qo'zg'atishga haqli. Qonunga asosan garchi mulkdor bo'lmasa ham, lekin mol-mulkka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, xo'jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi asosida yoki qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan boshqa asosga ko'ra egalik qilayotgan shaxs ham Fuqarolik kodeksining 228–231-moddalarida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo'ladi (FK 232-m.).

Sud tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda negator da'vo bilan sudga kamdan-kam murojaat qilinadi. Ammo bundan mulk egalarining huquqlarini himoya qiluvchi mazkur huquq normasi o'z ahamiyatini yo'qtdi, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Birovning mulkiy huquqini buzishga uringan har qanday shaxsni tartibga chaqiruvchi bunday normalarning amalda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Biz yuqorida mulk huquqining ashovyiy-huquqiy vositalari yordamida (vindikatsion va negator da'velar bilan) himoya qilinishi masalalari bilan tanishdik. Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda mulk egalarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari ikki ko'rinishda: shartnomali va shartnomadan tashqari munosabatlarda namoyon bo'ladi.

*Shartnomali munosabatlarda* mulkiy huquqning himoya qilinishida tuziladigan xilma-xil shartnomalar ko‘p hollarda qonunga hamda shartnoma shartlariga rioya qilinib, to‘g‘ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba’zan shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan majburiyatlarini butunlay yoki lozim darajada bajarmasliklari hollarida tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarini tiklash va shuning o‘zida mulkiy huquqlarni har tomonlama va to‘la himoya qilish masalasi qo‘yiladi.

*Shartnomadan tashqari munosabat* mulkiy huquqlarning himoya qilinishida o‘zaro kelishuv asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqmay, bevosita qonun bilan belgilanishi ham mumkin. Bunday hollarda tashkilotlar va fuqarolar qonunga asosan o‘zaro majburiyat munosabatlarida bo‘ladilar va huquq subyektlari (tashkilotlar va fuqarolar) bir-birlariga nisbatan muayyan majburiyatlarni oladilar. Agar qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida mulkiy zarar ko‘rilsa, buzilgan mulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi vujudga keladi.

---

## *OLTINCHI BOB*

### **MAJBURIYAT HUQUQI. ICHKI ISHLAR ORGANLARI MAJBURIYAT MUNOSABATLARINING TARAFI SIFATIDA**

#### **1-§. Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchasi, majburiyatlarni vujudga kelish asoslari**

Majburiyat huquqi instituti multk huquqi institutidan biroz keyin paydo bo‘lgan.

Majburiyat muayyan shaxslar o‘rtasida vujudga keladi, huquqiy mulkiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq, chunki mulkdorning o‘z huquqlarini amalga oshirishi majburiyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi va aksincha.

Majburiyat huquqi moddiy ne’matlar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy aylanma munosabatlarini tartibga soladi, u boshidanoq bekor qilinishga mo‘ljallangan, chunki majburiyatni olgan shaxs o‘z majburiyatlarni ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bajaradi.

Bunday olganda “majburiyat – bu qonuniy bog‘lanish, bu orqali biz davlatimiz qonunlariga binoan biror narsa qilishga majbur bo‘lamiz” – Yustinian instituti, 3.13.

*Fuqarolik huquqida majburiyat deb* – shunday fuqarolik-huquqiy munosabatga aytildiği, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirishga, xususan, mol-mulk topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga (tiyib turishga) majbur bo‘ladi; kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarni bajarishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi (FK 234-m.).

Majburiyat keng ma’noda, huquq subyektlari hisoblangan shaxslar (tashkilotlar va fuqarolar) o‘rtasida bo‘ladigan fuqarolik-huquqiy tusdagi munosabatlarni bildiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlar majburiyat munosabatlariga kirmaydi.

Majburiyat tushunchasi huquqning boshqa sohalarida ham jumladan, ma’muriy huquq, oila huquqi, mehnat huquqi sohalarida ham uchraydi. Shuningdek, “majburiyat” atamasi boshqa ma’nolarda ham ishlatiladi, masalan, majburiyat deb, faqat muayyan bir harakatni qilishga, xususan, ijara

haqini to'lashga, sotib olingan narsani topshirishga qaratilgan burchga ham aytildi. Qarzdor o'z zimmasiga bir vaqtning o'zida muayyan harakatni bajarish va ma'lum bir harakatni bajarishdan tiyilish majburiyatini olishi mumkin. Misol uchun, xonadonni ijaraga olingan ijaraga tegishli to'lovni vaqtida to'lab borishi va unga shikast yetkazuvchi harakatlardan tiyilishi kerak.

Majburiyat subyektlari va obyektlari majburiyat huquqining muhim unsurlari hisoblanadi.

Majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslardir. Har bir majburiyatda, albatta, ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab etishga haqli bo'lgan taraf – *kreditor* deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa *qarzdor* deb ataladi.

Majburiyatda ishtirok etuvchi kreditorning huquqi nisbiy huquq bo'ladi, chunki kreditor faqat ma'lum shaxs yoki shaxslarga (bir qarzdor yoki bir necha qarzdorlarga) nisbatan talab qo'yish huquqiga ega.

Majburiyatda kreditorning talab qilish huquqi va shunga yarasha qarzdorning burchi nimaga qaratilgan bo'lsa, shuning o'zi majburiyat obyekti hisoblanadi. Jumladan, huquq va burchlar biror-bir ashyoni olishga, topshirishga, muayyan pul summasini to'lashga, biror-bir ishning bajarilishiga qaratilgan huquqiy harakatlardan iborat bo'lishi mumkin.

*Yodda tuting!*

*Majburiyat huquqi* – mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig'indisidir.

Majburiyat huquqi jamiyatda mulkiy munosabatlarning eng muhim va keng sohasini, o'zining fuqarolik-huquqiy tusidagi qoidalari bilan tartibga soladi. Jamiyatdagi majburiyatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolar va tashkilotlarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash maqsadlarida o'rnatiladi. Majburiyatlar to'g'risidagi normalar mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari orqali xilma-xil xizmatlar ko'rsatilishini tartibga soladi. Majburiyatlar vositasida mulk va mulkiy huquqlar qo'riqlanishi ta'minlanadi, fuqaroning sog'lig'iga zarar yetkazilganda ko'rilgan zararlar qoplanadi va h.k.

Majburiyat huquqi tizimi ikki asosiy: majburiyatlar to'g'risidagi umumiyl qoidalari va majburiyatlarning ayrim turlariga oid maxsus qoidalardan iborat bo'limlardan tashkil topadi.

FK 234-385-moddalarida majburiyat to‘g‘risidagi umumiy qoidalarda majburiyatlarning kelib chiqishi va bajarilishi, majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, talab qilish huquqini birovga o‘tkazish va qarzni ko‘chirish, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik va nihoyat majburiyatlarning bekor qilinishi asoslari, majburiyat munosabatlarini vujudga keltiruvchi asosiy huquqiy vosita hisoblangan shartnomalar va ularni tuzish, o‘zgartirish hamda bekor qilish tartibi kabi masalalar belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, majburiyat huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning nihoyatda ko‘pligi va xilma-xilligi sababli majburiyatlarning ayrim turlariga bag‘ishlangan FK normalari kodeksda salmoqli o‘rinni egallaydi. Natijada, majburiyat huquqining mazkur *maxsus qismi* normalari mazmuni va hajmi bo‘yicha teng bo‘lmagan ikki turkumga: *shartnomali majburiyatlar institutlariga* va *shartnomasiz (shartnomadan tashqari)* majburiyatlar institutlariga bo‘lingan.

*Shartnomali majburiyatlarga* oid huquqiy institutlar asosan shartnomaviy munosabatlardan vujudga keladi va uning asosiy xususiyati majburiyat taraflarining erk-irodasini namoyon etish orqali yuzaga keladi.

*Shartnomasiz majburiyatlar* shaxsning erk-irodasidan tashqarida yuz beradi yoki bir tomonlama harakat natijasida kelib chiqadi.

*Yodda tuting: Majburiyat mazmuni deganda, kreditorning qarzdor tomonidan muayyan harakatlar qilinishini (yoki qilinmasligini) talab etishga bo‘lgan huquqi va qarzdorning shunga yarasha bo‘lgan burchi tushuniladi*

Qarzdor tomonidan qilinishi lozim bo‘lgan harakatlar har xil: ashyoni egasiga (kreditorga) topshirish, ashyolarni foydalanish uchun topshirish, ma’lum summa pulni to‘lash, biror-bir ishni bajarish yoki xizmat ko‘rsatish, qarzdor tomonidan bitimning tuzilishini ta’minlash, birovga yetkazilgan zararni to‘lash, asossiz orttirilgan boylikni o‘z egasiga qaytarish to‘g‘risida bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan majburiyat obyektlaridan ko‘rinishicha, majburiyatning mazmuni asosan mulkiy xarakterdagi huquq va burchlardan iborat bo‘lsa-da, huquq subyektlarini o‘zaro mulkiy xarakterda bo‘lmagan majburiyatlar ham belgilashlari mumkin. Masalan, asar mualliflaridan biri o‘zaro kelishuv bo‘yicha muayyan vaqt ichida asarning bir qismini tuzatib, qayta ishlab kelish to‘g‘risida o‘z zimmasiga majburiyat olishi mumkin.

Majburiyat taraflarining bir-birlariga nisbatan belgilangan huquq va majburiyatlari ularning tusiga qarab farqlanadi. Ular mazmuni, obyektlari va subyektlariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Ijobiy va salbiy mazmunli majburiyatlar.* Agar majburiyat yuzasidan qarzdor muayyan bir harakatni qilishga burchli bo'lib, kreditor aynan shunday harakatning qilinishini talab qilishga haqli bo'lsa, bunday majburiyat *ijobiy mazmunli majburiyat* hisoblanadi. Huquqiy munosabatning ko'pchiligida ijobiy mazmunli majburiyatlar yotadi. Masalan, oldi-sotdi, mulkni ijaraga berish, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida olinadigan majburiyatlar – ijobiy mazmunli majburiyatlardir.

Agar majburiyat bo'yicha qarzdor muayyan harakatni qilishdan saqlanishga burchli, kreditor harakat qilishdan saqlanishini talab etish huquqiga ega bo'lsa bunday majburiyat salbiy *mazmunli majburiyat* hisoblanadi. Masalan, nashriyot shartnomasi bo'yicha muallif shartnomada kuchda bo'lган davrda o'z asarini boshqa nashriyotga topshirishdan saqlanish majburiyatini olsa, nashriyot muallifning boshqa nashriyot bilan shartnomada tuzishdan saqlanishini talab etish huquqini oladi.

2. *Bir tomonlama va ikki tomonlama majburiyatlar.* Majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi (yoki huquqlari), ikkinchi tomonda esa faqat majburiyat (majburiyatlar) bo'lsa, bunday majburiyatlar *bir tomonlama majburiyatlar* hisoblanadi. Masalan, qarz shartnomasi. Qarz shartnomasi bo'yicha qarz bergan shaxs qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdor o'z zimmasiga olgan qarzini qaytarishga burchlidir.

Huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi ham huquq, ham majburiyatga (qator huquqlar va majburiyatlarga) ega bo'lsa, bunday majburiyatlar *ikki tomonlama majburiyat* hisoblanadi. Ikki tomonlama majburiyatlarga oldi-sotdi, ijara, pudrat kabi shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, oldi-sotdi munosabatida sotuvchida sotilgan narsani topshirish majburiyati bo'lsa, oluvchida sotib olingan narsaning qiymatiga yarasha haq to'lash majburiyati bo'ladi va aksincha. Aksariyat majburiyatlar ikki tomonlama majburiyatlardir.

3. *Muayyan harakatni bajarishga qaratilgan va muqobil majburiyatlar.* Agar huquqiy munosabat bo'yicha kreditor qarzdordan muayyan bir harakat qilinishini, masalan, ma'lum ishning bajarilishini, biror-bir ashyoning topshirilishini yoki ma'lum summa pul to'lanishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, bunday majburiyat *muayyan harakatni bajarishga qaratilgan majburiyat* hisoblanadi. Agar huquqiy munosabatda kreditorning talabi bo'yicha qarzdor bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo'lsa, bunday majburiyat *muqobil majburiyat* sanaladi. Muqobil majburiyat bo'yicha huquqiy munosabatda bir necha harakat ko'rsatilgan bo'lsa ham, majburiyatning mazmunini qarzdorning faqat birgina

majburiyati va kreditorning shu majburiyatning bajarilishini talab qilishga bo‘lgan huquqi tashkil etadi. Huquqiy munosabatda nazarda tutilgan harakatlardan birining bajarilishi bilan majburiyat ijro etilgan hisoblanadi. Muqobil majburiyatning bajarilishi to‘g‘risidagi qoida FK 250-moddasida berilgan. Mazkur moddada ko‘rsatilishicha, agar qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo‘lsa, qonun, shartnomalar yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunchilikda qaysi majburiyatning bajarilishi lozimligini tanlash huquqi kreditorga berilganligi ko‘rsatiladi. Xususan, ularda sotilgan ashyoning sifati lozim darajada bo‘lmaganda, sotib oluvchi o‘z xohishi bilan ana shu ashyoni boshqa sifatli ashyoga almashtirish yoki xarid bahosini tegishli darajada kamaytirishni yoxud sotuvchining shu ashyodagi kamchiliklarni haq olmay tuzatib berishini yoki shu kamchilikni tuzatish uchun oluvchining qilgan xarajatlarini to‘lashni yo bo‘lmasa shartnomani bekor qilib, o‘ziga yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishga haqli bo‘ladi, deb ko‘rsatiladi. Bu qoida bo‘yicha qarzdor sifatidagi sotuvchi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlardan birini tanlash huquqi kreditorga, ya’ni sotib oluvchiga beriladi.

4. *Shaxsiy tusga ega bo‘lgan majburiyatlar va shaxsiy tusga ega bo‘lman majburiyatlar*. Ba’zi majburiyatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi yoki birining shaxsi bilan qat’iy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vujudga keladigan majburiyat vakilning (topshiriqni bajaruvchining) ishonchli shaxs bo‘lishiga qarab belgilanadi. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan majburiyatlarning bajarilishini, agar qonun yoki shartnomada boshqacha hol belgilanmagan bo‘lsa, boshqa shaxsga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaydi, kreditor ham boshqa shaxs bilan almashinishi mumkin emas. Bunday majburiyatlar, odatda, qarzdor yoki kreditorning vafot etishi bilan bekor bo‘ladi.

Aksariyat huquqiy munosabatlarda majburiyatning kim tomonidan bajarilishi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Masalan, qarz shartnomasi bo‘yicha majburiyatning fuqaro G. tomonidan ham yoki uning uchun fuqaro B. tomonidan ham bajarilishi mumkin. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo‘lman majburiyatlar bo‘yicha kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxs bilan almashinishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday majburiyatlar bo‘yicha kreditor yoki qarzdorning vafot etishi majburiyatning bekor qilinishi uchun asos bo‘lmaydi.

Umumiy qoidaga binoan, majburiyatlar FKda nazarda tutilgan asoslarda vujudga keladi. Ammo, bunday majburiyatlarning vujudga

kelishi qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, lekin fuqarolik qonunchiligining umumiy mohiyati va mazmuniga zid bo‘lmagan fuqarolar va yuridik shaxslarning harakatlari asosida ham vujudga kelishi mumkin (FK 8-m. 1-q.).

FK 234-moddasida majburiyatni yuzaga keltiradigan shartnomalar va zarar yetkazish aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, keyin esa FKda ko‘rsatilgan boshqa asoslarga havola qilinadi. Bu kabi boshqa asoslarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bir taraflama bitimlar, bunda majburiyat tomonlarning birining erki irodasi orqali kelib chiqadi (FK 981-moddasida ko‘rsatilgan ommaviy e’lon qilingan mukofotni to‘lash majburiyati);

- asossiz orttirilgan boylik, bunda boshqa shaxsning hisobidan mol-mulkni qonunda yoki bitim shartlarida belgilab qo‘yilgan asoslarsiz egallab va tejab qolgan shaxsning majburiyati tushuniladi va jabrlanuvchiga ana shunday mol-mulk qaytarilishi shart (FK 1023-m.);

- shuningdek, topilmani topib olish bo‘yicha, topilmani olishga haqli bo‘lgan shaxsga uni qaytarib bergan shaxs ashyni saqlash, topshirish yoki sotish bilan bo‘lgan xarajatlarni, ashyni olishga haqli bo‘lgan xarajatlarning to‘lanishini talab qilishga haqli. Qarovsiz mollarni tutib olishda kelib chiqadigan majburiyat bo‘yicha ham hayvonni tutib olgan shaxs, hayvonni saqlash va foydalanish uchun topshirilgan shaxs uni lozim darajada saqlashlari shart va hayvonlar nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi uchun hayvonning narxi darajasida javobgar bo‘ladilar (FK 195-m.);

- majburiyatlarning vujudga kelishiga sud qarori asos bo‘lishi mumkin. Sud qaroriga muvofiq taraflar o‘rtasida shartnomani tuzish jarayonida kelishmovchilik mavjud bo‘lsa va uni hal qilish uchun sudga murojaat qilingan holatda, sud qarori bilan shartnomaning shartlari FK 377-moddasiga muvofiq belgilab beriladi<sup>1</sup>.

Majburiyatlarni bajarish prinsiplari haqida to‘xtalganda, ular asosan, tegishli darajada, kelishilgan va maqbul usulda bajarish, majburiyatni tegishli shaxs uchun, aniq, tejamkorlik va o‘zaro hamkorlikda bajarish kabilardan iborat bo‘ladi.

Majburiyatlarni tegishli darajada bajarish prinsipi deganda majburiyatlar qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradigan darajada, bekami-ko‘st va belgilangan muddatda bajarilishi nazarda tutiladi. Bunda huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning o‘z majburiyatlarini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарх. 1-жилд. – Т., 2010. – Б.586.

lozim darajada bajarilishi uchun bab-baravar manfaatdor bo‘lishlari va bir-birlariga ko‘maklashishlari shart. Majburiyatlarning tegishli ravishda bajarilishi jamiyat manfaatlari hamda uning tobora o‘sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Majburiyatlarni tegishli ravishda bajarish ularni qonunchilik, shartnoma shartlari, ish muomalasi tartibi va qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda shartnoma predmeti sifati, miqdori, hajmi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarilishini anglatadi. Bozor munosabatlari tizimida majburiyatlarni tegishli ravishda bajarilishidan nafaqat majburiyat o‘z foydasiga bajarilayotgan subyekt, balki pirovard natijada jamiyatning har bir a’zosi manfaatdor bo‘ladi. Chunki barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgani sababli qaysidir subyekt tomonidan o‘z majburiyatini lozim darajada bajarmasligi boshqa subyektlar uchun ham, garchi ular bevosita kreditor sifatida qatnashmasalar-da, salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Majburiyatlar bajarilishining yana bir prinsipi – majburiyatlarning kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishi. Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa va qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lish kerak (FK 238-m.). Ushbu prinsip mazmuniga ko‘ra, majburiyatlarni real (asl holicha) bajarilishi, uning bajarilishida tejamli usullardan foydalanish, majburiyat bajarilishida taraflarning hamkorlik qilish haqidagi qoidalarni anglatadi. Bu qoidalarni ham shartli ravishda, garchi qonunda bevosita sanab o‘tilmagan bo‘lsa-da, majburiyatlarni bajarish prinsiplari safiga qo‘shish mumkin.

Majburiyatlarning aniq bajarilishi shartnomada ko‘rsatilgan harakatning aynan o‘zi bajarilishini, topshirilishi lozim bo‘lgan narsa (mahsulot)ni asl holatida topshirilishini bildiradi.

Majburiyatning qarzdor aybi bilan kechiktirilishi yoki lozim darajada bajarilmasligi hollarini nazarda tutib, belgilangan neustoyka, jarima, penya hamda majburiyatning zarur darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan zararning undirilishi qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

Qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardan tashqari, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi (FK 237-m.). Ammo bu qoida, yuqorida aytilganidek, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba’zi majburiyatlar uchun qo‘llanilmaydi. Chunonchi, pudrat shartnomasi bo‘yicha topshiriq beruvchi bergen topshirig‘ini xohlaganida

bekor qila olgani kabi, topshiriq olgan shaxs ham istagan vaqtida topshiriqni bajarishdan bosh torta oladi. Temir yo'l va boshqa turdag'i transport vositasida yo'lovchilar tashish munosabatida ham yo'lovchi talabi bilan shartnoma istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

Majburiyatlarni bajarishda tejamkorlik qoidasiga muvofiq majburiyatni bajarishda taraflar kam xarajat bilan ko'p foyda keltirishga qaratilgan harakatlarni qilishlari lozim. Bu qoida kreditor va qarzdorning majburiyatni bajarish jarayonida eng qulay hamda eng foydali usuldan foydalanishi lozimligini belgilaydi. Chunonchi, pudrat shartnomasi bo'yicha pudratchi ishni buyurtmachi materialidan bajarishda materialni tejamkorlik bilan sarflashi va u to'g'ri ishlatilishida javobgar bo'lishi belgilangan. Yuk tashish shartnomasiga asosan yuk tashuvchi yukni eng qisqa yo'ldan tashishi ko'rsatilgan.

Majburiyatni bajarishda o'zaro hamkorlik prinsipiga ko'ra har ikki tomon majburiyatni bajarishda bir-birlariga zarur bo'lgan yordamni ko'rsatishlari lozim. Chunonchi, kreditor majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lishi bilan birga qarzdorning majburiyatini bajarishda unga yordam berish va ko'maklashishga ham majbur.


Masalan, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat yo'li bilan xarid qilinishida kontraktant (mahsulot qabul qiluvchi) tashkilotlar qishloq xo'jalik korxonalariga mahsulotlar yetishtirish va ularni tashishni tashkil qilishda yordam ko'rsatishi zarur.

Majburiyatlarni tegishli shaxs uchun bajarilishi prinsipi Fuqarolik kodeksining 240-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, agar boshqacha tartib taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo'lmasa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor majburiyatni bajarish chog'ida ijroni kreditorning o'zi yoki bu ish uchun u vakolat bergen shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli va bunday talabni qo'yaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo'ladi.

FK 234-moddasida belgilanganidek, majburiyatlarni shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi. Fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar tarkibiga davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlari, sud qarori, turli voqealarni kiritish mumkin.

## 2-§. Majburiyat taraflari

Majburiyatda qatnashuvchi taraflarning biri majburiyatni bajarilishini talab qiluvchi taraf – kreditor, ikkinchisi, ya’ni majburiyatni bajaruvchi taraf – qarzdor deb ataladi. Majburiyat aynan ushbu ikki tarafning o‘zaro munosabatidan vujudga keladi. Shu sababli ular majburiyat munosabatlarining asosiy tarafi sifatida e’tirof etiladilar.



Majburiyatda qarzdor va kreditor bo‘lib ishtirok etuvchilar, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘la oladigan shaxslar bo‘lishlari kerak. Majburiyatga oid munosabatlarda kreditor va qarzdor sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek, ba’zi hollarda O‘zbekiston Respublikasi ham subyekt bo‘lib ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatning alohida turlarida taraflar turlicha nomlanishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida – sotuvchi va xaridor, energiya ta’minti shartnomasida energiya bilan ta’minlovchi va abonent (iste’molchi), pudrat shartnomasida pudratchi va buyurtmachi, haq evaziga xizmat ko’rsatish shartnomasida ijrochi va buyurtmachi, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha ekspeditor va mijoz, vositachilik shartnomasida vositachi va komitent, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franchizing) shartnomasi bo‘yicha bir taraf – kompleks litsenziyar ikkinchi taraf – kompleks litsenziyat, delikt munosabatlarida zarar yetkazuvchi va jabrlanuvchi va shu kabilar taraflar bo‘ladi. Lekin ularning birini qarzdor,

ikkinchisini esa kreditor sifatida tushunmaslik lozim. Jumladan, har bir taraf bir vaqtning o‘zida kreditor yoki qarzdor bo‘lib qolishi mumkin.

Fuqarolik huquqida aksariyat majburiyatlarda (shartnomalarda) qatnashuvchi shaxslar bir vaqtning o‘zida ham kreditor, ham qarzdor bo‘lib hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi sotilgan narsani topshirish yuzasidan qarzdor, uning summasini talab qilib olish yuzasidan kreditor hisoblanadi va aksincha, sotib oluvchi mol-mulkni talab qilib olish yuzasidan – kreditor, uning summasini to‘lash yuzasidan qarzdor hisoblanadi. Binobarin, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarda, ya’ni kreditor va qarzdorda ham talab qilish huquqi, ham majburiyat bo‘lsa, bunday majburiyatlar (ikki tomonlama shartnomalar) murakkab majburiyatlar, deb ham yuritiladi.

Odatda, har bir majburiyatda ikki taraf – kreditor va qarzdor qatnashadi. Ammo ba’zi hollarda majburiyatda kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud har ikki tarafda ham bir necha shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlar *ko‘p shaxsli majburiyatlar* hisoblanadi. Masalan, bir mol-mulk ikki shaxs tomonidan sotib olinganida sotuvchi huzurida uning summasini to‘lash yuzasidan qarzdor tomonidan ikki shaxs qatnashadi.

Majburiyatda ko‘pchilik bo‘lib qatnashuvchi shaxslar *faol* va *nofaol* ishtirokchilarga ajratilishi mumkin. Majburiyatda ko‘pchilik bo‘lib kreditor tarafida qatnashuvchi shaxslar – *faol* ishtirokchilar deb, qarzdor tarafida qatnashuvchi shaxslar esa – *nofaol* ishtirokchilar deb ataladi. Agar majburiyatda qatnashuvchi shaxslar har ikki tarafda ham ko‘pchilik bo‘lib ishtirok etsa – *aralash* ishtirokchilar deb ataladi.

Ko‘p shaxslar ishtirok etgan majburiyatlar *ulushli* va *sherik* majburiatlarga bo‘linadi.

Ulushli majburiatlarda qatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, ulushli qarzdorlardan har biri o‘ziga tegishli ulushni bajarishga majbur bo‘ladi.

FK 251-moddasida ko‘rsatilganidek, agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Ulushli majburiyatga ikki fuqaro tomonidan ulushlarga bo‘linib qurilgan uy-joyning sotilishida sotuvchilardan har biri o‘z ulushiga nisbatan tegishli haqni talab qilish yuzasidan kreditor bo‘lishini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Yuridik shaxslar o‘rtasida ham ulushli majburiyatlar vujudga kelishi mumkin. Masalan, bir necha tashkilot birgalashib uy-joy qorganida, tashkilotlarning har biri o‘z ulushiga yarasha uy-joyni boshqarish va undan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Ulushli majburiyatlarda faol ishtirokchi bo‘lgan kreditorlardan har biri qarzdordan faqat o‘ziga tegishli ulushnigina talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, qarzdorlardan har biri o‘ziga tegishli ulushda majburiyatni bajarishga majbur bo‘ladi.

Kreditorlardan biriga majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan o‘z ulushiga yarasha bajarishi ulushli majburiyatni butunlay bekor qilmaydi. Bunday majburiyat, to boshqa kreditorlarning talablari qondirilguncha yoki boshqa qarzdorlar o‘z ulushlariga yarasha majburiyatlarini bajarguncha saqlanib qoladi.

Kreditorlar va qarzdorlar ko‘pchilik bo‘lgan taqdirda kreditorlardan har biri qarzdordan qarzni boshqalar bilan teng ulushda talab qilishga haqli va qarzdorlarning har biri esa boshqalar bilan teng ulushda majburiyatini bajarishga majbur bo‘ladi.

Sheriklik majburiyatlarga asosan, kreditor majburiyatning to‘la hajmda bajarilishini, sherik qarzdorlarning har qaysisidan majburiyatning butunlay bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida berilgan ta’rifga ko‘ra, sheriklik majburiyatlarida qatna-shuvchilar sifatida qarzdor bitta-yu, kreditorlar bir necha bo‘lishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor bo‘lishi mumkin.

Sheriklik asosida majburiyat olganlar – sherik qarzdorlar bo‘lsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega bo‘lganlar – sherik kreditorlar deb ataladi. Sheriklik majburiyatining mazmunini sheriklik majburiyati va sheriklikka oid talab qilish huquqlari tashkil etadi. Masalan, bir necha shaxs bir kishiga yoki tashkilotga ziyon yetkazganlarida qonun bo‘yicha sheriklik majburiyati belgilanadi. Bir necha vorislarga qarashli, ulushli va bo‘linmagan uy-joy bir fuqaro tomonidan sotib olinganda, sheriklikka asoslangan talab qilish huquqi vujudga keladi.

Sheriklik majburiyatida kreditorlarning talablari yoki qarzdorlarning majburiyatları ulushlarga bo‘linmaydi. Ammo kreditorlardan biri yoki bir nechtasi qarzning qisman bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Sheriklik (solidaritet) asosida belgilanadigan majburiyatga ko‘ra, qarzdorlardan biri tomonidan majburiyat bajarilmaganida, uning uchun boshqa sherik qarzdorlar javobgar bo‘lishadi va aksincha, sherik qarzdorlar bajarmagan majburiyatning bajarilishini bunday qarzdorlarning biridan ham to‘la talab qilishi ham mumkin.

FK 252-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdorlarning sheriklik majburiyati belgilanganida, kreditor majburiyatning qarzdorlarning barchasidan birgalikda, shuningdek har qaysisidan ayrim-ayrim holda to'la yoki qisman bajarilishini talab qilishga haqlidir.

Sherik qarzdorlarning biridan to'la qanoat hosil qilmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa sherik qarzdorlardan talab qilishga haqli. Sherik qarzdorlar to majburiyat to'la bajarilgunga qadar, qarzdor bo'lib qolaveradi.

Sherik qarzdorlarning har biri kreditorning talablariga qarshi e'tirozlarini bildira oladi. Chunonchi, qarzning ilgari to'liq yoki qisman to'langanligini ko'rsatishlari mumkin. Ammo sheriklik majburiyat bo'lgani holda, qarzdor kreditorning talablariga qarshi boshqa qarzdorlarning kreditorga nisbatan bo'lgan, mazkur qarzdor ishtirok etmagan, munosabatlarga asoslangan e'tirozlarini qo'ya olmaydi (FK 253-m.).

*Masalan, sheriklik majburiyatda kreditor G. ning sherik qarzdorlari A. va V. lardan biri aytaylik, V. boshqa bir oddiy majburiyatda qarz shartnomasi bo'yicha G. ning kreditori bo'lsa, bunday holda o'zaro hisoblashishni faqat V. gina talab qila oladi. Binobarin, unga nisbatan sheriklik majburiyati yuzasidan talablar qo'yilganida, faqat uning o'zining e'tirozlar bildira oladi. Boshqalar bunday huquqqa ega bo'la olmaydi.*

Sheriklik majburiyatining qarzdorlardan biri tomonidan to'la bajarilishi, boshqa qarzdorlarni kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan ozod qiladi.

Sheriklik majburiyatini bajargan qarzdor, qonun yoki shartnomalarda boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, majburiyatni bajargan qarzdor o'z ulushini chegirib tashlab boshqa qarzdorlarga teng ulushlarda regress talab qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyatini bajargan qarzdorga to'lanmagan haq bu va boshqa qarzdorlar zimmasiga teng ulushlarda tushadi (FK 254-m.).

Agar sheriklik majburiyatda kreditorlar bir necha bo'lsa, u holda sherik talablar vujudga keladi va sherik kreditoring har qaysisi qarzdorga nisbatan to'la hajmda talab qo'yishga haqli bo'ladi. Bunday sheriklik talablarga faol sheriklik deyiladi. Sheriklik talablariga binoan, qonun yoki shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, qarzdor kreditoring biriga majburiyatni to'la hajmda bajarishi mumkin, kreditor esa qabul qilib olishga majbur. Sherik kreditordan har biri ham qarzdordan majburiyatning to'la hajmda bajarilishini talab qilishga haqli. Bunday talab qo'yilganda majburiyatni solidar kreditordan biriga nisbatan to'la bajarish qarzdorni majburiyatni boshqa solidar kreditoringa nisbatan bajarishdan ozod qiladi (FK 255-m. 3-q.).

Sheriklik talablar ko‘pincha birgalikdagi faoliyatdan, sherik mualliflikdan va boshqa ba’zi huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi mumkin. Sherik kreditorlardan har birining harakati bilan boshqa kreditoring manfaatiga ziyon yetkazmasligi kerak. Chunonchi, sherik kreditorlardan birining qilgan harakati qarzdorlardan birini majburiyatning muayyan qismini bajarishdan ozod qilishga qaratilgan bo‘lsa ham, bu qarzdor sherik kreditorlar huzurida majburiyatni to‘la bajarishdan ozod bo‘lmaydi.

Qarzdor sherik kreditorlarning biri tomonidan qo‘yilgan talabga qarshi o‘zining boshqa sherik kreditorlar bilan bo‘lgan, mazkur kreditor ishtirok etmagan munosabatlarga asoslangan e’tirozini qo‘ya olmaydi. Masalan, pudrat shartnomasi bo‘yicha, pudratchi bir necha jamoa xo‘jaligining buyurtmasiga binoan stadion qurishi kerak bo‘lib, keyinchalik shu jamoa xo‘jaliklarining biridan buyurtmani kechiktirib bajarishga muhlat olgan bo‘lsa, qolgan jamoa xo‘jaliklarining buyurtmasini o‘z vaqtida bajarishi uchun qo‘ygan talabiga kechiktirib bajarish uchun olgan muhlatini qarshi qo‘ya olmaydi.

Majburiyatning qarzdor tomon sherik kreditorlaridan birining to‘la hajmda bajarilishi, uni boshqa kreditorlarga nisbatan bajarishdan ozod qiladi.

Qarzdordan majburiyatning ijrosini qabul qilib olgan sherik kreditor, basharti ular o‘rtasidagi munosabatlardan boshqacha tartib anglashilmasa, boshqa kreditorlarga tegishli bo‘lgan ulushlarni to‘lashi shart (FK 255-m.).

Aralash sheriklik majburiatlarda bir vaqtning o‘zida bir necha kreditor va qarzdor shaxs ishtirok etadi. Bunday majburiatlarni bajarish tartibiga faol va sust sheriklik majburiyatlarini bajarish deyiladi. Masalan, shaxsiy mulk huquqi asosida uy-joyga ega bo‘lgan bir necha fuqaro ta’mirlovchi brigada bilan pudrat shartnomasi tuzgan bo‘lsa, ulardan har biri majburiyatning to‘la hajmda bajarilishini brigadaning har qaysi a’zosidan talab qilishga haqli.

Tashkilotlar yuridik shaxs sifatida mustaqil mulkiy javobgarlikka ega bo‘lib, xo‘jalik hisobi asosida ish olib borganliklari sababli, har qaysi tashkilot majburiyatini bajarmaganligi uchun o‘zicha alohida javobgar bo‘ladi. Lekin ayrim hollarda aralash sheriklik majburiyati asosida ham javobgarlik belgilanishi mumkin. Masalan, turli tashkilotlarga qarashli avtomashinadan bir necha fuqaroga ziyon yetkazilsa, birgalikdagi aralash sherik javobgarlik belgilanishi mumkin.

Qo‘srimcha (subsidiar) majburiyatlar faqat qarzdorlar tarafida vujudga keladi. Majburiyat asosiy qarzdor tomonidan bajarilmaganida, kreditor uning bajarilishini qo‘srimcha qarzdordan talab qilishga haqli. Subsidiar javobgarlik asoslari FK 329-moddasida nazarda tutilgan. Bunga asosan,

qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq, asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘sishma ravishda bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin. Kreditor asosiy qarzdorga bo‘lgan o‘z talabini qondirilishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o‘tkazish yoki mablag‘larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo‘li bilan qondirilishi mumkin bo‘lsa, subsidiar javobgar shaxs o‘ziga kreditor tomonidan qo‘yilgan talabni qondirilishdan oldin, bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilish kerak. Aks holda, asosiy qarzdor o‘zining kreditorga qarshi e’tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo‘yish huquqiga ega.

Sheriklik majburiyati bo‘yicha boshqalar uchun majburiyatni bajargan qarzdor regress (qaytarma) da’vo huquqiga ega bo‘lsa, qo‘sishma majburiyatni uchinchi shaxsga nisbatan bajargan qarzdor, agar qonun yoki shartnomalarda boshqacha hol belgilanmagan bo‘lsa, shu bajarilgan narsani qaytarib olish huquqiga ega bo‘lmaydi. Masalan, ota-onalar farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmagan bolalarning harakati natijasida yetkazilgan zararni uchinchi shaxsga to‘laganlarida mazkur haqni qaytarib olish huquqiga ega emaslar.

Qo‘sishma majburiyat qonun yoki shartnomalarda ko‘rsatilgan taqdirdagina vujudga keladi. Chunonchi, qonunda aytishicha, o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smir tomonidan yetkazilgan ziyon uchun ularning ota-onalari, vasiy va homiylari qo‘sishma javobgardirlar. Qo‘sishma majburiyatga yana bir misol qilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, boshqa shaxs majburiyatining butunlay yoki qisman bajarilishi uchun uning kreditori oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan kafilning qo‘sishma javobgarligini ko‘rsatish mumkin. Ammo bu holda majburiyatni bajargan kafil regress (qaytarma) da’vo qilish huquqiga ega bo‘ladi.


### **3-§. Majburiyatdagi shaxslarning o‘zgarishi**

Kreditorning o‘zgarishi majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda muayyan subyektlar o‘rtasida vujudga keladi. Majburiyatni bajarishda

ishtirok etayotgan taraflar o‘rinlarini boshqa shaxs bilan almashinishlariga qonun bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi. Majburiyatda qatnashuvchi kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxslar bilan almashinishlari mumkin.

Kreditorning almashinishi deb, majburiyatda ishtirok etayotgan kreditor o‘z o‘rnini boshqa shaxs bilan almashinishiga aytildi. Kreditorning talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazilishiga, agar bu qonun yoki shartnomaga zid bo‘lmasagina yoki talab kreditorning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lmasagina yo‘l qo‘yiladi. Fuqarolik huquq nazariyasida kreditorning o‘zgarishi “sessiya”, sobiq kreditor esa “sedent” deb nomlanadi. Agar talab kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa, masalan, FK 314-moddasida ko‘rsatilganidek, alimentlar va hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni to‘lash to‘g‘risidagi talablarning boshqa shaxsga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ba’zi hollarda, talab qilish huquqini o‘tkazishga shartnomada bo‘yicha ham yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, umrbod ta’minalash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga bergen shaxs o‘zining talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkaza olmaydi.



Talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazgan kreditor bu huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarni ana shu shaxsga topshirishga majbur. Chunonchi, kreditor qarzdordan tilxat olgan bo‘lsa, mazkur hujjatga talab qilish huquqining o‘tkazilganligini yozib, uni yangi kreditorga topshirishi

lozim. Dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o'tkazilgan talabning qarzdor tomonidan bajarilmaganligi uchun javob bermaydi, dastlabki kreditor yangi kreditor oldida qarzdor uchun o'z zimmasiga kafolatini olgan hollar bundan mustasno (FK 321-m.).

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilinmagan bo'lsa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi (FK 313-m.).

Ba'zi hollarda normativ hujjatlarning o'zida ham talab qilish huquqini umumiyligida qoida sifatida o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi, masalan, temir yo'l ustavining 172-moddasida temir yo'l korxonasiiga talab, shikoyat yoki da'vo qo'zg'atish huquqini boshqa tashkilotga yoki fuqaroga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilishi bilan birga, qanday hollarda bu qoidadan istisnolar bo'lishligi ham aytilgan.

Qarzdor majburiyat bo'yicha huquqlar yangi kreditorga o'tganligi haqida ogohlantirish olgan paytda dastlabki kreditorga qarshi e'tirozlarni yangi kreditorning talabiga qarshi qo'ya oladi (FK 317-m.). Masalan, majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarz hujjatida ko'rsatilgan summaning olinmaganligini ko'rsatib, o'z e'tirozlarini yangi kreditor talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega.

Qarzdorning almashinishiga kelsak, majburiyatda qatnashayotgan qarzdor ham o'z o'rmini boshqa shaxs bilan almashish huquqiga ega. Qarzdor almashgani tufayli, yangi qarzdor majburiyatli bo'lib qolishiga – qarzning (majburiyatning) ko'chirilishi deyiladi.

Qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi (FK 322-m.). Qarzdor uchun qaysi kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishning farqi yo'q bo'lsa ham, kreditor uchun kim yangi qarzdor bo'lishining ahamiyati bor. Avvalo, kreditorning yangi qarzdorning mulkiy holati, ish qobiliyati hamda majburiyatni bajarishga qodir bo'lish-bo'lmasligi qiziqtiradi. Agar, masalan, yuqori malakali usta ishni bajarishni o'z shogirdiga topshirmoqchi bo'lsa, kreditor ish manfaatlarini ko'zlab, bunga rozi bo'lmasligi ham mumkin. Dastlabki qarzdor boshqa shaxsga majburiyatini o'tkazganida, kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan butunlay ozod bo'ladi. Uning barcha majburiyati yangi qarzdor zimmasiga o'tadi.

Kreditor bilan dastlabki qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e’tirozlarni yangi qarzdor kreditoring talabiga qarshi qo‘ya oladi, jumladan, yangi qarzdor ham dastlabki qarzdor kabi majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarzning qisman to‘langanligini yoxud hujjatda ko‘rsatilganga qaraganda kamroq summada olinganligini aytib, e’tirozlarini bildira oladi.

Kreditor yangi qarzdordan majburiyatni to‘la hajmda bajarishni talab qila oladi, chunki majburiyatni ko‘chirishda uning mazmuni o‘zgarmaydi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor almashsa, kreditor yangi qarzdordan to‘la hajmda to‘lanishini talab qila oladi.

Agar kafil yoki garovga qo‘yuvchi yangi qarzdor uchun javobgar bo‘lishiga rozilik bermasa, kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan berilgan garov qarzning boshqa shaxsga ko‘chirilishi bilan bekor bo‘ladi.

Qarzni (majburiyatni) ko‘chirish, ko‘pincha fuqarolarning o‘zaro munosabatlarida qo‘llaniladi. Ammo majburiyat qarzdorning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lsa, qarzni ko‘chirish mumkin emas.

Yozma shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talab qilish huquqini o‘tkazish va qarzni (majburiyatni) ko‘chirish oddiy yozma shaklda qilinishi lozim. Agar bitim notarial tasdiqlangan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lsa, u holda ushbu tegishli shaklga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. FK 323-moddasida qarzni ham, majburiyat bo‘yicha ijroni ham bir paytda boshqa shaxsga o‘tkazish qoidalari nazarda tutilgan. Bunga asosan qarzdorni qarzni to‘lash majburiyatidan ozod qilmagan holda qarzni yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o‘tkazishga ruxsat beriladi. Bu holda har ikkala qarzdor majburiyatning bajarilishi uchun sherik (solidar) javobgar bo‘ladi.

Qarzdorning uchinchi shaxs bilan shartnomasi asosida, uchinchi shaxs majburiyatining bajarilishi bo‘yicha kreditor oldida emas, balki faqat qarzdor oldida burchli bo‘ladi.

#### **4-§. Regress (qaytarma) majburiyat**

Regress atamasi qadimgi rim huquqida vujudga kelgan bo‘lib, o‘sha davrlarda bu atama bugungi kundagi vazifani bajargan. Regress – lotincha regressus so‘zidan olingan bo‘lib, orqaga harakat degan ma’noni anglatadi<sup>1</sup>. “Regress” atamasi (“progress” – “oldinga harakat” atamasiga qarama-qarshi o‘laroq) so‘zma-so‘z tushunilganda “orqaga harakat,

<sup>1</sup> Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т., 2010. – Б.381.

qaytarma” ma’nolarini ifodalaydi. Shu sababli ko‘pchilik vaziyatlarda “regress talabi” o‘rniga uning sinonimi bo‘lgan “qaytarma talab” atamasi qo‘llaniladi. “Regress” fuqarolik huquqida “qaytarish” tushunchasini, masalan, birov uchun to‘langan pulning qaytarish to‘g‘risidagi talabni bildiradi. Qaytarma majburiyat sheriklik va qo‘srimcha majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqadi. Sherik qarzdorlardan biri kreditorga nisbatan majburiyatni to‘la hajmda bajarib, keyinchalik ular uchun to‘langan summani, qilingan ish xarajatlarini qolgan qarzdorlardan qaytarma talab asosida qoplata oladi. Odatda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda regress majburiyatlar assosiy majburiyatni qarzdor o‘rniga uchinchi shaxslar bajarganda yoki uchinchi shaxsning aybi bilan majburiyat bajarilmagan hollarda yuzaga keladi.

Regress majburiyat bo‘yicha qatnashuvchi kreditor *regrediyent* deb ataladi. U albatta assosiy majburiyatda qatnashuvchi hisoblanadi. Regress majburiyat bo‘yicha qarzdor “*regressator*” deb nomlanadi. Regressator assosiy majburiyatda qatnashgan yoki qatnashmagan bo‘lishi ham mumkin, lekin assosiy majburiyatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uning muayyan harakatlarni amalga oshirishi yoki oshirmasligiga, shuningdek regrediyent uchinchi shaxs oldidagi vazifasini bajarilishiga bog‘liq<sup>1</sup>.

Qaytarma (regress) majburiyat deb, bir taraf ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatni qaytarish to‘g‘risida talab qila olish huquqiga aytildi. Regress (qaytarma) talabda ham boshqa majburiyatlar singari ikki taraf ishtirok etadi. Masalan, qarz shartnomasiga asosan, qarzdorlardan biri qarzni to‘la hajmda to‘lasa, qarz majburiyati bekor bo‘ladi. Lekin boshqa qarzdorlar uchun qarzni to‘lagan qarzdor ulardan tegishli summani undirish uchun qaytarma talab qila oladi. Agar majburiyatni to‘la hajmda bajargan qarzdor bu to‘g‘rida boshqa sherik qarzdorlarini ogohlantirmasa, sherik qarzdorlar majburiyatni bajarmagan bo‘lsa, zarar ko‘rgan qarzdor qolgan qarzdorlarga nisbatan qaytarma da’vo qo‘zg‘ata olmaydi. U faqat kreditorga nisbatangina uning asossiz olganini qaytarishi to‘g‘risida da’vo qila oladi. Qaytarma talab uchinchi shaxsga nisbatan qilingan xarajatning umumiy miqdoridan oshmasligi kerak.

Qaytarma majburiyat xo‘jalik tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘proq tarqalgan. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotdan sotib oluvchi tashkilotga mahsulot sifatsiz bo‘lgani uchun jarima to‘laganida, bunday sanksiyaga (jarima) tortilishi mahsulot tayyorlovchi tashkilotning shartnomasi shartlarini buzganligi sababli vujudga kelganligi ko‘rsatilib,

---

<sup>1</sup> Раҳмонқулов Ҳ. Мажбурият хукуқи. – Т., 2005. – Б.46.

keyinchalik bu jarima summasining o‘ziga qaytarilishi to‘g‘risida mahsulot tayyorlovchi tashkilotga qaytarma da’vo qo‘zg‘ata oladi.

Binobarin, qaytarma da’vo tashkilotlar o‘rtasida har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z majburiyatiga nisbatan javobgarligini oshiradi va u muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi.

## **5-§. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari**

Fuqarolik huquqida qarzdor zimmasidagi majburiyatlarning kreditor foydasiga bajarilishi shartnomaga intizomini mustahkamlashda, shuningdek fuqarolik huquqlarini himoya qilishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zero, majburiyatning bajarilishidan nafaqat kreditor, balki davlat va jamiyat ham manfaatdordir. Chunki, majburiyatlarning bajarilishi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, mulk shakllarini huquqiy himoyalashda, jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin egallaydi.

Fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash fuqarolik-huquqiy munosabatdir.

Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari deb, qarzdor zimmasida bo‘lgan majburiyatlarni u tomonidan lozim darajada bajarilishiga majbur qiluvchi choralarga aytildi. Bu choralar, ya’ni usullar Fuqarolik kodeksining 259-moddasida, shuningdek “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 1998-yil 29-avgustdagи qonunning 14-moddasida belgilangan.

Yuqoridagi qonun hujjatlarida, majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashning quyidagi usullari belgilangan: neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat.

Fuqarolik kodeksining 259-moddasiga ko‘ra, majburiyatlarning bajarilishi qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham ta’minlanishi mumkin. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashning boshqa usullari esa fuqarolik huquqi sohasidagi qonunlarda yoki tomonlarning kelishuvi bilan tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilishi mumkin. Umumiy qoidaga ko‘ra tomonlar kelishuvi bilan shartnomada belgilanadigan majburiyatlarni ta’minlashning choralari qonun hujjatlariga zid bo‘lmasligi kerak.

Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashning usullaridan biri bu “Neustoyka” hisoblanadi. FK 260-moddasiga ko‘ra, neustoyka qonunchilik yoki shartnomaga bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasiga aytildi.

Neustoyka majburiyatlarning bajarilishni ta'minlashda eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik bo'yicha neustoyka fuqarolik huquqi subyektlari (jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat) ishtirokidagi barcha shartnomaviy munosabatlar bo'yicha vujudga keladigan majburiatlarda qo'llaniladi.

Kreditor tomonidan neustoykani undirish uchun, umumiyligida qoidaga binoan, majburiyatning buzilishi (huquqning buzilishi) va qarzdorning aybi asos bo'lib hisoblanadi, biroq bunda huquqbazarlik tarkibining (zarar, huquqqa xilof harakat, sababiy bog'lanish, ayb) to'liq bo'lishi shart emas. Chunki, neustoyka kreditorga zarar yetkazilmagan hollarda ham undirilishi mumkin.

Akademik H.Rahmonqulov ta'kidlaganidek, neustoyka majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashda muhim usullardan iborat bo'lishi bilan bir qatorda mulkiy javobgarlik chorasi ham hisoblanadi. Neustoyka asosiy majburiyat buzilganligi natijasida zarar yetkazilgan bo'lishidan qat'i nazar undiriladi. Shuning uchun ham kreditor neustoykani to'lash haqida talab qo'zg'atar ekan, o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas.

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi. Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usullari bo'lgan jarima bilan penya o'rtasida jiddiy farq yo'q. Ular faqat hisoblanish metodlari jihatidangina bir-biridan farq qiladi.

Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va, qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi.

Jarimani qo'llash shartnoma majburiyatining bajarilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shuning bilan birga jarima shartnomaning majburiyati bajarilmaganligi uchun qo'llaniladigan javobgarlik chorasi hisoblanadi. Jarima shartnoma ishtirokchisi tomonidan majburiyat uning aybi bilan bajarilmagan taqdirda to'lanadi, aybidan qat'i nazar jarima to'lashga istisno tarzida qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Jarima tadbirkorlar ishtirokida tuziladigan shartnomalarda samarali natija beradigan, majburiyatni buzgan tarafga nisbatan ta'sir o'tkazadigan chora sifatida keng ko'lamda qo'llanadi.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi.

Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda qo'llaniladi va muayyan vaqt, masalan, 10, 20, 30 kun davomida hisoblanadi. Penya

majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda, kechiktirishning barcha muddati davomida hisoblanib, bajarilmagan summasi yuzasidan belgilangan foizlar bilan undiriladi. Majburiyatning bajarilish vaqtি kechiktirilgani sari penya summasining ham o'sib borishi qarzdorni majburiyatni mumkin qadar tezroq ijro etishga majbur qiladi.

Agar penya faqat muayyan kunlar, masalan, 30 kun davomida hisoblansa, mazkur kunlar o'tgandan so'ng uning hisoblanishi to'xtatiladi. Odatda, keyinchalik kreditorga qarzdordan birdaniga 2% dan 5% gacha neustoyka olish huquqi paydo bo'ladi. Tor ma'nodagi neustoyka majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, shu jumladan, shartnomalarining ijrosini kechiktirganlik uchun undiriladi va yetkazib berilmagan mahsulotning yoki tovarning qiymati summasidan yoki pudrat shartnomasi bo'yicha bajarilmagan ishlar summasidan va shu kabi boshqa summalarga nisbatan foiz bilan, masalan, 2, 3, 4, 5 % miqdorida neustoyka olinadi.

Neustoykaning xususiyati shundaki, u majburiyat bajarilishining buzilishida har qanday fakt uchun, miqdori esa majburiyat kechiktirishining qanchalik uzoq bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar belgilanadi.

Fuqarolik qonunchiligi neustoykani ikki huquqiy asosini: qonun va shartnomadan kelib chiqishini belgilaydi.

Qonuniy neustoyka deb majburiyatlarning muayyan turlari uchun qonun bilan maxsus belgilangan neustoyka tushuniladi. Bu holda qonun neustoykaning miqdori, uning undirilishi tartibi va shartlarini belgilaydi. Qonun bilan belgilanadigan neustoykaning xarakterli tomoni shundaki, uni to'lash taraflarning kelishuviga nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qati nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to'lashni talab qilishga haqli. Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqiqlamasa, taraflarning kelishuviga bilan ko'paytirilishi mumkin (FK 263-m.).

Taraflar qonunda nazarda tutilgan neustoykani undirishdan bosh torta olmaydilar va uning miqdorini ham kamaytira olmaydilar. Agar shartnomada bunday shartlar ko'rsatilgan bo'lsa, ular haqiqiy sanalmaydi.

Qonuniy neustoyka xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarda ko'p qo'llaniladi va maxsus normativ hujjatlarda nazarda tutiladi.

Shartnomali neustoyka taraflarning o'zaro kelishuviga bo'yicha belgilanadi. Mazkur neustoyka asosiy majburiyatning neustoyka bilan ta'minlanishi yoki ta'minlanmasligi to'g'risidagi masala, uning miqdori, undirish tartibi va shartlari faqat taraflarning o'zlari tomonidan belgilanadi. Masalan, ikki jamoa xo'jaligi bir-biriga qurilish uchun g'isht

yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzganlarida majburiyatni buzganlik uchun neustoyka to‘lanishini ko‘rsatishlari mumkin.

Neustoyka (jarima, penya) to‘g‘risidagi kelishuv Fuqarolik kodeksining 262-moddasida ko‘rsatilganidek, yozma shaklda tuzilishi kerak. Bunday kelishuv maxsus shartnoma yoki asosiy shartnomaga qo‘sishimcha kelishuv shaklida rasmiylashtirilishi mumkin. Kelishuvning yozma shaklda bo‘lishiga rioya qilmaslik neustoyka (jarima, penya) to‘g‘risidagi kelishuvning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Neustoykani undirishdan asosiy maqsad majburiyatning bajarilishini ta’minalashdir. Fuqarolik qonunida ko‘rsatilgan neustoyka faqat pul bilan belgilanadi. Neustoyka miqdori qonun bilan yoki shartnoma bilan belgilanishi lozim. Odatda, neustoyka bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyat summasiga nisbatan foiz bilan yoki qat’iy summa bilan belgilanadi (FK 261-m.).

Garov majburiyat bajarilishini ta’minalashning muhim usullaridan hisoblanadi. Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqini majburiyatni ta’minalash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garovga ko‘ra qarzdor garov bilan ta’minalangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo‘yicha o‘z talabi garovga qo‘yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo‘lgan shaxs (garovga qo‘yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirishiga, qonunda belgilab qo‘yilgan chegirishlardan keyin, haqli bo‘ladi (FK 264-m. 2-q.).

Yuqoridagi normada ko‘rsatilganidek, subyektiv huquq – garov huquqi bo‘lib, mulkni garovga bergen shaxs “garovga qo‘yuvchi” va mulkni olgan shaxs esa “garovga oluvchi” deb ataladi. Mulkni garovga qo‘yuvchi shaxs qarzdorning o‘zi ham, shuningdek, uchinchi bir shaxs ham bo‘lishi mumkin.

Garov qo‘yuvchilar yuridik shaxslar va fuqarolardan iborat bo‘lishi mumkin. 18 yoshga yetmagan (FK 22-moddasi ikkinchi qismi va 28-moddada ko‘rsatilgan asoslarda to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lmagan voyaga yetmaganlardan tashqari) shaxslar o‘z mol-mulklarini garovga faqat ota-onalarining va homiylarining roziligi bilan qo‘yishlari mumkin.

Mol-mulkni garovga qo‘yuvchi unga nisbatan mulk huquqiga yoki xo‘jalik yuritish huquqiga ega bo‘lishi mumkin. Mol-mulkni operativ boshqarish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, ya’ni mulkdor tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar garov qo‘yuvchilar bo‘la olmaydilar (FK 178-m.).

Fuqarolik kodeksining 266-moddasida ko‘rsatilganidek, garovga qo‘yuvchi garovga qo‘yilayotgan ashyoning egasi bo‘lishi lozim. Basharti,

qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdorning roziligesiz ashyoviy huquqni garovga qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Garovning mohiyati shundan iboratki, qarzdor tomonidan majburiyat ijo etilmaganida kreditor o‘zining talabini garovga qo‘yilgan mulk hisobidan birinchi navbatda undirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kreditorning talablari qondirilgandan so‘ng garovga qo‘yilgan mulkni sotishdan hosil qilingan summaning qolgani boshqa kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin.

Har qanday mol-mulk, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo‘lishi mumkin. Muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan talabnomalar, xususan, hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablar, alimentlar to‘g‘risidagi talablar hamda shaxsga berish qonun bilan man etilgan boshqa talablar garovga qo‘yilishi mumkin emas.

Odatda faqat kreditorning haqiqiy talabigina garov bilan ta’minlanishi mumkin. Demak, shartnoma, haqiqiy emas deb topilsa, u holda garov to‘g‘risidagi shartnoma ham haqiqiy sanalmaydi. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta’minlaydi, xususan, foizlar, neustoyka ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar to‘lanishini, shuningdek, garovga oluvchining garovga qo‘yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to‘lanishini ta’minlaydi.

Asosiy majburiyat yuzasidan kreditor bo‘lgan shaxs talab bilan bog‘liq huquqlarini boshqa shaxsga topshirsa, u holda qonunga binoan uning garov huquqi ham yangi kreditorga o‘tadi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi yoki xo‘jalik yuritish huquqi mulkni garovga bergen shaxsdan boshqa shaxsga o‘tganida garov huquqi o‘z kuchini saqlab qoladi. Binobarin, garovga beruvchi – kreditor garovga qo‘yilgan mulkining egasi yoki uni boshqaruvchi subyekt boshqa shaxs bo‘lganida ham o‘z huquqini garovga qo‘yilgan mulk hisobidan undirishga haqli. Masalan, bankdan qarzdor bo‘lgan fuqaro olingan kredit hisobiga qurilgan uy-joyni sotsa, bank uy-joyni garovga olgan shaxs sifatida mazkur uy-joy hisobidan o‘z haqini uyning yangi egasidan ham undirib olishi mumkin.

Garov huquqi shartnoma yoki qonunga binoan, ya’ni me’yoriy hujjatda maxsus ko‘rsatma bo‘lgandagina vujudga keladi. Ko‘p hollarda majburiyat biror-bir mulkni garovga qo‘yish to‘g‘risida shartnoma tuzish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Fuqarolik kodeksining 265-moddasiga asosan garovning quyidagi turlari mavjud:

a) zakalat garovi – bunda garov narsasi (predmeti) garovga oluvchida saqlanadi;

b) ipoteka garovi – bunda ko‘chmas mol-mulk garovga olinadi;

v) huquqlar garovi – bunda mulkiy huquqlar garovga olinadi.

Fuqarolik kodeksining 269-moddasiga asosan, agar shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garovga qo‘yilgan mol-mulk garovga qo‘yuvchida qoladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 614-I-son yangi tahrirdagi “Garov to‘g‘risida”gi qonunining 36-moddasiga asosan yer bilan bog‘liq mol-mulk, imorat, inshoot, ko‘p qavatli uydagisi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, qonunlar bilan ko‘chmas mulk, shuningdek, transport vositalari ipoteka narsasi bo‘lishi mumkin.

Garov shartnomasi yozma ravishda tuzilishi kerak. Ipoteka haqidagi shartnoma, shuningdek, notarial tasdiqlanishi kerak bo‘lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta‘minlash yuzasidan ko‘char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo‘lgan huquqlarni garovga qo‘yish to‘g‘risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart. Bundan tashqari, garov shartnomasi qiymatiga qarab tegishli adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

Garov shartnomasining shakli, uni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi talablarga rioya qilinmay tuzilganda haqiqiy hisoblanmaydi.

Fuqarolik kodeksining 278-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilganidek, garovga oluvchi o‘z ixtiyorida bo‘lgan yoki bo‘lishi lozim bo‘lgan garovga qo‘yilgan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egallashidan, shu jumladan garovga qo‘yuvchining egallashidan talab qilib olishga haqli. Shartnoma shartlariga ko‘ra garovga oluvchiga o‘ziga topshirilgan garov narsasidan foydalanish huquqi berilgan hollarda u boshqa shaxslardan, shu jumladan garovga qo‘yuvchidan ham, o‘z huquqining har qanday buzilishini bartaraf etishni, garchi bu buzilishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham talab qilishi mumkin.

Garov bilan kafolatlangan majburiyat qarzdor tomonidan bajarilmaganda garovga qo‘yilgan mulk sudning qaroriga asosan sotiladi va birinchi navbatda tushgan summa hisobidan boshqa shaxslardan oldin kreditorning talabi qondiriladi.

Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish majburiyatning bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mavjud bo‘lgan alohida yangi usullardan hisoblanadi.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlovchi usul sifatida ushlab qolishning ahamiyati shundan iboratki, ushbu usul bo'yicha qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog'liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to'lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab turishga haqli (FK 290-m. 1-q.).

Ushlab qolish huquqining vujudga kelishiga shartnomaga majburiyatining buzilishi asos hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi tovarni topshirishdan oldin sotib oluvchi uning haqini to'liq yoki qisman to'lash (oldindan haq to'lash) majburiyati nazarda tutilgan hollarda sotib oluvchi tovar haqini shartnomada nazarda tutilgan muddatda to'lamasa, sotuvchi (mahsulot yetkazib beruvchi) tovar haqini oldindan to'lanmaguncha tovarni yetkazib berishni ushlab turishga haqli (FK 420-m.). Pudrat shartnomasining bajarilishi munosabati bilan buyurtmachi pudratchiga belgilangan tegishli haqini yoki boshqa summani to'lash majburiyatini bajarmagan taqdirda, buyurtmachi tomonidan tegishli summa to'langunga qadar pudratchi ishning natijalarini, shuningdek, pudratchiga tegishli uskunalarni, qayta ishslash (ishlov berish) uchun berilgan ashylarni, foydalanilmay qolgan material qoldig'i va pudratchining ixtiyoridagi boshqa mol-mulkni ushlab qolish huquqiga ega (FK 639-m.).

Ushlab qolish majburiyat bajarilishini ta'minlovchi usul sifatida garov bilan ko'pgina o'xhash tomonlari mavjud. Bu ularning bir-biriga o'xhash vazifalarni bajarishidan kelib chiqadi: ushlab qolish ham, garov ham majburiyatning bajarilishini ta'minlovchi usullardan iborat. Shuningdek, ushlab qolishda ham, garovda ham kreditorning talab qilish huquqi ushlab turilgan mol-mulk hisobidan qanoatlantiriladi. Bunday qanoatlantirishda ushlab qolish huquqiga ega bo'lgan shaxs va garov oluvchi kreditor sifatida deyarli bir xil huquqlardan foydalanadi. Mol-mulkni ushlab turuvchi kreditorning huquqi ham, garovga oluvchining huquqi kabi yagona huquqiy asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuning bilan birga ushlab qolish o'zining vujudga kelish asoslari, payti, shuningdek, qo'llanish xususiyatlari bilan garovdan farq qiladi. Mol-mulkni garovga qo'yish taraflarning maxsus shartnomasi (alohida shartnomaga yoki asosiy majburiyat bo'yicha tuzilgan shartnomaga) bilan asosiy majburiyat vujudga kelish paytida qo'llaniladi, ushlab qolish ilgaridan qo'llanilmaydi, u shartnomada nazarda tutilgan yoki tutilmagan bo'lishidan qat'i nazar majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi hollarda qo'llanishi mumkin.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida qarzdorning mulkini ushlab qolish huquqi kreditorga garovga o'xshab shartnomaga majburiyati bilan emas, balki qonun hujjatiga muvofiq beriladi. Masalan, FK 715-moddasi to'rtinchchi qismiga muvofiq, tashuvchi tashish uchun topshirilgan yuklarni o'ziga tegishli kira haqini va tashish bo'yicha boshqa to'lovlarni ta'minlash maqsadida ushlab turish huquqiga ega.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida kafillikning ahamiyati shundan iboratki, majburiyat qarzdor tomonidan bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, kafillik shartnomasi bo'yicha kreditor o'z talablarini kafil oldida qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kreditorda uning talablarining bajarilishini haqiqatda ro'yobga chiqarilishiga ham ishonch yaratadi.

FK 292-moddasi birinchi qismiga asosan kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa bir shaxs, ya'ni qarzdor o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarish uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Kafillik huquqiy munosabat sifatida asosiy majburiyat bo'yicha kreditor bilan qarzdor tomonidan qatnashuvchi kafil o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra vujudga keladi. Shu bilan birga qarzdorning majburiyati bajarilishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan kafil bilan qarzdor o'rtasidagi aloqa turlicha bo'lishi mumkin. Bu alohida tuzilgan shartnomadan iborat bo'lishi mumkin. Bunday aloqa huquqiy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Kafillik shartnomasi uchun qarzdor bilan kafil o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslangan kelishuvning sabablari ahamiyat kasb etmaydi. Kafillik bo'yicha huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi uchun qarzdorning kreditori bilan kafil o'rtasida tuzilgan shartnomada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin kreditor uchun kafillik majburiyatini kim tomonidan o'z zimmasiga olishi va uning to'lov imkoniyatlari qanday holatda ekanligi ahamiyatsiz emas. Bu esa ishonchga sazovor bo'lmasligi shaxs bilan kafillik shartnomasini tuzishdan bosh tortish uchun asos bo'lishiga olib kelishi tabiiy.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan yana biri bu kafolat hisoblanadi. Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnama taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FK 299-m.).

FK 22-bob 5-paragrafi "Kafolat" deb nomланади. Ушбу параграфнинг 299-310-моддалари кafolat bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solgan.

Kafolatning xususiyatlaridan biri shundaki, bunda har doim kafil sifatida bank, boshqa kredit muassasasi yoxud sug‘urta tashkiloti kafil bo‘lib qatnashadi.

Ko‘p hollarda kafil prinsipalga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Shu sababli, kafil prinsipalning bankda saqlanayotgan pul mablag‘lari hisobidan uning kreditorlari oldidagi majburiyatni bajaradi.

Kafolatning asosiy mohiyati u prinsipalning benefitsiar oldidagi o‘z majburiyatini (asosiy majburiyatni) lozim darajada bajarilishini ta’minlaydi.

Kafolat haq baravariga tuziladi. Kafolat bergen bank (kredit muassasasi yoki sug‘urta tashkiloti)ga prinsipal tegishli miqdorda haq to‘laydi.

Kafolat bo‘yicha benefitsiarga tegishli bo‘lgan kafilga talab qo‘yish huquqi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa shaxsga o‘tkazilishi mumkin emas. Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kafil benefitsiarning talabini olganidan so‘ng bu haqda darhol prinsipalni xabardor qilishi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlar bilan topshirishi kerak.

Kafil benetsifiarning talabini unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga kafolatda ko‘rsatilgan muddatda ko‘rib chiqishi, muddat ko‘rsatilmaganda esa – mutanosib muddatda bu talab hamda unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun oqilona jonkuyarlik ko‘rsatishi kerak (FK 306-m.).

Kafilning kafolat bo‘yicha benefitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

- kafolat berilgan summa benefitsiarga to‘lanishi;
- kafolatda belgilangan muddat tamom bo‘lishi;
- benefitsiar kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berish oqibatida;
- benefitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo‘li bilan kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi oqibatida (FK 309-m.).

Kafilning prinsipaldan kafolat bo‘yicha benefitsiarga to‘langan summalarini regress tartibida to‘lashni talab qilish huquqi kafilning prinsipal bilan bajarish yuzasidan kafolat berilgan kelishuvida belgilab qo‘yiladi. Agar kafilning prinsipal bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kafil benefitsiarga kafolat shartlariga nomuvofiq tarzda yoki kafilning benefitsiar oldidagi majburiyatni

buzganligi uchun to‘langan summalarini qoplashni prinsipaldan talab qilishga haqli emas (FK 310-m.).

Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlovchi usullardan biri sifatida zakalat ham o‘ziga xos ba’zi xususiyatlarga ega.

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta’minlash yuzasidan beradigan pul summasi zakalat deb ataladi.

FK 311-moddasiga asosan, zakalat to‘g‘risidagi kelishuv zakalatning summasidan qat’i nazar yozma ravishda tuzilishi kerak.

Zakalat asosan quyidagi 3 ta vazifani bajaradi:

*birinchidan*, berilgan zakalat summasi shartnomaning haqiqatdan ham tuzilganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi;

*ikkinchidan*, zakalat – shartnoma bo‘yicha avvaldan to‘lanadigan pul summasi bo‘lib, tegishli to‘lovlari hisobiga muayyan summani to‘lagan taraf shartnomani qisman ijro etgan hisoblanadi. Zakalat oluvchi taraf uchun bu hol muayyan ahamiyatga ega. Chunonchi, biror-bir uy-joy ijaraga berilishidan avval uy-joy egasi turar-joyni yashash uchun yaroqli holga keltirish maqsadida ta’mirlaydi va hokazo.

*uchinchidan*, zakalat shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning ijrosini ta’minlash uchun belgilanadi. Zakalatning mazkur vazifasi shundan iboratki, zakalat bergan taraf shartnoma yuzasidan olgan o‘z majburiyatlarini bajarmaganida bergan zakalat summasini yo‘qotadi.

Agar zakalat bergan taraf shartnoma tuzishdan voz kechsa, bu holda u bergan zakalat summasini qaytarib berilishini talab qila olmaydi. Agar zakalat olgan taraf o‘z majburiyatlarini bajarmasa, u ikkinchi tarafga zakalat summasining ikki barobarini to‘lashga majbur bo‘ladi.

Agar zakalat summasi zarar summasidan bir muncha ko‘p bo‘lsa, u holda faqat zakalat undiriladi. Agar majburiyatni bajarmaslik natijasida ko‘rilgan zarar zakalat summasidan ko‘p bo‘lsa, u holda ham zakalat summasi, ham zararlarni qoplash uchun yetishmagan summa undiriladi.

Zakalat majburiatlarning bajarilishini ta’minlash usuli sifatida jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, fuqarolar o‘rtasida oldi-sotdi, ijara kabi shartnomalarni tuzishdan oldin, keljakda shu shartnomani tuzishning garovi sifatida sotib oluvchi yoki ijaraga oluvchi tomonidan sotuvchi yoki ijaraga beruvchiga yozma shaklda zakalat summasi berilishi mumkin.

Zakalat summasidan qat’iy nazar yozma shaklda tuzilishi kerak. Fuqarolar o‘rtasida oddiy yozma shaklda tuziladigan zakalatga nisbatan bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi shartlarga amal qilish ham mumkin.

## **6-§. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari**

Qarzdor tomonidan majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Buning uchun umumiy qoida sifatida faqat muayyan shartlar mavjud bo‘lganda qarzdor, ya’ni majburiyatni buzgan shaxs mulkiy javobgarlikka tortiladi.

Fuqarolik huquqida majburiyatni buzganlik uchun qarzdor yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun to‘rtta shartning bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ular, birinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik; ikkinchidan, zarar yetkazilishi; uchinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar o‘rtasida sababli bog‘lanishning bo‘lishi va to‘rtinchidan, qarzdor yoki ziyon yetkazuvchining muqarrar aybi bo‘lishi shartlaridir.

Agar kreditorning talabi zararni undirishga qaratilgan bo‘lsa, u holda albatta quyidagi shartlar: zararning mavjudligi, qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi, kreditorning ko‘rgan zarari o‘rtasida sababli bog‘lanishlar bo‘lishi va nihoyat, qarzdorning aybi bo‘lishi talab etiladi. Agar kreditorning talabi faqat neustoyka, penya yoki jarima undirishga qaratilgan bo‘lsa, qarzdor faqat aybi bo‘lganda mulkiy javobgarlikka tortiladi.

Qarzdorga nisbatan mulkiy javobgarlikni belgilashdan oldin, ya’ni kreditorga yetkazilgan zarar undirilishidan oldin sud har bir aniq holatda, mazkur zararlar qarzdorning o‘z majburiyatini buzishidan yuzaga kelgan-kelmaganligini aniqlashi, ya’ni qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning zararlari o‘rtasida sababiy bog‘lanish bor yoki yo‘qligini aniqlashi lozim. Masalan, temir yo‘l transporti korxonasi yuk oluvchiga zararlangan yukni yetkazib bersa, sud kreditorga bunday zararni kim yetkazganligini, ya’ni mahsulot yuboruvchi tashkilot yoki temir yo‘l korxonasi tomonidan yetkazilanligini, mazkur zarar sifatsiz tovar yuboruvchi tashkilotning aybi yoki huquqqa xilof harakati bilan sodir bo‘lganligini yoki tashish uchun qabul qilingan yukning yo‘lda saqlanishini ta’milamagan temir yo‘l korxonasining huquqqa xilof harakati natijasida yuzaga kelgan (kelmagan)ligini aniqlashi lozim. Qonunga binoan qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shart (FK 324-m.). Bundan ham shartnomaga bilan belgilanadigan majburiyat munosabatlarida sababli bog‘lanish muammosini hal qilish zarurati kelib chiqadi.

Fuqarolik huquqida sababiy bog‘lanish masalasini tahlil qilishda barcha mualliflar yakdillik bilan quyidagi ilmiy qoidalarga asoslanadilar:

*birinchidan*, tabiat va jamiyatda har bir hodisa atrofdagi boshqa hodisalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelishini ko‘rish mumkin. Har bir holatning kelib chiqishi atrofdagi hodisalar bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bir hodisaning kelib chiqishiga ikkinchisi aloqador bo‘lishi, shu bilan birga, shu hodisa boshqa hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

*ikkinchidan*, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik – sababiy hodisalar o‘rtasidagi mavjud obyektiv aloqadorlikdan tashkil topadi. Bunday aloqadorlik kishilar tomonidan o‘rganilib, amaliyotda tekshiriladi.

Shularga asosan sud sababiy aloqadorlikka oid masalani hal qilishda mazkur natijaning, ya’ni kreditorga nisbatan, yuzaga kelishida qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi sodir bo‘lgan boshqa holatlar o‘rtasida qanday rol o‘ynaganligiga e’tibor berishi, o‘zining mulohazasida mazkur hodisaga, subyektiv ravishda mavjud qonuniyatlarga amal qilishi, har bir muayyan ishni hal qilishda barcha muhim holatlarni ajratib olishi lozim.

Agar kreditorga yetkazilgan zararning qarzdor tomonidan huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligi oqibatida yuzaga kelganligi ma’lum bo‘lsa, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy aloqadorlik bo‘lsa, u holda masalaning hal etilishi qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Masalan, mebel fabrikasiga qarashli yukni kirakash avtopark mashinasida tashish vaqtida yong‘in chiqib, fabrikaga mulkiy zarar yetkaziladi. Mazkur nizoning iqtisodiy sudda ko‘rilishida avtopark yong‘inda aybi yo‘qligini isbotlay olmaydi. Shu sababli, yong‘in natijasida ko‘rilgan zararni to‘lashga avtopark majbur qilinadi. Mazkur vaziyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy aloqadorlik mavjudligini ko‘ramiz. Chunki, avtopark yo‘lga nosoz mashina chiqarganligi va shu bilan uning harakati natijasi beparvolikning bo‘lishi muayyan zararli oqibat yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Qarzdor o‘z harakatlari muayyan zararli oqibatlarning bo‘lishiga sababchi ekanligi yoki emasligini belgilash uchun sud holatning sababiy aloqadorlikka ta’siri bor yoki yo‘qligini belgilashi kerak. Jumladan, dalil to‘plash uchun ekspertiza tayinlanishi, masalan, yuk tashishdan kelib chiqadigan da‘volar bo‘yicha tovarni tekshirish ekspertizasini tayinlash yoki bajarilgan ishlarning sifati to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha texnikaviy ekspertizalar tayinlashga to‘g‘ri keladi.

Qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan sodir bo‘lgan natija o‘rtasidagi sababiy aloqadorlik qarzdorning majburiyatni

butunlay yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikka tortilishiga obyektiv asos bo'ladi. Shu bilan birga, qonun javobgarlikning subyektiv asosini ham, ya'ni qarzdorning aybini ham nazarda tutadi.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini belgilaydigan shart sifatida ko'rildigan ayb qonunda nazarda tutilgan. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 333-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor aybi bo'lган taqdirda majburiyatni bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi.

Agar majburiyat har ikki tarafning aybi bilan bajarilmagan bo'lsa, u holda sud yoki iqtisodiy sud qarzdorning javobgarligini tegishinchamaytiradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, olingen majburiyatning tashkilotlar va fuqarolar tomonidan lozim darajada bajarilishi uchun barcha moddiy shart-sharoitlar mavjud. Shu sababli, qarzdordan faqatgina o'z ijodiy qobiliyati va irodasini muayyan darajada kuchaytirish talab etiladi.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish, ularni bajarishda vujudga kelishi mumkin bo'lган qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun har ikki taraf - qarzdor va kreditorning ham ma'lum darajada tashabbus ko'rsatishi, o'z vazifasiga e'tiborli bo'lishi hamda faol harakat qilishi zarur.

Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan ayb, deb shaxsning majburiyatini bajarishga talab darajasida munosabatda bo'lmanligi, qonun va axloq talablariga rioya qilmaganligi va natijada majburiyat to'liq bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tushuniladi.

Fuqarolik huquqida ayb qasd yoki ehtiyoitsizlik (beparvolik) shaklida ko'riliши va ifodalanishi mumkin.

Qasd shaklidagi aybda shaxs majburiyatni ongli ravishda, atayin bajarmaydi yoki lozim darajada bajarmaydi.

Fuqarolik muomalasida majburiyatni bajarishga nisbatan bunday munosabatda bo'lish faqat ayrim hollarda istisno sifatida uchraydi. Qolgan hollarda yuridik shaxs va fuqarolar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishga vijdanan munosabatda bo'ladilar.

Majburiyatlarning ayrim turlari bo'yicha qasd shaklidagi ayb qonunlarda bevosita nazarda tutiladi. Subyektlar tomonidan majburiyatlarning qasddan bajarilmasligi ularning fuqarolik-huquqiy yoki mulkiy javobgarlikka tortilishiga, ba'zi hollarda esa mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Beparvolik shaklidagi ayb shu bilan ta'riflanadiki, bunda qarzdor majburiyatni bajarishga intilmaydi (harakat qilmaydi) barcha kuch yoki qobiliyatini yetarli darajada safarbar qilmaydi hamda ishni bajarishda sovuqqonlik va e'tiborsizlikka yo'l qo'yadi. Beparvolik shaklidagi ayb to'g'risida Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida so'z yuritiladi.

Fuqarolik kodeksida qo'pol ehtiyotsizlik, oddiy ehtiyotsizlik va oddiy beparvolikdan farq qiladi. Qonun ba'zi hollarda qarzdorga nisbatan javobgarlik belgilash uchun oddiy ehtiyotsizlik (beparvolik) emas, balki qo'pol ehtiyotsizlik bo'lishini shart qilib qo'yadi.

Qo'pol ehtiyotsizlik mavjud bo'lganda qarzdor xatti-harakatidagi e'tiborsizlik oddiy ehtiyotsizlikka nisbatan birmuncha qo'pol bo'lib ko'rinadi yoki turmush va ishbilarmonlik nuqtai nazaridan qarasak, bunday qo'pol ehtiyotsizlikka nisbatan qattiqroq javobgarlik belgilanishi yoki jazo berilishi talab etiladi.

Qarzdor qo'pol ehtiyotsizlikka yo'l qo'yganda fuqarolik muomalasida bo'lgan talablarga atayin e'tiborsizlik bilan qaragan bo'ladi. Masalan, qarzdor tomonidan omonatga olingan ashylar havo bulut bo'lgan vaqtda ochiq joyda qoldirilib, yomg'ir ta'sirida zararlansa, bu hol qo'pol ehtiyotsizlikka yo'l qo'yilganligini aks ettiradi. Shuningdek, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 21-moddasi beshinchı qismida: "Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-harakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bunda ichki ishlar organi xodimi har qanday zararning imkon qadar kam bo'lishiga intilishi shart" ekanligi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik huquqi fanida ehtiyotsizlik shaklidagi ayb sodir qilinganligini belgilash birmuncha murakkab ko'rinadi. Majburiyatni bajarishga qaratilgan munosabatlarga baho berishda qarzdorning individual xususiyatlariga ham e'tiborni qaratish kerak. Chunonchi, fuqaroning aqliy yoki jismoniy tomonidan yetarli darajada kamolotga yetmaganligi, aniqlansa, bunday shaxsga nisbatan mulkiy javobgarlik belgilanmasligi masalasi qo'yiladi. Ba'zi hollarda esa har bir shaxs yoki muayyan yuridik shaxs xizmatchisi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan g'amxo'rlik choralarining ko'rilmaganligiga qarab baho berish masalasi vujudga keladi.

Shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlarni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qarzdorga mulkiy javobgarlikni yuklash to'g'risidagi masalani hal qilishda uning tajribasizligi, ma'lum bir ishlarni bajarishga qobiliyatsiz ekanligiga qarab muayyan chekinishlarga yo'l qo'yish noto'g'ri bo'ladi.

Sudlar fuqarolik huquqiy xarakteridagi nizolarni hal qilishda yuridik shaxslarning aybi to‘g‘risidagi masalani tekshirishi va tahlil qilishiga to‘g‘ri keladi. Yuridik shaxsning aybi bo‘lish-bo‘lmasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rishda sud korxona, muassasa yoki tashkilotning mazkur sharoitda majburiyatni bajarish uchun barcha kuch va tashabbusini ko‘rsatgan (ko‘rsatmagan)ligi, buning uchun bozor iqtisodiyotida talab qilinadigan barcha imkoniyatlardan foydalangan (foydalanmagan)ligini e’tiborga olishi taqozo etiladi.

Agar yuridik shaxs majburiyatni bajarish uchun barcha zarur choralarni ko‘rgan bo‘lsa, biroq majburiyatni to‘liq yoki qisman bajara olmasa, javobgarlik belgilash uchun talab etilgan subyektiv asos – ayb bo‘lmanligi sababli bunday tashkilot mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Majburiyatni bajarmaslik aybi yuridik shaxs – mazkur tashkilot organlari vakillari hisoblangan va o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilgan ayrim shaxslarning aybi bilan ko‘riladi. Tashkilotlarning aybi – ular tomonidan berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi vakillarining, muayyan xizmat vazifalarini bajaruvchi ishchi-xizmatchilarining aybi bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslarning aybi – tashkilot vakilining yuridik harakatlarida, masalan, ishni noto‘g‘ri tashkil qilish yoki uning malakasi yetarli emasligi tufayli sifatsiz mahsulotlar tayyorlanishi hollarida ham ko‘rilishi mumkin.

Yuridik shaxslarga mulkiy javobgarlik yuklashda, sud ularning ayrim vakillari, jumladan, korxona direktori, jamoa xo‘jaligi rahbarlari, ishchi-xizmatchilar; tadbirkorlik tashkilotlarining a’zolari va boshqa ayrim shaxslarning aybi emas, balki yuridik shaxsning aynan o‘zi, ya’ni davlat korxonasi, muassasasi va shu kabi tashkilotlarning aybiga oid masala qo‘yiladi va ko‘rib chiqiladi. Sud va iqtisodiy sud amaliyotida ham xuddi shunday fikrlar quvvatlab kelinmoqda.

Yuridik shaxs shartnoma bo‘yicha olingan majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mulkiy jarimani (sanksiya) to‘laganidan so‘ng to‘langan summani regress huquqi tartibida majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybli bo‘lgan xodimlardan to‘la hajmda yoki qisman undirib olishi mumkin. Bunday hollarda muayyan ishchi-xizmatchining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ishchi-xizmatchilarining javobgarligi nafaqat fuqarolik huquqi normalari bilan, balki mehnat huquqi, ma’muriy huquq va ba’zi hollarda, jinoyat huquqi normalari bilan ham tartibga solinishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi MK 202-moddasining birinchi qismi 6-bandiga asosan xodim korxona (muassasa, tashkilot)

tijorat sirlarini oshkor etganligi uchun to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi va buning natijasida yetkazilgan zararni to‘lashi lozim.

Fuqarolik ishlarini hal qilishda sudlar shartnoma intizomining qo‘pol tarzda buzilishiga aybdor shaxslarni shaxsiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani tegishli tashkilotlar oldiga qo‘yadi.

Kreditor qarzdorning harakati yoki harakatsizligining huquqqa xilofligini, ya’ni u tomondan majburiyatning bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi faktini va qarzdorning aybi natijasida zarar ko‘rganligini isbotlashi lozim. Qarzdor esa javobgarlikdan ozod bo‘lishi uchun o‘z harakatida ayb yo‘qligini isbotlashi, ya’ni majburiyatni lozim darajada bajarish uchun barcha zarur choralarni ko‘rganligini tasdiqlaydigan faktlarni keltirishi darkor.

Qarzdorni aybli deb topishni qonun barcha holatlarni e’tiborga olib belgilaydi. Biroq majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa-da, uning bajarilmaganligi qarzdorning aybli harakati natijasi hisoblanadi.

Qarzdorning yetkazilgan zararni to‘lash majburiyati. Fuqarolik kodeksining 324-moddasida qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shartligi normalangan.

Qarzdorning majburiyatni ijro etmasligi natijasida vujudga kelgan va to‘lanishi lozim bo‘lgan xarajatlar bu, kreditorning mazkur majburiyat yuzasidan qilgan xarajatlari va qarzdorning o‘z vazifasini bajarmaganligi bilan bog‘liq xarajatlardir. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan mahsulotning belgilangan muddatda yetkazilmaganligi sababli korxonaning ishsiz qolgan vaqtida yo‘qotilgan xarajatlar to‘lanishi lozim.

Majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mulk shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda kreditor mulkni qarzdorga qaytarish yoki mulk uchun to‘langan pul summalarining o‘ziga qaytarilishini talab qilishga haqli.

Kreditor qarzdorning o‘z vazifasini bajarmaganligi tufayli yo‘qotgan mulkining qiymatini yoki mulkning zararlanishi natijasida uning qiymati kamayishidan kelib chiqqan summaning to‘lanishini talab qilishi mumkin. Ma’lumki, bozor munosabatlari sharoitida erkin narx amal qiladi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, ba’zi hollarda majburiyat vujudga kelgan paytdagi narx bilan zararni undirish vaqtidagi narxlar o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Qonunda ushbu holatlar ham ko‘zda tutiladi. Unga ko‘ra, agar qonunchilikda yoki shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo‘lgan

joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo‘lmasa, - da’vo qo‘zg‘atilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlar e’tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to‘lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlarni e’tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin (FK 324-m. 2-q.).

Kreditor tomonidan olinmagan va to‘lanishini qarzdordan talab qilishga haqli daromadlar deganda, qarzdor o‘z majburiyatini lozim darajada bajarganida, kreditorning olishi mumkin bo‘lgan daromadlari tushuniladi. Bu, ayniqsa, pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga asosan boshqa shaxslarning pul mablag‘larini g‘ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to‘lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg‘arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag‘lar summasiga foiz to‘lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo‘lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo‘lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida sud kreditorning talabini da’vo qo‘zg‘atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilangan bo‘lmasa qo‘llaniladi.

Kreditorning pul mablag‘laridan noqonuniy foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga asosan unga tegishi kerak bo‘lgan foizlar summasidan oshib ketsa, kreditor qarzdordan zararning bu summadan ortiqcha bo‘lgan qismini to‘lashni talab qilishga haqli.

Zarar ko‘rilganligini va ushbu zarar qarzdorning majburiyatini bajarmasligidan kelib chiqqanligini isbotlash, shuningdek, zararning miqdorini hisoblab ko‘rsatish vazifasi zararning undirilishiga talabgor bo‘lgan kreditorga yuklatiladi.

Fuqarolik kodeksining 332-moddasida majburiyatlarning ayrim turlari bo‘yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qonunda zararni to‘la qoplashga bo‘lgan huquq cheklab qo‘yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik). Bu normada cheklangan javobgarlikning huquqiy shakllari ko‘rsatilmagan bo‘lib, u alohida hollarda va maxsus qonunlarda nazarda tutiladi. Chunonchi, qarzdorning harakatida har qanday ayb emas, faqat qasd yoki qo‘pol ehtiyotsizlik bilan bog‘liq ayb bo‘lganida javobgarlikning cheklanishi belgilanadi.

Qonun ba’zi hollarda zararni to‘lagan qarzdorga nisbatan majburiyatni asl holida bajarish vazifasini ham belgilaydi.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda neustoyka to‘lash va zararni qoplash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi (FK 330-m.).

Fuqarolik kodeksining 333-moddasi fuqarolik qonunchiligining asosiy tamoyillaridan birini, ya’ni qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan istisnolardan tashqari, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik belgilashda uning harakatlarida huquqni buzuvchi aybning bo‘lishi tamoyilini belgilaydi. Shartnomali, shuningdek, shartnomasiz majburiyatlarda ham, zarar yetkazuvchining aybi deganda, huquqqa xilof harakat qiluvchi shaxsning qasdi yoki ehtiyoitsizligi nazarda tutiladi. Ammo yuqorida ko‘rsatilgan qoida bilan belgilangan ayb qarzdorda bo‘lishi talab qilinadi. Binobarin, qarzdor o‘ziga qo‘yilgan aybni bartaraf qilishda majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini va o‘zining aybsizligini isbotlashi kerak.

Qarzdor tomonidan majburiyatning qasddan buzilishi hollari sud amaliyotida kamdan-kam bo‘lsa-da uchraydi. Tashkilot o‘zi tomonidan buyurtma qilingan mahsulotni qasddan qabul qilmaslik va soxta bankrot holatlari bunga misol bo‘ladi.

Qonunchilikda, Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan, umumiyligida qoidadan istisno tariqasida, qarzdorming ba’zi hollarda majburiyatlarni buzgani uchun javobgarligi aybning bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’i nazar belgilanadi. Bunda Fuqarolik kodeksining, birinchi navbatda, birovning aybi uchun javobgarlik belgilaydigan 334-moddasida ko‘rsatilgan holatlar nazarda tutiladi. Bunga majburiyatni o‘z aybi bilan emas, balki qarzdorga nisbatan olgan majburiyatlarini buzgan shaxslarning boshqa qarzdorlar aybi bilan buzilgan majburiyatlar uchun javobgarlik belgilashni misol qilish mumkin. Birovning aybi bilan bo‘lgan bunday javobgarlik mahsulot tayyorlovchi bilan birga mahsulot yetkazib berishga mas’ul tashkilotlarning aybli harakatlari natijasida majburiyat buzilganda, javobgarlik mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotlar zimmasiga tushishi holatlari sud amaliyotida uchrab turadi.

Ba’zi hollarda qonun biron-bir tarafning harakatida aybning bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, javobgarlikni belgilaydi. Bunday javobgarlikning belgilanishi, odatda, qarzdor harakatlarida aybning bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Ammo ba’zida qonun istisno tariqasida qarzdor tomonidan majburiyatlarning boshqa – uchinchi shaxsning aybli harakati natijasida bajarilmagani uchun ham javobgar bo‘lishini belgilaydi.

Fuqarolik kodeksining 334-moddasida ko'rsatilishicha, basharti, qonunchilik yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lган uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi.

Mazkur hollarda qarzdorning javobgarligini belgilashda quyidagi shartlar, jumladan: qarzdorga majburiyatni boshqa shaxslar bajarishi uchun muayyan qoidalar bilan yuklatilgan bo'lishi yoki bunday harakatlar ularning qarzdor bilan tuzgan shartnomasiga asosan bajarilgan bo'lishi; ma'muriy jihatdan bo'ysunishi tufayli bajarilgan bo'lishi; mazkur shaxslarning harakati aybli qasd yoki ehtiyoitsizlik shaklida ko'rilegan bo'lishi lozim.

Agar kreditor uchinchi shaxsning aybi bilan mahsulotni kechikib olsa, mahsulot yuboruvchi tashkilot, ya'ni mahsulot tayyorlovchining topshirig'i bo'yicha tovarni yuboruvchi uchinchi tashkilot emas, balki qarzdorning bevosita o'zi, ya'ni mahsulot tayyorlovchi tashkilot javobgar bo'ladi.

Majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, aybi bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, mulkiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holda mulkiy javobgarlikning belgilanishi xalq xo'jaligi manfaatlarini, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish maqsadidan kelib chiqadi. Masalan, avtovtransport yuk tashish yuzasidan olingan rejali majburiyatlarni bajarmaslik uchun har ikki tomon – yuk yuboruvchi hamda avtovtransport tashkiloti o'zlarining ayblari bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, mulkiy javobgarlikka tortiladilar.

Avtovtransport bilan yuk tashish to'g'risidagi maxsus qonunlarda yuk tashish rejasini bajarish yuzasidan olingan majburiyatlar bajarilmaganda avtovtransport tashkiloti va yuk tashuvchini javobgarlikdan ozod qiladigan holatlar ham ko'rsatiladi.

Qarzdor majburiyatni butunlay bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar bu holat uning aybisiz sodir bo'lgan yoki kreditorning aybi bilan bog'liq bo'lsa, umumiy qoida bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

Qarzdor tomonidan majburiyatning aniq bajarilishiga to'sqinlik qilgan yuqorida ko'rsatilgan yuridik faktlardan birining bo'lishi majburiyatni bajarishning iloji yo'qligini bildiradi.

Oddiy tasodifiy holat yuridik ma'noda, majburiyatning qarzdor tomonidan uning va kreditorning aybi bo'lmay turib bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi holatlari hisoblanadi. Bunday holatlар uchinchi shaxslarning, ya'ni boshqa shaxslarning harakatlari bilan bog'liq bo'lishi

ham mumkin. Masalan, begona bir shaxsning harakatlari natijasida qarzdor yo‘qligida oldi-sotdi sharhnomasi bo‘yicha kreditorga topshirilishi lozim bo‘lgan uygaga o‘t tushib, yonib ketishini misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Qonun bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda tadbirkorlar uchun muhim kafolatni ko‘zda tutadi. Fuqarolik kodeksining 333-modda uchinchi qismiga asosan basharti, qonunda yoki sharhnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmanligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch – zimmasida majburiyat bo‘lgan shaxsning ixtiyoridagi barcha vositalar bilan oldini olish, qaytarish mumkin bo‘lman favqulodda hodisa hisoblanadi. Yengib bo‘lmaydigan kuch oddiy tasodifiy hol kabi majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikda taraflarning aybi yo‘qligi va mazkur aniq holatlarda uni qaytarish mumkin bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, mazkur holat, odatdan tashqari, favqulodda yuzaga kelgan bo‘lishi kerak. Amalda bu holat tabiiy ofatlar, masalan, suv toshqini, zilzila, kuchli bo‘ron sifatida ko‘rsatiladi. Qonunda ba’zi hollarda “yengib bo‘lmaydigan kuch” iborasi “tabiiy holat” deb qo‘llaniladi.

Sud qarorlarida majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qarzdorni javobgarlikdan ozod qilishga asos bo‘ladigan tabiiy holatlar ko‘rsatilishi kamdan-kam uchraydi. Yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni zilzila, toshqin, yong‘in kabi tabiiy hodisalarini asos qilib, javobgarlikdan ozod qilish yoki qilmaslikda mazkur hodisalarning qanday sharoitda, joyda va vaqtida sodir bo‘lganligi e’tiborga olinadi. Sharhnomani yoki majburiyatni bajarishga to‘sinqil qilgan holat o‘ziga xos ichki xususiyatlariga ko‘ra yengib bo‘lmaydigan kuch sifatida ko‘rilmaydi, balki bir qator sharoitlar va muayyan holatlar yig‘indisi va kuchi ta’sirida mulkka zarar yetganligi isbotlanganda mulkiy javobgarlik bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim hollarda, yengib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida yetkazilgan zararning to‘lanishi ham fuqarolik qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Chunonchi, havo transportidan foydalanishda yo‘lovchilarning ko‘rgan barcha zararlari O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksiga muvofiq to‘lanadi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch tushunchasini aniqlash fuqaroviylar huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilish uchun zarur. Chunki

qarzdor tabiiy ofat tufayli yuzaga kelgan tasodifiy holat uchun aybdor bo‘lmanligi sababli, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Chunonchi, avtotransport orqali yuk jo‘natuvchi va yuk tashuvchi tashkilot yuk tashish rejasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni tasodifiy holatlar sababli bajarmaganda, javobgarlikka tortilsa-da, uning tabiiy hodisalar tufayli sodir bo‘lganligi isbotlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Yengib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida majburiyatni bajarmaganlik uchun qarzdorni javobgarlikdan ozod qilish huquqi agar qarzdor tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda sodir bo‘lsagina qo‘llaniladi. Binobarin, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lman majburiyatlarga nisbatan Fuqarolik kodeksi 333-moddasining uchinchi qismi qo‘llanilmaydi. Ta’kidlash joizki, qarzdor shartnoma bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq majburiyatni bajarmasligiga bozorda zarur tovarlarning yo‘qligi, qarzdorda zarur pul mablag‘larining bo‘lmanligi yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holati sifatida baholanmaydi va qarzdorni 333-moddaning uchinchi qismi bilan javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo‘lmaydi.

Kreditorning aybini aniqlash ham ahamiyatga ega. Qonunda aytilganidek, agar kreditor qasddan yoki ehtiyoitsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘masligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko‘payishiga ko‘maklashgan bo‘lsa, shuningdek, kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyoitsizlik tufayli ko‘rmagan bo‘lsa, sud ishning holatlariga qarab to‘lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to‘lashni batamom rad etishga haqli (FK 335-m.).

Mazkur qoidada majburiyatlar qarzdor hamda kreditorning xattiharakatlari tufayli bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bunday hollarda qarzdorning javobgarligi hajmi ham kamaytirilishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra, sud yoki javobgarlik yuklaydigan boshqa organ har ikki tarafning ayb darajasini belgilashi va qarzdorning javobgarligi miqdorini tegishlicha kamaytirishi, kreditor ko‘rgan zararlarni qisman to‘lashga majbur qilishi va kreditorga to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka summasini kamaytirishi lozim. Modomiki, majburiyatlarni bajarishda har ikki taraf o‘zining manfaatini ko‘zlab harakat qilar ekan, kreditor o‘z aybi bilan yetkazilgan zararning kamaytirish choralarini ko‘rmasa, o‘z majburiyatini bajarmagan deb hisoblanadi, uning bu aybi keyinchalik majburiyatni lozim darajada bajara olmagan qarzdorning javobgar bo‘lish darajasini belgilashda e’tiborga olinadi.

Majburiyatni bajarmaslikda har ikki taraf teng darajada aybli bo‘lsa, ko‘rilgan zarar taraflar o‘rtasida bab-baravar taqsimlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, qarzdor kreditor tomonidan ko‘rilgan zararning faqat yarmini to‘lashga majbur qilinadi. Zararning ikkinchi yarmi esa kreditorga to‘lanmaydi. Ammo bunday javobgarlik har doim ham bir xil bo‘lmaydi. Chunonchi, sud va iqtisodiy sud qarorlarida har ikki tarafning aybi taqqoslab ko‘rilib, to‘lanadigan zarar summasining birmuncha kamaytirilishi hollari uchraydi.

Ba’zida qarzdor majburiyatni bajarish uchun barcha choralarni ko‘rsada, kreditor o‘zining harakatsizligi va beparvoligi bilan majburiyatning bajarilishiga to‘sinqinlik qiladi. Bunda sud yoki iqtisodiy sud qarzdorni javobgarlikdan ozod qiladi.

Majburiyat ijrosining qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlari. Fuqarolik kodeksining 337–339-moddalari majburiyatning bajarilishi qarzdor yoki kreditor tomonidan kechiktirilgani uchun javobgarlik masalalarini tartibga soladigan qoidalarni ifodalaydi.

Ijroning qarzdor tomonidan kechiktirilishi deb uning majburiyatni belgilangan muddatda bajarmasligi tushuniladi.

Majburiyatning bajarilishini kechiktirgan qarzdor uning natijasida kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashga majbur bo‘ladi. Mazkur zararning to‘lanishi qarzdorni o‘z majburiyati asl holida bajarishidan ozod qilmaydi.

Kreditorning aybi bilan majburiyat ijro etilishining kechiktirilishi keyinchalik majburiyat ijro etilishining imkoniyati yo‘qligi sababli qarzdorning javobgarligini oshiradi.

Agar majburiyat ijrosi kechiktirilgan davrda mazkur majburiyatni qarzdorning aybidan qat’i nazar ijro etish mumkin bo‘lmasa ham, u o‘z aybi bilan majburiyatni ijro etmaganida qanday javobgarlikka tortiladigan bo‘lsa, unga nisbatan xuddi shunday javobgarlik belgilanadi. Bunda javobgarlik belgilash uchun qarzdorning ijroni kechiktirishi asos qilib olinadi. Chunki qarzdor sotilgan narsa yoki ijaraga berilgan ashyoni o‘z vaqtida topshirsa, ashyo tasodifan nobud bo‘lmagan edi, deb topiladi.

Agar majburiyatning bajarilishi qarzdor tomonidan kechiktirilganligi tufayli uning keyinchalik bajarilishiga zarurat qolmagan bo‘lsa, kreditor Fuqarolik kodeksi 337-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilganidek, ijroni qabul qilishdan bosh tortishi va zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

Kreditorning ijroni kechiktirishi ham muhim huquqiy oqibat tug‘diradi. Fuqarolik qonunchiligi yuqorida aytilganidek, majburiyatning bajarilishida ham qarzdor, ham kreditorning manfaatlari bir bo‘lishi zarurligini belgilaydi. Modomiki, taraflar majburiyatni bajarishda bir-

birlariga ko‘maklashishlari lozim ekan, kreditor o‘zining xatti-harakati bilan majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to‘sinqinlik qilmasligi, ijroni og‘irlashtirmasligi kerak.

Kreditorning ijroni kechiktirishi deganda, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to‘sinqinlik qilishi yoki ijroning qiyinlashtirilishiga qaratilgan harakati tushuniladi. Mazkur harakat oqibatida kreditor mulkiy javobgar bo‘lishi, ya’ni bunday harakatning mulkiy oqibati kreditorning zimmasiga qo‘yilishi kerak.

Kechiktirish oqibatlari FK 338-moddasida ko‘rsatilgan. Bu moddada kreditorning shartnoma bo‘yicha o‘ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi, qarzdorga kechiktirib yuborish tufayli yetkazilgan zararni undirib olish huquqini berishi va keyinchalik majburiyatni ijro etishning iloji bo‘lmasa, uni javobgarlikdan ozod qilishi, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo‘pol ehtiyotsizlik qilishi hollari bundan mustasno ekanligi, pul majburiyati bo‘yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foiz to‘lashga majbur emasligi ko‘rsatilgan.

Kreditorning ijroni kechiktirishi ikki turdagи harakatdan, ya’ni kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan lozim darajada bajarilganini qabul qilmasligidan va qarzdorning o‘z majburiyatini bajarishga qadar kreditor tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatning qilinmaganligidan iborat bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarni ba’zi misollar bilan tushuntirsa bo‘ladi. Chunonchi, agar mahsulot oluvchi mahsulot tayyor ekanligi to‘g‘risida xabardor qilingan bo‘lsa-yu, biroq uni belgilangan muddatda olib ketmasa, qasddan majburiyatni kechiktirishga yo‘l qo‘ygan hisoblanadi.

Kreditor o‘ziga yuklatilgan harakatlarni bajarmaganligi natijasida qarzdor majburiyatni ijro eta olmasa, u holda kreditor ijroni kechiktirgan hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha mahsulot sotib oluvchiga taqsimotga muvofiq bevosita yuborilmay, shartnomada qatnashmagan boshqa tashkilotga jo‘natilgan taqdirda mahsulotning taqsimot bo‘yicha belgilangan muddatda berilmasligi kreditorning ijroni kechiktirishini anglatadi. Boshqa bir misol: kapital qurilishga oid pudrat shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi pudrat shartnomalari to‘g‘risidagi qoidaga ko‘ra o‘z zimmasidagi harakatlarni bajarmaganda ham kreditorning aybi namoyon bo‘ladi (misol, qurilish materiallarini yetkazib bermasligi).

Kreditor majburiyatni kechiktirishda o‘z aybi yoki o‘ziga qarashli shaxslarning aybi yo‘qligini isbotlay olmasa, majburiyatning kechiktirishi natijasida qarzdorga yetkazilgan ziyonni to‘lashga majbur.

Shu sababli, belgilangan muddatda olib ketilmagan mahsulotlarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lashi shart. Odatda, bunday hollarda neustoyka (penya, jarima) undiriladi.

Kreditorning ijroni kechiktirishiga doir masala ko‘pincha majburiyatning bajarilmaganligida aybdor bo‘lgan qarzdorning javobgarligi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atilganda ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda kreditorning aybi e’tiborga olinib, qarzdorning javobgarlik darajasi birmuncha kamaytirilishi mumkin.

Majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida uning bergan tilxat yoki hujjatini kreditor qarzdorga qaytarib berishdan bosh tortganda ham kreditor ijroni kechiktirgan hisoblanadi.

Yuqorida aytiganidek, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida unga ko‘maklashishga majbur. Agar u mazkur majburiyatni bajarmasa, buning oqibatlari uchun ham javobgar bo‘ladi. Kreditorning majburiyatni kechiktirish oqibatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

birinchidan, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to‘latish, masalan, qarzdor majburiyatni bajarish yuzasidan kerakli mahsulotni o‘z vaqtida yetkazgan bo‘lsa-yu, kreditor bo‘sh ombor yo‘qligini bahona qilib, mahsulotni qabul qilishdan bosh tortsa, qarzdor mahsulotning tashish va saqlash bilan bog‘liq ortiqcha xarajatlar (zarar)ni kreditordan undirishga haqli. Bu holda kreditor ushbu kechiktirishni ataylab yoki ehtiyyotsizlik bilan bog‘liq bo‘lmaganligini yoxud bunday kechiktirish qonun yoki kreditorning topshirig‘i bilan majburiyatni bajarishni o‘z zimmasiga olgan boshqa shaxslarning qasddan yoki ehtiyyotsizligi oqibatida kelib chiqmaganligini isbotlasa, qarzdorning ko‘rgan zararlarini to‘lashdan ozod qilinadi;

ikkinchidan, kreditorning ijroni kechiktirish vaqtি uchun qarzdor pul majburiyatları bo‘yicha foizlar to‘lamaydi;

uchinchidan, agar kreditor qarzdorga uning bergan tilxati yoki boshqa qarz hujjatini qaytarishdan yoxud tilxatda qarz hujjatining nima uchun qaytarilishi mumkin emasligini ko‘rsatishdan bosh tortsa, qarzdor ijroni to‘xtatishga haqli.

Qarzdordan majburiyatning aniq bajarilishini ayrim sharoit va asoslarga ko‘ra talab qilib bo‘lmaydi. Mazkur asoslarga misol qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) majburiyatni aniq bajarishning iloji yo‘qligi, ya’ni majburiyat predmeti (narsasi) xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyo bo‘lib, uni aslicha topshirish mumkin bo‘lmagan holatlarning mavjudligi yoki biron-

bir holatning sodir bo‘lishi sababli qarzdor majburiyatini ma’lum bir joyda bajara olmasligi va hokazo;

2) majburiyatning huquqiy jihatdan bajarilishi mumkin bo‘lmasligi, ya’ni ba’zi hollarda, majburiyat vujudga kelgandan so‘ng normativ hujjat va qonunlarga xilof keladigan bo‘lsa, mazkur majburiyat bajarilmasligi mumkin;

3) ba’zi hollarda majburiyatning aniq bajarilishi nihoyatda qiyin bo‘lishi mumkin. Bunga misol qilib, shartnomalar bo‘yicha biron-bir majburiyatni shaxsan bajarishga majbur qarzdorning qattiq kasal bo‘lib qolishini ko‘rsatish mumkin.

Majburiyatning bajarilishi mumkin bo‘lmasligi qarzdorni kreditor oldida javobgarlikdan ozod qilmaydi. Qarzdor faqat majburiyatning bajarilishi mumkin bo‘lmasligida aybi yo‘qligini isbot qilsa, javobgarlikdan ozod bo‘ladi. Masalan, xususiy alomatlar bilan belgilangan ashyolar ijara oluvchining qo‘lida bo‘lgan vaqtda, qarzdorning ishtirokidan tashqari nobud bo‘lsa, qarzdor kreditorga yetkazilgan ziyon yoki jarimani to‘lashdan ozod bo‘ladi. Agar qarzdor mazkur ashyolarga beparvolik bilan, ehtiyyotsiz muomalada bo‘lganligi tufayli ashyolar nobud bo‘lsa, kreditorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda majburiyat huquqi, majburiyatlarning bajarilishini ta’minalash usullari va majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalar fuqarolik huquqining muhim institutlari hisoblanadi va bu normalarni amalga tatbiq etish jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

## **7-§. Ichki ishlar organlari majburiyat munosabatlarining tarafi sifatida**

Ma’lumki, majburiyat taraflari bo‘lib fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari, ya’ni fuqarolar (jismoniy shaxslar), yuridik shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qatnashishi mumkin. Qonunchilik talabidan kelib chiqib, IIO majburiyat munosabatlarining tarifi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Zero, Yustinian institutlarida ta’kidlanganidek, “majburiyat – bu qonuniy bog‘lanish, bu orqali biz davlatimiz qonunlariga binoan biror narsa qilishga majbur bo‘lamiz”.

Yuqorida “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 21-modda beshinchi qismida: “Jismoniy kuch ishlatalishi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-

harakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunda ichki ishlar organi xodimi har qanday zararning imkon qadar kam bo‘lishiga intilishi shart” ekani eslatildi.

Mazkur Qonunning 46-moddasi “Ichki ishlar organlari xodimlarining javobgarligi” deb nomlangan. Unga ko‘ra, ichki ishlar organi xodimining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi tufayli jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni IIO tomonidan budgetdan tashqari jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanadi, ushbu summa keyinchalik aybdor shaxsdan undirib olinadi. Mazkur qonun talabiga ko‘ra, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni tezkorlik bilan qoplash maqsadida zarar IIO tomonidan, ya’ni yuridik shaxs tomonidan qoplanishi nazarda tutilgan va bu zarar xodimdan regres tartibda undirib olinishi belgilangan.

**SHARTNOMA HAQIDA UMUMIY QOIDALAR. OLDI-SOTDI,  
AYIRBOSHLASH, HADYA SHARTNOMALARI. ICHKI ISHLAR  
ORGANLARI FAOLIYATIDA SHARTNOMAVIY  
MUNOSABATLAR**

**1-§. Shartnoma tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati**

*Shartnoma deb*, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o‘zaro kelishuvlariga aytildi.

**“Shartnoma” atamasi uch ma’noda:** yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar to‘g‘risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) nima to‘g‘risida o‘zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma’nosida ishlataladi. Bu yerda u o‘zining birinchi ma’nosи — yuridik fakt sifatida ko‘riladi va o‘rganiladi.

**Yuridik fakt** tushunchasi “Fuqarolik huquqiy munosabat” mavzusida berilgan edi. Bunda yuridik faktlar mazmuni jihatidan ikki asosiy toifaga: yuridik hodisalar va harakatlarga bo‘lingan edi. Yuridik harakatlar o‘z navbatida *huquq yo‘l qo‘ygan* va *huquq yo‘l qo‘ymagan* harakatlarga bo‘linib, huquq yo‘l qo‘ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) ko‘rsatilgan edi. Ikki tomonlama bitimlarning hammasi (olish-sotish, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Bir tomonlama bitim, masalan, vasiyatnoma shartnoma bo‘la olmaydi. Bino-barin, har qanday shartnomani bitim deyilsa ham, ammo har qanday bitimni shartnoma deb atab bo‘lmaydi. Demak, ***shartnoma bitimning bir ko‘rinishi hisoblanar*** ekan, unga nisbatan bitimga oid barcha qonunlar, jumladan, FK 9-bobidagi qoidalar tatbiq etiladi. Shu bilan birga shartnoma o‘ziga taalluqli bo‘lgan boshqa maxsus me’yorlar bilan, masalan, kapital qurilishga oid qudrat shartnomasi bu to‘g‘ridagi maxsus qoidalar bilan ham tartibga solinadi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar qonunlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, FKda belgilangan majburiyatlar haqidagi umumiy qoidalar (FK 234-252-m.) qo‘llaniladi.

Ikkitadan ortiq taraflar tuzadigan shartnomalarga bunday shartnomalarning ko‘p taraflamalik xususiyatiga zid bo‘lmasa, shartnoma to‘g‘risidagi umumiy qoidalar ko‘llaniladi

**Shartnoma** huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi. Agar boshqa yuridik faktlar umumiyligida bo‘yicha huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bilan tugallansa, shartnoma mazkur yuridik faktlardan farq qilib, huquqiy munosabatni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishdan tashqari yana huquq me’yorlari bilan belgilangan doiralarda huquqni munosabatda qatnashuvchilarining xatti-harakatlarini tartibga soladi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi.

Shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma taraflarning xatti-harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo‘lgan – bo‘lmaganligini ham tekshirish imkoniyatini beradi.

Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, **asosiy shart** – taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o‘zaro kelishuvlaridir. Taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo‘yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo‘lsa xam, ular oqibatda yagona huquqiy natija beradi. Masalan, biron-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o‘tkaziladi yoki biron-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va h.k.

Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o‘z oldilariga qo‘yilgan asosiy maqsaddan ajratish kerak. Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi va shart qilingan nav va markali po‘latni yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzadi. Bu yerda taraflar o‘zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma’lum miqdorda po‘lat yetkazib berish hisoblanadi. Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiyligida bo‘lib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko‘rsatkichlarini bajarishdan iborat bo‘ladi. Binobarin, har ikki taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o‘zlarining burchlari deb biladilar.

**Fuqarolik-huquqiy shartnoma**, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba’zi hollarda shartnoma mulkiy huquqlar va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san’at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinosenariyalar va boshqa shartnomalar uchun xarakterlidir.

Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarinigina, chunonchi, mualliflik haqi to‘g‘risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarlik belgilamay, balki nomulkiy

huquqlarni ham. Masalan, muallif o‘z asarining nomini ko‘rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asari matniga o‘zgartish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

**Shartnomaning mazmuni.** Shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlari) tashkil etadi. FK 364-moddasiga muvofiq, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

## **2-§. Shartnomaning shakli, turlari va tuzish bosqichlari**

*Shartnomaning shakli.* Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga binoan agar qonunda muayyan turdag'i shartnomalar uchun ma'lum bir shakl belgilab qo'yilgan bo'lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa – shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo'lsalar, garchi qonunda bu turdag'i shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo'lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin.

Agar shartnoma tuzish haqidagi yozma taklif ushbu Kodeks 370-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan tartibda olingan bo'lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

**Shartnomalarning turlari.** Fuqarolik huquqi fanida o'rganiladigan shartnomalar o'z xususiyatlariiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama va ikki tomonlamaga bo'linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda

esa, faqat majburiyat bo‘ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o‘z vaqtida qarz beruvchiga qaytarishga majbur bo‘lsa, qarz beruvchi qarzga bergan pul summasini talab qilish huquqiga ega. Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham huquqqa, ham majburiyatga ega bo‘ladi. Bunday shartnomaga olish-sotish shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnomada bo‘yicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo‘lib, sotilgan ashyni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa – olayotgan ashyoning bahosini to‘lashi zarur bo‘lib, sotib olingan ashyni talab qilib olishga haqli.

Fuqarolik oborotida tuziladigan shartnomalarning ko‘pchiligi ikki tomonlama bo‘lib, yuqorida ko‘rsatilgan olish-sotish shartnomasidan tashqari mahsulot yetkazib berish, mulk ijarasi, pudrat va boshqa shartnomalardan iborat.

2. Shartnomalar haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo‘linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalarda bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan haq oladi. Masalan, bir taraf vaktincha foydalanish uchun mulkni ijaraga oluvchi undan foydalangani uchun ijara haqi to‘lashga majbur bo‘ladi. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa shartnomalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Agar qonun hujjatlaridan boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnomaning mazmuni mohiyatidan o‘zgacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay biron-bir mulkini topshirishi, biron ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo‘yicha mulk egasi o‘z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Mulkdan bepul foydalanish, foizsiz qarz shartnomalari ham bepul tuziladigan shartnomalar guruhiga kiradi.

3. Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab konsensual va real shartnomalarga bo‘linadi.

Konsensual shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar taraflarining kelishganlari va shartnomani qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti paydo bo‘ladi. “Konsensual” so‘zi lotincha “konsensus” so‘zidan olingan bo‘lib, “kelishuv” ma’nosini bildnradi. Konsensual shartnomaga misol qilib olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, - pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

Real shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlarning paydo bo‘lishi taraflar o‘zaro kelishgan, shartnomani rasmiylashtirgan bo‘lishidan tashqari shartnoma narsasi: ashyo yoki pulning topshirilishi talab qilinadi.

“Real” so‘zi – lotincha “ryes” so‘zidan olingan bo‘lib, “ashyo” ma’nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, mulkdan bepul foydalanish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin.

*Shartnoma tuzish.* Shartnomaning tuzilishi FK 364-moddasiga ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi *ikki davr bilan* belgilanadi. Birinchi davr – shartnoma tuzishga taklif qilish davri, bunga *oferta*, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, *oferten*, deb ataladi.

Ikkinci davr – shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni qabul qilish, bu *aksept*, taklifni qabul qiluvchi esa, *akseptant* deb aytildi.

Shartnoma tuzilishi uchun taraflarning o‘zaro kelishuvining o‘zigma kifoya emas. Bu kelishuv tegishli shaklda rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart. Shartnomalarning shakli FK 366-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi shart. Unga asosan, agar qonunda muayyan turdagи shartnomalar uchun ma’lum bir shakl belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnoma bitimlar Tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa – shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek, pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Odatda, shartnomada u tuzilgan joy ko‘rsatib o‘tilishi kerak. Agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko‘rsatilgan bo‘lmasa, shartnoma oferta yo‘llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan yerida tuzilgan hisoblanadi (FK 376-m.).

FK 354-moddasida shartnomalar tuzishda taraflarning erkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Binobarin, hech qaysi taraf

shartnoma tuzishga majbur qilinmaydi. Biroq, ayrim hollarda majburiy shartnoma tuzilishi mumkin. Bunda shartnoma tuzish o‘zi uchun majburiy bo‘lgan taraf oferta olgan kundan boshlab o‘ttiz kun ichida boshqa tarafga aksept to‘g‘risida, akseptdan voz kechish haqida yoki boshqacha shartlar asosida akseptlash haqida (shartnoma loyihasiga o‘zining e’tirozlari bayonnomasini qo‘shtigan holda) bildirmog‘i lozim.

### **3-§. Shartnoma obyekti, subyektlari hamda shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi**

Shartnomaning obyekti – bu shartnomada qatnashadigan taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi. Masalan, fuqarolik qonunchiligidagi qo‘llaniladigan oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, haq evaziga xizmat ko‘rsatish, mulk ijarasi, sug‘urta, qarz, kredit, mualliflik, litsenziya hamda nikoh kabi shartnomalarida foydalaniladigan narsa, buyum, ashyo va xizmatlarni tushunishimiz mumkin. Albatta, qonun bilan taqiqlagan narsa, buyum, ashyo va xizmatlar bundan mustasnodir.

*Shartnomaning subyekti* – esa fuqarolik qonunchiligidagi qo‘llaniladigan va tuziladigan hamda mazkur shartnomalarda ishtirok etadigan taraflar tushuniladi.

Masalan, Qarz shartnomasida taraflar qarz beruvchi va qarz oluvchi va h.k.

*Shartnomalarni o‘zgartirish va bekor qilish.* Umumiyligida bo‘yicha shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

*Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollardagina o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:*

1) ikkinchi taraf shartnomani – jiddiy ravishda buzsa;

2) FK, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga holatlarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishga umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

FK 383-moddasida “Vaziyat jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish”ini belgilangan bo‘lib, unda shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo‘lgan vaziyatning jiddiy o‘zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Vaziyatning taraflar oldindan ko‘ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo‘lgan darajada o‘zgarishi uning jiddiy o‘zgarishi hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlash-tirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi, FK 383-m. 5-qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra esa – o‘zgartirilishi mumkin, agar ayni vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo‘lsa:

1) shartnomani tuzish paytida taraflar vaziyatda bunday o‘zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar;

2) vaziyatning o‘zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo‘lganidan keyin manfaatdor taraf shartnomaning xususiyatiga va muomala shartlariga ko‘ra o‘zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyyotkorlik qilgan bo‘lishiga qaramay, bu sabablarni yenga olmagan bo‘lsa;

3) shartnomani uning shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy manfaatlarining shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o‘zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi oqibatida shartnoma bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini ular o‘rtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomaning o‘zgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo‘lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o‘zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.

Fuqarolik kodeksining 384-moddasida esa “Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi” qayd etilgan. Shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, uni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi, basharti qonun hujjatlaridan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa.

Bir taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko‘rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday

muddat bo‘lмаганда esa – о‘ттиз кунлик муддатда ювоб олмаганидан кейин, шартномани о‘згартириш юки бекор қилиш ҳақидаги талабни суга тақдим этиши мүмкін.

Юқоридаги қоидадан келиб чиқиб, шартномаларни о‘згартириш, бекор қилишнинг quyidagi тартиби mavjud:

1. Шартномада назарда тутлган холатларда бир тараф томонидан шартнома мајбуриятларини бажармаган юки лозим даражада бажармаган холларда, иккинчи тараф томонидан шартнома шартларини бир тарафлаша о‘згартириш юки бекор қилиш;

2. Тарафларни о‘заро келишуви асосида шартнома шартларини о‘згартириш юки бекор қилиш;

3. Тарафлардан бирининг талаби билан суд томонидан шартнома шартларини о‘згартириш юки бекор қилиш;

4. Учинчи шахсларнинг талаби билан шартнома шартларини о‘згартириш юки бекор қилиш<sup>1</sup>.

Fuqarolik кодексининг 385-моддасига ко‘ра, шартномани о‘згартириш ва бекор қилишнинг оқибатлари quyidagicha ta’riflangan:

– шартнома о‘згартирсанда тарафлarning мајбуриятлари о‘згартирсанда саqlanib qoladi;

– шартнома бекор қилинганда тарафлarning мајбуриятлари бекор bo‘ladi;

– шартнома о‘згартирсанда юки бекор қилинган тақдирда, agar келишувдан юки шартномани о‘згартириш xусусиятидан бoshqacha тартиб anglashilmasa, тараflar шартномани о‘згартириш юки бекор қилишга келишган paytdan boshlab, шартнома суд тартибida о‘згартирсанда юки бекор қилинганда esa – sudning шартномани о‘згартириш юки бекор қилиш ҳақидаги qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab мајбуриятлар о‘згартирсанда юки бекор қилинган hisoblanadi;

– agar qonunda юки тарафлarning келишувда boshqacha тартиб belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, тараflar шартнома о‘згартирсанда юки бекор қилинганда мајбурият bo‘yicha o‘zlari bajargan narsalarni qaytarib berishni талаб қилишга haqli emaslar.

– agar шартномани о‘згартириш юки бекор қилишга тарафлардан бирининг шартномани jiddiy buzishi асос bo‘lgan bo‘lsa, иккинчи тараф шартномани о‘згартириш юки бекор қилиш tufayli yetkazilgan zararni to‘lashni талаб қилишга haqli.

---

<sup>1</sup> Шартнома ҳуқуқи. Муаллифлар жамоаси: Ўқув қўлланма. – Т., 2006. – Б.158-159.

---

## ***MAXSUS QISM***

### **1-§. Oldi-sotdi shartnomasi, uning tushunchasi, belgilari va turlari**

Oldi-sotdi insoniyat tomonidan eng qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelayotgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda tovar-pul munosabatlari qaror topishi bilan turli kasb-hunar kishilari oldi-sotdi shartnomasi orqali boshqa kasb-hunar kishilari mehnati mahsulotlarini sotib olib, iste'mol qilish va ayni vaqtida, o'z mehnatlari mahsulotlarini sotish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va buning uchun belgilangan pul summasini (bahosini) to'lash majburiyatini oladi (FK 386-m. 1 q.).

Oldi-sotdi shartnomasi o'z huquqiy tabiatini bo'yicha mol-mulkka nisbatan mulk huquqi yoxud ashayoviy huquqlarni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazish bo'yicha majburiyatlar turkumiga kiradi. *Ayni vaqtida ushbu shartnomani boshqa o'xshash shartnomalardan ajratib turuvchi huquqiy belgilari mayjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi.*

*Birinchidan*, oldi-sotdi shartnomasi haq baravariga tuziladigan (pulli) shartnomalar hisoblanadi. Bunda har doim sotuvchi topshiradigan mol-mulk (tovar) evaziga sotib oluvchi muayyan miqdorda pul (so'm, valuta) bilan belgilangan haq to'laydi.

*Ikkinchidan*, oldi-sotdi shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub. Boshqacha aytganda, bu shartnomalar bo'yicha taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar shartnomaning barcha muhim shartlari to'g'risida o'zaro kelishilgan va shartnomalar tegishli shaklda rasmiylashtirilgan vaqtadan boshlab vujudga keladi.

*Uchinchidan*, shartnomalar munosabatlari tarkibiga ko'ra, u ikki tomonlama shartnomalar bo'lib hisoblanadi. Yuqorida Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yilgan shartnomaga berilgan ta'rifdan ham ko'rinish turibdiki, ushbu shartnomada ikki taraf – sotuvchi va sotib oluvchi qatnashadi va har ikkala taraf ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi: sotuvchi ashayoni topshirish burchini va buning uchun haq olish huquqini oladi, oluvchi esa ashayon (tovar) qiymatini to'lashi lozim va sotilgan ashayoning o'ziga topshirilishini talab qilish huquqini oladi.

Ayni vaqtida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotilgan ashyo (tovar)ga nisbatan mulk huquqi sotuvchidan sotib oluvchiga o'tadi va bu holat shartnomaning eng asosiy belgisi bo'lib hisoblanadi. Bunda tovarlar muomalasida bevosita tovar egalari, ya'ni bu tovarlarni tasarruf qilishga haqli bo'lgan shaxslar ishtirok etadilar.

Bozor munosabatlari tizimida oldi-sotdi shartnomasi xo'jalik yurituvchi turli subyektlar o'rtasida munosabatlarni rasmiylashtirishning eng muhim va asosiy huquqiy vositalaridan bo'lib hisoblanadi. Ayni vaqtida, u kishilarning kundalik turmushida ham eng ko'p qo'llaniladigan shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Oldi-sotdi shartnomasi savdo munosabatlarining xususiyatlariga va shakllariga qarab, bir necha turlarga bo'linadi: ulgurji savdo; chakana savdo; kim oshdi savdosi; nasiyaga tovarlarni sotish va h.k. Shartnoma predmeti bo'yicha esa u turar-joylarning, korxonaning, ko'chmas mulkning, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi shartnomalari, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, energiya ta'minoti va sh.k. shartnomalarga bo'linadi.

Oldi-sotdi shartnomasi nafaqat mamlakat ichki muomalasida, balki tashqi iqtisodiy munosabatlarda ham eng ko'p qo'llaniladigan shartnoma hisoblanadi. Ushbu shartnoma xalqaro miqyoslarda keng qo'llanilayotgani sababli ham xalqaro tashkilotlar tomonidan uning huquqiy negizlari shakllantirilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, 1980-yili Venada qabul qilingan BMTning Tovarlarni xalqaro oldi-sotdi shartnomalari haqidagi konvensiyasi, savdo-sotiqa qo'llaniladigan "Inkoterms" atamalarini talqin etish bo'yicha xalqaro qoidalar, shuningdek, iste'mol-chilarning huquqlari haqida xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Vena Konvensiyasi xalqaro savdo-sotiqa ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos umumiyligi (universal) huquqiy hujjat sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu Konvensiyada umumiyligi huquq va qit'a huquqi tizimlarini savdo-sotiqa bo'yicha shartnomalarining turlicha yondashuvlarini, ziddiyatlarini yumshatib, huquqiy-texnik jihatdan murosaga keltirish va umumiyligi qoidalar ishlab chiqilishiga erishilgan. Vena Konvensiyasi turli mamlakatlardagi subyektlar o'rtasidagi tovarlar oldi-sotdisini tartibga solishga qaratilgan umumiyligi va yagona me'yirlarni o'zida mujassamlaydi.

Oldi-sotdi shartnomasining shakliga nisbatan bitimlarning shakli haqidagi qoidalar (FK 108-112-m.), shuningdek, shartnomaning shakli haqidagi qoidalar (FK 336-m.) qo'llaniladi. Bunda shartnomaning turi va tovarning o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Oldi-sotdi shartnomasi shaklini belgilashda, birinchidan, fuqarolik muomalasining

talablari, ikkinchidan esa, oldi-sotdi bitimlari qonuniyligining ustidan nazorat qilish zarurati, bunday munosabatlarda jamiyat manfaatlari yoxud ayrim shaxslar manfaati himoyasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq holatlar belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. *Masalan*, naqd pul hisobiga amalga oshiriladigan chakana savdoda taraflarga qulaylik tug'dirish uchun oldi-sotdi shartnomasini maxsus rasmiylashtirish talab etilmaydi. Naqd pul baravariga tuziladigan va tuzilish vaqtining o'zidayoq ijro etiladigan oldi-sotdi shartnomasi, umumiy qoida bo'yicha summasidan qat'i nazar, og'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Binobarin, savdo do'konlarida, bozorlarda tuziladigan oldi-sotdi shartnomalari tovarlarning xaridorlarga darhol topshirilgani va shu ondayoq haq to'langani sababli og'zaki rasmiylashtirilishi mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasida taraflar sotuvchi va xaridor hisoblanadi. Bunda taraflar sifatida fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Ayni vaqtida muayyan hollarda shartnomada taraf sifatida davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Shartnomada taraf sifatida fuqaro qatnashganda u muomala layoqatiga ega bo'lishi shart. Binobarin, voyaga yetgan, ya'ni 18 yoshga to'lgan va qonunda belgilangan tartibda muomala layoqati cheklanmagan har qanday shaxs shartnomada taraf sifatida ishtirok eta oladi. Ayni vaqtida, qonun muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz fuqarolarning ham oldi-sotdi shartnomasida, taraf sifatida qatnashish holatlarini nazarda tutadi. *Masalan*, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar mayda maishiy bitimlar tuzishga, masalan, kichik summada tovarlar sotish yoki sotib olishga (muzqaymoq, chanqov-bosdi ichimliklar, qalam, daftар, havo sharlari va sh. k.) haqli (FK 29-m. 2-q. 1-b.). O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlari hisobiga tovarlar sotib olish yoxud ularni sotishga haqli (FK 27-m. 2-q. 1-b.). FK 22-moddasi ikkinchi qismi va 28-moddada belgilangan tartibda to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar ham oldi-sotdi shartnomasida summasidan qat'i nazar, to'la huquqli taraf sifatida qatnasha oladilar. Spirli ichimliklar yoxud narkotik moddalar suiiste'mol qilganligi sababli muomala layoqati cheklangan shaxslar ham mustaqil ravishda mayda maishiy bitimlar tuza oladilar (FK 31-m.). Bunday shaxslar, shuningdek, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar yirik summadagi oldi-sotdi shartnomalarini faqat homiysi, ota-onalari yoki farzandlikka oluvchilar roziligi bilangina tuza oladilar.

Har xil tashkiliy tuzilmalar oldi-sotdi shartnomasida taraf bo‘lishlari uchun quyidagi ikki talabga javob berishlari shart: *birinchidan*, bunday tuzilmalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishlari va *ikkinchidan*, ular tuzayotgan oldi-sotdi shartnomasi ularning ta’sis hujjatlariga zid bo‘lmashi lozim. Odadta shartnomada sotuvchi sifatida qatnashayotgan shaxsga sotilayotgan ashyo mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi, biroq ayrim hollarda sotuvchi sotilayotgan tovarning mulkdori bo‘lmashi ham mumkin. U holda sotuvchining tovarni sotishga bo‘lgan huquqi qonun yoki shartnomasi asosida vujudga kelgan bo‘lishi lozim (masalan, davlat korxonasi tomonidan unga xo‘jalik yuritish huquqi asosida biriktirib qo‘yilgan tovarni sotishi yoxud vositachilik (komission) do‘konlarida tovarlarni sotish).

Qonunda bir necha subyektga umumiyligida mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ashyolarni sotishning alohida tartibi belgilangan. Mulkdorlardan biri o‘z ulushini boshqa shaxsga sotgan vaqtida qolgan sheriklari sotilayotgan ulushni u sotiladigan narxda va boshqa teng shartlarda imtiyozli sotib olish huquqiga ega, kim oshdi savdosi orqali sotish hollari bundan mustasno (FK 224-m.). Er-xotinga birgalikdagi umumiyligida mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan, nikoh davomida orttirilgan mol-mulk ham har ikkalasining roziligi asosida sotiladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi mumkin bo‘lgan, fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan har qanday ashyolar tovar bo‘lishi mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasining mazmunini taraflarning huquq va burchlari tashkil etadi.

Oldi-sotdi shartnomasida qatnashuvchi har ikkala taraf qonun yoki shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgardir.

*Sotuvchi quyidagi holatlarda xaridor oldida javobgardir:*

- a) sotilgan tovarni topshirmasa yoki topshirishni kechiktirsa;
- b) sotilayotgan tovarda uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi haqida xaridorni ogohlantirmsa;
- v) sotilayotgan tovar miqdori, assortimenti haqidagi shartlarni buzsa yoki sifatsiz tovar sotsa.

Sotib oluvchi ham o‘z navbatida sotuvchi oldida quyidagi hollarda javobgar bo‘ladi;

- a) sotilgan tovar uchun haqni to‘lamasa yoki to‘lashni kechiktirsa;
- b) sotilgan tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olmasa yoxud qabul qilib olishni kechiktirsa.

Umumiyligida bo‘yicha sotuvchi xaridorga sotilayotgan tovarning kamchiliklari haqida ogohlantirmog‘i lozim.

Sotilgan tovardagi kamchiliklar uchun sotuvchining qay hollarda javobgar bo‘lishi hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Bozor munosabatlari tizimi xaridor - iste’molchini alohida huquqiy maqomga ko‘tardi. Sotilayotgan tovarlar sifati lozim darajada bo‘lishi uchun sotuvchi xaridor oldida mas’uldir. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi, “Metrologiya to‘g‘risida”gi, “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlarida, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida bunday huquqiy asoslar o‘z ifodasini topgan.

*Agar tovarning kamchiliklari sotuvchi tomonidan ma’lum qilinmagan bo‘lsa, tegishli darajada sifatli bo‘lmagan tovar topshirgan sotuvchi sotib oluvchining xohishiga ko‘ra:*

- xuddi shu markadagi (modeldag‘i, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo‘lgan tovarga almashtirishi;
- xarid narxini tegishlicha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldag‘i, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo‘lgan tovarga almashtirishi;
- tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishi yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlarni qoplashi;
- xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishi;
- ko‘rilgan zarar o‘rnini qoplashi lozim (FK 434-m.).

Shu bilan birga, sotib oluvchi tomon shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ham egadir. Xaridor tovardagi kamchiliklar tovar unga topshirilgunga qadar paydo bo‘lganligi yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli vujudga kelganligini isbotlab berishi lozim.

*Sotuvchi tovardagi nuqson yoki kamchiliklar quyidagi holatlar sababli yuz bergenligini isbotlab bera olsa, javobgarlikdan ozod bo‘ladi:*

- sotib oluvchi tovardan foydalanish yoki saqlash qoidalarini buzganligi sababli;
- uchinchi shaxslar harakati tufayli;
- oldini olib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida (FK 409-m.).

*Chakana va ulgurji oldi-sotdi shartnomasi.* Fuqarolarga savdo xizmati ko‘rsatishning asosiy fuqarolik-huquqiy shakli chakana oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Chakana oldi-sotdi oldi-sotdi shartnomasining bir turi sifatida e’tirof etiladi. Chakana savdo munosabatlarida bir tomonda sotuvchi sifatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashsa, ikkinchi tomonda iste’molchi fuqarolar qatnashadilar.

*Chakana oldi-sotdi shartnomasi ommaviy shartnomasi hisoblanadi (FK 425-m.).* Buning ma’nosi shuki, sotuvchi sotish uchun taklif etgan tovari

buning uchun tegishli haqni to‘lashga rozi bo‘lgan har qanday shaxs sotib olishga haqli (agarda qonunga zid bo‘lmasa, masalan, spirtli ichimliklar yosh bolalarga sotilishi mumkin emas va h.k.)

Tuzilgan zahoti bajariladigan chakana oldi-sotdi shartnomasi, qoida tariqasida og‘zaki tuziladi (qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan hollar bundan mustasno).

Tovar mulkdori yoki mulkiy huquq egasi yoxud ixtisoslashgan tashkilot kim oshdi savdosining tashkilotchisi bo‘lishi mumkin. Kim oshdi savdosining tashkilotchisi sud qarorlarini ijro etish uchun (musodara qilingan, majburiy tartibda haq undirishga qaratilgan ashyolarga, garov ashyolari va h.k.) ham kim oshdi savdosi tashkil etadi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi – sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o‘zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro‘zg‘orda va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to‘lash majburiyatlarini oladi (FK 437-m.).

Davlat o‘zining moddiy ehtiyojlarini ta’minlash, jumladan, tegishli iqtisodiy va tashqi siyosat olib borish, o‘zining davlat apparatini saqlash, mudofaa qudratini oshirish, ijtimoiy-madaniy ishlar uchun sarf-xarajat qilishga majburdir. Shuning uchun davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish bo‘yicha davlat kontrakti, shuningdek, uning asosida tuziladigan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish to‘g‘risida shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishiga sharoit yaratib beradi. Tovarlarni davlat ehtiyojlari uchun yetkazib berish shartnomasi mahsulot yetkazib berish shartnomasining bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi farq tovarlarning davlat ehtiyojlari uchun ishlatilishida ko‘rinadi. Davlat bu tovarlarni rezervda saqlashi, davlatning iqtisodiy mavqeini mustahkamlash uchun foydalanishi yoki davlat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida foydalanishi mumkin.

Energiya ta’minoti shartnomasiga muvofiq, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga (iste’molchiga) energiya berib turish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya haqini to‘lash, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan energiya iste’mol qilish tartibiga rioya etish, tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini hamda o‘zi foydalanadigan

energiya iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarining sozligini ta'minlash majburiyatini oladi (FK 468-m.).

Ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasiga binoan sotuvchi yer uchastkasi, bino, inshoot, kvartira yoki boshqa ko'chmas mulkni sotib oluvchiga mulk qilib topshirishni o'z zimmasiga oladi. Sotib oluvchi esa buning uchun tegishli haqni to'lashi lozim. FK 83-moddasiga asosan ko'chmas mulk yer osti boyliklari, ko'p yillik dov-daraxtlar, shuningdek, binolar va inshootlardan iboratdir. Ko'chmas mulkning muhim belgilaridan biri shundan iboratki, u yer bilan mustahkam uzviy bog'liq. Bunday bog'liqlik tabiiy holda vujudga kelganmi (masalan, buloq, kon) yoki inson mehnati orqali vujudga kelganmi (masalan, bino, quduq, bog' va shu kabilar) ahamiyatga ega emas. Ko'chmas mol-mulk yer bilan uzviy bog'liq ekanligidan, uning ikkinchi bir belgisi kelib chiqadi; bunday mol-mulkni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas yoki ko'chirish jarayonida katta qiyinchiliklar vujudga keladi. Bunday qiyinchiliklar, eng avvalo, ko'chmas mol-mulkni ko'chirganda o'zining tabiiy xususiyatlarini yo'qotishi, undan tayinlanish maqsadi bo'yicha foydalanib bo'lmasligi, shaklan yoki jisman o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Ko'chmas mol-mulkning muhim belgisi sifatida uning alohida qiymatga ega ekanligi ham adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan. Masalan, ba'zi mamlakatlar qonuni bo'yicha dengiz va daryo kemalari, kosmik obyektlar ham (masalan, yerning sun'iy yo'ldoshlari) ko'chmas mol-mulk jumlasiga kiritilgan.

Fuqarolarning doimiy yashashga mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan binolar uy-joy deb e'tirof etiladi. Uy-joy ko'chmas mulk hisoblanadi. FK 488-moddasida uy-joy binolarini sotishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab qo'yilgan. Birinchidan, sotuvchi sotib olgandan keyin qonunga muvofiq, uy-joy binosidan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladigan shaxslar yashab turgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini sotish shartnomasining muhim sharti bu shaxslarning ro'yxatini sotilayotgan uy-joy binosidan foydalanish huquqlari ko'rsatilgan holda tuzishdan iboratdir. Agar sotuvchi sotib oluvchidan bunday shaxslar mavjudligini yashirsa, shartnoma ushbu turar-joydan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning da'vosiga ko'ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi.

Korxonani sotish shartnomasi konsensual, haq baravariga va ikki tomonlama shartnomalar guruhiga kiradi.

Korxonalarni sotish shartnomasida taraflar bo'lib fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat va xorijiy fuqarolar ishtirok etishi mumkin. "Korxonani

sotib oluvchi shaxs tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lishi shart emas. Chunki u korxonani sotib olib, uni boshqarish uchun biron tadbirkor shaxsni jalb qilishi mumkin”.

## **2-§. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti**

Ayirboshlash tovar va pul munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyotida ham muayyan ahamiyatga ega. Shu boisdan u amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida o‘zining huquqiy asoslarini topgan. *Ayirboshlash barter deb ham yuritiladi.*

*Ayirboshlash deb shunday shartnomaga aytildiki*, unga ko‘ra, shartnomada qatnashuvchi har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo‘li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi (FK 497-m.). Uning *mohiyati shundaki*, shartnoma predmeti bo‘lgan biron-bir tovar ikkinchi tarafga, odatdagidek, mazkur tovar qiymatini umumiy ekvivalent bo‘lgan yoki unga deyarli teng keladigan boshqa bir tovarga ayirboshlanadi. Demak, mazkur huquqiy munosabat odatdagi shartnomalar, aytaylik, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish kabi shartnomalarga o‘xshab, taraflarga bu orqali kelishi mumkin bo‘lgan muayyan pul summalariga talab ehtiyojlardan kelib chiqmay, balki bevosita mazkur shartnomaning predmeti bo‘lgan tovarga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqadi. Biroq bu shartnoma ko‘p hollarda subyektlar o‘rtasida hisob-kitoblar yo‘lga qo‘yilmagan yoki o‘zaro ishonch bo‘lmagan inflatsiya sharoitida keng qo‘llaniladigan shartnomalardan biri bo‘lib qolmoqda. Rivojlangan bozor tizimida u ahyon-ahyonda qo‘llaniladi.

*Shartnomaning yana bir xususiyati shundaki*, shartnomaning mazmunidan boshqacha hol anglashilmasa, ayirboshlanayotgan tovarlar teng qiymatli deb taxmin qilinadi. Ayni paytda tovarni topshirish va uni qabul qilish xarajatlarini har bir holda tegishli majburiyatlarni bajaradigan taraf amalga oshiradi. Shubhasiz, boshqa shartnomalarda bo‘lgani singari ayirboshlashda ham uning predmeti hisoblangan tovarning bahosi muayyan ahamiyatga ega. Ba’zan amaliyotda ayirboshlash predmetining qiymati bir xil bo‘lmaydi. Bunday hollarda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo‘lgan tovarni topshirayotgan taraf, agar shartnomada haq to‘lashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovar yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlari topshirilgandan so‘ng kechiktirmasdan baholardagi farqni to‘lashi lozim bo‘ladi. FK 242-moddasiga ko‘ra, agar qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha hol

anglashilmasa, qarzdor hisoblangan taraf bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan *boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart*.

Ayrim hollarda tovarlar o'rtasidagi yuqorida tilga olingan farq doimo konkret belgilanavermaydi. Fuqarolik qonunchiligining mazmunidan anglashilishicha, bunday hollarda shartnomani bajarganlik uchun xuddi shunga o'xhash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baholar – haq to'lanishi kerak. Aynan bunday hollarda ish muomalasi odatlari, ya'ni odat huquqi normalari qo'llaniladi (FK 6-m. tartibida).

*Ayirboshlash shartnomasi quyidagi huquqiy belgilari bilan xarakterlidir:*

*birinchidan*, ayirboshlash konsensual shartnomasi hisoblanadi, ya'ni, unga ko'ra, taraflarning huquq va burchlari shartnomasi qonun talablari doirasida rasmiylashtirilgan paytda vujudga keladi;

*ikkinchidan*, ayirboshlash haq evaziga tuziladigan shartnomadir, ya'ni shartnomasi bo'yicha taraflar zimmasiga muqobil ijro majburiyatlarini bajarish yuklangan, ya'ni tovarlarni o'zaro ayirboshlash, shuningdek, tovarlar qiymati teng bo'limganda – qiymat o'rtasidagi farqni pul shaklida to'lash;

*uchinchidan*, ayirboshlash ikki tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. "Shartnomasi ishtirokchilarining har biri bir vaqtning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi hisoblanadilar". Demak, bunga ko'ra, har ikki taraf ham huquqqa, ham burchga ega bo'ladi. Bu shartnomaning mohiyatidan, yanada aniqrog'i, taraflar o'rtasidagi o'zaro huquqdorlik va burchdorlikning nisbatidan kelib chiqadi;

*to'rtinchidan*, shartnomaning yana bir belgilaridan biri ayirboshlanadigan mulkning egasidagi unga nisbatan bo'lgan mulk huquqi (egallash, foydalanish, tasarruf etish) ikkinchi tarafga o'tadi va aksincha. Shartnomaning muhim jihatlaridan biri ayirboshlanadigan tovarlarga bo'lgan mulk huquqining ikkinchi tarafga qachondan boshlab o'ta boshlashidir. Odatda, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ayirboshlanadigan tovarlarga mulk huquqi ayirboshlash shartnomasiga muvofiq, sotib oluvchi hisoblanadigan taraflarga ikkala taraf tegishli tovarlarni topshirish majburiyatini bajargandan so'ng bir vaqtida o'tadi (FK 500-m.).

*Ayirboshlash shartnomasining predmeti* muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo'la oladigan, ayni paytda kishilarning u yoki bu ehtiyojlarini qondira oladigan narsalar, ya'ni ashyolar bo'la oladi. Ashyolar ishlab chiqarish vositalari va iste'mol

buyumlari ko‘rinishida, ko‘char va ko‘chmas mulk shakllarida bo‘lishi mumkin. Biroq, bu yerda muhimi, ashyolarning fuqarolik muomalasida bo‘lishi masalasidir. FK 82-moddasiga ko‘ra, fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo‘lishi cheklab qo‘yilmagan bo‘lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi mumkin.

Ayirboshlash shartnomasining predmeti bo‘lishi uchun ashyolar mulk huquqi asosida mulkdorlarning haqiqiy egaligida, foydalanuvida va tasarrufida bo‘lmog‘i ham kerak (FK 164, 207-moddalari tartibida). *Masalan*, fuqaro M. 2020-yil 1-sentabrda fuqaro N. bilan ayirboshlash shartnomasini tuzdi. Shartnomaga muvofiq, N. hovlisini M. hovlisining 1/3 qismiga almashdi. M.ning qizi A. 2020-yil 1-dekabrda sudga murojaat qilib, uyning yarmi o‘ziga tegishli ekanligini va uning rozilgisiz otasi hovlining bir qismini almashtirganligini ko‘rsatib, mazkur shartnomani bekor qilishni so‘radi. U o‘z talabini asoslash uchun uyning bir qismi onasidan meros bo‘lib, hali otasi bilan bo‘lib olmaganligi sababli, uyni almashtirish natijasida egalik huquqining buzilganligini ko‘rsatadi. Albatta, bunday hollarda sud fuqaro A.ning talabini qondirishi lozim.

Yoki quyidagi misolni ko‘raylik. Fuqaro K. egasiz turar-joyga halol, oshkora va uzlusiz egalik qilgan. Va u 2004-yil 1-aprel kuni bu uyni fuqaro D.ga qarashli avtomobil bilan ayirboshlash to‘g‘risida shartnomada tuzishgan. Aniqlanishicha, K. bu uyga 2002-yil 1-yanvardan 2004-yil 1-aprel kunigacha, ya’ni 12 yil davomida egalik qilgan. FK 187-moddasi talablariga ko‘ra, bu muddat 15 yilni tashkil etishi lozim edi. Demak, fuqaro K.da hali bu uy-joyga nisbatan mulk huquqi vujudga kelmagan, binobarin, u mazkur obyekt yuzasidan shartnomada taraf sifatida ishtirok eta olmaydi.

*Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari.* Yuqorida aytilganidek, shartnomada qatnashuvchi taraflarning har biri bir vaqtning o‘zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi hisoblanadilar. Bu bilan ayirboshlash oldi-sotdi shartnomasiga o‘xshab ketsa-da, biroq undan farq qiladi. “Farqi shundaki, bunda bir mulk ikkinchisiga pulsiz almashtiriladi”. Ayni paytda ayirboshlash oldi-sotdiga o‘xshashligi tufayli, unga nisbatan baho va xarajatlar haqidagi qoidalardan tashqari, oldi-sotdini tartibga soluvchi barcha qoidalar qo‘llanaveradi.

Shartnomada sotuvchi va oluvchi bo‘lib fuqarolik huquqining barcha subyektlari, shu jumladan, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlat tuzilmalari ishtirok etishlari mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida ba'zi hollarda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirdorlar bilan iste'molchilar o'rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarini vujudga keltiruvchi asoslardan biri sifatida ayrboshlash (barter) shartnomasi qo'llanadi. Barter inglizcha "barter" so'zidan olingan bo'lib, bevosita tovar almashuvi ma'nosini bildiradi. U, ayniqsa, bozor tizimiga o'tish davrida o'zaro hisob-kitoblar yaxshi yo'lga qo'yilmagan davr uchun birmuncha xarakterlidir. Valuta beqaror bo'lgan hozirgi zamон xalqaro savdosida yanada keng tarqalmoqda. Barter bitimi vaqtida pul to'lovlarining yo'qligi tovar yetkazib berish baholarini va ularni pul formasida hisobga olishni istisno qilmaydi. Barter bitimi tushunchasi ayrboshlash shartnomasi tufayli vujudga keluvchi majburiyatlar mazmunini to'la qamrab ololmaydi, unga to'la javob berolmaydi, degan fikrga qo'shib bo'lmaydi. Bir qator olimlarning xususan, SH.Ro'zinazarovning tadqiqotlarida "barter" haqida salmoqli fikr yuritiladi. Nazarimizda, barter tushunchasi ayrboshlash shartnomasini o'zida aks ettira oladi. Yuqorida ko'rsatilganidek, shartnomada taraflar sifatida jismoniy va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Shartnomada o'zaro yetkazib beriladigan tovarlarning miqdori va qiymati yoxud tomonlar ekvivalentlik asosida yetkazib berish majburiyatini olgan tovarlarning summasi oldindan kelishib qo'yiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shartnomada qatnashuvchi taraflar bir paytning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi sifatida qatnashadi. Shuning uchun ham shartnomada qatnashuvchi taraflar deyarli bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

*Ayrboshlash shartnomasi bo'yicha taraflar:*

*birinchidan*, ayrboshlanayotgan tovarni o'z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilib olish;

*ikkinchidan*, qabul qilingan tovar evaziga ayrboshlanishi lozim bo'lgan tovarni o'z vaqtida topshirish;

*uchinchidan*, topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti, yaxshi bo'lishini ta'minlash kabi majburiatlarga egadirlar.

*Taraflar, ayni paytda, quyidagi huquqlarga egadirlar:*

*birinchidan*, shartnomada majburiyatlarini muqobil ravishda bajargan taraflar ikkinchi tarafdan tovarning topshirilishini talab qilishga haqli;

*ikkinchidan*, shartnomada shartlari qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa, xususan, sifatsiz tovar ayrboshlangan, tovarni topshirish muddati uzsiz uzoq muddatga kechiktirilgan hollarda bir taraf shartnomani bekor qilishga haqli;

*uchinchidan*, ayrboshlash shartnomasi shartlari ikkala taraf tomonidan to'liq bajarilgan bo'lsa, har ikkisida ham tovarlarga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

*Shartnomaning shakli, muddati.* Shartnoma bo‘yicha taraflarning javobgarligi. Ayirboshlash shartnomasi, odatda, fuqarolar o‘rtasida tuzilganda va shartnoma predmetining bahosi Respublikada o‘rnatilgan eng kam oylik ish haqining o‘n baravarigacha bo‘lgan hollarda og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin. Shuningdek, yozma shaklda tuzilgan shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin (FK 106-m. 3-b.). Qolgan hollarda, ya’ni yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan tuzgan ushbu turkumdagи bitimlari, fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlari yozma shaklda tuziladi. Ba’zi hollarda shartnomaning predmeti yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mol-mulklar bo‘lganda, bunday bitimlar notarial tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi talab qilinadi (FK 110–111-moddalari tartibida). Shubhasiz, shartnoma shakliga doir yuqoridagi talablarga rioya qilmaslik bir qancha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (FK 109, 112-moddalari).

Ayirboshlash shartnomasining muddati bevosita taraflarning *kelishuvi bilan* belgilanadi.

Shartnoma bo‘yicha javobgarlik oldi-sotdi shartnomasidagi javobgarlikka juda o‘xshab ketadi. Umumiy holda FK 393-moddasiga ko‘ra, sotuvchi tovarni sotib oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirishi shart, deb belgilab qo‘yilgan. Qonunda agar topshirilgan tovarni sotib oluvchidan uchinchi shaxslar olib qo‘yadigan bo‘lsa, sotuvchi tarafning bevosita javobgarligi belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, FK 501-moddasiga ko‘ra, ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha olgan tovarini uchinchi shaxslar olib qo‘ygan taraf, FK 395-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, boshqa tarafdan ayirboshlash asosida olingan tovarni qaytarishni yoki zararni qoplashni talab qilishga haqni. Ko‘rinib turibdiki, ayirboshlanayotgan tovarni uchinchi shaxslar huquqidan ozod qilmasdan ayirboshlash keyinchalik bunday harakatni amalga oshirgan tarafning javobgarligini keltirib chiqarar ekan. Biroq shuni esda tutish kerakki, sotib oluvchi uchinchi shaxslarning huquqlari bo‘lgan tovarni qabul qilishga rozilik bergen hollar bundan mustasnadir.

Shartnoma bo‘yicha ayirboshlanayotgan tovarlarning miqdori, assortimenti, uning sifati, tovarning butligi muhim unsur hisoblanib, ularni shartnomada kelishilganidek bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik tegishincha taraflarning javobgarligini keltirib chiqaradi.

Xususan, tovari topshiruvchi shartnoma shartlarini buzib, tovari qabul qilib oluvchiga shartnomada belgilangan miqdordan kam tovar

topshirgan bo'lsa, tovarni qabul qilib oluvchi agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarning yetishmayotgan miqdorini topshirishni talab qilishga yo topshirilgan tovardan va uning haqini to'lashdan bosh tortishga, bordiyu uning evaziga kelishilgan tovar topshirilgan bo'lsa, oldin topshirib qo'yilgan tovarni qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Umuman, ayrboshlash shartnomasi bo'yicha ko'p hollarda oldi-sotdiga doir qoidalar qo'llanilgani bois, bu haqdagi normalar batafsilroq oldi-sotdiga bag'ishlangan bobda keltirildi.

Shuni aytish kerakki, qonunda belgilanganidan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha ayrboshlash natijasida ham javobgarlikning boshqa turlari nazarda tutilishi mumkin, Ayrboshlash shartnomasi bo'yicha javobgarlik faqat bir tomonda emas, har ikki tomonda ham yuzaga kelishi mumkin.

### **3-§. Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti**

*Hadya deb shunday shartnomaga* aytiladiki, unga ko'ra, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabini) beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoyinki ozod qilish majburiyatini oladi (FK 502-m.). Uning mohiyati shundaki, bunda mulk tekin topshiriladi, ya'ni hadya qiluvchining tasarrufida bo'lган ashyo hadya oluvchiga mol-mulk qilib o'tkaziladi.

Amaldagi FKda hadya predmeti doirasi kengaytirilib, u o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin bo'ldi:

*birinchidan*, bir taraf boshqa tarafga tekinga mol-mulk qilib beriladigan ashyolarni;

*ikkinchidan*, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradigan yo berish majburiyatini olgan hollarda mulkiy huquqni;

*uchinchidan*, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladigan yoxud ozod qilish majburiyatini olgan hollarda ham mulkiy huquqni.

Ko'rinib turibdiki, har bir holatda ham mustaqil ikki tushuncha qo'llanilgan: ashyoni topshiradi yoki topshirish majburiyatini oladi, mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi. Bu mazkur shartnomagagina xos bo'lган xususiyatdir.

Shartnoma real bo'lsa-da, ayni payda hadya qiluvchi hadya oluvchiga kelgusida hadya qilish majburiyatini oladi. Ammo hamma hollarda ham hadya shartnomasi vujudga kelavermaydi. Aytaylik, ashyo yoki huquq muqobil berilganida yo bo'lmasa, muqobil majburiyat mavjud bo'lganida shartnoma hadya deb tan olinmaydi (FK 502-m. 2-q.). Bunday shartnomalarga FK 250-moddasi, 124-moddaning ikkinchi qismi qoidalari qo'llaniladi.

Shuningdek, yuqoridagi *uchta holatga to'rtinchи mustaqil holatni ham kiritish* mumkin. Ya'ni, biron-bir shaxsga ashyni yoki mulk huquqini tekinga berish yoki biron-bir shaxsni majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish), agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinish turgan bo'lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi (FK 502-m. 3-q.).

*Hadya bir tomonlama, real, tekinga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.*

Shubhasiz, hadya bir tomonlama bitim bo'lib, taraflarning o'zaro kelishuviga asoslanadi. U hadya oluvchining taklif qilingan mulkiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalanadi, aynan shu belgisi bilan hadya qarz shartnomasidan farq qiladi.

Fuqarolik qonunchiligidan hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnoma tan olinmaydi. *Bunday hadyaga nisbatan vasiyatnoma to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.* *Hadyaning vasiyatnomadan farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining tirikligida topshiriladi,* bu uning mulki kamayishiga olib keladi, vasiyatnoma esa insонning hayotligida uning mulkiy huquqlarida aks etmaydi. Vasiyatnoma bekor qilinishi, o'zgartirilishi mumkin, hadya esa qoida tariqasida orqaga qaytmaydi. Hadyani shartnoma deyish mumkin, vasiyatnoma esa odatda, bir tomonlama bitim bo'lib ko'riladi.

Hadya shartnomasining predmeti fuqarolik muomalasidagi obyektlar ashylar, mulkiy huquqlar, ko'char va ko'chmas mol-mulklar bo'lishi mumkin.

Ba'zi hollarda shartnoma hadya qiluvchining o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilish yoki ozod qilish majburiyatini olish orqali amalga oshiriladi. Bunday holda shartnomaning tuzilish vaqtি mulk huquqining o'tish davri bilan mos kelmasligi mumkin. Bunda majburiyat huquqiy munosabatlari vujudga keladi, uning mazmunida hadya qiluvchining o'z mulkini kamaytirish hisobidan hadya oluvchini boyitish yotadi. Shartnomada hadya predmeti aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Noma'lum ashyni hadya qilishga yo'l qo'yilmaydi, binobarin, ular hech

qanday huquqiy ahamiyatga ega emas. Hadya oluvchini qarzdan ozod qilish haqida qilingan va'dada ham ushbu qarz summasini aniq ko'rsatish lozim bo'ladi.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Umumiy holda hadya qilish, ya'ni hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha, hadyani topshirish, uni taqdim qilish ramziy topshirish (*Masalan*, yangi kvartirani yoki avtomobil kalitini topshirish) yoki mulkiy huquqni guvohlantiruvchi biron-bir hujjatni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

*Ko 'char mulklar bo'yicha quyidagi hollarda hadya shartnomasi yozma shaklda tuziladi:*

- hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;
- fuqarolar o'rtasida eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq summaga shartnomaga tuzilayotganida;
- shartnomaga bo'yicha kelajakda hadya qilish va'da qilingan hollarda.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Hadya shartnomasi odatdagi shartnomalardan ba'zi huquqiy belgilariga ko'ra farq qiladi. Aytaylik, buni mazkur turdag'i shartnomaning haqiqiy sanalmasligi hollarida ham ko'rish mumkin. Bitimlarning haqiqiy sanalishi uchun odatdagi qo'yiladigan shartlardan tashqari, hadyada, birinchidan, ashyo, mulk huquqiy yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklidagi hadya ashvosini (predmetini) aniq ko'rsatish kerak; ikkinchidan, hadya predmeti hadya oluvchiga hadya qiluvchining tirikligida topshirilishi kerak. Shuningdek, yuqoridagi uchta holat bo'yicha tuzilgan shartnomalar, albatta, oddiy yozma shaklda tuzilishi, ko'chmas mulklarni hadya qilish esa, ayni paytda, notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ham kerak.

Haqiqiy sanalmaslik holati hadya oluvchining nomi va narsasi ko'rsatilmagan hadyani vakil tomonidan amalga oshiriluvchi ishonchnomalarga ham taalluqli.

*Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari.* Shartnomada qatnashuvchi taraflar hadya qiluvchi va hadya oluvchi deb atalib, o'z navbatida ular fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat bo'lishi mumkin. Hadya fuqarolik-huquqiy xarakteridagi shartnomaga bo'lganligi bois, hadya qiluvchi va hadya oluvchi muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Ba'zan muomala layoqatiga ega bo'lмаган shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuzadilar.

Ayni paytda qonunchilikda istisno holat ham mavjud bo'lib, ya'ni FK 29-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi bandiga asosan olti yoshdan o'n to'rt

yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘zlarini mustaqil ravishda hadya qiluvchi va hadya oluvchi sifatida qatnashib, shartnomani o‘z stipendiyalari, ish haqlari va qonunda ko‘zda tutilgan boshqa daromadlari miqdorida tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ashylarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlarni amalga oshirish uchun u qonuniy vakillarining roziligini olishi kerak. Chunki hadya ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazishi, yashirin daromadlarga ega bo‘lishiga olib kelishi, pirovardida ularning huquqlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ayrim shaxslarga hadya shartnomasini tuzishda rad qilish va chegaralash qo‘yilgan (FK 505-moddasi tartibida).

Qonun er va xotinlar o‘rtasida hadya shartnomasi tuzilishini cheklamaydi. Hadya qilingan mol-mulk, ashyo yoki mulkiy huquq hadya oluvchining shaxsan o‘zigagina tegishli bo‘ladi. Aytaylik, er-xotinning nikoh davomida (yoki nikohga qadar) hadya hisobiga orttirgan mol-mulkleri ulardan har birining o‘z mulki hisoblanadi. Binobarin, undan haq undirishga yoki boshqacha tarzda o‘zlashtirishga faqat mulkdorning roziligi bilangina yo‘l qo‘yiladi.

Shartnomada yuzasidan taraflarning huquq va burchlari uni bajarishdan bosh tortib, hadyani bekor qilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Eng umumiy holda, hadya bo‘yicha hadya qiluvchi mulkni yoki unga nisbatan bo‘lgan mulkiy huquqni hadya oluvchiga topshirishga, hadya oluvchi esa uni qabul qilib olishga majbur hisoblanadilar. Biroq, ayni paytda, quyidagi hollarda: birinchidan, hadya qiluvchining moddiy ahvoli jiddiy yomonlashganligi tufayli, u kelgusida hadya oluvchiga ashynoni yoki mulkiy huquqni yoxud mulkiy majburiyatdan ozod etish va’da qilingan shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqlidir (bunday hollarda shartnomani bekor qilishga sud tartibida yo‘l qo‘yiladi).

Ikkinchidan, hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a’zolarining yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilingan hollarda hadya qiluvchi shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqlidir (bunday hollarda shartnomani bekor qilishga sud tartibida yo‘l qo‘yiladi).

Shuni eslatish kerakki, yuqoridagi asoslar hadya qiluvchining aybini istisno etganligi sababli, uning hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortishi hadya oluvchiga bu bilan bog‘liq zararni qoplashni talab qilish huquqini bermaydi.

Yuqorida aytganimizdek, hadya bo‘yicha taraflarning subyektiv huquq va burchlari hadyani bekor qilish va undan voz kechish bilan uzviy bog‘liq. *Masalan*, hadya oluvchi hadyadan quyidagi hollarda voz kechishi mumkin:

*birinchidan*, ashyoning nobud bo‘lishi tufayli;

*ikkinchidan*, ashyo fuqarolik muomalasida bo‘lmaganligi tufayli (FK 82-m.);

*uchinchidan*, va’da qilingan harakatlarni sodir etish uchun cheklashlar mavjud bo‘lsa.

Bunday majburiyatlar, odatda, bajarish mumkin bo‘lmaganligi tufayli bekor qilinadi. Biroq, ashyo hadya qiluvchining qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan sodir etgan harakatlari oqibatida nobud bo‘lsa, u hadya oluvchiga yetkazgan zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

Hadya qiluvchining subyektiv huquqlari hal qiluvchi rol o‘ynaganligi va shaxsga tekinga o‘tkazilganligi bois, ushbu munosabatlarda qonunchilik hadya qiluvchiga bir qator ustuvorliklar beradi. Chunonchi, agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo‘lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo‘q bo‘lib ketishi xavfini solsa, hadya qiluvchi hadyani sud tartibida bekor qilishga haqli. Demak, bu hadya oluvchining hadyaga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lishini va uni saqlash majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, manfaatdor shaxsning talabiga binoan sud yakka tadbirkor yoki yuridik shaxsning bankrotlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qoidalarini buzib, bankrot deb e’lon qilinishidan oldingi bir yil ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq mablag‘lar hisobidan qilgan hadyasini bekor qilishi mumkin. Bu holat, shubhasiz, kreditorlarning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi.

Hadya shartnomasida hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo‘yilishi mumkin. Bu jihatdan hadyani shartli bitimlar sirasiga kiritish mumkin (FK 104-m.).

Hadya bekor qilingan hollarda ashyo hadya qiluvchiga, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatida saqlanib qolgan bo‘lsa, qaytarilishi lozim. Hadya oluvchining hadyadan olgan daromadlari uning o‘z tasarrufida qoladi. Agar ashyo uchinchi shaxslarga o‘tkazilgan bo‘lsa, uni qaytarishning imkonи bo‘lmaydi. Bordi-yu, hadya qiluvchi hadya oluvchining hadyani qaytarib bermaslik uchun uchinchi shaxslarga o‘tkazganligini isbotlasa, u hadya oluvchiga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish huquqiga ega bo‘ladi. Agar ashyo taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida hadya qiluvchiga qaytarilgudek bo‘lsa, bunday kelishuvni yangidan tuzilgan hadya deb tushunish mumkin.

Hadya tekinga tuziladigan shartnoma bo‘lganligi bois, hadya oluvchi topshirilayotgan mulkning sifatsizligi haqidagi talablarni qo‘yishga haqli emas. Albatta, topshirilayotgan ashyo sifatsiz, butsiz, uning kamchiliklari bo‘lishi mumkin, biroq bu hadya oluvchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kerak. Bunday hollarda hadya qiluvchining bu haqda hadya oluvchini ogohlantirilganligi isbot qilinishi talab etiladi.

Mazkur shartnomaning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu hadya va’da qilinganda huquqiy vorislik masalasidir. FK 510-moddasining mazmuniga qo‘ra, hadya shartnomasiga muvofiq hadya va’da qilinganda hadya oluvchining huquqlari uning merosxo‘rlari (huquqiy vorislari)ga o‘tmaydi, hadya berishni va’da qilgan shaxsning majburiyatlari esa uning merosxo‘rlari (huquqiy vorislari)ga o‘tadi. Demak, hadya qilishda hadya beruvchining va’dasi muayyan huquqiy ahamiyatga ega, ya’ni u kelgusida fuqarolik huquq va burchlarini keltirib chiqaradi.

*Xayr-ehson.* Rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarida turli-tuman shartnomalar vujudga kelmoqda. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvlarning huquqiy ifodasi, shakli sifatida shartnomalar fuqarolik huquqiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutmoqda. Ana shunday shartnomalardan biri xayr-ehsondir. Xayr-ehson hadyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda qilinadigan hadya umumfoydali maqsadlarga xizmat qilishi bilan xarakterlidir. Demak, xayr-ehson keng ommanning umumfoydali maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi. Qonunchilik xayr-ehson, asosan, notijorat subyektlariga (davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, xayriya ilmiy muassasalariga, fondlarga, muzeylarga, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlarga va boshqa shunga o‘xhash subyektlarga), shuningdek, fuqarolarga va davlatga qilinishi mumkinligini normalaydi. Xayr-ehson qilingan mol-mulk kelgusida uni qabul qilib olgan shaxsning mablag‘lari jumlasiga kiradi, uning operativ boshqaruviga o‘tadi.

Jumladan, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o‘z mablag‘laridan, mahalliy budjetlar mablag‘laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalaridan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa mablag‘lardan tashkil topadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bank hisob-varag‘idagi moliyaviy mablag‘larini qonunchilikda belgilangan tartibda mustaqil tasarruf etadi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag‘lari olib qo‘yilishi mumkin emas.

Xayr-ehsonning predmeti fuqarolik muomalasida bo‘lgan obyektlar, ya’ni pullar, qimmatli qog‘ozlar, mol-mulklar, ashyolar, binolar, inshootlar (ularning bir qismi), avtomobillar va hokazolar bo‘lishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning (ya’ni, uchinchi shaxsning) ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi.

Xayr-ehson qilingan mol-mulk bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi. Chunonchi:

*birinchidan*, xayr-ehson qiluvchilar mol-mulkni topshirayotganda undan ma’lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo‘yishi lozim. *Masalan*, “hadya qilingan uy-joydan faqat bolalar yaslisi uchun foydalanish lozimligini shart qilishlari mumkin”. Bunday shart qo‘yilmasa, u oddiy hadya deb hisoblanadi va undan hadya oluvchi mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanadi;

*ikkinchidan*, aniq maqsadda foydalanishga mo‘ljallangan xayr-ehsonni qabul qilib olayotgan yuridik shaxs xayr-ehson qilingan mol-mulkdan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning alohida ro‘yxatini yuritishi lozim;

*uchinchidan*, vaziyat jiddiy o‘zgarganligi bois bunday mol-mulkdan ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lmasa, undan boshqa maqsadda faqat xayr-ehson qiluvchining roziligi bilan, agar mol-mulkni xayr-ehson qilgan fuqaro vafot etgan bo‘lsa yoki xayr-ehson qilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoxud tugatilgan bo‘lsa, bunday hollarda sudning qaroriga muvofiq foydalanish mumkin.

FK 511-moddasi mazmuniga ko‘ra, xayr-ehson qilingan mulkdan ko‘rsatilgan maqsadda foydalanmaslik kelgisida xayr-ehson qiluvchiga, uning merosxo‘rlariga yoki boshqa huquqiy vorisiga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

---

## *SAKKIZINCHI BOB*

### **MULK IJARASI, QARZ VA KREDIT SHARTNOMALARI**

#### **1-§. Mulk ijarasi shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va taraflarning huquq va majburiyatları**

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tizimida shubhasiz tadbirkorlik faoliyati uchun har tomonlama qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga egadir. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub tarkibiy o‘zgarishlar, ya’ni bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida mulk ijarasi bilan bog‘liq munosabatlar tobora rivojlanib, uning ko‘lami yanada kengayib bormoqda. Ijara, ijarachi va ijaraga beruvchi degan so‘zlar va tushunchalar ijtimoiy hayotimizda keng qo‘llanilmoqda hamda ijara turmushimizning hamma sohalariga tobora chuqur kirib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 535-moddasiga binoan, “Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi”.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, mulk huquqi elementlarining bir egadan ikkinchi egaga o‘tishiga qarab ijara shartnomasining ikki turini farqlash mumkin:

*Birinchisi*, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi;

*Ikkinchisi*, Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha faqat foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Birinchisida ijaraga oluvchida mulkka nisbatan egalik qilish va foydalanish huquqi mavjud bo‘lsa, ikkinchisida esa faqat mulkdan foydalanish huquqigina mavjud bo‘ladi. Masalan, uy-joy egasi o‘z yashab turgan uyga ijara shartnomasi asosida boshqa shaxslarning yashashlari uchun faqat foydalanishga beradi.

Mulk ijarasi shartnomasining oldi-sotdi shartnomasidan farqlaydigan muhim xususiyati har doim mulkni tasarruf etish huquqi mulkdor qo‘lida saqlanib qolishi hisoblanadi.

Ijara bu mulk egasining ishlab chiqarish vositalari va boshqa buyumlarini muayyan to‘lovlar evaziga vaqtincha foydalanish uchun boshqa birovga o‘zaro kelishuviga muvofiq topshirishdir. Mulk egasi (ijara beruvchi) o‘z mulkini boshqa birovga (ijarachiga) vaqtincha egalik qilish yoki foydalanish uchun beradi.

Ijara munosabatlarini ijaraga beruvchi ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalarining mulkdori bo‘lib qolaveradi. Ijarachi esa shartnomada ko‘rsatilgan muddat davomida mulkdorning ba’zi huquqlarini oladi va buning uchun ijara haqini to‘laydi. Shu bilan birga, ijarachi ijara faoliyati davomida ishlab chiqarish vositalarining vaqtincha egasi, olingan mahsulot va daromadlarning esa mustaqil egasi hisoblanadi.

Shuningdek, FK 537-moddasida mulk ijarasining obyektlari ko‘rsatilgan bo‘lib, yer uchastkalari, yer osti boyliklari joylashgan uchastkalar va boshqa alohida tabiiy obyektlar, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va foydalanish jarayonida o‘zining tabiiy xususiyatlarini yo‘qotmaydigan boshqa ashyolar (iste’mol qilinmaydigan ashyolar) mulk ijarasiga berilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida mulk ijarasiga berilishi mumkin bo‘lmagan yoki cheklangan korxonalar turlari (guruhlari) va mol-mulk turlari belgilab qo‘yilishi mumkin.

#### *Mulk ijarasi shartnomasining huquqiy belgilari:*

*birinchidan*, mulk ijarasi shartnomasi tuzilish payti va mazmuniga qarab konsensual xarakterni o‘zida ifoda etadi. Chunki shartnoma taraflar o‘rtasida kelishuvga erishilgan va qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, mulk ijarasi shartnomasi hamma vaqt haq baravariga tuziladi. Ta’rifda keltirilganidek, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.

*Uchinchidan*, mulk ijarasi shartnomasi taraflari o‘rtasida huquq va majburiyatlarning o‘zaro taqsimlanishiga qarab, ikki tomonlama shartnomadir. Bunda ijaraga beruvchida ham ijaraga oluvchida ham huquq va majburiyatlar mavjud bo‘ladi.

Mulk ijarasi shartnomasining mazmuni. Mulk ijarasi shartnomasining mazmunini taraflar o‘rtasida belgilanadigan huquq va majburiyat tashkil etadi.

Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha taraflar barcha muhim shartlari to‘g‘risida o‘zaro kelishgan va qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi. Mulk ijarasi

shartnomasining muhim shartlari bo‘lib, shartnoma obyekti, shartnoma muddati va haqning miqdori, shuningdek taraflarning shartnoma shartlarini buzganda qo‘llaniladigan javobgarliklar hisoblanadi.

Tomonlar shartnoma shartlariga rozi bo‘lib o‘zaro kelishganlaridan va uni belgilangan shaklda rasmiylashtirganlaridan so‘nggina ularda huquq va majburiyat vujudga keladi.

Ijaraga beruvchi ashyni muayyan muddatga foydalanish uchun ijaraga oluvchiga berish majburiyatiga, ijaraga oluvchi shartnoma bo‘yicha kelishilgan ashyni o‘ziga topshirishni talab qilish huquqiga, ijaraga beruvchi buning uchun haq olish huquqiga ega bo‘ladi, ijaraga oluvchi esa haq to‘lash majburiyatiga ega bo‘ladi. Bunda huquq va majburiyatlar bir-biriga qarama-qarshidek ko‘rinsa-da, ular bir maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining mulk ijarasini tartibga soladigan normalarida taraflarning huquq va majburiyatları tenglik asosida ishlab chiqilgan. Xususan, bir tarafning huquqi qarshisida ikkinchi bir tarafning majburiyati bo‘lishini va aksincha har bir burchli taraf o‘z qarshisida unga huquqi bo‘lgan tarafni bo‘lishini talab etadi.

Mulk ijarasi shartnomasining muddati. Mulk ijarasi shartnomasi shartnomada belgilangan muddatga tuziladi.

Agar mulk ijarasining muddati shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Bunda taraflardan har biri boshqa tarafni bir oy oldin, ko‘chmas mulk ijarasida esa – uch oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, istagan paytda shartnomadan voz kechishi mumkin. Qonun yoki shartnomada nomuayyan muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasini bekor qilish haqida oldindan ogohlantirishning boshqa muddatlari ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

Qonunda mulk ijarasining ayrim turlari uchun, shuningdek mol-mulkning ayrim turlarini ijaraga olish uchun eng ko‘p (oxirgi) muddatlar belgilab qo‘yilishi mumkin. Bunday hollarda, basharti ijara muddati shartnomada belgilangan bo‘lmasa va qonunda belgilangan oxirgi muddat tugagunicha taraflardan hech qaysisi shartnomadan voz kechmasa, oxirgi muddat o‘tishi bilan shartnoma bekor bo‘ladi. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan bunday mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Mulk ijarasi shartnomasining shakli. Qonunda mulk ijarasi shartnomasining shakliga ham alohida ahamiyat berilgan. Mulk ijarasi shartnomasi bir yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan bo‘lsa, taraflardan birontasi yuridik shaxs bo‘lgan hollarda esa, muddatidan qat’i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart.

Ko‘chmas mulk ijarasi shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Mulk huquqining kelgusida ijarachiga o‘tishini nazarda tutuvchi mulk ijarasi shartnomasi, bunday mulknинг oldi-sotdi shartnomasi uchun nazarda tutilgan shaklda tuziladi. (FK 539-m.).

Mulk boshqa mulk egasiga o‘tganda mulk ijarasi shartnomasining o‘z kuchida qolishi. Ijaraga topshirilgan mol-mulkka nisbatan mulk (xo‘jalik yuritish, operativ boshqarish, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish) huquqining boshqa shaxsga o‘tishi mulk ijarasi shartnomasining o‘zgartirilishi yoxud bekor qilinishi uchun asos bo‘lmaydi.

Ko‘chmas mulkni ijaraga olgan fuqaro vafot etgan taqdirda, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ushbu mol-mulkni ijaraga topshirish shartnomasi bo‘yicha uning huquq va majburiyatlari vorisga o‘tadi. Shartnomaning tuzilishi ijaraga oluvchining shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liq bo‘lgan hollardan tashqari ijaraga beruvchi bunday vorisning shartnomasi amal qilishining qolgan muddatida shartnomaga qo‘shilishini rad etishga haqli emas.

Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda kelib chiqadigan oqibatlar, Fuqarolik kodeksining 541-moddasida ijaraga beruvchining quyidagi majburiyatlari nazarda tutilgan.

- ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga mol-mulkni shartnoma shartlari va mol-mulkning vazifasiga muvofiq holatda topshirmog‘i lozim;

- mol-mulkni topshirishga tayyorlash, shu jumladan topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolashga taqdim etish ijaraga beruvchining burchi bo‘lib, uning hisobidan amalga oshiriladi;

- agarda shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mol-mulk barcha mansub ashyolari va unga aloqador hujjatlar (texnik pasport, sifat sertifikati va hokazolar) bilan birga ijaraga topshiriladi.

Mol-mulkning ijaraga topshirilishi bu mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning huquqlari bekor bo‘lishi yoki o‘zgarishi uchun asos bo‘lmaydi.

Shartnoma tuzishda ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini ijaraga topshirilayotgan mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning barcha huquqlari (servitut, garov huquqi va hokazolar) haqida ogohlantirishi lozim. Ijaraga beruvchi tomonidan bu majburiyatning bajarilmasligi ijaraga oluvchiga mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqni kamaytirishni yoxud shartnomani bekor qilish va zararni to‘lashni talab qilish huquqini beradi (FK 543-m.).

Shuningdek, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni o‘z hisobidan kapital ta’mirlashi lozim.

Ijaraga oluvchi javobgar bo‘lmagan holatlar natijasida kelib chiqqan shoshilinch zarurat tufayli o‘tkaziladigan ta’mirlashni ijaraga beruvchi o‘z hisobidan amalga oshirishi shart.

Kapital ta’mirlash mulk ijarasi shartnomasida belgilangan muddatda, agar bu muddat shartnomada belgilanmagan yoki shoshilinch zarurat tufayli o‘tkazilsa, oqilona muddatda amalga oshirilmog‘i lozim.

Ijaraga beruvchining kapital ta’mirlash majburiyatini bajarmasligi ijaraga oluvchiga o‘z xohishiga ko‘ra:

- shartnomada belgilangan yoxud shoshilinch zarurat taqozo etayotgan kapital ta’mirlashni amalga oshirib, ta’mirlash qiymatini ijaraga beruvchidan undirib olish yoxud mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq hisobiga o‘tkazish;

- haqni tegishincha kamaytirishni talab qilish;

- shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va zararning qoplanishini talab qilish huquqini beradi (FK 547-m.).

Ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga muvofiq, agar bunday shartlar shartnomada belgilangan bo‘lmasa – mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishi lozim.

Agar ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramay, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoki mol-mulkning vazifasiga nomuvofiq foydalansa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni va zararning qoplanishini talab qilishga haqli (FK 545-m.).

FK 544-moddasida mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lash ijaraga oluvchining asosiy majburiyatlardan biri ekanligi nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun haqni o‘z vaqtida to‘lab turishi shart.

Mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tartibi, shartlari va muddatlari mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi. Bular shartnomada belgilanmagan hollarda odatda xuddi shunday mol-mulkni o‘xhash holatlarda ijaraga berishda qo‘llaniladigan tartib, shartlar va muddatlar belgilangan deb hisoblanadi.

Mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq ijaraga olingan barcha mol-mulk uchun yaxlit holda yoki uning har bir tarkibiy qismi uchun alohida-alohida holda quyidagi ko‘rinishlarda belgilanadi:

- vaqt-vaqt bilan yoki bir yo‘la to‘lanadigan qat’iy summada belgilangan to‘lovlar tariqasida;

- ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot, mevalar yoki daromadlarning belgilangan ulushi tariqasida;

- ijaraga oluvchi tomonidan ko'rsatiladigan ma'lum xizmatlar tariqasida;

- ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga beruvchiga shartnomada kelishilgan ashyoni mulk qilib yoki ijaraga topshirish tariqasida;

- ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash bo'yicha shartnomada kelishilgan xarajatlarni ijaraga oluvchi zimmasiga yuklash tariqasida.

Taraflar mulk ijarasi shartnomasida mol-mulkdan foydalanganlik uchun FK 544-moddasining uchinchi qismida ko'rsatib o'tilgan haq shakllarini aralash amalga oshirishni yoki haq to'lashning boshqa shakllarini nazarda tutishlari mumkin.

Agar mulk ijarasi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulkdan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq miqdori shartnomada belgilangan muddatlarda, biroq bir yilda ko'pi bilan bir marta taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin. Qonun hujjatlarida mulk ijarasining ayrim turlari uchun, shuningdek ayrim mol-mulk turlarining ijarasi uchun haq miqdorini qayta ko'rib chiqishning boshqacha eng kam muddatlari nazarda tutilishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ijaraga oluvchi o'zi javobgar bo'lman holatlarga ko'ra, shartnomada nazarda tutilgan foydalanish shartlari yoki mol-mulkning holati jiddiy yomonlashgan bo'lsa, u mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara haqini tegishli ravishda kamaytirishni talab qilishga haqli.

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara haqini to'lash muddatlari ijaraga oluvchi tomonidan jiddiy buzilgan taqdirda, ijaraga beruvchi undan ijara haqini muddatidan oldin, ijaraga beruvchi belgilagan muddatda, shuningdek, ijaraga beruvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun ko'pi bilan ikki muddatning haqini muddatidan oldin to'lashni talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan huquqlaridan biri bu ijaraga olingan mol-mulkni tasarruf qilishdir. Bu haqda Fuqarolik kodeksining 546-moddasida quyidagicha qoida nazarda tutilgan. Agar Fuqarolik kodeksida, boshqa qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkni ijaraga beruvchining roziligi bilan ikkilamchi ijaraga (qo'shimcha ijaraga) topshirishga, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijara), ijaraga olingan

mol-mulkni tekin foydalanish uchun berishga, shuningdek bu huquqlarini garovga qo'yishga va ularni xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari ustav fondiga (kapitaliga) hissa sifatida yoki ishlab chiqarish kooperativiga pay badali sifatida topshirishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hollarda ijaraga oluvchi shartnomaga bo'yicha ijaraga beruvchi oldida javobgar bo'lib qolaveradi, qayta ijara bundan mustasno. Mol-mulkni boshqa shaxslarga topshirish haqidagi shartnomaga ijara shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq muddatga tuzilishi mumkin emas.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijaraga olingan mol-mulkni ikkilamchi ijaraga topshirish haqidagi shartnomaga nisbatan mulk ijarasi shartnomasi haqidagi qoidalar qo'llaniladi.

Agarda qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijaraga oluvchi mol-mulkni yaxshi holda saqlashi, uni o'z hisobidan joriy ta'mirlashi va saqlash bo'yicha boshqa xarajatlarni qilishi lozim (FK 548-m.).

Taraflarning javobgarligi qonun yoki shartnomada bilan belgilanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi qonunining 32-moddasida taraflarning javobgarligi belgilangan. Jumladan, shartnomada tuzish tartibini va shartlarini buzishda, shartnomada majburiyatlarini bajarmaslikda shartnomani bir tomonlama o'zgartirishda yoki bekor qilishda, shartnomani o'zgartirish va to'xtatish tartibi hamda shartlarini buzishda aybdor taraf, shuningdek, davlat idoralarining mansabdor shaxslari qonunda belgilanganidek javobgarlikka tortiladilar.

Yuridik shaxslar va fuqarolar o'zları yetkazgan zararni, shu jumladan, boy berilgan foydani O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan tartibda to'lashlari shart deb ko'rsatilgan. Fuqarolik kodeksining 541-moddasi uchinchi-to'rtinchi qismlarida ijaraga oluvchiga ijara mol-mulkini to'liq va o'z vaqtida topshirmaganlik uchun ijaraga beruvchining javobgarligi belgilangan. Unga ko'ra:

- agarda shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulk barcha mansub ashyolari va unga aloqador hujjatlar (texnik pasport, sifat sertifikati va hokazolar) bilan birga ijaraga topshiriladi. Agarda bunday mansub ashyolar va hujjatlar topshirilgan bo'lmasa va ularsiz ijaraga oluvchi mol-mulkdan uning o'z vazifasi bo'yicha foydalana olmasa yoxud shartnomada tuzish paytida mo'ljallashga haqli bo'lgan ancha narsasidan mahrum bo'lsa, u ijaraga beruvchidan bunday mansub ashyolar va hujjatlarni topshirishni yoxud shartnomani bekor qilishni, shuningdek zararni qoplashni talab qilishga haqli.

- agar ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga ijaraga berilgan mol-mulkni shartnomada ko'rsatilgan muddatda, basharti shartnomada bunday muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, oqilona muddatda topshirmagan bo'lsa, ijaraga oluvchi Fuqarolik kodeksning 331-moddasiga muvofiq bu mol-mulkni undan talab qilib olish va ijroning kechikkanligi tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish yoki shartnomani bekor qilish va uning bajarilmaganligi sababli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 542-moddasiga muvofiq ijaraga topshirilgan mol-mulkdagi kamchiliklar uchun ijaraga beruvchining javobgarligi quyidagicha belgilangan.

Ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkning undan foydalanishga to'liq yoki qisman to'sqinlik qiladigan kamchiliklari uchun, hatto u shartnoma tuzish vaqtida bular haqida bilmagan bo'lsa ham, javobgardir. Bunday kamchiliklar aniqlanganda ijarachi o'z xohishiga ko'ra:

- ijaraga beruvchidan yo mol-mulkdagi kamchiliklarni tekinga bartaraf etishni yoki mol-mulordan foydalanganlik haqini mutanosib kamaytirishni yoxud mol-mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilgan o'z xarajatlarini qoplashni talab qilishga;

- ijaraga beruvchini oldindan ogohlantirgan holda o'sha kamchiliklarni bartaraf etishga sarflagan xarajatlari summasini mol-mulordan foydalanganlik uchun to'lanadigan haqdan bevosita chegirib qolishga;

- shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining talablaridan yoki uning mol-mulkdagi kamchiliklarni ijaraga beruvchi hisobidan bartaraf etish niyatidan xabardor qilingan ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni tegishli holatda bo'lган boshqa shunday mol-mulk bilan darhol almashtirib berishi yoki mol-mulkdagi kamchilikni tekinga bartaraf etishi mumkin.

Agar ijaraga oluvchining talablarini qanoatlantirish yoxud uning kamchiliklarni bartaraf etish xarajatlarini mol-mulordan foydalanganlik uchun to'lanadigan haqdan chegirib qolishi ijaraga oluvchi ko'rgan zararni qoplamasa, u zararning qoplanmagan qismini to'lashni talab qilishga haqli.

Shartnoma tuzish vaqtida ijaraga beruvchi oldindan aytib qo'ygan yoki ijaraga oluvchiga oldindan ma'lum bo'lган yoxud shartnomani tuzishda yoki mol-mulkni ijaraga topshirish paytida uni ko'zdan kechirganda yoxud uning sozligini tekshirganda ijaraga oluvchi aniqlashi kerak bo'lган kamchiliklar uchun ijaraga beruvchi javobgar bo'lmaydi.

Korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarda kechiktirilgan ijroni qabul qilishdan bosh tortishga faqat qonun va shartnomada belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Shuningdek, agar ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramay, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnomalariga yoki mol-mulkning vazifasiga nomuvofiq foydalansa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni va zararning qoplanishini talab qilishga haqli (FK 545-m. 2-q.).

Ijaraga oluvchi shartnomalariga muddati tugashi bilan ijaraga olingan mol-mulkni o‘ziga topshirilgan holatda, normal eskirishini hisobga olib yoki shartnomada belgilangan holatda qaytarishi lozim.

Agar ijaraga oluvchi ijaraga olgan mol-mulkni qaytarmasa yoki kechikib qaytarsa, kechiktirib qaytarilgan barcha vaqt uchun ijara haqini to‘lashni ijaraga beruvchi talab qilishga haqli. Bu haq ijaraga beruvchining ko‘rgan zararini qoplamagan taqdirda, zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

Ijaraga olingan mol-mulk o‘z vaqtida qaytarilmaganligi uchun shartnomada neustoyka undirish nazarda tutilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, neustoykadan tashqari zarar to‘liq miqdorda undirilishi mumkin (FK 554-m.).

Mulk ijarasi shartnomasi shartnomalariga muddati tugab, ijara mulki qaytarilishi bilan bekor bo‘ladi. Ayrim hollarda shartnomalariga beruvchining talabi bilan ham ijaraga oluvchining talabi bilan ham bekor bo‘lishi mumkin. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 551-moddasida belgilanganidek, mulk ijarasi shartnomasi ijaraga beruvchining talabi bilan sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar ijaraga oluvchi:

- ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramasdan mol-mulkdan shartnomalarini yoki mol-mulkning vazifalarini jiddiy ravishda buzgan yoxud bir necha marta buzgan holda foydalansa;

- mol-mulkni jiddiy yomonlashtirsa;

- shartnomada belgilangan to‘lov muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lamasa;

- qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq kapital ta’mirlash ishlarini bajarish ijaraga oluvchi zimmasidagi majburiyat bo‘lgan hollarda shartnomada belgilangan muddatlarda, shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda mol-mulkni kapital ta’mirlashni amalga oshirmasa.

Mulk ijarasi shartnomasida FK 382-moddasasi ikkinchi qismiga muvofiq ijaraga beruvchining talabi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini yozma ravishda ogohlantirganidan va unga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun imkoniyat bergenidan keyingina shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishini talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining talabi bilan esa mulk ijarasi shartnomasi sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar:

- ijaraga beruvchi mol-mulkni foydalanish uchun ijaraga oluvchiga bermasa yoki mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoxud mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishga to‘sqinlik qilsa;

- ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkda undan foydalanishga to‘sqinlik qiladigan kamchiliklar bo‘lib, ularni ijaraga beruvchi shartnoma tuzish vaqtida aytib o‘tmagan, ijaraga oluvchiga oldindan ma’lum bo‘lmagan va shartnoma tuzayotganda mol-mulkni ko‘zdan kechirish yoxud uning sozligini tekshirish vaqtida aniqlanishi mumkin bo‘lmagan bo‘lsa;

- ijaraga beruvchi shartnomada belgilangan muddatlarda, agarda shartnomada muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda o‘z zimmasidagi mol-mulkni kapital ta’mirlash majburiyatini bajarmasa;

- ijaraga oluvchi javobgar bo‘lmagan holatlar tufayli mol-mulk foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolsa.

Mulk ijarasi shartnomasida Fuqarolik kodeksining 382-moddasini ikkinchi qismiga muvofiq ijaraga oluvchining talabi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Agar mulk ijarasi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulk ijarasi shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi unga muvofiq tuzilgan ikkilamchi ijara shartnomasining bekor bo‘lishiga olib keladi. Bu holda ikkilamchi ijaraga oluvchi ikkilamchi ijaraning qolgan muddati davomida ikkilamchi ijara shartnomasiga muvofiq o‘zi foydalanib kelgan mol-mulkni bekor bo‘lgan mulk ijarasi shartnomasining tegishli shartlari asosida ijaraga olish haqida shartnoma tuzishi mumkin.

Agar mulk ijarasi shartnomasi qonun hujjatlaridan nazarda tutilgan asoslар bo‘yicha haqiqiy emas deb topilsa, unga muvofiq tuzilgan ikkilamchi ijara shartnomalari ham haqiqiy emas deb topiladi (FK 550-m.).

Agarda qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajargan ijaraga oluvchi shartnoma muddati tugaganidan keyin yangi muddatga mulk ijarasi shartnomasini tuzishda sharoitlar teng bo‘lgan hollarda boshqa shaxslarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi. Ijaraga oluvchi ijaraga beruvchini

mulk ijarasi shartnomasida belgilangan muddatda, agar shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, shartnomaning amal qilishi tamom bo‘lguncha oqilona muddatda bunday shartnomani tuzish istagi haqida yozma ravishda ogohlantirishi lozim. Mulk ijarasi shartnomasini yangi muddatga tuzishda shartnoma shartlari taraflarning kelishuvi asosida o‘zgartirilishi mumkin. Agar ijaraga beruvchi ijaraga oluvchi bilan yangi muddatga shartnoma tuzishni rad etsa-yu, ammo u bilan tuzilgan shartnoma muddati tugaganidan keyin bir yil ichida boshqa shaxs bilan mulk ijarasi shartnomasini tuzsa, ijaraga oluvchi o‘z xohishiga ko‘ra yo tuzilgan shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlar o‘ziga o‘tkazilishini va o‘zi bilan shartnomani yangilashni rad etish oqibatida o‘ziga yetkazilgan zararning to‘lanishini yoki faqat zararning o‘zi to‘lanishini sud orqali talab qilishga haqli.

Agar mulk ijarasi shartnomasining muddati tamom bo‘lganidan keyin ham ijaraga oluvchi mulkdan foydalanishni davom ettirsa va ijaraga beruvchi bunga e’tiroz bildirmagan bo‘lsa, shartnoma avvalgi shartlar asosida noma’lum muddatga qaytadan tuzilgan hisoblanadi.

*Mulk ijarasi shartnomasining alohida turi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari*

*Prokat shartnomasi.* Mulk ijarasi shartnomasining turlaridan biri bu – prokat shartnomasidir.-mulkni ijaraga beruvchi haq evaziga ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun ko‘char mol-mulkni topshirish majburiyatini oladi.

Prokat shartnomasi bo‘yicha topshirilgan mol-mulkdan, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa yoki u majburiyat mohiyatidan kelib chiqmasa, iste’mol maqsadlarida foydalaniladi.

Prokat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Prokat shartnomasi ommaviydir (FK 558-m.).

Prokat shartnomasi bir yilgacha muddatga tuziladi.

Mulk ijarasi shartnomasini nomuayyan muddatga qaytadan tuzish va ijaraga oluvchining mulk ijarasi shartnomasini qaytadan tuzishga imtiyozli huquqi haqidagi qoidalar prokat shartnomasiga nisbatan qo‘llanmaydi.

Ijaraga oluvchi prokat shartnomasini bajarishni istagan vaqtida rad etishga haqli (FK 559-m.).

Prokat shartnomasi bo‘yicha mol-mulkdan foydalanganlik haqi vaqtivaqt bilan yoki bir yo‘la to‘lanadigan qat’iy summadagi to‘lovlar shaklida belgilanadi.

Ijaraga oluvchi mol-mulkni muddatidan oldin qaytargan taqdirda ijaraga beruvchi unga mol-mulkdan foydalanganlik uchun olingan haqdan

tegishli qismini mol-mulk amalda qaytarilgan kunning ertasidan boshlab hisoblagan holda qaytaradi.

Mol-mulkdan foydalanganlik haqi bo'yicha ijaraga oluvchining qarzlarini notariusning ijro ustxati asosida so'zsiz undirib olinadi (FK 562-m.).

Prokat shartnomasi bo'yicha ijaraga topshirilgan mol-mulkni kapital va joriy ta'mirlash ijaraga beruvchining burchidir.

Prokat shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkni ikkilamchi ijaraga berishga, ijaraga oluvchi prokat shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishiga, bu mol-mulkning bepul foydalanish uchun berib qo'yilishiga, ijaraga oluvchining huquqlarini garovga qo'yishga va ularni xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga (kapitaliga) hissa tariqasida, ishlab chiqarish kooperativlariga pay badallari tariqasida qo'shishga yo'l qo'yilmaydi (FK 563-m.).

#### *Transport vositalari ijarasi..*

Transport vositasini ekipajsiz ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi transport vositasini boshqarish va texnik foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatmagan holda vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun ijaraga oluvchiga haq evaziga beradi.

Fuqarolik kodeksi 34-bobining ijara shartnomasini nomuayyan muddatga qayta tuzish va ijaraga oluvchining ijara shartnomasini yangi muddatga qaytadan tuzishga imtiyozli huquqi haqidagi qoidalari transport vositasini ijaraga berish shartnomasiga nisbatan qo'llanmaydi (FK 564-m.).

Transport vositasini ijaraga berish shartnomasi, uning muddatidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini ijaraga berish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak (FK 565-m.). Ayni vaqtda yengil avtomobillar va mototransport vositalarini ijaraga berish bo'yicha xizmat ko'rsatadigan yuridik shaxslar jismoniy shaxslar bilan yengil avtomobillar va mototransport vositalarini o'ttiz kungacha bo'lgan muddatga ijaraga berish shartnomalarini oddiy yozma shaklda tuzishlari mumkin.

Transport vositalari ijarasi shartnomasiga quyidagi huquqiy belgilar xosdir.

*Birinchidan*, shartnoma ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni shartnoma taraflarining har birida ham huquq, ham majburiyat mavjud.

*Ikkinchidan*, shartnoma haq baravariga tuziladi. Shartnomada albatta muqobil ijro ya'ni haq to'lash nazarda tutilishi lozim.

*Uchinchidan*, shartnoma konsensual xarakterga ega.

Shartnoma natijasida ijaraga beruvchidan ijaraga oluvchiga mulk huquqining faqat ikki elementi, egalik qilish va foydalanishgina o‘tadi. Tasarruf qilish esa mulkdor qo‘lida saqlanib qoladi.

*Binolar va inshootlar ijarasi.* Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga bino yoki inshootni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoxud vaqtincha foydalanish uchun topshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi (FK 573-m.).

Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolaydigan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi.

Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasining shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi.

Fuqarolar o‘rtasida tuzilgan bino yoki inshootni yoxud uning bir qismini ijaraga berish shartnomasi davlat soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

Bir yildan kam bo‘lмаган muddatga tuzilgan bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim va ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (FK 574-m.).

*Bino va inshootlar ijarasi shartnomasining huquqiy belgilari:*

*Birinchidan*, ushbu shartnoma taraflarining har ikkisida ham huquq va majburiyatlar bo‘lganligi sababli ikki tomonlama xarakterga ega.

*Ikkinchidan*, haq baravariga tuziladigan shartnomalar tarkibiga kiradi.

*Uchinchidan*, huquq va majburiyatning vujudga kelish paytiga ko‘ra shartnoma konsensual xarakterga ega.

Mazkur shartnomada mulk huquqining bir yoki ikki elementi ijaraga beruvchidan ijaraga oluvchiga o‘tishi mumkin. Ijaraga beruvchi bino yoki inshootni egalik qilish va foydalanish uchun yoki faqat foydalanish uchungina ijaraga berishi mumkin.

Bino va inshootlarni ijaraga berish shartnomasining obyekti bo‘lib, bino va inshoot hisoblanadi. Ular ko‘chmas mulkning obyekti bo‘lib ham hisoblanadi, chunki bino va inshoot yer uchastkasida joylashgan bo‘lib, uni bir joydan boshqa joyga ko‘chirishda uning xususiyatlari yo‘qolishi, shakli o‘zgarishi mumkin.

*Korxonani ijaraga berish.* Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida butun korxonani yoki uning bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi, ijaraga beruvchi boshqa shaxslarga o‘tkazishi mumkin bo‘lмаган huquq va majburiyatlar bundan mustasno.

Ijaraga beruvchi o‘z qarzlarini ijaraga oluvchining zimmasiga o‘tkazishi haqida kreditorlarini yozma ravishda ogohlantirishi shart, kreditorlar bunga rozi bo‘lmasalar, ogohlantirishni olgan vaqtidan boshlab uch oy davomida ijaraga beruvchidan tegishli majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni va shu tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Agar shu muddatda mazkur talablardan birontasi bildirilmasa, kreditor tegishli qarzning ijarachiga o‘tkazilishiga rozilik bergen deb hisoblanadi.

Ijaraga beruvchidan majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni va zararni qoplashni talab qilgan kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo‘linganidan keyingina korxona ijarachiga topshirilishi mumkin.

Korxona mulkiy kompleks sifatida ijaraga berilganidan keyin ijaraga beruvchi bilan ijaraga oluvchi topshirilgan korxona tarkibiga kiritilgan va ijaraga oluvchiga kreditorning rozilgisiz o‘tkazilgan qarzlar bo‘yicha solidar javobgar bo‘ladilar.

Agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijaraga beruvchining tegishli faoliyat bilan shug‘ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida olgan huquqlari ijaraga oluvchiga berilishi mumkin emas. Ijarachi maxsus ruxsatnoma (litsenziya)si bo‘lmaganligi sababli bajara olmaydigan majburiyatlarni shartnoma bo‘yicha topshirilayotgan korxona tarkibiga kiritish ijaraga beruvchini kreditorlar oldidagi tegishli majburiyatlardan ozod qilmaydi (FK 579-m.).

Korxonani ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolagan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi va u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi (FK 580-m.).

Korxonani ijaraga berish shartnomasining huquqiy belgilari:

*Birinchidan*, shartnoma ikki tomonlama xarakterga ega, ya’ni shartnoma taraflarining har birida ham huquq, ham majburiyat mavjud.

*Ikkinchidan*, shartnoma haq baravariga tuziladi, ya’ni ijaraga beruvchi butun korxonani yoki uning bir qismini haq evaziga ijaraga oluvchiga berish majburiyatini oladi.

*Uchinchidan*, shartnoma konsensual xarakterga ega.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi natijasida ijaraga beruvchidan ijaraga oluvchiga mulk huquqining faqat ikki elementi, egalik qilish va foydalanishgina o‘tadi. Tasarruf qilish esa mulkdor qo‘lida saqlanib qoladi.

*Lizing (moliya ijarasi).* Lizing – inglizcha “Forlease” so‘zidan olingan bo‘lib, “ijara olmoq” degan ma’noni anglatadi.

Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi (FK 587-m.).

FK 588-moddasiga binoan iste’mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashylolar lizing obyekti bo‘lishi mumkin, yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari bundan mustasno.

Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo‘yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o‘ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb tan olinadi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing obyektini oladigan shaxs lizing oluvchi deb hisoblanadi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo‘lsa, shu shaxs sotuvchi deb e’tirof etiladi.

Lizing beruvchi mol-mulkni bo‘lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo‘yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag‘ bilan ta’milagan taqdirda bir shaxsning o‘zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Lizing shartnomasining huquqiy belgilari:

*Birinchidan*, lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Lizing beruvchi va sotuvchi o‘rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo‘srimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

*Ikkinchidan*, lizing shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub.

*Uchinchidan*, shartnomada haq baravariga tuziladi. Lizing oluvchi lizing beruvchiga lizing obyektidan foydalanganligi uchun lizing to‘lovlarini to‘laydi.

Lizing to‘lovi lizing beruvchiga lizing obyekti qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo‘ladi (FK 590-m.).

“Lizing to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida belgilanishicha, lizing shartnomasi yozma shaklda, qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi.

Lizing shartnomasi:

shartnoma taraflaridan birining talabiga ko‘ra;

mol-mulk lizing obyekti hisoblanib, u haqda tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq notarial tasdiqlanishi talab qilinadigan hollarda notarial tasdiqlanishi lozim.

*Uy-joy ijarasi.* -joyni ijaraga berish shartnomasiga binoan bir taraf – uy-joyning mulkdori yoki u vakolat bergen shaxs (ijaraga beruvchi) — boshqa taraf (ijaraga oluvchi)ga uy-joyda yashash uchun uni haq evaziga egalik qilish va foydalanishga topshirish majburiyatini oladi.

Uy-joy yuridik shaxslarga ijara shartnomasi yoki boshqa shartnoma asosida egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Yuridik shaxs uy-joydan faqat fuqarolarning yashashi uchun foydalanishi mumkin (FK 600-m.).

Doimiy yashash uchun yaroqli bo‘lgan alohida uy-joy (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismi) uy-joyni ijaraga berish shartnomasining obyekti bo‘lishi mumkin.

Uy-joyning yashash uchun yaroqliligi uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Ko‘p kvartirali uydagi uy-joyni ijaraga olgan shaxs undan foydalanish bilan bir qatorda, Fuqarolik kodeksi 211-moddasida ko‘rsatilgan mol-mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining 603-moddasiga binoan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Fuqarolar o‘rtasida tuzilgan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga tuziladi. Agar shartnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, u besh yilga tuzilgan hisoblanadi.

Bir yilgacha muddatga tuzilgan uy-joyni ijaraga berish (qisqa muddatli ijara) shartnomasiga nisbatan, agar shartnomada boshqa hol nazarda tutilgan bo‘lmasa, Fuqarolik kodeksi 606-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 609-moddasida, 612-moddaning uchinchi qismida, 613 va 614-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llanmaydi.

Ijaraga oluvchi yangi muddatga shartnoma tuzishda imtiyozli huquqqa ega.

Agar ijaraga beruvchi uy-joyni bir yildan kam bo‘lmagan muddatda ijaraga bermaslikka qaror qilgan bo‘lsa, u yangi muddatga shartnoma tuzishni rad qilishga haqli.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi taraflarning kelishuvi bilan bekor qilinadi.

Uy-joyni ijaraga oluvchi o‘zi bilan birga doimiy yashaydigan boshqa fuqarolarning roziligi bilan ijaraga beruvchini uch oy avval yozma ravishda ogohlantirib, istalgan vaqtida ijara shartnomasini bekor qilishga haqli.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi:

agar shartnomada uzoqroq muddat belgilangan bo‘lmasa, ijaraga oluvchi tomonidan uy-joy uchun olti oy mobaynida, qisqa muddatli ijarada esa shartnomada belgilangan haq to‘lash muddati o‘tganidan keyin ikki martadan ko‘proq haq to‘lanmagan bo‘lsa;

ijaraga oluvchi yoki xatti-harakatlari uchun ijaraga oluvchi javobgar bo‘lgan boshqa fuqarolar tomonidan uy-joy vayron qilinsa yoki unga putur yetkazilsa, ijaraga beruvchining talabiga binoan sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi:

agar uy-joy doimiy yashash uchun yaroqli bo‘lmay qolsa, shuningdek avariya holatiga kelib qolsa;

uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda shartnomadagi istalgan tarafning talabiga binoan sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

Agar uy-joyni ijaraga oluvchi yoki xatti-harakatlari uchun ijaraga oluvchi javobgar bo‘lgan boshqa fuqarolar uy-joydan uning vazifasiga binoan foydalanmasalar yoxud muntazam ravishda qo‘snilarning huquqlari va manfaatlarini buzsalar, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini qoidabuzarliklarga barham berish zarurligi to‘g‘risida ogohlantirishi mumkin.

Agar ijaraga oluvchi yoki xatti-harakatlari uchun ijaraga oluvchi javobgar bo‘lgan boshqa fuqarolar ogohlantirish olganlardan keyin ham uy-joydan uning vazifasiga binoan foydalanmaslikni yoki qo‘snilarning huquq va manfaatlarini buzishni davom ettirsalar, ijaraga beruvchi uy-joyni ijaraga berish shartnomasini sud tartibida bekor qilishga haqli.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasini bekor qilish uchun asos bo‘lgan qoidabuzarliklarga barham berish tartibi va muddatlari qonun bilan belgilab qo‘yiladi (FK 615-m.).

Fuqarolik kodeksining 616-moddasiga binoan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi bekor qilingan taqdirda, ijaraga oluvchi va shartnomalarni bekor qilingan vaqtida uy-joyda yashab turgan boshqa fuqarolar sudning qaroriga asosan uy-joydan ko‘chirib chiqarilishi lozim.

Tekin foydalanish shartnomasi va uning elementlari. Tekin foydalanish shartnomasining mazmuni. Ashyoni tekin foydalanish uchun berish. Ashyoni tekinga berish shartnomasining amal qilishi.

Tekin foydalanish (ssuda) deb shunday shartnomaga aytildiki, unga ko‘ra, bir taraf (ssuda beruvchi) ikkinchi taraf (ssuda oluvchi)ga ashyoni vaqtincha tekin foydalanish uchun berish majburiyatini oladi, ikkinchi taraf esa bu ashyoni qanday olgan bo‘lsa, normal yeyilishini hisobga olib, xuddi shunday holatda yoki shartnomada nazarda tutilgan holatda qaytarib berish majburiyatini oladi (FK 617-m.).

Shartnomaning predmeti ikkinchi tarafga vaqtincha foydalanish uchun topshirilishiga ko‘ra, u mulk ijarasi shartnomasiga o‘xshab ketadi, ayni paytda, tekin foydalanish uchun topshirilishi bilan undan farq qiladi.

Ashyoni tekin foydalanishga berish huquqiga uning mulkdori va qonun yoki mulkdor tomonidan vakolat berilgan boshqa shaxslar ega bo‘ladi.

Tijorat tashkiloti o‘z muassisi, ishtirokchisi (aksiyadori), rahbari, o‘z boshqaruv yoki nazorat organlarining a’zosi bo‘lgan shaxsga ashyoni tekin foydalanishga berishga haqli emas (FK 618-m.).

Ssuda beruvchi ashyoni undan tekin hamda vazifasiga muvofiq foydalanish shartlariga javob beradigan holatda topshirishi shart.

Agar shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ashyo undan tekin foydalanish uchun barcha mansub ashylari va tegishli hujjatlari (foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar, texnik pasporti va shukabilar) bilan birga beriladi.

Agar bunday ashylar va hujjatlar berilmagan bo‘lib, ularsiz ashyodan vazifasiga muvofiq foydalanib bo‘lmasa yoki undan foydalanish ssuda oluvchi uchun o‘z ahamiyatini ancha yo‘qotsa, ssuda oluvchi bunday ashylar va hujjatlar berilishini yoki shartnoma bekor qilinib, o‘zi ko‘rgan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqli (FK 619-m.)

Agarda biron-bir fuqaro ashyoni tekin foydalanish uchun topshirishga va’da qilsa, uning bunday va’dasi yuridik ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Ayni vaqtida ashyoni tekin foydalanish uchun topshirishga majbur qilib ham bo‘lmaydi. Lekin ssuda oluvchi FK 620-moddasi tartibida berilishi lozim bo‘lgan ashyoni olmasa (ya’ni, ssuda beruvchining aybi bilan), u shartnomani bekor qilishi va yetkazilgan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

Tekin foydalanish shartnomasi uchun quyidagi huquqiy belgilar xarakterlidir:

birinchidan, agar yuridik shaxs muayyan mol-mulkni tekin foydalanish uchun topshirish majburiyatini olgan bo‘lsa, bu to‘g‘risidagi shartnoma mol-mulkni foydalanish uchun oluvchining yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lishidan qat’i nazar, konsensual xarakterdagи shartnoma bo‘lib ko‘riladi;

ikkinchidan, shartnoma tekinga (haqsiz) tuziladi;

uchinchidan, tekin foydalanish bir tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi.

Shartnomaning o‘ziga xos belgilaridan yana biri shundaki, shartnoma bo‘yicha tekin foydalanuvchiga mulkdorning faqat ikki huquqi, ya’ni mulkka egalik va undan foydalanish huquqi o‘tadi.

## **2-§. Qarz shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va turlari**

Qarz shartnomasi hali kishilik jamiyatidagi ijtimoiy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar u qadar rivojlanmagan paytdayoq, muayyan vaqtgacha taraflar moddiy ashyolarni qaytarish sharti bilan o‘zaro berib turish tarzida shakllangan edi. Qarz shartnomasining dastlabki huquqiy belgilari qadimgi Rimda yaratilgan. Pul ixtiro qilinishi bilan qarz shartnomasi o‘zining hozirgi ko‘rinishini olgan. Keyinchalik kishilik jamiyati shakllanib, qarz shartnomasi nafaqat o‘zaro yordam va ishonch turi, balki, foyda ko‘rish vositasi sifatida qarz shartnomasidan keng foydalana boshlandi<sup>1</sup>. Qarz shartnomasida taraflar manfaatdor bo‘ladilar.

Qarz shartnomasi deb, shunday shartnomaga aytildiki, bunga qonunga asosan bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi taraf (qarz oluvchi)ga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi. Qarz oluvchi esa, olgan qarzini qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, olgan summadagi pul miqdorini yoki o‘sha qarzga olingan ashyoning xili, sifati va miqdoriga baravar ayollarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi (FK 737-m.) Qarz shartnomasi taraflar o‘rtasida pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Qarz shartnomasi Fuqarolik kodeksining 732-moddasida nazarda tutilgan tartibda tuziladi. Qarz shartnomasi fuqarolik huquqida majburiyat huquqidan kelib chiqadigan, bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarning ayrim turlariga kiradi.

Qarz shartnomasiga asosan yuqorida qayd qilinganidek, qarz beruvchi qarz oluvchining egaligiga yoki operativ boshqaruviga pul summasini yoxud son, miqdor o‘lchovdagi mulkni beradi.

Qarz shartnomasi shartiga ko‘ra olingan qarz yoki narsa (ashyo) qarz beruvchiga qaytarilishi lozim bo‘lib, uning tartibi va muddati shartnomada ko‘rsatiladi. Agar qaytarish muddati shartnomada ko‘rsatilmagan bo‘lsa,

---

<sup>1</sup> Фуқаролик ҳукуқи (иккинчи қисм): Дарслик. – Т., 2008. – Б.928.

qarz beruvchi qarzini talab qilgan vaqtida qarz oluvchi qarzni qaytarishga majbur bo‘ladi.

Qarz shartnomasi bo‘yicha qarz olgan shaxs tomonidan qarzni qaytarish yoki to‘lov muddati o‘tkazib yuborilganda, “Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaning (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i, 2019-yil 4-yanvarda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3113) 86-bandiga ko‘ra, “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 73-moddasiga muvofiq “qarz beruvchining iltimosiga ko‘ra notarius qarzdorga mulkni qaytarish yoki qarz summasini qaytarib berish to‘g‘risidagi qarz beruvchining arizasini qarz olgan tarafga arizani topshirish notarial harakatini amalga oshirishi va bu haqda guvohnoma berishi mumkin”<sup>1</sup>. Ushbu hujjatga asosan shartnomalar majburiyatlarini bajarilmagan taqdirda, notarius “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 76-80-moddalari asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 18-yanvardagi 26-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so‘zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro‘yxati<sup>2</sup>ga muvofiq ijro xatini yozadi.

Qarz shartnomasining yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari, boshqa shartnomalardan o‘zining qo‘yidagi huquqiy belgilari bilan farq qiladi, *jumladan*:

*Birinchidan*, bu shartnomalar real (reas-ashyo) – buning ma’nosini shundaki, taraflar o‘rtasida shartnomalar talabi bo‘yicha, huquq va burchlar shartnomalar predmeti bo‘lgan pul yoki ashyni qarz beruvchi qarz oluvchiga topshirish paytida vujudga keladi va shartnomalar shu paytdan tuzilgan hisoblanadi. Real shartnomasi ushbu xususiyati bilan “konsensus” xarakterga ega bo‘lgan kredit shartnomasidan farq qiladi.

*Ikkinchidan*, qarz shartnomasi bir tomonlama shartnomalar guruhiiga kiradi, chunki bu shartnomalar yuzasidan bir taraf qarz beruvchi huquqlarini olsa, ikkinchi tomonda qarzdorga qarz narsasini qaytarish burchi vujudga keladi. Boshqacha aytganda, qarz beruvchi qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, qarzdor olgan pulni yoki ashyni qaytarishga majbur bo‘ladi.

*Uchinchidan*, qarz shartnomasiga ko‘ra qarzdor olgan mulkidan foydalanib, uni ushbu mulk huquqiga nisbatan vaqtinchalik egalik huquqi

---

<sup>1</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2019 йил, 10/19/3113/2422-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2002. – №2. – 19-м.

vujudga keladi. Qarzdor ijara shartnomasidan farqli o‘larroq aynan shu ashayoning o‘zini qaytarmaydi, ammo xili, sifati, miqdoriga teng boshqa narsa, ashyo qaytarishga burchli bo‘ladi, demak ushbu shartnoma o‘z navbatida mulkka egalik huquqini bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadigan shartnomalardan bo‘lib, hisoblanadi. Masalan: qarzdor qarzga olingan narsani o‘z ixtiyori bo‘yicha tasarruf qila oladi va qarzga olingan narsani aynan o‘zini qaytarmasdan olgan pulini yoki o‘sha qarzga olingan narsaning xili, sifati va miqdori baravarida boshqa narsani qaytarishga majbur bo‘ladi.

*To ‘rtinchidan*, qarz shartnomasi haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalar guruhiga kiradi, chunki qarz oluvchi qarz beruvchiga qarzni to‘lash vaqtি kelganda foiz to‘lashi shart bo‘ladi. Qarz shartnomasi bo‘yicha foizlarni belgilash yuzasidan shartlar taraflar tomonidan Fuqarolik kodeksining 734-moddasida ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi.

Qarz shartnomasining predmeti pul yoki moddiy alomatlariga ko‘ra, og‘irlilik yoki o‘lchovi miqdor bilan belgilangan narsalar bo‘lib hisoblanadi.

Qarz shartnomasi bo‘yicha tuzilayotgan shartnoma taraflardan birining talabi bo‘yicha, yoki taraflarning kelishuviga ko‘ra xohlagan notarial idora tomonidan tasdiqlatishlari mumkin, har qanday notarial tomonidan tasdiqlangan qarz shartnomasi yuridik kuchga ega bo‘ladi. Chunki, shartnomadagi talablarni bajarilishida taraflarga huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Qarz shartnomasi tasdiqlanayotganda notarius taraflarning haqiqiy xohish va istaklarini aniqlash huquqiga egadir. Shartnomada qarzning qaytarilish muddati, joyi va majburiyat bajarilishini ta’minlash usullari haqida notarius tomonidan tushuntirilishi shart, notarius tomonidan tushuntirilgan shartlar yoki majburiyatlar shartnomada o‘z aksini topishi lozim. Lozim bo‘lsa, notarius taraflarning xohish-istiklarini aniqlash maqsadida ariza olishi ham mumkin. Notariuslar “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga asosan notarius o‘z faoliyatida mustaqil va betaraf bo‘lib, uni amalga oshirishda notariat to‘g‘risidagi qonunchilikka amal qiladi. Ushbu Qonunning 18-moddasiga muvofiq notarial idoralar jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashish, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishga majburdirlar.

Qarz shartnomasini notarial idoralar tomonidan tasdiqlanayotganda, barcha yuridik harakatlar davlat notarial idoralarining binolarida amalga oshiriladi. Agarda qarz shartnomasi bo‘yicha shartnoma tuzayotgan taraflarning birining kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga

ko‘ra davlat notarial idorasiga bora olmaydigan ayrim hollarda yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa holatlarda, notarial harakatlar davlat notarial idorasi binosidan tashqarida, ya’ni taraflarning birining joylashgan joyida amalga oshirilishi mumkin.

Notarial harakatlar davlat notarial idorasi binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning tasdiqllovchi yozuvida va notarial harakatlarni ro‘yxatga olish reyestrida notarial harakat amalga oshirilgan joyning manzili ko‘rsatilishi lozim.

FK 734-moddasiga asosan qarz shartnomasi qarz bo‘yicha olgan mulk (ashyo)ning qaytarilishini nazarda tutadi, qarz summasiga olinadigan foizlar miqdori shartnomada belgilanadi. Qarz oluvchidan foizlar undirishda sud bir vaqtning o‘zida qarz summasidan davlat foydasiga soliq ushlab qolishi lozim. FK 327-moddasida ko‘rsatilgan pul majburiyatini, shuningdek qarz majburiyatini bajarmaganlik uchun foizlar, qarz shartnomasida belgilangan foizlardan ham ortiq hisoblanishi mumkin.

Qarz shartnomasini tuzishda ma’lum summani qarzga olish haqidagi tilxatda bir vaqtning o‘zida qarzni qaytarishni ta’minalash uchun biron-bir ko‘char yoki ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish haqida ko‘rsatilgan hollarda sudlar bunday bitim tuzuvchi taraflarning majburiyatlarni bajarishni ta’minalash masalasini tartibga soluvchi moddiy huquq mezonlariga rioya qilmaganligi nuqtai nazaridan baho berishlari lozim (FK 271-m.).

Qarz shartnomasining shakli qonunda asosan yozma shakl deb belgilangan. Hozirga qadar qarz shartnomasini fuqarolar o‘rtasida og‘zaki shaklda tuzish hollari uchraydi. Qonunchilikka ko‘ra, qarz shartnomasi fuqarolar o‘rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ortiq bo‘lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganida esa summasidan qat’i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart.

Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashylar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo‘lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi (FK 733-m.).

Agar qarz majburiyati qarz oluvchi tomonidan berilgan veksel, obligatsiya yoki qarz summasini va qarz beruvchining uni undirib olish huquqini belgilaydigan, boshqa qimmatli qog‘oz bilan tasdiqlangan bo‘lsa, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

Agarda qonun yoki qarz shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz

oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan holda va tartibda foizlar olish huquqiga ega bo‘ladi (FK 734-m.).

Tashkilotlar o‘rtasidagi qarz shartnomasi ham ikkita tomon kelishib qarz narsasi bir tomondan ikkinchi tomonga berilgandan so‘ng shartnomasi imzolanadi va shu vaqtadan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

*Qarz shartnomasining obyekti* pul yoki jismiy alomatlari bilan, ya’ni son, og‘irligi yoki o‘lchov bilan belgilangan narsalar bo‘lib hisoblanadi.

*Qarz shartnomasining subyektlari* 18-yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatiga ega bo‘lgan, o‘zining xatti-harakatlariga javob bera oladigan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar ham belgilangan tartibda bo‘ladilar. Masalan bir jamoa xo‘jalikni ikkinchi jamoa xo‘jalikka urug‘lik berib turishi misol bo‘ladi.

Qarz shartnomasi munosabatlarida qatnashayotgan taraflarning biri, muomala layoqatiga ega bo‘lmalar, o‘zlarining xatti-harakatlariga javob bera olmasalar yoki muomala layoqati cheklangan bo‘lsa, qarz shartnomasining subyekti bo‘la olmaydilar.

Qarz shartnomasida notarial harakatlar amalga oshirilayotgan vaqtida taraflar shartnomada muddatni ko‘rsatishi lozim, agarda qarz shartnomasida qarzni qaytarish muddati belgilanmagan bo‘lsa, qarz oluvchi uni qarz beruvchini qarzini qaytarish haqida talab qo‘yilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida qaytarish majburiyatini oladi.

Agarda qonun hujjatlarida yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lmasa, qarz oluvchi qarz summasini o‘z vaqtida qaytarmaganligi uchun Fuqarolik kodeksining 734-moddasasi birinchi qismida nazarda utilgan foizlar to‘langan bo‘lishidan qat’iy nazar, qarz qaytarib berilishi kerak.

Amaldagi FK qarz shartnomasining ikki turlari ko‘rsatilgan:

- aniq maqsadli qarz (FK 739-m.);
- davlat zayomi shartnomasi (FK 743-m.).

Oddiy qarz shartnomasi aniq maqsadli qarzdan farq qiladi, bunda sabab shundaki, qarz shartnomasi asosida olingan qarz ko‘rsatilgan aniq maqsadlarda ishlatilishi lozim. Masalan: korxona, tashkilot o‘z xodimining uy-joy sharoitini yaxshilash maqsadida unga qarz bergen bo‘lsa, xodim uni boshqa maqsadlarga ishlatishga haqi yo‘q. Agarda qarz shartnomasi bo‘yicha olingan qarz ko‘zlangan maqsadga emas, balki boshqa asoslanmagan maqsadlarda foydalansa qarz beruvchi qarzini muddatidan oldin, agarda foizli bo‘lsa, foizlari bilan birgalikda talab qilib olish huquqiga ega.

FK 743-moddasida ko‘rsatilgan qarz shartnomasining ikkinchi turi – davlat zayomi shartnomasi hisoblanadi.

Davlat zayom shartnomasi bo‘yicha davlat qarz oluvchi, fuqaro yoki yuridik shaxs qarz beruvchi bo‘ladi. Davlat zayom shartnomasida olingan qarzni qaytarish to‘g‘risida alohida muddatlar belgilanmagan bo‘lsa, qarz beruvchi tomonidan qarzni talab qilgan zamon qaytarishga majbur bo‘ladi.

Davlat zayomlari ixtiyoriydir. Lekin davlat zayomlarini hukumat nomidan tegishli yuridik shaxslar chiqarishi mumkin. Davlat zayomlaridan asosan, ichki pul emissiyasini kamaytirish, ya’ni qog‘oz pullar emissiyasini ko‘paytirmagan holda fuqarolar va yuridik shaxslarni mablag‘laridan davlat ehtiyojlari uchun keng maqsadlarda foydalanadilar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek Fuqarolik kodeksida qarz shartnomasi qimmatli qog‘ozlar “veksel” yoki “obligatsiya”lar yo‘li bilan ham tuzilishi mumkin.

*Obligatsiyalar.* Obligatsiyalar ularning egasi pul mablag‘lari bergenligini tasdiq etuvchi va qimmatli qog‘ozlarning belgilangan qiymatini ularda ko‘rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to‘langan holda, basharti obligatsiyalarni chiqarish shartlarida o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozlardir.

Quyidagi turlardagi obligatsiyalar chiqariladi:

respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalari;

korxonalarining obligatsiyalari.

Obligatsiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomalada yuritiladigan yoki muomala doirasi cheklangan qilib chiqarilishi mumkin.

*Veksel.* Veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda utilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lash yuzasidan qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz veksel hisoblanadi.

Veksellar oddiy va yuboriladigan veksellarga bo‘linadi.

*Qarz shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari*

Qarz shartnomasi bir tomonlama shartnomasi bo‘lganligi tufayli taraflarning birida huquq, ikkinchisida majburiyatni vujudga keltiradi.

*Bu yerda qarz beruvchi qo‘yidagi huquqlarga ega bo‘ladi:*

- berilgan qarzni qaytarish muddati kelgan vaqtda, qarz oluvchidan qarzni tezda qaytarilishini talab qilish;

- agar qarz oluvchiga aniq maqsadli qarz berilgan bo‘lsa, shu qarzning qanday tarzda ishlatilishini nazorat qilish.

*Qarz oluvchining majburiyatlari:*

- agar qarzni qaytarish muddati kelib qolgan bo‘lsa, qarzni o‘z vaqtida qaytarish;

- qancha miqdorda qarz olingan bo‘lsa, shuncha miqdorda qaytarish;

- agar qarz shartnomasida qaytarish vaqtiga foiz hisoblash kerak bo‘lsa, qarzni foizlar bilan qaytarishdan iborat.

Qarz oluvchi tomonidan, qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlar yoki olingan qarz ko‘zlangan maqsad bo‘yicha ishlatilmasa, qarz shartnomasining aniq maqsadli qarz shartnomasining shartiga rioya qilinmagan hisoblanadi. Bunday harakat esa, qarz oluvchi tomonidan qarz shartnomasini buzilishi holatlarini kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Buning natijasida esa qarz beruvchi, qarz olgan shaxsdan, bergen qarzni muddatidan oldin qaytarib olish huquqiga ega. Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, taraflar (qarz beruvchi, qarzdor) qonunda yoki shartnomada ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarishlari lozim. Ayniqsa, qarzdor shartnomadagi tartibga rioya qilmasdan uni shartlarini buzsa, ma’lum darajada moddiy javobgar bo‘lishi mumkin. Masalan, qarz beruvchi, qarzdorga olgan qarzini belgilangan muddatda qaytarishini qat’iy belgilab qo‘yan bo‘lsa, qarzdor olgan qarzini shartnoma talabi bo‘yicha olgan qarzini va foiz belgilangan bo‘lsa foizi bilan birga olgan qarzini ko‘shib qaytarishga majburdir.

Aks holda, qarz beruvchi, qarz oluvchidan olgan qarzini o‘z vaqtida qaytarmaganligi uchun, qarz talab qilingan kunidan boshlab to shu qarz to‘langan kunga qadar qo‘srimcha qarz (pul yoki boshqa turdag‘i) qimmatlikka ega bo‘lgan ashyolarni talab qilib olish huquqiga ega.

Shuningdek, taraflar o‘rtasida, qarz shartnomasi tuzilayotgan paytda, qarz summasini qaytarish majburiyati ya’ni muddati shartnomada belgilangan bo‘lishi lozim, agarda qarz shartnomasida qarzni qaytarish muddati belgilanmagan bo‘lsa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarzni qaytarish haqida talab qo‘ysa, talab qo‘yilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida qarz oluvchi qarzni qaytarishga majbur. Agarda qarz oluvchiga qarz beruvchi tomonidan talab qo‘yilgan muddat ichida talab qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan taqdirda taraflar nizo kelib chiqadi va qarz shartnomasi bo‘yicha da’volashish huquqi paydo bo‘ladi.

*Qarz shartnomasi yuzasidan da’volashish.* Qarz oluvchi pul yoki boshqa ashyolarni qarz beruvchidan amalda olmaganligini yoki shartnomada ko‘rsatilgan miqdordan kam miqdorda olganligini isbot qilib qarz shartnomasi yuzasidan FK 737-moddasi birinchi qismi talabi bo‘yicha da’volashishga haqli bo‘ladi.

Agar qarz oluvchi shartnomasi yuzasidan da’volashuvchi jarayonida

pul yoki boshqa ashyolar haqiqatdan ham qarz beruvchidan olmaganligi aniqlansa qarz shartnomasi tuzilmagan deb hisoblanadi. Qarz oluvchi qarz beruvchidan pul yoki boshqa ashyolarni shartnomada ko'rsatilganidan amalda kam miqdorda olgan hollarda shartnoma ana shu miqdordagi pul yoki ashyolarga tuzilgan deb hisoblanadi.

Agar taraflar o'rtasida bunday kelishuv bo'lsa-yu, ammo qarz narsasi topshirilmagan bo'lsa, bu holda bitimda ko'rsatilgan pul yoki ashyoni to'lash (qarzni qaytarish) burchi vujudga kelmaydi. Qarzdor shartnomada nazarda tutilgan pul yoki narsani olmaganligini isbotlab berishi bilan tegishli dalillarga asoslanib da'vo qo'zg'atib tuzilgan shartnomani qarz beruvchi tomonidan talab darajasida bajarilmaganligi tufayli uni bekor qilishni talab qilishga haqli.

Fuqarolik Kodeksining 737-moddasi talabi bo'yicha, qarz shartnomasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, shuningdek shartnomaning boshqa talablariga rioya qilmaslik manfaatdor taraflarga ishni sud siz yoki sudda ko'rib chiqish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqini berishi nazarda tutilgan.

Qarzdor olgan qarzini, qarz beruvchi qarzni talab qilmasdan oldin ham, qonunda ko'rsatilgan muddatidan oldin qaytarishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarda yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarz oluvchi qarz summasidan Fuqarolik kodeksining 734-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar to'langan bo'lishidan qat'i nazar qarz summasi vaqtida qaytarilmagan hollarda qarz qaytarilib berilishi kerak bo'lган kundan boshlab, to u qarz beruvchiga qaytarib berilgan kungacha bu summa yuzasidan FK 327-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan miqdorda foiz to'lashi kerak.

Agar qarz shartnomada qarzni qismlab (bo'lib-bo'lib) qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi qarzning navbatdagi qismini qaytarish uchun belgilangan muddatni buzgan taqdirda, qarz beruvchi qarzning qolgan barcha summasini tegishli foizlar bilan birga muddatdan oldin qaytarishni talab qilishga haqli.

Agar qarz shartnomasida qarz bo'yicha foizlarni qarzning o'zini qaytarish muddatidan oldin to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, bu majburiyat buzilgan taqdirda, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini tegishli foizlar bilan birga muddatidan oldin qaytarishni talab qilishga haqli.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, taraflar (qarz beruvchi, qarzdor) qonunda yoki shartnomada ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarishi lozim. Ayniqsa, qarzdor shartnomadagi

tartibga rioya qilmasdan uni shartlarini buzsa, ma'lum darajada moddiy javobgar bo'lishi mumkin.

Masalan: qarz beruvchi, qarzdorga olmagan qarzni belgilangan muddatda qaytarishni qat'iy qilib qo'yilgan hollarda, qarzdor esa shartnomada ko'rsatilgan muddatda qarzini qaytarib bermasa, qarz evaziga ilgari to'langan foizga qaramasdan qarz beruvchi vaqtida qaytarilmaganligi uchun qarz talab qilingan kundan boshlab to shu qarz to'lanmagan kungacha (qancha bo'lishidan qat'i nazar qo'shimcha foiz puli yoki boshqa xildagi, turdag) olish huquqiga ega.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizning hisob ta'rifi bilan belgilanishi, Fuqarolik kodeksining 327-moddasida ko'rsatilgan.

Undiriladigan foiz miqdorini sud da'vo qo'zg'atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizning hisob ta'rifiga qarab undirishi yuqoridagi huquqiy me'yorda o'z ifodasini topgan.

Bu qoida shartnomada talablarini buzuvchi, intizomsiz qarzdorlarga nisbatan qo'shimcha moddiy ta'sir choralaridan bo'lib hisoblanadi.

Ushbu moddaning bu qismida qarz beruvchi qarzdorning mulkiy ahvoliga qarab (qarzni to'liq qaytarishga qodir bo'lman hollarda) belgilangan muddatda qarzni bo'lib-bo'lib to'lashi mumkinligini shartnomada qayd etilishi ko'rsatilgan.

Qarz oluvchi qarz summasining qaytarilib berilishini ta'minlash yuzasidan qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa, shuningdek qarzning ta'minoti qarz beruvchi javobgar bo'lman vaziyatlarda yo'qotilsa yoki uning shartlari yomonlashsa, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini muddatidan oldin qaytarishni va tegishli foizlarni to'lashni talab qilish huquqiga ega.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, qarz shartnomasidagi talablar har vaqt kelishilgan shartlarga to'g'ri bo'lmasligi amaliyotdan ma'lum.

Agar qarz beruvchi qarzdorning shartnomada ko'rsatilgan talablarini bajarishga qurbi yetmasligini sezib, olgan qarzini qaytarib berishdan xavotirga tushsa, bergan qarzini va uning evaziga olishi lozim bo'lgan foizini belgilangan muddatdan ilgari talab qilishga haqli.

Masalan: qarzdor qarzini 2012-yil fevral oyiga qadar to'lashni shartnomada ko'rsatib bunga asos sifatida o'ziga qarashli televizorni sotib, shu muddatda qarzini qaytarishni zimmasiga olgan bo'lsa, biroq qarz beruvchining sotishga mo'ljallangan televizorni, FK 249-moddasiga ko'ra,

qarzdorning boshqa fuqarolik ishi bo‘yicha sud shu mulkni xatlanganligini bilib qolgan hollarda, qarzni muddatdan ilgari talab qilishga haqli. Bulardan tashqari, agar qarz beruvchi, tijoratchi-qarzdorning moliyaviy bankrotga uchraganini va qarzni ta’minlash uchun qarzdorda imkoniyat yo‘qligini aniqlasa va bunda qarzdor hech qanday aybdor bo‘lmasa, uning bu masalada javobgar bo‘lmasligi sababli shartnoma muddatidan oldin bekor qilinib, qarz summasi yoki tegishli foizlarni ham talab qilishga haqlidir.

Qarz shartnomasining tarkibi bo‘yicha moddada biror-bir chegara o‘rnatilmagan. Qarz beruvchilar har qanday jismoniy va yuridik shaxslardan iborat bo‘lishlari mumkin.

Kredit shartnomasi bo‘yicha qarz (kredit) bank, unga kredit tashkilotlari (tijorat krediti bundan mustasno, FK 748-m.)dan iborat bo‘lishlari mumkin.

Qarz shartnomasi aksariyat hollarda, taraflarning kelishuviga ko‘ra tekinga tuziladi, foizlar olishga qonunda nazarda tutilsa yo‘l qo‘yiladi. Qarz shartnomasi boshqa shartnomalardan yana bir farqli jihat, uning predmeti pul yoki ashyo bo‘lib hisoblanadi. Agar fuqarolar o‘rtasida qarzga narsa berilgan bo‘lsa, u holda bu narsa iqtisodiy muomaladan chiqarilmagan bo‘lishi, iste’mol qilinishi bilan bog‘liq bo‘lsa, iste’mol talablariga javob beradigan bo‘lishi lozim.

Qarz shartnomasi subyektlar o‘rtasida yozma shaklda tuzilgan bo‘lishi lozim, biroq shartnoma aldash, zo‘rlik ishlatish, xullas jinoiy jazoga loyiq xatti-harakatlar qilinganda va taraflarni shu tufayli mulkiy huquqlari buzilgan taqdirda, qarzdor guvohlarning ko‘rsatmalari yoki boshqa qaratilgan vaj va huquqlar bilan o‘zini himoya qilishga haqli. Ushbu moddaning bu qismi amaliyotni umumlashtirish natijasida vujudga kelgan qoidadir. Bu huquqiy me’yor ham fuqaro va boshqa shaxslarning manfaatlarni himoya qilishga qaratilgandir, chunki taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni insofsiz ravishda (uzrsiz) bajarmaslik hollari uchrab turadi. Shunga qaramasdan qarz beruvchi qarzdordan foiz yoki boshqa manfaatlarni olishga harakat qiladi. Vaholanki, qarz beruvchi qarzni qarzdorga shartnomaga ko‘ra bermasa-da, shartnoma tuzilganligini asos qilib yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan manfaatni olish uchun sudda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish tartibi bilan o‘z maqsadiga erishishga harakat qiladigan shaxslar uchun mo‘ljallangan qoidadir. Bunga asosan qarzdor kreditordan qarzni olmaganligini isbotlasa, shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi.

Bundan tashqari qarz oluvchi qarz beruvchidan shartnomada belgilangan pul yoki boshqa narsani belgilanganidan kam miqdorda olgan

taqdirda, sud tuzilgan qarz shartnomasini faqat ijro etilgan shartnomaga qismiga nisbatan tuzilgan deb hisoblashi mumkin.

Demak, ushbu huquqiy me'yorda qarz shartnomasini bajarmaslik yoki ma'lum darajada bajarganlik, shartnomaning boshqa talablariga rioxay qilmaslik manfaatdor tarafga ishni sud siz yoki sudda ko'rib, ularning qonuni huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqini berish nazarda tutilgan.

### **3-§. Kredit shartnomasi va uning turlari**

Kredit-tovar-pul munosabatlari sharoitidagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlarini yuzaga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi.

Kreditga iqtisodiy jihatdan yondashib ta'rif beradigan bo'lsak, "kredit – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir". Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilarining mablag'lari yetarli bo'lмаган sharoitda to'lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.<sup>1</sup>

*Kredit shartnomasi.* Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi (FK 744-m.).

Ushbu tushuncha kreditga Fuqarolik kodeksi asosida berilgan tarifdir. Shuningdek, adabiyotlarda kredit deganda, o'z egalar qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatda haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi deb ta'rif beriladi.

Bizningcha, kreditga birmuncha tor ma'noda ta'rif berilgan, chunki kredit berish faqat qonunda belgilangan subyektlar tomonidan amalga oshirilib, haq evaziga emas, balki qonunlarda va shartnomalarda belgilangan tartibda muayyan foiz hisobiga beriladi. Shu maqsadda kreditga quyidagicha ta'rif berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kredit deb qonunda belgilangan kredit beruvchi subyektlar tomonidan muayyan

---

<sup>1</sup> Фуқаролик ҳукуқи (Иккинчи қисм): Дарслик. – Т., 2008. – Б.928.

muddatga faqat foiz evaziga, yuridik shaxslar va muomalaga layoqatli jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lariga aytildi. Kreditning turlariga (tijorat krediti, ashylarni kreditga berish va boshqa) qarab, bu ta’rifni yanada kengaytirish mumkin. Kredit shartnomasi doimo yozma shaklda tuziladi. Chunki, kredit shartnomasini tuzishda yozma shaklga rioya qilmaslik, kredit shartnomasining huquqiy bo‘lmashligiga olib keladi. Bunday shartnoma esa o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi (FK 745-m.). Qonunda belgilab qo‘yilgan qoidalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda ishtirok etayotgan tomonlardan loaqlal bittasi yuridik shaxs bo‘lganda ham bu shartnoma albatta, yozma shaklda tuzilishi shart. Kredit shartnomasida kredit beruvchi tomon har doim yuridik shaxs bo‘ladi.

Kredit munosabatlarini huquqiy tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahriri)<sup>1</sup>, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi (yangi tahriri)<sup>2</sup> Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosiy o‘rin egallaydi. Bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish va tartibga solishda fuqarolik-huquqiy shartnomalar qo‘llaniladi.

Qonunchilikka muvofiq kredit tashkilotlari bo‘lмаган tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilgan hollarda kredit shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Kredit shartnomasining shakliga rioya qilmaslik kredit shartnomasining yuridik ahamiyatga ega bo‘lmashligiga olib keladi. Kredit munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, yozma ravishda tuzilmagan shartnomalar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi.

#### *Kreditning turlari:*

-tijorat krediti; bank krediti; iste’molchi krediti; davlat krediti; xalqaro kreditlardan iborat bo‘ladi.

*Tijorat krediti* – sotuvchilarining xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bunda tovarlar ma’lum muddatda pulini to‘lash sharti bilan nasiyaga beriladi.

Tijorat krediti quyidagi usulda beriladi:

*veksel usuli* – bunda tovar yetkazib berilgandan so‘ng sotuvchi

---

<sup>1</sup> Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.11.2019 йил, 03/19/580/3994-сон.

<sup>2</sup> Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.11.2019 йил, 03/19/582/4014-сон.

xaridorga to‘ldirgani hujjat taqdim etadi, xaridor uni akseptlaydi, ya’ni hujjatda ko‘rsatilgan summani o‘z vaqtida to‘lashga rozilik beradi.

*Ochiq yoki schot orqali kredit berish, kredit* – bunda xaridor tovarga buyurtma berishi bilanoq yuklab jo‘natiladi, to‘lov esa belgilangan muddatlarda vaqtı-vaqtı bilan amalga oshirib boriladi.

to‘lovnı ma’lum belgilangan muddatda amalga oshirgan sharoitda *chegirma berish usuli* – mazkur holatda agar xaridor to‘lov hujjatlari yozilgandan so‘ng shartnomada kelishilgan ma’lum davr ichida to‘lovnı amalga oshirsa, to‘lov yig‘indisidan chegirma beriladi;

*Mavsumiy kredit* – madaniy va keng iste’molollarini sotishda keng qo‘llaniladi, bu usul ishlab chiqaruvchilar uchun qulay bo‘lib, ular omborlarda mollarni saqlash xarajatlaridan xalos bo‘ladi;

*Konsignatsiya usuli* – bunda sotib oluvchilar tovarlarni majburiyatlarsiz sotib oladilar, ya’ni tovar sotilgandan so‘ng pulni to‘laydilar. Agar tovar sotilmay qolsa, u egasiga qaytarib beriladi.

*Bank krediti* bank va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning egalariga foiz to‘lash sharti bilan o‘z qo‘llarida jamlaydilar va o‘z nomidan qarz berib, foiz oladilar.

*Iste’molchi kreditida* tijorat banklari iste’molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradilar. Masalan, iste’molchi kredit kartochkalari.

*Davlat krediti deganda* banklarning davlatga qarz berishi yoki davlatdan qarz olishi tushuniladi. Davlat krediti asosan davlat zayomi shaklida bo‘ladi. Zayom davlatning qarzdorlik guvohnomasi bo‘lib, u qarzni vaqtı qolganda qaytarib olish va foiz to‘lashni kafolatlaydi.

*Xalqaro kredit* – bu qarz kapitalining jahon miqiyosidagi harakati bo‘lib, bu harakat tovar va valuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berish bog‘liqdir.

*Kredit shartnomasi huquqiy belgilariga ko‘ra*, konsensual, ikki tomonlama va haq baravariga tuziladi.

Pul qarzga olinganda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadi. Ashyo kreditga olinganda mulkiy huquqning ikki elementi ya’ni mulkdan foydalanish va uni egallash huquqi bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadi.

Ashyolarni kreditga berish to‘g‘risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomada berilayotgan ashylarning miqdori, assortimenti (mahsulot turi) to‘liqligi, sifati, idishi va o‘ralishi haqidagi shartlari ashylarni oldi-sotdi shartnomasi to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq bajarilishi shart (FK 747-m.).

*Kredit shartnomasining subyektlari* – fuqarolar, yuridik shaxslar hamda davlat bo‘lishi mumkin.

*Kredit shartnomasining predmeti* – pullar, qimmatbaho qog‘ozlar, iste’mol qilinmaydigan narsalar bo‘lishi mumkin.

*Kredit va qarz shartnomalari o‘rtasidagi asosiy farq quyidagilardan iborat:*

1. Kredit shartnomasi bo‘yicha kreditor sifatida faqat bank yoki boshqa kredit tashkiloti (uning ustavida belgilangan bo‘lsa) qatnashadi;

2. Kredit shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchi kreditorga foizlar to‘lashi shart;

3. Kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi. Qarz shartnomasida esa qarz summasi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan kam bo‘lsa, og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin.

4. Kredit shartnomasi real emas, balki konsensual shartnomalar guruhiba kiradi. Shu sababli shartnoma tuzilgandan keyin u taraflar o‘rtasida huquq va majburiyatlar vujudga keltiradi. Bunday holda shartnomaning bajarilmasligiga FK 746-moddasida belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

*Kredit shartnomasining vazifalari:*

1. Pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (chek, sertifikat, veksel) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik muomalasiga jalg etadi;

2. Bo‘sh turgan pulni harakatdagi kapitalga aylantiradi, ya’ni pulni pul topadi;

3. Kredit berish orqali ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni rivojlantiradi;

4. Kredit berish yoki uni undirish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

*Kreditning salbiy tomonlari ham mavjud:*

Kredit asossiz ravishda ko‘p berilsa, oqibatda pul masalasi ko‘payib, milliy pul qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar davlat olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanmasa, davlat o‘zining boshqa daromad manbalari, oltin va boshqa qimmatbaho narsalarini sotish hisobidan kreditni qaytarishigacha olib kelishi mumkin.

*Kredit shartnomasida qatnashuvchilarning huquq va majburiyatları.*

*Kreditorning huquqlari quyidagicha:*

- qarz oluvchidan kredit shartnomasining muddati tugashi bilan pulni talab qilish huquqi;

- tijorat krediti bo‘yicha pul to‘langan bo‘lsa, kreditorga kredit narsasini, ya’ni kredit shartnomasining predmeti to‘g‘rilab berilishi kerak;

- ashyolar kreditga berilgan bo‘lsa, kredit summasini o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilib turish;

- agarda kredit shartnomasi muddati ichida pul oxirigacha to‘lanmasa, qarz oluvchining ustidan sudga murojaat qilishi mumkin.

*Qarz oluvchining majburiyatlari:*

- kredit shartnomasi bo‘yicha, kreditga olingan narsani qiymatini har oyda, shartnomada kelishilgan muddatda to‘lab turadi;

- aniq maqsadli kredit olingan bo‘lsa, olingan kreditni maqsadga muvofiq ishlatadi;

- tijorat krediti to‘langan bo‘lsa, qarz oluvchidan kredit shartnomasining predmetini to‘g‘rilab berilishini talab qiladi.

Agar kredit shartnomasiga binoan qarz oluvchi belgilangan muddat ichida kredit summasini to‘lay olmagan taqdirda, kreditga berilgan narsa sudning qaroriga binoan sotiladi va kredit tashkiloti hisobiga to‘lanadi.

Kreditor qarz oluvchining to‘lovga qobiliyatsiz yoki layoqatsiz deb hisoblansa, qarz oluvchi kreditni ta‘minlash majburiyatini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek shartnomada nazarda tutilmagan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli.

Qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni kredit shartnomasida belgilab qo‘yilgan kredit berish muddatiga qadar xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo‘yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to‘xtatishga haqli (FK 746-m.).

Kredit shartnomasi taraflar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Demak, ikkala taraf ham shartnoma bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishlari shart bo‘ladi. Ushbu moddada belgilangan qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollardagina, kredit shartnomasining subyektlari shartnoma kuchga kirgandan so‘ng kredit berishi yoki uni olishdan bosh tortishga haqlidirlar.

Kreditor, qarz oluvchi o‘z zimmasiga olgan, kreditni ta‘minlash majburiyatini bajarganida, shartnomada belgilangan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini qo‘pol ravishda buzganda, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda, bunday huquqdan foydalanishga haqlidir.

Amaldagi qonun hujjatlarida yoki kredit shartnomasida o‘zgacha tartibda nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman voz kechishga haqlidir. Biroq qarz oluvchi bu haqda kreditorni shartnomada belgilab qo‘yilgan kredit berish muddatiga qadar ogohlantirishi lozim. Agarda qarz oluvchi, kredit shartnomasida nazarda tutilgan, kreditdan aniq maqsadda ya’ni berilgan kreditni tayinlanishiga ko‘ra foydalanish majburiyatini qo‘pol ravishda buzgan taqdirda, kreditor kuchga kirgan shartnoma bo‘yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni umuman to‘xtatish huquqiga egadir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, kredit shartnomasida har ikkala tarafda ham ma’lum bir majburiyatlar paydo bo‘ladi. Kredit shartnomasi bo‘yicha taraflarning o‘rtasida vujudga kelgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Bunda majburiyat subyektlari va obyektlari uning muhim unsurlari hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo‘lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslardir. Kreditor-muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab qilishga haqli subyektdir. Qarzdor esa muayyan harakatni qilishga yoki qilishdan saqlanishga majbur bo‘lgan tarafdir. Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyat obyekti qarz beruvchi pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolardir. Bu shartnomadagi majburiyatlar shartnomali majburiyatlarga oid munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarga taalluqlidir. Majburiyatlarning turlari bo‘yicha qarz va kredit shartnomalari bir taraflama (va ikki taraflama) majburiyatlarga xosdir. Bunday majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi, ikkinchi tomonda esa faqat majburiyat bo‘ladi. Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha qarz bergen shaxs qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi, qarzdor esa o‘z zimmasiga olgan qarzini qaytarishga burchli bo‘ladi.

Qonun normalariga muvofiq, pul majburiyati bo‘yicha majburiyatni bajarish joyi majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor esa yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo‘lsa uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yer, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o‘z yashash joyini yoki joylashgan yerini o‘zgartirgan bo‘lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo‘lsa ijro etish joyi o‘zgartirilishi bilan bog‘liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida ijro etiladi.

Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan sanksiya ixtiyoriy bajarishgan burchni majburiy ijro ettirishga qaratilgan. Olingan qarz ixtiyoriy ravishda to‘lanmaganligi

uchun uni majburan undirish mumkin. Majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs majburiyatlarini bajarmasligi bilan kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi.

Qarzdorning majburiyatni lozim darajada bajarmasligi, ya’ni majburiyatni shartnomaga yoki qonunda ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq ravishda bajarmasligi tushuniladi. Agar majburiyat qarzdor tomonidan butunlay bajarilmasa, kreditor sud orqali majburiyatlarning majburiy tartibda bajarilishini, birinchi navbatda, albatta, real ravishda bajarilishini, agar majburiyat lozim darajada bajarilmagan bo‘lsa, uning qonun yoki shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilib bajarishni talab qilishga haqli. Qarz va kredit shartnomasi majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo‘ladi. Qarz shartnomasi qarz beruvchi shartnomadan voz kechishi bilan ham bekor bo‘lishi mumkin. Shuningdek, taraflarning kelishuvi bo‘yicha ham bekor bo‘lishi mumkin. Qonun hujjatlarida (qonunchilikda – *muallif*) majburiyatlarning bekor bo‘lishiga boshqa asoslar ham nazarda tutilishi mumkin<sup>1</sup>.

Respublikamiz Konstitutsiyasining qonun qoidalariga asoslangan holda chiqarilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, shaxsning huquqi va erkinligini himoya qilishga oid normalarning mustahkamlanganligi mamlakatimizda demokratiyani rivojlantirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, yangi qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolarning huquqlari to‘sqiniksiz amalga oshirilishini, shartnomaning erkinligi, xususiy ishlarga biror bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymasligi buzilgan huquqlarini tiklanishi ularning sud orqali himoya qilinishini ta’minlash zarurligiga asoslanadi.

Fuqarolar o‘rtasidagi tuzilayotgan har qanday shartnomaga avvalambor ularning manfaatlarini o‘zlari to‘g‘ri yo‘lga moslashtirishi kerak.

Tuzilayotgan shartnomalar qonunlarga zid xatti-harakatlarda bo‘lmasligi kerak.

Shartnomalar tuzishdan oldin, avvalo uning huquqiy holatini yaxshilab o‘rganib, tushunib va anglab tuzilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Фуқаролик ҳукуқи (иккинчи қисм): Дарслик. – Т., 2008. – Б.928.

---

---

*TO ‘QQIZINCHI BOB*

**SUG‘URTA VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI  
FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI**

**1-§. Sug‘urta tushunchasi va uning ahamiyati**

Sug‘urtaning mohiyati shundan iboratki sug‘urta qiluvchilarning davriy badallari hisobidan sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urta qildiruvchini mulkiy talafotlarini kamaytirish yoxud boshqacha talafotlarning (masalan, o‘lim, tana shikastlanishi va h.k.) oqibatlarini yumshatish hisoblanadi. Bunda bir subyekt ko‘rgan zarar sug‘urta vositasida boshqa yuzlab subyektlar badallari hisobidan qoplanadi. Biroq, bu holat o‘sha yuzlab subyektlar uchun og‘ir yuk bo‘lib tushmaydi, badal to‘lovchilar va bu badaldan real foydalangan subyektlar o‘rtasida ziddiyatlar, noroziliklarni keltirib chiqarmaydi.

*Yuqoridaqilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi zamon iqtisodiy-huquqiy maydonda sug‘urta:*

- *birinchidan*, har qanday faoliyatda tavakkalchilik xavf-xatarini kamaytirish vositasi;
- *ikkinchidan*, juda katta moliyaviy resurslarning to‘planishini va uni muomilaga kiritib kredit-sarmoya tizimini ta’minlashning qudratli manbai;
- *uchinchidan*, kuchli erkin raqobat muhitida tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi yuridik qurilma;
- *to‘rtinchidan*, bozor munosabatlari sharoitida barqarorlikni va muvozanatni ta’minlovchi infratuzilma tizimi vazifalarini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son qonunining 3-moddasida sug‘urtaga quyidagicha ta’rif berilgan: *Sug‘urta* – muayyan voqeа (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘ovlar to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar.

Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy hayot, shuningdek milliy qonunchilikda hamda huquqshunos va iqtisodchi olimlar tomonidan “sug‘urta faoliyati”, “sug‘urta xizmati” degan iboralar keng qo‘llanilmoqda.

*Sug‘urta faoliyati* – sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining sug‘urtani va qayta sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatidir.

Sug‘urta shartnomasi *yozma shaklda* tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Sug‘urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qildiruvchiga uning yozma yoki og‘zaki arizasiga binoan sug‘urtalovchi imzolagan, sug‘urta shartnomasining shartlarini o‘z ichiga olgan sug‘urta polisi (shahodatnomasi, sertifikati, kvitansiyasi)ni topshirish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug‘urtalovchidan ko‘rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug‘urta mukofoti to‘lash yoxud – sug‘urta mukofoti bo‘lib-bo‘lib to‘langanda – birinchi badalni to‘lash orqali tasdiqlanadi.

Sug‘urtalovchi shartnoma tuzish chog‘ida sug‘urtaning alohida turlari bo‘yicha sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi)ning o‘zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo‘llashga haqli.

### ***Sug‘urta shartnomasining huquqiy belgilari.***

Sug‘urta shartnomasi ***haq evaziga*** tuziladigan shartnoma hisoblanib, sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofotini to‘laydi, sug‘urtalovchi esa sug‘urta hodisasi ro‘y berishi bilan sug‘urta pulini to‘laydi.

Sug‘urta shartnomasi ***ikki taraflama*** shartnoma bo‘lib, ikkala taraf o‘z zimmalariga ham huquq, ham majburiyatlarni oladilar. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi sug‘urta badalini talab qilib olish huquqiga ega bo‘lsa, sug‘urta hodisasi ro‘y bergenida sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini oladi. Sug‘urta qildiruvchi esa sug‘urta badalini to‘lash majburiyatini olsa, sug‘urta hodisasi ro‘y bergenida sug‘urta tovonini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Sug‘urta shartnomasi tuzilish paytiga va mazmuniga qarab ***real va konsensual*** shartnomalar toifasiga kiradi. Ixtiyoriy sug‘urta shartnomalari real shartnoma hisoblanadi. Chunki, real shartnomalarda huquq va majburiyatarning paydo bo‘lishi taraflar o‘zaro kelishgan, shartnomani rasmiylashtirgan bo‘lishidan tashqari shartnoma obyekti, ashyo yoki pulning topshirilishi talab qilinadi.

Sug‘urta shartnomasining muhim shartlari shartnoma mazmunini tashkil qilganligi uchun, avvalambor, ushbu shartlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu shartlar FK 929-moddasida mulkiy sug‘urta va shaxsiy sug‘urta uchun alohida tartibda berilgan.

*Mulkiy sug‘urta shartnomasi tuzishda sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urtalovchi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida kelishuvga erishilishi lozim:*

- sug‘urta obyekti bo‘lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to‘g‘risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;
- sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;
- sug‘urta tovoni miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risida, agar shartnomada uni sug‘urta pulidan oz miqdorda to‘lash mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa;
- sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

*Shaxsiy sug‘urta shartnomasi tuzishda sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urtalovchi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida kelishuvga erishilishi lozim:*

- sug‘urtalangan shaxs to‘g‘risida;
- sug‘urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;
- sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;
- sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

**Sug‘urta obyekti** sifatida nafaqat fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki, balki javobgarlik majburiyatları, tadbirkorlik xavfi va yana bir qator manfaatlar ham bo‘lishi mumkin.

Sug‘urta shartnomasi obyektlarining shartnoma tuzilayotgan vaqtdagi holati muhim ahamiyatga ega. Ba’zi hollarda, sug‘urta shartnomasi obyektining holati, joylashish sharoiti tufayli, shaxsiy sug‘urta shartnomasida esa sug‘urtalanuvchi shaxsnинг salomatlik holati, sug‘urta xavfini baholashga, uning miqdorini o‘zgartirishga yoki sug‘urta shartnomasini umuman tuzmaslikka sabab bo‘lishi mumkin. Albatta, bu haqida, FK 932-moddasida sug‘urtalanuvchining sug‘urta xavfini baholash huquqi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, mol-mulkni sug‘urtalash shartnomasi tuzilayotganda, sug‘urtalovchi sug‘urtalanayotgan mol-mulkni ko‘zdan kechirishga, zaruriyat bo‘lgan taqdirda uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida ekspertiza tayinlashga haqli.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda esa, sug‘urtalovchi sug‘urta qilinayotgan shaxs sog‘lig‘ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli. Agar sug‘urtalovchi ushbu tekshiruv davomida sug‘urta qilinishi lozim bo‘lgan obyektlarda sug‘urta shartnomasi

tuzmaslikka asos bo‘ladigan holatlarni aniqlasa, sug‘urta shartnomasini tuzishdan bosh tortishga haqli bo‘ladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha chet el davlatlarining tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, Germaniyada, aholining yoshi chegaralanmaganligini, aksincha, sug‘urtalanayotgan shaxsning yoshiga, ya’ni sug‘urta xavfining oshib borishiga qarab, sug‘urta badallari miqdorining oshib borishini kuzatamiz<sup>1</sup>.

Fuqarolarning uy-joyini ixtiyoriy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi qoidalarga asosan, agar uy-joylar qarovsiz ahvolda, yoki qulab tushish ehtimoli bor yerlarda bo‘lsa, ularni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydi<sup>2</sup>. Sug‘urta obyektiga berilgan ta’rifda fuqarolarning mol-mulki va sog‘lig‘i sug‘urta obyekti bo‘ladi deb hisoblansa-da, sug‘urta hodisasi xavfi yuqori bo‘lganligi sababli bunday obyektlar sug‘urtalanmaydi.

Sug‘urta shartnomasining obyektlari, shartnoma mazmuniga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Agar shartnoma turlariga qarab sug‘urta obyektlarini bo‘ladigan bo‘lsak, ularni mulkiy va mulk bilan bog‘liq bo‘lman shaxsiy obyektlarga ajratishimiz mumkin.

Masalan, shartnomadan kelib chiqadigan javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha, shaxsning shartnomada belgilangan javobgarligi sug‘urta obyekti bo‘lib hisoblanadi. Shaxsiy davlat majburiy sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urtalangan shaxsning faqat ish bilan bog‘liq holda sog‘lig‘iga zarar yetishi, shikastlanishi yoki vafot etishi, ya’ni xizmat burchini bajarayotgan vaqtdagi hayoti va sog‘lig‘i sug‘urta obyekti sanaladi. Xizmat burchini bajarishdan tashqari holatdagi hayoti va sog‘lig‘i obyekt hisoblanmaydi.

FK 916-moddasiga muvofiq quyidagi manfaatlar sug‘urta qilinmaydi:

- g‘ayriqonuniy manfaatlarni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydi;
- qimor, lotoreya va garov o‘yinlarida ishtirok etishda ko‘riladigan zararni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydi.
- garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo‘lgan xarajatlarni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sug‘urta hodisasi deyilganda sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutiladigan va yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeа tushuniladi. Sug‘urta hodisasi ba’zi hollarda sug‘urta xatari deb ham yuritiladi. “Sug‘urta xatari”

<sup>1</sup> Структуры социальной рыночной экономики / Глава из книги Германия. Факты. – С.48.

<sup>2</sup> Кишлоқ ахолиси уй мулкини ихтиёрий сугурта қилиш қоидаси. – Т., 1997. – №19.

atamasi turlicha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Aksariyat hollarda, sug'urta xatari deb quyidagilarga aytildi:

FK 953-moddasida: "Agar sug'urta hodisasi sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug'urtalangan shaxsning qasd qilishi oqibatida yuz bergen bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashdan ozod qilinadi, qasddan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida qilingan harakatlar bundan mustasno", deb belgilangan.

Agar, sug'urta shartnomasini tuzishda mazkur obyektga doir voqeanning albatta ro'y berishi ma'lum bo'lsa, u holda sug'urtani amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'lum turdag'i bir necha xil mol-mulkni, bir turdag'i xavf-xatardan yoki ayni bir vaqtida turli xil xavf-xatarlardan sug'urta qilish mumkin. Hozirgi kunda sug'urta idoralari jismoniy va yuridik shaxslarni turli xavf-xatarlardan sug'urtalash orqali himoyalash vazifasini amalga oshirmoqda.

Sug'urta shartnomasida ishtirok etayotgan sug'urta obyekti va sug'urta subyektlariga qarab sug'urta hodisasi ham turlicha bo'ladi. Hayotni sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchining vafoti sug'urta hodisasi hisoblansa, tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha, tadbirkor olishi mumkin bo'lgan foydaning olinmay qolishi, sug'urta shartnomasining hodisasi, zarar yetkazganlik majburiyatlarini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha esa, uchinchi shaxsga zarar yetkazilishi sug'urta hodisalari hisoblanadi.

FK 943-moddasiga asosan sug'urta shartnomasida sug'urta predmeti sifatida belgilanadigan hodisa ehtimol tutiladigan va tasodiflik belgilariga ega bo'lishi lozim. Masalan, qarzdorning kredit summasini qaytarish majburiyatini bajarmasligi faqat tasodif bo'lgandagina ya'ni, mazkur holat sug'urtalanuvchining erkidan tashqari sodir bo'lgandagina sug'urta hodisasi sifatida baholanishi mumkin.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda, shartnomada belgilangan muddatda sug'urta idoralariga xabar bermaslik ham sug'urta tovonini to'lashni rad etish uchun asos bo'ladi. FK 951-moddasiga ko'ra, sug'urta qildiruvchi shartnomada yoki sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan muddatlarda sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi ro'y bergenligi haqida xabar bermasa, agar sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz bergenini o'z vaqtida bilganligi yoxud bu haqida sug'urtalovchida ma'lumotlarning yo'qligi, uning sug'urta tovonini to'lash majburiyatiga ta'sir etmasligi isbotlanmasa, sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqini beradi.

FK 935-moddasiga muvofiq: "Sug'urta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan

bog‘lanadigan mol-mulk qiymati, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta qiymati (sug‘urta bahosi) deb hisoblanadi”. Mol-mulkni sug‘urta qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, sug‘urta qilingan mol-mulkning nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi natijasida yetgan zararni qoplashdan iborat. Shu bois, sug‘urta yuzasidan beriladigan pulning miqdori (sug‘urta puli), sug‘urta qilingan mol-mulkning qiymatidan oshmasligi talab etiladi. Shu ma’noda, ayni bir obyektning sug‘urta pulini belgilash uchun, uning qiymatini aniqlash kerak bo‘ladi.

FK 935-moddasiga ko‘ra, mulkiy sug‘urta shartnomasi amal qilgan davrda tomonlarga mol-mulkning shartnomada ko‘rsatilgan qiymati yuzasidan nizolashish huquqi berilmagan, sug‘urtalovchi o‘zining sug‘urta qildiruvchi tomonidan ataylab chalg‘itilganligini isbotlab beruvchi holatlar bundan mustasno. Agar shartnomada sug‘urta puli bilan sug‘urta qiymatining nisbati buzilgan bo‘lsa, mazkur shartnoma qisman haqiqiy emas deb topiladi va shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, mulkning shartnoma tuzilgan paytdagi qiymatidan kelib chiqqan holda sug‘urta tovoni to‘lanadi.

Mulkning sug‘urta qiymati uning haqiqiy qiymati doirasida va uning tabiiy eskirishini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda mulkning haqiqiy qiymati uni ko‘rikdan o‘tkazish, baholash, ekspertiza tayinlash va uning xulosasi, bozordagi shunga o‘xhash mulkning bahosini belgilash bilan aniqlanadi.

Obyektning (binolar, chorva mollari, biron qishloq xo‘jalik ekinining hosili va boshqalarning) sug‘urta qilish maqsadlari uchun belgilangan qiymati – sug‘urta uchun baholash deb ataladi.

Sug‘urta qilinuvchi obyektlarni baholash juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu baho sug‘urta yo‘li bilan ta’minlash summasini belgilash uchun asos qilib olinadi. Agar, sug‘urta qilinayotgan obyektlarga uning haqiqiy qiymatidan kam baho qo‘ylsa, u holda sug‘urta yo‘li bilan ta’minlash puli ham kamayadi.

Sug‘urta puli sug‘urta uchun qo‘yilgan baho bilan to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu holda mulk uning to‘la qiymati miqdorida sug‘urta qilingan hisoblanadi. Agar mol-mulk nobud bo‘lsa, yoki zarar yetkazilsa, unga yetgan zarar to‘liq hajmda qoplanadi. Sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan kam bo‘lishi ham mumkin.

FK 938-moddasida: “Sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfining sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lsa, shartnoma sug‘urta pulining sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lgan qismida

o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi va sug‘urta mukofotining ortiqcha to‘langan qismi qaytarib berilmaydi”.

Sug‘urta qiymati – sug‘urta obyektining asl, faktik qiymati bo‘lib, uni belgilash turli mamlakatlardagi joriy qonunchilik va amaliyotda shakllangan o‘ziga xos qoidalarga asoslanib amalga oshiriladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida sug‘urta qiymati tovar yuklanayotgan paytdagi bozor narxi qancha bo‘lsa, shundan kelib chiqib hisoblanadi va bu reys boshlanishi oldidan aniqlanadi. Fransuz qonunchiligidagi sug‘urta qiymatiga tovarning sotilish narxi va yuklash paytida sarflangan xarajatlar, uning belgilangan joyga yetkazilishi va kutilayotgan daromad miqdori ham qo‘shib belgilanadi. Germaniyada esa sug‘urta qiymati sifatida, sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi bilan tovarning asl sotilish qiymati qabul qilingan.

Sug‘urta puli va sug‘urta bahosi to‘g‘risida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qoidalar shaxsiy sug‘urta shartnomasiga qo‘llanilmaydi. Chunki, kishining hayoti yoki mehnat qobiliyatini sug‘urta qilish maqsadlarida baholab bo‘lmaydi.

Xullas, sug‘urta qiymatini aniqlash, sug‘urta hodisasi natijasida to‘lanadigan sug‘urta toponi, sug‘urta badali miqdorini sug‘urta pulini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u qat’iy belgilanishi lozim.

Sug‘urta puli – sug‘urta qiymatidan kelib chiqib belgilanadi va u sug‘urta qiymatidan kam yoki teng miqdorda belgilanishi mumkin.

## 2-§. Sug‘urta shartnomasining turlari

*Ixtiyoriy sug‘urta shartnomasining xususiyatlari.* Hayot sug‘urtasi jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va qo‘srimcha pul ta’mnoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilishdan iborat bo‘lib, bunda sug‘urtaning shartnomasi bo‘yicha eng kam muddati bir yilni tashkil etadi va sug‘urta summalarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizini yoki davriy to‘lovlarini o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sug‘urtalovchi) boshqa taraf (sug‘urta qildiruvchi) to‘laydigan shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta qildiruvchi o‘zining yoxud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa fuqaro (sug‘urtalangan shaxs) ning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to‘lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqeasi (sug‘urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug‘urta pulini) bir yo‘la yoki vaqtiga vaqtiga bilan to‘lab turish majburiyatini oladi (FK 921-m. 1-q.). FK 914-moddasiga muvofiq, shaxsiy sug‘urta ommaviy

shartnomalar turkumiga kiradi. Shuningdek, ularni uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar turiga ham kiritish mumkin. Xususan, umumiyl qoida bo'yicha, shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Masalan, hayotini sug'urtalayotgan shaxs o'zi vafot etgan taqdirda, shartnomada belgilangan pulni olish uchun boshqa shaxsni naf oluvchi qilib tayinlashi mumkin.

Mulkiy sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- faqatgina shaxsiy manfaat, ya'ni sug'urtalangan shaxs hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda, muayyan yoshga to'lishi, shartnomada ko'zda tutilgan voqeа sodir bo'lishi bilan sug'urta pulini olishi tushuniladi. Bularning barchasi shaxs bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning shaxsiy nomulkiy boyligi (huquqi) hisoblanadi. Bunday shaxsiy manfaatlar sug'urta qilinayotganda sug'urta puli ixtiyoriy ravishda belgilanadi.

Mulkiy sug'urtada doimo ko'rilgan zararni qoplash ko'zda tutiladi. Bunday mulkiy zararlar hamisha xavfli hisoblanadi. Bular qatorida shaxs bilan bog'liq xavf-xatarlar ham bo'lishi mumkin (shikastlanishi yoxud betob bo'lishi). Biroq boshqa shaxsiy manfaatlar sug'urtalangan shaxs uchun xavf tug'dirmay, balki belgilangan yoshga yetishi, muomala layoqatiga to'lishligi, nikohga kirishishligi va boshqalar ko'zlangan maqsadga erishishlikni bildiradi.

- sug'urtalangan shaxs yoxud naf oluvchi bilan mos kelmaydigan boshqa subyektning paydo bo'lishi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi (FK 921-m. 2-q.). Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'limgan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sug'urta puli bir yo'la yoki vaqt-i-vaqt bilan to'lanishi natijasida sug'urtalangan shaxs (naf oluvchi) hech qanday yo'qotishlarsiz uzoq vaqt davomida ta'minlanadi.

Umrbod sug'urta shartnomasi 20 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fuqarolar bilan tuziladi. 1-guruh nogironlari bilan bunday shartnoma

tuzilmaydi. (Agar bunday shartnoma tuzilgan bo'lsa, haqiqiy emas deb hisoblanadi va sug'urtalanuvchiga to'lagan badallarining 92 foizi qaytariladi. Agar bu holat shartnoma tuzilgan vaqtadan boshlab, bir yildan keyin aniqlansa, shartnoma umumiy asoslarda o'z kuchini saqlab qoladi).

Sug'urta xavf-xatari sug'urta qildiruvchining o'limi ehtimoli hisoblanadi. Sug'urta tovon puli sug'urta qildiruvchining yoshi, sug'urta puli va hatto jinsiga ham bog'liq bo'ladi. Sug'urta qildiruvchi 85 yoshga yetgunga qadar har oyda sug'urta badali to'lab turadi. Sug'urta qildiruvchi shartnoma amal qilgan davrda qanday sabablarga ko'ra vafot etgan bo'lmasin, naf ko'rurvchiga sug'urta ta'minoti to'lanadi. Sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng ikki yil ichida sug'urta qildiruvchi onkologik kasalliklardan yoki yurak-qon tomiri kasalliklaridan vafot etsa yoxud o'z-o'zini o'ldirsa, sug'urta ta'minoti to'lanmaydi.

Shartnoma tuzish haqidagi ariza sug'urta qildiruvchi tomonidan shaxsan imzolangan bo'lishi va unga shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar xususida hujjat ilova qilingan bo'lishi kerak.

Hayotni aralash sug'urta qildirish shartnomasi eng ko'p tarqalgan shartnomalardan hisoblanadi. Bunda sug'urta tashkiloti shartnomada belgilangan muddatgacha yashash, mehnat qobiliyatini butunlay yoki qisman yo'qotish, o'lim holatlari ro'y berganida zararni qoplashni o'z ustiga oladi.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va boshqa qarindoshlar tomonidan bolalarni sug'urta qilish ularning yoshi va sog'lig'idan qat'i nazar amalga oshiriladi (bola 15 yoshdan oshmagan bo'lish lozim).

Sug'urta mukofoti to'lash uchun asos: sug'urta muddatining tamom bo'lishi, baxtsiz hodisadan shikastlanish va shu kabilar. Sug'urta qildiruvchilar almashtirilishi yoki bir nechta bo'lishlari mumkin. Sug'urtalanuvchi bola vafot etsa, sug'urta ta'minotining 30 foizi hajmida nafaqa tayinlanadi va ayni vaqtda sug'urta badallari to'liq qaytarib beriladi.

Nikohni sug'urtalash (to'y sug'urtasi) ota-onalar (boshqa qarindoshlar) tomonidan tuzilib, bunda sug'urta qildiruvchilar 18-72 yoshgacha, biroq sug'urta muddati tamom bo'lganida 75 yoshdan oshmagan bo'lishlari lozim.

Shartnoma tuzishda bolaning yoshi 15 dan oshmagan bo'lishi lozim.

Sug'urta badallari hajmi sug'urta qildiruvchining (bolaning emas) yoshiga, sug'urta qiymatiga va sug'urta muddatiga bog'liq.

Ixtiyoriy mulkiy sug'urta. Ixtiyoriy mulkiy sug'urta turlari va shakllari nihoyatda xilma-xildir. Sug'urta predmetlari sifatida xilma-xil uy jihozlari

va anjomlari, uy-hayvonlari, transport vositalari, boshqa ashylar, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi, kreditlarni qaytarmaslik xavf-xatarini sug‘urtalash va hokazolar hisoblanadi.

Mulkiy sug‘urtada sug‘urta obyekti bo‘lib quyidagilar hisoblanadilar:

1. Muayyan mol-mulkning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavf-xatari.

2. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik xavf-xatari. U ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi: zarar yetkazganlik uchun javobgarlik va shartnomasi bo‘yicha javobgarlik xavf-xatarini sug‘urta qilish.

Boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazish oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxsning javobgarlik xavfi sug‘urtalanadi.

Sug‘urta qildiruvchi faqat o‘zining shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug‘urtalashi mumkin (uchinchi shaxs javobgarligi sug‘urta obyekti bo‘la olmaydi).

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi bu shartnomani shartlariga ko‘ra sug‘urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo‘lsa, o‘sha taraf naf oluvchi foydasiga, hatto sug‘urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham sug‘urtalangan hisoblanadi.

3. Tadbirkorlik xavf-xatarini sug‘urta qilish (FK 920-m.).

Xorijiy sarmoyadorlarning mol-mulkleri ekspropriatsiyalanishidan (qaytarib olinishidan), urush yoki fuqarolar g‘alayonlaridan, sug‘urta tashkiloti bilan sarmoyador o‘rtasidagi shartnomasi munosabatlariga mamlakat ma’murlarining aralashuvidan, milliy valutani boshqa valutalarga konvertatsiyalash va uni mamlakatdan tashqariga chiqarishga doir mamlakat ma’murlari tomonidan cheklashlar joriy etilishidan, sarmoyadorlar (investorlar)ning ayrim guruhlari uchun huquqni kamsitadigan ruhdagi yangi qonun-qoidalar joriy etilishidan, boshqa turdosh xavf-xatarlar (tavakkalchiliklardan) sug‘urtalanish mumkin.

### *Majburiy sug‘urta shartnomalari tizimi va mohiyati*

Ijtimoiy hayotning ba’zi sohalarida kishilar yoxud fuqarolik huquqining boshqa subyektlari o‘zлari qatnashayotgan muayyan huquqiy munosabatlarda tavakkalchilik xavf-xatari nisbatan yuqori darajada bo‘ladi. Ana shunday hollarda barcha subyektlar ham bunday tavakkalchilik xavf-xatarlaridan o‘zini ixtiyoriy sug‘urta orqali himoyalanish imkoniyatidan foydalanishmaydi va beparvolik bilan

munosabatda bo‘ladilar. Biroq, hayot tasodiflarga boy, ularning ba’zilari ishxonada, ko‘chada, transport vositasida baxtsiz hodisalarning qurboni bo‘ladilar. Bu esa ular uchun muayyan muammoli vaziyatlarni, moddiy qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Xuddi shunday holatlarning oldini olish maqsadida davlat tomonidan majburiy sug‘urta turlari belgilab qo‘yilgan.

Jumladan, transport vositalari egalarining, ish beruvchining, tashuvchining fuqarolik javobgarligi kabi majburiy sug‘urta turlari mavjud. Majburiy sug‘urta shartnomasi ommaviy shartnoma bo‘lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda tuziladi. Majburiy sug‘urta shartnomasini tuzish shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli majburiy sug‘urta qilish qoidalarida ko‘rsatilgan majburiy sug‘urta shartnomasining namunaviy shartlariga mos bo‘lishi kerak.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi transport vositasidan foydalanishda transport vositalari egalarining jabrlanuvchilar hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha fuqarolik javobgarligi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlari majburiy sug‘urta obyektidir.

Majburiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchining va (yoki) majburiy sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan transport vositasi boshqa egasining fuqarolik javobgarligi sug‘urtalanishi mumkin

Transport vositalari egalari transport vositaridan foydalanishda boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun o‘z fuqarolik javobgarligini ushbu Qonunda belgilangan tartibda va shartlarda sug‘urtalashlari shart.

Fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish majburiyati quyidagi transport vositalarining egalariga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- eng katta konstruktiv tezligi soatiga yigirma kilometrdan oshmaydigan transport vositalari;

- tirkamalar va ikki, uch g‘ildirakli yoki ish hajmi ellik kub santimetrgacha bo‘lgan dvigatel yoki inson yoxud hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan boshqa transport vositalari;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining transport vositalari, bundan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining xo‘jalik faoliyatini ta’minlash uchun foydalaniladigan avtobuslar, yengil avtomobillar, boshqa transport vositalari mustasno;

- chet davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan transport vositalari, agar ular egalarining fuqarolik javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi hududida

amal qiladigan xalqaro majburiy sug‘urta tizimlari doirasida sug‘urtalangan bo‘lsa.

Transport vositasiga egalik qilish huquqi vujudga kelganda (u mulk qilib, xo‘jalik yurituviga, operativ boshqarishga yoki boshqa qonuniy asosda olinganda) transport vositasi egasi unga egalik qilish huquqi vujudga kelgan kundan e’tiboran *o’n kundan kechiktirmay* o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urtalashi shart.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi ommaviy shartnomadir. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganda ish beruvchiga va (yoki) jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi ommaviy shartnomadir. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasiga ko‘ra, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga yoxud tashuvchiga yo‘lovchilarining hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini mazkur shartnomasi bo‘yicha shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Tashuvchining yo‘lovchilar hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha fuqarolik javobgarligi yuzaga kelgan chog‘dagi mulkiy manfaatlari tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish obyektidir. Tashuvchi, sug‘urtalovchi, yo‘lovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish subyektlaridir.

Sug‘urta hodisasi ro‘y bergenidan so‘ng, sug‘urta hodisasining kelib chiqish sabablarini o‘rganish jarayonida, ushbu hodisaning kelib chiqishida, sug‘urta qildiruvchining qasddan sodir etgan harakatlari mayjudligi aniqlansa, sug‘urta idoralari, sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etishga haqli bo‘ladi.

Sug‘urta shartnomasining shartlarini belgilashda, sug‘urta badali, sug‘urta qildiruvchi tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan pul to‘lov

majburiyati vazifasini o‘taydi. Zero, sug‘urta badali, shartnoma tuzayotgan sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta idorasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul miqdoridir. Sug‘urta badali, shartnomalarda, ba’zan sug‘urta mukofoti deb ham yuritiladi.

Mukofot rag‘batlantiruvchi tarzdagi pul miqdori bo‘lib, sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urtalovchiga to‘lanadigan pul mukofot mazmunini bildirmaydi.

Sug‘urta shartnomasida badallarining miqdori shartnomaning turiga qarab belgilanadi. Agar ixtiyoriy sug‘urta shartnomalari tuzilayotgan bo‘lsa, bunday shartnomalarning badallari miqdori shartnoma subyektlari o‘rtasida sug‘urta puli miqdoriga qarab, o‘zaro kelishuv asosida belgilanadi. Sug‘urta pulining eng kam miqdori sug‘urta qoidalarida belgilab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta badallarini belgilash Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qat’iy belgilangan bo‘ladi va uni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Lekin ba’zi hollarda, sug‘urta badallarining miqdori shartnomaning muddatiga nisbatan belgilangan bo‘lishi mumkin. Bir yildan kam muddatga tuzilgan shartnomalar bo‘yicha shartnoma muddatiga bog‘liq ravishda sug‘urta foiz stavkalarining miqdori kamaytiriladi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchidan boshqa shaxsning javobgarligi sug‘urtalangan hollarda, shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi bu shaxsni sug‘urta hodisasi yuz berguncha istalgan vaqtida, sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, boshqa shaxsga almashtirishga haqli.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan sug‘urtalangan shaxs sug‘urta qildiruvchi tomonidan shu sug‘urtalangan shaxs va sug‘urtalovchining roziligi bilangina boshqa shaxsga almashtirilishi mumkin (FK 944-m.).

Agar bitta shartnomada bir necha sug‘urtalovchi ishtirok etsa, u holda birgalikda sug‘urta deb yuritiladi. Agar boshqacha hol belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchilar sug‘urta qildiruvchi oldida solidar javobgar bo‘ladilar.

Qayta sug‘urta birgalikdagi sug‘urtaning aksi bo‘lib, unda sug‘urtalovchi shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan sug‘urta xavfini boshqa sug‘urta tashkilotida sug‘urtalaydi. Qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzgan sug‘urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo‘yicha sug‘urtalovchi keyingi shartnomalarda sug‘urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug‘urta qilishda sug‘urta pulini yoki tovonini to‘lash uchun asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi oldida ushbu shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi javobgar bo‘lib qolaveradi (FK 959-m.).

Sug‘urta shartnomasini tuzishda vositachilar orqali sug‘urta agentlari yoki sug‘urta brokerlari ishtirokida amalga oshiriladi.

“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi sug‘urta brokeriga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxs sug‘urta brokeridir.

Shartnomaning mazmunini taraflarning huquq va majburiyatlarini tashkil etadi. Ularning huquq va majburiyatlarini shartnomada belgilash uchun aniqlab olish kerak. Avvalambor, sug‘urtalovchining zimmasida tavakkalchilik bo‘lib, sug‘urta hodisasi ro‘y berishi bilan sug‘urta pulini to‘laydi. Ushbu majburiyat eng asosiy majburiyat hisoblanib, sug‘urta xavfi uning zimmasida bo‘lishi sug‘urtalovchiga hech qanday harakatlarni sodir etish yuklamaydi, aksincha, agar sug‘urta xavfi ro‘y bergudek bo‘lsa, sug‘urta pulini to‘lash harakatini amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Sug‘urta tovoni odatda sug‘urta pulidan oshmasligi kerak. Aksariyat holatlarda sug‘urta puli pul birliklarida amalga oshiriladi, ayrim vaqtarda natura holida ham berilishi mumkin. Misol uchun tibbiy sug‘urtada pulning evaziga sug‘urta qildiruvchiga tibbiy muolaja ko‘rsatiladi. Sug‘urta tovonining miqdori va tartibi sug‘urta qildiruvchining arizasiga muvofiq, shuningdek, shartnoma shartlariga asosan amalga oshiriladi. FK 951-moddasiga muvofiq, sug‘urta hodisasi ro‘y berishi bilanoq sug‘urta qildiruvchining arizasi sug‘urtalovchini ogohlantirish usullaridan biri hisoblanadi. Biroq ayrim vaziyatlarda naf oluvchi tomonidan ham ogohlantirilishi mumkin. Agar shartnomada xabar qilish muddati va usuli nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu shartlashilgan muddatda va usulda qilinishi lozim. Agar naf oluvchi o‘zining foydasiga tuzilgan shartnoma bo‘yicha sug‘urta tovoniga bo‘lgan huquqdan foydalanish niyatida bo‘lsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchining zimmasida bo‘ladi. Yuqoridagi majburiyatlarning bajarilmasligi sug‘urtalovchiga, agar sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz bergenini o‘z vaqtida bilganligi, yoki bu haqda sug‘urtalovchida ma’lumotlar yo‘qligi uning sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish huquqini beradi. Ushbu qoidalar shaxsiy sug‘urta shartnomasiga ham taalluqli bo‘lib, sug‘urtalovchini xabardor etish 20 kundan kam bo‘lmasligi kerak. Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasining kelib chiqish asoslari va vaziyatlarini o‘rganishga haqli bo‘lib, bu sug‘urta tovonini

belgilashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur holatni o‘rganishda sug‘urtalovchining sug‘urta xavfini baholash huquqi (FK 932-m.), sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta xavfining ortishi oqibatlari (FK 949-m.) bilan aniqlash imkonini beradi.

Agar sug‘urta tovonini to‘lashni rad etuvchi ma’lumotlar bo‘lmasa, sug‘urtalovchi sug‘urtani to‘lashi shart.

Quyidagi hollarda sug‘urtalovchi to‘lashdan bosh tortishi mumkin:

- sug‘urta hodisasi sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug‘urtalangan shaxsning qasd qilishi oqibatida yuz bergan bo‘lsa (FK 953-m. 1-q.);

- qonunda sug‘urta hodisasi sug‘urta qiluvchining yoki naf oluvchining qo‘pol ehtiyoitsizligi oqibatida yuzaga kelganda sug‘urtalovchini mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod etish yoki tovon miqdorini kamaytirish mumkin. Sug‘urtalovchi sug‘urtalangan shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazganlik uchun fuqaroviylar javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lashdan, agar zarar sug‘urtalanuvchi uchun javobgar shaxsning aybi bilan yetkazilgan bo‘lsa, ozod qilinmaydi;

- sug‘urtalovchi shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta pulini to‘lashdan, agar uning vafoti o‘z joniga qasd qilish oqibatida ro‘y bergan bo‘lsa va bu vaqtgacha sug‘urta shartnomasi kamida ikki yil amal qilgan bo‘lsa, ozod qilinmaydi (FK 953-m. 2-4-q.). Qolgan holatlarda sug‘urta qildiruvchining, naf oluvchining yoki sug‘urtalangan shaxsning ehtiyoitsizligi va qo‘pol ehtiyoitsizligi sug‘urta tovonini rad etishga asos bo‘la olmaydi.

Sug‘urta hodisasi quyidagi holatlarda yuz bergan bo‘lsa:

- yadro portlashi, radiatsiya yoki zaharlanish ta’sirida;
- harbiy harakatlar, manevrlar va boshqa harbiy tadbirlar.

Sug‘urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo‘yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi oqibatida ko‘rilgan zarar uchun sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod etiladi. Buning sababi sug‘urta hodisasining amalga oshish xavfi yuqori bo‘lganligi bilan belgilanadi.

Odatda sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish qarori sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) so‘rab murojaat etgandan so‘ng, 15 kundan kechiktirmasdan yozma, hamda sabablari ko‘rsatilgan holatda bildiriladi (FK 955-m.).

Sug‘urta pulini to‘lashdan bosh tortish yoki bo‘yin tov lash, hamda o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun sug‘urta shartnomasida neustoyka belgilanishi mumkin.

Keyingi sug‘urtalovchining majburiyati bu sug‘urta siridir. Sug‘urtalovchi sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs va naf oluvchi, uning sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi o‘z kasb faoliyati natijasida o‘zi olgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Sug‘urta sirini buzganlik uchun sug‘urtalovchi buzilgan huquqlarning turi va buzish xususiyatlariga qarab FK 985, 1021, 1022-moddalariga muvofiq javobgar bo‘ladi (FK 933-m.). Mazkur qoida “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 62-moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, sug‘urtalovchining qo‘shimcha majburiyatlari shartnomada belgilab qo‘yilishi mumkin.

Sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchiga bila turib yolg‘on ma’lumot bergenligi aniqlansa, sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishi mumkin (FK 931-m. 4-q.). Agar sug‘urta shartnomasi sug‘urtalovchining qandaydir savollariga sug‘urta qildiruvchining javoblari bo‘lmagan holda tuzilgan bo‘lsa, sug‘urtalovchi tegishli holatlar sug‘urta qildiruvchi tomonidan ma’lum qilinmaganligiga asoslanib, shartnomani bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi (FK 931-m. 3-q.).

Mulkiy sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug‘urtalovchiga ma’lum qilingan holatlarda yuz bergan, o‘ziga ma’lum bo‘lgan muhim o‘zgarishlar to‘g‘risida, agar bu o‘zgarishlar sug‘urta xavfi ortishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, sug‘urtalovchiga darhol xabar berish shart. Sug‘urta shartnomasida va sug‘urta qildiruvchiga berilgan sug‘urta qoidalari aytib qo‘yilgan o‘zgarishlar muhim deb hisoblanadi (FK 949-m.).

Mazkur moddaga muvofiq sug‘urta xavfi ortishiga sabab bo‘ladigan holatlar to‘g‘risida xabardor qilingan sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasining shartlarini o‘zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lashni talab qilishga haqli.

Sug‘urta shartnomalarini buzganlik uchun qo‘llaniladigan eng asosiy javobgarlik turlaridan biri fuqarolik-huquqiy javobgarlik bo‘lib, u shartnoma ishtirokchilariga mulkiy zarar yetishi natijasida kelib chiqadi.

Sug‘urta shartnomalarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik, jazo choralar sifatida, zararni to‘lash va neustoyka qo‘llanilishi bilan ifodalanadi.

Fuqarolik qonunchiligi bo‘yicha javobgarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazilgan zarar uchun ham, shuningdek, zarar oqibatida olinishi mumkin bo‘lgan, lekin olinmay qolgan daromad uchun ham kelib chiqadi.

Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda sug‘urta tovonini to‘lamaslik sug‘urta tashkilotlarining javobgarligiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘urta idorasi shartnomani lozim darajada bajarmaganligi, uning bu

harakatlari sug‘urta qonunchiliga zidligi va sug‘urta tovonini to‘lamaganligi sug‘urta idorasining aybi ekanligidan kelib chiqib, sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta to‘lash bilan birga, shu sug‘urta tovonini berishni kechiktirgan har bir kun uchun belgilangan miqdorda qo‘sib to‘lanadi. Sug‘urta shartnomasi tomonlar o‘rtasida o‘zaro shartnomada orqali tartibga solinadi. Sug‘urta shartnomasi munosabatlarida sug‘urta qiluvchi (sug‘urta tashkiloti) ning vakili, sug‘urta qildiruvchi jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning vakili va shartnomada sug‘urta to‘lovini olishi belgilangan naf oluvchi qatnashadi.

Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasini tuzish vaqtida sug‘urta obyektining haqiqatda mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak. Sug‘urtalanayotgan obyekt sug‘urta shartnomasi davrida mavjudligi yoki yo‘qligi, sug‘urtalanayotgan manfaatlar g‘ayriqonuniy emasligi kabi masalalar hal qilingandagina shartnomada tuzishga kirishish lozim.

Xulosa qilib aytganda, sug‘urta shartnomasi quyidagi hollarda o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- shartnomada tuzilayotgan paytda sug‘urta obyekti mavjud bo‘lmasa;
- jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan, jinoyat obyekti hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo‘lgan mol-mulk mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan bo‘lsa;
- shartnomada bo‘yicha g‘ayrihuquqiy manfaat sug‘urtalangan bo‘lsa;
- sug‘urta shartnomasida sug‘urta hodisasi sifatida yuz berish ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo‘lmagan voqeа nazarda tutilgan bo‘lsa;
- qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug‘urta faoliyatini tartibga solib turuvchi bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, asosiyлari quyidagilar:

- “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi (2021-yil 23-noyabr) qonuni;
- “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risi”dagi (2008-yil 21-aprel) qonuni;
- “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risi”dagi (2008-yil 10-sentabr) qonuni;
- “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risi”dagi (2009-yil 16-aprel) qonuni;
- “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risi”dagi (2015-yil 26-may) qonuni.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni 42-moddasiga

binoan IIOning xodimlari O‘zbekiston Respublikasi davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 38-sonli “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga binoan:

1. 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning xizmatni o‘tash davrida halok bo‘lish (vafot etish), jarohatlanish (kontuziya), kasallanish hodisalaridan davlat majburiy sug‘urtasi joriy etilishi belgilandi.

Sug‘urtalash O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga, Mudofaa vazirligiga, Ichki ishlar vazirligiga, Davlat xavfsizlik xizmatiga, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markaziga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatiga, Davlat bojxona qo‘mitasiga, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga budgetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutildi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi sug‘urtalovchilar hisoblanadi.

2. Vakil qilingan sug‘urtalovchi quyidagi hollarda va miqdorda sug‘urta summasini to‘lashi nazarda tutildi:

a) sug‘urtalangan shaxs xizmatni o‘tash (harbiy yig‘inlar) davrida halok bo‘lganda yoki xizmat (harbiy yig‘inlar)dan bo‘shagandan so‘ng bir yil mobaynida olingan jarohat(kontuziya), kasallanish natijasida vafot etganda — uning merosxo‘rlariga (merosxo‘rlik huquqini tasdiqlaydigan guvohnoma taqdim etilgan taqdirda) respublikada belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 7 yilligi miqdorida;

b) sug‘urtalangan shaxs xizmatdan bo‘shagandan keyin bir yil mobaynida unga xizmatni o‘tash (harbiy yig‘inlar) bilan bog‘liq bo‘lgan nogironlik belgilanganda: I guruh nogironiga — ushbu bandning “a” kichik bandida nazarda tutilgan to‘lovlarining 75 foizi, II guruh nogironiga — 50 foizi, III guruh nogironiga — 30 foizi miqdorida;

v) sug‘urtalangan shaxs xizmatni o‘tash (harbiy yig‘inlar) davrida og‘ir jarohatlanganda — ushbu bandning ”a” kichik bandida nazarda

tutilgan to‘lovlarning 20 foizi va yengil jarohatlanganda 10 foizi miqdorida sug‘urta puli to‘lashlari.

Shuningdek, mazkur qarorga binoan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda ikki hafta muddatda harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy sug‘urtasini amalga oshirish tartibini ishlab chiqishi va tasdiqlashi nazarda tutilgan edi.

Yuqoridagi qaror talablaridan kelib chiqib, bir qator vazirliklar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 2010-yil 5-avgustdagি 430-son buyrug‘i bilan “Xizmat majburiyatlarini bajarayotganda harbiy xizmatchilar (harbiy xizmatga majburlar) halok bo‘lgan yoki tan jarohati olgan holda bir yo‘la to‘lanadigan nafaqani to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi qabul qilindi.

### **3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida sug‘urtani tutgan o‘rni va ahamiyati**

Bugungi kunda IIO xodimlarini ham ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha bir qator qonunlar va qonunosti hujjatlar qabul qilindi.

IIO xodimlari o‘z faoliyatlarida sug‘urta masalasiga ko‘p duch keladilar. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasiga ko‘ra: “Ichki ishlar organlarining xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi “Ichki ishlar organi xodimining yoki uning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga uning xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq holda yetkazilgan zararning o‘rmini qoplash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 234-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga asosan, IIO xodimi xizmat majburiyatlarini bajarish tufayli xodimning yoki uning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rni, ixtiyoriy yoki majburiy sug‘urta bo‘yicha mablag‘lar to‘langanidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan to‘la hajmda qoplanishi, ushbu mablag‘lar aybdor shaxslardan undirilishi ko‘rsatilgan.

Agarda zarar ichki ishlar organlaridan pensiyaga chiqqan shaxslarga yoki ularning yaqin qarindoshlari mol-mulkiga ularning ichki ishlar

organlaridagi xizmat faoliyati bilan bog‘liq holda yetkazilgan bo‘lsa, bu qoida ularga ham tatbiq etilishi ham mustahkamlab qo‘yilgan. Xodimning xizmat vazifalarini bajarishi tufayli uning yoki yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi qonunda belgilanadi.

Bundan tashqari mazkur nizomda IIO xodimlari xizmatga qabul qilingan kunidan boshlab o‘n kun ichida O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinishi qayd etib o‘tilgan.

Bunda ko‘rinib turibdiki, IIO xodimlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi va boshqa fuqarolik qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etib xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida uning yoki yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi nazarda tutilgan.

Biroq IIOning xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘idagi o‘zining qonunga xi洛f xatti-harakatlarini (harakatsizligini) oqlash uchun xizmat manfaatlarini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni, yuqori turuvchi mansabdar shaxslarning qonunga xi洛f talablari, buyruqlari va farmoyishlarini yoki qonunga muvofiq bo‘lmagan boshqa biror-bir holatni ro‘kach qilishi mumkin emas.

Yuqorida qayd etilgan normativ hujjatlar bilan bir qatorda IIO xodimlarining shaxsiy sug‘urtasiga oid O‘zbekiston Respublikasining “IIO xodimlarining shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

---

## *O 'NINCHI BOB*

### **ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR VA UNDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ISHTIROKI**

#### **1-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) tushunchasi va xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi roman-german huquq tizimiga asoslanadi. Shu bois qadimgi Rim xususiy huquqining ko'plab qoidalari va kategoriyalari Rimda qanday nomlangan va qo'llangan bo'lsa, milliy fuqarolik huquqiga ham shunday implementatsiya qilingan. Akademik H.Rahmonqulov "Rim xususiy huquqidan ham to'g'riroq va mukammalroq huquqni hech bir xalqda topib bo'lmaydi. Buni butun jahon tan olgan va yigirma asrdan ortiq vaqtidan buyon dunyoning ko'pchilik madaniyatli xalqlari Rim huquqidan o'z sharoitlariga moslashtirgan holda foydalanib kelmoqdalar"<sup>1</sup> deb yozgan edi. Darhaqiqat, milliy fuqarolik huquqimizdagi ko'plab yuridik kategoriylar, masalan servitut huquqi, vindikatsion da'vo, negator da'vo kabilar qadimgi Rim xususiy huquqi novellalari asosida shakllangan. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) instituti ham Rim xususiy huquqining novellalaridan biri hisoblanadi.

"Delikt" lotincha "delistum" so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi o'zbekchada "buzish", "ayb", "huquqbazarlik" kabi ma'nolarni anglatadi. Biroq, "delikt" huquqiy kategoriya sifatida ko'proq mazmun kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi "Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar" deb nomlanadi. Yuridik adabiyotlarda delikt majburiyat instituti (delits unerlaubte Handlungen, torts) majburiyatlar turining eng qadimgisi ekanligi aytiladi . "Delikt" atamasi sivilistik adabiyotlarda keng qo'llanilsa-da, milliy qonunchiligidan bu ibora umuman qo'llanilmaydi. Ammo, ayrim MDH davlatlarining fuqarolik qonunchiligidan bu iborani uchratish mumkin, masalan Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik kodeksining 59-bobi

---

<sup>1</sup> Шомуҳамедова З.Ш. Рим хусусий ҳуқуқи: Дарслик. – Т., 2002. – Б.3.

“Fuqaroviylar huquqbazarlik (deliktlar)”, Moldova Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1398-moddasi “Delikt javobgarlikning umumiy asoslari va shartlari”, – deb nomlanadi.

Qadimgi Rim huquqiga oid yozma manbalarda “delictum” g‘ayriqonuniy harakat sifatida baholangan. Rim huquqida “delictum” va “crimen” (jinoyat) o‘rtasida keskin farq bo‘lmagan. Chunki, rimliklar “jinoyat”ni alohida huquqiy kategoriya sifatida bilmaganlar. Ya’ni, rim huquqshunoslari vatanga xiyonat yoki xoinlik, dushman bilan til biriktirish, davlat rahbariga suiqasd qilish, oila boshlig‘ini o‘ldirish kabi g‘ayriqonuniy harakatlarni “delictum publicum” (davlat manfaatiga qarshi qaratilgan harakatlar) deb hisoblaganlar. Qadimgi Rimda “delictum publicum”ga qarshi kurash va jazo berish ishlari faqat davlat xizmatlari (davlat organlari) vakolatiga tegishli bo‘lgan. Rim klassik huquqi davriga kelib esa “delictum” (g‘ayriqonuniy harakat)dan jabrlangan shaxslarga shu harakatni sodir etgan shaxsga nisbatan da’vo ochish huquqi beriladi va natijada deliktning ikki turi: “delictum publicum” (davlat manfaatiga qarshi huquqbazarliklar) va “delicta privata” (xususiy manfaatlarga qarshi huquqbazarliklar) paydo bo‘ladi.

Masalan, XII jadval qonunida qo‘schnisining daraxtini kesish, o‘g‘irlik qilish, omonat olgan mulkni qaytarib bermaslik kabilar “delicta privata” hisoblanib, bu nizolar sudda da’vo qo‘zg‘atish tartibida ko‘rib chiqilgan va buni sodir etgan shaxslardan muayyan miqdorda pul undirilgan va bu pullar davlat foydasiga emas, aynan bu harakatlardan jabrlangan shaxslarning foydasiga berilgan. E’tiborli jihat shundaki, rimliklar bu pul miqdorini undirishdan maqsad ko‘rgan zararini qoplash emas balki, ko‘proq bu harakatni sodir etgan shaxsni jazolashni maqsad qilganlar. Ya’ni, sodir etgan shaxsga nisbatan iqtisodiy sanksiya qo’llanildi deb hisoblaganlar.

Bugunga kelib esa delikt institutining asosiy funksiyasi rim davriga qaraganda ancha o‘zgardi. Ya’ni, zarar yetkazgan shaxsni jazolash yoki undan qasos olish emas, balki jabrlanuvchining buzilgan huquqini himoya qilish va uning oldingi mulkiy holatini tiklash bo‘ldi.

Delikt majburiyatlar sivilistika fanining qadimgi Rimdan hozirgi kungacha bahs-munozaraga sabab bo‘lib kelayotgan eng muhim institutlaridan biridir. Yuridik adabiyotlarda bu institutni sivistalar “zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar”, “delikt majburiyatlar”, “huquqbazarlikdan kelib chiqadigan majburiyatlar”, “shartnomasiz majburiyatlar”, “nojoiz (man etilgan) harakatlardan kelib chiqqan majburiyatlar”, deb ham ataydilar.

Milliy qonunchiligidan delikt instituti “Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar” deb nomlangan bo‘lib, sivilist olimlarimiz esa “delikt majburiyatlar” deb ham atashadi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tushunchasiga fuqarolik qonunchiligidan yuridik ta’rif berilmagan. Biroq, FK 985-moddasida “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi” belgilangan.

**Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning mazmuni** shundan iboratki, shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning hayoti va sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan shaxs yetkazilgan zararni to‘liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi huquqiga ega bo‘ladi (ya’ni, bir tarafda faqat majburiyat, ikkinchi tarafda faqat huquq bo‘ladi). Shu xususiyatiga ko‘ra, mazkur institut bir tomonlama majburiyatlar guruhiga kiradi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Mazkur majburiyat vujudga kelishi uchun asos bo‘ladigan qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan yuridik faktlar – zarar yetkazish fakti, delikt hisoblanadi. Biroq, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o‘z mazmunida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ham nazarda tutadi.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini belgilashda qonun umumiyligi tamoyillarga tayanadi. Yuridik adabiyotlarda bu tamoyil “bosh delikt tamoyili” - deb yuritiladi. Bosh delikt tamoyiliga ko‘ra, bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning mavjudligiyoq, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatining g‘ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi hamda zarar yetkazuvchiga nisbatan “aybdorlik” prezumpsiyasi qo‘llaniladi. Zarar yetkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor – deb “hisoblanadi”. Ya’ni ushbu qoida qadimgi Rimda amalda bo‘lgan XII jadval qonunlarida belgilangan, “sindirdimi – tuzatsin”, “zarar yetkazdimi – to‘lasin” prinsipiga asoslangan. Zero, bugun ham delikt institutining mazkur oltin qoidasi o‘z ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q. Boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda fuqarolik huquqida ba’zi vaziyatlarda “ayb” mavjud bo‘lmagan holatlarda ham javobgarlik vujudga keladi.

Delikt majburiyatlarda zararning kutilmagan hodisa va tasodiflar oqibatida vujudga kelishi bois, uning kelib chiqishini har doim ham

oldindan aniq aytib (bashorat qilib) bo‘lmaydi. Bu esa har qanday davrda kutilmagan zararlardan himoyalanish zarur va dolzarbligini anglatadi. Ayniqsa, ayni kunda zararlarning kelib chiqishi o‘zgacha bir tus olmoqdaki, shaxslar (fuqaro, yuridik shaxs, davlat)ga zararlar tabiat hodisalaridan ko‘ra ko‘proq g‘ayriqonuniy harakatlar oqibatida yetkazilmoqda. Shunday holatda yetkazilgan zarar kim tomonidan to‘lanishi (zarar yetkazgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxs tomonidan) masalasi yuzaga keladi. Hozirgi vaqtida yuridik va jismoniy shaxslar kutilmagan zararlardan himoyalanish maqsadida sug‘urta xizmatidan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

IIO xodimlarining xizmat faoliyati jarayonida ularning sog‘lig‘i yoki hayotiga kutilmagan zarar yetish xavfi vujudga kelishi va bu yetkazilgan zararni qoplash tartibi qonun hujjalarda belgilab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 38-son qarori bilan harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarni, oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish maqsadida 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning xizmatni o‘tash davrida halok bo‘lish (vafot etish), jarohatlanish (kontuziya), kasallanish hodisalaridan majburiy sug‘urtasi joriy etilgan. Ushbu Qarorga binoan “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi tomonidan belgilangan tartibda keyingi har bir yil boshlangunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan shartnomalarini tuzishi belgilangan.

Ammo jamiyatning hamma sohalari ham sug‘urtalanmagan yoki sug‘urta toponi har doim ham yetkazilgan zararni to‘la qoplay olmaydi. Shu sababli, yetkazilgan zararni yagona huquqiy institut yordamida tartibga solishning iloji yo‘q. Bu borada kengroq faoliyat ko‘rsatish uchun bir qancha institatlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ulardan eng salmoqlisi delikt yoki zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlardir.

So‘nggi yillarda atrof-muhitni ifloslantirish, ishlab chiqaruvchining sifatsiz va zararli mahsulot yetkazib berishi, shifokorlarning noto‘g‘ri davolashlari natijasida kelib chiqqan da‘volar soni ortib bormoqda. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning ahamiyati ortib

borayotganini davlatlarning fuqarolik qonunchiligidagi delikt majburiyatlarga katta e'tibor berilayotganida ham ko'rish mumkin. Delikt majburiyatlarni tartibga solish boshqa davlat fuqarolik qonunlarida va boshqa alohida qonunlarda o'z aksini topgan. Masalan: Shveysariyada delikt majburiyatlar "Majburiyatlar to'g'risida"gi Qonun va boshqa (atom energiyasidan foydalanish, transport vositalarini ekspluatatsiya qilish va hokazolar to'g'risidagi) maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Angliya va AKSHda sud pretsedentlari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham Fuqarolik Kodeksidan tashqari "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi, "Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlarida barcha xavf-xatar va zararlar to'g'risida har bir shaxsning sudga murojaat etishi mumkinligi mustahkamlangan.

Shu o'rinda IIO faoliyatida ham bu borada yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi 234-son qarori bilan "Ichki ishlar organi xodimining yoki uning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga uning xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, huquqshunos olimlar bu xususda bir xil fikr bildiradilar. Jumladan, Y.U.K.Tolstoy bu belgilarni quyidagicha ko'rsatadi:

a) bu majburiyatlarning ta'sir doirasi – zararni qoplash moddiy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni o'z ichiga oladi;

b) ular mutlaq xarakterga ega bo'lgan mulkiy huquqlar (mulk huquqi, umrbod egalik qilish huquqi, xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi va boshqalar) yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi;

v) garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan shaxs tomonidan buzilgan bo'lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli shartnomasiz xarakterga ega bo'ladi;

g) bu majburiyatlar zararning kim tomonidan kimga yetkazilgani, zarar qay shaklda yetkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'i nazar, to'liq qoplanishi nazarda tutiladi;

d) qonunda nazarda tutilgan hollarda zararni to'lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin.

Zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatga binoan jabrlangan shaxs yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxsdan o‘zining avvalgi holati tiklanishini yoki ko‘rgan zararining qoplanishini talab qila oladi.

**Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat subyektlari** bo‘lib: zarar ko‘rgan shaxs (**jabrlanuvchi**) va zarar yetkazuvchi (**deliktvent**) hisoblanadi.

Bunday subyektlar sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat (davlat organlari) ham bo‘lishi mumkin. Delikt munosabatlarda jabrlangan, ya’ni zarar ko‘rgan shaxs kreditor sifatida, zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs qarzdor sifatida harakat qiladi.

Fuqarolik huquqining umumiy qoidasiga ko‘ra, yetkazilgan zararni qoplash uni yetkazgan shaxs (deliktvent) tomonidan amalga oshiriladi va u fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortiladi. Ammo, fuqarolik huquqida har doim ham zarar yetkazuvchi va zarar uchun javobgar shaxs bir shaxs bo‘lavermaydi yoki amaliyotda shunday ham bo‘ladiki, bir shaxs boshqa shaxslarning harakatlari uchun javobgar hisoblanadi. Jumladan, FK 985-modda ikkinchi qismida “Qonunda zararni to‘lash majburiyati zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin” degan qoida belgilangan. Bu holda jabrlanuvchi tomonidan uchinchi shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan zararni undirib olish mumkin bo‘ladi.

Bir shaxsning g‘ayriqonuniy aybli harakati tufayli yetkazilgan zarar deliktvent tomonidan emas, boshqa shaxslar tomonidan qoplanishi holatlari, zararni qoplash tartibi va qoidalari fuqarolik qonunchiligidagi o‘z ifodasini topgan. Bular jumlasiga:

“Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi” (FK 989-m.);

“Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 990-m.);

“Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 991-m.);

“O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 993-m.);

“Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 996-m.) kabilarni keltirish mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatning mazmunini jabrlangan shaxsning avvalgi holati tiklanishini yoki ko‘rgan zararlarning

to‘lanishini talab qilishga bo‘lgan huquqi va yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsning mazkur harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan burchi tashkil etadi.

Delikt instituti asosan ikki turdag'i vazifani bajaradi:

*birinchidan*, avvalgi holatni tiklash yoki zararni qoplash, ya’ni jabrlangan shaxsning buzilgan huquqlari tiklanadi hamda ko‘rgan zarari qoplanadi;

*ikkinchidan*, tarbiyaviy funksiyani, ya’ni qonunga xilof xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini bajaradi.

Mazkur institutning avvalgi holatni tiklash vazifasi shundaki, u g‘ayriqonuniy xatti-harakat natijasida vujudga kelgan salbiy mulkiy oqibatlarni tugatishga, chunonchi, sog‘liqni tiklashga, nobud qilingan ashyo o‘rniga yangi ashyo olishga yoki zararlangan ashynoni tuzatishga yoxud ko‘rgan zarar qoplanishiga imkon beradi.

Bu institut tarbiyaviy funksiyasiga ko‘ra, yetkazilgan zararni undirish imkonini berish bilan qonunchilikka rioya qilish, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, ijtimoiy va xususiy mulkka ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini amalga oshiradi. Shuningdek, delikt instituti jamiyatda fuqarolarning g‘ayriqonuniy harakatlarni qilmaslikni, qonunchilikka rioya qilishni, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi hamda jamiyatda turli huquqbazarliklarning oldini olishga xizmat qiladi, shuningdek jamiyat a’zolaridan huquqbazarlikka moyil shaxslarning “yetkazilgan zarar qoplanishi muqarrar” ekanligini tushungan holda turli huquqbazarliklar sodir etilishini oldi olinishiga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatlari bilan delikt institut bajaradigan vazifa profilaktik xususiyatga ega va uning tarbiyaviy ahamiyati kattadir.

Fuqarolik huquqida majburiyat instituti ikki turga bo‘linadi. Bular shartnomali va shartnomasiz majburiyatlar hisoblanadi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar shartnomasiz majburiyatlar turiga kiradi. Buning sababi shundaki, vujudga kelgan zarar shartnoma asosida emas, balki shartnomadan tashqari boshqa asosga ko‘ra vujudga keladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar shartnomasiz majburiyatlarning eng birinchi turi hisoblanadi. Lekin, shartnomasiz majburiyatlarning boshqa turlari ham mavjud. Xususan, asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar hisoblanadi. Bu majburiyatlar to‘g‘risida Fuqarolik kodeksining 1023–1030-moddalarida

asosiy tushunchalar berilgan. Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati to‘g‘risida qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo‘lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolning mol-mulkni (asossiz egallab olgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart ekanligi qayd etilgan. Asossiz orttirilgan yoki tejab qolning boylik bo‘yicha majburiyatlarning elementlari boshqa fuqarolik-huquqiy munosabatlaridek, majburiyat subyektlari, majburiyat predmeti va mazmunidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqining delikt instituti qadimgi Rim xususiy huquqining novellalaridan biri hisoblanadi. Delikt instituti dastlab Rimda tashkil topdi va bu qoidalari milliy huquq tizimiga Chor Rossiyasi va sovet huquqi orqali kirib keldi. Ammo, bu davrgacha ushbu institut mamlakatimizda “Avesto” qoidalari va keyinchalik musulmon huquqi asosida rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi fuqarolik qonunchiligining, shu jumladan delikt institutining yangi rivojlanish davrini boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martidan amalga kirgan Fuqarolik kodeksida delikt institutining umume’tirof etilgan yangi qoidalari o‘z ifodasini topdi. Natijada, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda delikt institutining samarali usullari O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligiga singdirilgan.

## **2-§. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiylashtirilishi**

Zamonaviy huquqshunoslikda yuridik javobgarlikning qat’iy belgilangan turlari bo‘lmasa-da, jinoiy, ma’muriy, fuqaroviylar va intizomiy javobgarlik kabi ommalashgan turlari mavjud. Shunga ko‘ra, har bir yuridik javobgarlikni qo‘llash bo‘yicha har qaysi huquq tarmog‘ida o‘ziga xos alohida asoslar mavjud.

Delikt har bir huquq sohasida g‘ayriqonuniy harakat sifatida baholanadi, lekin, ular uchun javobgarlik asoslari har birida individuallik kasb etadi. Bu masalada V.I.Siganov va A.A. Demin “yuridik javobgarlik bir xil emasligini va har bir huquq tarmog‘i bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra turlicha bo‘lish”ni ta’kidlasalar, L.V.Voytovich, I.V.Sergeyev esa huquqbazarlik sodir etilganda “jinoyat qonunchiligidagi birinchi navbatta uning axloqiy tomonlariga, fuqarolik huquqida esa huquqbazarlikdan jabrlangan shaxsning moddiy manfaatlariga e’tibor qaratilishini” aytadilar.

Yuridik javobgarlik huquqbazarliklarning tavsifi va huquq tarmog‘iga ko‘ra jismoniy shaxsga, yuridik shaxsga, hatto davlatga nisbatan ham tatbiq etiladi. Masalan, yuridik shaxs va davlat yuridik javobgarlikning faqat fuqarolik-huquqiy javobgarlik turi bo‘yicha subyekt hisoblanadi.

Yuridik javobgarlik huquqiy kategoriya sifatida har bir davlatning siyosiy tuzumi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, har bir davrda va davlatda yuridik javobgarlikka oid ta’limotlar o‘sha tuzumning siyosiy mafkurasidan hamda qonunchiligidan kelib chiqib shakllangan.

Albatta, fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, bu haqida so‘z borganda uning o‘ziga xos alohida xususiyatlarni inobatga olmaslikning iloji yo‘q. Tarixiy yozma manbalarga ko‘ra, qadimgi Rim huquqida dastlab fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi mavjud bo‘lmagan. Chunki, huquqning dastlabki davrida yuridik javobgarliklar (jinoiy, ma’muriy, fuqaroviy va sh.k.) turlanmagan va bunday tavsif rimliklar uchun begona bo‘lgan. Zamonaviy huquqlardan farqli ravishda qadimgi Rim huquqida dastlab vatanga xiyonat, dushman bilan til biriktirish, davlat rahbariga suiqasd qilish, oila boshlig‘ini o‘ldirish kabi barmoq bilan sanoqli qilmishlar “g‘ayriqonuniy harakat”, bugungi til bilan aytganda “huquqbazarlik” deb qaralgan hamda jazo chorralari qo‘llanilgan.

Rim huquqshunoslari jazo qo‘llashga asos bo‘lgan yuqorida ta’kidlangan “g‘ayriqonuniy harakat”larni “delictum publicum” deb nomlashgan. O‘sha davr holatidan kelib chiqib, “delictum publicum” tarkibiga davlat manfaatiga qarshi qaratilgan huquqbazarliklar kiritilganligini aytish mumkin. Chunki, aynan bu qilmishlar o‘sha davrda davlat manfaatiga va uning boshqaruviga putur yetkazgan bo‘lishi mumkin. Keyinchalik jamiyatda davlatga qarshi qaratilgan “huquqbazarlik”larning yangi turlarining paydo bo‘lishi “delictum publicum” ro‘yxatini kengaytirish bilan birga, “delicta privata”ni, ya’ni xususiy shaxslarning manfaatlariga qarshi qaratilgan g‘ayriqonuniy harakatlarni ham huquqbazarlik sifatida tan olishni va ularga nisbatan ham jazo qo‘llash zaruratini keltirib chiqardi. Natijada rim huquqida xususan, XII jadval qonunlarida davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan huquqbazarliklar – “delicta publica” va xususiy shaxslar manfaatini buzuvchi g‘ayriqonuniy harakatlar – “delicta privata” sifatida huquqbazarliklarning ikki turi o‘z ifodasini topdi.

Rim xususiy huquqi amal qilgan davrdan to bugungi kungacha “fuqarolik-huquqiy javobgarlik” turli xususiyat kasb etgan. Shakllanishning boshlang‘ich davrida fuqarolik-huquqiy javobgarlikning

kumulyativ (jazolovchi) xususiyati va keyinchalik esa kompensatorlik funksiyasi rivojlana boshladi. Shu sababli, fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasi bo‘yicha fuqarolik huquqi nazariyasida turli davrlarda turlicha qarash va yondashuvlar ham bo‘lgan.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, bular:

*birinchidan*, fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari har doim ham mulkiy mazmunga ega emas va ular huquqbuzarga nisbatan nomulkiy tusdagi noxush oqibatlarni ham vujudga keltirishi mumkin;

*ikkinchidan*, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning birlamchi vazifasi huquqbuzarni jazolash emas, balki jabrlanuvchining buzilgan huquqini tiklash va imkon qadar uning oldingi mulkiy holatiga qaytarish hisoblanadi;

*uchinchidan*, fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari fuqaroviy huquqbuzarning shaxsiga emas balki, uning mol-mulkiga yoki mulkiy huquqlariga ta’sir ko‘rsatadi;

*to ‘rtinchidan*, fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari ba’zi hollarda jabrlanuvchining xohish irodasiga bog‘liq holda qo‘llaniladi. Ya’ni, sud huquqbuzarga nisbatan mulkiy tusdagi jazo chorasini tayinlashda jabrlanuvchining istagini inobatga oladi (FK 1003-m.).

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarliklar tarkibida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadiki, bunda IIO ham yuridik javobgarlikning faqat shu turida subyekt hisoblanadi. Holbuki, davlat, davlat organlari va yuridik shaxslar, jinoiy, ma’muriy, intizomiy javobgarliklarning subyekti hisoblanmaydi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik faqat fuqarolik huquqbazarlik sodir etilganda belgilanadi va yuqorida ta’kidlanganidek, aksariyat hollarda huquqbuzarning mulkiga yoki mulkiy huquqiga ta’sir ko‘rsatish tartibida qo‘llaniladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bir turi bo‘lgan delikt javobgarlikning asosiy shakli “zararni qoplash” hisoblanadi. “Zarni qoplash” delikt institutining asosiy funksiyasi bo‘lish bilan birga zarar yetkazuvchiga nisbatan qo‘llaniladigan jazo chorasi ham hisoblanadi. Chunki, FK 985-moddasida zarar yetkazuvchi jabrlanuvchiga yetkazgan zararni to‘liq hajmda qoplashga majburligi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, FK 11-moddasida “Zararni qoplash” fuqarolik huquqlarini himoya qilishning alohida usuli sifatida ham belgilangan. Demak, delikt institutining “Zararni qoplash” funksiyasi, bir tomonidan – fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida, boshqa tomonidan esa – javobgarlik shakli sifatida belgilangan. Shunga ko‘ra, bu masala

huquqshunoslar o‘rtasida “zarar qoplanadimi?” yoki “zarar undiriladimi?” – degan bahsli holatni vujudga keltirdi. Ya’ni, zarar undirilsa u javobgarlik chorasi, zarar qoplansa rag‘batlantirish usulini birlamchi vazifaga chiqaradi. Fikrimizcha, har ikkala turini bir-biriga qiyoslagan holda ularning vazifasini mutlaq yoki nisbiy deb bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, har ikki funksiyani vazifasiga ko‘ra ikkilamchi o‘ringa qo‘yib bo‘lmaydi. Shu sababli, deliktni ham javobgarlik chorasi ham himoya usuli sifatida ko‘rish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Yuridik adabiyotlarda javobgarlikni vujudga keltiruvchi asoslar bo‘yicha bahsli fikrlar mavjud. Masalan, bir guruh huquqshunos olimlar “har qanday yuridik javobgarlikning, shu jumladan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning vujudga kelishining asosi huquqbazarlikning sodir etilishi” ekanligini aytadilar. Ya’ni, ularning fikricha, barcha yuridik javobgarliklarning umumiyligi belgisi va asosi “huquqbazarlik” hisoblanadi. Biroq, bunday talqin ma’muriy va jinoiy-huquqiy javobgarliklar uchun umumiylilik kasb etsa-da, fuqarolik-huquqiy javobgarlikka xos emas. Chunki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning vujudga kelishining birlamchi asosi “huquqbazarlik” emas, balki “zarar” hisoblanadi. Buni quyidagicha tushuntirishga harakat qilamiz, masalan, svetoforning qizil chirog‘ida harakatlanish “huquqbazarlik” bo‘lsa-da, uning oqibatida hech qanday moddiy yoki mulkiy zarar yetkazilmagan bo‘lishi mumkin. Natijada, “huquqbazarlik” sodir etilgan bo‘lsa-da, zarar yetkazilmaganligi sababli fuqarolik-huquqiy javobgarlik haqida gapirib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, “huquqbazarlik” yuridik kategoriya sifatida har bir huquq sohasida o‘ziga xos xususiyatga ega va alohida mazmun kasb etadi.

Bundan tashqari, delikt javobgarlikni vujudga keltiruvchi asos “huquqbazarlikmi” yoki “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)mi” degan savol ham bahslidir. Ammo, “huquqbazarlik” va “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” o‘xhash tushuncha hisoblansa-da, har doim ham bir xil mazmunga ega bo‘lmaydi. “G‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” huquqbazarlikka qaraganda keng tushuncha kasb etadi. Shunga ko‘ra, har qanday huquqbazarlikni “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” deb baholash mumkin bo‘lsa-da, har qanday g‘ayriqonuniy harakatni “huquqbazarlik” deb bo‘lmaydi. Masalan, svetoforning qizil chirog‘ida harakatlanish huquqbazarlik hisoblani, ma’muriy-huquqiy javobgarlikni vujudga keltirishi mumkin, ammo fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi (chunki, bu yerda zarar yetkazilmagan). Yoki boshqaning mol-mulkiga zarar yetkazish qonun normalarining buzilishi hisoblansa-da, har doim ham jinoyat yoki ma’muriy huquqbazarlik deb bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, “huquqbazarlik” va “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” barcha huquq sohalarida har doim ham bir xil mazmunga ega emas. Bunda yuridik mazmuniga ko‘ra “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” huquqbazarlikka qaraganda kengroq ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, har qanday yuridik javobgarlikning vujudga kelishining asosi “huquqbazarlik” emas, balki “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)” bo‘ladi deb aytish mumkin. Sababi, har qanday huquqbazarlikni g‘ayriqonuniy harakat deb baholash mumkin bo‘lsa-da, har qanday g‘ayriqonuniy harakatni “huquqbazarlik” deb bo‘lmaydi. Chunki, g‘ayriqonuniy harakat huquqbazarlikka qaraganda keng tushuncha kasb etadi. Bundan tashqari, har bir huquqbazarlik yuridik xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, jinoiy yoki ma‘muriy javobgarlikni vujudga kelishiga asos bo‘lgan huquqbazarlik ayni vaqtida fuqarolik-huquqiy javobgarlik uchun asos bo‘lmasligi mumkin. Yoki aksincha “ba’zi bir huquqqa xilof harakat bir vaqtning o‘zida fuqarolik, intizomiy, jinoyat huquqi normalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin”. Shunga ko‘ra, “huquqbazarlik” yuridik kategoriya sifatida har bir huquq sohasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur fikrlardan xulosa qilib, g‘ayriqonuniy harakat yoki harakatsizliklarni jinoiy, ma‘muriy yoki fuqaroviylar javobgarlik keltirib chiqarishiga ko‘ra, quyidagi 3 turga bo‘lish mumkin:

1) fuqarolik huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlik hisoblanib, jinoiy yoki ma‘muriy huquqbazarlik hisoblanmagan g‘ayriqonuniy harakatlar. Bunday g‘ayriqonuniy harakatlar fuqarolik huquqida muayyan bir javobgarlikni keltirib chiqarsa-da, jinoiy yoki ma‘muriy javobgarlik qo‘llashga asos bo‘lmaydi. Bunga misol qilib, boshqaning mol-mulkiga ehtiyoitsizlik natijasida shikast yetkazishni keltirish mumkin (masalan, do‘konga kirgan iste’molchi sotuvchining mulkiga ehtiyoitsizlik orqali shikast yetkazishi va natijada sotuvchining zararini qoplashga majburligi);

2) jinoiy yoki ma‘muriy huquqbazarlik hisoblanib, fuqarolik-huquqiy javobgarlik keltirib chiqarmaydigan g‘ayriqonuniy harakatlar. Ba’zi bir g‘ayriqonuniy harakatlar jinoiy yoki ma‘muriy huquqbazarlik bo‘lishi, lekin fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmasligi mumkin. Masalan, haydovchining harakat davomida xavfsizlik kamaridan foydalanmasligi, transport vositalari haydovchilarining svetoforning taqiqlovchi signaliga yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo‘ysunmasdan to‘xtash chizig‘ini bosib kirishi va o‘tishi (MJtK 128<sup>4</sup>-m.), transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarining telefondan foydalanishi (MJtK 128<sup>1</sup>-m.) kabilar ma‘muriy huquqbazarlik hisoblansa-da, buning oqibatida moddiy yoki ma‘naviy zarar kelib

chiqmaganligi sababli fuqarolik-huquqiy javobgarlikni vujudga keltirmaydi;

3) g‘ayriqonuniy harakatlarning uchinchi turi anchayin ko‘pdir. Bunga fuqarolik huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan va shuningdek jinoyat va ma’muriy huquqda ham huquqbazarlik hisoblangan g‘ayriqonuniy harakatlardir. Boshqacha aytganda, bunga jinoyat va ma’muriy huquq normalari bilan taqilangan va natijada mulkiy yoki ma’naviy zarar keltirib chiqaradigan g‘ayriqonuniy harakatlarni kiritish mumkin.

Yuridik adabiyotlarda har qanday yuridik javobgarlikning umumiy asosi “huquqbazarlik tarkibi” (obyekt, subyekt, obyektiv tomon, subyektiv tomon) ekanligi ta’kidlanadi. Ammo ushbu fikrlar ilmiy maydonda bahsli bo‘lib, “huquqbazarlik tarkibi” barcha yuridik javobgarliklar uchun bir xil ahamiyatga ega emas. Fuqarolik huquqida delikt javobgarlikning asoslari quyidagilar:

- g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik);
- zarar;
- ayb;
- sababiy bog‘liqlik hisoblanadi.

### **G‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)**

Delikt javobgarlikning ilk sharti bu – zararni keltirib chiqargan harakatning huquqqa xilofligi, ya’ni g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) hisoblanadi. G‘ayriqonuniy degan so‘zning ma’nosi huquq normalarini buzuvchi xatti-harakatni anglatadi. Fuqarolik huquqiga binoan harakat ham, harakatsizlik ham g‘ayriqonuniy bo‘lishi mumkin.

Shaxs qonun yoki shartnomaga binoan muayyan harakatni bajarishi shart bo‘lgan, biroq bu harakat bajarilmagan bo‘lsa, bunday harakatsizlik g‘ayriqonuniy deb e’tirof etiladi. Muayyan harakatni sodir etish majburiyati qonundan kelib chiqadi. Masalan, ichki ishlar organlariga “102” raqami orqali jinoyat yoki huquqbazarlik haqida xabar berilganda, ular belgilangan vaqtida voqeа joyiga yetib kelishlari shart. IIO xodimlarining voqeа joyiga kelmasliklari “g‘ayriqonuniy harakatsizlik” hisoblanadi va tegishli tartibda mansabdor shaxslarning javobgarligiga asos bo‘ladi. Yoki tez tibbiy yordamga muhtoj bemorga mutaxassis shifokorning tibbiy yordam ko‘rsatmasligi ham “g‘ayriqonuniy harakatsizlik” sifatida baholanadi. Yoxud yordamga muhtoj, deylik cho‘kayotgan odamga yordam ko‘rsatmasdan beparvo o‘tib ketish ham “g‘ayriqonuniy harakatsizlik” hisoblanib qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

## **Zarar**

Delikt javobgarlikning asosiy kategoriyalaridan yana biri “zarar” hisoblanadi. Zarar yuridik kategoriya bo‘lishi bilan birga delikt javobgarlikni vujudga keltiruvchi muhim asos ham hisoblanadi. Chunki, zarar mavjud bo‘lmasa, delikt javobgarlik ham vujudga kelmaydi. Zero, fuqarolik huquqbuzarlik hisoblanishi uchun boshqa hamma shartlar mavjud bo‘lsa-da zarar yetkazilmagan bo‘lsa delikt javobgarlik haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas (shartnomaviy javobgarlik bundan mustasno).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida zarar tushunchasiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, “zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi”.

Mazkur moddaning mazmuniga ko‘ra, zararni uch tarkibiy qismga ajratish mumkin:

- haqiqiy zarar, ya’ni jabrlanuvchiga yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan real zarar;
- zararni tiklash uchun qilgan xarajatlar, ya’ni jabrlanuvchi buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan barcha xarajatlari, masalan sud orqali tiklagan bo‘lsa sud chiqimlari ham kiradi;
- boy berilgan foyda, ya’ni jabrlanuvchi zarar ko‘rmaganda olishi mumkin bo‘lgan, lekin zarar yetkazilganligi uchun ololmay qolgan daromadlari kiradi.

Bu o‘rinda zararni ma’naviy zarar va moddiy ziyon shaklida ekanligini ham ta’kidlash o‘rnlidir.

## **Ayb**

Fuqarolik huquqida “ayb” kategoriyasi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosi sifatida tan olinadi va “aybsiz javobgarlik” esa umumiyligida istisno sifatida qaraladi.

FKda “ayb” kategoriyasiga yuridik ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, umumiyligida ayb deganda, shaxs o‘zining g‘ayriqonuniy harakati orqali zarar yetkazishi (qasd) yoki bu zararni oldini olish uchun kerakli choralarini ko‘rmaganligi (ehtiyyotsizligi)ni tushunish mumkin.

Har qanday holatda ham ayb javobgarlikning subyektiv sharti sifatida tavsiflanadi. Ayb huquqbuzarning qonun yoki shartnoma orqali o‘z zimmasiga qo‘yilgan majburiyatlarga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi.

Qarzdor majburiyat buzilganida faqat o‘zi tomonidan ayb mavjud

bo‘lgani taqdirdagina javob beradi. Agar u majburiyatning buzilishida o‘z aybi yo‘qligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (FK 333-m. 2-q.).

Qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi (FK 333-m. 1-q.). Shunday qilib, fuqarolik-huquqiy javobgarligi yuzaga kelishining ukdirilgan uchta sharti – qarzdor harakatlarining g‘ayriqonuniyligi, ziyon yetkazish hamda g‘ayriqonuniy xatti-harakat bilan yuzaga kelgan zararlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishdan tashqari – qoida tariqasida, to‘rtinchi shart – qarzdorning aybi mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek FKda ayb bo‘limgan holatlarda ham javobgarlik belgilanishi mumkin va bu delikt majburiyatlarda ko‘proq uchraydi.

### **Sababiy bog‘liqlik**

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning vujudga kelishi uchun g‘ayriqonuniy harakat bilan zarar o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bo‘lishi, ya’ni zararning shu g‘ayriqonuniy harakat tufayli vujudga kelganligi shartidir.

*Sababiy bog‘lanish* – tabiat va jamiyatdagi hodisalar o‘zaro aloqasining jihatlaridan biridir. Biroq u shaxsning xatti-harakatiga va bu xatti-harakat oqibatida yuzaga kelgan natijaga tegishli ijtimoiy baho berilgandagina, ya’ni bunday aloqa tabiiy tusga ega bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy tusga ega bo‘lganidagina yuridik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Huquq fani va amaliyoti odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar bilan aloqadordir. Sababiy bog‘lanishlarning jamiyatdagi o‘ziga xosligi shundaki, bunda sabab sifatida doimo muayyan faoliyat, odamlarning xatti-harakatlari namoyon bo‘ladi.

Huquqni tatbiq etish amaliyotida odamlarning fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan faoliyatiga duch kelinadi. Huquqbuzarlikka ko‘pincha ongli ravishda, atayin yo‘l qo‘yiladi. Shuning uchun ko‘p hollarda sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi masalani hal etishda nafaqat sababiy bog‘lanishlarning obyektiv xarakterini, balki huquqbuzarning ongli faoliyatini ham hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Huquq sohasida duch kelinadigan sababiy bog‘lanishlarning bir qator jiddiy xos xususiyatlari mavjud bo‘lishiga qaramay ular umumiy

xususiyatlarga ega bo‘ladi: sabab muayyan natijani keltirib chiqaradi, ya’ni huquqbazarlik zarar yoki zyon yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Demak, yetkazilgan zararda huquqbazar harakatining sababiy bog‘liqligi mavjud bo‘lgandagina delikt javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ya’ni, shaxsning xatti-harakati qanchalik g‘ayriqonuniy bo‘lmisin, yetkazilgan zarar bilan uning g‘ayriqonuniy harakati o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lmas ekan bunda uni javobgar deb bo‘lmaydi. Masalan, sigareta chekish taqiqlanadi belgisini ko‘rib turib o‘sha joyda sigareta chekkan shaxsning harakati g‘ayriqonuniy hisoblanishi mumkin, lekin o‘sha vaqtning o‘zida boshqa sababga ko‘ra yong‘in chiqqanda sigareta chekib g‘ayriqonuniy harakat qilgan shaxsni yong‘in oqibatida yetkazilgan zararda aybdor deb bo‘lmaydi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlikni belgilaydigan huquqiy normalar Fuqarolik kodeksining 985–1022-moddalari va boshqa maxsus huquqiy hujjatlarda ifodalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning alohida turlari quyidagilardan iborat:

- 1) yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi;
- 2) davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- 3) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- 4) zararning o‘z javobgarligini sug‘urtalagan shaxs tomonidan to‘lanishi;
- 5) o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- 6) o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- 7) ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onaning voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi;
- 8) muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- 9) muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;

10) o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;

11) tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug‘diradigan faoliyat tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;

12) birgalikda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;

13) uy hayvonlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik.

Shuni alohida qayd etish lozimki, fuqarolik huquqida yuqorida ro‘yxati keltirilgan zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar “maxsus deliktlar” deb yuritiladi. Shunga ko‘ra, ularning har biri uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi va shartlari o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi.

### **3-§. Ichki ishlar organlarining davlat organi va yuridik shaxs sifatida delikt javobgarligi**

O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat tizimida IIO tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lgan tashkilot va u o‘zida turli huquqiy maqomga ega tuzilmalarni birlashtiradi. IIOning oliv organi yoki bosh bo‘g‘ini Ichki ishlar vazirligidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 12-apreldagi PQ-2883-qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi nizomda ularning yuridik shaxs sifatida maxsus huquq layoqati belgilab berildi (nizomning 15-bandı).

IIO tizimidagi barcha tuzilmalar ma’muriy-huquqiy jihatdan “davlat organi” hisoblansa-da, ularning hammasi ham “yuridik shaxs” maqomiga ega emas. Masalan, viloyat IIB tizimidagi shahar va tuman ichki ishlar bo‘limlari davlat organi hisoblansa-da, yuridik shaxs maqomiga ega emas. Chunki, bu tashkilotlarda yuridik shaxs belgilari (bankda hisob raqami, mulkiy mustaqillik, mustaqil mulkiy javobgarlik kabilar) mavjud emas. FK 41-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxsning huquq layoqati uning ta’sis hujjatlarida, ustavida, nizomida yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilanishi nazarda tutilgan.

Ta’kidlash kerakki, fuqarolik muomalasida yuridik shaxs sifatida faqat IV emas, balki uning alohida tuzilmalari ham ishtiroy etadi.

IIO tizimining yuridik shaxs maqomidagi muassasalari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mustaqil subyekt hisoblanadilar va majburiyatlar bo‘yicha mustaqil javobgar bo‘ladilar. IIO tizimidagi muassasalar nafaqat fuqarolar va yuridik shaxslar bilan, balki o‘zaro bir-birlari bilan ham

fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o‘rnatishlari mumkin. Masalan, Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda DYHXX deb ataladi) vazirlik tizimidagi barcha muassasalarning transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishni haq evaziga amalga oshiradi.

IIO muassasalarining o‘zaro mulkiy munosabatlari har doim ham ma’muriy-huquqiy normalar bilan emas, ba’zida ular fuqarolik huquq normalari bilan ham tartibga solinadi. Ya’ni, bir-biriga ma’muriy bo‘ysunmaydigan IIO tuzilmalarining mulkiy munosabatlari ular o‘rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishi mumkin.

Qoidaga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari bu munosabatlarga kirishganda foyda olish yoki mulkiy manfaat ko‘rishni maqsad qiladilar. Ammo, IIO asosiy vazifalarini amalga oshirishda moddiy zarurat tufayli fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishadilar va bunda mulkiy manfaat olishni maqsad qilmaydilar.

Delikt munosabatlarda IIO ham kreditor (jabrlanuvchi) ham qarzdor (deliktvent) sifatida subyekt hisoblanadi.

IIO bu munosabatlarda davlat organi hamda yuridik shaxs sifatida subyekt (deliktvent) hisoblanadi. Boshqacha aytganda, IIO ommaviy huquq va xususiy huquq subyekti sifatida delikt munosabatlarda qatnashadi. Masalan, ichki ishlar organlariga xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi asosida tegishli bo‘lgan oshiqcha xavf manbalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi (FK 999-m.) yuridik shaxs sifatida, IIO tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat qabul qilinishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarligi (FK 15-m.) davlat organi sifatida bo‘ladi. Sodda qilib aytganda, IIO tomonidan mulkiy va xo‘jalik faoliyati oqibatida yetkazgan zarari uchun yuridik shaxs sifatida va hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish faoliyatida yetkazgan zarari uchun davlat organi sifatida deliktvent hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida IIOning delikt munosabatlarda davlat organi va yuridik shaxs sifatida deliktventligi alohida mazmun va ahamiyatga ega. Chunki, ular tomonidan yetkazilgan zarar ularning ommaviy-huquqiy munosabatlaridan yoki xususiy-huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, ularning ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan zarari uchun davlat javobgarligi, ya’ni davlat tomonidan zarar qoplanishi nazarda tutilgan (FK 15, 990 va 991-m.). Shu bois davlat organi sifatida IIOning delikt javobgarligi, *birinchidan*, IIO va ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat chiqarishi, *ikkinchidan*, IIO xodimlarining xizmat vaqtidagi g‘ayriqonuniy harakatlari

(harakatsizligi), *uchinchidan*, ma'muriy va jinoyat-huquqiy normalarning qonunga xilof tarzda qo'llanishi natijasida yetkazilgan zarar uchun vujudga keladi.

FKda davlat organlari delikt munosabatlар subyekt ekanligi belgilangan bo'lsa-da (15, 990-m.), aynan "Ichki ishlар organlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik" nomli modda mavjud emas. Ma'lumki, IIO ma'muriy boshqaruв organi hisoblanadi va ijro etuvchi hokimiyat tizimiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2003-yil 9-dekabrdagi PF-3358-son farmoni bilan tasdiqlangan "Respublika davlat boshqaruvi organlari ro'yxati"da IIO (IIV timsolida) davlat boshqaruв organi sifatida keltirilgan. Shunga ko'ra, IIO FKda davlat organlarining delikt javobgarligi nazarda tutilgan barcha munosabatlар bo'yicha subyekt hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar" nomli 57-bobida davlat organlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun delikt javobgarlikni nazarda tutuvchi alohida moddalar mavjud. FK 15 va 990-moddalarida davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash majburiyati davlatning zimmasida ekanligi belgilangan. Ya'ni, mazkur moddaga ko'ra, davlat o'zi tashkil qilgan barcha tashkilotlar emas, aynan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun delikt javobgarligi nazarda tutilgan.

Milliy qonunchiligidan davlat organlariga yuridik ta'rif berilmagan. Albatta, har qanday davlat tashkiloti yoki muassasasi davlat hokimiyati organi emas.

Davlat organlarining delikt javobgarligini aniqlashda har qanday davlat organining huquqiy maqomi yuridik shaxs sifatida muassasa ekanligini, ammo har qanday davlat muassasasi ham davlat organi emasligini unutmaslik kerak. Shuningdek, davlatning delikt javobgarligi davlat organlarining har qanday faoliyati uchun emas, hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish oqibatida yetkazgan zarari uchun vujudga keladi.

IIO delikt munosabatlarning alohida maxsus subyekti hisoblanadi. Albatta, delikt munosabatlarda maxsus subyekt ekanligi nafaqat davlat organi ekanligida, balki ular tomonidan yetkazilgan zararni qoplash majburiyati qonun bilan davlat zimmasiga yuklatilganligi bidan bog'liqdir.

FK 57-bob qoidalaridan kelib chiqib, davlat organi sifatida IIOning quyidagi faoliyatlarida fuqarolar va yuridik shaxslarga zarar yetkazishi mumkinligi nazarda tutilganligini aytish mumkin:

*birinchidan*, ichki ishlar organlarining ma'muriy boshqaruv faoliyatida yetkazilgan zarar (FK 15, 990-m.);

*ikkinchidan*, IIOning huquqni muhofaza qilish faoliyatida yetkazilgan zarar (FK 991-m.).

IIOning delikt munosabatlarida davlat organi sifatida ishtirokining birinchi ko'rinishi, bu ularning ma'muriy boshqaruv faoliyatida yetkazgan zarari uchun javobgarligidir (FK 990-m.). Ya'ni, ularning:

*birinchidan*, qonunga xilof chiqarilgan qarorlari oqibatida;

*ikkinchidan*, mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida vujudga keladi.

Ma'lumki, IIO davlat hokimiyati organi sifatida o'z vakolatlari doirasida yuridik shaxs va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Shunga ko'ra, ularning qonunga xilof chiqarilgan qarorlari oqibatida yetkazilgan zarar uchun jabrlanuvchi subyekt ham fuqarolar yoki yuridik shaxslar ekanligini ta'kidlash kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga ko'ra: "Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat". Shubhasiz mazkur vazifalar IIO xodimlarining faoliyati orqali amalga oshiriladi va ularning ushbu faoliyati qonuniy bo'lishi talab etiladi.

Ammo amaliyot tahlillari, ba'zan IIO tomonidan qabul qilingan qarolarning qonunga xilof yoki ular xodimlarining xatti-harakatlari g'ayriqonuniy ekanini ko'rsatmoqda. Buni xodimlar orasida huquqbazarlik sodir etib, ularning aksari ma'muriy, aksariyati jinoiy javobgarlikka tortilgani ko'rsatib turibdi.

Bu kabi salbiy holatlar IIO xodimlarining protsessual qonun va ma'muriy huquq normalarini noto'g'ri qo'llashi hamda xizmatga tegishli me'yoriy hujjatlarning mohiyatini yaxshi bilmasliklari oqibatida ham kelib chiqmoqda. Shuningdek, IIO xodimlari tomonidan ba'zan fuqarolarga nisbatan keskin munosabatda bo'lish, ushlanganlarga nomutanosib majburlov chorasini qo'llash, qonuniy himoya so'rab murojaat etuvchilarga asossiz rad javobi berish va boshqa shu kabi holatlar sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, IIO xodimlari tomonidan o'zlariga qilingan hujumlarni bartaraf etish maqsadida ba'zi hollarda jismoniy kuch

ishlatish zaruratiga duch kelayotganligi va bu vaziyatlarda oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish holatlari ham kuzatilayotganligini aytish mumkin.

IIO xodimlari xizmat vazifalarini amalga oshirish davomida qonunlarda belgilangan tartibda ayrim majburlov choralar orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash zarurati yuzaga keladi. Bu esa, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning “Ichki ishlar organlari tomonidan ayrim majburlov choralarining qo‘llanilishi” nomli 4-bobi va “Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash” nomli 5-bobi qoidalarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko‘ra, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Barcha davlat organlari singari IIO faoliyatining barcha shakllari, eng avvalo, huquqiy munosabatlari huquq normalariga muvofiq bo‘lishi shart, shundagina ularning faoliyati qonuniy hisoblanadi. Davlat o‘zining organlariga, jumladan ichki ishlar organlariga hokimiyat vakolatlarini berar ekan, ushbu vakolatlarning har doim ham xatosiz amalga oshirilishini to‘liq kafolatlashi shart. Shu sababli ham buning oqibatida vujudga keladigan har qanday ko‘ngilsizliklarning oqibatlarini qoplashni va bartaraf etishni davlat o‘z zimmasiga olgan.

IIONing delikt munosabatlarda davlat organi sifatida ishtirokining ikkinchi ko‘rinishi, bu ularning huquqni muhofaza qilish faoliyatida yetkazgan zarari uchun javobgarligidir (FK 991-m.).

IIONing huquqni muhofaza qilish faoliyati deganda, ular tomonidan ma’muriy va jinoiy-protsessual qonun normalarini qo‘llash bilan bog‘liq faoliyatini tushunish kerak. Zero, FK 991-moddasida nazarda tutilgan “Qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo‘lish haqida tilxat olishni qonunga xilof qo‘llanish, qamoq tariqasidagi ma’muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish” kabi harakatlar IIONing ma’muriy va jinoiy-protsessual qonun normalarida o‘z ifodasini topgan.

Albatta, FK 991-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy va jinoiy-protsessual harakatlarning hammasi ham IIO vakolatlari doirasiga kirmaydi. Shuningdek, IIO tomonidan amalga oshiriladigan ma’muriy va

jinoiy protsessual harakatlarning barchasi ham mazkur moddaning mazmunida o‘z aksini topmagan.

IIOning ma’muriy boshqaruv faoliyatida yetkazgan zararidan farqli tarzda ularning huquqni muhofaza qilish faoliyatida yetkazgan zararida jabrlanuvchi faqat fuqarolar bo‘ladi. Zero, FK 991-moddasida belgilangan, “Qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo‘lish haqida tilxat olishni qonunga xilof qo‘llanish, qamoq tariqasidagi ma’muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish” kabi g‘ayriqonuniy qo‘llanilgan jinoiy va ma’muriy protsessual harakatlar faqat fuqaro (jismoniy shaxs) larga nisbatan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, IIO delikt javobgarligini aniqlashda, uning yuridik shaxs sifatida huquqiy maqomi davlat muassasasi ekanligini, biroq davlat organi sifatida delikt javobgarligi esa faqat FK 15, 990, 991-moddalarida belgilangan asoslarga ko‘ra vujudga kelishini ta’kidlash kerak. Shundan kelib chiqib, “Ichki ishlar organlari tomonidan yetkazilgan zarar” tushunchasiga quyidagi ta’rifni berish to‘g‘ri bo‘ladi: “Ichki ishlar organlari tomonidan yetkazilgan zarar deganda ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat chiqarilishi yoki qonunga xilof qarorlar qabul qilinishi yoxud xodimlarning hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish faoliyatidagi g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga putur yetishi, fuqaro va yuridik shaxs mol-mulkining nobud bo‘lishi yoki boshqacha shaklda yomonlashuvi tushuniladi”.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi 234-son qarori bilan “Ichki ishlar organi xodimining yoki uning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga uning xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq holda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risida”gi nizomning qabul qilinishi fuqarolik huquqida delikt majburiatlarning yangi turini belgilab berdi. Sababi ungacha mazkur munosabatlar va buning oqibatida IIO xodimiga yetkazilgan zarar hamda buni davlat budgeti mablag‘lari hisobidan to‘lash tartibi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan edi.

Albatta, IIO faoliyati ular xodimlarining xizmat vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, IIO faoliyati bu – ularning xodimlari xatti-harakatlarining mahsulidir. Shu maqsadda milliy qonunchiligidizga, xizmat majburiyatini bajarishi bilan bog‘liq holda IIO xodimi yoki uning yaqin qarindoshining mol-mulkiga

zarar yetkazilgan bo‘lsa zararni qoplash majburiyati davlat mablag‘laridan amalga oshirilishi to‘g‘risidagi qoida kiritildi. Bu yerda, IIO xodimiga yetkazilgan zararning davlat tomonidan qoplanishining asosiy sharti, xodimning mol-mulkiga yetkazilgan zarar xizmat majburiyatini amalga oshirish vaqtida yetkazilganligi bo‘lishi kerak.

IIONing delikt munosabatlaridagi ishtiroking ikkinchi ko‘rinishi, yuridik shaxs sifatida ishtiroki hisoblanadi.

Delikt munosabatlarda IIONing yuridik shaxs sifatida ishtiroki “davlat organi” sifatida ishtirokidan farq qilib fuqarolik huquqida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu munosabatlar ularning hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish oqibatida yetkazilgan zarar bilan emas, mulkiy faoliyati oqibatida yetkazilgan zarar bilan bog‘liqdir.

### **IIONing yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy javobgarligini quyidagi ikki turga ajratish mumkin:**

*birinchidan*, shartnomaviy munosabatlar asosida, ya’ni o‘z xohishiga ko‘ra fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida tuzgan shartnomma majburiylari bo‘yicha;

*ikkinchidan*, delikt munosabatlar asosida, ya’ni shartnomadan tashqari vujudga keladigan majburiyat munosabatlari, xususan hokimiyat vakolatlari bilan bog‘liq bo‘limgan faoliyati oqibatida yetkazgan zarar bo‘yicha javobgarligi.

IIONing yuridik shaxs sifatida delikt munosabatlaridagi ishtiroki uning shartnomaviy munosabatlaridagi ishtirokidan farq qiladi. Chunki shartnomaviy munosabatlarda IIO bevosita fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida harakat qilsa, hamda huquqiy munosabatda o‘z nomidan ishtirok etsa, delikt munosabatlarida IIO bilvosita, ya’ni xodimlarning xatti-harakatlari natijasida ishtirok etadi. Masalan, xizmat avtomashinasi orqali IIO xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun yuridik shaxs sifatida IIONing o‘zi delikt javobgar bo‘ladi (FK 989-modda. Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi). Shunga asosan IIONing yuridik shaxs sifatida delikt javobgarligini bevosita va bilvosita javobgarlikka ajratish mumkin.

Bundan tashqari, IIO shartnomaviy munosabatlarda o‘z xohish-irodasi asosida va o‘zining fuqarolik-huquqiy layoqatini amalga oshirish maqsadida ishtirok etsa, delikt munosabatlarida, fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi javobgar sifatida majburiy ravishda ishtirok etadi.

IIONing fuqarolik-huquqiy javobgarligi delikt javobgarligidan farq qiladi. Sababi, FK 15, 990, 991-moddalarida belgilangan holatlarda IIO

tomonidan zarar yetkazilgan taqdirda, zararni qoplash majburiyati ichki ishlar organlarida emas, balki davlat zimmasida ekanligi belgilangan. Shu bilan birga, IIO tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni har doim ham davlat zimmasiga yuklab bo‘lmaydi. Chunki, IIO tomonidan yetkazilgan zarar har doim ham hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmasligi, balki yuridik shaxs sifatidagi faoliyatida ham yetkazilishi mumkin.

IIO yaxlit tizim (IIV timsolida) va vazirlikning har bir tizimi alohida yuridik shaxs sifatida huquq subyekti ekanligini, hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lмаган faoliyatları oqibatida yetkazgan zarari uchun mustaqil javobgar bo‘lishlarini e’tiborga olish lozim. Zero, davlat organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan va o‘z nomidan harakat qiladi yoki davlat o‘zining fuqarolik muomala layoqatini muayyan organlar yoki yuridik shaxslar (tashkilotlar) vositasida amalga oshiradi.

Shu bilan birga FK 80-moddasida “Davlat va yuridik shaxslar javobgarligining” farqlab qo‘yilganligini ham ta’kidlash kerak. Ya’ni, davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat ham o‘zi tuzgan yuridik shaxsning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Yuqorida tahlil qilingan fikr va xulosalarga tayanib, IIOning delikt javobgarligini belgilashda, avvalo, ularning yetkazgan zarari davlat organi (davlatning tarkibiy tuzilmasi) yoki yuridik shaxs sifatidagi faoliyatining oqibati ekanligini aniqlab olish lozim bo‘ladi.

Birinchi holatda IIO hokimiyat vakolatlarini amalga oshiruvchi davlatning tuzilmasi sifatida maydonga chiqadi va shu asosga ko‘ra ularning delikt javobgarligi ham davlat zimmasiga yuklanadi.

Ikkinchi holatda esa IIO yuridik shaxs sifatida faoliyatida delikt munosabatlari vujudga keladi, bunda ularning delikt javobgarligi boshqa yuridik shaxslar singari umumiylar tartibda belgilanadi.

IIOning delikt javobgarligi masalasiga bunday tarzdagi yondashuv (davlat organi va yuridik shaxs sifatida) bir qancha aniq xulosalarga olib keladi:

*birinchidan*, IIO tomonidan yetkazilgan zarar uchun delikt javobgarlikni belgilashda, ularning qanday faoliyati oqibatida zarar kelib chiqqanligini aniqlash, shundan so‘ng esa zararni qoplash majburiyatini tegishli subyektga (davlatga yoki tegishli IIOning zimmasiga) yuklash mumkin bo‘ladi;

*ikkinchidan*, IIO tomonidan yetkazilgan zararni qoplash majburiyati sudning qaroriga ko‘ra qonunda belgilangan tartibda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxs(lar) zimmasiga yuklatilgan taqdirda ham, agar bu zarar hokimiyat vakolatlari bilan bog‘liq bo‘lsa davlat zararni qoplash majburiyatidan ozod etilmaydi;

*uchinchidan*, ichki ishlar organlariga xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi asosida tegishli bo‘lgan oshiqcha xavf manbalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik subyektini aniqlashda alohida yondashuv talab etiladi. Chunki, bunda zararni qoplash ayrim hollarda shaxsan davlat zimmasiga va ba’zida tegishli IIO zimmasiga yuklanishi mumkin. Masalan, IIO xodimining tegishli quroldan noqonuniy foydalangani tufayli yetkazgan zararini qoplash majburiyati davlat zimmasiga yuklanishi, transport vositalari bilan yetkazgan zarari esa tegishli IIOning zimmasiga yuklanishi mumkin.

## INTELLEKTUAL MULK

### 1-§. “Intellektual mulk” tushunchasi, obyektlari va ularni huquqiy muhofaza qilish asoslari

Mamlakatimizda bugungi kunda professional, halol va adolatli sudyalar korpusi shakllantirilmoqda. Madaniy qaroqchilik huquqbazarlik tizimi sifatida qonunlarda belgilanib qo‘yilishi huquqni qo‘llash va sud amaliyotida bunday illatga qarshi tizimli ravishda kurash olib borilishi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglarda darajasini har tomonlama ko‘tarishga xizmat qilgan bo‘lar edi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari IIO faoliyatini tashkil etish, axborotlarni yetkazish, tizimlashtirish, saqlash sohasida beqiyos ahamiyatga ega. Kompyuterlar va turli ma’lumot bazalari va ular orqali amalga oshirilayotgan turli operatsiyalar IIO kundalik faoliyatini ta’minlovchi vositalar hisoblanadi.

IIO intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni muhofaza qilish, bu sohada turli huquqbazarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash olib borish yo‘nalishida ham faol ishtirok etib bormoqdalar. Xususan, madaniy qaroqchilikning turli ko‘rinishlari, tovarlarni soxtalashtirish, huquq egalaridan beruxsat intellektual mulk obyektlaridan foydalanish sohasidagi jinoiy va ma’muriy huquqbazarliklarni fosh etish va ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo‘llashda IIO muhim funksiyalarni bajarmoqdalar.

Ichki ishlar organlarini intellektual mulk sohasidagi vositalardan o‘z faoliyatida samarali foydalanish, intellektual mulkka nisbatan turli huquqbazarliklarga qarshi kurash olib borish uchun intellektual mulk bo‘yicha qonunlar mohiyatini bu sohadagi tushunchalar va kategoriylar mazmunini chuqur anglab yetishlari lozim.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o‘ziga xos obyekti bo‘lib hisoblanadi. “*Intellekt*” lotincha so‘z bo‘lib, “*aql*” ma’nosini anglatadi. Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari – ashyolar, qimmatbaho qog‘ozlardan quyidagi xususiyatlari bo‘yicha farq qiladi:

- a) ko‘p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ko‘rinishda emas, balki g‘oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo‘ladi;

b) g‘oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagি moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

v) bunday obyektlardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin;

g) intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FK 164-m.) qo‘llanilmaydi. Binobarin, ko‘pchilik hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni hisobga olmaganda) intellektual mulk huquqi amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo‘ladi;

d) qonunlarda belgilangan muddatlar o‘tishi bilan intellektual mulk huquqi sohibining intellektual mulkning muayyan obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo‘ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma’lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo‘ladi;

ye) intellektual mulk huquqi obyektlari g‘oya ko‘rinishida bo‘lgan hollarda ularni ashyolar singari egallah mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsion da’voni qo‘llash (FK 228-m.) imkoniyati amalda mavjud emas;

yo) intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagи mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo‘llaniladi;

j) intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtda, ma’lum hudud bilan ham chegaralangan bo‘ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan patent O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o‘rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlardagina amal qiladi;

z) ko‘pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflari shaxsiy huquqlari mavjud bo‘lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar ushbu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim bo‘ladi.

*Intellektual faoliyat natijalariga quyidagilar kiradi:*

– fan, adabiyot, san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoki eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari;

– elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;

– ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

– seleksiya yutuqlari;

– oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

Ma'lumki, fuqarolik muomalasida turli-tuman subyektlar ishtirok etadi, ayni vaqtida, muomalada xilma-xil mahsulotlar va xizmatlar ham harakatda bo'ladi. Mana shunday sharoitda subyektlar, ular ishlab chiqargan tovarlar va ko'rsatadigan xizmatlar alohida farqlash belgilariga ega bo'lishi shart, aks holda, turli anglashilmovchilik, qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Ana shunday farqlash belgilari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o'zlarini, uning ishlab chiqargan tovarlari, bajaradigan ishlari va ko'rsatadigan xizmatlarining xususiy alomatlarini (individual belgilarini) aks ettiruvchi vositalar bo'lib hisoblanadi. *Bunday alohida farqlash belgilarining quyidagi turlari mavjud:*

- firma nomlari;
- tovar (xizmat ko'rsatish) belgilari;
- tovar chiqarilgan joy nomi.

Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivojlanib borayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatning yangi mahsullari vujudga kelmoqda. Masalan, topografal va integral mikrosxemalar. Garchi ular mavjud qonunlarda nazarda tutilmagan bo'lsa ham ularga nisbatan FK 1031-moddasi uchinchi qismida belgilangan qoidalar mazmunidan kelib chiqib, intellektual mulk haqidagi qoidalar qo'llaniladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ular ishlab chiqarayotgan tovarlar, ko'rsatadigan xizmatlarining yangi farqlash belgilari vujudga kelishi mumkin va bunday holda ham ularga nisbatan FK IV bo'limiga tegishli qoidalar qo'llaniladi.

*Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda*, bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibi huquqlarining qonuniy jihatdan qo'riqlashini vujudga keltirish asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyekti o'z-o'zidan huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi, balki bu obyektga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo'lgan shaxslar (muallifning shaxsiy huquqlari, mutlaq huquqlar sohibining huquqlari, litsenziya asosida foydalanuvchining huquqlari, avvaldan foydalanuvchining huquqlari va shu kabilar) huquqlari huquqiy jihatdan muhofaza ostiga olinadi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish:

- ularning yaratilganlik fakti asosida;
- FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Intellektual obyektlarning quyidagi turlari bo'yicha ularni huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilishi fakti assosida sodir bo'ladi:

- fan, adabiyot, san'at asarlari;
- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ijrolar, ijrolarni sahnalashtirish, eshittirish va ko'rsatuvarlar;
- topologik va integral sxemalar.

Bunda obyekt ijodkor tomonidan og'zaki, yozma, tasvir shaklida yoki boshqalar tomonidan idrok etish (qabul qilish) uchun imkon beradigan boshqa obyektiv shaklda mujassam etilishi bilan yaratilgan hisoblanadi. Binobarin, shu vaqtdan boshlab unga nisbatan boshqa shaxslarda subyektiv huquqlar vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi. Bunday holda obyektdan uchinchi shaxslarning foydalangan bo'lishi, obyekt ro'yxatdan o'tkazilishi yoki boshqa rasmiyat chiliklarga rioya etilishi talab etilmaydi. Hatto obyekt keyinchalik ro'yxatdan o'tkazilishi lozimligi haqidagi qoida mavjud bo'lsa ham (masalan, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari uchun davlat ro'yxati mavjud) bu holat ularning huquqiy muhofaza qilish holatiga ta'sir etmaydi. Bunda intellektual mulk obyektlari O'zbekiston Respublikasi hududida yoki xorijiy davlat hududida yaratilganligi fakti ahamiyatga ega emas.

Intellektual mulkning bir qator obyektlarini huquqiy muhofaza qilish FKda yoki boshqa qonunlarda (masalan, "Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun, "Seleksiya yutuqlari haqida"gi qonun va shu kabilar) belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi orqali vujudga keladi. Buning uchun intellektual mulk obyektiga nisbatan o'z subyektiv huquqlarining e'tirof etilishiga haqli bo'lgan manfaatdor fuqaro yoki yuridik shaxs belgilangan tartibda vakolatli davlat organiga murojaat etishi va o'z talabini asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. Talab qanoatlantirilgan hollarda vakolatli davlat organi fuqaro yoki yuridik shaxsni intellektual mulk obyektiga nisbatan subyektiv huquqlari muhofaza ostiga olinganligini bildiruvchi hujjat (patent, guvohnoma, qayd etilganlik haqidagi shahodatnoma), huquqiy muhofaza yorlig'i beradi. Vakolatli davlat organi bunday talabni rad etgan taqdirda bu haqda asoslantirilgan qaror chiqaradi. Qaror ustidan Appelyatsion kengashga yoki sudga qonunlarda belgilangan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Vakolatli davlat organi (ko'p obyektlar bo'yicha bunday organ bo'lib O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi hisoblanadi) huquqiy muhofaza yorlig'i berishda quyidagi holatlarni, albatta, o'rganib chiqadi:

a) huquqiy muhofaza berilishi so‘ralayotgan obyekt intellektual mulk obyekti sifatida tegishli xususiyatlarga egami, yo‘qmi;

b) o‘z nomiga huquqiy muhofaza yorlig‘i berilishini so‘rab murojaat qilayotgan fuqaro yoki yuridik shaxs talabi qonuniy asoslarga egami, yo‘qmi;

v) huquqiy muhofaza yorlig‘i berilishi boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlariga putur yetkazmaydimi va hokazo.

Ayrim turdag'i intellektual mulk obyektlarini vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig‘i asosida huquqiy qo‘riqlanishi bo‘yicha tartib belgilanganligining ahamiyati shundan iboratki, bunda, birinchidan, huquqiy muhofaza yorlig‘i intellektual mulk obyektlarining sifat jihatidan tegishli talablarga javob bera olishi lozimligini, ikkinchidan, nomiga huquqiy muhofaza yorlig‘i olgan shaxsning subyektiv huquqlarini tasdiqlovchi va bu huquqlarning boshqalar tomonidan rioya etilishini ta’minlovchi vosita ekanligini guvohlantiradi. Ayni vaqtida bunday tartib huquqiy muhofaza vujudga kelishi va uning amal muddatlarini belgilashda bahs-nizolarga o‘rin qoldirmaydi, shuningdek, boshqa mamlakatlar hududlarida ushbu obyektga nisbatan xuddi shunday muhofaza yorlig‘ini olishni osonlashtiradi. Ba’zi obyektlar bo‘yicha esa bunday obyekt yaratuvchisi bo‘lgan ijodkorning mualliflik shaxsiy huquqlarini ham o‘ziga xos tarzda guvohlantiradi. Obyektga nisbatan huquqiy yorliq mavjudligi nomiga yorliq berilgan shaxsning subyektiv huquqlari buzilgan taqdirda sud yo‘li bilan himoya qilish uchun asos bo‘ladi.

Intellektual mulk quyidagi obyektlarining huquqiy muhofazasi davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig‘i berilishi asosida vujudga keladi:

- ixtiro, sanoat namunasiga nisbatan patent beriladi;
- foydali modelga nisbatan guvohnoma beriladi (“Ixtiolar, sanoat namunalari, foydali modellar to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi);
- seleksiya yutuqlariga nisbatan patent beriladi;
- tovar (xizmat ko‘rsatish) belgisiga nisbatan u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, guvohnoma beriladi;
- firma nomi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib (reyestrga kiritilib), bu haqda dalolatnama beriladi;
- tovar chiqarilgan joy nomiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, undan foydalanish huquqi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natjalarga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega bo‘ladi.

Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan uning muallifining shaxsiy huquqlari deganda, mulkiy mazmunga ega bo‘lmagan, ushbu natijaga

nisbatan ijodkor-yaratuvchi sifatidagi mavqeini e'tirof etish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan mutlaq huquqlari tushuniladi va huquqlar muallifning faqat o'zigagina tegishli bo'lib, boshqa birovga yetkazilishi, ya'ni muallifdan begonalashtirilishi mumkin emas. Shaxsiy huquqlar mazmuni, doirasi har bir intellektual faoliyat natijasi uchun alohida o'ziga xos tarzda belgilanadi. Masalan, mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan muallif shaxsiy huquqlari doirasi keng (mualliflik huquqi, mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq, muallif obro'sini himoya qilish huquqi, asarni chaqirib olish huquqi va hokazo). Ba'zi obyektlar bo'yicha esa (masalan, seleksiya yutuqlarida) shaxsiy huquq obyekt muallifi sifatida tan olinishi huquqi bilan kifoyalanadi.

Intellektual faoliyat natijalari muallifi shaxsiy huquqlari bilan bir qatorda, ushbu natijaga nisbatan mulkiy huquqlarga ham ega. Mulkiy huquq mazmuni muallifning ushbu o'zi yaratgan intellektual faoliyat natijasidan foydalanishi, boshqalarga haq evaziga foydalanishga berish yoki haq evaziga foydalanish uchun ruxsat berish yoxud haq evaziga bu natijaga nisbatan huquqlarni boshqalarga yetkazish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Muallifning mulkiy huquqlari hajmi to'liq yoki cheklangan bo'lishi mumkin. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqlar (FK 1034-m.) muallifning o'ziga emas, boshqa shaxsga tegishli bo'lsa, muallifning intellektual faoliyati natijasiga mulkiy huquqlari cheklangan tusga ega bo'ladi (masalan, mualliflik huquqida ergashma huquq yoki ulush huquqi, seleksiya yutuqlari bo'yicha seleksionerlarning patent egasidan mukofot olish huquqi, ixtirochining ixtirodan ilmiy-tadqiqot va shaxsiy maqsadlarda foydalanish huquqi va hokazo).

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar, tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga o'tgan taqdirda ham uning o'zida saqlanib qoladi. Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy huquqlar faqat ijodkor-yaratuvchi (muallif)ning o'ziga tegishli bo'ladi, mulkiy huquqlar esa, uchinchi shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin (masalan, obyekt buyurtma asosida yaratilganda).

Mulkiy huquqlar fuqarolik muomalasida faol harakatda bo'lishi; u boshqalarga haq evaziga yoki tekin o'tkazilishi, garov predmeti bo'lishi, meros tartibida o'tishi mumkin.

Shaxsiy huquqlar esa ijodkor-muallifning shaxsi bilan bog'liq, undan begonalashtirilishi, birovga o'tkazilishi mumkin emas. Masalan, asarga nisbatan mutlaq huquqni sotib olgan nashriyot asarni nashr etishda muallif nomini ko'rsatishi, asar daxlsizligiga rioya qilishi lozim.

Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasi roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Agarda mutlaq huquq bir necha shaxsga tegishli bo‘lsa (masalan, mualliflarga) uchinchi shaxslar mutlaq obyektdan foydalanish uchun barcha huquq sohiblaridan ruxsat olishi shart. Mutlaq huquq sohibidan olinadigan uchinchi shaxslarning obyektdan foydalanishga roziligi ochiq-yaqqol ifodalangan bo‘lishi, tegishli huquqiy shaklda rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart. Indamaslik, sukul rozilik alomati hisoblanmaydi.

Intellektual mulk obyektdan mutlaq huquq egasi ruxsatini olmasdan foydalangan uchinchi shaxslar tegishli fuqarolik-huquqiy tartibda javobgar bo‘ladilar. Huquq egasi o‘z huquqlarini sud tartibida himoya qilishga, uchinchi shaxslardan huquq buzilish harakatlarini to‘xtatishga, keltirilgan hamma zararni, shu jumladan, ma’naviy zarar qoplanishini uchinchi shaxslar huquqbazarlik natijasida olgan barcha daromad va foydalarni o‘ziga undirib berilishini talab qilishga haqli.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasi o‘z huquqini Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonunlarga zid bo‘lmagan har qanday tarzda tasarruf etishga haqli. Masalan, mutlaq huquqlar egasi bu huquqlarni o‘z majburiyati yoki uchinchi shaxslar majburiyatlarining bajarilishini ta’minalash usuli sifatida garovga qo‘yishi mumkin.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq sohibi o‘z huquqini qonunda man etilgan tarzda tasarruf qilishga haqli emas. Huquqni tasarruf etishning qonun man etgan usuli Fuqarolik kodeksida yoki amaldagi qonunlarda bevosita ko‘zda tutiladi. Masalan, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, urush, millatlararo adovat, behayolikni targ‘ib etuvchi asarlarni tarqatish (haq evaziga yoki tekin) qonunga asosan man qilinadi.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar huquq egasi vafotidan keyin meros tartibida qonuniy merosxo‘rlarga yoki vasiyat asosida boshqa shaxslarga o‘tadi. Bunda vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan Fuqarolik kodeksining V bo‘limida vorislik haqidagi belgilangan normalar qo‘llaniladi. Intellektual mulk obyektlariga mutlaq huquqlar egasi yuridik shaxs bo‘lsa, bunday yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hollarda (uni boshqa bir yuridik shaxs bilan qo‘sib yuborish, qo‘sib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish – FK 49-m.) mutlaq huquq vorislik tartibida yangi tashkil etilgan yuridik shaxsga o‘tadi. Qayta tashkil etishning bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish hollarida yangi vujudga kelgan yuridik shaxslarning qaysi biriga mutlaq

huquq o‘tishi ularning o‘zaro kelishuvi asosida, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tomonidan belgilanadi.

Ijodiy faoliyat natijasi yaratuvchisi bo‘lgan muallifning faqat o‘zigagina tegishli bo‘lgan, boshqa birovga o‘tkazilmaydigan va begonalashtirilmaydigan mutlaq huquqlari doirasi, turlari va mazmuni FK 1033-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Litsenziya shartnomasi bo‘yicha intellektual faoliyati natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan tarafga (litsenziyaga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishiga ruxsat beriladi.

Litsenziya shartnomasi intellektual mulk obyektlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishiga imkon beruvchi muhim fuqarolik huquqiy vosita hisoblanadi. Litsenziya shartnomasi intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsat berish haqidagi kelishuv hisoblanadi. Mulk egasi (patent egasi, tovar belgisi sohibi, mualliflik huquqi obyekti sohibi, oshkor etilmagan axborotlar egasi)ning huquqiy muhofaza ostidagi obyektdan foydalanish o‘ziga tegishli huquqlarni belgilangan tartibda va ma’lum shartlar asosida uchinchi shaxslarga berishga litsenziya (ruxsatnoma) deyiladi.

Litsenziya shartnomasida beriladigan huquq, foydalanish chegaralari va muddatlari aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

Yuqorida ko‘rsatilganday, intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar doirasi nihoyatda keng va rang-barang. Bunday huquqlar shartli ravishda uch guruhga bo‘linishi mumkin: huquq egasining obyektdan shaxsan foydalanishi, boshqalarga foydalanishga ruxsat berishi, boshqalarning foydalanishini taqiqlab qo‘yishi. Ayni vaqtida bu huquqlar ham turlichcha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: o‘zi foydalanishi, boshqaga ham foydalanishga ruxsat berishi; faqat o‘zi foydalanishi; o‘zi foydalanmay, boshqaga foydalanishga ruxsat berishi. Boshqaga foydalanishga berishda bunday foydalanish hududi, foydalanish hajmi va miqyoslari (o‘zi xohlaganday ma’lum texnologik jarayon yoki ishlab chiqarishda, ma’lum mahsulotga nisbatan va hokazo) ham aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

Litsenziya shartnomasida litsenziya asosida litsenziatning intellektual mulk obyektidan foydalanish muddati aniq belgilab qo‘yilishi lozim. Bu muddat litsenziya berilgan vaqtdan boshlab, obyektni huquqiy muhofaza qilish muddati doirasidan qisqa bo‘lishi shart. Masalan, ixtiroga berilgan patent 20 yil amal qiladi, aytaylik, ushbu ixtirodan foydalanishga litsenziya berilganda, patentning amal qilish muddati 10 yil qolgandi.

Litsenziya muddati ana shu qolgan muddatdan qisqa bo‘lishi shart. Agarda obyektdan foydalanishga berilgan ruxsatnomalar muddat bilan chegaralanmagan, ya’ni obyektning huquqiy muhofaza muddati davomida amal qiladigan bo‘lsa, u holda foydalanish litsenziya shartnomasi orqali rasmiylashtirilmaydi, bunda FK 1035-moddasi 1-qismi qoidalari qo‘llaniladi.

Litsenziya shartnomasi haq baravariga tuziladigan shartnomalar hisoblanadi. Odatda, litsenziya shartnomasi bo‘yicha haq to‘lashda ikki xil shakl keng qo‘llaniladi: bir vaqtning o‘zida haqning hammasini to‘lash (paushal to‘lov) va litsenziya asosida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan tovardan olingan daromadlardan hissa ajratib berib turish (royalti). Ba’zan har ikkala shakl birgalikda qo‘llaniladi. Bunda dastlab kafolatlangan qat’iy miqdordagi haq va keyinchalik har belgilangan davrda foydadan ulush ajratish. Ba’zi hollarda haq natura shaklida ham olinishi mumkin. To‘loving shakli taraflarning kelishuvi asosida belgilanadi.

Litsenziya shartnomasi asosida litsenziyatga quyidagilarning berilishini nazarda tutish mumkin:

- intellektual mulk obyektdan, litsenziarning undan foydalanish huquqi va boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqi saqlanib qolgan holda (oddiy mutlaq litsenziya) foydalanish huquqini;
- intellektual mulk obyektdan, litsenziarning undan foydalanish huquqi saqlanib qolgan holda, biroq boshqa shaxslarga litsenziyalarni berish huquqisiz (mutlaq litsenziya) foydalanish huquqini;
- qonunda yo‘l qo‘yiladigan boshqa turdagilarning berilishini.

Litsenziya shartnomasi yozma ravishda tuziladi. Sanoat mulki obyektlari (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar (xizmat) belgisi)dan foydalanish, shuningdek, seleksiya yutuqlari, nou-xaudan foydalanishga berilgan litsenziya Intellektual mulk agentligida ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart, aks holda, FK 112-modda 1-qismiga asosan ular mutlaq (o‘z-o‘zidan) haqiqiy hisoblanmaydi.

Muallif intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha kelgusida asar, ixtiro yoki boshqa intellektual faoliyat natijasini yaratishga va o‘zining ish beruvchisi bo‘lmagan buyurtmachiga bu natijadan foydalanish uchun mutlaq huquqlar berish majburiyatini o‘z zimmasiga olish mumkin. Har bir ijodkor shaxs o‘z intellektual faoliyatini o‘z xohishiga ko‘ra, o‘z tashabbusi, o‘z mablag‘lari asosida, ish beruvchisi bilan tuzilgan mehnat bitimi (kontrakt) asosida yoki ish beruvchisi bo‘lmagan boshqa shaxs buyurmasi bo‘yicha shartnomalar tashkil etishi mumkin.

Muallifning ijodiy faoliyat mahsulini yaratish va ulardan foydalanish to‘g‘risida boshqa har qanday uchinchi shaxs bilan tuzadigan shartnomasi o‘z mazmuniga ko‘ra fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnama hisoblanadi va ushbu shartnomaga nisbatan FK tegishli me’yorlari qo‘llaniladi. Shartnama predmeti bo‘lib muallifning kelgusida ijodiy faoliyatni amalga oshirish va uning natijasida yaratiladigan ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Binobarin, taraflar shartnama tuzgan vaqtida hali intellektual faoliyat mahsuli vujudga kelmagan bo‘ladi. Shartnama tuzish vaqtida amalda yaratilgan, mavjud bo‘lgan ijodiy faoliyat mahsuliga nisbatan mutlaq huquqlar uchinchi shaxslarga Fuqarolik kodeksining 1035-moddasida belgilangan tartibda o‘tkazilishi mumkin.

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish haqidagi shartnama ijodkor shaxs bilan buyurtmachi o‘rtasida tuziladi. Unga asosan ijodkor shaxs (ijrochi, bajaruvchi) ijodiy faoliyatni amalga oshirish asosida intellektual mulk huquqi obyektini yaratish va undan foydalanish bo‘yicha mutlaq huquqni buyurtmachiga topshirish, buyurtmachi esa bajaruvchini tegishli mablag‘ bilan ta’minalash va haq to‘lash majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish shartnomalar predmeti qanday obyekt bo‘lishiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi:

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari pudrat shartnomasi (FK 693–702-m.);

mualliflik shartnomasi (FK 1067-m.).

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish haqidagi shartnama predmeti bo‘lib, har doim kelgusida yaratiladigan, muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan, aniq va konkret belgilab qo‘yilgan asar, ixtiro, seleksiya yutug‘i va shu kabilar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida fuqarolarning ijod erkinligi mustahkamlab qo‘yilgan. Unda ko‘rsatilishicha, har qanday shaxsga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi kafolatlanadi. Binobarin, intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish haqidagi shartnomada agarda muallif – ijodkorning kelgusida muayyan turdagи yoki muayyan sohadagi intellektual faoliyat bilan shug‘ullanmaslik yoki bu faoliyat natijasini yaratmaslik majburiyatları belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan haqiqiy hisoblanmaydi. FK 23-moddasida fuqaroning huquq layoqatidan to‘la yoki qisman voz kechish va huquq layoqati va muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb ko‘rsatiladi. Demak, ijodkor-muallifning o‘z ixtiyori, erki, irodasi

bilan bunday shartni shartnoma majburiyati sifatida o‘z zimmasiga olganligi ahamiyatga ega emas. Albatta, ijodkor-muallif o‘z erki, ixtiyorilari bilan amalda ma’lum turdagiligi intellektual faoliyat bilan shug‘ullanmaslikka haqli, biroq bu holat shartnoma predmeti yoki shartnoma sharti sifatida namoyon bo‘lganda har doim o‘z-o‘zicha haqiqiy hisoblanmaydi.

## **2-§. “Mualliflik huquqi” tushunchasi, tamoyillari va asosiy kategoriyalari**

Intellektual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi.

Jahonda turli mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o‘sib borgani sayin bir mamlakatdagi ijodkorlar asarlaridan boshqa mamlakatlardagi kishilar foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda, bu esa mualliflik va turdosh huquqlar dunyoning ko‘p mamlakatlarida bir xilda tartibga solinishiga bo‘lgan zaruratni vujudga keltirmoqda. Ushbu zarurat taqozosiga ko‘ra, mualliflik huquqi bo‘yicha Butunjahon Konvensiyasida (uni Jeneva Konvensiyasi ham deyishadi) hamda adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro Konvensiyada (uni Bern Konvensiyasi deb ham ataydilar<sup>1</sup>) ishlab chiqilgan va dunyoning ko‘pgina mamlakatlari o‘z milliy qonunlarini u yoki bu Konvensiya asosida shakllantirmoqdalar. Bern Konvensiyasi me’yorlari mualliflik huquqlarini huquqiy muhofaza etishda qat’iyroq tusga ega<sup>2</sup>. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun mazmunida Bern Konvensiyasining asosiy qoidalari yotadi.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, uning eng muhim institutlaridan hisoblanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar adabiyot, san’at asarlarini yaratish, ularidan foydalanish va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mualliflik huquqi tamoyillari deb uning negizida yotgan asosiy qoidalarga aytildi. Bu tamoyillar ichida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan ijod erkinligi muhim ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, ijodkor o‘z

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси мазкур конвенцияга 2006 йил 19 апрелдан бошлаб аъзо ҳисобланади.

<sup>2</sup> Тошев Б. Муаллифлик хукуқи. – Т., 1997. – Б.88-96.

ijodiy mahsuli mavzusini tanlashda, uning shaklini belgilashda, uni yaratish uslublarini tanlashda, undan foydalanishda erkin va mustaqildir. Ayni vaqtida bu erkinlik qonun doirasida amalga oshirilishi lozim. Ijodkor o‘z asari orqali konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, zo‘ravonlik yoki behayolikni targ‘ib qilish, boshqalarning huquqlarini poymol qilish maqsadlarini ko‘zlamasligi lozim. Muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan yana biri ijodiy mahsulotlarga nisbatan senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidadir.

Muallif asarni yaratishda yoki e’lon qilishda agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o‘tkazish talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalardan biri – muallif huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatichiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir. Ushbu tamoyil FK 1041-moddasi va Qonunning 10-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Mualliflarning asarlarni yaratish va ulardan foydalanishda ma’naviy va moddiy manfaatdorligini har tomonlama muhofaza etish ham qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu tamoyil mualliflik huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va burchlarini belgilovchi me’yorlardagina emas, balki subyektiv huquqlarni amalga oshirish kafolatlarida, muallif huquqlarini muhofaza etish bo‘yicha davlat organlari zimmasiga yuklangan majburiyatlarda, buzilgan muallif huquqlarining himoya qilinishini ta’minlovchi me’yorlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Mualliflik huquqi bo‘yicha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (27, 29, 42, 67-moddalar va boshqalar), O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1041–1081-m.), “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun, “EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risida” qonun, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunlar va boshqa qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu borada, ayniqsa, FK muhim ahamiyatga ega. FK bevosita mualliflik huquqi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlardan tashqari boshqa me’yorlari ham bu sohada tartibga soluvchi vazifalarni bajaradi. Masalan, fuqarolarning huquq layoqati mazmunini belgilovchi me’yorda fuqarolarning fan, adabiyot, san’at asarlariga muallif bo‘lish huquqi (FK 18-m.), moddiy va ma’naviy zararlarni undirish bo‘yicha qoidalari (FK 14, 1021-m.), intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlar haqidagi qoidalari (FK 97-m.) shular jumlasidandir.

FK 1041-moddasiga asosan mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot, san’at asarlariga ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalananish usulidan qat’i nazar, joriy etiladi.

Har qanday asar mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofaza etilishi uchun u ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lishi shart. Shu sababli ham oddiy, kundalik hayotdagi so‘zlashuvlar, muloqotlar mualliflik huquqi obyekti bo‘lib hisoblanmaydi. Ijodiy jarayon bu, eng avvalo, inson tafakkuri, aqliy faoliyat mahsuli, u o‘ziga xos original tusga ega.

Huquqiy adabiyotlarda ijodiy jarayonning ikki holati ta’kidlab ko‘rsatiladi:

- a) asar yaratish jarayonining ongli, intellektual xarakteri;
- b) yaratilgan asarning yangiligi, originalligi.

Ijodkor ijodiy jarayonining ongli, intellektual tusi shundan iboratki, asar yaratilishidan oldin u ijodkorning ongida, xayolida shakllanadi, vujudga keladi. Asar ma’lum bir o‘y-fikr asosida paydo bo‘lib, u fikrg‘oya, fikr-reja, fikr-qoralama tarzida bosqichlardan o‘tadi, shu tarzda asar yaratilib, shakllanib boradi.

Asarning yangilanishi ijodiy faoliyatning zarur unsuri sifatida asarning yangi mazmunida, yangi shaklida, yangi g‘oyalarida, yangi milliy konsepsiyada ifodalananadi.

Asarning yangiligi haqidagi mezon mutlaq tusga ega bo‘lmay, nisbiy tusga ega. Ilm-fan sohalaridagi asarlarda yangi g‘oyalar, yechimlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, adabiy asarlarda va san’at asarlarida shaklan yangilik muhim o‘rinni egallaydi. Masalan, o‘tmishda “Hamsa” – 5 doston sujeti bo‘yicha Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy asarlari bunga yaqqol dalildir. Oybekning “Qutlug‘ qon” va Hamzaning “Boy ila xizmatchi” asarlarida sujet bo‘yicha o‘xshashlik mavjud, biroq asar shaklan bir-biriga o‘xshamaydi. Shu sababli ham mualliflik huquqida shakl bo‘yicha yangilik o‘ziga xos tarzda birinchi rejaga chiqadi, deyish mumkin.

Asarning mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofaza qilish uchun yana bir belgisi bu uning obyektiv shaklda ifodalanganligidir. Asardagi g‘oya, mazmun, o‘y-fikr, obraz uchinchi shaxslar idrok etishi, tanishuvi, qabul qilishi uchun imkon beruvchi ma’lum bir obyektiv shaklda ifodalangan bo‘lishi shart. Shu ma’noda olganda hali muallifning o‘y-fikrida bo‘lgan, biroq boshqalar qabul qilish uchun obyektiv shaklga kiritilmagan asar mualliflik huquqi obyekti bo‘lib hisoblanmaydi.

FK 1041-moddasiga asosan asar og‘zaki, yozma shaklda yoki uni idrok etish imkonini beradigan boshqa obyektiv shaklda ifodalangan

bo‘lishi lozim. Yozma shaklda yoki moddiy jismda o‘zgacha usulda ifodalangan asar (qo‘lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuvlar, texnika vositalari yordamidagi yozuv, shu jumladan, audio va video yozuvi, ikki o‘lchamli yoki hajmiy-fazoviy shaklda yaratilgan tasvirda va h.k.) uning uchinchi shaxslar uchun foydalanish imkoniyati boryo‘qligidan qat’i nazar, obyektiv shaklga ega hisoblanadi. Moddiy jismda ifodalanganmagan og‘zaki yoki boshqa xil asar, basharti u uchinchi shaxslarning idrok etishi uchun maqbul kelgan, kifoya qilgan bo‘lsa (omma oldida so‘zlash, ommaviy ijrochilik va h.k.) obyektiv shaklga ega hisoblanadi.

Ijodkor asarining uchinchi shaxslar tomonidan idrok etilishi, qabul qilinishi, hozircha insonning ko‘rish va eshitish xususiyatlari, qobiliyati asosida ro‘y beradi.

Yozma asarlar, videotasvirlar, ikki o‘lchovli asarlar (rasmlar) hajmiy-fazoviy shakldagi tasvir (masalan, haykal, me’moriy binolar) ko‘rish tuyg‘usi orqali qabul qilinsa, musiqa, nutqlar, badiiy o‘qishlar eshitish tuyg‘usi orqali qabul qilinadi.

*Mualliflik huquqi obyektlari quyidagi turlardan iborat:*

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publisistik va boshqa asarlar);
  - drama va ssenariy asarlari;
  - matnli yoki matnsiz musiqa asarlari;
  - musiqali drama asarlari;
  - xoreografiya asarlari va pantomimalar;
  - audiovizual asarlar;
  - rang tasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san’atning boshqa asarlari;
  - manzarali-amaliy va sahna bezagi san’ati asarlari;
  - arxitektura, shaharsozlik va bog‘-park barpo etish san’ati asarlari;
  - fotografiya asarlari va fotografiyaga o‘xshash usullarda yaratilgan asarlar;
  - geografiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, geografiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;
  - barcha turdagи EHM uchun dasturlar, shu jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi boshlang‘ich matn hamda obyekt kodida ifodalaniishi mumkin bo‘lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari;
  - Qonunning 5-moddasida belgilangan talablarga javob beradigan boshqa asarlar (Qonunning 6-m.).

Mualliflik huquqi obyekti bo‘lishi uchun asar tugallangan bo‘lishi shart emas. Shu sababli asar tugallanmagan bo‘lsa ham, agarda ularda ijodiylik unsurlari mavjud bo‘lsa, mualliflik huquqining mustaqil obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Mualliflik huquqi e’lon qilingan (nashr etilgan) va shuningdek, nashr etilmagan, hali qo‘lyozma holatida bo‘lgan asarlarga birday joriy etiladi.

Mualliflik huquqining vujudga kelishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biror rasmiyatshilikka riosa qilish talab etilmaydi. Holbuki, intellektual faoliyatning boshqa obyektlari bo‘yicha huquqiy muhofaza bu obyekt vakolatli davlat idorasi tomonidan maxsus muhofaza yorlig‘i (patent, guvohnoma) olgandan keyin vujudga keladi.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, konsepsiylar, prinsiplar, tizimlar, taklif etilayotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan (agarda ular ilmiy asar sifatida obyektiv shaklga solinmagan bo‘lsa) joriy etilmaydi. Rasmiy hujjatlar (qonunlar, qarorlar, ajrimlar va shu kabilar), shuningdek, ularning rasmiy tarjimalari, rasmiy ramzlar, xalq ijodiyoti asarlari, oddiy matbuot axboroti tusidagi kundalik yangiliklarga doir va joriy voqealar haqidagi xabarlar, insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati ishtirokisiz muayyan turdagи ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar (masalan, robot tomonidan bastalangan musiqa, yozilgan she’r) ham mualliflik huquqi obyekti bo‘lib hisoblanmaydi.

Mualliflik huquqi subyektlari ichida fan, adabiyot, san’at asarlarini ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxs-muallif alohida o‘rinni egallaydi. Fuqaroning subyektiv mualliflik huquqi vujudga kelishi, fan, adabiyot yoki san’at asarlarining muallifi sifatida e’tirof etilishi uning yoshiga, aqli va ruhiy holatiga, asarning yaratilish joyiga, nashr etilgan-etilmaganligiga bog‘liq emas.

O‘zbekiston Respublikasi hududida e’lon qilingan yoki obyektiv shaklda mavjud bo‘lgan asarni yaratgan shaxsning mualliflik huquqi, uning qaysi davlatning fuqaroligidan qat’i nazar, tan olinadi.

Asari xorijda nashr etilgan yoki qo‘lyozma holida xorijda saqlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mualliflik huquqlari ham tan olinadi. Agarda bunday shaxs xorijiy davlat fuqarosi bo‘lsa, uning mualliflik huquqi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi.

Qomuslardan, qomusiy lug‘atlardan, ilmiy ishlarning davriy va davomli to‘plamlardan, gazetalar, jurnallar va boshqa davriy nashrlardan foydalanishning mutlaq huquqi ularning noshirlariga tegishlidir. Bunday

nashrdan har qanday tarzda foydalanilganda ham noshir o‘z nomini ko‘rsatishga yoki nomi ko‘rsatilishini talab qilishga haqlidir.

Mualliflik huquqining eng muhim qoidalaridan biri – hammualliflik bo‘yicha munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlardir. Qonunning 12-moddasiga asosan ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi mazkur asar bo‘linmas, bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat’i nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo‘ladi.

Hammualliflikning quyidagi belgilari mavjud: a) ikki yoki undan ortiq shaxslarning birgalikdagi ijodiy mehnati; b) bunday birgalikdagi faoliyat natijasida vujudga kelgan asarga nisbatan mualliflik huquqining bunday faoliyatda ishtirok etgan barcha shaxslarga taalluqli ekanligi; v) jamoa asarining yaratilganligi.

Hammualliflar tomonidan yaratilgan yagona asarga nisbatan ularning huquqlari va o‘zaro munosabatlarini, umumiyligini mulk institutini birgalikdagi mulk va hissali mulkka nisbatan sherik mulkdorlar huquqlari va o‘zaro munosabatlariga qiyoslash mumkin, zero bunday huquqiy tartibga solish mexanizmida o‘xshashliklar mavjud.

Agar hammualliflar tomonidan yaratilgan asar mazmun yaxlitligiga putur yetmagan holda tarkibiy qismlarga ajralishi mumkin bo‘lsa, u holda Qonunning 12-moddasasi 2-3-qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llaniladi. Unda aytishicha, agar asarning muayyan qismidan uning boshqa qismlariga bog‘liq bo‘lmagan holda foydalanish mumkin bo‘lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo‘lgan qism deb e’tirof etiladi. Bunday asarlar jumlasiga qo‘sniq (musiqasi va she’r matni bilan birgalikda), kitob (matn va unga ishlangan rasmlar bilan birgalikda), spektakl (drama matni, musiqasi va sahna bezagi) va shu kabilalar kiradi. Bunday asarlarda nisbiy mustaqil hammualliflik mavjud, chunki ularning har bir qismi alohida badiiy, ilmiy yoki adabiy ahamiyatga ega. Bunday asarning ma’lum qismi muallifi o‘z qismiga nisbatan mualliflik huquqiga ega. Qonunga asosan hammualliflarning har biri, agar ular o‘rtasidagi bitimda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, asarni o‘zi yaratgan, mustaqil mazmunga ega bo‘lgan qismidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishga haqlidir.

Hammualliflikning yana bir turi mutlaq hammualliflikdir. Bunda hammualliflar tomonidan yaratilgan asar mazmunan bir butun, yaxlitlikni tashkil etib, u mustaqil qismlarga ajralmaydi. Bunga H.Nu’mon, SH.Shorahmedovning “Ota”, Ilf, Petrovning “Oltin buzoq”, “12 stul” asarlari yaqqol misol bo‘la oladi. Bunda barcha asarga nisbatan mualliflik huquqi bir vaqtning o‘zida barcha hammualliflarga teng darajada taalluqli bo‘ladi.

Qonunning 12-moddasiga asosan bunday hollarda asardan foydalanishni yetarli asoslar bo‘lmay turib taqiqlab qo‘yishga hammualliflarning hech biri haqli emas. Bo‘linmas asar yaratish bo‘yicha hammualliflarning majburiyati uchun javobgarlik masalasida ham birgalikdagi umumiylar haqidagi qoidalarni qo‘llash mumkin. Binobarin, bunday hollarda bir hammuallifning majburiyati bo‘yicha boshqa hammualliflar ham hech istisnosiz javobgar bo‘ladilar.

Hammualliflar o‘rtasidagi munosabatlar umumiylar qoida bo‘yicha o‘zaro kelishuv, bitim asosida belgilanadi. Bunday bitimda turli masalalar, masalan, asar nashr etilganda zarvaraqda qaysi hammuallif ismi-sharifi qanday tartibda yozilishi, qalam haqini taqsimlash va hokazolar ko‘zda tutilishi mumkin. Bunday bitim bo‘lмаган taqdirda asarga nisbatan mualliflik huquqi barcha mualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, qalam haqi ular o‘rtasida teng taqsimlanadi. Agarda hammualliflar o‘zaro kelishuvga erisha olmasalar, nizo sud tomonidan hal etiladi.

Hosila asarlar, odatda, boshqa bir asar asosida yaratiladi. Hosila asarni yaratish uchun asos bo‘lgan asar asosiy yoki birlamchi asar sifatida qaraladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani asosiy asar bo‘lsa, “O‘tgan kunlar” radiopostanovkasi yoki “O‘tgan kunlar” badiiy filmi ssenariysi hosila asar hisoblanadi.

Boshqa asarlarni qayta ishlagan shaxslar, tarjimonlar, to‘plamlar va boshqa jamlanma asarlarni tuzuvchilar hosila asarning muallifi deb e’tirof etiladi. Hosila asarning muallifi qayta ishlangan, tarjima qilingan yoki jamlanma asarga kiritilgan asar muallifining huquqlariga rioya etgan taqdirdagina hosila asarga bo‘lgan mualliflik huquqidan foydalanadi.

Mualliflarning huquqlari o‘z mazmuniga ko‘ra shaxsiy nomulkiy va mulkiy tussagi huquqlarga bo‘linadi.

Qonunning 18-moddasiga muvofiq, *asar muallifiga quyidagi shaxsiy nomulkiy huquqlar tegishlidir:*

- asar muallifi deb e’tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi);
- asardan muallifning haqiqiy ismi-sharifi, taxallusini ko‘rsatgan holda yoxud ismi-sharifini ko‘rsatmasdan, ya’ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismi-sharifiga bo‘lgan huquq);
- asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo‘lgan huquq), shu jumladan chaqirib olish huquqi;
- asarni, shu jumladan uning nomini muallifning sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday tarzda buzib

ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro‘sini himoya qilish huquqi).

Muallifning asardan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquqlari quyidagi harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarga ruxsat berish huquqini anglatadi:

- asarni takrorlash (takrorlash huquqi);
- asarning asl nusxasini yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish yo‘li bilan tarqatish (tarqatish huquqi);
- asarni barchaning e’tiboriga yetkazish (barchaning e’tiboriga yetkazish huquqi);
- asarning asl nusxasini yoki nusxalarini prokatga berish (prokatga berish huquqi);
- tarqatish maqsadida asarning nusxalarini, shu jumladan mutlaq mualliflik huquqlari egasining ruxsati bilan tayyorlangan nusxalarini import qilish (import qilish huquqi);
- asarni sim (kabel) orqali yoki boshqa shu kabi vositalar yordamida uzatish yo‘li bilan barchaning e’tibori uchun yuborish (kabel orqali yuborish huquqi);
- asarga tuzatishlar kiritish, uni aranjirovka qilish yoki boshqacha tarzda qayta ishslash (qayta ishslash huquqi);
- asarni omma oldida namoyish etish (omma oldida namoyish etish huquqi);
- asarni omma oldida ijro etish (omma oldida ijro etish huquqi);
- asarni simsiz vositalar yordamida uzatish yo‘li bilan barchaning e’tibori uchun yuborish (efirga uzatish huquqi);
- asarni tarjima qilish (tarjima qilish huquqi);
- asarni barchaning e’tiboriga takroran yuborish, agar bunday yuborish dastlabki yuborishni amalga oshirgan tashkilotdan boshqa tashkilot tomonidan amalga oshirilsa (barchaning e’tiboriga takroran yuborish huquqi).

Asar nusxalarini sotish, almashtirish, ijaraga berish yoki ular ishtirokida boshqa amallarni bajarish, shu jumladan, ularni import qilish asarni tarqatish hisoblanadi.

Agar chop etilgan asarning nusxalari ularni sotish yoki mulk huquqini o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish orqali fuqarolik muomalasiga qonuniy kiritilgan bo‘lsa, ularni kelgusida muallifning roziligesiz va unga haq to‘lamasdan tarqatishga yo‘l qo‘yiladi. Asardan daromad olish maqsadida foydalanilganligi yoki undan foydalanish

bunday maqsadga qaratilmaganligidan qat'i nazar asardan foydalanilgan deb hisoblanadi.

Asarning mazmunini tashkil etuvchi qoidalarni (ixtirochilarni, boshqa texnikaviy, iqtisodiy, tashkiliy va shu kabi yechimlarni) amaliy qo'llash asardan mualliflik huquqi ma'nosida foydalanganlik deb hisoblanmaydi. Boshqacha aytganda, masalan, biror shaxs ilmiy monografiyada berilgan ma'lumotlar va chizmalar asosida qurilma yoki uskuna yasab, undan foydalanish ushbu asardan mualliflik huquqi nuqtai nazaridan foydalangan bo'lib hisoblanmaydi.

Muallifning asarni tarjima qilishga va qayta ishlashga bo'lgan mutlaq huquqlari tarjima qilingan yoki qayta ishlangan asarga nisbatan muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarga ruxsat berish huquqini o'z ichiga oladi.

Mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo'li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin, Qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo'lman huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi faqat ushbu huquqlar o'tkazilayotgan shaxs asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishiga ruxsat beradi.

Qonunning 39-moddasiga muvofiq, mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- asardan foydalanish usullari (mazkur shartnoma asosida o'tkaziladigan konkret huquqlar);
- asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda muddatlari.

Mualliflik shartnomasi taraflar zarur deb topgan boshqa shartlarni ham nazarda tutishi mumkin. Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o'tkazilishi to'g'risida shart bo'lman taqdirda, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 5 yil o'tganidan keyin, agar foydalanuvchi shartnoma bekor qilinguniga qadar kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo'lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Shartnoma tuzilgan paytda asardan foydalanish haqida hali ma'lum bo'lman huquqlar mualliflik shartnomasi mavzusi bo'lishi mumkin

emas. To‘lanadigan haq mualliflik shartnomasida asardan foydalanishning tegishli usuli uchun olinadigan daromaddan foiz tarzida belgilanadi yoki agar buni asarning xususiyati yoki undan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq holda amalga oshirish mumkin bo‘lmasa, shartnomada qayd etilgan summa tarzida yoxud boshqacha tarzda belgilanadi. Mazkur mualliflik haqining eng kam miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar asarni nashr etish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish haqidagi mualliflik shartnomasida haq to‘lash qat’iy summa tarzida belgilansa, shartnomada asarning eng ko‘p adadi belgilab qo‘yilishi shart. Mualliflik shartnomasi bo‘yicha o‘tkazilgan huquqlar bunday shartnomada bevosita nazarda tutilgan taqdirdagina boshqa shaxslarga to‘liq yoki qisman o‘tkazilishi mumkin. Mualliflik shartnomasining muallifni kelgusida mazkur mavzuda yoki mazkur sohada asarlar yaratishini cheklaydigan sharti o‘z-o‘zidan haqiqiy emas.

Audiovizual asar yaratish va undan foydalanish uchun mualliflik shartnomasini tuzish, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, bu asar mualliflari tomonidan audiovizual asarni tayyorlovchiga takrorlash, tarqatish, prokatga berish, omma oldida ijro etish, efirga uzatish, kabel orqali yuborish, barchaning e’tiboriga takroran yuborish, audiovizual asarni barchaning e’tiboriga yetkazish, shuningdek audiovizual asarga subtitr qilish va matnni dublaj qilish bo‘yicha mutlaq huquqlarning o‘tkazilishiga olib keladi. Ko‘rsatilgan huquqlar audiovizual asarga bo‘lgan mualliflik huquqi amal qiladigan muddat mobaynida amalda bo‘ladi. Audiovizual asar tarkibiga kiradigan asarlardan foydalanish mualliflik shartnomasi asosida va qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarda amalga oshiriladi. Asarni audiovizual asar tarkibiga kiritishga o‘z rozilagini bergan huquq egasi, agar audiovizual asarni tayyorlovchi bilan tuzilgan mualliflik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, audiovizual asardan foydalanishni taqiqlashga yoki biron-bir tarzda cheklashga haqli emas. Audiovizual asarga tarkibiy qism bo‘lib kirgan, ham ilgari mavjud bo‘lgan, ham uning ustida ishslash jarayonida yaratilgan asarlarning mualliflari, agar audiovizual asarni tayyorlovchi bilan tuzilgan mualliflik shartnomasida boshqacha qoida shartlashilgan bo‘lmasa, har biri o‘z asariga nisbatan mualliflik huquqidan foydalanadi.

Muallif buyurtmaning mualliflik shartnomasi bo‘yicha asarni shartnoma shartlariga muvofiq yaratish va uni buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmaning mualliflik shartnomasi bo‘yicha yaratilgan asarga bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga tegishlidir.

Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari nusxalarini sotishda mualliflik shartnomasi, agar uning shartlari (dasturdan va ma'lumotlar bazasidan foydalanish shartlari) dastur yoki ma'lumotlar bazasi nusxalarida tegishli tarzda bayon qilingan bo'lsa, yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi.

Muallifning shaxsiy huquqlari uning o'zidan begonalashtirilishiga, ya'ni boshqa birov larga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Muallifning asardan boshqalar foydalanganligi uchun oladigan haq (gonorar, qalam haqi) miqdori muallif bilan asardan foydalanuvchilar (masalan, nashriyot, teatr, ko'rgazma tashkilotchilari va hokazo) o'rtaсидagi kelishuv asosida belgilanadi. Turmushda bu haq miqdori asarning birinchi marta yoki qayta nashr etilishi, tiraji, muallifning mashhurlik darajasi, asarning buyurtma bo'yicha yaratilganligi va shu kabi holatlarga bog'liq. Ko'p hollarda har bir nashriyotda asarlar uchun ilgaridan belgilab qo'yilgan gonorar stavkalari amal qiladi.

Muallifning mulkiy huquqlari amal qilish muddatları Qonunning 35-moddasida belgilab qo'yilgan. Bunga asosan mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi, ushbu moddada va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi.

Taxallus ostida yoki imzosiz qonuniy oshkor qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar oshkor qilinganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi. Agar ko'rsatilgan muddat ichida taxallus ostida yoki imzosiz asar muallifi o'z shaxsini ma'lum qilsa yoki bundan buyon uning shaxsi shubhaga o'rin qoldirmasa, 35-moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddatlar qo'llaniladi.

Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar e'lon qilinganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi.

Mualliflik huquqi, mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq va muallif obro'sini himoya qilish huquqi muddatsiz muhofaza qilinadi.

Asarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq muhofaza berilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududida

mualliflik huquqining amal qilish muddati ushbu moddaga binoan belgilanadi. Lekin bu muddat asar kelib chiqqan mamlakatda belgilangan mualliflik huquqining amal qilish muddatidan oshib ketmasligi kerak.

Mazkur muddatlarni hisoblash muddatning o‘ta boshlashi uchun asos bo‘ladigan yuridik fakt yuz bergan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan e’tiboran boshlanadi.

Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan mutlaq huquq sohibi o‘z huquqlaridan barchani xabardor qilish uchun obyektning (asarning) har bir nusxasida aks ettiriladigan va quyidagi uch element (unsur)dan iborat mualliflik huquqi himoya belgisidan foydalanishi mumkin:

- aylana (doira) ichiga olingan lotincha “S” harfi;
- mualliflik mutlaq huquqlari sohibining nomi;
- asar birinchi marta e’lon qilingan yil.

Ushbu belgi xalqaro miqyosda, boshqa xorijiy davlatlarning ko‘pchiligidagi ham qabul qilingan. Amalda muallif yoki uning merosxo‘ri mualliflik shartnomasi tuzish orqali asardan foydalanish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishi mumkin. Bunday shartnomada haq baravariga tuziladigan shartnomasi hisoblanadi. Tayyor asar yoki yaratilishi lozim bo‘lgan asar uchun mualliflik buyurtma-shartnomasi tuziladi.

Asarga bo‘lgan mualliflik huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin asar ijtimoiy boylikka aylanadi. Ijtimoiy boylik (ne’mat) hisoblanadigan asardan, boshqa obyektlardan har bir shaxs mualliflik haqini to‘lamagan va qandaydir ruxsat olmagan holda erkin foydalanishi mumkin. Biroq bunda mualliflik huquqiga, muallif nomiga bo‘lgan huquqqa va asarning daxlsizligiga bo‘lgan huquqqa rioya etilishi shart.

Mualliflik huquqining obyekti bo‘lgan ba’zi asarlar bevosita uchinchi shaxslar tomonidan ijro etilishi (balet, spektakl ko‘rinishida) lozim bo‘ladi. Ijrochilar va ijroni tashkil etuvchilarning faoliyatları ham o‘z tusiga qo‘ra ijodiy faoliyat hisoblanadi, biroq bunda ijodiy faoliyat uslubi, tusi va mahsullari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, shu sababli ham u mualliflik huquqiga tutash, mushtarak bo‘lgan turdosh huquqlar orqali tartibga solinadi. Turdosh huquqlar sahna asarlariga, ijroga, ijroning audio va video yozuviga, efir va kabel orqali ko‘rsatuv va eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuv va eshittirishlariga tatbiq etiladi. Binobarin, asarning ijrolari, ijroning audiovizual yozuvlari, radioeshittirish va televizion ko‘rsatuvlar turdosh huquqlar obyekti hisoblanadi. Turdosh huquqlar subyekti bo‘lib, ijrochilar, asarning ijro yozuvini yaratuvchilar, radioeshitgirish va teleko‘rsatuvlar va ularni uzatuvchi tashkilotlar hisoblanadi (shuningdek, ularning merosxo‘rlari va huquqiy vorislari ham).

Mualliflik huquqlari kabi turdosh huquqlar ham o‘z himoya belgilariga ega. Ijro yozuvini yaratgan shaxs va ijrochi o‘z huquqlaridan xabardor qilishi uchun bunday belgidan foydalanishlari mumkin. Audioyozuv (ovoz yozib olingan gramplastinka, kompaktdisk va hokazo) yoki videoyozuv (tasvir yozilgan videokassetalar)ning har bir nusxasida va (yoki) ular saqlanadigan g‘ilofda aks ettiriladigan bu belgi uch unsur (element)dan iborat:

- aylanaga olingan “R” harfi;
- turdosh mutlaq huquqlar egasining ism-sharifi (nomi);
- yozuv birinchi marta e’lon qilingan yil.

Turdosh huquqlarni himoya qilish fuqarolik huquqlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy usullar (FK 11-m.), intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari (FK 1040-m.) va Qonunning 65-moddasi (mualliflik huquqini himoya qilish usullari)ning barchasi, turdosh huquqlarini himoya qilishda ham tatbiq etiladi.

### **3-§. Intellektual mulk sohasida huquqbazarliklar tavsifi**

XIX-XX asrlarda huquqbazarlikning yangi turi – madaniy qaroqchilik vujudga keldi. Madaniy qaroqchilik mohiyatan olganda odatdagi qaroqchilik tushunchasiga nisbatan o‘ziga xos umumiylklarga ham, farqlarga ham ega. Qaroqchilik qadimgi davrlardan buyon o‘zganing mol-mulkini ochiqdan-ochiq, zo‘ravonlik bilan, kuch ishlatib olish qo‘yish hisoblanadi. Qadimgi davrlarda qaroqchilar dengizlarda, sahro va cho‘llarda uyushgan jinoyatchilikning eng ashaddiy, xavfli ko‘rinishi sifatida mavjud bo‘lgan. Qaroqchilik bugungi kunda Afrika va Lotin Amerikasining dengiz qirg‘oqlarida dengiz qaroqchiligi ko‘rinishida kam-kam bo‘lsa-da uchrab turadi. Qaroqchilik huquqbazarlik sifatida bosqinchilik va talonchilik jinoyatlari tarkibini beradi va JKda buning uchun sanksiyalar mavjud. Madaniy qaroqchilik bu intellektual mulk sohasidagi huquqbazarliklar tizimi hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar yoxud boshqacha mulkiy huquqlar egasidan ruxsat so‘ramagan holda foydalanish bu – madaniy qaroqchilik hisoblanadi. Shu ma’noda olganda madaniy qaroqchilikni, huquqiy jihatdan olganda umumlashma kategoriya sifatida baholash mumkin. Uni XIX-XX asrlarda vujudga kelgani beziz emas, xuddi shu davrdan boshlab intellektual mulk obyektlari boylik turi, daromad manbai, tovar sifatida o‘z xususiyatlarini namoyon eta boshladi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning amal qilish muddatlari belgilab qo‘yildi.

Xuddi shu muddat davomida ulardan, huquq egasidan beruxsat foydalanganlik uchun sanksiyalar qonunlarda mustahkamlab qo'yildi. Albatta, bu bir mamlakat doirasida kurash olib boriladigan huquqbuzarlik emas, u global xarakterga ega bo'lgan huquqbuzarlikdir. Shu sababli ham unga qarshi xalqaro miqyosda kurash olib borish zaruriyati vujudga kelganligi sababli XIX asr oxirlarida Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi, adabiy-badiy asarlarni himoya qilish bo'yicha Bern Konvensiyasi ishlab chiqildi va dunyoning ko'p mamlakatlarini unga qo'shilish jarayoni boshlandi. 1967-yilda Jenevada Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tashkil topdi. Uning asosiy maqsad, vazifalaridan bo'lib intellektual mulkka nisbatan huquq egalari manfaatlarini himoya qilish, bu sohadagi huquqbuzarliklarga, shu jumladan, madaniy qaroqchilikka qarshi kurash olib borish hisoblanadi.

Madaniy qaroqchilikni ijtimoiy-huquqiy kategoriya sifatida o'rghanishda unga nisbatan dunyoning turli mamlakatlarida turlicha munosabatda bo'linishini qayd etish lozim. Intellektual mulk mahsulotlarini asosiy ishlab chiqaruvchisi bo'lgan G'arbiy Yevropa va AQSH o'z manfaatidan kelib chiqib butun dunyoda madaniy qaroqchilikka nisbatan shafqatsiz urush e'lon qilgan. Ular dunyoning boshqa mamlakatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yishda o'sha mamlakatda intellektual mulk huquqlariga qay darajada rioya qilinishi, madaniy qaroqchilikka qarshi murosasiz kurash olib borilishiga alohida e'tibor qaratadilar. Ular yetakchi mavqe'ga ega bo'lgan xalqaro iqtisodiy hamkorlik tuzilmalari Yevropa ittifoqi, Amerika davlatlari ittifoqi, Butunjahon savdo tashkiloti va shu kabilarda a'zolikka qabul qilish masalasida intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurash olib borish bo'yicha qonuniy sanksiyalar mavjudligi va uni amalda qo'llash holatiga alohida e'tibor qaratadilar. Intellektual mulk mahsulotlarini iste'molchisi bo'lgan dunyoning ba'zi mamlakatlari esa madaniy qaroqchilikka nisbatan zo'raki kurash, formal befarqlik yoki hatto yashirin unga xayrihohlik kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi madaniy qaroqchilikka nisbatan rasmiy munosabat sohasida shuni ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimiz intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha ko'plab xalqaro konvensiyalar va bitimlar ishtirokchisi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida, Jinoyat kodeksida, Bojxona kodeksida, Soliq kodeksida va boshqa qator qonunlarda madaniy qaroqchilikka qarshi yuridik vositalar mustahkamlab qo'yilgan.

Ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar bugungi kunda har qanday mamlakatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi manba hisoblanadi. Shu sababli ham ilm-fanning asosiy ishlanmalari intellektual mulk sifatida huquqiy himoya ostidadir. Konstitutsiyamizning 53-moddasida mulk huquqi daxlsizligi va har tomonlama himoya qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu bilvosita intellektual mulkka ham taalluqlidir. Mulk huquqi mamlakatimizdagi barcha qonunlar va huquq-tartibot asoslari bilan ta'minlangan. Intellektual mulk huquqi ham nafaqat Fuqarolik kodeksi va intellektual mulkning alohida obyektlari bo'yicha maxsus qonunlar, balki huquq-tartibot tizimi negizlarining asosiy fundamental taomillari va tamoyillari bilan ta'minlangandir. Mulkdor huquqlari himoyasi uchun mol-mulkka nisbatan qilinadigan har qanday tajovuzlar turlari va ularga qarshi sanksiyalar milliy huquq-tartibot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Intellektual mulk o'z mohiyatiga ko'ra, muayyan xususiyatlari bilan mulk huquqidan farq qiladi, shu sababli ham mulk huquqini himoya qilishning barcha vositalari va usullarini o'z-o'zidan avtomatik ravishda intellektual mulk huquqini himoya qilishga qo'llab bo'lmaydi. Binobarin, intellektual mulkni himoya qilish huquqiy mexanizmi mulk huquqini himoya qilish huquqiy mexanizmi bilan bir qatorda, uning uchun maxsus yaratilgan huquqiy himoya mexanizmiga ham tayanadi. Intellektual mulkni himoya qilish huquqiy mexanizmi intellektual mulkka nisbatan mutlaq huquq egalari vakolatlarini, shuningdek bu obyektlarga nisbatan mulkiy huquqlar va shaxsiy huquqlar egalarini huquqlari va manfaatlarini himoya qiladi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan turli huquq subyektlari qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunlarda huquqqa xilof harakatlar turlari va ularga qarshi himoya usullari, javobgarlik sanksiyalari belgilab qo'yilgan. Intellektual mulkka qarshi huquqbazarliklarning katta qismi "madaniy qaroqchilik" umumlashma nomi bilan ataladi. To'g'ri, na Fuqarolik kodeksida, na Jinoyat kodeksida bevosita madaniy qaroqchilik iborasi qo'llanmagan, biroq butun dunyo bo'yicha mulkdorlarning mol-mulkiga ochiqdan-ochiq zo'ravonlik bilan qilinadigan huquqbazarlikka nisbatan qaroqchilik iborasi ishlatilgan va bunday holat intellektual mulkka nisbatan nisbat berilib, madaniy qaroqchilik sifatida qarash e'tirof etilgan. Madaniy qaroqchilik o'z mohiyatiga ko'ra intellektual mulkka nisbatan mutlaq huquq egasini yoki undan litsenziya asosida foydalanuvchi litsenziarni yoki shaxsiy huquqlarga ega bo'lgan ijodkor muallif huquqlarini ochiqdan-ochiq poymol etib, mensimasdan o'zlashtirish, zo'ravonlik bilan foydalanish va shu yo'l bilan ularga zarar

yetkazish harakatlarida namoyon bo‘ladi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan subyektlar huquqlarining umumiyligi tavsifi FK 1033–1037-moddalarida belgilab qo‘yilgan. Unda belgilangan huquqlar va qonuniy manfaatlarni buzishning ko‘pchilik holatlari madaniy qaroqchilik sifatida baholanishi mumkin. Intellektual mulkka doir alohida qonunlarda madaniy qaroqchilik huquqbazarlik holatlarining alohida tavsiflari yanada aniqroq o‘z ifodasini topgan, deb aytish mumkin. Jumladan, “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasi 2-qismida sanoat mulkining tegishli ravishda patentlangan mahsulot yoki buyumni ruxsat olmasdan tayyorlash, qo‘llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish boshqacha ravishda fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlash, shuningdek, ixtiro sifatida patent bilan muhofaza qilingan usuldan foydalanish yoki fuqarolik muomalasiga kiritish yoxud shu maqsadda ixtiro sifatida patentning muhofazalangan usuli orqali bevosita tayyorlangan mahsulotni saqlash patent egasining mutlaq huquqlarini buzish hisoblanishi qayd etilgan. “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasida seleksiya yutuqlariga nisbatan madaniy qaroqchilikning namoyon bo‘lish xususiyatlari ko‘rsatilgan. Bunga ko‘ra, ruxsat olmagan holda seleksiya yutug‘ini yetishtirish va takror yetishtirish (ko‘paytirish), seleksiya yutug‘ini nav yoki nasllik konditsiyalariga yetkazish, muhofaza qilinayotgan seleksiya yutuqlaridan foydalangan holda yaratilgan mahsulotni sotishga taklif qilish, sotish va boshqacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritish, saqlash, olib kirish va olib chiqish madaniy qaroqchilikning bir ko‘rinishi sifatida belgilangan.” Tijorat siri to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, tijorat siri uchinchi shaxslar tomonidan oshkor etilgan, qonunga xilof ravishda olingan yoki undan qonunga xilof ravishda foydalanilgan hollarda tijorat siri egasi o‘z huquqlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilish, shu jumladan o‘z huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplanishini talab qilishga haqli. “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga ko‘ra, firma nomidan har qanday g‘ayriqonuniy foydalanish mutlaq huquqning buzilishi hisoblanadi. Bunday g‘ayriqonuniy foydalanish natijasidan tovarlar, yorliqlar, qadoqlash jihozlaridagi g‘ayriqonuniy qo‘yilgan firma nomlari o‘chirib tashlanadi. O‘chirib tashlashning iloji bo‘lmaganda, bunday tovarlar yo‘q qilib tashlanadi yoki firma nomi egasiga beriladi.

Madaniy qaroqchilikni ijtimoiy-huquqiy kategoriya sifatida o‘rganishda unga nisbatan dunyoning turli mamlakatlarida turlicha munosabat mavjudligini qayd etish lozim. Intellektual mulk

mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisi bo‘lgan G‘arbiy Yevropa va AQSH o‘z manfaatidan kelib chiqib, butun dunyoda madaniy qaroqchilikka nisbatan shafqatsiz urush e’lon qilgan. Ular dunyoning boshqa mamlakatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda o‘sha mamlakatda intellektual mulk huquqlariga qay darajada rioya qilinishi, madaniy qaroqchilikka qarshi murosasiz kurash olib borilishiga alohida e’tibor qaratadilar. Ular yetakchi mavqega ega bo‘lgan xalqaro iqtisodiy hamkorlik tuzilmalari – Yevropa ittifoqi, Amerika davlatlari ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti va shu kabilarda a’zolikka qabul qilish masalasida intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurash olib borish bo‘yicha qonuniy sanksiyalar mavjudligi va uni amalda qo‘llash holatiga alohida e’tibor qaratadilar. Intellektual mulk mahsulotlarining iste’molchisi bo‘lgan dunyoning ba’zi mamlakatlarida esa madaniy qaroqchilikka nisbatan zo‘raki kurash, formal befarqlik, hatto unga yashirin xayrixohlik kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasidagi madaniy qaroqchilikka nisbatan rasmiy munosabat sohasida shuni ta’kidlash o‘rinligi, mamlakatimiz intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha ko‘plab xalqaro konvensiyalar va bitimlar ishtirokchisi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti a’zosi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Ma’muriy javobgarlik kodeksida, Jinoyat kodeksida, Bojxona kodeksida, Soliq kodeksida va boshqa qator qonunlarda madaniy qaroqchilikka qarshi yuridik vositalar mustahkamlab qo‘yilgan.

Madaniy qaroqchilikka qarshi kurash olib borish O‘zbekistonning ichki bozorida va tashqi iqtisodiy faoliyatda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbekiston tovarlar importi-eksportida intellektual mulk sohasida qonunlarga qat’iy rioya qilishga harakat qiladi va boshqa hamkorlardan ham shuni talab etadi. Bu masalada har qanday boshqacha pozitsiya O‘zbekistonning obro‘sini tushirishi mumkin. Ma’lumki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston dunyoda o‘zining mavqeini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Ushbu jarayon tizimli asosda amalga oshirilmoqda va bunda dunyo bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amal qiluvchi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari, indekslar va indikatorlar bo‘yicha o‘z holatini yaxshilashga urinmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mamlakatdagi hayot sharoiti, savodxonlik darjasи, ta’lim va umr ko‘rish muddati bo‘yicha insoniy rivojlanish indeksi (Human Development index), Jahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness index), Jahon bankining biznes yuritish reytingi (Doing Business) ko‘rsatkichlariga mo‘ljal olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 5-fevralda “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va 2019-yil 7-martda “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu reytinglar va indekslar tizimida mamlakatimizda mulk huquqini himoya qilish, shu jumladan intellektual mulkka nisbatan huquqlarga rioya qilish holati bo‘yicha indikatorlar tizimi mavjud.

Yuqorida madaniy qaroqchilik ijtimoiy-huquqiy voqe’lik sifatida umumlashma kategoriya ekanligi ta’kidlangan edi. Agar uni huquqbazarliklar tizimi sifatida baholasak, bu holda qonun hujjatlarida uning quyidagi turlari mavjud ekanligini qayd etish lozim:

- asar mualliflarining shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;

- ijrochining ism-sharifga bo‘lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;

- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish (“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda haq to‘lash to‘g‘risidagi talablarni buzish;

- asarlardan yoki turdosh huquq obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish.

Huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda har qanday buzish, asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshirilgan nusxalari kontrafakt nusxalardir. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq muhofaza qilinadigan asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining bunday asarlarni va turdosh huquqlar obyektlarini muhofaza qilish to‘xtatilgan yoki hech qachon muhofaza qilinmagan davlatlarda huquq egalarining rozilgisiz import qilinadigan nusxalari ham kontrafakt nusxalardir (67-m.).

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalarga

nisbatan qilingan huquqbazarliklardan ham himoyalanish choralarini mustahkamlaydi. Asarlardan yoki turdosh huquq obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi muallif turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e'tirof etiladi. Huquq egalari bunday vositalardan o'z huquqlarini himoya qilishda foydalanishga haqli.

Asarlarga yoki turdosh huquq obyektlariga nisbatan:

– asarlardan yoki turdosh huquq obyektlaridan foydalanishga doir mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalarini qo'llash huquqi bilan belgilangan cheklashlarni olib tashlashga qaratilgan harakatlarni huquq egalarining ruxsatisiz amalga oshirishga;

– har qanday qurilmani yoki uning tarkibiy qismlarini tayyorlashga, tarqatishga, prokatga berishga, vaqtinchalik tekin foydalanishga berishga, import qilishga, reklama qilishga, ulardan tijorat maqsadida foydalanishga yoxud xizmatlar ko'rsatishga, agarda bunday harakatlar natijasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalaridan foydalanish mumkin bo'lmay qoladigan bo'lsa yoki bunday texnika vositalari ko'rsatadigan huquqlarning lozim darajada himoya qilinishini ta'minlamasa, yo'l qo'yilmaydi. Bu "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 63-moddasida belgilab qo'yilgan.

Mualliflik va turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalardan foydalanishga to'sqinlik qilish oxir-oqibatda madaniy qaroqchilik huquqbazarliklari sodir etilishiga olib keladi va shu sababli ham madaniy qaroqchilikni sodir etilish usuli sifatida qaralishi lozim. Madaniy qaroqchilik sohasidagi huquqbazarliklar tarkibiga kiruvchi yana bir turkumdagи huquqbazarliklar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi axborotlarga qarshi qaratilgan huquqbazarliklar hisoblanadi. Asarni yoki turdosh huquq obyektini, muallifni, turdosh huquqlar egasini yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasini identifikatsiyalovchi har qanday axborot yoxud asardan yoki turdosh huquq obyektlaridan foydalanish shartlari haqidagi asarning yoki turdosh huquqi obyektining nusxasida mavjud bo'lgan, ularga ilova qilingan yoxud bunday asarni yoki turdosh huquq obyektini barchanining e'tibori uchun yuborish yoxud barchanining e'tiboriga yetkazish munosabati bilan paydo bo'ladigan axborot, shuningdek, shunday axborotni o'z ichiga

olgan har qanday raqamlar va kodlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi axborot deb e’tirof etiladi. Ularga qarshi quyidagi huquqbuzarliklar taqiqlanadi:

– mualliflik va turdosh huquq to‘g‘risidagi axborotni ushbu axborotni mavjud bo‘lishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning ruxsatisiz chiqarib tashlash yoki o‘zgartirish;

– mualliflik va turdosh huquq to‘g‘risidagi axborotni ushbu axborotni mavjud bo‘lishdan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning ruxsatisiz chiqarib tashlangan asarlarni yoki turdosh huquqi obyektlarini takrorlash, tarqatish maqsadida import qilish, omma oldida ijro etish, barchaning e’tibori uchun yuborish, yetkazish.

Doira ichidagi S belgisi va doira ichidagi R harfidan keyin qo‘yilgan axborotlar huquq egalari to‘g‘risida axborot beradi. Bunday ma’lumotlarni o‘zboshimchalik bilan olib tashlash obyektlardan foydalanuvchilar uchun huquq egalari to‘g‘risida ma’lumot olishga, ulardan ruxsat olishga imkon bermaydi va binobarin, mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi huquqbuzarliklarning vujudga kelishiga olib keladi.

Intellektual mulk sohasida bugungi kunda O‘zbekistonda keng tarqalgan huquqbuzarliklardan biri bu – plagiat (ko‘chirmachilik). Plagiat nafaqat fan, adabiyot, san’at asarlari yaratishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda, balki ta’lim sohasida, shou-biznesda ham namoyon bo‘layotgan illatdir. Plagiat yaratilish fakti asosida muhofaza qilinadigan, obyektiv shakl negiz bo‘lib hisoblanadigan mualliflik huquqi obyektlarida boshqacha, g‘oyaviy mazmun asosiy negiz bo‘lib hisoblanadigan huquqiy muhofaza yorlig‘i asosida himoya qilinadigan obyektlarda boshqacha tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, ilmiy ishlanmalarda, dissertatsiyalarda asosiysi ilmiy g‘oya, uning yangiligi, originalligi, samaradorligi va shu kabilar. Adabiy asarlarda esa obyektiv shakl, undagi so‘zlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Bitta sujet asosida o‘nlab asarlar yaratish mumkin. Hatto bitta g‘oyani turli ko‘rinishlardagi obyektiv shaklda ifodalash mumkin. Shu sababli ham ilmiy ishlanmalarda mazmun yukiga asosiy e’tibor beriladi. Ixtiro asosida yotgan g‘oya qanday so‘zlar orqali ifodalanishidan qat‘i nazar mazmunan yangi, orginalligicha qoladi. Mualliflik huquqida adabiy asarlarni aynan turli mualliflar tomonidan ayniy (adevkat) obyektiv shaklda yaratilishi uchramaydi. Lekin ilmiy g‘oyalarni dunyoning turli hududlarida yashagan shaxslar tomonidan bir-biridan bexabar holda kashf etilishi ko‘plab uchraydi. Masalan, Angliyada Joul, Rossiyada Lens bir paytning o‘zida fizika qonunlaridan birini ochishgan, bu qonun hozirgi adabiyotlarda Joul-Lens qonuni deb

yuritiladi. Biroq XIX asardan farqli ravishda XXI asrda axborot ayriboshlash shiddatli tarzda ketmoqda. Dunyoning bir burchagida yaratilgan yangi g‘oya sanoqli daqiqalardan so‘ng dunyoning shu soha bo‘yicha tegishli mutaxassislariga ma’lum bo‘lmoqda. Shu sababli ham, Parij konvensiyasi bo‘yicha ilmiy ishlanmani yaratish fakti bo‘yicha ustuvorlik sanalari belgilab qo‘yilgan. Mualliflik huquqi obyektlarida plagiat asarlar matni, qo‘shiqlar musiqa-ohangi va shu kabilardagi moslik darjasini orqali aniqlanadi. Musiqada aranjirovka, kompyuter dasturlari kompilyatsiyasi kabi hosila asarlar mavjud. Musiqani aranjirovka qilgan bastakor turli musiqa asarlari elementlaridan foydalangan holda hosila asar yaratadi va mustaqil muallif sifatida e’tirof etilmaydi.

Bugungi kunda ilmiy-badiiy asarlar bo‘yicha plagiatni aniqlash maxsus texnik antiplagiat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi, rus tilidagi matnlar bo‘yicha antiplagiat ekspertizasini amalga oshirish uchun hech qanday muammo yo‘q, biroq, ilmiy ishlanmadagi matndagi moslikning yo‘qligi aynan bitta g‘oyani boshqa matnlar orqali takrorlanishiga xalaqit bermaydi. Bu holda turli matnlar mazmuni bo‘yicha tadqiq etilib, plagiat masalasi hal etilishi mumkin. Plagiat ta’lim tizimida referatlar, kurs ishlari, diplom ishlari, magistrlik dissertatsiyalari sohasida ham uchrab turadi. Masalan, yakuniy nazorat ishlari bo‘yicha plagiat holatlari aniqlanganda plagiatga ruxsat bergan original ish muallifi ham, ko‘chirmachi ham qoniqarsiz baho oladi. OAK nizomlari bo‘yicha fan doktori dissertatsiyasi bo‘yicha ham, falsafa doktori dissertatsiyasi bo‘yicha ham plagiat aniqlanishining har qanday fakti dissertatsiyani himoyadan chetlatish, agar plagiat himoyadan keyin aniqlangan bo‘lsa, ilmiy darajadan mahrum etish uchun asos bo‘ladi. Biroq dissertatsiya ishi o‘z tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ham, mazmuni bo‘yicha ham turlicha qismlardan iborat. Bunda birinchi plandagi ilmiy materiallar (himoyaga olib chiqilayotgan ilmiy g‘oyalar), ikkinchi plandagi ilmiy materiallar (yondashuv, metodologik asoslar, ilmiy tizim), uchinchi plandagi ilmiy materiallar (ilmiy manbalar tizimi, amaliyot materiallari tizimi), to‘rtinchi plandagi ilmiy materiallar (turli ilovalar, sotsiologik so‘rovlar va shu kabilar) farqlanadi. Birinchi, ikkinchi plandagi ilmiy materiallar bo‘yicha plagiat dissertatsiyani salbiy baholash uchun asos bo‘lishi e’tiroz tug‘dirmaydi. Biroq, jiddiy ahamiyatga ega bo‘lмаган materiallar sohasida, masalan, havolaning tushib qolishi ham plagiat sifatida baholanadi va himoyadan chetlashtirish uchun bahona bo‘ladi. Shu sababli ham OAK nizomlariga bu bo‘yicha aniqlik kiritish lozim. Chunki, uchinchi plandagi ilmiy material bo‘yicha asarga havolani tushib qolishi

(bu ko‘pincha tasodifiy holatda bo‘ladi) dissertatsiyani salbiy baholash uchun asos bo‘lmasligi lozim.

Modomiki, madaniy qaroqchilik huquqbazarlik tizimi hisoblanar ekan, unga nisbatan kurash olib borish ham tizimli asosda amalga oshirilishi lozim. Boshqacha aytganda, bu borada Fuqarolik kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi va intellektual mulkning alohida obyektlari bo‘yicha qonunlar o‘rtasida o‘zaro bog‘lanish va uyg‘unlik bo‘lishi lozim. Ushbu qonunlar tizimida Fuqarolik kodeksi alohida o‘rinni egallaydi. Fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqishda intellektual mulkka bag‘ishlangan intellektual mulkning umumiy qoidalari qismi nazarda tutilishi lozim. Bunda intellektual mulkka nisbatan mutlaq huquq subyektlari vakolatlari, mulkiy huquqlar shu jumladan, litsenziat va litsenziarlar huquqlari, intellektual ijodkorlarning shaxsiy huquqlari atroflicha, batafsil belgilab qo‘yilishi lozim. Bunday holat madaniy qaroqchilik huquqbazarlik holatlarining aniq, ravshan, to‘laqonli tavsifini tasavvur qilish imkonini beradi. JKda ham madaniy qaroqchilik ham shaxs huquqlari, erkinliklariga qarshi jinoyatlar turkumida, ham iqtisodiy jinoyatlar turkumida o‘z ifodasini topishi lozim. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda esa intellektual mulkka qarshi huquqbazarliklar maxsus paragraf sifatida belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Madaniy qaroqchilik huquqbazarlik tizimi sifatida qonunlarda belgilab qo‘yilishi bilan bir paytda, bunday huquqbazarlik holatlariga nisbatan shafqatsiz kurash olib borish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4380-son qarorida intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinishini, mualliflarning, boshqa huquq egalarining huquqlari muhofaza qilinishini ta‘minlash bo‘yicha, shu jumladan, kontrafakt mahsulotlarini ishlab chiqarish, realizatsiya qilishga qarshi kurashda vakolatli davlat organlari faoliyatini jonlantirish belgilab qo‘yilgan. Qonunlardagi aniqlik, huquqni qo‘llash amaliyotidagi faollik mamlakatimizda madaniy qaroqchilik huquqbazarliklari ko‘lamini keskin suratda kamayishiga va shu orqali investitsiya jozibadorligini oshishiga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro miqyoslarda reyting darajasini o‘sishiga olib kelgan bo‘lar edi.

Intellektual mulk IIO faoliyati uchun ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo intellektual mulk obyektlaridan foydalanish orqali IIO faoliyatini samarali amalga oshirish ta‘minlanadi. Jumladan, axborot

kommunikatsion texnologiyalar, kompyuter dasturlari, ma'lumot bazalari orqali IIO tizimida axborotlar to'plash, yetkazish, tizimplashtirish, foydalanish amalga oshiriladi. Bunda axborotlarning huquqiy rejimiga ya'ni hamma uchun ochiq axborotlar, faqat xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan axborotlar, maxfiy axborotlar rejimlari farqlanishini unutmaslik lozim. IIO tizimida huquqbuzarlikka qarshi kurash olib borishni, jinoyatlarni fosh etishni ilg'or usullari, texnologiyalaridan keng foydalanish lozim.

IIO intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash olib borish sohasida ham muhim funksiyalarni bajaradilar. Muayyan jinoyatlar intellektual mulk sohasida sodir etiladi. Masalan, tafakkur (intellektual mulk) sohasidagi jinoyatlar (JK 149-m.), shuningdek, kompyuter sohasidagi jinoyatlar erkin raqobatga qarshi jinoyatlar va hokazo. Intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarning muayyan qismi ma'muriy huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Ularning turlari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda o'z ifodasini topgan.

Intellektual mulk sohasidagi qonunlarni mazmunini, mohiyatini chuqr anglab yetish IIO xodimlari uchun bu sohadagi huquqni qo'llash amaliyotini samarali amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## VORISLIK HUQUQI

### 1-§. Vorislik huquqi tushunchasi va uning huquqiy asoslari

*Meros yoki merosxo ‘r deganda, azaldan insonlarning ongiga, vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulk yoki ushbu mol-mulkka nisbatan voris egalik qilish huquqi tushuniladi.*

Vorislik huquqi fuqarolik huquqining ajralmas va yakunlovchi qismi hisoblanib, fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog‘langan.

Hayotda har bir shaxs boshqa bir shaxslar bilan har xil munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, albatta, shaxsning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Vaqt o‘tishi bilan bir munosabat bekor bo‘ladi, ikkinchi bir munosabat vujudga keladi. Munosabatlarning barchasi shaxsiy yoki mulkiy munosabat bo‘lib, ma’lum bir qoidalar bilan tartibga solinadi.

Fuqaro vafot etgandan keyin ham uning barcha huquqi va majburiyatlari o‘z kuchini saqlab qolmaydi, ayrimlari bekor bo‘ladi. Vafot etgan shaxsning hayotligida boshqa shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lgan uning huquq va majburiyatlari meros tariqasida vorislarga o‘tadi. Shunday qilib, shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o‘tishi mumkin bo‘lgan uning har qanday huquq va majburiyatlari meros hisoblanadi hamda vorislik huquqi asosida merosxo‘rlarga o‘tadi. Aniqroq qilib aytganda, vafot etgan shaxsga tegishli bo‘lgan mulk – uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi meros tariqasida o‘tadi.

“Meros huquqi, - Konstitutsiyaning 36-moddasi asosida qonun bilan kafolatlanadi”. Vorislik huquqi fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini qo‘riqlash bilan bog‘langan bo‘lib, ularning o‘z mulkiga nisbatan tasarruf etish huquqini hech qanday to‘siqsiz nafaqat o‘zining hayotligida, shuningdek vafot etgan taqdirda ham amalga oshirilishini qonun ta’minlaydi. Shuning bilan xususiy mulk huquqini mustahkamlash mulkning ko‘payishi va rivojlanishni ta’minlash yo‘li bilan merosxo‘rlarning boyishi va yashash sharoitlarini yaxshilanishiga ko‘maklashadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик хуқуқи: Дарслик (иккинчи қисм). –Т., 2008. – Б.928.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida bo‘lishligi ko‘rsatilgan, shuningdek, Konstitutsiyasining 54-moddasida “Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi va undan foydalanishi uni tasarruf etishi ko‘rsatilgan bo‘lib, mulkdor yuqoridaq prinsiplardan foydalanib o‘z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin. Mulk egasi mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Xususiy mulk egasi o‘z mulkidan hayotligida foydalanadi va vafot etgandan so‘ng mulk taqdirini meros (vorislik) huquqi yordamida amalga oshiradi. Har bir shaxs o‘zi hayotligida o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiy mulkning taqdirini hal qilib, vafotidan keyin mulkdan foydalanish yoki uni tasarruf etishini belgilab qo‘yadi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, vorislikning vujudga kelishiga ham xususiy mulkning vujudga kelishi sabab bo‘lgan. Aynan xususiy mulkning vujudga kelishi natijasida kishilar o‘zlariga tegishli mol-mulkni o‘z yaqinlariga vafotlaridan so‘ng qoldirib ketish imkoniga ega bo‘lganlar. Hali urf-odat va an’analar asosiy huquqiy manba hisoblangan paytlarda ham vorislik va merosxo‘rlik masalalari mavjud bo‘lganligini hisobga olsak, vorislik huquqi qoidalaring tarixi ancha uzoqlarga borib taqalishini bilib olish qiyin emas.

Umuman olganda, vorislik huquqi turli huquq tizimlarida turlicha qoidalari asosida tartibga solinadi. Masalan, kontenental huquq tizimida vorislik bevosita O‘zbekiston milliy qonunchiligidagi tartibga solinishi bilan bir xilda amalga oshirilsa, musulmon huquq tizimida bu munosabatlarni tartibga solinishi asosan vasiyatnomasi asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston fuqarolari, ularning ijtimoiy ahvoli, mulkiy boyligi, millati va diniy e’tiqodi, jinsi va turar-joyi, o‘troqligi va xizmat vazifasidan qat’iy nazar barchasi bab-baravar vorislik huquqidagi foydalanadilar. FK 209-moddasida belgilanishicha, “Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin”, deb ko‘rsatilgan. Xususiy mulk egasi o‘zining jami mol-mulkini, mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarini o‘zi vafot etganidan so‘ng vorislik huquqiga asosan qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha vorislarga berishga haqli.

Vorislik huquqini ilmiy-nazariy jihatdan respublikamizning bir qancha huquqshunos olimlari tomonidan mukammal o‘rganilgan. Jumladan, R.Muxamedov tadqiq etganligini ta’kidlash joiz<sup>1</sup>. Bundan tashqari vorislikning umumiy asoslari respublikamizning ko‘plab atoqli sivilist

---

<sup>1</sup> Мухамедов Р. Мерос ҳукуқи. – Т., 1998. – Б.121.

olimlari H.R.Rahmonqulov<sup>1</sup>, I.B.Zokirov, M.X.Borotov<sup>2</sup> va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ma'lumki, har bir shaxs o'zi hayotlik davrida boshqa shaxslar bilan har xil munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar, aksariyat hollarda, shaxsning xohish-irodasi bilan vujudga keladi, ammo ayrim munosabatlar shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'limgan holda ham vujudga kelishi mumkin. Shu bilan birga, vaqt o'tishi bilan bir munosabat bekor bo'ladi, ikkinchi bir munosabat paydo bo'ladi. Shuning uchun har bir shaxs boshqa shaxslar bilan muntazam ravishda qandaydir bir munosabatda bo'lib turadi. Bu munosabatlarning hammasi ma'lum bir qonun-qoidalar bilan tartibga solinadi. Munosabatda turgan har bir shaxs ma'lum bir huquqqa ega bo'ladi va shu bilan birga, ma'lum bir majburiyatni ham o'z zimmasiga oladi. Bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgan taqdirda ham o'zining huquqiy kuchini saqlab qoladi<sup>3</sup>. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiatlarning bekor bo'lishiga olib kelmaydi. Masalan, fuqaroning jamg'arma bankiga qo'ygan omonati bo'yicha bank uni qo'ygan shaxs vafot etgan taqdirda ham to'lash majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Majburiyat davom etadi. Faqat talab qilib olish huquqi boshqa shaxslarga o'tadi, ya'ni vafot etgan shaxs tomonidan tayinlangan yoki qonunda belgilangan vasiyat bo'yicha merosxo'rلarga o'tadi.

Demak, meros shaxs vafotidan keyin uning boshqa shaxsga o'tishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlaridan iboratdir. Aniqroq qilib aytganda, fuqaroga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulkka nisbatan bo'lgan huquq meros obyekti sifatida meros tarkibiga kiradi. Qonun fuqarolarning xususiy mulk huquqini meros huquqi bilan bevosita bog'laydi, uni boshqa mulk shakllari bilan birga bab-baravar himoya qiladi. O'zbekiston fuqarolik qonunchiligidagi meros huquqi merosning ochilishi, uni himoya qilish, meros olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, meros tarkibi va ularni saqlash, boshqarish, qo'riqlash va tasarruf qilish, merosxo'rلarga o'tish tartibi va shartlarini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар. – Т., 1997. – Б.102-132.

<sup>2</sup> Зокиров И., Баратов М. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг хуқуқ ва муомала лаёқати. – Т., 1998. – Б.8-19.

<sup>3</sup> Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик хуқуқи: Дарслик (иккинчи қисм). –Т., 2008. – Б.928.

Meros huquqi meros qoldiruvchining o‘z mulkiga nisbatan vafotidan keyingi xohish-irodasini, shu bilan birga, uning hayotlik vaqtida meros qoldirilayotgan mol-mulkka nisbatan bo‘lgan munosabatini vasiyatnomalarasmiylashtirish yo‘li bilan tartibga soladi. Vorislik esa, meros mulkni ma’lum shaxslarga meros ochilgandan keyin o‘tish tartibi hisoblanib, qonunda uning ikki yo‘li aniq belgilab qo‘yilgan. Vorislar qonun bilan belgilanib qo‘yilgan bo‘ladi yoki meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnomada belgilanadi.

Vorislar, asosan, meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgani sababli, meros huquqi oila va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda ham katta rol o‘ynaydi. *Vorislik* – ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi hisoblanib, mol-mulkning yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan (meros qoldiruvchidan) ikkinchi shaxsga (merosxo‘rlarga) o‘tishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham u, hammadan avval, iqtisodiy hodisa bo‘lib vujudga keladi, iqtisodiy munosabat sifatida vafot etgan shaxs mulkining yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarining merosxo‘rlarga o‘tishini belgilaydi. Bu munosabatlar fuqarolik qonunchiligi qoidalariga asosan tartibga solinadi. Demak, vorislik huquqi vafot etgan shaxsning xususiy mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga, ya’ni merosxo‘rlarga o‘tish shartlari va tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir. Vorislik huquqi meros huquqining bir qismi sifatida meros tarkibiga kirgan mol-mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarning qonunda belgilab qo‘yilgan hamda vasiyatnomada meros qoldiruvchi tomonidan ko‘rsatilgan shaxslarga qonunda nazarda tutilgan yoki meros qoldiruvchi tomonidan belgilangan shart va tartibda o‘tish qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Vorislik huquqi vafot etgan (meros qoldiruvchi) shaxs mulkining vorislarga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir, boshqacha qilib aytganda, fuqarolar vafot etganda ularning ma’lum bir huquq va majburiyatlarining boshqa shaxslarga o‘tishini belgilab beruvchi fuqarolik huquqi normalar yig‘indisidan iboratdir.

Demak, vorislik huquqi meros huquqi mazmunini to‘la o‘z ichiga olmasdan, balki uning bir qismini, faqatgina meros mulkning vorislarga o‘tish sharti va tartibini belgilaydi, xolos. Meros tarkibiga ashylargina kirmasdan, balki meros qoldiruvchining boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan bo‘lgan har xil qonuniy talablari ham kiradi. Masalan, meros qoldiruvchining olishi lozim bo‘lgan, lekin ololmay qolgan ish haqi, mualliflik haqiga bo‘lgan huquqi va boshqalar. Meros tarkibiga faqatgina

talab qilish huquqi emas, balki meros qoldiruvchining mulkiy majburiyatlari ham kiradi.

Demak, vorislik deganda mulkiy huquq va majburiyatlarning, ayrim hollarda nomulkiy huquq va majburiyatlarning ham vafot etgan shaxsdan qonunda yoki vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxslarga belgilangan shart va tartibda o'tishi tushuniladi. Meros vorislik huquqi asosida qonunda belgilangan yoki meros qoldiruvchi belgilagan tartibda va shartlarda tegishli shaxslarga – qonun bo'yicha merosxo'rlarga yoki vasiyat bo'yicha merosxo'rlarga o'tishi lozim bo'lган mulkiy huquq va majburiyatlardan yoki nomulkiy huquq va majburiyatlardan iborat bo'lib, uning meros qoldiruvchidan merosxo'rlarga o'tish tartibini vorislik huquqi belgilaydi. Vafotidan keyin vorislik huquqi asosida mol-mulki yoki mulkka bo'lган huquq va majburiyatlari boshqa shaxslarga o'tadigan shaxslar meros qoldiruvchi bo'lib sanaladilar. Meros qoldiruvchi o'zining xususiy mulkini, mulkka bo'lган huquq va majburiyatlarini o'zi vafot etgandan keyin tasarruf etish huquqining kimga o'tishini amaldagi qonunlar asosida belgilab qo'yish bo'yicha farmoyish berish huquqiga ega. Uning bu huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida belgilangan qoidadan kelib chiqadi.

Meros qoldiruvchining qonunga muvofiq o'z erki bilan belgilab qo'yilgan shart va tartibdagi vorislik vasiyat bo'yicha vorislik deyiladi.

Agar meros qoldiruvchi o'z xususiy mulkining o'zi vafot etgandan keyingi taqdirini belgilab qo'ymagan bo'lsa, vorislik qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Demak, qonunda belgilab qo'yilgan yoki vasiyatnomada maxsus ko'rsatilgan meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga olgan shaxslar – voris, ya'ni merosxo'r hisoblanadilar. Merosxo'r bo'lish shaxsning fuqaroligiga yoki muomala layoqatiga bog'liq emas. FK 1118-moddasiga asosan meros ochilgan paytda hayot bo'lган fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotligida homila holida bo'lган va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari qonun bo'yicha merosxo'r hisoblanib, vasiyat bo'yicha ham merosxo'r bo'lishlari mumkin. Jismoniy shaxs bilan bir qatorda, yuridik shaxslar ham, shu jumladan, davlat va uning organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'la oladilar.

Ammo meros mulkning taqdirini hal qilish vasiyat bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lган hollarda, meros qoldiruvchi, albatta, to'la muomala layoqatiga ega bo'lishi shart. Meros qoldiruvchi vafot etgan paytda hayot bo'lman, qonun bo'yicha vorislar doirasiga kirgan shaxslarning hissalari, odatda, taqdim qilish huquqi bo'yicha ularning vorislariga o'tadi.

Demak, vorislik huquqining vazifasi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga, merosxo‘rlarga o‘tishini qonun bilan belgilangan tartibda ta’minlashdan iborat. Shunday qilib, shaxs o‘z xususiy mulkining o‘zi vafot etgandan keyingi taqdirini o‘zi hayotligida belgilash, merosning ochilishi, merosxo‘rlar doirasini aniqlash, merosni saqlash, muhofaza qilish va boshqarish, merosni taqsimlash, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish, merosdan voz kechish, meros mulkdan qilinadigan xarajatlar, merosni egasiz deb topish va boshqa meros mulk bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutgan meros huquqini amalga oshirishning huquqiy kafolati – meros huquqi institutini tashkil etadi.

## **2-§. Vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga asosan, vorislik ikki asosda vujudga kelishligi ko‘rsatilgan.

*Birinchidan*, qonun bo‘yicha vujudga kelsa.

*Ikkinchidan*, vasiyat bo‘yicha vujudga keladi.

Vorislik huquqining ikkala vujudga kelish asoslari, O‘zbekiston Respublikasi hududida vorislik huquqi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibda tartibga solinadi. Chunki, vorislik huquqi fuqarolik huquqining alohida va mustaqil instituti bo‘lib, jismoniy shaxs vafotidan so‘ng yoki yuridik shaxs tugatilganidan so‘ng vujudga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Vorislik deganda mulk egasi vafot etganidan keyin, mol-mulk qonun yoki vasiyat asosida boshqa shaxs yoki shaxslarga o‘tishi tushuniladi.

Vorislikning vasiyat va qonun bo‘yicha vorisliklar amalga oshiriladi.

Qonun bo‘yicha vorislik vasiyat mavjud bo‘lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek FKda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi.

Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar vorislikka FK 1135–1141-moddalarida nazarda tutilgan tartibda vorislikda merosxo‘rlar bo‘lib hisoblanadilar. FKda qonun bo‘yicha merosxo‘rlikning oltita darajadagi merosxo‘rlari keltirib o‘tilgan.

Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari, bir tarafdan, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari, ikkinchi tarafdan, tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Qonun bo‘yicha vorislik mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiy mulkning taqdirini vasiyat bo‘yicha hal qilmagan bo‘lsa, mulk egasining

vafot etgandan keyin uning ma'lum bir shaxs tomonidan tasarruf qilishini belgilamagan hollarda qonun bo'yicha vorislik vujudga keladi. Bundan tashqari, qonun bo'yicha vorislik huquqi:

*birinchidan*, vasiyatnoma qisman yoki butunlay haqiqiy emas deb topilgan hollarda;

*ikkinchidan*, meros mulkning hammasi vasiyat qilinmasdan qolgan taqdirda, vasiyat qilinmagan qismiga;

*uchinchidan*, vasiyat bo'yicha merosxo'r meros ochilgandan keyin merosni qabul qilmasdan vafot etgan bo'lsa;

*to'rtinchidan*, vasiyat bo'yicha merosxo'r merosni olishdan bosh tortgan yoki undan voz kechgan holatlarda vujudga keladi.

Qonun bo'yicha merosxo'r meros qoldiruvchi bilan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, ya'ni meros qoldiruvchining avlodlari, oila a'zolari, mehnatga layoqatsiz, uning qaramog'ida bo'lган, oila a'zolari bo'lмаган shaxslar bo'lishlari mumkin. Demak, qonun bo'yicha merosxo'rlar bo'lish uchun ular nafaqat meros qoldiruvchining rasman qon-qarindoshlari bo'lishi, shuningdek, amalda ham yaqin kishilari bo'lishi kerak. Qonun bo'yicha vorislik munosabati bilan meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlar o'tish tartibi va shartlari qonunda belgilanib qo'yilgan. Meros qoldiruvchining mol-mulki qonunda belgilangan tartibda, miqdorda merosxo'rlar o'rtasida bo'linadi. Meros qoldiruvchining vafoti yoki sud qarori bilan mulk egasini vafot etgan deb e'lon qilingan vaqtidan boshlab, vorislik huquqi, to'lig'icha qonun bo'yicha merosxo'rlarga o'tadi.

Qonunda belgilanmagan shaxslarga yoki belgilangan tartibni buzib, meros mulkni yaqin qarindoshlarga yoki boshqa yaqin kishilarga, meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lмаган shaxslarga berish mumkin emas.

Vasiyat bo'yicha vorislik huquqining vujudga kelishi, meros qoldiruvchining erki bilan vujudga keladi. Vasiyat bo'yicha vorislik tayinlanganda meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlar merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanishi, shuningdek, vorislarni belgilash faqatgina meros qoldiruvchining erki bilan amalga oshiriladi. Merosdan chetlashtirish yoki meros olishdan mahrum qilish faqat qonunda belgilangan asoslarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Vorislik huquqining vujudga kelish asoslari qonun va vasiyat bo'yicha vorislik o'zaro kelishuv asosida yuridik harakatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Yuridik harakatlarsiz vorislik huquqining amalga oshirilishi hayotda hatto, sud amaliyotida ham mulkdorning vafotidan keyin nizoli holatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomaga asosan fuqaro B. o'ziga tegishli bo'lган uy-joyini va

jamg‘arma bankida saqlanayotgan omonat mablag‘ni nevarasi N.ga vasiyat qilib qoldirgan. B. vafotidan keyin uning voyaga yetgan bolalari sudga murojaat qilib, meros qoldiruvchi og‘ir kasalligi sababli vasiyatnomaga imzo qilish imkoniyati bo‘lmagan, vasiyatnomaga qalbakilashtirilgan degan asosda uni haqiqiy emas deb topishni so‘raganlar. Tuman sudining ajrimi bilan ish yuritish bekor qilinib, taraflarning meros mulkni taqsimlash haqidagi o‘zaro kelishuvi tasdiqlangan. Ish cassatsiya tartibida ko‘rilmagan. Viloyat sudining rayosati viloyat prokurorining nazorat tartibidagi protestini rad qilib, tuman sudining ajrimini kuchida qoldirgan. Respublika Bosh prokurorining o‘rinbosari tomonidan keltirilgan protestda ish bo‘yicha vasiyatnomaning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini aniqlamasdan turib, masalani hal qilish mumkin emasligini asos qilib, tuman sudining ajrimini va viloyat sudi rayosatining qarorini bekor qilib, ishni qaytadan ko‘rishga yuborish to‘g‘risidagi talabi Oliy sudning fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hay’atining ajrimi bilan qanoatlantirilgan.

*Meros huquqining vujudga kelish huquqining o‘ziga xos belgilari:*

1. Meros huquqi xususiy mulkni, mulkiy huquq va majburiyatlarni himoya qilish, uni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.
2. Meros qoldiruvchi vafotidan keyin ham xususiy mulkining saqlanishini, uning ko‘payishini, rivojlanishini, o‘sishini, oilani mustahkamlashdagi omillarini hisobga olib, uning kimga o‘tishiga befarq qaray olmaydi.
3. Qonun bo‘yicha vorislar bo‘lib, asosan, qon-qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq oila a‘zolari hamda oila a‘zolari bo‘lmagan, lekin mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj, meros qoldiruvchi qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar hisoblanadilar. Qonun bo‘yicha vorislar meros qoldiruvchiga rasman va shu bilan birga, amalda ham eng yaqin kishilardir.
4. Meros huquqi bo‘yicha meros mulkdan olinadigan hissa erkaklar uchun ham, xotinlar uchun ham, qayd qilingan nikohdan tug‘ilgan bolalar uchun ham, belgilangan tartibda otaligi aniqlangan bolalar uchun ham, farzandlikka olingan bolalar uchun ham bab-baravardir.
5. Vasiyat bo‘yicha meros qoldirilganda merosxo‘rlar doirasi kengayib, nafaqat jismoniy shaxslarga, shu bilan birga, tashkilotlarga ham berilishi mumkin.
6. Qonun bo‘yicha vorislar bo‘lmagan taqdirda va vasiyat bo‘yicha ham merosxo‘r tayinlanmagan hollarda, meros mulk sudning hal qiluv qarori bilan egasiz deb topilib, davlat yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi ixtiyoriga o‘tadi.

Vorislik huquqi asosida meros mulkni qabul qilish merosning ochilish munosabati bilangina amalga oshiriladi. Qonun vorislik huquqiy munosabatlarning kelib chiqishini merosning ochilishi bilan bog‘laydi. Shuning uchun ham merosning ochilish vaqtini muhim va zarur ahamiyat kasb etadi. Vorislik huquqining vujudga kelishi muayyan bir hodisaning sodir bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunday hodisa, birinchidan, fuqaroning vafot etishi, ikkinchidan, fuqaroning sudning hal qiluv qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilinishi hisoblanadi. Merosning ochilishi ma’lum bir vaqtida vujudga keladi. Merosning ochilish vaqtini to‘g‘ri aniqlash merosga oid huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda g‘ayriqonuniy harakatlarning oldini olishga imkon beradi. Merosning ochilish vaqtini to‘g‘ri aniqlash meros tariqasida o‘tadigan huquq va majburiyatlarning tarkibini belgilash, merosxo‘rlarning doirasini aniqlash, qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha belgilangan meros mulkni qabul qilib olish yoki undan voz kechish, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish va kreditorlarning da’vo qo‘zg‘atishi uchun muddatni belgilash hamda boshqa merosga oid huquqiy munosabatlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

FK 1116-moddasiga asosan, meros qoldiruvchining o‘lgan kuni (zarur bo‘lganda payti ham), u vafot etgan deb e’lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqacha muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiradigan kun – meros ochilgan vaqt deb sanaladi.

Nikoh munosabatlari yoki qon-qarindoshlik tufayli bir-birlari bilan bog‘langan shaxslarning bir vaqtida vafot etishlari, ularning har birining vorislari mustaqil ravishda vorislikka chaqirilishiga sabab bo‘ladi.

Masalan, avtohalokat oqibatida er va xotin bir paytda halok bo‘ldilar. Erning oldingi xotinidan bir bolasi va xotinining ham oldingi eridan bir bolasi qolgan. Notarius merosni taqsimlaganda, avvalo, ulardan qolgan mol-mulkni Oila kodeksining 23, 25 va 27-moddalari, hamda nikoh shart-nomasiga asosan, har birining xususiy, shaxsiy va birgalikdagi mulklarini aniqlab, 27 va 28-moddalar tartibida birgalikdagi mulkda ularning hissalarini belgilab, merosni vorislar o‘rtasida adolatli taqsimlash choralarini ko‘radi. Chunki er bilan xotin o‘rtasida vorislik huquqi paydo bo‘lmaydi. Ularning har biridan keyin meros ochilgani sababli, har ikkalasining merosxo‘rlari o‘zlarining, biri otasining va biri onasining meros mulkiga voris bo‘ladilar.

Vasiyatnama bergen shaxs bilan vasiyatnama bo‘yicha huquq oluvchi shaxs bir vaqtning o‘zida vafot etgan taqdirda vasiyat bo‘yicha meros ochilmaydi. Meros mulk qonun bo‘yicha vorislarga o‘tadi. “B” notariusga murojaat etib, otasi “K”ning nomiga bobosi “V” tomonidan vasiyat qilib

qoldirgan yengil avtomashina “Jiguli”ga merosga bo‘lgan huquqi haqida guvohnoma berishni so‘ragan. “K” va “V” bir paytda avtohalokat oqibatida halok bo‘lganliklari sababli vasiyat bo‘yicha meros ochilmasligi va FK 1116-moddasining 3-qismiga asosan biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo‘lgan shaxslar bir kalendar sutka ichida vafot etgan taqdirda, meros ularning har biridan keyin ochilishi va har birining merosxo‘rlari vorislikka alohida chaqirilishlari tushuntirilgan. Demak, “K”ga vasiyat qilingan “V”ning “Jiguli” yengil mashinasi uning qonun bo‘yicha vorislariga o‘tadi.

Vorislik huquqiy munosabatlariga tatbiq etilishi lozim bo‘lgan qonun hujjatlarini to‘g‘ri aniqlash ham merosning ochilish vaqtini aniq belgilashga bog‘liq. Chunki merosxo‘rlar doirasi ham, meros munosabatlariga tatbiq qilish lozim bo‘lgan qonunlar ham merosning ochilish payti bilan belgilanadi.

Vorislikka doir huquqiy munosabatlar meros ochilgan paytdagi amalda bo‘lgan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qonun bo‘yicha vorislikni amalga oshirish uchun qonunda meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatida bo‘lgan va meros qoldiruvchining qaramida, uning boqimida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar hisobga olinadi. Demak, qonunda belgilab qo‘yilgan shart va tartibda, meros qoldiruvchi tomonidan o‘zgartirilmagan vorislik qonun bo‘yicha vorislik deyiladi.

FK 1134-moddasiga asosan qonun bo‘yicha vorisliqda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari bir tarafdan, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari ikkinchi tarafdan tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Demak, voyaga yetmagan bolalar – farzandlikka olinganlar ularning avlodlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarda teng hisoblanadilar, meros olish huquqidan ham teng foydalanadilar.

Farzandlikka olinganlar o‘z ota-onalariga nisbatan va ularning qarindoshlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini yo‘qotadilar, shu bilan birga, majburiyatlardan ham ozod bo‘ladilar.

“Farzandlikka olinganlar va ularning avlodlari, - deyiladi FK 1134-moddasining 3-qismida, - farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari vafot etgandan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar”. Demak, farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi, buva-buvilari, aka-uka va opa-singillari ham farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yo‘qotadilar.

Meros qoldiruvchi bolalarining qonun bo'yicha vorislik huquqiga ega bo'lishlari uchun, avvalo, ular qonuniy nikohda bo'lgan ota-onalardan tug'ilgan bo'lishlari kerak. Bunday bolalar ham otadan, ham onadan meros olish huquqiga ega bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda, qonuniy nikohda bo'limgan ota-onadan tug'ilgan bolalar, qonunda belgilangan tartibda otaligi aniqlangan holdagina, bиринчи navbatda qonun bo'yicha merosxo'rлar doirasiga kiradilar va ham ota, ham onadan meros olish huquqiga ega bo'ladilar. Otaligi belgilanmagan bolalar esa, faqatgina ona vafot etgan taqdirda, uning meros mulkiga bиринчи navbatda qonun bo'yicha merosxo'r bo'ladilar. Ammo meros qoldiruvchining qaramog'ida, uning boqimida bo'lgan bolalar shu asosda merosxo'r bo'lishlari mumkin.

Meros qoldiruvchi hayotligida homilada bo'lib, uning vafotidan keyin 300 kun mobaynida tirik tug'ilgan bolalari ham FK 1135-moddasida ko'rsatilgan tartibda bиринчи navbatdagi merosxo'r bo'ladilar. Er (xotinning) o'gay bolalari merosxo'rлar bo'la olmaydilar. Bular faqat mehnatga layoqatsiz bo'lib, meros qoldiruvchi o'gay ota yoki o'gay onaning boqimida bo'lgan taqdirda vorislikka chaqirilishlari mumkin. Xuddi, shuningdek, o'gay bolalar o'gay ota yoki onalariga merosxo'rlik huquqini berish huquqiga ega emaslar.

Qonun bo'yicha ikkinchi navbat vorislar jumlasiga FK 1136-moddasida belgilab qo'yilgan meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona biru ota boshqa yoki ota biru ona boshqa aka-ukalari va opa-singillari kiradilar. Bundan tashqari, meros qoldiruvchining ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi qonun bo'yicha ikkinchi navbatda teng ulushlarda meros olish huquqiga ega bo'ladilar.

Meros qoldiruvchining ona tomonidan bobosi va buvisi qar qanday holatda ham o'zlarining nevaralaridan meros olish huquqiga ega, ammo meros qoldiruvchining ota tomonidan bobosi va buvisi vafot etgan nevarasi bilan uning otasi o'rtasidagi yuridik bog'lanish qonuniy bo'lgan hollardagina voris bo'lish huquqini qo'lga kiritadilar. Boshqacha qilib aytganda, meros qoldiruvchi bilan uning otasi o'rtasidagi munosabat ota-onalik munosabati qonuniy nikoh munosabatlaridan kelib chiqqan taqdirda yoki meros qoldiruvchiga nisbatan otalik qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hollardagina, ota tomonidan bo'lgan bobo va buvilari meros qoldiruvchi nevaralarining meros mulkiga ikkinchi navbatda qonun bo'yicha merosxo'r bo'la oladilar. FK 1137-moddasida qonun bo'yicha uchinchi navbat vorislikka chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar belgilangan. qonun bo'yicha uchinchi navbat vorislik huquqiga meros qoldiruvchining

tug‘ishgan amakisi, tog‘asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda ega bo‘ladilar. Qonun bo‘yicha uchinchi navbat vorislikka chaqirilishi uchun o‘zidan oldingi navbatdagi vorislarning umuman bo‘lmasligi yoki ular meros olishdan voz kechgan bo‘lishlari yoxud qonunda belgilangan tartibda merosdan chetlashtirilgan bo‘lishlari kerak.

FK 1138-moddasiga asosan to‘rtinchi navbatda vorislik huquqiga meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham kiradi) bo‘lgan qarindoshlari qonun bo‘yicha ega bo‘ladilar. Bu navbat bo‘yicha meros olishda meros qoldiruvchining yaqinroq qarindoshlari uzoqroq qarindoshlariga nisbatan imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Qarindoshlik deb, ikki yoki bir necha shaxslar o‘rtasidagi tug‘ishganlik, qon-qarindoshlik tizimi tufayli huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki tutashi bilan bog‘liq bo‘lgan qondoshlik aloqasiga aytildi. Qarindoshlikning yaqin-uzoqligi uning chiziqlari shajaralari va darajalari bilan belgilanadi. Bir shaxsning bevosita boshqa shaxsdan tarqalishi darajani belgilaydi. Har bir yangi tug‘ish bilan yangi daraja paydo bo‘ladi.

Vasiyat qoldiruvchi o‘zining vasiyatnomasidagi farmoyishi bilan qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning hammasini, bir nechtasini yoki bittasini merosdan mahrum qilishga haqli. Bundan tashqari, vasiyat qoldiruvchi ayrim merosxo‘rlarning hissalarini ko‘paytirish yoki kamaytirish haqida ayrim ashyolarni ma’lum bir vorislarga berish haqida farmoyishda ko‘rsatishi mumkin. Vasiyat qoldiruvchi o‘zining bunday harakatlarining sababini tushuntirib, izoh berishga majbur emas. Shu bilan birga, qonuniy vorisni merosdan mahrum qilish biror shart asosida ham bo‘lishi mumkin emas. Umuman vasiyatnomani bekor qilish sharti bilan vasiyatnama tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo uni kechiktirish sharti bilan vasiyatnama tuzilishi mumkin. Bunday hollarda meros mulk birdaniga vasiyat bo‘yicha vorisga o‘tmaydi va vasiyatnomada berilgan farmoyishga ko‘ra, ma’lum bir topshiriq bajarilgandan keyin o‘tish tartibi haqida shart qo‘yilishi mumkin.

Bir yoki bir necha merosxo‘rlar meros olish huquqi ko‘rsatilgan taqdirda, vorislikni navbat bo‘yicha boshqa, qonun bo‘yicha merosxo‘rlar oladilar. Agar hamma vorislar meros olish huquqidan mahrum qilingan bo‘lsalar, meros mulk FK 1157-moddasi tartibida sudning qarori bilan egasiz mulk deb topilib, davlat yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi egaligiga o‘tadi.

Vasiyatnomada voris sifatida ko‘rsatilmagan merosxo‘r vasiyat qilinmasdan qolgan meros mulkka qonun bo‘yicha voris bo‘lish huquqini saqlab qoladi. Meros ochilmasdan vafot etgan yoki merosdan voz kechgan

vasiyat bo‘yicha merosxo‘rga vasiyat qilingan mulkni olish huquqi qonun bo‘yicha merosxo‘rlarga o‘tadi. Taqdim qilish huquqi vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlar vorislariga o‘tmaydi. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning meros olish huquqidan mahrum etilishi, agar vasiyatnomadan boshqa hol kelib chiqmasa, ularning taqdim qilishi huquqi bo‘yicha vorislilik qiladigan avlodlariga nisbatan tatbiq etishadi. Meros qoldiruvchi vasiyatnomada o‘ziga tegishli mulkni nafaqat kimga meros qilib qoldirish haqida, shu bilan birga, ayni vaqtda, umumiylar tarzda “hamma bolalarimga”, “nevaralarimga” va hokazo boshqacha umumiylar tarzda, ularning qonun bo‘yicha qaysi navbatda merosxo‘r bo‘lishlaridan qat’i nazar, belgilab qo‘yishi mumkin.

*Vasiyatnoma so‘zi ikki ma’noda tatbiq etiladi.*

*Birinchidan, vasiyatnoma* – bu vasiyat qoldiruvchining erki ifodalangan hujjatning o‘zi sifatida tatbiq qilinsa, *ikkinchidan, vasiyatnoma* - vasiyat qoldiruvchining erkini ifoda etuvchi akt (hujjat) hisoblanadi. Bu ma’noda vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo‘lib, uni tuzish uchun qonun hujjatlariga asosan bir tarafning, ya’ni vasiyat qoldiruvchining xohishi yetarli. Boshqa bir shaxsning qarshi erkini ifoda qilish talab qilinmaydi. Shuning uchun vasiyatnomaning haqiqiyligi hech vaqt vorislarning roziligidagi bog‘liq emas.

Vasiyat qoldiruvchi shaxsan o‘zi, o‘z erki bilan merosxo‘rga o‘zining xususiy mol-mulkiga nisbatan ma’lum bir huquqni belgilab beradi. Vorisni merosdan mahrum qilish uchun sababini tushuntirishga meros qoldiruvchi majbur emasligi nazarda tutiladi. “Meros qoldiruvchi, – deyiladi FK 1120-moddasi 7 bandida, - vasiyatnoma tuzilgandan keyin uni istagan paytda bekor qilish yoki o‘zgartirish borasida erkin bo‘lib, bunda bekor qilish yoki o‘zgartirish sabablarini ko‘rsatishga majbur emas”.

Buning uchun faqat qonunda belgilangan shakl va tartibga rioya qilish talab qilinadi, xolos. Vasiyat bo‘yicha merosxo‘r faqat meros ochilgandan keyin merosdan voz kechishga yoki merosni qabul qilib olmaslikka haqli. Vasiyatnoma tuzgan shaxs o‘zining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog‘liq hamma harakatlarni amalga oshirish huquqini saqlab qoladi. Buning uchun vasiyatnomani to‘lig‘icha yoki qisman bekor qilish, uning mazmunini o‘zgartirish shart emas. Vasiyatnomada belgilab qo‘yilgan alohida ashyolarni ma’lum bir merosxo‘rga berish haqidagi farmoyish meros ochilgunga qadar u shaxs uchun hech qanday huquq tug‘dirmaydi.

Vasiyatnomani vasiyat qiluvchining o‘rniga imzolashi man qilingan shaxslarning tizimi FK 1124-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Quyidagi shaxslar vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani qilishlari mumin emas:

- notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlash huquqi berilgan mansabdor shaxs;

- vasiyatnomaga kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari;

- vasiyat qiluvchining qonun bo‘yicha merosxo‘rlari;

- to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lman fuqarolar;

- savodsizlar va vasiyatnomani o‘qiy olmaydigan boshqa shaxslar;

- yolg‘on guvohlik bergenlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi qonunining 37-moddasiga binoan, notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindoshurug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opasingillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan, shuningdek, mazkur davlat notariat idorasining xodimlari yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning qo‘l ostida ishlovchi shaxslar nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalgalashga haqli emas.

Og‘zaki shartnomalar tuzish, har xil texnik vositalar yordamida (masalan, magnitofonga, videotasmaga yozilgan) vasiyat qoldiruvchi so‘zidan bo‘lsa ham yozib olingan vasiyatnomalar haqiqiy hisoblanmaydi va bunday tartibda tuzilgan vasiyatnomalarning haqiqiyligini guvohlar ko‘rsatmalari yoki boshqa dalillarga asosan sud yo‘li bilan ham tasdiqlashga yo‘l qo‘ymaydi.

Tuman sudining 2008-yil 8-oktabrdagi hal qiluv qarori bilan meros qoldiruvchining kichik o‘g‘li “A”ning o‘z akasi “F”ga nisbatan qo‘zg‘atilgan da’vosi qanoatlantirilishi, otalaridan meros qolgan “Moskvich” avtomashinasini otalari hayotligida “A”ning foydasiga oilaviy maslahatda “kichik o‘g‘limga vasiyat qildim” degan og‘zaki gapi asos qilib olingan. Sudning bu hal qiluv qarori g‘ayri qonuniy bo‘lganligi sababli “F”ning shikoyatiga asosan viloyat sudi tomonidan bekor qilingan.

Vasiyatnomaning tuzilishi vaqtি va joyini belgilab qo‘yish amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Meros ochilgandan keyin merosxo‘rlar o‘rtasida nizo chiqqanida, *birinchidan*, meros qoldiruvchining vasiyatnomaga tuzganda muomala layoqatiga ega bo‘lmanligi, harakatlarining oqibatiga ko‘zi yetmaganligi;

*ikkinchidan*, ikki yoki undan ortiq vasiyatnoma mavjud bo‘lganda, ulardan qaysi biri haqiqiy ekanligini belgilash, qaysi biri oldin va qaysi biri keyin tuzilganligini aniqlash vasiyatnomada ko‘rsatilgan vaqtida vasiyat qoldiruvchi imzo qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lgan yoki bo‘limganligini isbotlash uchun zarur bo‘ladi. Qonunda belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilingan holda tuzilgan vasiyatnomalar haqiqiy bo‘lib sanaladi.

Amaliyotda shunday hodisalar uchraydiki, vasiyat qoldiruvchi bir necha marotaba o‘zining vasiyatnomasini tuzib qoldiradi. Uning qaysi biri haqiqiy ekanligini aniqlash uchun vasiyatnomaning tuzilishi vaqtি asos qilib olinishi kerak. Keyingi tuzilgan vasiyatnoma avvalgi vasiyatnomaning bekor bo‘lishi uchun asos bo‘ladi. Vasiyatnomaning tuzilgan vaqtি uning notarial tasdiqlangan vaqtি bilan hisoblanadi. Qonunda nazarda tutilgan vasiyatnoma shakliga doir asosiy talablarning vasiyatnoma notarius tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi va notarial tasdiqlangan vasiyatnomaga tenglashtirilgan bo‘lishidir. Yozma shakldagi vasiyatnomalar faqat qonunda belgilangan shaklda rasmiylashtirilib, tasdiqlangandagina haqiqiy hisoblanadi.

Amaliyotda mol-mulkni vasiyat qilib qoldirish qarindoshlar oldida ular bilan munosabatlarda noqulaylik tug‘diradi. Shu sababdan qonun (FK 1128-m.) vasiyatnomaning sir saqlanishini nazarda tutadi. Qonun vasiyatnomaning sir saqlanishini ta’minlash uchun yetarli choralar va tadbirlar belgilab qo‘yan.

“Notariat to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar faqat sud, prokuratura va tergov organlarining talabiga asosan ular yuritayotgan ishlar munosabati bilan beriladi. Vasiyatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina berilishi mumkin.

“Notarius, vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdor shaxs, shuningdek, vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaro, – deyiladi FK 1128-moddasida, – meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuniga, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas”.

Xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan notarial harakatlar haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni har qanday mansabdor shaxs ham oshkor qilishga haqli emasdir. Bunday shaxslar qonunda belgilangan tartibda vasiyatnoma sirlarini oshkor qilganliklari uchun tegishli tartibda javobgar bo‘ladilar.

Vasiyatnomani sir saqlash haqidagi qonun talablari vasiyat qoldiruvchi uchun ham majburiydir. Vasiyat qoldiruvchining o‘zi vasiyatnoma haqida

oshkora aytishga va uni boshqalarga ko'rsatishga haqli, ammo notarial idorasiga vasiyatnomani oshkor qilish uchun farmoyish berishga haqli emas. Vasiyatnama faqat meros ochilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Vasiyatnomaning tuzilishidan uning kuchga kirishiga qadar ancha vaqt o'tishi mumkin. Qonun bu muddatni chegaralab qo'ygan emas. Agar vasiyatnama vasiyat qoldiruvchi tomonidan o'zgartirilmagan yoki bekor qilinmagan bo'lsa, u qancha vaqt o'tishidan qat'i nazar, amal qiladi. Vasiyat qoldiruvchi o'zining vasiyatnomada izhor qilgan irodasini xohlagan vaqtida o'zgartirishga va bekor qilishga haqli. Vasiyatnomaning tuzilganligi, o'zgartirilganligi yoki bekor qilinganligi ma'lum bir guruh shaxslarga ma'lum bo'ladi. Notarius, qonun bilan notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan shaxslar, vasiyat qoldiruvchi o'rniga vasiyatnomani imzo qilgan shaxslar vasiyatnama haqida axborotga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin. Bu shaxslar meros ochilganga qadar vasiyatnomaning mavjudligi va uning mazmuni haqida hech kimga, shu jumladan, merosxo'rning o'ziga ham oshkor qilishga haqli emaslar. Vasiyatnama tuzuvchi uning mazmuni bilan tanishib chiqmasdan tasdiqlashni notariusdan talab qilish huquqiga ega. Bunday vasiyatnomalar maxfiy vasiyatnama bo'lib hisoblanadi. Maxfiy vasiyatnama haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida vasiyat qoldiruvchining o'z qo'li bilan yozilishi, imzolanishi va ikki guvoh hamda notarius ishtirokida konvertga solinib yelimланishi lozim. Yelimlangan konvertning ustida guvohlarning ismi, otasining ismi va familiyalari, ularning doimiy turar joylari to'liq yozilib, ular tomonidan imzolanishi kerak. Guvohlar imzolangan bu konvert ham ularning va notariusning ishtirokida boshqa konvertga solinib, notarius tomonidan yelimланib, uning ustiga tasdiqlash ust xati yozilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni 23-moddasiga asosan vasiyatnomalarni tasdiqlash davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar, O'zbekiston Respublikasi chet ellardagi konsullik muassasalarining konsullari (28-m.), shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) (25-m.), shuningdek, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar (24-m.) tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Vasiyatnomani guvohlantirish vaqtida notarius vasiyatnomani guvohlantirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning muomala layoqatini va uning shaxsini belgilangan tartibda aniqlashi; bundan tashqari, vasiyatnama vasiyat qoldiruvchi tomonidan o'z qo'li bilan yozilganligini, undagi imzo o'z qo'li bilan qo'yilganligini tekshirib, shunga ishonch hosil qilishi kerak. Vasiyat qoldiruvchining jismoniy kamchiliklari va savodsizligi oqibatida o'zi o'z qo'li bilan yozish va imzo qo'yish imkoniyatiga ega

bo‘lмаган тақдирда, нотариус юки нотарий гаракатларни амалга ошириш ҳуқуқи берилган мансабдор шахс томонидан унинг со‘зларидан ўзаб олиниш мүмкін. Бундай ҳолларда, албатта, васиятнома матни васият қолдирувчига о‘қиб берилиши шарт ва бу ҳақда васиятномага алоҳида белги қилиб қо‘йилиши керак. Агар саводсиз васият қолдирувчining қулог‘и кар, тили гунг юки ҳам кар, ҳам гунг бо‘лса, васиэтнома гувоҳлантirilayotganda уларга тушунтира биладиган шахсning исhtiろki та’минланishi ва у о‘зининг имзоси билан васиэтноманинг мазмuni васият қолдирувчining erkiga то‘г‘ри келишини гувоҳлантirishi керак. Бу гаракатлarning ҳамми, албатта, васиэтномани гувоҳлантiruvchi нотариусning юки нотарий гаракатларни амалга ошириш ҳуқуғига ега бо‘лган мансабдор шахсning исhtirokida бо‘лиши шарт. Васиэтнома фақат васият қолдирувчи ҳузурда тасдиqlanishi lozim.

Васиэт қолдирувчining хоҳишига ко‘ра, васиэтномани гувоҳлантirish ҳоҳлаган нотарий идорасида амалга оширилиши мүмкін. Башарти, васиэт қолдирувчи томонидан олдин, бoshqa нотарий идорасида васиэтнома рasmiylashtirilgan бо‘лса, уни bekor қилиш юки o‘zgartirish haqida birinchi васиэтномани гувоҳлантirgan нотариусга муројат қилиш шарт emas. Ammo васиэтномани ikkinchi маротаба гувоҳлантirayotgan нотариус бу ҳақда birinchi васиэтномани гувоҳлантirgan нотариусга xabar berishi шарт. Нотарий идораларида тасдиqlash имконијати бо‘лмаган ҳолларда qонунда назарда тutilган тартибда мансабдор шахслар томонидан васиэтноманинг тасдиqlanishга yo‘l қо‘yiladi. Бундай васиэтномалар нотарий тартибда тасдиqlangan васиэтномаларга tenglashtiriladi.

FK 1126-moddasi va “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida quyidagi васиэтномалар нотарий тасдиqlangan васиэтномаларга tenglashtirilishi belgilanib қо‘yilgan:

1) kasalxonalar, gospitallar, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan юки qariyalar va nogironlar uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh vrachlari, ularning davolash ishlari bo‘yicha o‘rnbosarlari юки navbatchi vrachlar, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari юки bosh vrachlari томонидан тасдиqlangan васиэтномалари;

- bunday васиэтномалар тасдиqlanayotganda, албатта, FK 1125-moddasida belgilab қо‘yilgan нотарий тасдиqlash to‘g‘risidagi talabdan boshqa hamma шартлага rioya қилиш lozim;

2) O‘zbekiston Respublikasi давлат bayrog‘i ostida suzib yurган kemalarda safarda бо‘лган fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari томонидан тасдиqlangan васиэтномалари;

3) qidiruv ekspeditsiyalari yoki shunga o‘xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning ana shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

4) harbiy xizmatchilarning, notarius bo‘limgan yerlarda joylashgan harbiy qismlarda esa, bu qismlarda ishlayotgan harbiy bo‘limgan fuqarolar, ularning oila a’zolari va harbiy xizmatchilar oila a’zolarining harbiy qismlar komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

5) ozodlikdan mahrum etish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

6) notarius bo‘limgan aholi punktlarida yashayotgan shaxslarning qonunga muvofiq notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari.

Vasiyatnomaning ko‘rsatilgan shakllariga doir qoidalarga rioya qilinganda uning mazmuni haqida anglashilmovchiliklar bo‘lmashligiga va har qanday nizolarning kelib chiqishiga asos qoldirmaydi. Oqibatda vasiyatnomma talqin qilinganda undagi so‘zlar va iboralarning asl ma’nosini anglash va uni e’tiborga olish imkoniyati tug‘iladi.

*II QISM*

*OILA*

*HUQUQI*

## **OILA HUQUQI VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI**

### **1-§. Oila huquqi: predmeti, vazifasi, tartibga soluvchi munosabatlari, asosiy prinsiplari, manbalar**

Oila huquqi mamlakatimizda huquqning alohida tarmoqlaridan biri bo‘lib, o‘z predmeti, obyekti, tartibga soluvchi munosabatlar ko‘lamiga, manbalariga egadir. Ayniqsa, oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘on, “ayol kishi uchun er – vatan” hisoblangan, o‘ziga xos xususiyatlariga, mentalitetiga ega bo‘lgan mamlakatimizda juda ham ahamiyatlidir. Sirdan qaraganda, juda oddiy, primitiv sanalgan oila huquqi aslida, juda murakkab, hayotiy, jonli, bir umrlik uyushgan munosabatlardir. Oilada millatning ertasi paydo bo‘ladi, ulg‘ayadi, kamol topadi, shakllanadi.

*Oila huquqi* – nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarining nasl-nasabini belgilash, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan, er-xotin, ota-onas va farzandlar hamda oilaning boshqa a’zolari, oila va qarindoshlararo vujudga keladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquq normalari yig‘indisidir. Oila huquqining predmeti – oila a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Shunisi favqulodda ahamiyatlici, oila huquqida shaxsiy huquqlar va undan kelib chiquvchi shaxsiy munosabatlar ustuvordir. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi.

Manbalarda qayd etilganidek, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari: insonni yaratish, farzandlarni tarbiyalash va ijtimoiy jihatdan shakllantirish, insonlarni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma’naviy birlashtirish, birgalikda xo‘jalik yuritishni ta’minalash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minalash, demografiya jarayonlarni yaxshilashdan iborat.

Xalqaro hamjamiyat – BMT Bosh Assambleyasi 1994-yildan har yili 15-may kunini “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qildi. Demak, masala nafaqat milliy, mintaqaviy, balki dunyo miqyosida jamiyatning asosi sifatida oilaning naqadar muhim ekanidan dalolatdir.

Zero, aksiomaga ko'ra, *oila* – murakkab ijtimoiy hodisa. U er-xotin, ota-on, farzandlar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yig'indisidan iborat bo'lib, kishilik jamiyatida eng muhim o'rinni egalab kelgan. Jamiyatda oilaning roli beqiyos. Hozirgi paytda jamiyat va davlatni mustaqil oilalarning yig'indisisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, davlatning rivoji va mustaqilligi ko'p jihatdan jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'l mish oilalarga bog'liq. Oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat hamda davlat ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Oila jamiyat va davlatning kelajagi, ravnaqi va rivojlanishini ta'minlaydigan yosh avlodni komil inson qilib yetishtirib, tarbiyalab beruvchi asosiy va muqaddas makon hisoblanadi.

Olloh dunyodagi bor maxluqotlarni juft qilib yaratgan bo'lsa-da, boshqalardan farqli o'laroq, oila bo'lib yashash faqat insonlargagina xos fazilatdir. Oila er-xotin va ulardan dunyoga kelgan farzandlar, nabiralar, eng yaqin tug'ishganlarni qamrab olgan ijtimoiy guruh hisoblanadi. Shu bilan birga, oila insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. Shunga asoslanib aytish mumkinki, oila jamiyatning tabiiy xo'jayrasi bo'libgina qolmay, balki uning ijtimoiy asosini ham tashkil qiladi. Jamiyat va davlatning moddiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlanib rivojlanib borishida oila asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

*Oila o'ziga xos ijtimoiy rishta* – qarindoshlikni vujudga keltiradi. Qarindoshlik rishtasi shunchaki shaxsiy, odat huquqi normalariga tayanmay, balki huquqiy makonda ham uning tushunchasi, o'ziga xos jihatlari va darajalari qayd etilgan.

Qonunga ko'ra, bir umumi shaxs dan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darjasini, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi (OK 57-m.).

Qarindoshlikning darajalari farqlanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaratagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan – ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan – uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o‘rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o‘zini hisobga qo‘shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Tug‘ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, tog‘a va amaki, amma va xola o‘z jiyanolari bilan qarindoshlikning – uchinchi, tog‘avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa – to‘rtinchi darajasida turadilar. Demak, ushbu holda qonun talabiga ko‘ra, to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, ya’ni aka-ukalar – opa-singillar o‘rtasida, farzandlikka oluvchilar – farzandlikka olinganlar o‘rtasidagi nikohlar nikoh qilishga monelik qiluvchi holatlar sanaladi.

Xulosa shuki, qonun nasl-nasab shajarasini bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasidagi nikohni ham nikoh tuzishga monelik qiladigan hollarga kiritgan.

Oila huquqining vazifasi, soha qonunchiligining vazifalari hech bir sharhsiz quyidagilardan iboratdir:

- oilani mustahkamlashdan;

- oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan;

- biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan;

- oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sinqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlash.

Huquqning amaldagi har bir sohasi predmeti va o‘z oldiga qo‘yilgan vazifasidan kelib chiqib, muayyan munosabatlarni tartibga soladi. Shu ma’noda oila to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

nikoh tuzish, nikohning tugatilishi (tugashi) va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibi;

oila a’zolari: er-xotin, ota-onasi va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o‘rtasidagi, oila to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o‘zga shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlar;

ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibi.

Oila huquqi prinsiplari. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi oila huquqi ham o‘z prinsiplariga ega. Prinsiplar – kelgisida yuz beradigan

munosabatlarning boshlang‘ich asosi, qoidalaridir. Oila huquqi amaliy fan, amaliy huquq sohasidir. Auditoriyada ushbu sohani 86,0 balldan yuqori o‘zlashtirish, bu hali, hayotda ham shunday bahoga sazovor degani emas. Oila deb atalmish ijtimoiy hodisa shunchalar murakkabki, unda ota-on, farzandlar, bobo-buvilar, nevara-chevaralar, qarindoshlik, o‘gay ota (ona) hamda o‘gay ona (ota) bilan yuz beradigan munosabatlar – bularning har biri shu oila sohibi, a’zosidan o‘ziga xos vazminlik, donishlik, aql-farosat,adolat talab qiladi. Bunda, albatta, tajriba, shaxsiy kuzatuvlar, xolislik o‘z so‘zini aytadi. Qaysidir ma’noda prinsiplar ushbu holatlarning to‘g‘ri, to‘liq yechimiga xizmat qilishi qiladi, metodologiya vazifasini o‘taydi. Ayni dam oila huquqi prinsiplari haqida so‘z yuritsak.

Oilaning davlat va jamiyat muhofazasida bo‘lishi. Darhaqiqat, oila murakkab ijtimoiy hodisa. U davlat va jamiyatdan ayro yashay olmaydi. Aks holda, Robinzon Kruzo hayoti yuz berardi. Shaxslardan – oilalar, oilalardan – jamiyat, jamiyatlardan – davlat tashkil topganidek, oilaning ichki munosabatlari, so‘ngra qo‘ni-qo‘shnilar, qarindoshlararo munosabatlar, pirovardida, jamiyat munosabatlariga o‘sib chiqadi. Birgina “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabilar bejiz yaralmaganini aytish kifoya. Demak, mavjud real voqelikka shaxsiy munosabatlarni hisobga olmaganda, jamiyat va davlatning aralashmaslikka, insof doirasida aytganda, haqi yo‘q-da. Aks holda, huquqbuzarliklar ko‘payib, jinoyatchilik o‘sib ketardi. Shuning uchun ham bizga profilaktika xizmati kerak va unga keng imkoniyatlar berayotganimizning sababi ham aslida shunda.

Mamlakat asosiy qonuni – Konstitutsiyaning XIV bobi “Oila”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning bosh g‘oyasi “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” ekanidir.

Oilaning jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekani, muhofazada bo‘lish huquqi oila qonunchiligi oldiga qo‘yilgan birinchi vazifa – oilani mustahkamlashga qaratilgan. Mustahkam oila, tan olish kerak, globallashuv fursat sayin chuqurlashib borayotgan bir paytda kun mavzusi bo‘lishi tabiiydir. Zero, undan barcha manfaatdor. “Barcha”ning sirasida aksil kuchlar ham borligini unutmaslik kerak. Aslida oilaning parchalanishi, oilaning buzilishi, uning sinishi – jamiyatning parchalanishi, jamiyatning buzilishi, jamiyatning sinishidir. Bunga esa, bu zaminda o‘tgan ota-bobolar, momolar haqi sirayam yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz uchun oila muqaddas rishtaligicha qolishi shart! Uning asosi bo‘lgan haloli pok nikoh muqaddasligicha qolishi shart! Bundan boshqasi kechirilmaydi ham, kechirmaydi ham. Eldagi elchi-sovchilik munosabatlari, taraflarning

o‘zaro bir-birini o‘rganishi, kerak bo‘lsa, yetti pushtini so‘rab-surishtirishi, quda-andachilik bularning bari-barisi zaminimizda uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan betakror qadriyatlardir. Zero, shunday oilalarga ega jamiyat barqaror, bunday jamiyatga ega davlat esa, ich-ichidan mustahkam bo‘lishi aksiomadir. Shunday qonunni yaratuvchi xalq vakillari – parlament tom ma’noda xalq vakillaridir.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi. Teng huquqlilikda demokratiyaning mashhur qoidasi – oila huquqi rakursidan aytadigan bo‘lsak, arning huquqlari chegarasi – xotinning huquqlari chegarasigacha va aksincha, xotinning huquqlari chegarasi – arning huquqlari chegarasigachadur. Ushbu mexanizmda muvozanatning buzilishidan – huquqbuzilishi boshlanadi. O‘rtada nizo kelib chiqadi – sanmanga boriladi. Har taraf nizolashilayotgan masalada haqligini isbotlashga tushib ketadi. Shu ma’noda ushbu tenglikda o‘ziga xos o‘zbekona, sharqona yondashuv ham bor. O‘zaro ishonch, o‘zaro tushunish, vazminlik, nikohga va oilaga sadoqat, mehnat faoliyatidagi majburiyatlarni, ijtimoiy yukni – oilaviy munosabatlarga aralashtirmaslik, aksincha, oilaviy munosabatlarni – ishxonadagi faoliyatga olib bormaslik kabilar shular jumlasidandir. Ayniqsa, IIO sohasida turli stresslar tufayli ruhiy holat buzilganda, har qanday insonning ham asablari dosh berolmasligi mumkin. Ana shunday holatlarda shukronalik, sabronalik bo‘lish talab etiladi. Ana shunday hollarda oiladan yupanch olinadi. Oila tayanch bo‘ladi. Oila asli katta bir qo‘rg‘on, katta bir vatan. Yana ham ma’jозиј ма’noda aytganda, ayol kishi uchun er – Vatandir. Vatan sotilmaydi, ayirboshlanmaydi, garovga qo‘yilmaydi, ijaraga berilmaydi, hisobdan chiqarilmaydi. Vatanda yagona fuqarolik o‘rnataladi. Bu qanchalar sharaf bo‘lsa, shunchalar mas’uliyat hamdir. Shuning-chun ham har ikki taraf butun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, qiyinchiliklarni birga yengishi lozim. Teng huquqlilikni bu o‘rinda o‘zboshimchalik, manmanlik, deb talqin qilish yaramaydi. Har bir oilaning o‘z sir-asrori bo‘ladi. U taraflarning mulki, shaxsiy mulki sanaladi. Har bir oilaning sha’ni, g‘ururi oila a’zolarining xatti-harakati bilan o‘lchanadi. Uni pul bilan o‘lchab, boshqa bir ekvivalentga almashib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham qonun chiqaruvchi uchinchi shaxslarni oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Oila qonunchiligi oilani erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, deydi. Binobarin, oilaviy munosabatlar er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy

masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Ushbu prinsip Konstitutsiyaning 46-moddasida qayd etilgan “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” degan qoidaga to‘la-to‘kis mos keladi.

Oila munosabatlarida ishtirok etuvchilarning bir-birlarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi va bir-birlariga g‘amxo‘rlik qilishi. Moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash! G‘amxo‘rlik qilish! Qanday go‘zal, xushxulq, xushfe'l odatlar.

O‘zbekiston dunyoda aholisining soni juda tez ko‘payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Oxirgi paytlarda aholi soni yiliga 0,5 mln.ga ko‘paymoqda. Nikohlar soni 300 ming atrofida. Bu o‘ziga xos demografiyadir. Oila erkak va ayolning nikohdan o‘tib, bir yostiqqa bosh qo‘ygan kunidan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi nasjni davom ettirish, shuningdek ota-bobolarining eng yaxshi an’ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustahkamlashdan iboratdir.

Oila jamiatning boshlang‘ich hujayrasini tashkil etib, unda aholini ko‘payishi va yosh avlodni tarbiyalash vazifalari bajariladi.

Manbalarda qayd etilganidek, oilaning ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

birinchidan, u jamiatning demokratik hujayrasini tashkil etib odamlar shu muqaddas koshonada tug‘ilib o‘sib jamiat tarkibini tashkil etadi.

Ikkinchidan, oila muhim bo‘g‘in bo‘lib unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklaymiz.

Uchinchidan, oila muhim tarbiya o‘chog‘i.

To‘rtinchidan, nodir ruhiy muhitdir.

Biologiya fanida – assimilatsiya-dissimilatsiya hodisasi, kimyoda – oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, matematikada – musbat va manfiy qutblar, fizikada – ta’sir aks ta’sirga tengligi haqidagi qoidalar barchamizga tanish. Xuddi shu kabi yurisprudensiyada huquq va burch (majburiyat) ikki o‘ziga xos qarama-qarshi jihat, desak xato bo‘lmasdi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, ba’zan ular bir-birini to‘ldirib ham turadi. Butun huquqiy tizim, qonunchilik, qarorlar o‘zaro huquqdorlik va burchdorlik nisbatiga asoslanadi.

Konstitutsiyada bu borada o‘rnatilgan holat bunga yaqqol dalildir. Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar (64-m.). Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli

farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar (66-m.). Bundan shunday o‘ziga xos mantiqiy xulosa kelib chiqadiki, ota-ona va farzandlar o‘zaro huquqdor va burchdordirlar.

Ushbu prinsip oila qonunchiligi oldiga qo‘yilgan navbatdagi vazifa – oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Oila, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish. Davlat shunday ijtimoiy-siyosiy tuzilmaki, uning missiyasi o‘z hududida yashayotgan barcha millatlar, elatlar va etnik guruhlar o‘rtasida; shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida tinchlik, xavfsizlik va hamkorlikni ta’minlashdan, himoya qilishdan iborat. Shu ma’noda olganda, mamlakatimizda oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir. Bu – bejis emas, albatta. Bu – kelajakka kapital. Mamlakatimizda onalik – shraf, otalik – shrafdir. Yurtimizda to‘rttala komponent ham – oila, onalik, otalik va bolalik – qadriyatdir.

Ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog‘lig‘ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko‘rish, mehnatni onalik bilan bog‘lab qo‘sib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan ta’milanadi. Mehnat qonunchiligidagi bu hol yaqqol seziladi. Xususan, Mehnat kodeksiga ko‘ra, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish, mehnat sharoiti noqulay ishlarda, shuningdek yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo‘llash taqiqlanadi. Ayollarning ular uchun mumkin bo‘lgan normadan ortiq yukni ko‘tarishlari va tashishlari man etiladi. Homilador ayollarni va o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolasi (o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligesiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ayni paytda ayollarga onalik bilan bog‘liq holda beriladigan yuqoridaq kafolatlar va imtiyozlar onasiz bolalarni tarbiyalayotgan otalarga, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning vasiylariga (homiyalariga) ham tatbiq etiladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog‘lig‘i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan mehnat sharoiti noqulay ishlarda, yer osti ishlarida va

boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga – o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga – yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi. Odatdagi tartibga ko'ra, "xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas"ligi belgilangan.

Oilani himoya qilish borasida eng so'nggi pallada Oila kodeksida aks etgan "Ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish"ga bag'ishlangan 41-moddani eslash o'rinnlidir. Qonun chiqaruvchi "ko'p bolali oila"ning mezonini ko'rsatib berdi. Ya'ni, to'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila ko'p bolali oiladir. Bunda, agar to'rt nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko'prog'i ta'limning kunduzgi shaklida (o'rta maxsus va professional, oliy ta'lim) ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to'lmagan bo'lsa, bu oila ham ko'p bolali oila deb hisoblanadi. Davlat ko'p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta'minlaydi.

Nikohdan o'tishda tenglik va ixtiyoriylik. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"da ham tegishli qaydlar bor.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqlidir. Nikoh tomonlarning, ya'ni erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqidir. Aldov, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan har qanday bitim, shu jumladan huquqiy munosabatlar haqiqiy sanalmaydi. Tenglik huquqlarda – tenglik, tenglik majburiyatlarda – tenglikdir.

Bu er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarda tengligiga, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishiga, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligiga ishoradir. Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar.

Umuman, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい hamda boshqa holatlarga

qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga, ya’ni muomala layoqatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Bu holatda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasi kuchga kiradi (bu haqda keyinroq).

Yakka nikohlik (monogamiya). Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Oila kodeksining 13-moddasida qayd etilgan nikoh so‘zining birlikda kelishidan ko‘rinadiki, qonun chiqaruvchi mamlakatimizda bu borada yakka nikohni, ayni paytda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilgan nikohni tan olishini bayon etmoqda.

Shuningdek, oila erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, degan qoidadan ham buni anglab olish qiyin emas.

Oila to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalaridan biri – nikoh tuzish shartlari va tartibini belgilaydi.

Er-xotinlik, er-xotin o‘rtasida huquq va majburiyatları vujudga kelishining asosi – nikohdir. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e’tiboran ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi.

Qayd etilgan ushbu qoidalarning barchasida, hech bir istisnosiz, so‘z birlikda, binobarin, yakka nikohlik (monogamiya) xususida ketmoqda.

Oila qonunchiligiga asosan loaqlal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi (OK 16-m.).

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarida belgilanishicha, qonun nikohlanuvchi shaxslardan hatto bittasi ilgari qayd etilgan nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishini taqiqlashi sababli arizani qabul qilish vaqtida FHDYO organi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘yicha arizachilarning qonuniy nikohda turish-turmasligini tekshirib ko‘rishi kerak. Qoida tariqasida, ilgari nikohda bo‘lgan shaxs FHDYO organiga avvalgi nikohi bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi kerak. Bu – nikohning bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma (nikohdan ajralganlik haqidagi ma’lumotnoma) yoki sud qarori, arning (xotinning) o‘limi haqidagi guvohnoma (o‘lim haqidagi ma’lumotnoma) va uning vafot etgan shaxs bilan tuzilgan nikohi haqidagi

ma'lumotnoma yoxud sudning nikoh haqiqiy emas deb topilganligi haqidagi qarori bo'lishi mumkin.

Oilada bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash. Bir so'z bilan aytganda, bu yurt farzandlari ajdodlariga munosib vorislari bo'lishi shart! O'z yurtini, ona tuprog'ini sevishi, yurt ozodligi va obodligiga xizmat qilishi, asrashi, muhofaza qilishi shart! Bular, albatta, o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, bolalarning ota-onalari shaxsiy namuna bo'lmoglari lozim.

O'zbekiston – bolajon xalq. Hamma narsa qiyosda, taqqosda kaftdek yaqqol ko'rindi, namoyon bo'ladi. Gapning lo'ndasini aytganda, bunday yurtda tug'ilishning o'zi bir baxt, unda yashash, uning husniga-husn, ko'rkiga-ko'rk qo'shish, buniyodkorlik, yangilikka, yaxshilikka intilib yashash to'liq baxtdir. Bugun o'sib kelayotgan yosh matematiklarimiz, ximiklarimiz, fiziklarimiz, tilchilarimiz, kompyuter dasturchilarimiz, sportchilarimiz, ijodkorlarimiz haqiqatda ertangi kunimizga ishonch hislarini uyg'otadi, munosib o'rribbosarlarimiz o'sib kelayotganiga amin bo'lamiz.

Bugun biz yoshlarimiz, bolalarimiz haqida ko'p va xo'p gapiryapmiz. Mamlakat nufusining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil qiladi. Ular haqida qayg'uryapmiz. Ularga munosib tur mush sharoitlari yaratib berishga harakat qilyapmiz. Mustaqillikning o'tgan yillari davomida, xususan, 2000-yilni – Sog'lom avlod yili, 2001-yilni – Onalar va bolalar yili, 2008-yilni – Yoshlar yili, 2010-yilni – Barkamol avlod yili, 2014-yilni – Sog'lom bola yili, 2016-yilni – Sog'lom ona va bola yili, 2021-yilni – Yoshlarini qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb ataganimiz ham bejiz emas, albatta. Har qaysi yilga nom berishdan asosiy maqsad – butun xalqimiz, jamiyatimizning orzu-niyat va intilishlarini ifoda etadigan, ertangi kunimizning ravnaqiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo'nalishni aniq belgilab olish va uni amalga oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iborat bo'lmoida.

Bolalar bizning ertamiz, o'rribbosarlarimiz, yanayam keng planda aytganda, merosxo'rlarimizdir. Darhaqiqat, ularga o'zimizdan nima qoldirib ketyapmiz? Ular hayot deb atalmish o'choqning shturvalini muvaffaqiyatli boshqara oladigan darajadami? Ollohning eng buyuk ne'mati hayot, umrguzaronlik va insonlik mahsuli bu farzandlarimiz, bolalarimizdir. Biz ularga o'rnak, shaxsiy namuna bo'lolyapmizmi? Ularga bugungi talato'p, tirikchilik vaji, to'ylar-u – ma'raka-majlislar kun tartibidan uzluksiz tushmayotgan bir paytda vaqt ajratolyapmizmi?

Ajratolsak, bir kunda, bir oyda, bir yilda qancha ajratyapmiz? Tahsilgohida fizika fanidan oxirgi marta nima mavzu o‘tgani, samolyot nima hisobiga yerdan uzilishiyu, samoga nimaning hisobiga ko‘tarilishi, nima uchun  $\pi$  o‘zgarmas irratsional son ekanligi, erkin tushish tezlanishi nima uchun 9,8 m/s<sup>2</sup> ekani xususida, dunyo siyosiy xaritasida yangi tashkil topayotgan davlatlar haqida, Navoiy hazratlarining betakror “Orazin yopqoch, ko‘zumdin sochilur har lahma yosh, Bo‘ylakim, paydo bo‘lur, yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh” misralarini birgalashib aytib, uning mazmuni borasida dilbar suhbatlar qura olyapmizmi? Juda bo‘lmasa, dasturxon atrofida jamuljam bo‘lib, birga taomlana olyapmizmi? Ayniqsa, virtual dunyo tobora o‘z domiga tortayotgan bugungi kunda? Tan olaylik, telefonomaniya, internetomaniya, serialomaniya kabi sotsial kasalliklar tanimizga, ruhimizga yopishib bo‘ldi. Yana bir jiddiy holat – kattalardagi kabi hasad, takabburlik, man-manlik, yulduzlik, yot mafkuralar, “ommaviy madaniyat” unsurlari yoshlarimizni ham ohanrabodek o‘ziga tortmayaptimi? Ota-onaga, ustozlarga tik boqishlar, ular bilan o‘zini “haqman” deb da’volashishlar yo‘qmi? Tatuaj, gotlar, bir jinsli nikoh kabi jirkanch holatlar ham bizga, bizning qavmga emas. Bu balolardan bolalarimizni asrashimiz, ehtiyot qilishimiz lozim. Bizdagi tarbiya, Konstitutsiyamizning muqaddimasida belgilanganidek, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Aynan o‘sha yerda yana bir ajoyib mezонни o‘zимизга belgilab olganimiz: hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglash. Ha, bu jihatlarning hammasi har bir kishini bolalarga mehr ko‘zi bilan qarashga undaydi. Ana shu ma’noda yosh avlodni hayotga qat’iy e’tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, millatimiz va xalqimizga mansub bo‘lgan bag‘rikenglik va olijanoblik fazilatlarini shakllantirish bosh vazifamizdir.

Shu Vatanda yashash, shu yurtda ishlash, uning bir bo‘lagi bo‘lish, uning obro‘yiga obro‘ qo‘sish bu – faxr-iftixor, bu – mas’uliyat, bu – shukrdandir. Yangilikka, yaxshilikka intilib yashashni, islohotlarning yonida va atrofida emas, balki voqealar rivojining bevosita markazida bo‘lish, vatanparvarlik hissini, eng so‘nggi yangiliklardan boxabarlikni, qarorlar qabul qilishda mustaqillikni, insoniylik va kasbiy e’tiqod bo‘lishi shartligini, kim bo‘lmaylik, qayerda bo‘lmaylik, “men – o‘zbekistonlikman” (from in Uzbekistan) deya, halollik, mas’uliyat va kompetentlikda yashashni, hayot kurashlardan iboratligini, kim edigu, kim bo‘ldik? – degan savolni mudom eslab turishimizni, so‘z va amal birligiga

erishishni – davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Milliy tarbiyada ustoz-shogirdlik an’anasi davom etishi kerak. Ayniqsa, boshqa kasb-kor, mutaxassislik egalarini zarracha kamsitmagan holda, yurist ustoz-shogirdlik. Yurist, kerak bo‘lsa, fizik, geograf, hisobchi, tilchi, sportchi, aktyor; kerak bo‘lsa, yosh, keksa; kerak bo‘lsa, oq, qora, qora-ola bo‘lishi lozim. Zero, u o‘z faoliyati davrida turfa odamlarga duch keladi. Qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lida, kerak bo‘lsa – D.Karnegi, kerak bo‘lsa – imom G‘azzoliydan, kerak bo‘lsa – Rokfellerdan, kerak bo‘lsa – Peledan, kerak bo‘lsa – Nyutondan, kerak bo‘lsa – M.Tetcherdan misol-masala keltirishiga to‘g‘ri keladi. Bir so‘z bilan aytganda, harbiy bilan – harbiychasiga, yoshulli bilan – yoshullichasiga, qishloq yigiti bilan – qishloqchasiga so‘zlashmog‘ining o‘zi natijaning muayyan qismi bo‘lib qolishi mumkin. Eng muhimi, uddalashi kerakki, chiqargan qarori (hukmi, hal qiluv qarori) – qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi shart va lozim...

### **Oila huquqi manbalari.**

Yuqorida qayd etganimizdek, xalqaro miqyosda 1994-yildan boshlab 15 may kuni – “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlanmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (Nyu-York, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1948-yil 10-dekabr, 16-modda)da “Balog‘at yoshiga yetgan erkak va ayollar – irqi, millati va diniy belgilari bo‘yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o‘tish va oila qurishga haqlidirlar. Ular nikohdan o‘tishda, nikohda bo‘lgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadilar”, deb belgilangan. Ushbu qoida davlatlar milliy qonunchiligidagi o‘z aksini topdi. Shu jumladan, mamlakatimiz milliy qonunchiligidagi ham.

Huquq manbalari xususida gap ketganda, avvalo shuni aytish kerakki, huquq manbalari, inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga asoslangan, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilgan, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, xalqning erk-irodasini qonun darajasida ifodalagan normalarga tayanadi.

Ayni shu yo‘sinda milliy qonunchilik shakllanib bormoqda. O‘tgan yillar mobaynida qonun normalarini yaratish borasida, qonunchilik texnikasi borasida o‘ziga xos metodologiya yaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmashdi. Barcha qonunlarimizda, ayniqsa, O‘zbekiston qo‘shilgan va qo‘shilayotgan xalqaro huquq normalarida milliy manfaatlar ustuvorligiga urg‘u berilmoqda. Eng muhimi, mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Zero, yurtimizda davlat deb atalmish ijtimoiy-siyosiy tuzilma

o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Shu ma’noda birlamchi manba – bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Konstitutsianing normalari Oila huquqi uchun bevosita va bilvosita taalluqlidir. “Oila”ga bag‘ishlangan XIV bobi (63–66-moddalar), 13-modda – Oila huquqi uchun bevosita manbadir. Zero, ushbu normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy munosabatlarni tartibga soladi.

Konstitutsianing 18-moddasi (O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar), 20-moddasi (Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart), 24-moddasi (Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir), 25-moddasi (Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas) – bilvosita manbalar sirasiga kiradi.

Konstitutsiya normalari – aniqlovchidir. Qolgan qonunlar – to‘ldiruvchidir. Masalan, Asosiy qonunning qayd etilgan “Oila”ga bag‘ishlangan XIV bobi Oila huquqi uchun o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi”dir. Unda aks etgan 4 ta modda kelgusida butun Oila kodeksi normalarining “xamirturishi” desak, mubolag‘a bo‘lmasdi. Avvaldan shuni aytish mumkinki, bиргина 63-moddada qayd etilgan “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”, - degan qoida oilaviy-huquqiy normalarning negizini tashkil etgan.

Oila kodeksi – Oila huquqining maxsus manbai. Oila kodeksi mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilingan 1998-yilda qabul qilinib, kuchga kirgandi. Kodeksning 1-moddasida normalanganidek, “Oila to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sinqiliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir”.

Muhimi, qonun oilani muhofaza qiladi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir, onalik

va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir. Oila kodeksi oila huquqining prinsiplarini mustahkamlaydi.

Shunisi ham borki, qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lмаган taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoyillariga zid bo‘lмаган mahalliy urf-odat va an’analar qo‘llaniladi. Bu – bizning ko‘p asrlik shakllangan mental bilan bog‘liq munosabatlar (bolajonlik, sovchilik, qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik, siylai rahm, nikoh va oilaning muqaddasligi, binobarin, otaning oiladagi alohida o‘rni, o‘zaro tushunish, tavoze)dir. Bu – shaharga xos urf-odatlar, bu – qishloqqa xos urf-odatlar, bu – vodiya xos urf-odatlar, bu – vohaga xos urf-odatlardir. Ustoz F.M.Otaxo‘jayev, SH.R.Yuldashevlar aytmoqchi, ayniqsa, o‘zbek oilasi serfarzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oilaga sharqona, o‘zbekona sodiqlik, o‘tgan yetti pushtini bilish, ota-on, qarindosh urug‘, keksalarga hurmat, yoshlarga mehribonlik, oila a’zolari, er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi uning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Oilalar juda katta bo‘lib, jamoa asosida yashab kelganlar, binobarin, korporativ ruh ustundir. O‘zbek oilasi or-nomusli, kuchli oiladir. Shuning uchun u o‘zining milliy qiyofasini yo‘qotmagan holda butun oilaning sha’ni, obro‘sini saqlash uchun mas’uliyat bilan ish tutadi. Er oila posboni, uning boquvchisi hisoblansa, xotin esa uning ko‘rki, fayzi barokatidir. Ularning umr gulshanlari qobil farzandlaridir. O‘zbek oilasida, shuningdek Islom dini va uning arkonlarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Islom dinidan tashqari boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi olimlarning e’tirof etishicha, dunyoda eng mustahkam oila bu islom diniga e’tiqod qiluvchilarning oilasidir. Islom yakkalikni, bevalikni yoqtirmas. Bu ham o‘z yo‘lida biz bilib-bilmagan bir donolik va donishmandlikdir (Oila va jamiyat. 1997-yil. 39-son).

Qonun Oila kodeksi bilan belgilangan hollardan tashqari, oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da’vo muddati joriy qilinmasligini belgiladi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarga nikoh shartnomasi tushunchasini olib kirdi. Qonunga ko‘ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasidir.

Oila kodeksi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga soldi, O‘zbekiston Respublikasi

hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e’tirof etish tartibi va talablari belgilandi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o‘scha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida tuzilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikohlarda Oila kodeksining 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

Joriy qonunlar – oila huquqining manbai sifatida. Xususan, vasiylik va homiylik munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-son qonuni bilan tartibga solinadi. Muqaddam ushbu munosabatlar hukumat hujjati – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-son qarori tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi nizom asosida tartibga solib kelinar edi. Sohaviy qonun qabul qilinishi va kuchga kirishi munosabati bilan ushbu hujjat o‘z kuchini yo‘qotib, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bugun ushbu hujjatlar amaldadir. Nomi qayd etilgan “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunga ko‘ra, vasiylik va homiylik organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash va hisobga olish; vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning zarur hujjatlarini tayyorlash va ularni joylashtirish; vasiylikdagi yoki homiylikdagi hamda vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; vasiylar va homiylarning majburiyatlarini bajarilishini, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning ta’minti, ularga tarbiya va ta’lim berish sharoitlarini, shuningdek mol-mulki but saqlanishini ta’minlash ustidan nazorat qilish.

Qonun osti hujjatlari – oila huquqining manbai sifatida. Ulardan biri – Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalaridir. Qoidalar hukumat hujjati bo‘lib, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) va O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlari tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

FHDYO organlari yozuvlarni tuzish orqali quyidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi: tug‘ilganlik; nikoh tuzish; nikohdan ajralish; o‘lim.

Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari davlat ahamiyatiga molik hujjatlar hisoblanadi, ikki nusxada tuziladi va FHDYO organlarida qayd etilgan vaqtdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

O‘z navbatida, farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish, jinsni o‘zgartirish kabi voqe va faktlar yuqorida sanab o‘tilgan fuqarolik holatlari dalolatnomalarida ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali aks ettiriladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida oila huquqi normalarining qo‘llanishi. Oila huquqi normalarini qo‘llash xususida to‘xtalib, shuni aytish lozimki,

birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organ, xususan, ichki ishlar organi xodimidan chuqur bilim, malaka va tajriba talab etadi. Aslida xodimdan yuksak professionalizm talab etiladi. Zero, huquq normalari ham hayotiy munosabatlardagi kabi qotib qolgan, dogma norma emas.

Ikkinchidan, xodimdan ijtimoiy munosabatlар chuqurlashuvi bilan qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalardan boxabar bo‘lish, uni qo‘llay bilish ko‘nikmasi va amaliyotiga ega bo‘lishni talab etadi.

Uchinchidan, huquqni qo‘llash jarayonida bir voqelikni, bir ijtimoiy munosabatni turlicha talqin etish, turlicha sharhlash mumkin emas.

To‘rtinchidan, xodimdan “oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘ymaslik”dan iboratdek prinsipga rioya etishi talab etiladi. Ya’ni, huquq normasini tatbiq etishda xodim shaxslarga uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, reytingi tufayli u yoki bu tarzda imtiyoz, afzallik berishga haqli emas.

Beshinchidan, o‘z hududi yoki xizmat vazifasi taqozosi tufayli aholi bilan bo‘ladigan, muayyan oilalar, muayyan ijtimoiy guruhlar (xususan, “Ayollar daftari”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, uyushmagan yoshlar guruhlari kabi) bilan bo‘ladigan muloqotlarda yuksak ichki madaniyat bilan, xizmat vazifasi taqozo etadigan darajada munosabatda bo‘lish muhim.

Oltinchidan, muhimi, xodimning chiqaradigan qarori – qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi shart.

Mamlakatimiz Prezidenti o‘z vaqtida bu xususida to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Biz har qaysi huquqni muhofaza qilish organi bevosita o‘z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takror etmaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo‘nda qilib aytganda,

ichki ishlar – jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan, milliy xavfsizlik – davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan shug‘ullanishi lozim. Prokuratura esa qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur. Sudlarning asosiy vazifasiadolatni qaror toptirishdan iborat”.

Muhimi, faoliyatning asosiy prinsiplari qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga riosa etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflikka tayanishi talab etiladi.

Ichki ishlar organi xodimi lavozimiga ko‘ra, mansabdor shaxs – davlat xizmatchisi sanaladi. Asosiy qonun – Konstitutsiya talabiga ko‘ra, “davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldir”. Darhaqiqat, mamlakatimizda davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda, xalqni rozi qilish – asosiy vazifamizdir.

## **2-§. Milliy qonunchilik bo‘yicha nikoh. Nikohni qayd etish va bekor qilish holatlari. Nikohni haqiqiy emas deb topish**

Nikoh azal-azaldan erkak va ayolning o‘zaro birgalikda yashash va oila qurishiga qaratilgan ittifoqi sifatida qarab kelingan.

Nikoh – o‘zaro muhabbat va hurmatga, o‘zaro yordam va bir-birining oldida javobgarlikka asoslangan erkak va ayolning ittifoqidir. Nikoh tuzish natijasida oila vujudga keladi, erkak va ayol ushbu lahzalardan boshlab – er-xotin maqomiga ega bo‘ladi. Oila kodeksining “Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi” deb nomlangan 18-moddasi tilida aytganda: Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalari (hujjatlari)ni qayd etish organlarida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e’tiboran ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi.

Nikoh ahdi insonlarga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Oilada arning ham, ayolning ham o‘z vazifalari bor, ulardan har biri o‘z vazifasini to‘la ado etishga mas’uldir. Nikoh tufayli ota-onan o‘zidan so‘ng zurriyot qoldirib, inson nasli davom etishiga sabab bo‘ladi. Nikoh – oila ibtidosi, qon-qarindoshlikning boshlanishidir. Er-xotin vorislik munosabatlarida bir-biriga nisbatan qonun bo‘yicha birinchi navbatdagi merosxo‘rga aylanadi. Nikohga kirishish natijasida quda-andachilik munosabatlari ham yuzaga keladi.

Ammo er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik) o‘zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Mamlakat Konstitutsiyasiga asosan “oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”.

**Nikoh tuzish tartibi.** Amaldagi oila qonunchiligiga ko‘ra, davlat faqatgina FHDYO organlarida ro‘yxatdan o‘tgan nikohni tan oladi. Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi FHDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Mazkur organlarda nikohni tuzish tartibi quyidagi asosiy qoidalarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- nikoh faqat nikohga kirishuvchilarning shaxsan ishtirokida tuziladi, ya’ni nikohga kirish uchun ariza erkak yoki ayol tomonidan bevosita yoziladi va imzolanadi;

- nikohga kirishuvchi shaxslarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ariza topshirgan kundan bir oy o‘tgach, ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu o‘rinda bir oylik muddat oqilona muddat sifatida ko‘riladi;

- nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi binosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu holat nikoh tuzuvchi tomonlar davlat va jamiyatning e’tiborida ekaniga ishora bo‘lib, nikoh FHDYO xodimlari tomonidan nikoh uylarida, to‘yxonalarda tantanali ravishda o‘tkazilishi mumkinligini ham bildiradi. Tantanali o‘tkazish, ishtirokchilarning guvohligi tomonlarga o‘ziga xos jiddiy mas’uliyat yuklaydi;

- nikohning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi xususidagi yozuv er-xotinning pasportiga kiritiladi. Darhaqiqat, nikoh shaxs hayoti voqeligida yuz beradigan o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, u davlat tomonidan albatta qayd etilishi lozim bo‘lgan to‘rtta holat (yuridik fakt)dan biridir. Pasport inson shaxsini tasdiqlovchi birlamchi hujjat bo‘lganidan bu holatning unda qayd etilishi tabiiydir.

Nikoh tuzilganligi qayd etilganidan keyin nikoh tuzilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Nikoh tuzish shartlari. Mamlakatimizda nikohning mohiyati va maqsadiga ko‘ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning axloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan

holda tuzish zarurligi belgilangan. Bu talablar nikohdan o'tish shartlari deb yuritiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuziladi. Nikohga kirishayotgan shaxs uni erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik haqiqiy bo'lishi, u qo'rqtish, zo'rlash, aldash orqali yoki nikohlanuvchilarning biri yoxud har ikkisiga ruhan ta'sir qilish yo'li bilan tuzilishi taqiqlanadi. Bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etishi hamda nikoh tuzishga majbur qilishni taqiqlash kabi qoidalarning kiritilishi oilani mustah-kamlashga qaratilgan huquqiy me'yordir. Nikohlanuvchi shaxslarning o'zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o'zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari oila qonunchiligidagi belgilangan. Shuningdek, kelajakda ularning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari himoyasini oilaviy-huquqiy normalar bilan mustahkamlaydigan, vijdon va qalb amri bilan nikoh munosabatlariga kirishib, er-xotinlik munosabatida yashashlari tushuniladi.

Nikoh tuzish ixtiyoriyligining buzilishi va bu harakatlarda taraflarning aybdor bo'lishi aniqlansa, sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasini qo'llashga haqlidir.

Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek ayolni erga tegishiga to'sqinlik qilish, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmis soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (JK 136-m.).

Nikoh tuzishning navbatdagi sharti – bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan nikoh yoshiga yetishlaridir.

Nikoh yoshi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, Buyuk Britaniya: – 18 yosh, Germaniya: – 18 yosh, Fransiya: – 18 yosh, Shimoliy Koreya: erkaklar – 18 yosh, ayollar – 17 yosh.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan. Bu yosh ayni vaqtida mamlakatimizda to'la muomala layoqati yoshi ham sanaladi.

Shuningdek, qonunchilikda "uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan

joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin”ligi belgilangan.

Demak, nikoh yoshining qisqartirilishi tufayli oila qurgan er-xotin to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lgan hisoblanib, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan holatlarda ishlarda tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Qonunda nikoh yoshining erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanishi bu fuqaroning nikoh tuzish uchun bo‘lgan huquqining paydo bo‘lishini bildiradi.

Shuni eslatish lozimki, nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishga nisbatan ma’muriy va jinoiy javobgarlik mavjud.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda:

47<sup>3</sup>-modda. Nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish, –

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ota-oni yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish, –

bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish, –

bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jinoyat kodeksida:

125<sup>1</sup>-modda. Nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ota-oni yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmis soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

**Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.** Oila kodeksida oilaning yanada mustahkam va barqaror bo'lishi, kelajak naslni sog'lom dunyoga kelishi uchun muhim omil sifatida 17-modda kiritilgan bo'lib, u nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishga bag'ishlangan.

Yuqorida qayd etilgan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi nizomda nikohlanuvchi shaxslar qaysi kasallik turi bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tishlari hamda tibbiy ko'rikdan o'tishning hajmi va tartibi nazarda tutilgan.

*Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hajmi quyidagichadir:*

1. Ruhiy kasalliklar (shizofreniya, epilepsiya, oligofreniya) yuzasidan tekshirish: anamnestik; psixopatologik; somatonevrologik; paraklinik.

2. Narkologik kasalliklar yuzasidan tekshirish: klinik tekshirish; anamnestik; psixopatologik; somatonevrologik; laboratoriya tekshiruvi.

3. Zaxm yuzasidan tekshirish: genitaliy doirasida yara yoki eroziya mavjud bo'lganda yoki terining boshqa joylarida zaxmdan shubhalanadigan toshmalar mavjud bo'lganda material to'plash; pretsipitatsiya mikroreaksiyasi usuli bilan zaxm yuzasidan qonni tekshirish; qonni serologik tekshirish.

4. Sil yuzasidan tekshirish: anamnez; ko'krak qafasi organlarini tekshirish; ko'krak qafasi organlarining rentgenoskopiysi (yirik kadrli flyuorogramma); ko'krak qafasi rentgenografiysi; balg'amni, yaraning yiringini, bakteroskopiya usuli bilan siydikni sil mikrobakteriyasiga tekshirish.

5. OIV/OITS yuzasidan tekshirish: anamnez; klinik tekshirish; birlamchi immunoferment tekshirish; immunoblot usuli bilan qonni tekshirish.

Nikohlanuvchi shaxslar ellik yoshdan oshgan bo'lsa, shuningdek alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) tibbiy ko'rikdan o'z roziligi bilan o'tkaziladi.

Oila kodeksining 49-moddasiga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti tanqisligi virusi (OIV kasalligi)

borligini ikkinchisidan yashirganda, ikkinchi taraf sudga nikohni haqiqiy emas deb topish haqida talab bilan murojaat qilishga haqli.

**Nikohning tugatilishi.** Nikohning tugatilishi – ma'lum yuridik omillar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishidir.

Nikoh huquqiy munosabatiga qanday omillar ta'sir etishiga qarab nikoh:

a) er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida;

b) er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.

Vafot etish shunday yuridik faktki, inson biologik va yuridik jihatdan mavjud bo'lmaydi, binobarin, uning holi hayotlik paytidagi unga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlar ham asosan tugaydi. Shu ma'noda er-xotin o'rtasidagi nikoh munosabati ham tugaydi.

### **Nikohdan ajralishning asoslari va oqibatlari.**

Nikohdan ajralish yuqorida keltirilgan asosdan farq qilib, faqat er-xotinning hayotligida ro'y beradi.

Nikohdan ajralish uchun asoslar. Aslida jamiyatimizda nikoh bir umrga tuziladigan ahdnama hisoblanadi. Ma'lum holatlarda, agar oila amalda buzilgan, uni tiklash uchun asos yo'q deb topilsa, u ajralish asosida tugatiladi. Nikohdan ajralish er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelajak vaqt uchun tugatishga asos bo'ladi. Bunday ajralish nikohni haqiqiy emas deb topishdan farq qiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topishda nikoh vujudga kelgan vaqtdan boshlab huquqiy munosabatlar tugallanadi. Biroq nikohdan ajralish bilan hamma huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan shartlarning mavjudligi tufayli tugallanmaydi.

Oila kodeksida nikohdan ajralish uchun aniq asoslar ko'rsatilmagan va buni ko'rsatish mumkin ham emas. Chunki er yoki xotin keltirgan bir asos ayrim hollarda nikohdan ajratish uchun yetarli bo'lishi mumkin, alohida holatlarda esa ajratish uchun asos bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun sud amaliyotini hisobga olib, qonun hayotiy bo'lgan qoidani saqlab qolib, uni quyidagicha belgilaydi: "Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi".

*Sud amaliyotini o'rghanish natijasida nikohdan ajralish uchun er-xotinlar quyidagi asoslarni keltirganliklari aniqlandi:*

- er-xotindan bittasining doimiy ravishda spirtli ichimlik ichib, oilada janjal chiqarishi;
- er-xotinlik munosabatiga xiyonat qilish;
- farzandsizlik;
- oilaviy ishlarga qarindoshlarning aralashib janjal chiqarishi (ayniqsa, qaynona-kelin mojarolari).

*Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va oqibatlari.*

Oila qonunchiligidagi yuqorida qayd etilgan shartlarning buzilishi sud tomonidan ushbu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin. Oila kodeksining 49-moddasiga ko‘ra, qonunda belgilangan shartlar buzilganda (ya’ni, nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, belgilangan nikoh yoshi buzilganda, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ro‘y berganda), soxta nikoh tuzilganda, ya’ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko‘zlamay nikoh qayd qildirganda, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa nikohni haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, nikoh quyidagi holatlar bo‘yicha ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- a) yakka nikohlilik buzilganda;
  - b) nikoh nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida tuzilgan bo‘lsa;
  - v) nikoh farzandlikka olgan shaxs bilan – farzandlikka olingan shaxslar o‘rtasida tuzilganda;
  - g) nikohga o‘tish vaqtida oila qurish maqsadi soxta bo‘lsa (deylik, doimiy ro‘yxatdan o‘tish (propiska) uchun, ikkinchi tomonning mol-mulki, boyligiga sherik bo‘lish ilinjida);
  - d) nikoh muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilganda.
- A) Nikoh tuzish ixtiyoriyligining buzilishi oqibatlari.

Nikoh uni tuzuvchi har bir tomonning erkin, o‘zaro roziligi asosida tuzilishi lozim. Rozilik boshqa shaxs (ota-onas, qon-qarindosh, mansabdor shaxs)larni majbur etishi yoki aldashi oqibatida berilgan bo‘lsa, ixtiyoriylik tamoyili buzilgani uchun, bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, nikoh tuzishda nikohga kiruvchilarning o‘zaro roziligi yo‘qligi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi. Bunda fuqaro (ko‘pincha ayollar) qo‘rqtish yoki zo‘rlash

(majburlash), aldash tufayli nikohdan o‘tgan bo‘ladi. Masalan, shaxsning erkiga va ongiga ta’sir etish natijasida u nikohga o‘tishga majbur bo‘ladi, ammo haqiqatda esa u buni mutlaqo xohlamaydi. Natijada nikoh tuzilishining asosi hisoblangan o‘zaro xohish va rozilik tamoyili buzilgan bo‘ladi. Ko‘rsatilgan asos bo‘yicha bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

B) Nikoh yoshiga qo‘yilgan shartning buzilishi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko‘rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo‘lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh yoshiga to‘limgan shaxs bilan tuzilgan nikoh hamma vaqt ham sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilmaydi. Hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollardagina sud bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishi mumkin.

V) Yakka nikohlilikning buzilishi.

Mamlakatlar o‘rtasida migratsiya jarayoni kuchaygan hozirda kishilar o‘z yurtidagi rasmiy nikohdan ajralmasdan, boshqa davlatlarda rasmiy nikoh tuzish holatlari uchramoqda. Bunday holatlar sudlarga taraflarning maqsadi va amaldagi holatlarni hisobga olishda o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Yakka nikohlilikning buzilishi ham ushbu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Ba’zi hollarda qo‘sh nikohdan qaysi birini haqiqiy emas deb topish haqidagi masala sud tomonidan chuqur o‘rganishni talab etadi. Bunda sud taraflarning niyat-xohishini, amaldagi faktik oilaviy munosabatlarni hisobga olishi lozim.

Yakka nikohlilik tamoyili buzib tuzilgan nikohni haqiqiy emas, deb topish to‘g‘risidagi ariza birinchi nikohdan ajratilmagan er yoki xotin, shuningdek, ikkinchi nikohdagi tomonlardan birining talabiga asosan ko‘rib chiqiladi. Haqiqiy bo‘limgan nikohda bo‘lgan shaxsning o‘limidan so‘ng sudga da’vo bilan mazkur shaxsning vorislari (vafot etganning

birinchi nikohdagi farzandlari, uning aka-ukalari, opa-singillari, otonalari va boshqalar), shuningdek, o'lgan shaxsning nikohini haqiqiy emas, deb topishdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar (moliya, ijtimoiy ta'minot organlari) murojaat etishi mumkin. Chunki nikohda bo'lgan shaxs, agar u haqiqiy nikohda bo'lsa, o'ziga pensiya tayinlashni yoki ujoyga bo'lgan huquqini belgilashni talab qilishi mumkin.

G) Nasl-nasab shajarasini bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida tuzilgan nikohlar.

Bundayin nikohlar ham haqiqiy emas deb topiladi. Oila qonunchiligi bilan man etilgan yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilsa, u haqiqiy emas deb topiladi. Bunday asos bilan nikohni haqiqiy emas deb topish sud amaliyatida juda kam uchraydi. Buni tasdiqlaydigan holat qonunda nikoh tuzish uchun juda cheklangan qarindoshlik bosqichini belgilaydi. Umuman har xil bosqichdagi quda-andachilik esa nikoh tuzish uchun to'siq bo'lmaydi.

D) Muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikoh.

Bunday nikoh ham haqiqiy emas deb topiladi. Ruhiy kasallik yoxud aqli zaiflik kishini ongli harakatlar qilish va o'z harakatlarining yuridik oqibatlarini anglab yetish qobiliyatini buzishi mumkin.

Muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsan o'zi fuqarolik muomalasida bitimlar tuzishga haqli emas. Uning nomidan bitimlarni uning vasiyi tuzadi. Demak, muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi. Vasiy esa vasiyligi ostidagi shaxs manfaatini ko'zlab uning nomidan nikoh tuzishga haqli emas.

YE) Nikohdan o'tish vaqtida oila qurish maqsadining bo'lmasligi (soxta nikoh).

Bundayin nikoh haqiqiy bo'lмаган nikoh deb topiladi. Er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi, soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli ekanligi, er (xotin) oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Nikohni haqiqiy emas deb hisoblash vaqt. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari. Haqiqiy emas deb topilgan nikohda – er-xotin uchun oila qonunchiligidagi belgilangan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

### **3-§. Ichki ishlar organlarining oiladagi ba’zi nizoli vaziyatlardagi ishtiroki. Ichki ishlar organlari sektoridagi faoliyat. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”da belgilangan vazifalarni amalgaloshirish**

Sohaviy qonun talabiga ko‘ra, IIOning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

IIO faoliyatida vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar (qolgan yo‘nalishlarni ham istisno etmagan holda) oila huquqi normalarini qo‘llash bilan uzviy bog‘liqdir:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash;
- huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish qoidalariга rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalgaloshirish;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;
- harbiy-safarbarlik ishlarni va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalgaloshirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.

Jamoat tartibini saqlash barobarida ichki ishlar organi xodimining oiladagi ba’zi nizoli vaziyatlardagi ishtiroki faqat qonun bilan belgilangan vakolat doirasida bo‘lishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagи “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son qonuni talablariga rioya etishi lozim.

Mamlakatda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektor kesimi amal qilayotganidan xabaringiz bor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagи “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qaroriga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlarini tegishlichcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlarga bo‘lish; sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini yechish yuzasidan javobgarlik yuklash hamda vakolatlar berish nazarda tutildi .

Quyidagilar sektorlar rahbarlarining asosiy vazifalari etib belgilandi:

*birinchidan*, uy-joy kommunal va yo‘l xo‘jaligi, energiya, suv va issiqlik ta’mnoti, transport qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari (ko‘p kvartirali uylar – *mualliflar*)ni shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash hamda hal etish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

*ikkinchidan*, ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, iste’mol bozorida narxlarning barqarorligi, ijtimoiy soha obyektlari, eng avvalo, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

*uchinchidan*, hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish, shu jumladan, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, qurilishi tugallanmagan obyektlardan, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish va yer maydonlaridan oqilona foydalanish, mahalliy budgetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordam ko‘rsatish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

*to‘rtinchidan*, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo‘jaliklariga ko‘maklashish bo‘yicha choralar ko‘rish;

*beshinchidan*, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlikda huquqbazarliklarni, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida profilaktika qilish hamda ularni barvaqt oldini olish bo‘yicha ta’sirchan

ishlarni tashkil etish, hududlarning kriminogen vaziyatidan kelib chiqib, jinoyat sodir etilmagan mahallalarning ijobiy tajribasini ommalashtirish.

Shunga ko‘ra, sektorlar ishi “mahalla – tuman (shahar) – viloyat – respublika” tamoyiliga ko‘ra amalga oshirilmoqda.

Sektor kesimida ichki ishlar organi oilalar bilan uyma-uy yurish orqali, eng avvalo, quyidagi yo‘nalishlarda ish olib boradi:

– aholini ijtimoiy himoya qilish, shu jumladan, nogiron va muhtoj oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish;

– tadbirdorlikni rivojlantirish, investitsiyalar jalgan etish;

– tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanish;

– meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, va boshqa qishloq xo‘jaligi faoliyati turlarini rivojlantirish;

– aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish;

– huquqbazarliklarni, shu jumladan, voyaga yetmaganlar va yoshlari o‘rtasida barvaqt oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha choralar nazarda tutish.

Sektor rahbarlari va a’zolari ish vaqtining uchdan ikki qismidan kam bo‘lmagan davrini joylarda ishlarning haqqoniy holatini, shu jumladan, aholi bilan muloqot qilish hamda uyma-uy yurish yo‘li bilan o‘rganishga ajratadilar. Bunda sektorlar rahbarlari va a’zolari bir chorak mobaynida o‘zlariga biriktirilgan hududning barcha joylarida uyma-uy, shu jumladan, uy xo‘jaliklari va boshqa obyektlar bo‘ylab yurishni amalga oshirilishini ta’minlashlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagisi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hukumatning 2017-yil 19-sentabrdagi 746-son qarori bilan “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini sarhisob qilishning yangi konsepsiysi” tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagisi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirotini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son qarorida xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini uyma-uy yurish orqali o‘rganish ishlarini tashkil etish, sektor rahbarlari, mahalla raislari va ularning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlarining ayollar bilan ishslash borasidagi faoliyatini samarali tashkil qilish; “Ayollar daftari”ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishslash, ijtimoiy

ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz hamda zo‘ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlash va hal qilish bo‘yicha mas’ul idora va rahbarlarning natijaga yo‘naltirilgan faoliyatini yo‘lga qo‘yish va muvofiqlashtirish; joylardagi xotin-qizlar muammolarini hal etish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqib, amalga oshirish va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida har oyda hisobot berishni yo‘lga qo‘yish; bunda muhtoj xotin-qizlarni sanatoriyalar, davolash-profilaktika muassasalarida sog‘ligini tiklash, ichki turizm uchun yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalangan holda sayohat va dam olishlarini tashkillashtirish; yuqoridagi masalalar yuzasidan muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan markaziy va mahalliy televideniyeda ko‘rsatuvalar va chiqishlarni tashkillashtirish belgilandi.

Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi – Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etildi.

Uning asosiy vazifalari sirasiga:

*birinchidan*, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish;

*ikkinchidan*, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish;

*uchinchidan*, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag‘larini belgilangan tartibda joylashtirish;

*to‘rtinchidan*, xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish.

Ushbu qatlamga manzilli yordam ko‘rsatishning yana bir yo‘nalishi – har bir hududda asosan xotin-qizlar faoliyat yuritadigan hunarmandchilik turlariga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati tajriba sifatida joriy etish boshlandi.

“Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni samarali yuritish, ishsiz fuqarolarga bandlik sohasida tizimli yordam ko‘rsatish hamda “mahallabay” tizim asosida ishlarni tashkil qilish maqsadida har bir mahallada mehnat inspektoriga “jamoatchi yordamchi”lar jalb etildi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlari ajratildi, shuningdek ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi. Tavsiyanoma berishda "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning qiz farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratish nazarda tutildi.

Bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari hisobidan o'qitish tartibi joriy etildi.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha Choratadbirlar rejasida ham ijrochilar safida to'g'ridan-to'g'ri IIO ham bo'lgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan tartibda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

- bandligini ta'minlash;
- tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish bo'yicha ko'maklashish;
- tadbirkorlikka jalb etish;
- moddiy yordam ko'rsatish;
- turar-joy ijara kompensatsiyasini to'lash;
- tibbiy xizmat ko'rsatish;
- huquqiy yordam ko'rsatish;
- psixologik yordam ko'rsatish .

Shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylaridan qaytgan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, bandligini va ta'lim olishlarini ta'minlash ham tizim zimmasidadir.

## **OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARНИ JOYLASHTIRISH VA UNDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING VAZIFALARI**

### **1-§. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: holat va oqibatlar**

Falsafaning mashhur qonuniyatiga asoslansak, har bir narsa (voqelik)da sabab va oqibat bo‘lgani singari nikoh orqali vujudga kelgan oila-huquqiy munosabatlarning samarasi, mazmuni va gultoji bo‘lgan – farzandlarga nisbatan, afsuski, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari shunchaki axloqiy, maishiy, tor munosabat bo‘lmay, balki davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masala ekanini his qilamiz. Shu ma’noda qonun chiqaruvchi ushbu munosabatni huquqiy makonga – oila qonunchiligiga ko‘chirdi. Aslida-ku, oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minalashdan iborat. Garchi, O‘zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida bo‘lsa-da, garchi O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovor bo‘lsa-da, qanchalar og‘ir va og‘riqli, salbiy va nafratli bo‘lsa ham, tan olish kerak, “ota-onalik huquqidan mahrum qilish” munosabatlari ham oila huquqining, Oila kodeksining predmetidir. Zero, ushbu munosabatlar turmushimizda, hayotimizda uchrab turibdi. Qonunchilik bunday holatlar yuzasidan ham o‘z munosabatini “bildirmasa bo‘lmaydi”. Xullas, qonun ota-onalik huquqidan mahrum qilishning beshta holati va olti oqibatini normalaydi.

Oila kodeksining 75-moddasida “ota-onalik huquqini amalga oshirish”ni normalar ekan, qonun chiqaruvchi “ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emasligini, bolalar manfaatlarini ta’minalash ota-ona g‘amxo‘rligining asosini tashkil qilishi lozim”ligini nazarda tutadi. Binobarin, “ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy

kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo‘polikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan holi bo‘lishi kerak. O‘z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-onsa qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi”. Aslidaku, “ota-onalik huquqidan mahrum qilish”ni vujudga keltiruvchi hollarning har biri, jumladan:

- ✓ ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi, shu jumladan aliment to‘lashdan bo‘yin tovashi;
- ✓ uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xhash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortishi;
- ✓ ota-onalik huquqini suiiste’mol qilishi, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo‘lishi, jumladan jismoniy kuch ishlatishi yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatishi;
- ✓ muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lishi;
- ✓ o‘z bolalarining hayoti yoki sog‘lig‘iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo‘lishi xalq tili bilan aytganda, la’natga sazovor.

Qonun, umumiylar qoidaga ko‘ra, huquq subyektlariga bir paytning o‘zida huquq beradi, ayni paytda ma’lum majburiyatlarni ham yuklaydi. Bu o‘rinda huquq subyektlari (oila-huquqiy munosabatlarda ota-onalar va farzandlar) bir-birlariga nisbatan o‘zaro huquqdir va burchdor sanaladi.

*Oqibatlar.* Shu ma’noda Oila kodeksining 81-moddasi birinchi qismidagi oqibat – ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onsa qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa, shu bolaga nisbatan bo‘lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta’midot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo‘lishini belgilaydi. Qonun chiqaruvchining bunday hukm xulosaga kelishi mutlaqo tabiiy va adolatlidir.

Qarindoshlik faktiga asoslangan huquqlar – bular o‘z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqi, undan ta’midot olish, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan bir qator huquqlardir.

Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxs (lar) bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Jumladan, bu yerda so‘z Mehnat

kodeksining 224-moddasidagi (...bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar) “...bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi”, 225-moddasidagi (Ayollar mehnatini qo‘llanish taqiqlanadigan ishlar) “mehnat sharoiti noqulay ishlarda, shuningdek yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo‘llanish taqiqlanishi...., ayollarning ular uchun mumkin bo‘lgan normadan ortiq yukni ko‘tarishlari va tashishlari man etilishi”, 228-moddasidagi (Tungi ishlarda, ish vaqtidan tashqari ishlarda, dam olish kunlaridagi ishlarda ayollar mehnatini qo‘llanishni va ularni xizmat safariga yuborishni cheklash) “...o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolasi (o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligesiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo‘l qo‘yilmasligi”, ayollarga yillik ta’tillarni berish navbatini belgilashdagi imtiyozlar (231-m.), 237-moddadagi (...bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishdagi kafolatlar) “...uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo‘l qo‘yilmasligi” kabi imtiyoz va kafolatlardan mahrum bo‘lish haqida ketmoqda. Shuningdek, bu kabi imtiyoz va kafolatlar boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagagi “Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6038-sod farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdagagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 122-sod qarori) ham uchraydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning navbatdagi oqibatini – hech bir sharh talab qilmaydigan aksioma qoidani mazkur normaning ikkinchi qismida o‘qiymiz: ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o‘z bolasiga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi. Zero, qonun bola manfaatlarini ustuvor sanaydi.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi “Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 23-sod qarori 18-bandi sud javobgarni ota-onalik huquqidan mahrum qilishda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 251, 254-moddalarining qoidalariga asoslanib, undan aliment undirish to‘g‘risidagi masalani, bunday da’vo qo‘zg‘atilgan-qo‘zg‘atilmaganligidan qat’i nazar,

birgalikda hal etishi shartligi xususida tushuntirish beradi. Ya’ni, sud bu turdag'i ishlar yuzasidan hal qiluv qarorini qabul qilayotganida dalillarga baho beradi, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan qanday holatlar aniqlangani va qandaylari aniqlanmagani, bu ish bo‘yicha qanday qonun yoki boshqa qonunchilik hujjati qo‘llanilishi kerakligini hamda arz qilingan talab qanoatlantirilishi lozimligi yoki lozim emasligini aniqlaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning navbatdagi oqibati – ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasini sud tomonidan uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinishidir. Uy-joy kodeksining 32-moddasida belgilangan qoidaga ko‘ra, uy, kvartira mulkdorining oila a’zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, agar ularni ko‘chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa hol qayd etilgan bo‘lmasa, uydagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqlidirlar. Ular mulkdor bergen turar joyga o‘zlarining voyaga yetmagan farzandlarini ko‘chirib kiritishga haqlidirlar, oilaning boshqa a’zolarini esa, uy, kvartira mulkdorining roziligi bilangina ko‘chirib kiritishlari mumkin. Bu shaxslar uy, kvartiraning mulkdori bilan oilaviy munosabatlarni tugatgan taqdirda ham ularda turar joydan foydalanish huquqi saqlanib qoladi. Uy, kvartiraning mulkdori bilan uning sobiq oila a’zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar o‘rtasida turar joydan foydalanish tartibi taraflar kelishuvi bilan belgilanadi. Qonun bu o‘rinda turar joy mulkdorining oila a’zolari deb u bilan doimiy birga yashayotgan xotini (eri) va ularning farzandlarini tan oladi. Er-xotinning ota-onasi, shuningdek mulkdor bilan doimiy yashayotgan oilali farzandlari va ularning er-xotini, agar ilgari bu huquqqa ega bo‘lmagan bo‘lsalar, faqat o‘zaro kelishuvga binoan mulkdorning oila a’zolari deb tan olinishi mumkin.

Mulkdorning voyaga yetmagan oila a’zolari yashayotgan turar joyni, ularning ota-onasi bo‘lmagan taqdirda, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan boshqa shaxsga berish mumkin. Uy yoki kvartiraning mulkdori, uning oila a’zolari, u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar va sobiq oila a’zosi o‘rtasidagi turar joydan foydalanish hamda qilingan xarajatlardagi ulush miqdori haqidagi nizolar sud tartibida hal etiladi.

Normaning navbatdagi qismida – ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ota-onasi (ulardan biri) o‘ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bolaning, agar u farzandlikka olingan bo‘lmasa, turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qolishi, shuningdek ota (ona)si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tug‘ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan

meros olish huquqini saqlab qolishi bilan bog‘liq oqibati mustahkamlangan. Ta’kidlanganidek, qonun oila-huquqiy munosabatlarda bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ustuvor qo‘yadi. Unga ko‘ra, o‘ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki undan foydalanish huquqini saqlab qoladi. Shuningdek, ota-onasi va boshqa qon-qarindoshlari (bobo-buvi, amaki-tog‘a, amma-xola va boshqalar) bilan tug‘ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini ham saqlab qoladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatining navbatdagisi – bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo‘lmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramog‘iga olib berilishi bilan bog‘liqdir. Bu yerda ikki hol farqlangan: bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo‘lmagani yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingani. Ammo qonun chiqaruvchi tomonidan oqibat bir xilda baholangan: bola vasiylik va homiylik organining qaramog‘iga olib beriladi. Bu “...bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilinishi”dek Konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishidir.

Xatolarning eng buyugi avval qilingan xatolarning takrorlanishidir, deyiladi manbalarda. Qonun ota-onalik huquqidan mahrum qilishning navbatdagi oqibati sifatida – ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olish mumkinligini nazarda tutadi. Albatta, bu o‘rinda bolaning boshqa shaxslar tomonidan farzandlikka olingan-olinmaganini unutmaslik lozim. Bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o‘tgach yo‘l qo‘yiladi. Bu o‘rinda olti oy – qonun chiqaruvchi tomonidan oila-huquqiy munosabatlar doirasida oqilona muddat sifatida qaralmoqda.

So‘z ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida ketar ekan, quyidagi xulosalarga kelamiz: *birinchidan*, ota-onalik huquqidan mahrum qilish yuridik faktadir, u tufayli fuqarolik huquq va majburiyatları yangidan vujudga keladi, o‘zgaradi yoki kimlargadir nisbatan bekor bo‘ladi; *ikkinchidan*, oilaviy-huquqiy munosabatlarda axloq normalarini ham zinhor unutmaslik kerak. Zotan, oilaviy-huquqiy munosabatlarda mulkiy emas, shaxsiy, axloqiy jihatlar ustundir va nihoyat; *uchinchidan*, qonun keyingi normalarda “ota-onalik huquqini tiklash”ni ham nazarda tutadi. Agar ota-ona (ulardan biri) o‘z xulq-atvorini, turmush tarzini yoki bola tarbiyasiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi sud tartibida tiklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 22-moddasida normalanganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi”.

## **2-§. Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish maqsadi, turlari va hisobga olish hamda joylashtirish**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 64-moddasi belgilagan umumiyligida qoidaga ko‘ra, “ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”.

Darhaqiqat, Oliy sud Plenum qarorida aytildiganidek, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida konstitutsiyaviy normalarga muvofiq bolaning oilada tarbiyalanishi oila qonunchiligining ustuvor tamoyillaridan biri sifatida tan olingan.

Farzandlikka olish ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanishini nazarda tutgan holda, ushbu masalani hal qilish vakolati sudlarga berilishi oila institutini yanada mustahkamlash, jismonan sog‘lom, ma’nana yetuk avlodni tarbiyalashda oilaning ahamiyatini kuchaytirish hamda oilaviy munosabatlarda qonuniylikni ta’minlashda sud hokimiyatining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Oila bobidagi mavzularimizda bot-bot aytayotganimizdek, mamlakatimizda *bolalik* davlat himoyasidadir.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi.

Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida: ota-onan vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomallaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo‘lganda, uzoq muddat bo‘lmaganda, ota-onan bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganda, shu jumladan ota-onan tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarini va shunga o‘xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-onan

qaramog‘idan mahrum bo‘lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta’minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo‘limganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Mamlakatimizda ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning quyidagi shakllari amal qiladi:

- farzandlikka olish;
- vasiylik va homiylik;
- bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat).

#### *Farzandlikka olish.*

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga (18 yoshga to‘limgan) nisbatan va faqat ularning manfaatlarini ko‘zlab yo‘l qo‘yiladi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko‘ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning *asosliligi* va farzandlikka olinayotgan *bola manfaatlariga to‘g‘ri kelishi* haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza bolani farzandlikka olishni istagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga beriladi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha alohida ish yuritish tartibida, farzandlikka oluvchilar (olvuchi), vasiylik va homiylik organlari vakillari, shuningdek prokuror ishtirokida sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Qoida tariqasida, aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga yo‘l qo‘yilmaydi, farzandlikka olish bolalarning manfaatlariga muvofiq kelgan hollar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrdagi “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlari bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 21-son qarorida “farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolaning manfaatlarinigina ko‘zlab yo‘l

qo‘yilishidan kelib chiqqan holda sudlar, turar joyidan qat’i nazar, farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o‘gay ota va o‘gay ona, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustun huquqqa ega ekanliklarini inobatga olishlari lozim”ligi xususida tushuntirish berilgan.

Oila qonuniga muvofiq, voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo‘lishi mumkin.

Ammo quyidagi shaxslar bolani farzandlikka ola bilmaydilar:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro‘yxatda turuvchilar;
- Oila kodeksi 169-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;

– hayotga, sog‘liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jiemoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar, jinoiy yo‘l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o‘tkazish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qiyonoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va

ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog‘-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

– yuqoridagi xatboshida ko‘rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

– yuqoridagi ikki xatboshida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to‘g‘risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar;

– farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar. Mazkur kasalliklarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Muhimi, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq *o‘n besh yoshdan kam bo‘lmasligi shart*, bundan o‘gay ota va o‘gay ona yoxud farzandlikka olinuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish hollari mustasnodir.

Farzandlikka olish sir saqlanadi. Shu ma’noda huquqni qo‘llovchi qonun bilan himoyalangan farzandlikka olishning sir saqlanishini ta’minlash maqsadida sudlarning e’tiborini mazkur toifadagi ishlar, shu jumladan farzandlikka olishni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish haqidagi ishlar ham, yopiq sud majlisida ko‘rib chiqilishiga va bu masala ishni sudda ko‘rishga tayinlash haqidagi ajrim bilan hal etilishi lozimligiga qaratadi.

Farzandlikka olish sirini oshkor qilish jinoiy javobgarlikka olib keladi.

Farzandlikka bola oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, yetim yoki ota-onada g‘amxo‘rligidan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun bilan qo‘riqlanadigan sirini oshkor qilish –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish:

a) kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo‘lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

- b) g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo‘lsa;  
v) og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmisht soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 125-modda.**

Qoida tariqasida, o‘n yoshga to‘lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. O‘n yosh – fiziologik, biologik, psixologik jihatdan o‘ziga xos yosh. Qonun chiqaruvchi ana shu statusga “huquqiy” jihatni ham qo‘shti. Darhaqiqat, bolaning roziligi bu o‘rinda muayyan ahamiyatga egadir. Bola ayrim voqeа-hodisalarga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniga ega yosh sifatida ko‘rmoqda. To‘g‘ri, bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa va ularni o‘z ota-onasi deb e’tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligesiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari: farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o‘z bolalariga tenglashtiriladi; farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-ona qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo‘qotadilar hamda o‘zaro majburiyatlardan ozod bo‘ladilar! Huquqiy oqibat hech bir izoh talab qilmaydi!

#### *Vasiylit va homiylik.*

Xo‘sh, vasiylit va homiylik o‘zi nima? Ular qanday organlar? Vasiylit va homiylar kimlar o‘zi?

Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohadagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylit va homiylik to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi<sup>1</sup>. Qonunga ko‘ra, *vasiylit* o‘n to‘rt yoshga to‘limgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta’midot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli; *homiylik* o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – №1. – 1-М.

fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shaklidir. Shuningdek, sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin.

Mamlakatimizda quyidagi organlar vasiylik va homiylik bo'yicha faoliyatni amalga oshiradilar:

– tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari tomonidan – voyaga yetmaganlarga nisbatan;

– tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan – sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lган voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi;

– mahalliy davlat hokimiyyati organlari qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lган voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda vasiylik yoki homiylik belgilash chora-tadbirlarini ko'radi.

Mazkur vasiylik va homiylik organlaridan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lган shaxslarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vasiylik yoki homiylik bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun tuman, shahar hokimining qarori bilan vasiy yoki homiy tayinlanadi.

Har kim ham vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas. Quyidagilar vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas:

– ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki ota-onalik huquqlari cheklangan shaxslar;

– sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

– sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olish ularning o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqlarini suiiste’mol qilganligi, farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lganligi, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lganligi oqibatida bekor qilingan bo‘lsa;

– o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud o‘z huquqlarini suiiste’mol qilganligi uchun vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

– hayotga, sog‘liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o‘zgalarning mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar, jinoiy yo‘l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o‘tkazish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog‘-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

– yuqoridagi xatboshida ko‘rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

– yuqoridagi ikki xatboshida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to‘g‘risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar;

– vasiy yoki homiy etib tayinlanishiga to‘sinqinlik qiladigan kasalliklarga chalingan shaxslar.

Shaxsning vasiy yoki homiy etib tayinlanishiga to‘sinqinlik qiladigan kasalliklar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vasiylar va homiylarning *huquqiy maqomi* qanday?

Vasiylar o‘z vasiyligidagi shaxslarning qonuniy vakili bo‘lib, ularning nomidan yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadi. Homiylar o‘z homiyligidagi shaxslarning qonuniy vakili bo‘lib, homiyligidagi shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko‘maklashadi, shuningdek ularni uchinchi shaxslar tomonidan bo‘ladigan suiiste’molliklardan muhofaza qiladi.

Muhimi, vasiylik va homiylilik organlari ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta’midot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining, umumta’lim muassasalarining, davolash muassasalarining va boshqa muassasalarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lganligidan xabardor bo‘lgach, yetti kunlik muddat ichida (bu o‘rinda yetti kunlik muddat oqilona muddatdir – *muallif*) bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylilik organlariga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylilik organi bunday ma’lumotlarni olgan kundan e’tiboran uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-onan yoki qarindoshlari qaramog‘idan mahrum bo‘lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo‘lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashi shart. Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vasiylik va homiylilik organiga xabar qilmaganlik MJtKning 47<sup>1</sup>-moddasi tartibida, ya’ni:

Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shunday bolalar turgan muassasa rahbari yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsi tomonidan

vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik, xuddi shuningdek ular tomonidan ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqida atayin noto‘g‘ri ma’lumotlar berish –

mansabdor shaxsga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

### **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 47<sup>1</sup>-modda**

Shuningdek, bunday bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzganlik yuqoridagi muassasalarning rahbarlari va organlarning mansabdor shaxslarini MJtKning 47<sup>2</sup>-moddasi tartibida ma’muriy javobgarlikka olib keladi.

Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat), farzandlikka berishda, ularga vasiylik (homiylilik) belgilashda yoxud ularni yetim bolalar yoki ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan tegishli davlat muassasasiga joylashtirishda qonunchilik talablarini buzish –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

### **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 47<sup>2</sup>-modda**

#### *Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat).*

Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning ushbu shakliga ko‘ra, ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni *istagan shaxs* vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O‘n yoshga to‘lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin. Vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onan o‘rtasida bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risida *kelishuv* tuziladi. Kelishuvda bolalar ta’mnoti, ta’lim-tarbiyasi, tarbiyaga olgan tutingan ota-onanining huquq va majburiyatları, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatları, kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko‘rsatilishi lozim.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar: o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, shuningdek pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarini olish; uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanish; qonunchilikka muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadirlar. Bolaning manfaatiga daxldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o'z fikrini bildirishga haqli.

Voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-onasi bo'lishlari mumkin. Ayni dam quyidagilar bundan mustasno:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;
- qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;
- ilgari farzandlikka bola olgan, lekin ushbu Kodeks 169-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar;
- qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;
- sog'lig'ining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tutingan ota-onasi tarbiyaga olingan bolaga nisbatan yuqoridagi kabi vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

### **3-§. Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda ichki ishlari organlarining vazifalari hamda vakolatlari**

Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda IIOning vazifa va vakolatlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va

huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni (2010-yil 29-sentabr, 36 modda) alohida ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Qonunga ko‘ra, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash;

– voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

– ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;

– voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

Sohaviy qonunda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar:

*ichki ishlar organlarini* – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalar, huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar to‘g‘risida, shuningdek voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud ularga nisbatan boshqa g‘ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan ota-onalar va o‘zga shaxslar haqida zudlik bilan xabardor qilish nazarda tutilgan.

IIO voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. IIOning voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo‘linmalari voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi bo‘linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlaridan iboratdir. IIOning boshqa bo‘linmalari voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasida o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko‘rsatadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №3. – 341-м.

Xususan, IIOning voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘linmalari o‘z vakolatlari doirasida: yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi; qidiruv e’lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi; voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi; yetim bolalar hamda ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari o‘z vakolatlari doirasida: uch yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog‘lig‘ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni kecha-kunduz qabul qilishni hamda vaqtincha saqlashni ta’minlaydi; voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga olib boradi, shuningdek, ushbu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish bo‘yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga quyidagi voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin:

- nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;
- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o‘zboshimchalik bilan tark etganlar;
- ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan o‘n olti yoshgacha bo‘lganlar;
- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan yoxud ruhiy holatining buzilganligi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab yetishga qodir bo‘lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ta’minalash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish

zarur bo‘lsa, shuningdek ularning shaxsi aniqlanmagan yoxud ularning aniq yashash joyi bo‘lmasa yoki o‘zлari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo‘lsa;

- ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuзarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo‘lmasa yoki o‘zлari huquqbuзarliklar sodir etgan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo‘lsa;
- o‘zining ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to‘g‘risidagi masalaning sud tomonidan ko‘rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;
- sudning ajrimiga ko‘ra ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish uchun sudning ajrimi asos bo‘ladi.

Qonunga ko‘ra, voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirishni talab qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, *ichki ishlар organлari* voyaga yetmagan IIOning bo‘linmalariga keltirilgan paytdan e’tiboran 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnama yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnama va uni mazkur markazga joylashtirish zarurligini tasdiqlovchi materiallar voyaga yetmagan topilgan joydagi yoxud ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlар organi boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tomonidan yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “IIOning huquqbuзarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan mamlakatimizda 2017-yilning 1-oktabridan quyidagi tartib joriy etildi:

profilaktika inspektorlari o‘z lavozimiga tegishli fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tadigan muhokamalar natijalariga ko‘ra qabul qilinadigan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi;

fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari har oyda profilaktika inspektorlarining hisobotlarini eshitadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2017. – №17. – 288-м.

Shuningdek, profilaktika inspektorlarining hisobotlarini eshitish yakunlariga ko‘ra ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar va ish natijalari tanqidiy muhokama qilinadi, ular faoliyatining samaradorligiga alohida baho beriladi hamda egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi haqida tavsiyalar qabul qilinishi belgilandi.

Qarorda profilaktika inspektorlarining vakolatlari sirasiga vasiylik va homiylik organlariga yetim bolalar va ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni joylashtirishda ko‘maklashish nazarda tutilgan.

Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda IIOning vazifa va vakolatlari xususida hukumatning 2021-yil 3-avgustdagagi “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 490-son qarorida deb belgilangan qoidalar ham o‘ziga xos yo‘l xaritasidir. Shuningdek, ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning tartib-taomillarini o‘z ichiga olgan Ichki ishlar vazirining 2011-yil 14-yanvardagi 6-son, 2017-yil 12-iyundagi 151-son sohaviy buyruqlari alohida ahamiyatga ega.

## FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARI VA ULARNI QAYD ETISH

### 1-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: tug‘ilish

Bolalarning tug‘ilishini qayd etish majburiy bo‘lib, bolalar tug‘ilgan joydagi yoki ota-onadan birining doimiy yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bir oy muddat ichida amalga oshirilishi lozim. Bu o‘rinda *bir oy* – oqilona muddat sanaladi.

Bolaning o‘lik tug‘ilganligi, tibbiy muassasaning xabariga binoan 24 soat davomida shu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan qayd etiladi.

Qonunga ko‘ra, tug‘ilishni qayd etish uchun taqdim qilinadigan hujjatlarga uning tug‘ilganligi haqidagi tibbiy ma’lumotnoma, ota-onaning oilaviy holati va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi.

Bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi **tibbiy ma’lumotnomada**:

- onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, tug‘ilgan sanasi, millati, fuqaroligi, oilaviy ahvoli, ma’lumoti;
- bolaning tug‘ilgan vaqt, sanasi va joyi, jinsi, vazni, bo‘yi;
- homiladorlik muddati, hisob bo‘yicha nechanchi homiladorlik;
- bolaning tirik tug‘ilganligi mezonlari (nafas olishi, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi);
- tibbiy ma’lumotnomaning berilgan vaqt, tartib raqami va tibbiyot muassasasining nomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi zarur.

Bola tug‘ilganligi to‘g‘risidagi ariza uning ota-onasi yoki ulardan biri, alohida hollarda – qarindoshlari, qo‘shnilari yoki ota-onasi yoxud ota-onasidan biri vakolat bergan boshqa shaxslar, shuningdek tibbiyot muassasalarining, ichki ishlar yoki vasiylik va homiylik organlarining mansabdor shaxslari tomonidan berilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish **qoidalariga** ko‘ra, belgilangan muddatning o‘tib ketganligi tug‘ilganlikning qayd etilishiga to‘sinqinlik qila olmaydi<sup>1</sup>. Bunda o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolaning

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2016. – №50. – 566-м.

tug‘ilishini qayd etish uchun FHDYO organiga tug‘ilishni qayd etish muddatini o‘tkazib yuborganlik sabablari ko‘rsatilgan *ariza* bolaning ota-onasi, ota-onaning qonuniy nikohi mavjud bo‘lgan hollarda ulardan biri yoki ishonchnoma asosida boshqa manfaatdor shaxs, ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxs yoxud vasiylik va homiylik organlarining mansabdor shaxslari tomonidan taqdim etiladi. Bunday hollarda FHDYO organi tug‘ilish faktini tasdiqlovchi hujjatga qo‘srimcha ravishda qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa hujjatlarni ham talab qiladi.

Agar tug‘ilganlikni qayd etish to‘g‘risidagi ariza belgilangan muddatdan o‘tkazilib berilgan bo‘lsa, tug‘ilish tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomalarni qayd etish joriy ro‘yxatga olish daftariga qayd etiladi, bola to‘g‘risidagi ma’lumotlar: familiyasi, ismi, dalolatnoma yozuvi tartib raqami, sanasi bolaning haqiqiy tug‘ilgan yilidagi hamda joriy yilda yuritilgan Alfavit daftarlarga yozib qo‘yiladi.

Qoidalarga ko‘ra, ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘limganda bolaning tug‘ilganligini qayd etish tibbiyot muassasasining yoki vasiylik va homiylik organining yozma murojaatlariga asosan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan ota-ona (ulardan biri)ning tug‘ilgan bolasi umumiylashtirilishi asoslarda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda voyaga yetmagan ota-onaning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining ishtiroti talab etiladi.

Tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi qayd etilgach, ariza beruvchiga tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma beriladi. Egizak (ikkita va undan ortiq) bolalar tug‘ilganda ularning har biri uchun tug‘ilganlik haqida tibbiy ma’lumotnomasi taqdim etilishi kerak, ular asosida tug‘ilganlik haqida alohida-alohida dalolatnoma yozuvlari, tartib raqamlari yozilgan holda, qayd etilib, ularning har biriga tug‘ilganlik haqida alohida gerbli guvohnomalar beriladi.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug‘ilganligini qayd etish ichki ishlar, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa ma’muriyati yoki tibbiyot muassasasining arizasiga binoan amalga oshiriladi. Bolani topib olgan shaxs bu haqda yigirma to‘rt soat mobaynida ushbu tumandagi ichki ishlar organiga yoki vasiylik va homiylik organiga xabar berishi kerak. Ichki ishlar, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa yoki tibbiyot muassasasi ma’muriyati bola topilganidan keyin yetti ish kunidan kechikmagan muddatda FHDYO organlariga topib olingan (tashlab ketilgan) bolani qayd etish haqida murojaat etishlari shart. Topib olingan (tashlab ketilgan) bola tug‘ilganligini qayd etish haqidagi ariza bilan bir paytda:

ichki ishlar organi yoki vasiylik va homiylik organining bolaning topib olingan vaqt, joyi va topib olingan paytdagi holati to‘g‘risida bola topib olingan vaqtda tuzilgan dalolatnomasi;

tibbiy muassasaning topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning yoshi, jinsi, vazni va bo‘yi haqidagi ma’lumotnomasi (xulosasi) taqdim etilishi zarur.

O‘lik tug‘ilgan bolaning tug‘ilganligini, shuningdek hayotining birinchi haftasida o‘lgan (perinatal o‘lim) bolalarning tug‘ilganligi va o‘limini qayd etish tibbiy muassasa yoki ushbu muassasaning topib olingan joydagi sud-tibbiy ekspertiza muassasasining yozma murojaatiga binoan shu hududdagi FHDYO organi tomonidan 24 soat mobaynida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, tug‘ilgandan keyin O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanishi mumkin bo‘lgan bolaning tug‘ilganligini qayd etish bola tug‘ilgan yoki uning ota-onasi doimiy yoki vaqtincha yashab turgan o‘scha konsullik okrugidagi konsul tomonidan amalga oshiriladi. Harakatdagi havo yoki suv kemasida, poyezdda yoki boshqa transport vositasida tug‘ilgan bolaning tug‘ilganligini qayd etish ota-onasidan birining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyidagi FHDYO organi yoki transport vositasi qatnayotgan yo‘nalishdagi FHDYO organi tomonidan Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi chet elda tug‘ilgan va uning tug‘ilganligi konsullik muassasasi tomonidan qayd etilmagan taqdirda, tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi ota-onaning yoki ulardan birining O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan yoki vaqtincha turgan joyidagi FHDYO organi tomonidan belgilangan tartibda legalizatsiya qilingan yoki apostil qo‘yilgan xorijiy davlatning vakolatli organlari tomonidan berilgan bola tug‘ilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan keyin qayd qilinadi.

Tug‘ilishni qayd etishning barcha hollarida bola tug‘ilgan ma’muriy hudud uning tug‘ilgan joyi sifatida yoziladi.

## **2-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: nikohni qayd etish**

Fuqarolik holati dalolatnomalari davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, shuningdek fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

*Fuqarolik holati dalolatnomalari* – fuqarolar hayotidagi tug‘ilish, o‘lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqealarni hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

Tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma bolaning tug‘ilganini, uning ota-onasi kim ekanini tasdiqlovchi yagona hujjatdir.

Nikoh qayd etilganligi haqida guvohnoma – bu nikohdan o‘tgan shaxslarning er-xotinligini tasdiqlovchi va ular o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarning vujudga kelganini ifodalovchi hujjatdir.

Nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma nikohda bo‘lgan shaxslarning nikohi tugatilganini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

O‘lim to‘g‘risidagi guvohnoma shaxsning o‘limini va uning huquqiy layoqati tugatilganini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish, jinsni o‘zgartirish kabi voqeа va faktlar yuqorida nazarda tutilgan fuqarolik holatlari dalolatnomalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo‘lib, ikki nusxada tuziladi va FHDYO organlarida qayd etilgan vaqtidan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

Qayd etganimizdek, FHDYO organlari quyidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi: a) tug‘ilganlik; b) nikoh tuzish; v) nikohdan ajralish; g) o‘lim.

Bu voqeа va faktlar Oila kodeksining 203-moddasiga binoan fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarida qayd etiladi, shaharcha, qishloq va ovullarda esa, o‘lim – fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) tomonidan ham qayd etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

Oila kodeksining 226-moddasiga muvofiq, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi o‘n olti yoshga to‘lgandan keyin u yashab turgan joydagi FHDYO organi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish to‘g‘risidagi xulosa IIO tomonidan ushbu shaxs tegishli tekshiruvdan o‘tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

FHDYO organining familiya, ism va ota-onalik huquqini har qanday boshqa shaxslardan himoya qilib ularni nisbiy sifatlarini bartaraf etmaydi, chunki bolalarga nisbatan ota-onalarning huquqlari har qanday holatda ham absolut xarakterga ega bo‘lib qoladi. Ularni er-xotinni umumiy birgalikdagi mulkiga nisbatan tatbiq etib bo‘lmaydi, chunki u subyektiv oila huquqi bo‘lganligi uchun nisbiy xarakterga ega bir yo‘la har qanday

boshqa mulk huquqi singari boshqa har qanday shaxslardan himoya qilinadi.

Mulkiy bo‘lmagan shaxsiy huquqlar esa ular hamma vaqt faqat nisbiy bo‘ladilar, chunki ular faqat nikoh va oila doirasida ko‘rinadilar. Masalan, er-xotinning turar joyga bo‘lgan huquqlari.

**Nikoh.** Nikohni rasmiylashtirish, ya’ni fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab, o‘zaro nikohni tuzgan erkak va ayol – er-xotin deb hisoblanadi va shu paytdan boshlab, ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

**Nikoh shartnomasi.** Nikoh va nikoh shartnomasini aralashtirmaslik kerak. Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida, (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

Nikoh shartnomasi toki nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar (rasmiylashtirilguncha) ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

**Nikoh tuzishga monelik (to‘sinqilik) qiluvchi qanday holatlar mavjud?** Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar oila qonunchiligi normalarida belgilangan nikoh tuzish shartlariga qo‘yiladigan talablarning buzilishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nikoh tuzish shartlariga monelik qiladigan holatlarni e’tiborga olmaslik tuzilgan nikohning haqiqiy sanalmasligiga asos bo‘ladi. Bu qoida Oila kodeksining 16-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar quyidagilardan iborat:

- loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;
- nasl-nasab shajerasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida;
- loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida.

Nikoh tuzish shartlariga rioya qilinmasdan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi. Mazkur holat Jinoyat kodeksining 126-moddasi (Ko‘p xotinli bo‘lish)da ko‘rsatilgan ko‘p xotinlik, ya’ni umumiyo ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi kabi oqibatlarga olib kelishi belgilangan.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlardan biri nikohlanuvchilardan loaqal bittasining ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro sud tartibida *muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin* va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uning vasiysi amalga oshiradi.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylarning bunga tegishli huquq va burchlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiylar va homiylar o‘z himoyalariagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari bo‘lmagan, ota-onasi sud tomonidan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilingan taqdirda, shuningdek bunday fuqarolar boshqa sabablarga ko‘ra ota-onsa himoyasidan mahrum bo‘lib qolgan, xususan, ota-onsa ularni tarbiyalashdan yoxud ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlagan hollarda belgilanadi.

**Nikoh tuzish tartibi qanday?** Amaldagi oila qonunchiligiga ko‘ra, davlat faqatgina FHDYO organlarida ro‘yxatdan o‘tgan nikohni tan oladi. Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi FHDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas...

**Oila kodeksi**, 13-modda.

Mazkur organlarda nikohni tuzish tartibi quyidagi asosiy qoidalarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- nikoh faqat nikohga kirishuvchilarning shaxsan ishtirokida tuziladi, ya’ni nikohga kirish uchun ariza erkak yoki ayol tomonidan bevosita yoziladi va imzolanadi;
- nikohga kirishuvchi shaxslarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ariza topshirgan kundan bir oy o‘tgach, ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu o‘rinda bir oylik muddat *oqilona* muddat sifatida ko‘riladi;
- nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi binosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu holat nikoh tuzuvchi tomonlar davlat va jamiyatning e’tiborida ekaniga ishora bo‘lib, nikoh FHDYO xodimlari tomonidan nikoh uylarida, to‘xonalarda tantanali ravishda o‘tkazilishi mumkinligini ham bildiradi. Tantanali o‘tkazish, ishtirokchilarning guvohligi tomonlarga o‘ziga xos jiddiy mas’uliyat yuklaydi;
- nikohning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi xususidagi yozuv erxotinning pasportiga kiritiladi. Darhaqiqat, nikoh shaxs hayoti voqeligida yuz beradigan o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, u davlat tomonidan albatta qayd etilishi lozim bo‘lgan to‘rtta holat (yuridik fakt)dan biridir. Pasport inson shaxsini tasdiqlovchi birlamchi hujjat bo‘lganidan bu holatning unda qayd etilishi tabiiydir.

Nikoh tuzilganligi qayd etilganidan keyin nikoh tuzilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Nikoh nafaqat FHDYO organida, balki ba’zi istisnolar bilan boshqa joyda ham qayd etiladi. Alovida hollarda nikohlanuvchilardan biri betobligi sababli FHDYO organiga kela olmaydigan istisno hollarda nikoh shifoxonada, uyda yoki boshqa tegishli joyda nikohlanuvchi ikkala shaxsning ishtirokida amalga oshiriladi. Dalolatnama yozuvining “Belgilar uchun” ustunida bu haqda tegishlicha yozib qo‘yiladi.

Ayni vaqtida tergov hibsxonalarida, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saqlanayotgan shaxslar bilan tuziladigan nikohni qayd etish, ushbu muassasa joylashgan yerdagi

fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Zero, davlatning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib, Konstitutsiyamizda “davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi” normalangan.

Nikoh nikoh tuzishni xohlovchi shaxslar bu to‘g‘rida belgilangan namunadagi yozma yoki elektron ariza bilan murojaat etgan kundan keyin bir oy o‘tgach ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organi tomonidan qayd etiladi.

FHDYO organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslarning nikoh tuzilganligini qayd etish to‘g‘risidagi arizasini qabul qilishda belgilangan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma beriladi, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda ellik yoshgacha nikoh tuzuvchi shaxslar OIV-infeksiyasi yuzasidan tibbiy tekshiruvdan majburan o‘tishi kerak.

### **Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari, 73-band**

Nikoh tuzish muddati qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Biroq buning uchun qonunda nazarda tutilgan muayyan sabablar mavjud bo‘lishi talab etiladi.Uzrli sabablar bo‘lganda, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alovida holatlar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.Bunda uzrli sabablarni tasdiqlovchi – bolalarining tug‘ilganligi haqidagi guvohnomalari, tibbiyot muassasasining kelinning homiladorligi haqidagi ma’lumotnomasi, xizmat safari to‘g‘risidagi guvohnoma kabi hujjatlar ko‘rsatiladi.

*Qanday holatlarda nikohni qayd etish (rasmiylashtirish) muddati qisqartirilishi mumkin? Oil a qonunchiligini qo‘llash amaliyotidan kelib chiqib, nikohni qayd etish muddatini qisqartirish mumkin bo‘lgan holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:*

- agar nikohni qayd ettirish uchun ariza bergenlar uzoq vaqt amalda birga yashagan bo‘lsalar;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergen shaxslarning er-xotinlik munosabatlaridan tug‘ilgan bolalari bo‘lsa yoki xotin homilador bo‘lsa;

- kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og‘ir kasal bo‘lsa;
- ariza bergenlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo‘lgan joyga xizmat safariga ketayotgan bo‘lsa;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergen kuyov harbiy xizmatga chaqirilgan yoki nikohni qayd etish uchun belgilangan muddatni qisqartirishga asos bo‘ladigan boshqa sabablar uzrli sabab hisoblanib, bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo‘lishi mumkin.

*Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish jarayoni qanday?* Nikohni qayd etayotgan mansabdor shaxs (FHDYO) uzrli sabab bo‘la oladigan holatlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni talab qilishi lozim. Jumladan, uzoq muddat er-xotin bo‘lib turganlik fakti, bir turar-joy, bir oilada turganliklari haqida berilgan ma’lumotlar, umumiylar bolalari borligi, bu haqdagi ma’lumotnomma va bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi (otaligi belgilangan hollarda), qarindoshlarining kasalligi – yaqin qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat va kasallik haqida vrachlarning tegishli ma’lumotnomalarini, uzoq muddatga chet elga ketish va boshqa joyga xizmat safariga borish bu haqdagi tegishli hujjatlar bilan isbotlanishi kerak.

Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish yuzasidan talabnoma kelin va kuyovning har ikkisi tomonidan ariza bilan murojaat etilgan holda topshirilishi lozim. Arizaga muddatni qisqartirishga asos bo‘ladigan hujjatlar ilova qilinishi kerak. Ariza va tegishli hujjatlarni qabul qilib olgan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mudiri muddatni qisqartirish yoki rad etish, agar qisqartirish lozim bo‘lsa, necha kunga qisqartirishni har bir holda aniq holatga qarab belgilaydi. Bu masalani hal qilayotgan mansabdor shaxs (FHDYO) o‘z xulosasini yozib, imzo bilan tasdiqlashi o‘rinli bo‘ladi. Bunday holat mansabdor shaxslarning muddatni qisqartirishga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

*Nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkinmi?* Alovida holatlar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin. Bunday holatlar bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzish uchun hisobga olinadigan uzrli sabablardan farq qiladi, nikohni kechiktirmasdan tezda tuzilishini talab qiladi va bunday bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanidan darak beradi.

Nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikoh tuzuvchilarining birgalikdagi arizalariga binoan ko‘rib chiqiladi. Ayrim hollarda yetarli asoslar (nikohlanuvchi shaxslarning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinmaganda) bo‘lgan taqdirda, shuningdek, FHDYO organining tashabbusi bilan ushbu muddat uch oygacha uzaytirilishi mumkin. Nikoh

tuzilganligini qayd etish tayinlangan kundan boshlab, uch oy ichida yo‘qlangan arizalar bo‘yicha nikoh tuzilganligi qayd etiladi.

Nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaganda haqiqiy er-xotinlik munosabatlarini vujudga keltirmaydi. Bu taraflar uchun salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, mol-mulk umumiy birgalikdagi mulk deb topilmasligi mumkin va buning oqibatida qonuniy tartibda nikohdan o‘tmagan er-xotin o‘rtasida meros masalalari vujudga kelmaydi. Buning natijasida ayollar va voyaga yetmagan bolalarning manfaatlariga putur yetadi. Chunki er-xotinlik maqomiga ega bo‘lmay, erkak va ayol maqomiga ega bo‘lib, ular o‘rtasida oilaviy munosabatlar vujudga kelmaydi. Qayd etilganidek, diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

*Nikohlanuvchi shaxslardan biri ilgari qayd etilgan nikohda turgan bo‘lsa, uning oqibatlari qanday bo‘ladi,* degan tabiiy savol tug‘iladi. Qonun nikohlanuvchi shaxslardan hatto bittasi ilgari qayd etilgan nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishini taqiqlashi sababli arizani qabul qilish vaqtida FHDYO organi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘yicha arizachilarining qonuniy nikohda turish-turmasligini tekshiradi.

Ilgari nikohda bo‘lgan shaxs FHDYO organiga avvalgi nikohi bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi kerak. Bu – nikohning bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma yoki sud qarori, ernenning (xotinning) o‘limi haqidagi guvohnoma yoxud sudning nikoh haqiqiy emas deb topilganligi haqidagi qarori bo‘lishi mumkin.

Nikohni qayd etishga to‘sinq bo‘luvchi qonuniy holatlar mavjud bo‘lganda FHDYO organi uni qayd etishni rad qiladi. Agar mazkur ma’lumotlar tasdiqlanmasa, u holda nikohni qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan holatlarni tekshirish muddati uch oydan oshmasligi kerak.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro‘yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo‘ysunuvigiga ko‘ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin. Tegishli asoslar bo‘lganida nikohni qayd etish uchun belgilangan bir oylik muddat qisqartirilmasa, shuningdek alohida hollarda nikohning ariza berilgan kuni tuzilishi rad etilsa, shikoyat bilan sudga murojaat etish mumkin.

### **3-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: nikohdan ajratish**

*Sud orqali nikohdan ajratish tartibi.* Oila kodeksida nikohdan ajralishning asoslariga qarab, undan ajralish tartibi belgilangan.

Nikohdan ajralishning qonunda ikki tartibi belgilangan:

1) er-xotinlar o'rtasidagi mulkiy nizolar mavjud bo'lgan hollarda – sud tartibida (masalan, mol-mulkni bo'lish, er-xotinlar o'rtasidagi hamda voyaga yetmagan bolalarga moddiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan holatlar yuzasidan (aliment undirish masalasida)) ajratiladi;

2) nizo bo'lmanan taqdirda – ma'muriy tartibda (FHDYO organi orqali), jumladan, agar:

a) er-xotin o'rtasida voyaga yetmagan farzandlari bo'lmasa va ular ajralishga o'zaro rozi bo'lgan taqdirda;

b) taraflar (er yoki xotin) sud tomonidan bedarak yo'qolgan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

v) sodir etgan jinoyati uchun eri yoki xotini uch yildan kam bo'lmanan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa.

*Sud tartibida nikohdan ajratish.* Nikoh er-xotinning vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi sababli hamda er-xotindan biri yoki har ikkisining arizasiga muvofiq, nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er-xotinning vasiysi bergen arizasiga muvofiq tugatilishi mumkin.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi da'vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi. Agar er-xotin alohida yashasa, da'vo javobgar er yoki xotinning turgan joyidagi sudda qo'zg'atiladi, uning turadigan joyi noma'lum bo'lsa, nikohdan ajralish to'g'risidagi ariza javobgar oxirgi yashab turgan joydagi sudga topshiriladi.

Arizada nikohdan ajralish uchun asos ko'rsatilishi kerak. Ajralishni keltirib chiqargan sabablarni batafsil keltirish lozim. Ariza berish bilan bir vaqtida davlat boji to'lanishi kerak. Nikohdan ajralish ishlari ochiq sud majlisida ko'rildi. Ajralish to'g'risidagi ish er-xotinning arizasiga muvofiq, zarur hollarda sudning ajrimiga asosan yopiq sud majlisida ko'rishiham mumkin.

*Er-xotinga yarashish uchun berilgan muhlat.* Oxirgi paytlarda nikohdan ajralish ishlarini ko'rishda sud o'z faoliyatini er-xotinni yarashtirishga va oilaviy nizolarga sabab bo'luvchi vaziyatlarni chuqur o'rganib, uni bartaraf etish choralarini ko'rishga qaratmoqda. Bu bilan oilani saqlab qolish, uning bardavomligini ta'minlashga barcha – davlat va jamiyat, davlat organlari, huquqni muhofaza qiduvchi organlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek mahalla-ko'y, mehnat jamoalari ham mas'ul ekani ko'rindi. Qonunchilikka ko'ra, sud ishning ko'riliшини keyinga qoldirib, er-xotinga yarashishi uchun olti oyga muhlat tayinlashga, ajrim chiqarishga haqli. Sud yarashtirish uchun berilgan muddatni, er-

xotinni yarashtirish maqsadida, zarur hollarda, ajrim nusxalarini ular yashaydigan joydagi xotin-qizlar qo‘mitalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi – mahalla fuqarolar yig‘iniga muhokama qilish va yarashtirish uchun yuborishi mumkin. Bunda ishni ko‘rish boshqa vaqtga qoldirilayotgan muhlat er-xotinning o‘zaro munosabatlarini va ularning yashab ketish imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

*Nikohdan sud tartibida ajratish.* Quyidagi hollarda nikohdan ajratish sud tartibida ko‘riladi:

- er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo‘lmasa (bunday bo‘lishi tabiiy hol. Zero, xiyonat qilgan taraf har qanday sharoitda oiladagi mavjud moddiy holatdan voz kechgisi kelmaydi);
- ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalari bo‘lib, ularni kimda qoldirish va ta’minoti uchun aliment undirish to‘g‘risida nizo bo‘lsa (aliment undirish vajidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bunday bo‘lishi ham tabiiy);
- er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga aliment undirish va uning miqdori haqida masala tug‘ilsa (bu hayotda hamma narsa bo‘lishi mumkin degan oddiy hayotiy haqiqat talabidan kelib chiqsak, buning ehtimoli ham mavjud);
- birgalikda umumiy mulkni bo‘lish bo‘yicha nizo bo‘lsa (bu holat garchi, eng so‘ngida qayd etilayotgan bo‘lsa-da, yuqoridagi holatlar orasida kam ahamiyatga ega bo‘Imagan jihatdir. Zero, umumiy mol-mulkni yaratishda kimningdir real hissasi ortiq bo‘lishidan kun tartibida ajralish, mavjud nikohni tugatish masalasi qo‘yilganda, aynan teng bo‘lishga harakat qilish motivatsiyasi yuqori bo‘ladi).

Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta’minot berish uchun mablag‘ to‘lash tartibi, bu mablag‘ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishga doir kelishuvni ko‘rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

#### *To ‘y xarajatlari.*

... Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganida to‘yni o‘tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi (OK 44-m.).

Shuni aytish lozimki, er xotinning homiladorligi vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotining roziligidisiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

*Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish.* Oila qonunchiligi nikohdan ajralishning sud tartibi bilan birga, ma'muriy tartibini, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratish tartibini ham belgilaydi. Voyaga yetmagan bolalari bo'limgan er-xotin nikohdan ajralishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajratiladi. Nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi ularning har ikkalasi tomonidan berilgan yoki har biri mustaqil bergen arizalarida ifodalanishi mumkin. Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birqalikdagi umumiy mulki chiqqan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo chiqqan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga ko'ra, nikohdan ajratishni qayd etishda er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

*Nikohdan ajralishning huquqiy oqibatlari.* Nikohdan ajralish bir qator huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Nikohlanuvchilar nikohga kirish vaqtida o'z familiyasini o'zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan sud tomonidan nikohdan ajratish to'g'risidagi hal qiluv qarorini chiqarayotganda unga nikohgacha bo'lган familiyasi qaytarilishi mumkin. Oila kodeksiga binoan nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalar kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin. *Qat'iy qoida shuki*, mahalliy urf-odat va an'analardan kelib chiqqan muhim qoidalaridan biri nikohdan ajratish ishi ko'rib chiqilayotganda to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qondirilmaydi. Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy, shuningdek, mulkiy huquqiy munosabatlarining kelajak vaqt uchun tugallanganligini anglatadi. Nikoh faqat oila huquqi bilangina tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Nikoh tuzilishi bilan ma'lum yuridik faktlarning mavjudligi tufayli fuqarolik, mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Nikohdan ajralish er-xotinlik o'zaro munosabatlarini tugallanishiga qaratilgandir.

Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan alimenti.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud

tomonidan ota-onaning har oydag'i ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to'rtadan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarini hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Masalan, bugungi kunda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'm etib belgilandi<sup>1</sup>. Bunday sharoitda bir bola uchun minimal aliment miqdori:

$$822\,000 \text{ so'm} \times 26,5 / 100 = 217\,830 \text{ so'm}.$$

Er-xotin va farzandlarning turar joyiga nisbatan haqdorligi. Uy, kvartira mulkdorining oila a'zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, agar ularni ko'chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa hol qayd etilgan bo'lmasa, uydagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqlidirlar. Ular mulkdor bergan turar joyga o'zlarining voyaga yetmagan farzandlarini ko'chirib kiritishga haqlidirlar, oilaning boshqa a'zolarini esa, uy, kvartira mulkdorining roziligi bilangina ko'chirib kiritishlari mumkin. Bu shaxslar uy, kvartiraning mulkdori bilan oilaviy munosabatlarni tugatgan taqdirda ham ularda turar joydan foydalanish huquqi saqlanadi. Uy, kvartiraning mulkdori bilan uning sobiq oila a'zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar o'rtasida turar joydan foydalanish tartibi taraflar kelishuvi bilan belgilanadi.

Turar joy mulkdorining oila a'zolari deb u bilan doimiy birga yashayotgan xotini (eri) va ularning farzandlari tan olinadi. Er-xotinning ota-onasi, shuningdek mulkdor bilan doimiy birga yashayotgan oilali farzandlari va ularning er-xotini, agar ular ilgari bu huquqqa ega bo'lmanган bo'lsa, faqat o'zaro kelishuvga binoan mulkdorning oila a'zolari deb tan olinishi mumkin (UJK 32-m.).

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафакалар миқдорини ошириш тўғрисида” 2021 йил 17 августдаги ПФ-6279-сон фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.08.2021 йил, 09/21/6279/0802-сон.

#### **4-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: o'lim**

O'limni qayd etish marhumning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. O'limni qayd etish to'g'risidagi *ariza* o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnoma berilgandan keyin 3 kundan kechikmay berilishi kerak.

O'limni qayd ettirish to'g'risida marhumning qarindoshlari va yaqin kishilari, shuningdek tibbiy muassasa ma'muriyati murojaat etishlari mumkin, ular o'lim to'g'risida tibbiy guvohnoma va marhumning shaxsini tasdiqllovchi hujjatlar taqdim etadilar.

Agar voyaga yetmagan vafot etgan shaxsga nisbatan FHDYO organida tug'ilganlik haqidagi dalolatnama yozuvi qayd etilmagan bo'lsa, vafot etgan shaxsga tug'ilganlik haqida dalolatnama yozuvi qayd etilib, bu haqda ariza bergen shaxsga ma'lumotnoma beriladi, shundan so'ng vafot etgan shaxsga nisbatan belgilangan tartibda o'lim haqidagi dalolatnama yozuvi qayd etiladi. Chet elda vafot etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'limini qayd etish marhum yashab turgan yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida vafot etgan shaxslarning o'limini qayd etish mazkur muassasa ma'muriyatining xabariga ko'ra, vafot etgan shaxsning ozodlikdan mahrum qilingunga qadar doimiy yashagan yoki vaqtincha turgan joyidagi yoki jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori bilan o'limni qayd etish qaror chiqargan sud joylashgan joydagi FHDYO organi tomonidan umumiylashtirilishi amalga oshiriladi. O'limi qonunchilikda belgilangan muddatlarda qayd etilmagan shaxslarning o'limini qayd etish marhumning oxirgi yashash joyidagi FHDYO organi tomonidan umumiylashtirilishi amalga oshiriladi. Bunday holda marhum haqidagi ma'lumotlar o'lim qayd etilgan yildagi va o'lim sodir bo'lgan yildagi Alfavit daftarlariга kiritiladi.

Qoidalarga ko'ra, o'limni qayd etishda marhumning pasporti, harbiy bilet, 16 yoshgacha vafot etganlarning esa – tug'ilganlik haqida guvohnomasi taqdim qilinadi. Bunda FHDYO organi xodimi (konsul) hujjatlarning birinchi sahifasiga o'lim haqidagi dalolatnama yozuvining raqami va sanasini yozadi.

Vafot etganlarning pasportlari va 50 yoshgacha vafot etganlarning harbiy biletlari har oyda bir marta, ro'yxat bo'yicha ichki ishlari organiga

va tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limiga topshiriladi, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar esa har chorakda bir marta, dalolatnama asosida yo‘q qilinadi.

O‘lim haqidagi dalolatnama yozushi qayd etilgach, ariza beruvchiga o‘lim haqida gerbli guvohnoma va qabristonga taqdim etish uchun tegishli namunadagi ma’lumotnama beriladi.

Temir yo‘l yoki avtomobil transportida sodir bo‘lgan o‘limni qayd etish o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnomaga asosan yaqinroq joydagi FHDYO organi yoki marhumning doimiy yashagan yoki vaqtincha turgan joyidagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. Havo yoki dengiz kemasida sodir bo‘lgan o‘limni qayd etish havo kemasi qo‘ngan joydagi yoki dengiz kemasi to‘xtagan portdagagi FHDYO organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o‘limini qayd etish sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnomasiga asosan shu muassasa joylashgan hududdagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hollarda o‘lim haqidagi dalolatnama yozuvidagi barcha ma’lumotlar o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnoma asosida ko‘rsatiladi va faqat qabristonga taqdim etish uchun ma’lumotnama beriladi.

O‘lim haqidagi gerbli guvohnoma faqat dalolatnama yozuvidagi yetishmaydigan ma’lumotlar to‘ldirilgandan keyingina beriladi.

---

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	3
----------------	---

### \*\*\* *I qism. FUQAROLIK HUQUQI* \*\*\*

#### UMUMIY QISM

##### *BIRINCHI BOB*

#### **FUQAROLIK HUQUQI VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA AHAMIYATI**

1-§. Fuqarolik huquqining predmeti va metodi.....	7
2-§. Fuqarolik huquqi tizimi va manbalari.....	9
3-§. Fuqarolik huquqining ichki ishlar organlari faoliyatida tutgan o'rni.....	17

##### *IKKINCHI BOB*

#### **FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI VA OBYEKTLARI. ICHKI ISHLAR ORGANLARI FUQAROLIK HUQUQINING ALOHIDA SUBYEKTI SIFATIDA**

1-§. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar va uning subyektlari.....	27
2-§. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar va uning obyektlari.....	45
3-§. Ichki ishlar organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida.....	51

##### *UCHINCHI BOB*

#### **BITIMLAR VA VAKILLIK. ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA BITIM VA VAKILLIKNING QO'LLANILISHI**

1-§. Bitim tushunchasi, turlari, shakllari va tasnifi.....	59
2-§. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va qo'llanish sohasi.....	71
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida bitim va vakillikning qo'llanilishi.....	76

*TO'RTINCHI BOB*

**FUQAROLIK HUQUQIDA MUDDATLAR VA DA'VO MUDDATI**

1-§. Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va uning mazmuni.....	79
2-§. Da'vo muddati: tushunchasi, ahamiyati va turlari. Da'vo muddati bilan bog'liq asosiy qoidalar.....	87

*BESHINCHI BOB*

**MULK HUQUQI. MULK HUQUQINI HIMoya QILISH USULLARI.  
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MULK HUQUQI**

1-§. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: tushunchasi, mazmuni, turlari va shakllari.....	100
2-§. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lishi asoslari.....	113
3-§. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari: tushunchasi va tizimi.....	118

*OLTINCHI BOB*

**MAJBURIYAT HUQUQI. ICHKI ISHLAR ORGANLARI  
MAJBURIYAT MUNOSABATLARINING TARAFI SIFATIDA**

1-§. Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchasi, majburiyatlarni vujudga kelish asoslari.....	126
2-§. Majburiyat taraflari.....	134
3-§. Majburiyatdagи shaxslarning o'zgarishi.....	139
4-§. Regress (qaytarma) majburiyat.....	142
5-§. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari.....	144
6-§. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari.....	154
7-§. Ichki ishlar organlari majburiyat munosabatlarining tarafi sifatida....	168

*YETTINCHI BOB*

**SHARTNOMA HAQIDA UMUMIY QOIDALAR. OLDI-SOTDI,  
AYIRBOSHLASH, HADYA SHARTNOMALARI. ICHKI ISHLAR  
ORGANLARI FAOLIYATIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR**

1-§. Shartnoma tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati.....	170
--	-----

2-§. Shartnomaning shakli, turlari va tuzish bosqichlari.....	172
3-§. Shartnoma obyekti, subyektlari hamda shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi.....	175

## MAXSUS QISM

1-§. Oldi-sotdi shartnomasi, uning tushunchasi, belgilari va turlari.....	178
2-§. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti.....	185
3-§. Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti.....	190

### *SAKKIZINCHI BOB*

## **MULK IJARASI, QARZ VA KREDIT SHARTNOMALARI**

1-§. Mulk ijarasi shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va taraflarning huquq va majburiyatlari.....	197
2-§. Qarz shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va turlari.....	215
3-§. Kredit shartnomasi va uning turlari.....	225

### *TO ‘QQIZINCHI BOB*

## **SUG‘URTA VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI**

1-§. Sug‘urta tushunchasi va uning ahamiyati.....	232
2-§. Sug‘urta shartnomasining turlari.....	238
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida sug‘urtani tutgan o‘rni va ahamiyati.....	250

### *O ‘NINCHI BOB*

## **ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR VA UNDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ISHTIROKI**

1-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) tushunchasi va xususiyatlari.....	252
2-§. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari.....	259
3-§. Ichki ishlar organlarining davlat organi va yuridik shaxs sifatida delikt javobgarligi.....	268

## *O'N BIRINCHI BOB*

### **INTELLEKTUAL MULK**

1-§. “Intellektual mulk” tushunchasi, obyektlari va ularni huquqiy muhofaza qilish asoslari.....	277
2-§. “Mualliflik huquqi” tushunchasi, tamoyillari va asosiy kategoriyalari.....	287
3-§. Intellektual mulk sohasida huquqbazarliklar tavsifi.....	299

## *O'N IKKINCHI BOB*

### **VORISLIK HUQUQI**

1-§. “Vorislik huquqi” tushunchasi va uning huquqiy asoslari.....	310
2-§. Vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik.....	315

### **\*\*\* II qism. OILA HUQUQI \*\*\***

## *O'N UCHINCHI BOB*

### **OILA HUQUQI VA UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI**

1-§. Oila huquqi: predmeti, vazifasi, tartibga soluvchi munosabatlari, asosiy prinsiplari, manbalari.....	329
2-§. Milliy qonunchilik bo‘yicha nikoh. Nikohni qayd etish va bekor qilish holatlari. Nikohni haqiqiy emas deb topish.....	345
3-§. Ichki ishlar organlarining oiladagi ba’zi nizoli vaziyatlardagi ishtiroki. Ichki ishlar organlari sektoridagi faoliyat. “Temir daftari”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish.....	354

## *O'N TO'RTINCHI BOB*

### **OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARНИ JOYLASHTIRISH VA UNDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING VAZIFALARI**

1-§. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: holat va oqibatlar.....	359
--	-----

2-§. Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish maqsadi, turlari va hisobga olish hamda joylashtirish.....	364
3-§. Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda ichki ishlar organlarining vazifalari hamda vakolatlari.....	373

*O‘N BESHINCHI BOB*

**FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARI VA ULARNI QAYD  
ETISH**

1-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: tug‘ilish.....	378
2-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: nikohni qayd etish.....	380
3-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: nikohdan ajratish.....	387
4-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari: o‘lim.....	392

**EGAMBERDIYEV Eminjon,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*  
    **OQYULOV Omonboy,**  
*yuridik fanlar doktori, professor,*  
*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist;*  
    **BARATOV Mirodiljon Xomudjonovich,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*  
    **KAMALOV Oybek Axmatovich,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*  
**MUXAMMADIYEV Ayub Abduraxmonovich,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*  
**CHORIYEV Murod Shokirjonovich,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*  
**KULDASHEV Nuriddin Abduganiyevich,**  
*yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
    **XOLMUMINOV Oybek Jumayevich,**  
*yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;*  
    **QILICHEV Xayrulla Mamatovich,**  
*yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

# FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

*DARSLIK*

Muharrir: **S. S. Qosimov**

---

Bosishga ruxsat etildi 07. 03. 2022. Nashriyot hisob tabag'i 25,0.

Adadi 30 nusxa. Buyurtma №

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
100197, Toshkent shahri Intizor ko'chasi, 68.